

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO‘LIMI  
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN  
AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2026-3/3  
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi  
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2026**

**Bosh muharrir:***Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.*  
*Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.*  
*Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.*  
*Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.*  
*Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.*  
*Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.*  
*Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.*  
*Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,*  
*Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.*  
*Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.*  
*Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.*  
*Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.*  
*Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.*  
*Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.*  
*Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.*  
*Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.*  
*Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.d., prof.*  
*Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.*  
*Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.*  
*Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.*  
*Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.*  
*Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.*  
*Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.*  
*Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc*  
*Karimov Ravshanbek Allayarovich, PhD, k.i.x.*  
*Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.*  
*Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.*  
*Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.*  
*Lamers Jon, q/x.f.d., prof.*  
*Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.*  
*Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.*  
*Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.*  
*Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.*

*Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD*  
*Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.*  
*Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent*  
*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.*  
*Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.*  
*Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.*  
*Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.*  
*Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.*  
*Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.*  
*Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.*  
*Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.*  
*Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD, dots.*  
*Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.*  
*Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.*  
*Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.*  
*Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.*  
*Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.*  
*Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.*  
*Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.*  
*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.*  
*Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.*  
*Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.*  
*Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.*  
*Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.*  
*Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.*  
*Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.*  
*O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.*  
*O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.*  
*Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.*  
*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*  
*Xudayberganova Durдона Sidiqovna, f.f.d.*  
*Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD*  
*Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent*

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№3/3 (136), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2026 y. – 251 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

## MUNDARIJA TARIX FANLARI

<b>Abdualimova Z.M.</b> Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi tarixini o‘rganishda kinohujjatlarning audiovizual manba sifatidafi o‘rni	6
<b>Abdullayev D.X.</b> O‘zbekiston SSRda ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda o‘rta maxsus ta‘lim tizimi holati	9
<b>Abraxmatova M.Yu.</b> Surxon-Sherobod vohasini o‘zlashtirishda suv tarmoqlarining o‘rni	12
<b>Anarbekova V.E.</b> Craft in “Kuntugmish” dastan: on the example of the peoples of Central Asia	15
<b>Axmadova N.A., Nazarova M.</b> O‘zbekistonning YUNESKO tashkiloti bilan fan va ta‘lim sohasidagi hamkorliklarining oshib borishi	20
<b>Badalova M.O.</b> Jamiyat modernizatsiyasida O‘zbekiston tarixi fani	23
<b>Bayqabilov X.M.</b> Poytaxt shaharlar: tarixiylikdan zamonaviylik sari	25
<b>Begamova N.X.</b> Mustaqillik yillarida Janubiy O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida innovatsion agrotexnologiya usullarining qo‘llanilishi	28
<b>Bokiyev B.U.</b> Mustaqillik yillarida O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining jamiyat ma‘naviy hayotini rivojlantirishdagi o‘rni	31
<b>Bokiyev B.U.</b> O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” asarida XX asrning ikkinchi yarmida O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining jamiyat ma‘naviy taraqqiyotidagi o‘rni haqida mulohazalar	33
<b>Buxorov J.</b> Dehqonobod tumanining ikkinchi urushidan keyingi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari	36
<b>G‘aniyeva M.S.</b> Yangilanayotgan O‘zbekistonda gender tengligi siyosatining ijtimoiy barqaror rivojlanishni ta‘minlashdagi roli: ijtimoiy-falsafiy tahlili	39
<b>Hamrayev O.Y.</b> Buxoro xonligidagi saroy unvonlari haqida ba‘zi mulohazalar	41
<b>Ibragimov S.B.</b> Temir davri O‘Rta Osiyo madaniyatlarining o‘rganilish bosqichlari	43
<b>Ibragimov S.B.</b> Bronza davrida Sopollitepa madaniyati va qo‘shni hududlardagi madaniy-etnik aloqalar	46
<b>Jabbarova I.X.</b> Qashqadaryo viloyatida irrigatsiya va suv xo‘jaligi rivojida Komil Amirovning o‘rni	49
<b>Madraximov Z.Sh.</b> Qo‘qon xonligi va Usmonlilar imperiyasi savdo aloqalari: tarix va tahlil	51
<b>Matyakubov I.B.</b> Forslarning Qadimgi Xorazmdan kelib chiqishi masalasi: tarixiy va lingvistik tahlil	54
<b>Matyakubov N.</b> Metropoliten jamoasining shakllanishi	56
<b>Matyusubova X.X.</b> O‘rta Osiyoda bronza davri yodgorliklarining o‘rganilish natijalari	59
<b>Mengniyazova N., Yormatov F.</b> O‘zbek do‘mbira san‘atining mustaqillikdan keyingi qayta tiklanish jarayonlari	62
<b>Miliyeva D.U.</b> Shahrisabz tumanida mustamlakachilik va mustaqillik yillarida maorif va madaniyat	65
<b>Mo‘yidinov D.A.</b> Temuriylar davri siyosiy hayotida daryo kechuvlari tavsifiga doir ayrim mulohazalar	68
<b>Norto‘rayev S.E.</b> Mustaqillik yillarida Qashqadaryoda radialoqa tizimining shakllanishi tarixi	71
<b>Omonova S.O.</b> Angliyada Styuartlar hukmronligining tiklanish davri va burjua tuzumining o‘rnatilishi oqibatlari	74
<b>Oqnazarova M.</b> O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida psixolog mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayoni	76
<b>Oripova M.V.</b> O‘zbekiston hududida neolit davri me‘morchilik maktabining vujudga kelishi va rivojlanish tarixshunosligi	78
<b>Otajonova M.Sh.</b> Xorazmda Shayboniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi va xonlik hokimiyatining mustahkamlanish	82

<b>O'ng'alov L.A.</b> Zardolisoy neolitdavri yodgorligi yig'ma materiallari uchrindilarning texnik – tipologik tahlili	85
<b>Poyanov I.A.</b> Sug'diyona hududidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarning shaharsozlik xususiyatlari	90
<b>Po'latova M.</b> Mangu jasorat timsoli - Qirg'iz qal'asi sun'iy intellekt nigohida	93
<b>Qalandarova M.T.</b> O'rta Osiyo shaharlarining vujudga kelishi tarixi	98
<b>Qayumov M.</b> Qarshi shahri ijtimoiy hayotining tarixiy rivojlanishi	101
<b>Raximova Sh.Sh.</b> O'zbekiston hududida shaharlar vujudga kelishining geografik va iqtisodiy omillari	104
<b>Sadullayeva S.A.</b> Xorazm vohasida lazgi raqsining o'rganilish tarixi	107
<b>Sattarov A.M.</b> XIX asr oxirida Turkiston aholisining demografik o'zgarishlari	109
<b>Turdiyev B.B.</b> Qoraqalpoq qo'shiqlari tarixiy manba	112
<b>Usmonov M.Sh.</b> Temuriylar davri renessansiga ba'zi chizgilar	115
<b>Xojaniyazova G.M.</b> Qoraqalpoq an'alarida nikoh marosimlarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari: "qalin mol" va qarindoshlar orasida yordam an'analari	118
<b>Xolmatova U.N.</b> Qang' davlati davrida Sug'dda tasviriy san'at, uning xususiyatlari	121
<b>Xosiyatov X.O.</b> Qashqadaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyi ikkinchi jahon urushi yillarida	124
<b>Xudaybergenov H.S.</b> O'zbekistonda hunarmandchilikning shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari	127
<b>Yarmatov F.J., Allanazarov M.M.</b> Buxoro xalq sovet respublikasi iqtisodiy kengashida kadrlar faoliyati masalalari tahlili	130
<b>Yormatov F., Egamov N.N.</b> O'zbekiston kutubxonalarini raqamlashtirilish borasidagi ilk qadamlar	132
<b>Yuldashev G.M.</b> Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasining faoliyati: xalqaro hamkorlik va madaniy almashinuv omillari	135
<b>Yuldosheva F.Ya.</b> O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar	138
<b>Yunusova D.M.</b> Xorazmshox-Anushteginiylar davrida ilm-fanning rivoji	141
<b>Yusupov I.S.</b> 1991-2021-yillarda O'zbekistonda telefon aloqa sohasini yangi bosqichga ko'tarilishi	144
<b>Zaripova M.X.</b> O'rta Osiyo hududida temir davri shahar madaniyatining iqtisodiy asoslari va ijtimoiy tuzilmalari	150
<b>Zayniddinova Sh.S.</b> Buxoroda 1920–1921 yillarda siyosiy boshqaruv organlari faoliyati	152
<b>Матякубов Ш.С.</b> Хива хонлигида ҳарбий бошқарув, мансаб ва унвонлар	154
<b>Ходжаева С.Н.</b> 1991-2016 йилларда Бухоро вилоятининг мусикий ҳаётдаги айрим ўзгаришлар	157
<b>Ҳақбердиева С.Ш.</b> Диний экстремизм ва терроризмда хотин-қизлар иштирокининг айрим жиҳатлари	160
<b>PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<b>Abdisattarova S.P., Tangirov X.T.</b> Biologiya fanini o'qitishda qushlar sinfi bo'yicha interfaol metodlardan foydalanish	164
<b>Berdikulova M.A., Abdulhamidova S.K.</b> Exploring english learners' experiences with mobile language-learning apps	167
<b>Ergasheva N.</b> Designing an a2-level english lesson on giving directions for 9th-grade students: a notional-functional and differentiated approach	170
<b>Eshonxo'jayev O.O.</b> Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida klinik farmakologiya fanini o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	173
<b>Halimova S.R.</b> From instructor to facilitator: The changing role of ESP teachers in AI-enhanced classrooms	175
<b>Ilyasov I.</b> Chet tillarini o'qitishning bugungi ahvoli: muammo va yechimlar	177
<b>Isanova V.O.</b> The role of technical vocabulary in developing professional communicative competence	180

<b>Jo'rabekova M.J.</b> Sun'iy intellektning talabalarda ingliz tili o'rganish motivatsiyasini rivojlantirishning shart-sharoitlari	184
<b>Jurayeva Kh.P.</b> Developing vocabulary skills in teaching english: innovative pedagogical approaches	186
<b>Kaljanova G.B.</b> PISA talablari asosida o'qituvchilarning o'qitish metodikasini rivojlantirish	189
<b>Khalilova F.Kh.</b> The pedagogical potential of game-based methods in developing classroom communication	192
<b>Khatamkulova Sh.S.</b> Chet tilini o'qitishda video resurslarni integratsiya qilish	195
<b>Komilova M.Q.</b> O'zbekiston ta'lim tizimida rus tili va adabiyotini o'qitishning zamonaviy holati va muammolari	198
<b>Kurbanova Sh.Sh.</b> "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" modulini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning samaradorligi	201
<b>Kurbanova Sh.Sh.</b> Raqamli ta'lim muhitining o'smirlar organizmi fiziologik ko'rsatkichlariga ta'siri va gigiyenik yondashuvlar	204
<b>Matnazarov A.R., Odamboyev I.F.</b> Ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt asosidagi raqamli ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik asoslari	207
<b>Mirzabayev X.R.</b> Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning interfaol usullari	210
<b>Moydinova Sh.</b> Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirish modeli	212
<b>Nabiyev S.R.</b> Kelajak soati darsini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish mexanizmlari	215
<b>Olimjonov S.A., Ne'matova U.X.</b> Nemis tili darslarida o'quvchilarining o'zaro muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish usullari	218
<b>Sobirjonova D.X.</b> Chet tili ta'limida til o'rganish uslublari va strategiyalari rolining vazifaga asoslangan keyvord tushunchasining ilmiy metodik talqini	220
<b>Sobirova O.H.</b> Effective lesson planning strategies for teaching english to young learners	224
<b>Sotvoldiyev Q.R.</b> Oliy ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sport turlariga (voleybol, basketbol, badminton) ixtisoslashtirib o'tish metodikasi	227
<b>Tojiev A.R., Rakhmonaliev A.A.</b> Strategic planning of internationalization in higher education institutions with evidence from Uzbekistan	229
<b>Umurzakova R.Z.</b> Gemorrogik diatezlar mavzusini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	233
<b>Балаболова Г.Г.</b> Дистанционное обучение в преподавании русского языка и литературы в ВУЗе	235
<b>Маматкулова Х.А.</b> Цифровая образовательная среда и место симуляционных технологий в обучении	238
<b>Наимова Д.К.</b> Феномен межкультурной интерференции в контексте развития поликультурной личности	241
<b>Ташматова Г.Р.</b> Использование техники моделирования в развитии коммуникативной компетенции студентов разного уровня владения языком	243
<b>Хасанова В.Х.</b> Особенности формирования профессиональной коммуникативной компетенции в техническом ВУЗе	246
<b>Хасанова В.Х.</b> Национальные ценности как основа образовательного контента	248

UO'K 930.2

**MIRZACHO'LNING O'ZLASHTIRILISHI TARIXINI O'RGANISHDA  
KINOHUJJATLARNING AUDIOVIZUAL MANBA SIFATIDAFI O'RNI**

*Z.M.Abdualimova, o'qituvchi, Guliston davlat universiteti, Guliston*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmida Mirzacho'l dashtini o'zlashtirish jarayonini o'rganishda hujjatli filmlarning ilmiy-tarixiy va audiovizual manba sifatidagi axborot imkoniyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, Toshkent kinostudiyasi tomonidan suratga olingan bir qator hujjatli filmlar asosida cho'l hududining agrar o'zlashtirilishi, irrigatsiya tizimlarining barpo etilishi, texnik modernizatsiya jarayonlari, paxtachilik xo'jaligi, shuningdek, madaniy va sport hayotining shakllanish bosqichlari rekonstruksiya qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Mirzacho'l, vizual manba, kinohujjat, hujjatli film, montaj listlari, sovet targ'iboti, irrigatsiya, tarixiy antropologiya, sotsial modernizatsiya.

**Аннотация.** В данной статье комплексно анализируются информационные и научно-исторические возможности документальных фильмов как аудиовизуальных источников при изучении процесса освоения Голодной степи во второй половине XX века. В частности, на материалах документальных фильмов, созданных в Ташкентской киностудии, осуществляется реконструкция процессов аграрного освоения пустынной территории, формирования ирригационных систем, технической модернизации, развития хлопководства, а также становления культурной и спортивной жизни региона.

**Ключевые слова:** Голодная степь, визуальный источник, монтажный лист, документальный фильм, советская пропаганда, ирригация, историческая антропология, социальная модернизация.

**Abstract.** This article comprehensively analyzes the informational and historical potential of documentaries as audiovisual sources for studying the development of the Hungry Steppe in the second half of the 20th century. Specifically, using documentary films produced at the Tashkent Film Studio, the process of agricultural development in the desert area, the development of irrigation systems, technological modernization, the development of cotton farming, and the emergence of the region's cultural and sporting life are reconstructed.

**Keywords:** Hungry Steppe, visual source, montage list, documentary, Soviet propaganda, irrigation, historical anthropology, social modernization.

Mirzacho'l Markaziy Osiyoning ekologik va iqtisodiy jihatdan murakkab, shu bilan birga strategik ahamiyatga ega hududlaridan biri hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmida mazkur mintaqa Sovet Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan yirik irrigatsiya hamda agrar o'zlashtirish siyosatining asosiy obyektiga aylantirildi. Ushbu jarayonni tarixiy nuqtai nazardan chuqur va kompleks tahlil etishda rasmiy ma'muriy hujjatlar bilan bir qatorda audiovizual manbalar katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ular orasida hodisa, jarayon hamda insonlarni qayd etuvchi hujjatli filmlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, u tasvir, ovoz va matnli talqinni birlashtiruvchi sintetik shakl sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy bilimlarning vizuallashuvi sharoitida hujjatli filmlar o'tmishni rekonstruksiya qilishda muhim manbaga aylanmoqda.

Tarixiy tadqiqotlarda hujjatli filmlardan foydalanish qat'iy manbashunoslik yondashuvini talab qiladi, chunki mazkur manba turi voqelikni bevosita qayd etuvchi kinoxronika, voqea ishtirokchilari yoki guvohlari bilan intervyu, rekonstruksiya sahnalari, arxiv materiallari, kadrtori matni kabi elementlar bilan bir qatorda mualliflik talqinini ham o'z ichiga oladi.[7]. Xronika "voqelikni aks ettirish" vositasi sifatida taqdim etilgan bo'lsa-da, montaj va tanlangan kadrlar orqali muayyan mafkuraviy obraz shakllantirilgan. Hujjatli filmlarda asosiy ta'sir mexanizmi bo'lgan montaj yordamida yetakchi obraz ideallashtirilgan, muammolar yashirilgan, muvaffaqiyatlar bo'rttirib ko'rsatilgan. Natijada hujjatli film "haqiqatni ko'rsatuvchi manba" emas, balki "haqiqatni shakllantiruvchi vosita"ga aylangan.[6].

Xususan, sovet davrida hujjatli filmlar davlat mafkurasini shakllantirish va omma ongini boshqarishning muhim vositasi bo'lgan hamda targ'ibot va mafkuraviy tarbiyaning markaziy mexanizmlaridan biriga aylantirilgan. Sovet targ'iboti hujjatli filmlarga bir qancha mafkuraviy vazifalarni yuklagan: partiya va davlat hokimiyatini xatti-harkatalarni legitimlashtirish, aholini mehnat va harbiy safarbarlikka chaqirish, kommunistik qadriyatlarni singdirish, tarixiy voqealarni yagona rasmiy talqin asosida yoritish orqali jamoaviy xotirani shakllantirish. Shu bois hujjatli film xronika qo'llanilganda birlamchi manba sifatida xizmat qilsa, rekonstruksiya va tahliliy hikoya ustun bo'lganda – ikkilamchi manba sifatida namoyon bo'ladi.[5.-394].

Hujjatli filmlarning manbahunoslik tahlili quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: uning yaratilish vaqti va sharoitini aniqlash; buyurtmachi va prodyuserlik tuzilmasini belgilash; vizual qator va montajni tahlil qilish; kadrorti matni va ritorikani o'rganish; yozma va arxiv manbalari bilan solishtirish; mafkuraviy markerlarni aniqlash. Tadqiqotchilar kinohujjatlar bilan ish ko'rganida ularning sahna uchun ishlangan jamoaviy ijod ekanini e'tiborga olishi zarur [4. – B.199].

Arxivlarda saqlanayotgan hujjatli filmlar bilan bir qatorda ularning montaj varaqlari ham o'ziga xos tarixiy manba sifatida xizmat qiladi. Montaj varaqlari filmning texnik-hujjatli asosini tashkil etib, ularda har bir sahnaning mazmuni, ishtirokchilar tarkibi, qo'llanilgan texnika vositalari, tabiiy muhit tavsifi, mehnat jarayoni hamda diktor matnlari batafsil va aniq qayd etiladi. Shu jihatdan ular tarixiy rekonstruksiya, texnik modernizatsiya jarayonlari, mehnat antropologiyasi hamda sovet davri mafkurasini vizual darajada o'rganish imkonini beruvchi muhim empirik manba sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekiston kinofotofono hujjatlari milliy arxivi fondidan Mirzacho'lning o'zlashtirish tarixini o'rganishga xizmat qiluvchi bir nechta hujjatli filmlar joy olgan. Shunday audivizual manbalardan biri Toshkent kinostudiyasi tomonidan 1962-yilda suratga olingan "Строительство в Голодной степи" ilmiy-ommabop filmidir [1]. Film senariysi mualliflari E. Ozerskiy, D. Bulgakov va A. Modorskiy bo'lib, rejissyor R. Raximboyev hisoblanadi. Film besh qismdan iborat bo'lib, uning umumiy metraji 1409,2 tasmani tashkil etadi.

Hujjatli filmning montaj varaqlari tahliliga ko'ra, film mazmunan uch asosiy tematik yo'nalishni qamrab oladi. Birinchi yo'nalishda tabiiy muhit tasviri berilib, film boshida qaqragan sahro, ilonlar, qushlar va shamol uchirgan qum uyumlari orqali hududning dastlabki holati – "och, quruq va hayot uchun yaroqsiz" makon sifatida talqin etiladi.

Ikkinchi yo'nalishda Mirzacho'lni xo'jalik jihatdan madaniylashtirish jarayoni aks ettirilib, suv tarmoqlari, kanallar, yangi qurilgan obodonlashtirish obyektlari, ishchilar mehnati, yoshlarning qurilish ishlaridagi ishtiroki, shuningdek, ekskavator va traktor kabi texnika vositalari hamda tajriba maydonlari ko'rsatiladi. Ushbu bosqich ilmiy-amaliy yondashuv va agrotexnik tajribalar orqali hududni agrar jihatdan o'zlashtirish jarayonini ifodalaydi.

Uchinchi yo'nalishda esa qahramon mehnatkashlar obrazi va ularning bayramona kayfiyati tasvirlanib, obodonlashtirilgan bog'lar va uzumzorlar, mehnat jarayonlari, pionerlar bilan uchrashuvlar, mehmonlarning tashrifi, stadionlarda o'tkazilgan sport musobaqalari, jumladan Paxtakor stadionidagi futbol uchrashuvlari orqali ijtimoiy faollik, quvonch, istiqbolga ishonch hamda davlat va partiya siyosatini targ'ib qiluvchi mafkuraviy mazmun aks ettiriladi.

Filmda qayd etilishicha, dashtni o'zlashtirish ishlari markazlashgan boshqaruv tizimi asosida tashkil etilgan bo'lib, ushbu jarayon bevosita Glavstepstroy (Bosh boshqarma) tomonidan muvofiqlashtirilgan, qurilish ishlariga esa SSSR Qishloq xo'jaligi vazirligi rahbarlik qilgan. Mazkur ma'lumotlar Mirzacho'lni o'zlashtirish davlat miqyosidagi yirik xo'jalik-siyosiy loyiha sifatida amalga oshirilganini tasdiqlaydi.

Dasht hududida shakllangan dastlabki shaharlardan biri Yangiyer bo'lib, aynan shu yerda Mirzacho'l dashtini sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha Bosh boshqarma joylashtirilgan. Ushbu boshqarma qurilish tashkilotlari tarmog'ini rivojlantirish bilan shug'ullangan hamda O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston hududlarida faoliyat yuritgan yirik qurilish trestlari uning tasarrufiga kiritilgan.

Montaj listlarda berilgan xaritalarda dashtni o'zlashtirish jarayoniga jalb etilgan asosiy hududlar sifatida Bekobod, Yangiyer, Jizzax, Mirzacho'l hamda Chinoz kabi shahar va hududlarning nomlari ko'rsatilgan bo'lib, bu jarayonning mintaqaviy ko'lamini yaqqol namoyish etadi.

1964-yilga oid "Sovet O'zbekistoni" nomli hujjatli filmi [2].ham Mirzacho'lni o'zlashtirish masalasiga bag'ishlangan. Montaj varaqlarida qayd etilishicha, filmda irrigatsiya tizimining keyingi bosqichlari, paxtachilikda hosildorlikning oshishi, suv resurslarining Bekoboddan yetkazib berilishi hamda qurilish va montaj qismlarining maxsus texnika vositalarida tashilishi kabi ishlab chiqarish jarayonlari hujjatli asosda yoritilgan. Shu tariqa film agrar-modernizatsiya ishlarining tashkiliy va texnik jihatlarini aks ettiruvchi muhim vizual manba sifatida namoyon bo'ladi.

1966-yilning sentabrigacha namoyishga chiqarilishi rejalashtirilgan "Толодная степь" hujjatli filmi[3].aynan cho'lni o'zlashtirish va paxta maydonlarini kengaytirish jarayonlariga bag'ishlangan bo'lib, unda Mirzacho'lning tabiiy-geografik, texnikaviy, mehnat, madaniy hamda sport hayoti kompleks tarzda yoritilgan.

Filmida Mirzacho'lning o'zlashtirishdan avvalgi tabiiy holati alohida sahnalar orqali tasvirlanib, dasht bo'ylab uchayotgan burgutlar, shamol ko'targan qum uyumlari hamda inson aralashuvidan xoli yovvoyi landshaft elementlari hududning dastlabki ekologik qiyofasini ochib beradi. Bunday kadrlar tarixiy-geografik rekonstruksiya uchun asosiy vizual dalil vazifasini bajaradi. Keyingi lavhalarda suv chiqarish tizimlari, kanallar va irrigatsiya tarmoqlarining barpo etilishi Mirzacho'lni dehqonchilikka moslashtirishning hal qiluvchi omili sifatida ko'rsatiladi. Mexanizatsiyalashgan texnikaning qo'llanilishi, ishlab chiqarish jarayonlarining zamonaviy shakllari esa kino tasviri orqali batafsil va tizimli tarzda hujjatlashtirilgan.

Shuningdek, filmida Mirzacho'lni o'zlashtirish jarayonida bevosita ishtirok etgan mehnatkashlar – traktorchilar Vasiliy Glazkov va Atlas Minibayev, sex boshlig'i Valentin Brezov, usta Sobit Umurzakov hamda dashtga birinchi lotokni olib kelgan Boris Kobzarlarning mehnati va tashabbuskorligi alohida ta'kidlanadi. Bundan tashqari, Quvondiq Abdurazzoqov va Rizamet ota kabi shaxslar obrazi orqali paxtachilik, uzumchilik, suv chiqarish hamda elektr uzatish tizimlaridagi amaliy mehnat jarayonlari ko'rsatib beriladi. Mazkur personajlar ko'pincha kolxozchilar, traktorchilar va mutaxassislar sifatida gavdalanitirilib, erkak va ayollarning teng mehnati, shuningdek, o'zbek, rus, tojik va qozoq millatlari o'rtasidagi hamkorlik orqali xalqaro do'stlik va internatsionalizm g'oyalari targ'ib qilinadi. Natijada inson mehnati sovetcha namunaviy "mehnat qahramoni" obrazi doirasida talqin etiladi.

Film syujetida bir million gektar yer maydonini o'zlashtirishga qaratilgan ulkan dastur ijrosi doirasida ijtimoiy infratuzilmaning shakllanish jarayonlari ham aks ettiriladi. Jumladan, kutubxona sahnalari, ommaviy sport musobaqalari va ayniqsa Paxtakor stadionida o'tkazilgan futbol o'yinlari, sportchilarning o'zaro bahslari hamda tomoshabinlarning hissiy holati orqali jamoaviylik, ijtimoiy integratsiya va umumiy ruhiy ko'tarinkilik muhiti vizual tarzda ifodalanadi. Ushbu lavhalar Mirzacho'lda shakllanayotgan yangi ijtimoiy-madaniy makonning muhim tasdig'i sifatida namoyon bo'ladi.

Filmida komsomol yoshlar, kolxozchilar hamda boshqa cho'lquvarlarning mehnat faoliyati alohida sahnalar orqali tasvirlangan. Qahramonlar aniq shaxslar sifatida – Mirsaliyev, Erbo'tayeva, Hamidov nomlari bilan, ularning ijtimoiy lavozimlari (brigadir, kolxoz raisi, kotib) ko'rsatilgan holda taqdim etiladi. Ularning nutqlari, kundalik faoliyati va ishlab chiqarishdagi ishtiroki orqali "sotsialistik mehnat qahramonlari"ning namunaviy obrazi shakllantiriladi. Diktor matnlari, davlar rahbari N. Xrushcheyovning paxtachilikka oid nutqlari hamda sotsialistik mehnat qahramonlari haqidagi mafkuraviy ifodalar filmning nafaqat hujjatli, balki mafkuraviy-targ'ibot vositasi sifatida ham xizmat qilganini ko'rsatadi. Har bir sahnada mehnat, fan va texnika yutuqlari partiya rahbarligi ostida amalga oshirilgan jarayon sifatida talqin qilinib, sovet modernizatsiya siyosati legitimlashtiriladi.

Bunday turdagi hujjatli filmlar, ayniqsa XX asr o'rtalaridagi sovet tarixini tadqiq etishda, hujjatli kinomatografiya asosida vizual manbalarni ilmiy muomalaga kiritish imkonini beradi. Ular orqali rejissyor va operatorlarning e'tibori qaratilgan obyektlar, tabiiy manzara va inson faoliyatining tasvirlanish uslubi, shuningdek, siyosiy-ma'naviy kontekstning qanday talqin etilgani aniqlanadi. Shu

jihaddan Mirzacho'lni o'zlashtirishga bag'ishlangan hujjatli filmlar tarixiy vizual manba sifatida alohida ilmiy qiymatga ega. Kadrlarda aks etgan sahnalar, yozuvlar va sharhlarni tahlil qilish tadqiqotchilarga sovet agrotexnik siyosati, ijtimoiy tashviqot mexanizmlari hamda modernizatsiya jarayonlarining haqqoniy amaliyotini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu sababli mazkur kinohujjatlar nafaqat madaniy meros namunasi, balki tarixiy antropologiya va ijtimoiy transformatsiyalarni o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida baholanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning ikkinchi yarmida Mirzacho'lning o'zlashtirish jarayonini o'rganishda kinohujjatli filmlar hamda ularga ilova qilingan montaj listlari muhim tarixiy-vizual manba sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat agrar melioratsiya, irrigatsiya inshootlari qurilishi, texnik modernizatsiya va paxtachilik xo'jaligining shakllanishi kabi iqtisodiy jarayonlarni, balki hududda yuz bergan ijtimoiy-demografik o'zgarishlar, mehnat madaniyati, kundalik turmush va mafkuraviy tasavvurlarni ham kompleks tarzda aks ettiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kinohujjatlar Mirzacho'lning tabiiy landshaftdan sug'orma dehqonchilik hududiga aylanish jarayonini bosqichma-bosqich vizual rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Ayniqsa, montaj listlarda qayd etilgan sahna tavsiflari, texnik tafsilotlar va diktora matnlari tarixiy-geografik, antropologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar uchun boy empirik material vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, mazkur manbalar sovet davri mafkurasi, "mehnat qahramoni" konsepsiyasi hamda davlat tomonidan olib borilgan modernizatsiya siyosatining targ'ibot mexanizmlarini ochib berishda ham muhim daliliy asos bo'lib xizmat qiladi. Natijada, kinohujjatlar an'anaviy yozma hujjatlar bilan bir qatorda mustaqil tarixiy manba turi sifatida ilmiy muomalaga kiritish Mirzacho'l tarixini yanada chuqurroq va xolisroq talqin etish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Kinofotofono hujjatlar milliy arxivi. Kinohujjatlar bo'limi. №1322. "Строительство в Голодной степи" hujjatli filmi. – Toshkent, 1962. – Kinohujjat, montaj listlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Kinofotofono hujjatlar milliy arxivi. Kinohujjatlar bo'limi. N-1396. "Голодная степь" hujjatli filmi. – Toshkent, 1966. – Kinohujjat, montaj listlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Kinofotofono hujjatlar milliy arxivi. Kinohujjatlar bo'limi. "Sovet O'zbekistoni" hujjatli film-jurnal. – Toshkent, 1964. – Kinohujjat, montaj listlari.
4. Shadmanova S.B., Yuldashev M.M. Tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 319 b.
5. Магидов В.М. Кинофотофонодокументы в контексте исторического знания. – М.: Российский государственный гуманитарный университет, 2005. – 394 с.
6. М.С.Звонарева. Документальное кино как исторический источник: особенности анализа И интерпретаций. 2019.-99с.
7. А. Головнев. Кинодокумент как исторический источник (на материалах советских документальных фильмов о Сахалине).

UO'K 908

## O'ZBEKISTON SSRDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMI HOLATI

*D.X.Abdullayev, mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston SSRda Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda o'rta maxsus ta'lim tizimining holati, uning rivojlanish bosqichlari va asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, texnikum va bilim yurtlari faoliyati, malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoni hamda ta'lim tizimidagi muammolar va o'zgarishlar haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston SSR, Ikkinchi jahon urushi, o'rta maxsus ta'lim, texnikumlar, bilim yurtlari, ta'lim tizimi, mutaxassislar tayyorlash, sovet davri, ta'lim siyosati.

**Аннотация.** В данной статье анализируется состояние системы среднего специального образования в Узбекской ССР в послевоенные годы после Второй мировой войны. Рассматриваются этапы её развития, деятельность техникумов и училищ, процесс подготовки квалифицированных специалистов, а также проблемы и изменения в системе образования.

**Ключевые слова:** *Узбекская ССР, Вторая мировая война, среднее специальное образование, техникумы, училища, система образования, подготовка специалистов, советский период, образовательная политика.*

**Abstract.** *This article analyzes the state of the secondary specialized education system in the Uzbek SSR in the years following the Second World War. It examines the stages of its development, the activities of technical schools and colleges, the training of qualified specialists, and the challenges and changes in the education system.*

**Keywords:** *Uzbek SSR, Second World War, secondary specialized education, technical schools, colleges, education system, training of specialists, Soviet period, educational policy.*

Sovet hokimiyati yillarida Oʻrta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralanish oʻtkazilgandan keyin Oʻzbekistonda hunar-texnika bilim yurtlari tarmogʻi tez suratlar bilan rivojlantirildi. Albatta, bu jarayon respublika sanoati, qishloq xoʻjaligi, qurilish sohasi bilan ham bevosita bogʻliq yedi. Bu sohalar uchun malakali ishchilarni tayyorlash ishi yangi tashkil yetilgan “Uzprofobr” boshqarmasi zimmasiga yuklatildi[1:11]. Oʻquv muassasalari sonini koʻpaytirish, yosh yigit-qizlarni oʻqishga jalb yetish natijasida 1928-1932-yillarda fabrika-zavod bilim yurtlari (FZU, FZO) da oʻquvchilar soni 800 nafardan (8 foizi xotin-qizlar) 8600 nafarga oshdi (16,9 foizi xotin-qizlar). Kichik shaharlarda bunday oʻquvchilarning 75-80 foizini mahalliy millat yoshlari tashkil etardi[2:144]. Bora-bora bunday bilim maskanlari oʻrta maxsus oʻquv yurtlari (texnikumlar)ga aylantirilgan edi. Ikkinchi jahon urushining suronli yillarida ham Oʻzbekiston SSR oliy oʻquv yurtlari va texnikumlar oʻz faoliyatini davom ettirdilar. Katta qiyinchiliklarga qaramay, ular sanoat, qishloq hoʻjaligi, maorif, tibbiyot va boshqa sohalar boʻyicha malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan chinakam manba boʻlib hizmat qildi, biroq sohaga urush davrining qiyinchiliklari, byudjet taqchilligi, shuning barobarida aholining turmish darajasining ogʻirlashuvi kabi muammolar oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmagan edi.

Oʻzbekiston SSR Maorif ministirligining 1943-yil 8-sentyabrdagi №907 sonli buyrugʻida 1943-yil 23-avgustdagi SSSR XKSning 13986-R buyrugʻidan kelib chiqib 1943-yil 1-sentyabrdan Toshkent birlashgan pedagogika va oʻqituvchilar instituti, Buxoro, Andijon, Qoʻqon va Xiva pedagogika uchilishilari bundan buyon Toshkent birlashgan ayollar pedagogika va oʻqituvchilar instituti, Muqimiy nomidagi Qoʻqon ayollar oʻqituvchilar instituti deya, Lenin nomli Toshkent ayollar pedagogika texnikumi, Stalin nomli Samarqand ayollar pedagogika texnikumi, Buxoro ayollar pedagogika texnikumi, Andijon ayollar pedagogika texnikumi va Sverdlov nomidagi Xiva pedagogika texnikumlari deb qayta nomlandi[5:26].

1943-1944 oʻquv yili uchun ayollar pedagogika oʻquv yurtlariga qabul rejasi quyidagicha belgilangan edi: Toshkent ayollar pedagogika institutiga 549 nafar, Toshkent birlashgan ayollar pedagogika va oʻqituvchilar institutiga 251 nafar, Qoʻqon ayollar oʻqituvchilar institutiga 246 nafar, Toshkent ayollar pedagogika texnikumiga 273 nafar, Samarqand ayollar pedagogika texnikumiga 233 nafar, Qoʻqon ayollar pedagogika texnikumiga 142 nafar, Andijon ayollar pedagogika texnikumiga 226 nafar, Buxoro ayollar pedagogika texnikumiga 278 nafar, Xiva pedagogika texnikumiga 160 nafar talaba qabuli belgilangan boʻlib, rejalar amalda bajarilgan edi[5:26/1].

Ikkinchi jahon urushidan soʻng erkaklar son jihatdan kamligi, ayollarni taʼlimga jalb etish darajasi pastligi sabab oʻqituvchilar tayyorlash tizimida kam sonli talabalar tahsil olgan. 1945-yili respublikada 10 ta pedagogika bilim yurtlari faoliyat koʻrsatgan va bu muassasalarning kunduzgi boʻlimlarda 736 nafar oʻqituvchi tayyorlangan[5:17]. 1947-1948 oʻquv yiliga kelib, bilim yurtlarini tamomlagan oʻqituvchilar soni kunduzgi boʻlimlarda 1033 nafarga va sirtqi boʻlimlarda 711 nafarga yetgan[6:31]. Pedagogika oʻquv yurtlarining sirtqi va kechki boʻlimlarida 1946 yilda 4,5 ming nafar oʻqituvchi oʻqigan boʻlsa, 1965 yilga kelib, ularning soni 12 ming nafarga yetgan[7:303].

Urushdan keyingi dastlabki yillarda bir qator yangi oʻrta maxsus oʻquv yurtlari oʻz faoliyatini boshladi. Birgina Qashqadaryo oblastida Qarshi madaniyat texnikumi, Qarshi va Yakkabogʻ qishloq xoʻjalik texnikumi, Qarshi maktabgacha bilim yurti va Shahrisabz pedagogika bilim yurti, Qarshi savdo texnikumi va boshqa oʻquv yurtlari tashkil etildi. Masalan, Qarshi shahrida N.I.Pirogov nomidagi Qarshi tibbiyot bilim yurti 1946-yilda ochilgan edi[9:72]. Bilim yurti umumiy va bolalar

muassasalari uchun tibbiyot hamshiralari, akusherlar, feldsherlar, feldsher-laborantlar, sanitar feldsherlar kabi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlab yetishtirgan edi. 1947-1948 o'quv yilida O'zbekiston SSR maorif ministrligiga qarashli uchilishlarida 6201 nafar talaba taxsil olgan[5:12].

1953-1954 o'quv yilida O'zbekiston SSRda 90 tadan ortiq texnikum va boshqa o'rta maxsus ta'lim maskanlari mavjud bo'lib, ularda 44,5 ming o'quvchilar taxsil olgan edi[5:32].

1954-1955 o'quv yilida O'zbekiston SSRdagi 100 ta texnikum va boshqa maxsus o'rta maktablarda 58 mingdan ortiq talaba o'quvchilar o'qib bilim malakalarini oshirdilar[10:64]. 1955-yilda 100 ta texnikum va boshqa maxsus o'rta ta'lim maskanlarida 58 ming kishi o'qidi (1914-yilda esa – bitta texnikum bo'lib, unda 86 kishi o'qigan edi)[10:64].

Respublikada o'rta maxsus ta'lim sohasi ham ancha rivojlanib, 1956-yilga kelganda 85 ta o'rta maxsus o'quv yurtlarida 55,3 ming o'quvchi yoshlar ta'lim-tarbiya oldi[11:232].

Respublikada 1958-yilga kelganda 86 ta maxsus o'rta o'quv yurtlari ishlab turgan edi. Shu jumladan 23 ta sanoat va qurilish bo'yicha, 4 ta transport va aloqa, 28 ta qishloq xo'jaligi, 8 ta iqtisodiyot va huquq, 11 ta sog'liqni saqlash, 1 ta jismoniy tarbiya va sport, 10 ta san'at va kinematografiya, 11 ta maorif o'quv yurtlari mavjud bo'lib, ularda 79 312 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya olgan edi[5:112].

Faqat 1957-1958 o'quv yilining o'zida maxsus o'quv yurtlariga 27522 nafar o'quvchilar qabul qilindi. Shulardan 11450 nafari sirtqi va kechki bo'limlarga qabul qilingan edi[5:7]. Bu davrda respublikada professional texnika o'quv yurtlarining tarmog'i ham keng rivojlandi. 1957-1958 o'quv yilida respublikada 80 ta professional-texnika maktablari bor edi. Shulardan 30 tasi qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash maktablari bo'lib, qolganlari esa surilish texnikumi, hunar maktablari bo'lib, ularda 22 ming nafar o'quvchi yoshlar tahsil olgan[11:232]. Bu o'quv yurtlari sanoat, qurilish, transport-alloqa va qishloq xo'jaligi uchun malakali ishchi kadrlar tayorlar edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda pedagogika bilim yurtlari ham ancha rivojlandi. 1956-1957 o'quv yilida pedagogika bilim yurtlarida o'quvchilar 6842 kishiga yetdi, ulardan 5018 nafari mahalliy millat yoshlari edi, shu jumladan 4109 nafari o'zbek qizlari edi. Pedagogika bilim yurtlarini 1946-yilda 465 kishi bitirib chiqqan bo'lsa, 1957-yili 3323 nafar o'quvchi yoshlar bitirdi[12:119].

1950-yillar o'rtalaridan pedagogika bilim yurtlarining bir qismi o'zbek boshlang'ich maktablariga rus tilidan va I-VII sinflarda jismoniy tarbiya dan dars berishga hamda bolalar uyi tarbiyachisi bo'lib ishlash layoqatiga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash uchun ixtisoslashtirildi. Boshlang'ich sinflardagi o'quv-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash maqsadida 1957-1958 o'quv yilidan respublika pedagogika institutlarida I-IV sinflarga o'qituvchilar tayyorlovchi fakultetlar ochildi. Shu munosabat bilan 1957-yildan boshlab, pedagogika bilim yurtlarining soni asta-sekin kamayadi.

Xullas, ko'rilayotgan davrda O'zbekiston SSRda xalq xo'jaligining barcha sohalarini talablaridan kelib chiqib, o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan malakali kadrlar bilan ta'minlovchi hunar-texnika ta'lim tizimini yo'lga qo'yishda bir qator ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qilindi. Shuningdek, bu davrda mahalliy millat yoshlarini o'rta maxsus ta'lim dargohlariga o'qishga tortish, o'rta maxsus ta'lim sohasida ham katta ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirilishga harakat qilindi. Lekin amalda rejalashtirilgan ishlar sifatli va samarali tashkil yetilmadi. Bu davrda ham ma'muriy buyruqbozlik siyosati yanada avj oldi, sifat emas, son ketidan quvish, kadrlar tayyorlash siyosatida ham ustuvor yo'nalish bo'lib qolgandi. Sovet hukumatining ta'limga munosabati, ta'lim-tarbiya jarayonining o'ta darajada mafkuralashtirilishi milliy qadriyatlarga e'tibor bermaslik, kadrlarning jamiyatdagi o'rniga nisbatan salbiy ta'sirini o'tkazdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Хурсандов, М. Х. Развитие профессионально-технического образования в Узбекистане / М. Х. Хурсандов. – Ташкент : Фан, 1973. – 135 с.
2. История рабочего класса Узбекистана : в 3-х т. / под ред. М. А. Ахуновой. – Ташкент : Фан, 1964. – Т. 1. – 412 с.
3. Дегтяр, Б. Т. Ўзбекистонда ўқув-педагогика адабиёти нашр қилиш тарихига доир (1936–1975) / Б. Т. Дегтяр, Н. Т. Хатамов. – Тошкент : Ўқитувчи, 1972. – 184 б.
4. Узбекистан за 40 лет советской власти : сборник статей / под ред. И. М. Муминова. – Ташкент : Государственное издательство УзССР, 1958. – 544 с.

5. Ўзбекистон Миллий архиви (Ўз МА). – Р-94-фонд. – 5-рўйхат. – 4139-иш. – 36-варақ.
6. Эргашев, Қ. Ўзбекистонда халқ таълимнинг ривожланиш тарихи / Қ. Эргашев. – Тошкент : Ўқитувчи, 1998. – 128 б.
7. Ўзбекистон ССР тарихи (қадимги даврлардан ҳозирги кунларгача) / муҳаррир И. М. Мўминов. – Тошкент : Фан, 1974. – 584 б.
8. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987 г. : статистический ежегодник. – Ташкент : Узбекистан, 1988. – 352 с.
9. Қашқадарё области : мақолалар тўплами. – Тошкент : Ўзбекистон, 1974. – 144 б.
10. Акрамов, З. Ўзбекистон халқ хўжалиги олтинчи беш йилликда / З. Акрамов. – Тошкент : Ўздавнашр, 1957. – 88 б.
11. Турсунов, Х. Ўзбекистон ССР тарихи : педагогика институтларининг тарих факультетлари талабалари учун ўқув кўлланма / Х. Турсунов, Н. Бекназаров. – Тошкент : Ўқитувчи, 1982. – 360 б.
12. Қодиров, Э. Ўзбекистонда халқ маорифининг 40 йил ичида эришган ютуқлари / Э. Қодиров. – Тошкент : Ўрта ва олий мактаб давлат нашриёти, 1957. – 156 б.

UO'K 626.8:631.6(575.14)

## SURXON-SHEROBOD VOHASINI O'ZLASHTIRISHDA SUV TARMOQLARINING O'RNI

*M.Yu.Abraxmatova, magistrant, Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi, Termiz*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola Surxon-Sherobod vohasida suv tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishini, shuningdek ularning vohaning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishidagi tarixiy rolini o'rganadi. XX asrda qurilgan sug'orish kanallari va omborlar (masalan, Uchkyzyl, Oqtepa, Topalan) orqali suv ta'minoti yer maydonlarini kengaytirish va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tarmoq, irrigatsiya, suv, resurs, melioratsiya, gidrotexnika, inshoot.*

**Аннотация.** *Данное исследование посвящено историческому развитию водных сетей в оазисе Сурхон-Шерабад и их ключевой роли в социально-экономических преобразованиях региона. Строительство ирригационных каналов и водохранилищ XX века, таких как Учкызыл, Оқтепа и Топалан, способствовало расширению орошаемых земель и повышению урожайности.*

**Ключевые слова:** *Сеть, ирригация, вода, ресурс, мелиорация, гидротехника, сооружение.*

**Abstract.** *This study examines the historical development of water networks in the Surxon-Sherobod oasis and their pivotal role in regional socio-economic transformation. The construction of irrigation canals and reservoirs in the twentieth century, such as Uchkyzyl, Oqtepa, and Topalan, expanded cultivated land and boosted agricultural productivity.*

**Key words:** *Network, irrigation, water, resource, melioration, hydraulic engineering, structure.*

**Kirish.** Markaziy Osiyo tarixida vohalar sivilizatsiyasining shakllanishi va taraqqiyoti bevosita suv resurslari bilan bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, janubiy hududlardan biri bo'lgan Surxon–Sherobod vohasi tabiiy-geografik sharoiti, iqlim xususiyatlari va daryo tizimlari bilan qadimdan sug'orma dehqonchilikka asoslangan xo'jalik modeli shakllangan makon sifatida ajralib turadi. Ushbu hududning o'zlashtirilishi suv tarmoqlari — daryo irmoqlari, sun'iy kanallar, suv omborlari va meliorativ inshootlar tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, irrigatsiya tizimi voha taraqqiyotining asosiy determinatsion omili sifatida namoyon bo'ladi.

Tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar Surxon vohasida qadimgi davrlardanoq sug'orish tizimlari mavjud bo'lganini tasdiqlaydi. Daryo suvlari asosida tashkil etilgan kanal tarmoqlari, yer osti suvlaridan foydalanish usullari va tabiiy buloqlar vohaning agrar o'zlashtirilishida muhim rol o'ynagan. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar (Abdimo'minov, N.Sh.Bobojonov va boshqalar) hududdagi mineral suv manbalari, suv omborlari va gidrotexnik inshootlarning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyatini kompleks yoritib, suv resurslarini boshqarish masalasining strategik dolzarbligini asoslaydi [2, B-125].

Surxon–Sherobod vohasining tabiiy sharoiti suvdan oqilona foydalanishni talab etadi. Iqlimning quruqligi, yog‘ingarchilik miqdorining cheklanganligi va yer resurslarining notekis taqsimlanishi irrigatsiya tizimining barqaror ishlashini hayotiy zaruratga aylantirgan. Shu bois, vohani o‘zlashtirish jarayoni tarixiy bosqichlarda suv tarmoqlarining kengayishi, meliorativ tadbirlarning takomillashuvi va gidrotexnik inshootlarning qurilishi bilan parallel ravishda kechgan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u Surxon–Sherobod vohasining o‘zlashtirilish jarayonini faqat agrar iqtisodiyot nuqtai nazaridan emas, balki ekologik barqarorlik, urbanizatsiya va hududiy rivojlanish kontekstida ham tahlil qiladi. Suv tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi vohada demografik o‘sish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining kengayishi hamda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Tadqiqot tarixiy manbalar, zamonaviy geografik va iqtisodiy tadqiqotlar hamda statistik ma‘lumotlarga tayangan holda suv tarmoqlarining voha taraqqiyotidagi o‘rnini ilmiy asoslashga qaratilgan.

Shunday qilib, Surxon–Sherobod vohasining o‘zlashtirilishi jarayonini suv tarmoqlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Irrigatsiya tizimi bu hududda nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosi, balki iqtisodiy barqarorlik va ekologik muvozanatni ta‘minlovchi strategik infratuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv voha tarixini yangi konseptual asosda qayta baholash imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Surxon–Sherobod vohasining o‘zlashtirilish jarayoni suv tarmoqlari rivoji bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, irrigatsiya tizimining evolyutsiyasi hududning iqtisodiy, demografik va ekologik o‘zgarishlarini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, vohaning tabiiy-iqlimiy sharoiti — yog‘ingarchilik miqdorining cheklanganligi va quruq subtropik iqlim hukmronligi — sug‘orma dehqonchilikni asosiy xo‘jalik modeli sifatida shakllantirgan. Shu bois suv tarmoqlari vohaning agrar o‘zlashtirilishida fundamental infratuzilma rolini bajargan.

Tarixiy manbalar va arxeologik ma‘lumotlar qadimgi davrlardanoq Surxon vohasida daryo irmoqlari asosida tashkil etilgan sun‘iy kanal tizimlari mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. O‘rta asrlarda va keyingi davrlarda esa irrigatsiya inshootlari takomillashib, sug‘oriladigan yer maydonlari kengaygan. XX asrda amalga oshirilgan meliorativ tadbirlar va suv omborlari qurilishi (jumladan, Oqtepa suv ombori kabi inshootlar) suv taqsimoti barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, suv tarmoqlari nafaqat qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish, balki vohada urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirishda ham muhim rol o‘ynagan. Sug‘orish tizimlarining kengayishi yangi aholi punktlarining shakllanishiga, demografik o‘sishga va ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishiga zamin yaratgan. Biroq suv resurslaridan ortiqcha va noto‘g‘ri foydalanish ayrim hududlarda tuproq sho‘rlanishi, ekologik muvozanatning buzilishi kabi salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirgan.

Tahlil natijalari quyidagi ilmiy xulosalarni asoslaydi:

Surxon–Sherobod vohasining tarixiy o‘zlashtirilishi suv tarmoqlari rivojiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan; irrigatsiya tizimi vohaning iqtisodiy tayanchi hisoblanadi.

Gidrotexnik inshootlarning qurilishi va meliorativ tadbirlar sug‘oriladigan yer maydonlarini kengaytirib, agrar ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qilgan.

Suv resurslarini boshqarish tizimi hududiy barqaror rivojlanishning strategik omili bo‘lib, ekologik xavfsizlik bilan chambarchas bog‘liqdir.

Zamonaviy sharoitda suv tarmoqlarini modernizatsiya qilish, suvni tejavchi texnologiyalarni joriy etish va ilmiy asoslangan boshqaruv modelini shakllantirish vohaning istiqboldagi taraqqiyotini belgilovchi asosiy yo‘nalishdir.

Umumiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, Surxon–Sherobod vohasini o‘zlashtirish jarayoni suv tarmoqlari evolyutsiyasi bilan uyg‘un holda kechgan va hududning iqtisodiy-geografik qiyofasini shakllantirgan. Suv infratuzilmasi vohada nafaqat agrar ishlab chiqarish, balki ijtimoiy barqarorlik va urban rivojlanishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli suv resurslarini barqaror boshqarish vohaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi bo‘lib qoladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Surxon–Sherobod vohasining tabiiy-geografik sharoiti suv resurslariga bevosita bog‘liq bo‘lib, vohaning tarixiy o‘zlashtirilishi irrigatsiya tizimlari va tabiiy suv manbalari

bilan chambarchas aloqador. Taqdim etilgan zamonaviy tadqiqotlar hududning gidrologik salohiyatini, suv omborlari tizimini hamda mineral suv resurslarini kompleks o'rganishga qaratilgan.

T.A.Abdimo'minovning 2022–2024-yillardagi ilmiy ishlari Surxondaryo hududidagi mineral va shifobaxsh suv manbalarini ilmiy-geografik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan [1, B-194-196]. Xususan, "Surxondaryoning mineral suvli buloqlarini o'rganish va kartalashtirish masalalari" maqolasida hududdagi tabiiy suv manbalari kartografik usulda tasniflanib, ularning iqtisodiy va rekreatsion ahamiyati ochib beriladi. Bu yondashuv suv resurslarini faqat qishloq xo'jaligi omili sifatida emas, balki turizm va sog'liqni saqlash salohiyati bilan bog'liq kompleks resurs sifatida ko'rish imkonini beradi.

Muallifning "Mineral va shifobaxsh suvlar haqidagi bilimlarning Yevropa va Markaziy Osiyoda rivojlanish tarixi" nomli tadqiqoti esa suv manbalarini o'rganishning tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilib, ilmiy an'analar va amaliy foydalanish o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Bu metodologik jihatdan muhim bo'lib, vohaning suv resurslarini o'zlashtirish tarixini zamonaviy ilmiy paradigma asosida baholashga xizmat qiladi.

T.A.Abdimo'minov [1, B-194-196] tomonidan yozilgan "Suv omborlar va ulardan foydalanish istiqbollari (Oqtepa suv ombori misolida)" maqolasi Surxon–Sherobod vohasida suvni tartibga solish va qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlashdagi muhim mexanizmlarni tahlil qiladi. Suv omborlari nafaqat sug'orish tizimini barqarorlashtiradi, balki sel xavfini kamaytirish, gidroenergetika va ichimlik suvi ta'minotida ham strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot vohaning o'zlashtirilishida gidrotexnik inshootlarning hal qiluvchi rolini ilmiy asoslaydi.

N.Sh.Bobojonovning Surxondaryo viloyati suv resurslari haqidagi maqolasi hududning umumiy gidrologik balansini, suvdan foydalanish ko'rsatkichlarini va muammolarini tahlil qiladi [2, B-125]. Muallif suv taqchilligi, irratsional foydalanish va ekologik muvozanat masalalarini ko'tarib, barqaror suv boshqaruvi zarurligini asoslaydi. Bu esa vohaning uzoq muddatli o'zlashtirilish strategiyasida suv tarmoqlarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

F.A.Gapparov, D.V.Nazaraliev, S.R.Mansurovlarning urbanizatsiya jarayonlari haqidagi tadqiqoti bevosita irrigatsiyaga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, suv resurslari va urban rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib beradi [3]. Urbanizatsiya jarayoni suv infratuzilmasining kengayishi va ekologik muvozanatni saqlash zaruratini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, Surxon–Sherobod vohasining o'zlashtirilishi faqat agrar soha bilan cheklanmay, urban makonlarning rivojlanishi bilan ham uzviy bog'liq ekanligi ko'rinadi.

Tahlil qilingan manbalar shuni ko'rsatadiki, Surxon–Sherobod vohasini o'zlashtirish jarayonida suv tarmoqlari — tabiiy buloqlar, irrigatsiya kanallari, suv omborlari va gidrotexnik inshootlar — asosiy determinatsion omil bo'lgan. Zamonaviy tadqiqotlar suv resurslarini faqat agrar ishlab chiqarish vositasi sifatida emas, balki iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy rivojlanishning integrallashgan omili sifatida baholaydi [4, B-103].

Biroq mavjud adabiyotlarda tarixiy irrigatsiya tizimlari bilan zamonaviy gidrotexnik infratuzilma o'rtasidagi uzviylik yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Shu sababli, kelgusidagi tadqiqotlar tarixiy-arxeologik, geografik va iqtisodiy tahlillarni birlashtirgan interdisipliner yondashuvni talab etadi.

**Xulosa.** Surxon-Sherobod vohasining tarixiy o'zlashtirilishi va barqaror rivojlanishi suv tarmoqlari evolyutsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Vohaning tabiiy-iqlimiy sharoiti — yog'ingarchilikning kamligi, yuqori bug'lanish darajasi va notekis gidrologik taqsimot — irrigatsiyani asosiy xo'jalik tayanchiga aylantirgan. Shu bois kanal tizimlari, suv omborlari, meliorativ va gidrotexnik inshootlar vohaning agrar ishlab chiqarishi, demografik o'sishi hamda urban makonlarining shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lgan.

Tarixiy bosqichlar kesimida irrigatsiya infratuzilmasining kengayishi sug'oriladigan yer maydonlarining ortishi, hosildorlikning oshishi va bozor aloqalarining faollashuvi bilan birga kechgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdimo'minov T.A. (2023). Surxondaryo viloyatida mineral buloq suvlaridan foydalanish masalalari. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari 2 (UDK: 911.3:33), 194-196.

2. Bobojonov N.Sh. Surxondaryo viloyatining suv resurslari va ulardan foydalanish masalalari // Экономика и социум. 2024. №10-2 (125).

3. Gapparov F.A., Nazaraliev D.V., Mansurov S.R. Suv omborlaridan foydalanish. Toshkent-2019.

4. Homidova D. Sho'rk'o'l suv omborining texnik holati // Экономика и социум. 2022. №12-1 (103).

UDC: 39(575.2)(082)

## CRAFT IN “KUNTUGMISH” DASTAN: ON THE EXAMPLE OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA

V.E.Anarbekova, Associate Professor, Candidate of Historical Sciences, Jalal-Abad International University, Jalal-Abad, Kyrgyz Republic

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek xalq dostoni “Kuntug'mish”dagi hunarmandchilik madaniyati timsollari etnografik usul yordamida talqin qilinadi. Kuntug'mish va Xolbekaning kampir uyida palos va po'stak (po'stak — teridan yasalgan to'shama) ustida o'tirganiga oid epizod asosida palosning xomashyo bazasi (jun, paxta, ipak, tuya juni, zig'ir, kanop), uning qo'llanish sohalari hamda o'rta asrlardagi diniy va motam marosimlaridagi ramziy vazifalari haqidagi ma'lumotlar tizimlashtiriladi. Paxta ipini yigirish motivi orqali palos chetini paxta bilan mustahkamlash, uni qurumdan asrash va sep tarkibiga kiritish amaliyotlari ko'rib chiqiladi. Bu ma'lumotlar paxtaning O'rta Osiyoda milodiy III–IV asrlardan boshlab tarqalgani haqidagi arxeobotanik dalillar bilan qiyoslanadi. Po'stak (bo'stak) teridan yasalgan to'shama sifatida ta'riflanib, uning etimologiyasi va moddiy turlari keltiriladi. Kavush (kepich)ning bichilishi, bezatilishi va materiallarining o'ziga xos jihatlari hamda u bilan bog'liq ijtimoiy-diniy cheklovlar tahlil qilinib, hududlararo aloqalar belgilari aniqlanadi. Shuningdek, maxsining, jumladan, tilla va kumush iplar bilan kashta tikilgan namunalarning shahar modasidagi o'rni va bozor orqali tarqalishi alohida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** “Kuntug'mish” dostoni, etnografiya, palos, paxta, po'stak, kavush, mahsi, O'rta Osiyo, o'zbek.

**Аннотация.** В статье интерпретируются образы ремесленной культуры в узбекском народном дастане «Кунтугмиш» с применением этнографического метода. На основе эпизода, где Кунтугмиш и Холбека сидят в доме старухи на паласе и пөстөк (пөстөк — кожаная подстилка), систематизируются сведения о сырьевой базе паласа (шерсть, хлопок, шёлк, верблюжья шерсть, лён, пенька), сферах его использования и символических функциях в средневековых религиозных и траурно-поминальных обрядах. Через мотив прядения хлопковой нити рассматриваются практики укрепления края паласа хлопком, его защиты от копоthи и включения в состав приданого. Эти данные соотносятся с археоботаническими свидетельствами о распространении хлопка в Средней Азии с III–IV вв. Пөстөк (бостек) определяется как кожаная подстилка, приводятся его этимология и материальные варианты. Анализируются особенности раскроя, декорирования и материалов кавуша (кепич), а также связанные с ним социально-религиозные ограничения, выявляются признаки межрегиональных связей. Отдельно рассматривается место махси (маасы), в том числе образцов с вышивкой золотыми и серебряными нитями, в городской моде и их распространение через рынок.

**Ключевые слова:** дастан «Кунтугмиш», этнография, палас, хлопок, пөстөк, кавуш, махси, Средняя Азия, узбек.

**Abstract.** This article deals with the images of handicraft culture in the Uzbek folk dastan Kuntugmish using an ethnographic approach. Drawing on the episode in which Kuntugmish and Kholbeka sit in an old woman's house on a palas and a pöstök (pöstök is a leather underlay), the study systematizes data on the raw-material base of the palas (wool, cotton, silk, camel wool, flax, hemp), its spheres of use, and its symbolic functions in medieval religious rites and funeral–commemorative practices. Through the motif of spinning cotton thread, the article examines practices of reinforcing the edges of the palas with cotton, protecting it from moth, and including it as part of the bride's dowry. These findings are correlated with archaeobotanical evidence indicating the spread of cotton in Central Asia from the 3rd–4th centuries CE. The pöstök (bostek) is defined as a leather underlay; its etymology and material variants are presented. The article analyzes the

*tailoring, decoration, and materials of kavush (kepich) footwear, as well as the associated socio-religious restrictions, and identifies indications of interregional connections. Particular attention is paid to the place of mahsi (maasy)—including examples embroidered with gold and silver threads—in urban fashion and to their dissemination through market exchange.*

**Keywords:** *Kuntugmish dastan, ethnography, palas, cotton, pöstök, kavush, mahsi, Central Asia, Uzbek.*

**Introduction.** Folklore heritage—especially epic and dastan texts—constitutes an important source not only for understanding a society’s worldview but also for reconstructing the material culture of everyday life (household furnishings, weaving products, footwear, leatherworking, and their patterns of use). When the object-related details contained in such texts are examined through a historical-ethnographic methods, they make it possible to reconstruct everyday practices of a given period, markers of social status, and symbolic functions within the context of customary rituals. The relevance of these issues is clearly demonstrated by a specific episode in the dastan *Kuntugmish*. While searching for Kholbeka, Kuntugmish enters an old woman’s house, where the narrative depicts the characters sitting on a *pöstök* spread over a *palas*. This particular scene, which encapsulates elements of material culture, serves as the focus of the present historical-ethnographic analysis.

**The aim of this research** is to provide an ethnographically grounded interpretation of craft-related imagery in the Uzbek folk dastan *Kuntugmish*—specifically the *palas*, *pöstök* (*bostek*), *kavush/kepich*, and *mahsi* (*maasy*)—and to systematize their material, functional, and socio-symbolic characteristics. To achieve this aim, the research sets the following objectives:

1. to analyze the raw-material base of the *palas*, its spheres of use, and its ritual functions;
2. to define the *pöstök* (*bostek*), describe its material variants, and clarify its terminology;
3. to identify the structural features of the footwear tradition associated with *kavush* (*kepich*) and *mahsi* (*maasy*), as well as the relevant social constraints;
4. to correlate the cotton motif in the dastan with archaeobotanical evidence in order to substantiate the historical plausibility of the information presented in the text.

**Research methods.** A comprehensive ethnographic–historical approach is employed to provide a scholarly interpretation of object-related details of material culture in the dastan. **Textological and contextual analysis** is used to identify the contexts of use and narrative functions of such items as the *palas*, *pöstök*, *kavush/kepich*, and *mahsi*. **Ethnographic interpretation** involves explaining these objects’ everyday functions (household use, customary rituals, dowry practices, mourning rites, and markers of social status) through comparison with relevant ethnographic evidence. **Historical-comparative analysis** is applied to situate the information presented in the dastan within its historical context by comparing interregional parallels and variant forms of key terms.

**Discussion.** From the overall plot of the dastan, the analysis focuses on only three sentences that reflect aspects of traditional handicraft. The **first** is: “Searching for Kholbeka, Kuntugmish met an old woman and crawled through a small opening into her doorless house; he then sat down, placing in front of him a worn *pöstök* laid over a *palas*” [10, 146]. The **second** sentence describes how the old woman led Kuntugmish and Kholbeka down into the cellar, closed the cellar, placed her *pöstök* over it, and—becoming agitated—sat spinning cotton thread on her *charkh* (spinning wheel) [10, 165]. The **third** sentence states: “Zamongul hurriedly ran out, struck her forehead against the threshold, and left with one *kavush* (*kölöchu*) on her foot while the other remained inside” [10, 150]

On the basis of the examples above, we sought to trace—through historical and ethnographic sources—the ways in which the *palas* and *pöstök* were produced and used. In general, a *palas* is woven from threads spun from wool, cotton, silk, camel wool, and canvas (hemp). In traditional everyday life, *palases* were widely used to cover floors and roofs, and people would wrap clothing and other household items in them for storage or transport. From the medieval period, *palases* also came to occupy a distinctive place in religious observances and mourning rites. When rulers and their relatives were buried, the minarets of mosques were covered with *palas* cloth. Because *palas* was also used as a garment in religious rites, a special ceremony governing the wearing of *palas* emerged.

During the medieval period, *palases* served as a principal element of interior decoration in houses, yurts, caravanserais, as well as in mosques and palaces. *Palas* fabric was also widely used for sewing garments and for various household items. Regardless of the owner's economic condition or social status, *palases* could be found in virtually every household. They were used as curtains, tablecloths, and coverings (blankets and protective covers), and were also employed for decorating walls [20, 36].

In E. G. Tsareva's studies, it is noted that Arabs introduced the art of carpet weaving to the Karshi and Kashkadarya region (southern Uzbekistan). Karshi *palases* are considered "the most delicate and exceptionally durable in terms of the beauty of their ornamentation and the harmonious selection (combination) of multicolored threads" [22, 274]. According to researchers who have examined the settlement of Arabs in Central Asia, in the nineteenth and twentieth centuries several small Arab groups—descendants of migrants who arrived between the eighth and fourteenth centuries—lived in the region [1, 127; 2, 276; 6, 582-596; 18; 11, 104]. It may also be added that the inflow of Arab nomadic groups into this area continued later, up to the beginning of the twentieth century [22, 276].

Among Central Asian Arabs engaged in carpet making, sheep's wool served as the primary material. In addition, camel wool was used, and in certain cases goat wool and cotton as well [22, 298]. In the dastan, the old woman leads Kuntugmish and Kholbeka down into the cellar, closes the cellar, places her *pöstök* over it, and—becoming agitated—sits spinning cotton thread on her *charkh* (spinning wheel) [10, 165]. This, in turn, provides evidence that cotton thread was also used in the production of *palases*. Specifically, the edges of woolen *palases* were reinforced with cotton thread in order to protect them from moth damage [22, 298]. In addition, *kilem/palases* woven entirely from cotton were included as part of girls' dowries [AFM, 1].

A.F. Middendorff noted that cotton is a very ancient cultivated plant (with the designation *keton*—*coton*, *cotton*—in Semitic languages) and that it reached Central Asia much earlier; he also mentions the cotton plant (*khuzā*), and observes that cotton paper, along with the craft of papermaking from cotton, spread from China to Spain along Arab routes via Samarkand. He further reports that when he arrived in Kokand (1878), two factories producing writing paper were already in operation [13, 605]. Archaeobotanical research likewise indicates that cotton was present in Central Asia from at least the fourth century. In the study by Mir-Makhamad et al [12, 124], it is reported that charred cotton seeds recovered from excavations in the Bukhara region occur in the earliest strata, dated to the 3rd–4th centuries CE. Bukhara and its surroundings were historically a major center of garment production [21, 18–21, 28–29]. Cotton seeds have also been identified at Paykend in Qarakhānid-period layers (10th–12th centuries CE, Uzbekistan) (Mir-Makhamad et al., 2021) [12, 13]. Accordingly, the depiction of the old woman spinning cotton thread in the episode cited above provides a plausible indication that *palases* could be woven using cotton during the Qarakhānid period.

*Pöstök* (*bostek*) is a ground covering made from tanned and processed leather [7, 271]. The term *bostek* is glossed as "a leather layer laid in front": in Tajik, *pust* means "skin," and *tak* denotes the "base" or "lower side" [3, 13-14]. A *pöstök* is typically made from sheepskin or foal skin. Another variant is known as *talpak*, which is most often produced by tanning and curing goatskin, since goatskin is durable and resilient and is therefore well suited for frequent dragging and everyday use indoors [AFM, 2].

The dastan also mentions *kavush* (*kölöch*) [10, 150]. *Kepich* is an old type of footwear made of leather and hand-formed on a last. Its upper part is shaped, the edges are stitched with sinew, and a thin wooden insert is placed inside. The sole and low heel are fastened to the insole with wooden pegs, and the shoe is made without a tongue or laces. To reduce weight, the interior of the heel is left hollow. The *kepich* worn by young people—especially girls and young women—was decorated with carved patterns and ornamental elements. *Kepich* was worn over *maasy* and was very comfortable for walking [7, 149]. In T. G. Emelyanenko's research, it is noted that in the nineteenth century the local population (Uzbeks and Tajiks) refused to buy rubber galoshes that could replace the traditional *kavush* and were similar to it in style. The reason, according to Emelyanenko, was that the

manufacturer's name was stamped on the underside of the heel, and in Islam it was considered improper to "trample" such writing underfoot [5, 25].

Among the sedentary population of Central Asia—particularly Uzbeks and Tajiks—the most widespread type of footwear was the *kavush* shoe. Several cutting patterns were used, and the shoes were sewn from different materials depending on the customer's financial means. The most expensive and prestigious *kavush* were those whose upper part (vamp) was made of velvet embroidered with gold and silver threads. In the second half of the nineteenth century, footwear embroidered with gold thread—like garments—was reserved exclusively for the emir, members of his family, and officials of various ranks [16, 110]. However, by the end of the nineteenth century, as the authority of local rulers declined, the population increasingly ignored the prohibitions on the use of such materials, and gold-embroidered footwear began to appear in the dress of wealthy urban residents.

The shoes of merchants and craftsmen were made from various grades of leather (including *yuft*—a specially treated thick, strong, oil-tanned leather, most often cowhide, valued for its durability and moisture resistance and used for boots, *kepich*, belts, bags, etc.; *shagren*—a specially processed, textured leather with a characteristic granular surface, often prized for decorative purposes; and *suede*—a soft, napped leather with a velvety pile on one side). In addition to gold and silver threads, valuable materials used for making footwear included velvet, silk, shagreen, *parcha* (brocade), and broadcloth. Wealthy urban men and women wore *kavush kundal*—shoes made of *parcha* (brocade).

In the Fergana Valley and the Bukhara region, *kavush* and *mahsi irokhi*—embroidered shoes and soft boots—were especially popular among these social strata. They were entirely ornamented with fine half-silk threads and sewn by craftsmen from Shahrisabz [4, 108]. In the traditional women's and men's attire of various Turkmen tribal groups, a type of shoe known as *gyrma kaush* formed an integral component. These shoes featured a heel with a tread shaped like the numeral "8" and were fitted with a wedge heel (a single, continuous heel-and-sole unit rising upward in an inclined form from the bottom).

Its curvilinear ornamentation was complemented with metal studs (rivets), leather tassels, silver elements, and silk. This footwear was produced either in craft centers of the Amu Darya valley or in northeastern Iran. Because *gyrma kaush* was quite expensive even for wealthy pastoralists, it was worn mainly on festive occasions and during wedding ceremonies [14, 141]. Among the Khorezm Uzbeks, low boots made of red broadcloth (a densely woven, thick woolen fabric), known as *kzyly maasy* ("red maasy"), [15, 102] were produced. Thin leather strips were inserted into the joining seams, and the upper part was decorated with a leather mosaic. [19, 33] In Samarkand, *mahsi* made from leather of various colors and from velvet were embellished with embroidery in gold and silver threads. Such footwear was produced throughout Tajikistan, with cities such as Kulob, Gharm, Karatag, Isfara, and others serving as major centers of shoemaking.

According to the sources, this type of footwear spread in Mountainous Tajikistan no earlier than the second half of the nineteenth century, and because of its high cost it was used primarily among wealthy elites and propertied social groups. Among the Turkmen, this type of *mahsi* was used mainly within the Khiva oasis. It was adopted from the Uzbeks and was purchased only by affluent pastoralists [19, 34]. Although *mahsi* produced by Tatar craftsmen did not differ greatly in cut from Central Asian models, they became widely popular among segments of the affluent elite in the Fergana Valley due to their high-quality workmanship and ornate, vivid decoration. In the early twentieth century, large quantities of so-called "Kazan mahsi," sewn in Kazan from small pieces of saffian leather (a thin, exceptionally soft, high-quality leather, most often made from goat or sheep skin) in various colors, began to be imported into Central Asia. As a result, they also entered the dress practices of broader urban strata. Soft *mahsi* began to be made from patent leather produced in Russia. For this reason, this footwear came to be called *amerikon mahsi* (*mahsi amerikon*), that is, "American boots" [17, 16]

The largest center of shoemaking was Tashkent. There, *mahsi* were made from black or red leather, with heels faced in green shagren (a high-quality, specially processed leather with a fine, pebbled texture, often made from goat or sheep skin). This footwear became widespread not only in Uzbekistan but also in Kyrgyzstan and Kazakhstan. Kazakh and Kyrgyz people purchased such shoes

mainly from the Semirechye (Zhetysu) region, where goods produced by Tashkent craftsmen were sold [8, 157]. Thus, in the nineteenth century, high-quality footwear produced by shoemakers from expensive materials—known as *mahsi/maasy/mesi* and *kavush (kölöch)*—was well known throughout Central Asia.

**Conclusion.** The ethnographic analysis undertaken demonstrates that the object-related details in the dastan *Kuntug'mish* are not merely “ornamental descriptions” within a folklore narrative; rather, they contain a reliable stratum of information about the traditional material culture and craft practices of Uzbek society. The image of the *palas* in the dastan—considered through the diversity of its raw materials, the breadth of its uses, and its symbolic functions in mourning and religious rites—has been systematized anew, substantiating the *palas* as a significant cultural marker both in everyday life and in ritual contexts. The motif of spinning cotton thread makes it possible to clarify the role of cotton as an auxiliary material in *palas* production (reinforcing the edges, protecting the textile from moth damage, and incorporating it into a bride's dowry). Correlating this episode with archaeobotanical evidence strengthens the historical plausibility of the information conveyed in the text.

The concept of *pöstök (bostek)* is defined as a leather ground covering; by outlining its terminological and material variants, the study interprets it as a distinctive detail that characterizes the domestic space depicted in the dastan. The analysis of *kavush/kepich* and *mahsi (maasy)* as elements of footwear culture elucidates key structural features of shoemaking, techniques of decoration, and associated socio-religious constraints. It also substantiates the status of gold- and silver-thread embroidered examples within urban fashion, their dissemination through market-based exchange, and the indicators by which they reflect interregional connections.

In conclusion, the *palas-pöstök-footwear* complex in the dastan *Kuntug'mish* emerges as an ethnographically informative system that integrates several branches of traditional craftsmanship, including weaving/carpet making, leatherworking, and shoemaking. This approach demonstrates that folklore texts can be used as sources for researching the history of material culture and can provide a methodological foundation for further studies that compare regional variants and are complemented by museum and archival materials.

#### REFERENCES:

1. Андреев М.С. Некоторые результаты этнографической экспедиции в Самаркандскую область в 1921 году // Известия Туркестанского Отд. РГО. М., 1924. Т. XVII // Царева Е.Г. Ковроделие арабов южных районов узбекистана конец XIX — начало XXI в. (по коллекциям МАЭ и РЭМ) // Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН [http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08\\_03/978-5-88431-301-9/](http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08_03/978-5-88431-301-9/) © МАЭ РАН.
2. Винников И.Н. Арабы СССР // Советская этнография. М.; Л., 1940. Вып. IV // Царева Е.Г. Ковроделие арабов южных районов узбекистана конец XIX — начало XXI в. (по коллекциям МАЭ и РЭМ) // Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН [http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08\\_03/978-5-88431-301-9/](http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08_03/978-5-88431-301-9/) © МАЭ РАН.
3. Дыйканов К. Кыргыз тилин н тарыхынан. Жогорку окуу жайлары үчүн. – Фрунзе:Мектеп, 1980. 117 с.
4. Ершов Н. Н. Каратаг и его ремесла. – Душанбе, 1984.
5. Емельяненко Т.Г. Отражение представлений о достатке и благополучии в предметном мире таджиков и узбеков центральных районов Средней Азии // Музей традиции этничность № 1/7. Санкт-Петербург, 2015. 144 с.
6. Кармышева Б.Х. Среднеазиатские арабы // Народы Средней Азии и Казахстана. - Москва, 1963. Т. II. // Царева Е.Г. Ковроделие арабов южных районов узбекистана конец XIX — начало XXI в. (по коллекциям МАЭ и РЭМ) // Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН [http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08\\_03/978-5-88431-301-9/](http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08_03/978-5-88431-301-9/) © МАЭ РАН.
7. Каратаев О.К., Эралиев С.Н. Кыргыз этнографиясы боюнча сөздүк. – Бишкек:Бийиктик, 2005. 388 с.
8. Казахи. Историко-этнографическое исследование. – Алматы, 1995.
9. Кунтуғмиш. Айтубчи Зргаш Жуманбулбул ўғли. Нашрга тайёрловчи Ходи Зариф. Ўзбек халқ ижоди кўп томлик. Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. - Тошкент — 1975. 264 с.
10. Kuntug'mish: Doston / nashrga tayyorlovchi: M. Islomov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. – 264 b. 264
11. Мошкова В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX — начала XX вв. Материалы экспедиций 1929–1945 годов. (Обработаны, дополнены и подготовлены к печати кандидатом исторических наук А.С. Морозовой). Ташкент, 1970 // Царева Е.Г. Ковроделие арабов южных районов узбекистана конец XIX — начало XXI в. (по коллекциям МАЭ и РЭМ) // Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН [http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08\\_03/978-5-88431-301-9/](http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08_03/978-5-88431-301-9/) © МАЭ РАН.

12. Mir-Makhamad B, Mirzaakhmedov S, Rakhmonov H et al (2021). Qarakhanids on the edge of the Bukhara Oasis: archaeobotany of Medieval Paykend. Econ Bot. <https://doi.org/10.1007/s12231-021-09531-6> // Mir-Makhamad, B., Stark, S., Mirzaakhmedov, S. et al. Food globalization in southern Central Asia: archaeobotany at Bukhara between antiquity and the Middle Ages. *Archaeol Anthropol Sci* 15,124 (2023).P.13. <https://doi.org/10.1007/s12520-023-01827-z>
13. Очерки Ферганской долины / [Соч.] А. ф.-Миддендорф, почет. чл. Акад. наук; С прил. "Химических исследований почв и вод" К Шмидта, проф. В Дерпте; Пер. с нем. В.И. Ковалевского. - Санкт-Петербург: тип. Имп. Акад. наук, 1882. - 605 с. разд. паг., 10 л. ил. : ил.; 32.
14. Овезбердыев К. Материалы по этнографии туркмен-сарыков / труды ИИАЭ АН Туркменской ССР. - Ашхабад, 1962.
15. Сазонова М.М. Женский костюм узбеков Хорезма / Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – Москва, 1979.
16. Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара. – Ташкент, 1962.
17. Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма. Самарканд (2-ая половина XIX – начало XX в). – Москва, 1982.
18. Среднеазиатские арабы // Народы Средней Азии и Казахстана. М., 1963. Т. II.// Царева Е.Г. Ковроделие арабов южных районов узбекистана конец XIX — начало XXI в. (по коллекциям МАЭ и РЭМ) // Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН [http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08\\_03/978-5-88431-301-9/](http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08_03/978-5-88431-301-9/) © МАЭ РАН.
19. Старостина О.В. Знаки престижа в традиционной обуви народов Средней Азии и Казахстана (конец XIX – начало XX века) // Музей традиции этничность № 1/7. Санкт-Петербург, 2015. 144 с.
20. Тагиева Р. Виды Азербайджанских ковров: от простого к сложному (хесир, бурия, четен, палас, джеджим). Ковры Азербайджана. № 5 (71), 2014.
21. Tārīkh-i Bukhārā (1984) Tārīkh-i Bukhārā ed. by Mudarris Riḍavī. Intishārāt-i Tūs, Tehran [English translation = Frye RN, The History of Bukhara. Translated from a Persian Abridgment of the Arabic Original by Narshakhī. Medieval Academy of America Publications 61] // Mir-Makhamad, B., Stark, S., Mirzaakhmedov, S. et al. Food globalization in southern Central Asia: archaeobotany at Bukhara between antiquity and the Middle Ages. *Archaeol Anthropol Sci* 15, 124 (2023). P. 13. <https://doi.org/10.1007/s12520-023-01827-z>
22. Царева Е.Г. Ковроделие арабов южных районов узбекистана конец XIX — начало XXI в. (по коллекциям МАЭ и РЭМ) // Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН [http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08\\_03/978-5-88431-301-9/](http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08_03/978-5-88431-301-9/) © МАЭ РАН.

#### Field research by the author

1. Abdieva Buvukhamila Turanovna, born in 1952. genus (uruu) bokso. Leilek district, village. Samat. Abdieva Aishakhan Mukhamatkulovna, born in 1980 (at the age of 46 years) Karamoldo clan, Leilek district, village. Samat. 2025
2. Kadyrmatova Uulbu, born 1953 (at the age of 73 years), genus Chargan. Jalal-Abad region, Aksy district, village. Kyzyl-Zhar. 2025

UO’K 908

## O’ZBEKISTONNING YUNESKO TASHKILOTI BILAN FAN VA TA’LIM SOHASIDAGI HAMKORLIKLARINING OSHIB BORISHI

*N.A.Axmadova, katta o’qituvchi, PhD, Osiyo texnologiyalar universiteti, Qarshi*

*M.Nazarova, magistrant, Osiyo texnologiyalar universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O’zbekistonning YUNESKO tashkiloti bilan fan va ta’lim sohasida qilingan hamkorliklar manbalar asosida yoritib berilgan. O’zbekistonning YUNESKO tashkiloti bilan fan va ta’lim sohasidagi yangi kelishuvlari, bitimlari ochib berildi.

**Kalit so’zlar:** UNESCO bilan hamkorlik, O’zbekiston va xalqaro tashkilotlar aloqalari, ta’lim tizimini rivojlantirish, ilm-fan taraqqiyoti, madaniy-ma’rifiy hamkorlik, innovatsion ta’lim dasturlari, kadrlar tayyorlash tizimi, akademik almashinuv, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilmiy tadqiqotlarni qo’llab-quvvatlash, raqamli ta’lim texnologiyalari, ta’lim sifati va standartlari, o’qituvchilar malakasini oshirish.

**Аннотация.** В данной статье представлен обзор сотрудничества Узбекистана с ЮНЕСКО в области науки и образования, основанный на имеющихся источниках. Раскрыты новые соглашения и договоры между Узбекистаном и ЮНЕСКО в области науки и образования.

**Ключевые слова.** Сотрудничество с ЮНЕСКО, Отношения Узбекистана с международными организациями, Развитие системы образования, Развитие науки, Культурно-образовательное сотрудничество, Инновационные образовательные программы, Система подготовки кадров, Академический обмен, Модернизация высшего образования,

*Поддержка научных исследований, Цифровые образовательные технологии, Качество и стандарты образования, Подготовка учителей.*

**Abstract.** *This article provides a source-based overview of Uzbekistan's cooperation with UNESCO in the field of science and education. New agreements and agreements between Uzbekistan and UNESCO in the field of science and education are disclosed.*

**Keywords:** *Cooperation with UNESCO, Relations between Uzbekistan and international organizations, Development of the education system, Development of science, Cultural and educational cooperation, Innovative educational programs, Personnel training system, Academic exchange, Modernization of higher education, Support for scientific research, Digital educational technologies, Quality and standards of education, Teacher training.*

O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar – Ta'lim, ilm-fan va madaniyat tashkiloti (YuNESKO), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg'armasi (YuNISEF), Xalqaro Pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlarning a'zosi sifatida ular bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

YuNESKO – Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti – xalqaro hukumatlararo tashkilot; BMTning ixtisoslashgan muassasasi. Davlatlar o'rtasida maorif, fan, madaniyat va kommunikatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish yo'li bilan tinchlikka va xalqaro xavfsizlikka ko'maklashish maqsadida 1946 yil tuzilgan. 188 mamlakat (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi 1993 yil 26 oktabrdan) a'zo (2004). YuNESKO nizomiga ko'ra, "... irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, barcha xalqlar uchun adolatga, qonuniylikka, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umumiy hurmatni ta'minlash maqsadida ta'lim, fan va madaniyatni rivojlantirish orqali xalqlar hamkorligiga" ko'maklashish tashkilotning ustuvor vazifasidir. 400 ga yaqin xalqaro nohukumat tashkilotlar va jamg'armalar, xalqaro va hududiy birlashmalar YuNESKO bilan hamkorlik qiladi. YuNESKO budjeti a'zo mamlakatlar badallaridan tashkil topadi [1].

Toshkentdagi "Interkontinental" mehmonxonasining Amir Temur zalida 1998 yil 6 noyabr kuni YuNESKO Ijroiya kengashi 155-sessiyasining yakuniy yig'ilishi bo'lib o'tdi.

YuNESKO Ijroiya kengashining 155-sessiyasi 19 oktabr kuni Parij shahrida ochilgan edi. 155-sessiyaning asosiy mavzusi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 50 yilligi, eslamoq burchi va hushyorlik zaruriyati – qullikdan inson qadr-qimmatining tiklanishi sari", deb belgilangan edi.

Hozirga qadar O'zbekiston nomoddiy madaniy merosining milliy ro'yxatida 74 ta ob'ekt mavjud. YuNESKOning "Butunjahon merosi" ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasidan 5 ta ob'ekt [2], 7 ta nomoddiy madaniy meros ob'ektlari va an'analari qabul qilingan[3]. Umumjahon merosining noyob namunasi sifatida O'zbekiston hududidagi to'rt qadimiy shahar – Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabzning YuNESKO ro'yxatiga kiritilgani, yasharish va yangilanish ayyomi – Navro'z bayrami, Katta ashula, «Shashmaqom», Askiya insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi sifatida YuNESKOning Reprezentativ ro'yxatidan joy olgani, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzurida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazida to'plangan nodir qo'lyozmalar «Jahon xotirasi» ro'yxatiga kiritilgani O'zbekistonning mazkur xalqaro tashkilot bilan izchil va samarali hamkorligi samaralaridir.

2025 yil 28 oktyabrdan 13 noyabrgacha Samarqand shahrida o'tadigan BMT Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti – YUNESKOning 43-sessiyasi nafaqat yurtimiz, balki butun Markaziy Osiyo uchun muhim xalqaro voqelik sanaladi. Bu tarixiy voqea hisoblanib, so'nggi 40 yil ichida mazkur forum ilk bor tashkilotning Parijdagi bosh qarorgohidan tashqarida o'tkazilmoqda. Tadbirda 194 ta davlatdan 5 mingdan ortiq delegatlar ishtirok etishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mintaqamizda birinchi marta o'tadigan ushbu muhim global miqyosdagi tadbir xalqaro hamjamiyatga O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining ulkan sivilizatsion salohiyatini yana bir bor namoyish etishga

xizmat qiladi". Bugungi xalqaro maydonda tinchlik, o'zaro hamkorlik va barqaror rivojlanish g'oyalari ustuvor ahamiyat kasb etayotgan sharoitda, davlatlar – madaniyat, fan va ta'lim sohalaridagi muloqotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu borada YUNESKO bilan hamkorlik barcha mamlakatlar uchun strategik ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ushbu hamkorlik ta'lim va ilm-fan sohalarida innovatsion tajribalarni joriy etish, madaniy merosni muhofaza qilish va uning orqali xalqlar o'rtasidagi do'stlik va o'zaro tushunishni mustahkamlash imkonini ham yaratadi.

Umuman, o'tgan 30 yildan ziyod vaqt davomida O'zbekiston va YUNESKO o'rtasidagi munosabatlar barqaror rivojlanish va amaliy mazmun bilan boyidi. Bu jarayonda O'zbekistonning tarixiy yodgorliklarini muhofaza qilish, nomoddiy madaniy merosni saqlash, zamonaviy ta'lim va ilm-fan tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, 30 yillik hamkorlik davomida O'zbekiston va YUNESKO munosabatlari yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Bu davr mobaynida hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, xususan ta'lim, fan, madaniyat sohalarida izchil rivojlanishga erishildi, tarixiy va nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, milliy ta'lim tizimini rivojlantirish, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash borasida salmoqli natijalarga erishildi.[4]

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va YUNESKO o'rtasida mamlakatda pedagog kadrlar tayyorlash va kasbiy rivojlantirish tizimini transformatsiya qilishga qaratilgan yirik tashabbusni boshlash bo'yicha yangi bitim imzolandi. Ushbu tashabbus O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha SMART-ED qo'shma loyihasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

To'rt yil davomida jami 6,5 million AQSH dollari miqdoridagi sarmoya bilan Loyiha O'zbekiston bo'ylab o'qituvchilar va ta'lim tashkilotlari rahbarlari uchun yanada samarali va barqaror kasbiy rivojlantirish tizimini yaratishga qaratilgan.

To'rt yillik Loyiha butun mamlakat bo'ylab ta'lim sifatini oshirish uchun o'qituvchilarning tayyorlash va kasbiy rivojlantirish tizimlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash sohasida Loyiha universitet o'quv dasturlarini modernizatsiya qiladi, maktablarda amaliyot imkoniyatlarini yaxshilaydi, yangi fan yo'nalishlarini joriy qiladi, o'qitish usullarini takomillashtirish va innovatsion amaliyot va resurslarni almashish tizimini yaratadi.

Maktab faoliyat olib borayotgan o'qituvchilariga qaratilgan kasbiy rivojlantirish tizimi uchun Loyiha uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini mustahkamlaydi. Tajribali o'qituvchilarga o'z tengdoshlarini qo'llab-quvvatlash imkonini beruvchi milliy mentorlik dasturi joriy etiladi va o'qituvchilarga kasbiy faoliyati davomida o'z malakalarini doimiy ravishda oshirishga yordam berish uchun yangi kasbiy o'sish modeli sinovdan o'tkaziladi.

Tashabbus Islom taraqqiyot banki (ISDB), Islom birdamlik jamg'armasi (ISFD) va Ta'lim bo'yicha global hamkorlik (GPE) tomonidan birgalikda qo'llab-quvvatlanadigan SMART-ED loyihasining bir qismidir.

U ISDB va GPE tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kengroq SMART-ED tashabbusining bir qismini tashkil etishi bilan birga, ushbu loyiha YUNESKOning O'zbekistonda o'qituvchilarni tayyorlash tizimini kuchaytirish bo'yicha yirik milliy dasturiga kiritilgan – bu ko'plab hamkorlar, jumladan Ishonch jamgarmasi va Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan doimiy sa'y-harakatdir.

2025 yil may oyi oxirida YUNESKO xalqaro eksperti Serhiy Shturkhetskyy O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti hamda O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti professor-o'qituvchilari va rahbariyati bilan uchrashuvlar o'tkazib, UNESCO tavsiyalarini muhokama qildi.

Natijada olti yirik universitet va fakultetlardan 30 dan ortiq pedagoglar treninglar va munozaralarda ishtirok etdilar. YUNESKO va Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar ta'limini akkreditatsiya qilish bo'yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar va ramkalar taqdim etildi hamda muhokama qilindi.

YUNESKO tomonidan bildirilgan tavsiyalarga quyidagilar kiradi: barcha jurnalistika fanlari bo'yicha amaliy modullarni joriy etish; global jurnalistikadagi muammolar bo'yicha maxsus kurs

tashkil etish; multimedia ta'limida sun'iy intellekt va virtual reallik mavzularini kiritish; media savodxonlik va faktlarni tekshirish kursini amaliy mashqlar bilan kengaytirish; genderga sezgir va no-diskriminatsiya prinsiplariga asoslangan jurnalistika hamda jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha majburiy kurslarni joriy etish; amaliyot kreditlarini ko'paytirish; talabalar katta ma'lumotlar (big data) bilan ishlash va ma'lumotlarni vizuallashtirish ko'nikmalarini o'zlashtirishlarini ta'minlash.

Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Malaka ramkasi va o'quv dasturlarini yangilash bo'yicha yetakchilik qilmoqda hamda boshqa jurnalistika universitetlari va fakultetlari bilan yaqin hamkorlikda ishlamoqda. YUNESKO esa tavsiya etilgan o'zgarishlarning rasmiy hujjatlarga kiritilishi va butun mamlakat bo'ylab amaliyotga joriy etilishi uchun universitet bilan hamkorlikni davom ettiradi.

Ushbu faoliyatlar Shveytsariya Taraqqiyot va Hamkorlik Agentligi va YUNESKO MDP fondi tomonidan moliyalashtirilayotgan "O'zbekiston hukumatini va fuqarolarini axborotga erkin kirish, institutlar javobgarligi va media savodxonligini kuchaytirish orqali imkoniyatlarini kengaytirish" dasturi doirasida amalga oshirilmoqda. [5]

Xulosa qilib aytganda O'zbekistonning Yunesko tashkiloti bilan hamkorligi yanada rivojlanmoqda. Ayniqsa 2025-yil Samarqandda Yuneskong 43-sessiyasining o'tkazilishi O'zbekiston va Yunesko aloqalarini yanada mustahkamladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/UNESCO>
2. Абдимўминов О. Ўзбекистон Республикасининг Бирлашган Миллатлар ташкилоти билан муносабатлар тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Т., 2018. – Б.21-22.
3. Ўз МА. М-7-фонд, 14-рўйхат, 8-йиғма жилд, 140-142-варақлар.
4. <https://islomkarimov.uz/uz/article/ozbekiston-va-yunesko-hamkorligining-yangi-zamonaviy-bosqichi>
5. <https://www.unesco.org/uz/articles/yunesko-ozbekiston-jurnalistika-talimi-boyicha-milliy-malaka-ramkasini-qayta-korib-chiqish-va?hub=66927>

#### UO'K 37.02

### JAMIYAT MODERNIZATSIYASIDA O'ZBEKISTON TARIXI FANI

*M.O.Badalova, katta o'qituvchi, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida O'zbekiston tarixi fanining tutgan o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglashning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli, o'tmish tajribasining bugungi islohotlar bilan bog'liqligi ilmiy asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada tarix fanining yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi va yangi O'zbekiston poydevorini qurishdagi strategik vazifalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston tarixi, modernizatsiya, milliy o'zlik, tarixiy xotira, ijtimoiy taraqqiyot, ma'naviyat, islohot, davlatchilik an'analari, Yangi O'zbekiston.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль и значение науки истории Узбекистана в процессе модернизации общества. Научно обосновывается роль исторической памяти и национального самосознания в социальном прогрессе, связь опыта прошлого с сегодняшними реформами. Также в статье освещаются стратегические задачи исторической науки в формировании мировоззрения молодежи и строительстве фундамента нового Узбекистана.

**Ключевые слова:** история Узбекистана, модернизация, национальное самосознание, историческая память, социальный прогресс, духовность, реформа, государственные традиции, Новый Узбекистан.

**Abstract.** This article analyzes the role and significance of the history of Uzbekistan in the process of societal modernization. The role of historical memory and national identity in social progress, as well as the connection between past experiences and contemporary reforms, are scientifically substantiated. Furthermore, the article highlights the strategic tasks of historical science in shaping the worldview of the youth and building the foundation of a New Uzbekistan.

**Keywords:** history of Uzbekistan, modernization, national identity, historical memory, social progress, spirituality, reform, statehood traditions, New Uzbekistan.

**Kirish.** Bugungi kunda jahon hamjamiyatida kechayotgan globallashuv va shiddatli transformatsiya jarayonlari har bir davlatdan o'z milliy taraqqiyot modelini shakllantirishni talab etmoqda. O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yar ekan, jamiyatni modernizatsiyalashning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda O'zbekiston tarixi fani shunchaki o'tmish voqealarini bayon qiluvchi fan emas, balki jamiyatning intellektual salohiyatini oshiruvchi, milliy o'zlikni anglatuvchi va kelajak strategiyasini belgilovchi muhim ijtimoiy-siyosiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, tarixiy tajribani zamonaviy islohotlar bilan uyg'unlashtirish va uni jamiyatni yangilashning drayveriga aylantirish ilmiy jihatdan nihoyatda dolzarbdir.

**Metodologiya.** Maqolada tarixiy izchillik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Tarixsiz kelajak yo'q" tamoyili konseptual asos qilib olindi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda O'zbekiston tarixi fani shunchaki akademik bilimlar majmuasi emas, balki jamiyat modernizatsiyasining mafkuraviy va ma'naviy poydevori sifatida namoyon bo'lmoqda. Modernizatsiya jarayonida tarixiy tajribaga tayanish, xususan, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari davlatchilik an'alarining chuqur o'rganilishi, mamlakatda "Uchinchi Renessans" poydevorini qurish uchun zarur bo'lgan intellektual va g'oyaviy muhitni yaratishga xizmat qilmoqda. Tarixiy faktlarning yangicha talqini jamiyatda "milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" tamoyilining ilmiy asosi bo'lib shakllandi.

Aniqlanishicha, tarix fanining o'qitilishi va targ'ib qilinishi yoshlar o'rtasida milliy o'zlikni anglash darajasining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy so'rovlar va tahlillar natijasida ko'rish mumkinki, tarixiy qahramonlar (Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi) hamda jadid ma'rifatparvarlari merosiga bo'lgan qiziqishning ortishi jamiyatda vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyati hissini kuchaytirgan. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy modernizatsiyaning eng muhim sharti bo'lgan "inson kapitali" sifatini yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot doirasida o'rganilgan yana bir muhim natija — bu jadidchilik harakati g'oyalarning zamonaviy ta'lim va huquqiy islohotlar bilan uyg'unligidir. XX asr boshidagi ma'rifatparvarlar ilgari surgan "modernizatsiya" g'oyalari bugungi kunda ta'lim tizimini transformatsiya qilish va jamiyatda ochiqlikni ta'minlashda asosiy metodologik manba bo'lib xizmat qilayotgani aniqlandi. Tarix fani orqali ushbu g'oyalarning qayta tiklanishi jamiyatda demokratik qadriyatlarni milliy zamin asosida rivojlantirish imkonini berdi.

O'zbekiston tarixi fanining jamiyatni modernizatsiyalashdagi roli uning ijtimoiy ongini "tarixiy turg'unlik"dan chiqarib, "faol ijodkorlik" bosqichiga olib o'tishida yaqqol namoyon bo'ldi. Tarixiy bilimlarning tizimlashtirilishi davlat boshqaruvi, madaniyat va ta'lim sohalaridagi islohotlarni nafaqat texnologik, balki chuqur ma'naviy-tarixiy mazmun bilan boyitdi. Bu esa mamlakatni barqaror rivojlantirishda o'tmish va kelajak o'rtasidagi uzviylikni ta'minlovchi eng kuchli mexanizmlardan biri bo'lib qolmoqda.

**Muhokama.** Jamiyat modernizatsiyasi va O'zbekiston tarixi fani o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tahlil qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash lozimki, har qanday barqaror taraqqiyot faqat mustahkam tarixiy va ma'naviy poydevorga tayangandagina muvaffaqiyatli bo'ladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'z tarixini inkor etgan yoki uni faqat statistik ma'lumotlar to'plami deb bilgan jamiyatlar modernizatsiya jarayonida o'z milliy qiyofasini yo'qotish xavfiga duch keladi. O'zbekiston tarixi fani esa bugun jamiyat uchun shunchaki o'tmish ko'zgusi emas, balki "milliy g'oya"ni shakllantiruvchi va xalqni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtiruvchi strategik vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Tarixiy bilimlar jamiyat a'zolarida "biz kim edik va kim bo'lishimiz kerak?" degan fundamental savollarga javob berish orqali ijtimoiy ongini transformatsiya qilmoqda.

Ushbu jarayonda, ayniqsa, jadidchilik harakati merosining qayta baholanishi muhim ahamiyatga ega. Muhokama qilinayotgan natijalar shuni tasdiqlaydiki, XX asr boshidagi ma'rifatparvarlar ilgari surgan "fikrlar erkinligi", "dunyoqarashni kengaytirish" va "fan-texnikani o'zlashtirish" kabi g'oyalar bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" poydevorini qurishda metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jadidlarning modernizatsiya modellari bilan hozirgi islohotlar o'rtasidagi o'xshashliklar shuni ko'rsatadiki, milliy davlatchiligimiz o'zining uzviy rivojlanish

bosqichiga qaytgan. Tarix fani bu o'rinda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning "tarixiy legitimligi"ni ta'minlovchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda.

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются процессы восстановления Дехканабадского района после Второй мировой войны, усилия населения по преодолению последствий войны, а также деятельность районного руководства по улучшению условий жизни населения. Кроме того, на основе архивных источников анализируется начало специализации региона на хлопководстве в 60–70-е годы XX века без учёта природно-климатических условий и её последствия.*

**Ключевые слова:** *Дехканабадский район, электрификация, строительство дорог, животноводство, богарное земледелие, строительство школ, хлопковые поля, искусственное орошение.*

**Abstract.** *This article examines the post-World War II recovery processes in Dehqonobod district, the efforts of the local population to overcome the consequences of the war, and the measures implemented by district authorities to improve living standards. In addition, the study analyzes, based on archival sources, the beginning of cotton specialization in the 1960s–1970s without sufficient consideration of the region's natural and climatic conditions, as well as its negative consequences.*

**Keywords:** *Dehqonobod district, electrification, road construction, animal husbandry, rainfed agriculture, school construction, cotton fields, artificial irrigation.*

**Kirish.** Dehqonobod tumani ikkinchi jahon urushida asosan chorvachilik mahsulotlari yetkazib beradigan markaz sifatida asosiy rol o'ynagan. Urushdan so'ng esa bu hudud o'zining tabiiy iqlim sharoiti hisobga olgan holda rivojlanish yo'nalishini davom ettirdi. Arxiv manbaalari o'rganib chiqilganda, birinchi navbatda, 1950-yillarda tuman hududidagi yo'llar yaxshilanib, Dehqonobod tumani markazi bilan qishloq sovetlari o'rtasida aloqalar yo'lga qo'yiladi. Xususan, 1976-yilda rayonda kapital qurilish ishlariga 15 million so'mdan oshik mablag' sarflangan, 160 kilometr yangi yo'l qurilib, shundan 85 kilometriga asfalt yoqizilgan, 54 ta qishloq xonadoni, 5 ta chorvachilik fermasi, 2 ta parrandaxonalar bir necha ishlab chiqarish korxonalari elektrlashtirilgan, 194 xonadonga mo'ljallangan 16 ming kv kilometr uy-joy qurilib foydalanishga topshirilgan[1;81]. Bundan tashqari, urushdan keying yillarda qishloq xo'jaligida ham oldinga siljishlar ko'zga tashlanadi, ya'ni tumanga dastlabki traktorlar olib kelinib hosildorlik oshiriladi, MTS lar faoliyati yaxshilanishi ortidan yerlarning melorativ holati yashilanadi, o'g'itlarning turlari va sifati oshishi natijasida hosildorlik oshib, aholining ham yashash darajasi bir qadar yaxshilanadi.

Urushdan keying ijobiy o'garishlar bilan birgalikda hududning rivojlanishida ba'zi bir salbiy jihatlar ham ko'zga tashlanadi. Xususan, texnikalar hanuz yetishmas edi, ulardan foydalanish ko'nikmasi ham dehqonlarda yetarlicha bo'lmagan, mutaxassislar yetishmovchiligi ham yaqqol sezilar edi. Agar biror traktor buzilsa uni yana ishga qaytarish uzoq vaqtni talab qilar, dehqonlar esa ekish ishlarini ananaviy omochda amalga oshirishga majbur bo'lishar edi. Bu esa yerning unumdorligini va hosildorning yildan-yilga kamayishiga sabab bo'lgan.

**Natijalar va muhokama.** 1968-yildan boshlab Dehqonobod atrofidagi hududlar ham elektirlashtirila boshlandi. Mazkur yilda 400 o'rinli yozgi kinoteatr, 4 ta dala shiyponi, 11 ta ko'prik qurildi. 10 ta kolxozchi xo'jaligi uchun uy-joy binolari, 50 o'rinli bolalar yaslisi uchun bino, 20 kishi ishlaydigan maishiy kombinat binolari qurilib, foydalanishga topshirilgandi. 1967-1968 yillarda 15 kvartirali 7 ta, 2 kvartirali 14 ta uy qurildi. Ammo bu borada ham talaygina kamchiliklar mavjud edi. Jumladan, mazkur yillarda Dehqonobod posyolkasidagi yana 10 ta ko'cha qishloqlari to'liq elektrlashtirildi[2;79].

1975-yilda rayonda 30 ta o'rta, 32 ta 8 yillik, 7 ta boshlang'ich va bitta musiqa maktabi jami 17820 nafar o'zbek farzandiga tarbiya bergan. Yosh avlodga 829 ta oliy, 147 ta to'liqsiz oliy, 357 ta pedagogik o'rta, umumiy o'rta ma'lumotli pelagolar ta'lim-tarbiya berishgan. Shu yili rayonda 1 ta markaziy va 4 ta uchastka kasalxonalar, 44 ta feldsher-akkusherlik punktlari, 5 ta apteka, sanitariya-epidemiologiya stansiyasi hamda profilaktik dizenfeksiyalash bo'limi xizmat qilgan. 12 xonalik zamonaviy poliklinika, Ko'kbuloq sovxozida Oqmachit kasalxonasi yangi bino bilan ta'minlangan meditsina muassasalariga 1975-yilda 462 ming so'm sarflangan.

1981-yilda maktablar soni 74 taga etkazildi. Rayonning yangi markazida 140 o'rinli G'uncha, 90 o'rinli Lola bolalar bog'cha yasllari qurilib, foydalanishga topshirildi. G'ulom Yusupovu nomli kasalxonada, Dehqonobod sovxozining 1-may bo'imida Ko'kbuloq, Oqbosh, Leninizm, Krupskaya, Boshchorbog', Beliboyli sovxoz markazlarida bolalar bog'chalari tashkil qilinib, ular muntazam ravishda ishlab kelgan. Tumanda Dehqonobod ijara xo'jaligi tuman tarixida dastlab tashkil etilgan xo'jaliklardan biri. 1950-yillar boshlariga qadar bu hududda o'nlab jamoa xo'jaliklari mavjud bo'lib, 1954-yilda ularni yiriklashtirish maqsadida davlat xo'jaligiga aylantirilgan. Bu yerda ilk marta Sobirjon Usmonov direktorlik qilgan. Shu o'rinda Dehqonobod davlat xo'jaligi taraqqiyotiga salmoqli hissasini qo'shgan Chori Qo'shoqovning faoliyatini alohida qayd etmoq darkor[4;23]. U yetakchilik qilgan yillarda bu yerda chorvachilikda ham dehqonchilikda ham xalqning madaniy hayotida ham ko'zga tashlanarli o'zgarishlar bo'lgan. Usha yillarda jamoa chorvachiligi keng rivojlandi. Chorva mollari soni 40 mingga yetdi. Yuzlab gektar bog' barpo etildi. Ayniqsa suv omborlari barpo etilib lalmikor yerda yuzlab gektar yerga makkajo'xori, poliz ekinlari, beda va mevali daraxtlar ekilgan.

Sotsialistik musobaqa natijasida qishloq sovetlarining va tashkilotchilik roli bir qadar oshgandek edi. 1943-yil 10 ta qishloq soveti, 48 ta kolxoz, 147 ta brigada va 497 ta zvenolar sotsialistik musobaqaga qo'shilgan edi. Bular ichida Boshchorbog' qishloq soveti rayonaro musoboqada yutib chiqdi. 1948-yilda davlatga don topshirish planlari o'z vaqtida oshig'i bilan bajarildi va kolxoz xo'jaligini tashkiliy jihatdan mustahkamladi. Kolxoz va MTS ichidan qishloq xo'jalik va chorvachilik ilg'orlari o'sib chiqdi. Ish davrida yaxshi xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jalik va chorva xodimlaridan 2 kishi "Lenin ordeni" bilan, 8 kishi "Mehnat qizil bayrog'i" ordeni bilan, 1 kishi medal bilan jami 11 kishi orden va medallar bilan oliy sovet prezidiumi tomonidan mukofotlandi. Keyingi yillar ichida rayonimiz kolxozlarida qishloq xo'jaligi ekinlarini hosili va jamoat chorvachiligini rivojlantirish kundan-kunga o'sib bordi.

Qishloq sovetining qishloq xo'jalik organlarining va kolxoz pravleniyalarining bosh vazifasi 1949-yilgi xalq xo'jalik planlarini O'zbekiston Sovet sotsialistik respublikasining 25 yil to'lishiga qadar oshig'i bilan bajarish uchun umumxalq sotsialistik musobaqasini kuchaytirishdan iborat qilib belgilingan edi[5;112]. Ekin maydonlarini almashlab ekishlikka sharoit bo'lmaganligi uchun Respublika hukumati tomonidan g'alla hosilini yuqori ko'tarish maqsadida 1949-yilda ekish maydonlari 30 foiz qisqartirildi. Keyingi yillarda ekish maydonlarining kamayishi bilan mexanizatsiya kuchidan to'liq foydalanish o'rniga yildan-yilga o'sish o'rniga pasaya borgan va 1948-yil qishloq xo'jalik ekinlaridan hosil olish kamayib ketdi. Bu esa davlatga don topshirish planini

bajarmaslikga, urug'lik fondlarini jamg'armaslikka va kolxozchilarning mehnat kunlariga g'alla berilmasdan kelishlikka sabab bo'ldi. G'allachilikdan kam xosil olishlikning yana bir sababi rayonimizning bir necha kolxozlarida agrotexnika qoidalarini juda past darajada qo'llanadilar. Kursatib o'tish kerakki, 1948-yil kuzda va 1949-yil bahorda ekilgan umumiy er maydonini 11,6 foizini traktor bilan qolgan 88,4 foizani omoch bilan ya'ni ho'kiz kuchi bilan ekildi.

Dehqonobod qishloq sovetidagi "Muvaffaqiyat" kolxozi 10 gektar haydalmagan yerga barana bilan 8-10 sm chuqurlikda g'alla ekildi[6;28-89]. Shuningdek Sho'rguzar qishloq sovetidagi "Ittifoq" kolxozida 15 gektar, Beshqo'tan qishloq sovetidagi "Urtaq" kolxozi 12 gektar yerga 10-12 sm chuqurlikda g'alla ekkan. Bunday ahvol Dehqonobod qishloq sovetidagi "Qizil-bayroq" kolxozida va boshqa bir qancha kolxozlarda yo'l qo'yildi. Tag'ay-temir qishloq sovetidagi "2-5 yillik" kolxozi 10 gektar, Dehqonobod qishloq sovetidagi Kalinin nomli kolxozi 25 gektar yerga haydamastraktor tagiga g'alla ekib agrotexnika qoidalarini buzdilar[7;28-89]. Bunday ahvol Tarqapchug'ay qishloq sovetidagi kolxozlarda va Sho'rguzar qishloq sovetidagi kolxozlarda yuz berib keldi. Rayon bo'yicha qishloq xo'jalik ekinlari plani umuman bajarilgan bo'lsada ba'zi qism ekinlar bo'yicha bajarilmay qoldi. Masalan: No'xat 1000 gektar ekish o'rniga 150 gektar plan 15 foiz bajarildi[8;28-89]. Shuningdek 300 gektar Odessa ekish o'rniga bir 1 gektar ham ekilmadi. Shuningdek beda ekish va boqchachilik ishlariga juda kam e'tibor berildi. Donchilik xo'jaligida yo'l qo'yib kelgan holatlardan biri kolxozlar urug'lik uchastkalariga e'tiborsizlik bilan qarab keladilar. Shuning natijasida tanlanmagan yoraqsiz urug'lar urug'lik uchastkalariga ekiladi. Shuning natijasida kolxozlarda Urug'lik sortlari yildan-yilga buzilib ketmoqda. Markaziy komitetning fevral oygi plenum karorida har bir kolxoz o'z urug'ini o'zi ekkan uchastkasidan jamg'arishi kerak edi. .

Dehqonobod rayoni chorvachilik bilan shug'ullanish, go'sht-sut mahsulotlari yetishtirish uchun juda qulay imkoniyatlarga ega. Iqlimi, sharoiti, geografik joylashuvi jihatidan olib qaralganda, bu hududda ko'proq qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdan ko'ra chorvachilikka ixtisoslashuv yuqori samara beradi. Shu nuqtai nazardan mustabid sovet tuzumi yillarida ham bu sohada aytarli muammolar bo'lmagan. Ayrim hollarda noto'g'ri siyosat olib borilishi chorva mollarining qirilishiga olib kelgan[9;28-89].

1950-yilning boshiga kelib, qishloq xo'jaligidagi ahvol ancha yaxshilandi. Rayonda 13 ta qishloq soveti va 64 kolxoz mavjud edi. Mazkur yildan boshlab kolxozlar yiriklashtirila boshlandi.

Chorvachilikda esa sun'iy (SJK) qochirish deb atalgan "sovliq jonivorlarning kasodi" vujudga keldi. Sun'iy qochirish oqibatida qo'ylarning o'rtacha tirik vazni 40-50 kilogramdan 17-18 kilogramga tushib qoldi.

Shuningdek, rayonda jamoat chorvachiligini rivojlantirish, uning maxsuldorligini oshirish sohasida ham kamchiliklarga yo'l qo'yildi.

1986-yilga kelib rayon sug'orish sistemalari boshqarmasida yerlarni melioratsiyalashtirish, suvdan foydalanish koeffetsentini yaxshilash borasida anchagina ishlar qilindi. 1990-yilgi rayon ko'rsatkichlariga e'tibor berilsa, sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish 56,3 foiz, poliz mahsulotlari ishlab chiqarish rejasi 74 foizga bajarildi[10;19].

**Xulosa va takliflar.** Xullas, sovet davlati hokimiyat tepasiga kelgach, qishloq xo'jaligi masalasiga katta e'tibor qaratdi. Kolxozlar, sovxozlar tashkil etilib, doimiy ravishda davlat tomonidan plan belgilanib mahsulotlarning topshirilishi qattiq nazorat ostiga olindi. Garchand o'ta murakkab sharoit bo'lsa ham Dehqonobod tumani yerlarining anchagina qismi paxta yetishtirishga moslashtirildi. Qo'l mehnatidan keng foydalanildi. Xalqning yashash sharoitlari, moddiy manfaatdorlikka e'tibor berilmaganligiga guvoh bo'lamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 26 jamg'arma 2-ro'yxat 89 ish. B-81
2. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 26 jamg'arma 2-ro'yxat 89 ish. B-79
3. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at.-T.Sharq. 1998.-297 b., B.Maxmudov. Qashqadaryo xalq ta'limining taraqqiyot yo'li. Qarshi, Nasaf.1999-127 b., Резальюции и решения съездов КП Узбекистана.-Т., 1957., O'zbekistonning Yangi tarixi. K.2. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida.-Т.- Sharq,2000., Q.Usmonov., M.Sodiqov. O'zbekiston tarixi.-Т.:Sharq.2001., O.Jo'raqulov., J.Ergasheva. Qashqadaryo sanoati tarixi. Karshi, Nasaf. 1996
4. X.Eshmurodov. Oltin beshigim. T.: 1994.-23 b
5. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 8 jamg'arma 4-ro'yxat 53 ish. B-112

6. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 26 jamg'arma 2-ro'yxat 91 ish. B-28-89
7. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 26 jamg'arma 2-ro'yxat 91 ish. B-28-89
8. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 26 jamg'arma 2-ro'yxat 91 ish. B-28-89
9. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 26 jamg'arma 2-ro'yxat 91 ish. B-28-89
10. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 20 jamg'arma 4-ro'yxat 72 ish. B-19

UO'K 37.02

## YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGI SIYOSATINING IJTIMOYIY BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDAGI ROLI: IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLILI

*M.S.G'aniyeva, katta o'qituvchi, PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan gender tengligi siyosatining jamiyat rivojlanishidagi o'rni hamda uning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari gender tengligi tamoyillarining jamiyatda ijtimoiy muvozanatni mustahkamlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda demokratik ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, gender tengligi, ijtimoiy barqarorlik, gender siyosati, inson kapitali, ijtimoiy adolat, barqaror rivojlanish.

**Аннотация.** В данной статье проводится социально-философский анализ роли политики гендерного равенства, реализуемой в условиях Нового Узбекистана, а также её значения в обеспечении общественного развития и социальной стабильности. Результаты исследования показывают, что принципы гендерного равенства выступают важным фактором укрепления социального баланса, развития человеческого капитала и формирования демократических общественных отношений.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, гендерное равенство, гендерная политика, социальная стабильность, социальная справедливость, человеческий капитал, активность женщин.

**Abstract.** This article provides a socio-philosophical analysis of the role of gender equality policy implemented in the context of New Uzbekistan and its significance in ensuring social development and stability. The research findings demonstrate that the principles of gender equality serve as an important factor in strengthening social balance, developing human capital, and forming democratic social relations.

**Keywords:** New Uzbekistan, gender equality, gender policy, social stability, social justice, human capital, women's participation.

**Kirish.** Zamonaviy jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda gender tengligini rivojlantirish masalasi muhim ijtimoiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. So'nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlar hamda global siyosiy hujjatlarda gender tengligi nafaqat inson huquqlarini ta'minlash vositasi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy institut sifatida talqin qilinmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ham gender tengligi inson salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda jamiyatda teng imkoniyatlarni shakllantirishning muhim sharti sifatida ko'rsatib o'tilgan [2.35].

Ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda gender tengligi tushunchasi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimining demokratlashuvi bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Amartya Sen jamiyat rivojlanishini inson imkoniyatlari va erkinliklarini kengaytirish jarayoni bilan izohlaydi. Uning fikricha, inson imkoniyatlarining kengayishi jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi [3.366.]. Shu jihatdan gender tengligini ta'minlash jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni mustahkamlash hamda inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham gender tengligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish,

ularning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini kengaytirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ayollarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash va ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir" [1. 214.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda gender tengligi masalasi jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy adolat hamda barqaror rivojlanish bilan bog'liq murakkab ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda gender tengligi nafaqat huquqiy tenglikni ta'minlash, balki jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning samarali faoliyat yuritishi hamda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun zarur shart sifatida qaraladi.

Gender tengligini ijtimoiy adolat konsepsiyasi doirasida o'rganish jarayonida Jon Rolzning nazariy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Rolz jamiyatdagi ijtimoiy institutlar barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga xizmat qilishi zarurligini ta'kidlaydi [4.536]. Mazkur yondashuv gender tengligi siyosatini jamiyatda ijtimoiy adolatni amalga oshirishning muhim vositasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida gender tengligini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ayollarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash va ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir" [1. 214.].

**Tadqiqot natijalari.** O'tkazilgan tahlillar gender tengligi siyosati zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Gender tengligini ta'minlash jarayoni faqat huquqiy tenglikni mustahkamlash bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning samarali faoliyat yuritishi hamda ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gender tengligi siyosati inson kapitalini rivojlantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ayollarning ta'lim olish imkoniyatlari kengayishi hamda iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokining ortishi jamiyatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Amartya Sen jamiyat taraqqiyotini inson imkoniyatlari va erkinliklarining kengayishi bilan izohlaydi [3.366.]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, gender tengligini ta'minlash ayollar va erkaklarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishi orqali inson salohiyatining to'liq namoyon bo'lishiga sharoit yaratadi.

**Muhokama.** Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, gender tengligini ta'minlash jamiyatda ijtimoiy hamjihatlik muhitini shakllantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Ayollar va erkaklar o'rtasida teng imkoniyatlarning yaratilishi ijtimoiy munosabatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi hamda jamiyatning siyosiy va iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot gender tengligi siyosati zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy mexanizmlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Gender tengligini ta'minlash orqali jamiyatda ijtimoiy adolat, inson kapitalining rivojlanishi hamda demokratik ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi uchun mustahkam asos yaratiladi.

**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari gender tengligi siyosati zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Gender tengligini ta'minlash jarayoni jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda ijtimoiy institutlarning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Shuningdek, gender tengligi siyosati jamiyatda ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyillarini mustahkamlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Ayollar va erkaklar o'rtasida teng imkoniyatlarning yaratilishi jamiyatda ijtimoiy hamjihatlik muhitining shakllanishiga hamda ijtimoiy ziddiyatlarning kamayishiga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B. 464.

2. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development: Resolution adopted by the UN General Assembly on 25 September 2015 (A/RES/70/1). - New York: United Nations, 2015. - P. 35.
3. Сен А. Развитие как свобода. – Оксфорд: Oxford University Press, 1999. – 366 с.
4. Роулз Дж. Теория справедливости. (Пер. с англ. В.В.Целищева, В.Н.Карповича) - Москва: URSS, 2017. - С. 536.
5. Ganiyev B.S. Innovative (entrepreneurial) activity of women at a new stage of development of our society. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(11), 2019. - P. 122-129.
6. Ganieva M.S. “Cocio-philosophical aspects of the study of the issue of gender and entrepreneurial woman in a new society” // *Asian journal of Multidimensional Reserch*: 2021. Vol. 12: Iss. 10, - P. 441-445.

UO'K 908

## BUXORO XONLIGIDAGI SAROY UNVONLARI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR (SHAYBONIYLAR DAVRIDA MISOLIDA)

*O.Y.Hamrayev, tayanch doktorant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Buxoro xonligi davrida markaziy davlat boshqaruvi tizimidagi muhim lavozimlarning siyosiy, harbiy va diniy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Buxoro xonligi, Shayboniylar davlati, naqib, ataliq, ko'kaldosh, xon yasovuli, markaziy boshqaruv, davlat tuzilmasi, saroy mansablari, sayyidlar, musulmon boshqaruvi, tarixiy legitimlik.

**Аннотация.** В данной статье проводится глубокий анализ политического, военного и религиозного значения ключевых должностей в системе центрального государственного управления в период Бухарского ханства.

**Ключевые слова:** Бухарское ханство, государство Шейбанидов, накиб, аталык, кокалдош, ханский ясовул, центральное управление, государственное устройство, дворцовые должности, сейиды, мусульманское управление, историческая легитимность.

**Abstract:** This article provides an in-depth analysis of the political, military, and religious significance of key positions within the system of central state administration during the period of the Bukhara Khanate.

**Keywords:** Bukhara Khanate, Shaybanid State, naqib, ataliq, kokaldosh, khan yasovul, central administration, state structure, court offices, sayyids, Muslim governance, historical legitimacy.

Temuriylar davlat boshqaruvi an'alarining davomi sifatida shayboniylar davlatida ham ma'muriy jihatdan xonlik viloyatlar va tumanlarga bo'lib boshqarilgan bo'lsada, lekin markaziy boshqaruvda ba'zi o'ziga xos an'ana va qonunlar o'rnatilgan. Xususan, joylardagi yuqori mansabga ega bo'lgan mulkdorlar xon tomonidan hokimlikka ko'tarilgan.

Muhammad Shayboniyxon hali tiriklik vaqtidayoq, qo'lga kiritilgan butun yerlarni boshqarish uchun xuddi Temurbek davlatlarida bo'lganidek, yirik askarboshi va yaqin qarindoshlariga mukofot tariqasida mulk (ulus) qilib taqsimlab beradi. Xonlik va bosh qo'mondonlik mansabigina o'zida qolgan edi. Bu davlatda davlat tepasida qabila va urug'larning boshliqlari tomonidan saylanadigan xon (keyinchalik xonlar xoni) turib, unda xon huzurida chaqirilib turiladigan kengash mashvaratning ham mavqei kuchli bo'lgan [1]. Albatta, Shayboniyxon sulton va amirlar, urug' boshliqlari ichida, qo'shin orasida juda katta obro' va hokimiyatga ega bo'lsa-da, u o'zining qabiladoshlari, ayniqsa ularning boshliqlari bo'lgan amirlarning talablariga ham bo'ysunishga majbur bo'lgan. Ularning ba'zilari aslida o'zboshimchalik bilan hokimiyatga ham putur yetkazib turganlar [2].

Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, shayboniylar davlatining siyosiy tizimida o'zbek davlatchiligining somoniylar davlatidan temuriylargacha bo'lgan davrda tashkil topgan davlat boshqaruvi qonun-qoidalari hamda xususiyatlari bilan birgalikda an'anaviy ko'chmanchilarga xos xususiyat ham mavjud bo'lgan. Hukmdorning (xon) hokimiyati cheklanmagan bo'lib, u o'z atrofida viloyat va tuman hokimlari hamda nufuzli (chorvadorlarning) qabila boshliqlarini birlashtirib mustaqil siyosat olib borgan. Ba'zan ayrim viloyat hokimlarining mavqei kuchayib borishi ularning markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'yishini ta'minlagan. Shunday vaziyat ayniqsa Abdullaxon II davrida kuzatilib, bo'ysunmas hokimlarning barchasi zo'rlik bilan bo'ysundiriladi.

Islomiy odat va shariat qonun-qoidalariga qattiq rioya qilish shayboniylar davlat boshqaruvida muhim hisoblangan. Tarixchi olimlardan Sh.Vohidov va R.Xoliqovalarning tadqiqotlarida shayboniylar davlatining boshqaruv tizimida davlatdagi oliy hukmdorlik otadan bolaga emas, balki suloladan eng ulug' yoshli shaxsga o'tish tartibi dastlabki shayboniylar davrida saqlanib qolganligi, XVI asrning 40-yillaridan boshlab vorisiylikda otadan bolaga o'tish an'anasi kuchayib, Abdullaxon II davrida aniq bir shaklga tushganligini tahlil qilib o'tadi [3]. Ammo, tarixiy ma'lumotlar shuni tasdiqlaydi-ki, bu holat uzoq davom etmagan.

Z.Muqimov ham o'z tadqiqotida V.Bartold asarlari tahlillaridan foydanib quyidagicha ma'lumot keltiradi. "Shayboniyxon qabul qilgan unvon uning real, aniq vazifasini ifoda etuvchi edi. Ya'ni faqat u zamon imomi, barcha musulmonlar jamoasining rahnamosi, Ollohning yerdagi noibi, musulmonchilikni toza saqlab turish uchun kurash vazifasi ham unga yuklatilgan degan ma'noni anglatar edi. Bundan o'zbeklar yo'l boshchisining o'z mavqeini mustahkamlash, rejalarini amalga oshirish yo'lida dindand foydalanganligini yaqqol ko'rish mumkin. Bunga o'z vaqtida akademik V.V. Bartold ham e'tibor bergan. O'zbek hukmdori o'z davlatchiligini shakllantirishida, albatta, faqat cho'l, dasht udumlari, odatlarigina ta'sir qilib qolmasdan, musulmon davlatchiligi g'oyalari ham ularga katta ta'sir ko'rsatgan. «Shayboniyxon «Xalifat-ul Rahmon» deb o'z tangalariga zarb ettirganda hukmdorlarning yuqori tabaqalaridan ko'ra xalq bilan va ularning g'oyaviy vakillari bo'lgan darveshlar bilan yaqinlashishga, davlatni shariat asosida boshqarishga intilishlar o'zining aksini topgan bo'lishi kerak [4]. Demak ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Shayboniyxon o'z hokimiyatini legitimlash orqali mustahkamlashga harakat qilgan.

Davlat boshqaruvida xon saroyidagi oliy darajali amaldorlardan tashkil topgan markaziy boshqaruv hamda viloyatlar va tumanlar qo'lida mahalliy boshqaruv asosiy o'rinda turar edi. Tabiiyki, xon ular yordamida hamda bevosita ishtirokida davlatdagi ma'muriy boshqaruvni amalga oshirgan. Qator tadqiqotlarda ilgarigi sulolalar davrida bo'lgani kabi shayboniylar davrida ham eng oliy davlat idorasi dargoh hisoblanganligi, dargoh tepasida xon turgan bo'lib, bu idora saroy devonida jamlangan hamda davlatning ichki va tashqi hayotiga oid barcha masalalarni hal qilganligi tahlil qilinadi. Bu mahkama davlatning siyosiy, moliyaviy, harbiy, tashkiliy va boshqa masalalarini ko'rib chiqqan. Mahkamada qabul qilingan qarorlar xonning tasdig'i (fatvosi) bilan kuchga kirib, ijtimoiy hayotga tatbiq etilgan [5].

Davlat boshqaruvida ko'plab saroy amaldorlari jumladan, ko'kaldosh, otaliq, naqib, vaziri a'zam, vazir, devonbegi kabi muhim mansab egalari shuningdek, no'yon, tug'begi, kutvol, dorug'a, qurchiboshi kabi harbiy amaldorlar va jo'ybor shayxlari, sadrlar, shayxulislom kabi diniy ulomolarning g'oyalari va fikrlari hukmdorning qaror qabul qilishida ahamiyatli hisoblangan. Ushbu ma'lumotlar tahlilidan xulosa chiqarish mumkin-ki, davlat-huquqiy nuqtai nazaridan xon hokimiyatini mutloqiy (monarxiya) deb atab bo'lmaydi. Hukmdor "xon" huquqining qisman cheklanishi, ya'ni uning huzurida Kengash (chong'i, mahkama) ning chaqirilib turishi bu davlatning o'ziga xos mutloq mulkdorlar (aristokratik) davlati ekanligini ko'rsatadi. Shunisi aniq-ki, sulola ichidagi oliy hukmdorlik va valiahdlik saylanib qo'yiluvchi mansab bo'lgan. U nasliy merosiy bo'lmagan. Jumladan, o'z jasurligi va qat'iyatliligi bilan qaytadan Movarounnahrni qo'lga kiritgan Ubaydullaxon garchi dastlab xon bo'lib saylansada, urug'da yoshi katta bo'lgan harbiy va davlat arbobidan ko'ra, ko'proq dindor va zohidroq bo'lgan Kuchkinjixonni Oliy xukmdor deb tan oladi. Ubaydullaxon unga yoshi bo'yicha nevara qarindoshi edi [6].

Xonlikning shayboniylar davri davlat boshqaruvidagi muhim vazifalarga bosqichma-bosqich to'xtalib o'tadigan bo'lsak, muhim mansab egalaridan biri naqib hisoblanadi. Naqiblik mansabi saroyda juda katta vakolatlarga ega bo'lib, u xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan biri hisoblangan. Tadqiqotlarga ko'ra [7], rasmiy qabul marosimlarida naqibning oliy hukmdordan chap tomonda birinchi bo'lib joy olishi naqibning dargohdagi yuksak martabasidan dalolat beradi. Shuningdek, xon tomonidan chiqarilgan farmon va yorliqlarda ham naqibning nomi birinchi bo'lib zikr etilgan. Naqibga davlatning ichki va tashqi siyosati hamda harbiy masalalarda oliy hukmdorning birinchi maslahatchisi sifatida qaralgan. Ayrim hollarda harbiy muzokaralar uchun ham xon raqiblar tomonga o'z naqibini jo'natgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro xonligidagi davlat boshqaruvi tizimida saroy unvon va mansablar muayyan ma'muriy, harbiy va siyosiy vazifalarni bajarish maqsadida tizimlashtirilgan edi. Bu unvon va mansablar xonlikda markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash, mahalliy boshqaruvni nazorat qilish hamda saroy iyerarxiyasini aniq belgilashga xizmat qilgan. «Naqib», «otaliq», «ko'kaldosh», «xon yasovuli» kabi mansabdor shaxslar turli darajadagi ishlarni boshqarib, xonlik siyosiy tizimining barqaror ishlashini ta'minlagan. Shu bilan birga, bu mansab va unvonlar shaxsiy sadoqat va merosiy aloqalar asosida taqdim etilgani xonlikdagi feodal munosabatlarning mavjudligini va markaziy hokimiyatning kuchayishida saroy tizimining rolini tasdiqlaydi. Siyosiy va ma'muriy vazifalarning mansabdor shaxslar o'rtasida aniq taqsimlanishi Buxoro xonligining davlat boshqaruvida tizimlilik va iyerarxik nazoratning mavjudligidan dalolat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. Тарихий- ҳуқуқий тадқиқот. – Тошкент. «Адолат», 2007. – Б. 39.
2. О'sha asar. – В. 52.
3. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бoshqaruvi тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2006. – Б. 45.
4. Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. Тарихий- ҳуқуқий тадқиқот. – Тошкент. «Адолат», 2007. – Б. 54.
5. Худойкулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бoshqaruv тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII–XX аср бoshлари)). Тарих фанлари доктори (DSc) дисс. – Қарши. 2021. – Б. 58-60.
6. Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. Тарихий- ҳуқуқий тадқиқот. – Тошкент. «Адолат», 2007. – Б. 55-56.
7. Худойкулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бoshqaruv тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII–XX аср бoshлари)). ... – Б. 58-60.

UO'K 902(575):930.2

### TEMIR DAVRI O'RTA OSIYO MADANIYATLARINING O'RGANILISH BOSQICHLARI S.B.Ibragimov, magistrant, Osiyo xalqaro universiteti Xorazm filiali, Urganch

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda Markaziy Osiyo hududida temir davri (miloddan avvalgi 1-ming yillik) madaniyatlarini arxeologik va tarixiy o'rganishning asosiy bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot ushbu ilmiy jarayonning to'rtta asosiy bosqichini aniqlaydi.

— Birinchi bosqich (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) tasodifiy topilmalar, dastlabki ekspeditsiyalar va yozma manbalarga asoslangan tadqiqotlar bilan tavsiflanadi.

— Ikkinchi bosqich (1920-1950-yillar) tizimli arxeologik tadqiqotlarning boshlanishi, “Chust madaniyati” kabi birinchi ilmiy tushunchalarning shakllanishi va davrning dastlabki tarixiy rekonstruksiyasini o'z ichiga oladi.

— Uchinchi bosqich (1960-1980-yillar) keng ko'lamli qazish ishlari, “Sazag'on madaniyati” kabi madaniy tavsiflarning paydo bo'lishi va fanlararo yondashuvlarning keng qo'llanilishi bilan tavsiflanadi.

— To'rtinchi bosqich (1990-yillardan hozirgi kungacha) mustaqil davlatlarning milliy arxeologik maktablarining rivojlanishi, xalqaro hamkorlik, geofizik usullar, GIS texnologiyalari va radiokarbonlarni tahlil qilish kabi zamonaviy usullarning joriy etilishi va madaniy merosni saqlash va turizm bilan bog'liq yangi vazifalarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Tezisdan har bir bosqichning asosiy xususiyatlari, erishilgan yutuqlar va cheklovlar, shuningdek, O'rta Osiyo temir davri madaniyatlarini o'rganishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, Temir davri, arxeologiya, Chust madaniyati, Baqtriya-Marg'iyona madaniyati, Sazag'on madaniyati, arxeologik tadqiqot bosqichlari, metodologiya, xronologiya, sug'oriladigan dehqonchilik, ko'chmanchi chorvachilik, shahar sivilizatsiyasi, qabila tuzumi, davlat tuzumi, tarixiy rekonstruksiya, fanlararo yondashuv, xalqaro hamkorlik, madaniy meros.

**Аннотация.** В данной диссертации анализируются основные этапы археологического и исторического изучения культур железного века (I-е тысячелетие до н.э.) в Центральной Азии. В исследовании выделены четыре основных этапа этого научного процесса.

— Первый этап (конец XIX - начало XX веков) характеризуется случайными находками, первоначальными экспедициями и исследованиями, основанными на письменных источниках.

— *Второй этап (1920-е - 1950-е годы) включает в себя начало систематических археологических исследований, формирование первых научных концепций, таких как «культура Юста», и начальную историческую реконструкцию периода.*

— *Третий этап (1960–1980-е годы) характеризуется масштабными раскопками, появлением таких культурных описаний, как «сазаганская культура», и широким применением междисциплинарных подходов.*

— *Четвертый этап (с 1990-х годов по настоящее время) характеризуется развитием национальных археологических школ независимых государств, международным сотрудничеством, внедрением современных методов, таких как геофизические методы, ГИС-технологии и радиоуглеродный анализ, а также появлением новых задач, связанных с сохранением культурного наследия и туризмом. В работе указаны основные особенности каждого этапа, достижения и ограничения, а также приоритетные направления изучения культур железного века Центральной Азии.*

**Ключевые слова:** *Центральная Азия, железный век, археология, чушская культура, бактрийско-маргианская культура, сазаганская культура, этапы археологических исследований, методология, хронология, орошаемое земледелие, кочевое скотоводство, городская цивилизация, племенная система, государственная система, историческая реконструкция, междисциплинарный подход, международное сотрудничество, культурное наследие.*

**Abstract.** *This thesis analyzes the main stages of archaeological and historical study of Iron Age (1st millennium BC) cultures in the territory of Central Asia. The study identifies four main stages in this scientific process.*

– *The first stage (late 19th-early 20th centuries) is characterized by random finds, preliminary expeditions and studies based on written sources.*

– *The second phase (1920s-1950s) includes the beginning of systematic archaeological research, the formation of the first scientific concepts such as the “Chust culture” and the early historical reconstruction of the period.*

– *The third stage (1960s-1980s) is characterized by large-scale excavations, the emergence of cultural descriptions such as “carp culture” and the widespread use of interdisciplinary approaches.*

– *The fourth stage (from the 1990s to the present) is characterized by the development of National Archaeological schools of independent states, the introduction of modern methods such as international cooperation, geophysical methods, GIS technologies and radiocarbon analysis, and the emergence of new tasks related to the preservation of cultural heritage and tourism. The thesis outlined the main characteristics of each stage, achievements and limitations, as well as priorities for the study of cultures of the Central Asian Iron Age.*

**Key words:** *Central Asia, Iron Age, archaeology, Chust culture, Bactrian-Margian culture, Carpathian Culture, Archaeological Research stages, methodology, chronology, irrigated farming, nomadic livestock, urban civilization, tribal system, state system, historical reconstruction, interdisciplinary approach, international cooperation, cultural heritage.*

**Kirish.** *Markaziy Osiyo hududi o'zining noyob geografik va madaniy mavqeyi tufayli barcha Yevroosiyo sivilizatsiyalari tarixida muhim sahifalarni egallaydi. Ushbu mintaqa uzoq vaqtdan beri Sharq va G'arb, janub va Shimol madaniyatlarining chorrahasi bo'lib, turli xalqlarning o'zaro ta'siri, migratsiyasi va madaniy sintez jarayonlarining jonli sahnasiga aylandi [1]. Temir davri (mil. avv. X - V asrlar) jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanishida yuz bergan tub o'zgarishlari bilan O'rta Osiyo tarixida xususan, O'zbekistonning madaniy xo'jalik markazlarining rivojlanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi [2]. Temir asri Markaziy Osiyoda nafaqat yangi material – temirdan foydalanishning tarqalishi, balki unga mos keladigan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan ham ajralib turadi. Temir asboblar va shunga o'xshash asboblarning paydo bo'lishi sug'oriladigan dehqonchilikning yanada rivojlanishiga, yangi yerlarning rivojlanishiga imkon berdi [3]. Shu bilan birga, temir qurollarning tarqalishi harbiy san'atda inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi, bu qabila ittifoqlarini bir birlari bilan*

yaxshi munosabat o'rnatishga xizmat qildi [4]. Natijada miloddan avvalgi I ming yillikda O'rta Osiyoning turli mintaqalarida o'ziga xos madaniyatlarning gullab-yashnashi kuzatildi: Farg'ona vodiysida Chust madaniyati, Zarafshon vodiysida Sazag'on madaniyat, Janubiy viloyatlarda esa Baqtriya-Marg'iyona rivojlandi [5]. Ushbu madaniy asoslarda keyinchalik birinchi sivilizatsiya shaharlari va Qangxa, Baqtriya, So'g'd, Xorazm kabi qadimiy davlatlar shakllandi [6]. Shunday qilib, temir asri o'rta Osiyoda qabila tuzumidan davlat tuzumiga o'tish, shahar madaniyatining paydo bo'lishi va yozma madaniyatning shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Shu sababli, temir davri madaniyatlarini o'rganish nafaqat mintaqaning o'z tarixini, balki butun Markaziy Osiyo va hatto Yevroosiyo cho'llari bo'lgan dasht zonasidagi madaniy va tarixiy jarayonlarni tushunishning kalitidir. Ushbu davr madaniyati qadimgi Eron, hind, skif-sak va turkiy olamlarning o'zaro ta'siri va sintezini o'rganish uchun noyob materialni taqdim etadi.

Biroq, ushbu muhim madaniy qatlamlarni o'rganish yo'li uzoq, murakkab va bosqichma-bosqich edi. U bir necha avlod olimlarining sa'y-harakatlari, turli ilmiy maktablarning o'zaro ta'siri, siyosiy sharoitlarning o'zgarishi va texnologik taraqqiyot natijasida shakllangan. Bugungi kunda temir davri haqidagi bilimlarimiz asosan qadimiy qablardan topilgan sopol buyumlar, qulab tushgan devorlari bo'lgan qal'a xarobalari va yozma manbalarda kamdan-kam uchraydigan ma'lumotlarga asoslangan [7]. Ushbu bilimlarning paydo bo'lishi va tizimlashtirilishi jarayoni bir nechta bosqichlaridan o'tdi, ularning har biri o'ziga xos uslubiy yondashuvlar, ochilgan yodgorliklar, ilmiy tushunchalar va, albatta, hal qilinmagan masalalar bilan ajralib turadi. Ushbu tezisning maqsadi O'rta Osiyo temir davri madaniyatlarini o'rganishning asosiy tarixiy bosqichlarini tizimli ko'rib chiqish, ularning xususiyatlari va munosabatlarini tahlil qilishdir. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'rta Osiyo temir davri madaniyatlarini o'rganishning tarixiy bosqichlarini aniqlash va ularning xronologik chegaralarini belgilash;
2. Har bir bosqichda duch keladigan asosiy xususiyatlar, uslubiy yondashuvlar, erishilgan yutuqlar va cheklovlarni aniqlash;
3. Ilmiy tushunchalar va atamalar tizimining bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonini kuzatish;
4. Zamonaviy davrda ushbu sohada vujudga kelgan yangi tendentsiyalar va istiqbolli yo'nalishlarni belgilash. Ushbu tadqiqot arxeologiya metodologiyasi va O'rta Osiyoning qadimiy tarixini chuqurroq tushunishga, shuningdek, mintaqaning boy madaniy merosini o'rganish va saqlash bo'yicha amaliy ishlar uchun ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Markaziy Osiyo hududida temir davri madaniyatlarini arxeologik va tarixiy o'rganish jarayonini tizimli tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u to'rtta makro bosqichda bo'lib o'tdi, ular aniq uslubiy va institutsional o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Birinchi, tadqiqot bosqichi (XIX– asr oxiri–XX-asr boshlari) tasodifiy topilmalarni sanab o'tish va qadimgi yozma manbalar (asosan yunon-Rim va Xitoy) asosida dastlabki tarixiy va geografik identifikatorlarni o'tkazishdan iborat bo'lib, arxeologiya hali mustaqil fan sifatida shakllanmagan. Tizimlashtirishning ikkinchi bosqichi (1920-1950-yillar) qat'iy stratigrafik tamoyillar bo'yicha tashkil etilgan ekspeditsiyalar faoliyati va "Chust madaniyati" va birinchi arxeologik madaniyatlar kabi tushunchalarni ilmiy muomalaga kiritish bilan tavsiflanadi. Tahlilning uchinchi, sintetik bosqichi (1960-1980-yillar) tadqiqot geografiyasining keskin kengayishi, madaniyatlarning ichki xronologiyasi va tipologiyasini aniqlashga urinishlar, shuningdek antropologiya, paleobotanika kabi tabiiy fanlarning usullarini joriy etish natijasida madaniy jarayonlarni yanada murakkab qayta qurish imkoniyatini yaratdi. Sintezning to'rtinchi, zamonaviy bosqichi (1990-yillardan hozirgi kungacha) tadqiqot paradigmasining tubdan o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, unda radiokarbonli tahlil, geofizik usullar va geografik axborot tizimlari (GIS), xalqaro hamkorlikning keng qamrovli loyihalari yordamida aniqroq xronologik va fazoviy tahlil ustuvor yo'nalish hisoblanadi. etnogenetik va ekologik yondashuvlarni kuchaytirish. qiladi. Har bir bosqich avvalgisining ilmiy merosiga tayanib, yangi uslubiy qurollar bilan boyitilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rtveladze E. Markaziy Osiyo: Qadimgi davrlardan zamonaviy davrgacha.– Toshkent. "Sharq", 2006. – B. 312.
2. G'affarov M.Q. O'zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi (mil. avv. IX-V asrlar). – Urganch, 2025. – B.57.

3. Askarov A. Qadimgi dehqonchilik madaniyati (O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida temir davri madaniyatining kelib chiqishi va rivojlanishi). – Toshkent. "Fan". 1977. – B. 248.
4. Zadneprovskiy Y. A. Farg'ona vodiysining qadimgi dehqonchilik madaniyati (Chust madaniyati). – Sankt-Peterburg: Peterburg sharqshunoslik markazi. 1995. – B. 184.
5. Masson V. Daxma va tepa: O'rta Osiyo arxeologiyasidan sayohat. – Toshkent. "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2020. – B. 256.
6. Askarov A., Shirinov T. O'rta Osiyoda ilk shaharlar va davlatlarning paydo bo'lishi. – Toshkent. "Sharq". 2014. – B. 204.
7. Grenet F. The Archaeology of Ancient Samarkand: From the Iron Age to the Karakhanids. // Journal of Inner Asian Art and Archaeology, Vol. 10, 2018. – P. 3-22.

UO'K 902.2:903.02:39

## BRONZA DAVRIDA SOPOLLITEPA MADANIYATI VA QO'SHNI HUDUDLARDAGI MADANIY-ETNIK ALOQALAR

*S.B.Ibragimov, magistrant, Osiyo xalqaro universiteti Xorazm filiali, Urganch*

**Annotatsiya.** *Bronza davridagi Sopollitepa madaniyati va qo'shni hududlardagi madaniy-etnik aloqalar mavzusidagi ushbu ilmiy ishda Surxondaryo viloyatida joylashgan Sopollitepa arxeologik manzilgohining madaniy xususiyatlari va uning O'rta Osiyoning boshqa mintaqalari bilan o'zaro aloqalari o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy yo'nalishi Sopollitepa madaniyatining qo'shni viloyatlar – Baktريا-Marg'iyona arxeologik majmuasi, Andronovo madaniyati, Hind daryosi tsivilizatsiyasi va Farg'ona vodiysidagi Chust madaniyati bilan madaniy, iqtisodiy va texnologik aloqalarini aniqlashdan iborat. Maqolada ushbu aloqalar savdo tarmoqlari, texnologik almashinuv va madaniy ramzlarni ko'paytirish mexanizmlari orqali amalga oshirilganligi ko'rsatilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Sopollitepa madaniyati, Bronza davri, Markaziy Osiyo arxeologiyasi, Baktريا-Marg'iyona arxeologik majmuasi, Andronovo madaniyati, madaniy aloqalar, etnik almashinuv, arxeologik manzilgoh, Surxondaryo viloyati, gibril madaniyat, madaniy transformatsiya.*

**Аннотация.** *В данном исследовании, посвященном бронзовому веку и культуре Сополлитепа, а также её культурно-этническим связям с соседними регионами, рассматривается археологический памятник Сополлитепа, расположенный в Сурхандарьинской области, с точки зрения его культурных особенностей и взаимодействий с другими регионами Центральной Азии. Основное направление исследования заключается в изучении связей культуры Сополлитепа с соседними территориями, включая археологический комплекс Бактрия-Маргиана, андроновскую культуру, цивилизацию долины Инда и чустскую культуру Ферганской долины, с точки зрения культурных, экономических и технологических отношений. В статье показано, что эти взаимодействия осуществлялись через торговые сети, технологический обмен и механизмы передачи и распространения культурных символов.*

**Ключевые слова:** *Культура Сополлитепа, бронзовый век, археология Центральной Азии, археологический комплекс Бактрия-Маргиана, Андроновская культура, культурные связи, этнический обмен, археологический памятник, Сурхандарьинская область, гибридная культура, культурная трансформация.*

**Abstract.** *In this study on the Bronze Age Sopollitepa culture and its cultural-ethnic connections with neighboring regions, the archaeological site of Sopollitepa, located in Surxondaryo Province, is examined with respect to its cultural characteristics and interactions with other regions of Central Asia. The primary focus of the research is to analyze the Sopollitepa culture's links with adjacent areas, including the Bactria-Margiana Archaeological Complex, the Andronovo culture, the Indus River civilization, and the Chust culture of the Fergana Valley, in terms of cultural, economic, and technological connections. The article demonstrates that these interactions were facilitated through trade networks, technological exchanges, and mechanisms of transmitting and amplifying cultural symbols.*

**Key words:** *Sopollitepa culture, bronze Age, Central Asian archaeology, Bactria-Margiana archaeological complex, Andronovo culture, cultural relations, ethnic exchange, archaeological site, Surkhondaryo region, hybrid culture, cultural transformation.*

**Kirish.** Bronza davri yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega o'zgarishlar davrini anglatadi[1]. Bu davrda metallurgiya rivojlanishining murakkablashuvi, urbanizatsiya jarayonlari va madaniy almashinuvlarning kengayishi kuzatilgan. O'rta Osiyoning Janubiy hududlarida, xususan, zamonaviy O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida joylashgan Sopollitepa madaniyati miloddan avvalgi 2-ming yillikning ikkinchi yarmiga tegishli bo'lib, mintaqaning madaniy dinamikasini tushunishda muhim o'rin tutadi [2]. Sopollitepa posyolkasi nafaqat mahalliy madaniy an'analarni, balki keng mintaqaviy madaniy, iqtisodiy va etnik aloqalarning murakkab tarmog'ini ham aks ettiradi [3]. Ushbu maqolada Sopollitepa madaniyatining xususiyatlari, uning qo'shni mintaqalar bilan o'zaro ta'siri (Baqtriya-Marg'yona arxeologik majmuasi, Andronovo madaniyati, Hind daryosi sivilizatsiyasi) va etnik o'ziga xoslik masalasi o'rganilgan. Tadqiqotning maqsadi bronza davridagi Markaziy Osiyoda madaniy almashinuv mexanizmlari va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

**Materiallar va usullar.** Tadqiqotda quyidagi manbalar asosida ikkilamchi ma'lumotlar tahlili ishlatilgan:

- Arxeologik hisobotlar va monografiyalar: Sopollitepa va unga yaqin hududlarda olib borilgan qazishmalar natijalari [4];

- Qiyosiy tahlil: Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasi, Andronovo madaniyatining Janubiy chekkalari va Hind daryosi madaniyatining so'nggi davrlari materiallari bilan qiyosiy tahlillar qilingan;

- Xronologik tahlil: radiokarbonli tanishish va tipologik ketma-ketliklar asosida madaniy uzluksizlik va uzilishlarni aniqlash;

- Mintaqaviy yondashuv: Sopollitepani alohida hodisa sifatida emas, balki kengroq mintaqaviy tizimning bir qismi sifatida o'rganish.

**Natijalar.** Sopollitepa-miloddan avvalgi 1500-1000 yillarga oid aholi punkti bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega: Arxitekturada, kuchli mudofaa devorlari bilan o'ralgan turar-joy majmuasiga ega edi. Xom g'ishtdan qurilgan to'rtburchakli xonalar va omborlar aniqlangan. Sopollitepa arxitekturasi Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasi an'alariga nisbatan soddalashtirilgan[5]. Madaniy materiallarga esa kulolchilikda qizil sirtli, qora geometrik bezakli (uchburchak, romb, zanjirli chiziq) kostryulkalar ustunlik qiladi. Shakllari, chuqur kosa, qadah kosa, humps; metall mahsulotlari: mis va jez nayza uchlari, pichoqlari, bilakuzuklar. Metallurgiya texnologiyasida esa Andronovo madaniyati ta'sir qilganligini ko'rsatadi[6].

Dafn qilingan qabrlar o'rganilganda jasad buklangan holda, yon tomonga qaragan holda ko'milgan. Qabrga qurol-yarog', idish-tovoq va oziq-ovqat qoldiqlari joylashtirildi. Qo'shni madaniyatlar bilan qiyosiy tahlil qilsak Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasi bilan aloqalari shundan iboratki, sug'orish dehqonchiligi, loy va xom g'isht arxitekturasi, ba'zi kulolchilik shakllari Sopollitepaniki bilan o'xshash. Farqlari shundaki kulolchilik bezaklari ancha murakkab (hayvonlar va inson figuralari), Sopollitepada esa geometrik bezak ustunlik qiladi [7]. Andronovo madaniyati bilan aloqalarida metall buyumlar (nayzalar) va qabrlar ichida ot suyaklarining kashf etilishini ko'rishimiz mumkin. Ammo, turar-joy va kulolchilikdagi tub farqlari saqlanib qolgan. Hind daryosi madaniyati bilan aloqalari: geometrik bezaklarning o'xshashliklari (masalan, rombik shakllar), ammo to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish dalillari zaif.

Farg'ona (Chust madaniyati) bilan aloqalar: yaqin madaniy almashinuvni ko'rsatadigan o'xshash keramika shakllari va qurilish usullari. Aloqa mexanizmlari va yo'nalishlarida quyidagi aloqa turlari aniqlangan: savdo tarmoqlari, metall savdosi, Sopollitepa viloyati mis va qalay resurslari jihatidan strategik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin; qimmatbaho toshlar: lazurit va agat parchalari topilgan, buni Baqtriya orqali savdo aloqalari tasdiqlaydi.

**Xronologik joylashuv.** Sopollitepa madaniyati Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasining qulashi va temir asrining boshlanishi o'rtasidagi tranzit davriga to'g'ri keladi. Bu davrda mintaqaviy tarmoqlarni qayta tashkil etish kuzatilgan. Madaniy belgilar almashinuviga geometrik naqshlarning taqsimlanishi keng madaniy aloqa zonasida ekanligini ko'rsatadi.

**Muhokama.** Sopollitepa madaniyatining kelib chiqishi va rivojlanishini uch bosqichli jarayon sifatida talqin qilish mumkin:

Birinchidan, Sopollitepa Baqtriya-Margiya arxeologik majmuasining qulashi natijasida yaratilgan madaniy vakuumni to'ldiradigan mahalliy madaniy uzluksizlikni ifodalaydi. Sug'orishda dehqonchilik an'analari, loy me'morchiligi va ba'zi kulolchilik shakllarining davomiyligi bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Ikkinchidan, Andronovo madaniyati vakillari bilan aloqalar yangi elementlarni (metallurgiya, ot madaniyati) kirib kelishiga turtki bo'ldi. Bu jarayon nafaqat moddiy madaniyatda, balki ijtimoiy tashkilotda ham o'zgarishlarga olib kelgan bo'lishi mumkin. Uchinchidan, Sopollitepa mintaqaviy tarmoqni qayta tiklashda muhim rol o'ynagan. Miloddan avvalgi 2-ming yillikning oxirida, o'rta Osiyoda yangi madaniy tuzilmalar shakllana boshlaganda, Sopollitepa madaniy almashinuvning muhim markazi bo'lgan. Etnik identifikatsiya masalasi murakkab va bir qator imkoniyatlarni ko'rish mumkin: Hind-Eron tillari guruhining davomiyligi: Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasi va Sopollitepa o'rtasidagi madaniy uzluksizlik Hind-Eronda so'zlashadigan aholi mavjudligini ko'rsatishi mumkin; Andronovo ta'siri: Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasi va Sopollitepa o'rtasidagi madaniy uzluksizlik. Hind-Yevropa tillarining boshqa farqlari (ehtimol Hind-oriy yoki Eron) mintaqaga kirib borishi; gibril madaniyat modeli: mahalliy (Baqtriya-Margiya arxeologik majmuasi merosi) va yangi (Andronovo elementlari) tarkibiy qismlarining sintezi. Bronza davri janubiy O'zbekiston manzilg'ohlarida dafn marosimlarining tipologik xususiyatlari Sopollitepa uchun ham xosdir [8]. Sopollitepa misoli shuni ko'rsatadiki, so'nggi bronza davri O'rta Osiyoda madaniy kolleksiyalarning qayta shakllanishini ko'rgan. Bu jarayon nafaqat migratsiya natijasi, balki mahalliy yangiliklar va madaniy moslashuvlar ham edi

Tadqiqotning uslubiy cheklovlarini bartaraf etish uchun kelajakda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega bo'ladi:

- Sopollitepaning keng ko'lamlar arxeologik qazishmalari va nashrlari;
- metall, keramika va suyak artefaktlarini laboratoriya tahlili;
- paleogenetik tadqiqotlar.

**Xulosa.** Sopollitepa madaniyati so'nggi bronza davrida O'rta Osiyoning Janubiy qismidagi madaniy o'zgarish jarayonlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki Sopollitepa gibril madaniyat bo'lib, u nafaqat mahalliy an'analarni davom ettiradi, balki Shimoliy (Andronovo) va Sharqiy (Hind daryosi) ta'sirini ham sintez qiladi. Aloqa mexanizmlari asosan savdo tarmoqlari (metallar, qimmatbaho toshlar) va texnologik almashinuv orqali amalga oshirildi. Madaniy materiallarni tahlil qilish miloddan avvalgi 2-ming yillikning ikkinchi yarmida mintaqada madaniy tarmoqlarni qayta tashkil etishni vujudga keltirdi. Etnik o'ziga xoslik ko'p komponentli modelni talab qiladi, unda madaniy uzluksizlik va yangi elementlarning integratsiyasi muhim rol o'ynaydi. Sopollitepani o'rganish nafaqat o'tmishdagi madaniy jarayonlarni tushunish, balki Markaziy Osiyoda madaniy almashinuv va moslashish mexanizmlarini tadqiq qilish uchun muhim imkoniyatdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент “Фан”, 1981. С. 67-72, 89-94.
2. Богданова Т. В. Сополлитепа – новый памятник эпохи бронзы Южного Узбекистана. Советская археология, №3, 1990. – С. 89, 145-162.
3. Xibert F.T. Origins of the Bronze Age Oasis Civilization in Central Asia. Cambridge, MA: Peabody Museum of Archaeology and Ethnology. 1994. – P.78-83, 189.
4. Каня Л. Т., Богданова, Т. В., Сагдуллаев, А. и тд. Археологические исследования в Сурхандарьинской области. – Ташкент “Фан”, 1991.– С. 34-41.
5. Lamberg-Karlovsky K. K. The Bronze Age of Central Asia. Antiquity, 68(260), 1994. – P. 156-162,398.
6. Массон В. М. Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА, №73. Москва–Ленинград. 1959. – С. 45-51.
7. Kol P. L. Central Asia: Palaeolithic Beginnings to the Iron Age. Paris: Éditions Recherche sur les civilisations. 1984. – P. 123-130, 156-162,312.
8. Сагдуллаев А. С. К изучению памятников эпохи бронзы Южного Узбекистана. ИМКУ, №15, 1980. – С. 39 – 40.

**QASHQADARYO VILOYATIDA IRRIGATSIYA VA SUV XO'JALIGI RIVOJIDA  
KOMIL AMIROVNING O'RNI**

*I.X.Jabbarova, PhD, dots., Qarshi davlat universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasida irrigatsiya va suv xo'jaligi tizimining shakllanishi hamda rivojlanishida muhim o'rin tutgan irrigator, muhandis va davlat arbobi Komil Amirovning hayoti va faoliyati yoritilgan. Tadqiqotda uning bolalik yillari, oliy ta'lim olishi, muhandislik faoliyatining boshlanishi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida amalga oshirgan yirik gidrotexnik loyihalari ilmiy-tarixiy tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Irrigatsiya, suv xo'jaligi, Qashqadaryo vohasi, gidrotexnik inshootlar, suv resurslarini boshqarish, muhandislik faoliyati.

**Аннотация.** В статье рассматриваются жизнь и профессиональная деятельность ирригатора, инженера и государственного деятеля Амирова Камил, сыгравшего важную роль в формировании и развитии ирригационной системы и водного хозяйства Кашкадарьинского региона. В исследовании дается научно-исторический анализ его детских лет, получения высшего образования, начала инженерной деятельности, а также крупных гидротехнических проектов, реализованных в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях. Особое внимание уделяется вкладу Х. Тошева в развитие ирригационной инфраструктуры и систему управления водными ресурсами Узбекистана.

**Ключевые слова:** Ирригация, водное хозяйство, Кашкадарьинский регион, гидротехнические сооружения, управление водными ресурсами, инженерная деятельность

**Abstract.** This article examines the life and professional activity of Komil Amirov, an irrigator, engineer, and statesman who played a significant role in the formation and development of irrigation and water management systems in the Qashqadaryo region. The study provides a scholarly and historical analysis of his childhood years, higher education, the beginning of his engineering career, as well as the major hydraulic engineering projects implemented in the Qashqadaryo and Surkhandarya regions. The research highlights Toshev's contribution to the development of irrigation infrastructure and water resource management, emphasizing his importance in the history of Uzbekistan's water management sector.

**Key words:** Irrigation, water management, Qashqadaryo region, hydraulic engineering structures, water resource management, engineering activity.

**Kirish.** Har bir el-yurt tarixida o'z mehnati, fidoyiligi va ma'naviy barkamolligi bilan zamon ruhi va avlodlar xotirasida mangu yashab qoladigan insonlar bo'ladi. Ular mansab yoki unvon bilangina emas, balki qilgan ezgu ishlari, yaratgan moddiy va ma'naviy merosi, insoniy fazilatlar bilan taniladi. Ana shunday kamtar, ammo ulkan hayot yo'liga ega shaxslardan biri — Komil Amirovdir.

Komil Amirov Qashqadaryo viloyati irrigatsiya va suv xo'jaligi tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk mutaxassis va rahbarlardan biridir. Uning hayoti va faoliyati shuni ko'rsatadiki, yirik muhandislik yutuqlari ortida nafaqat bilim va tajriba, balki sabr, halollik va insoniylik kabi fazilatlar ham yotadi.

**Tahlil va natijalar.** 1942 yil Qashqadaryo vohasining Koson tumaniga qarashli Usho'gtepa qishlog'ida tug'ilib[2], shu zamindan kuch-quvvat olgan Komil Amirov butun umrini suv xo'jaligi, irrigatsiya va yirik muhandislik inshootlari barpo etishga bag'ishlagan fidoyi mutaxassis sifatida tanilgan. U nafaqat o'z kasbining yetuk bilimdoni, balki murakkab davrlarda mas'uliyatni zimmasiga ola bilgan jasoratli rahbar, insoniy fazilatlar bilan el-yurt e'tirofiga sazovor bo'lgan ziyoli siymo edi.

Ziyoli oilada tug'ilgan K. Amirovning otasi maktab direktori bo'lgan. Padari buzrukvori urush yillarida halok bo'lib, yetimlik va mashaqqatli hayot sharoitida kamol topgan Komil Amirovning hayot yo'li matonat, sabr-toqat va mehnatsevarlik timsolidir. Toshkentdagi oliy texnik ta'lim muassasasida olgan chuqur bilimlari, Qashqadaryo viloyatidagi irrigatsiya va melioratsiya tizimlarida

olib borgan amaliy faoliyati uni qisqa vaqt ichida yirik qurilish va boshqaruv ishlarining markaziga olib chiqdi.

Komil Amirovning hayoti va faoliyati misolida Qashqadaryo viloyatida irrigatsiya tizimlarining shakllanishi, yirik suv inshootlarining bunyod etilishi, ayniqsa Hissarak suv ombori kabi strategik obyektlarning qurilish jarayonidagi tashkiliy, texnik va insoniy omillarni ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, uning shaxsiy fazilatlarini, rahbarlik madaniyati va kasbiy sadoqati bugungi avlod uchun ibrat maktabi sifatida talqin etiladi.

Komil Amirov otasidan ayrilgan holda dunyoga kelar ekan otasi urushdan qaytmagan bo'lsa-da, onasining mehr-muhabbati, sabr-toqati va hayotiy qat'iyati Komil Amirov shaxsining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Mushfiq ona farzandini halol mehnatga, ilmga hurmat va mas'uliyatga o'rgatdi. Aynan shu tarbiya keyinchalik Komil Amirovning kasbiy faoliyatida ham namoyon bo'lib, u har bir vazifaga vijdonan yondashadigan, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan rahbar sifatida tanildi.

Toshkentdagi Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutini muvaffaqiyatli tamomlagan Komil Amirov Institutning gidromelioratsiya fakultetini muvaffaqiyatli bitirgan yosh kadr Qashqadaryo viloyat sug'orish tizimlari boshqarmasiga yo'llanma oldi. Bu davrda Xursand Toshev Boshqarma bosh muhandisi bo'lib ishlagan[3]. Bilimi va qobiliyatini sezgan muhandis uni tumanga yubormay, Boshqarmaning qurilish bo'limida muqandis sifatida ishga olib qoladi. Ko'p o'tmay, boshqarva vakillari mutaxassisligini mukammal biladigan, kirishimli va tashkilotchi kadr ega bo'lganiga amin bo'lgan. U qisqa vaqt ichida bilimdon muhandis, puxta tashkilotchi sifatida e'tirof etilgan.

“Eskianhorkanalqurilish” trestining Qashqadaryo PMKsiga bosh muqandis yuborish zarurati paydo bo'lganda, yagona munosib nomzod sifatida Komil Amirov tavsiya qilindi. Xursand Toshev: “Komiljon qisqa vaqt ichida PMKning ishlarini yanada kuchaytirishga, eng muhimi, uni trestning eng ilg'or jamoalaridan biriga aylantirishga hal qiluvchi hissa qo'sha bildi”, - deya xotirlaydi o'z kitobida[4]. Shundan so'ng yosh bo'lajak Ustoz-Irrigator soha sardorlari va viloyat rahbariyati mas'ullarining nazariga tushdi Shuning uchun ham 1971 yili viloyat rahbariyatiga bo'lim mudiri qilib o'tkazishdi[1].

Ayniqsa, Hissarak suv ombori qurilishi uning kasbiy salohiyatini to'liq namoyon etgan yirik loyiha bo'ldi. Murakkab tog' sharoitida olib borilgan ushbu qurilish jarayonida Komil Amirov texnik bilim, tashkilotchilik va insoniy yondashuvni uyg'unlashtira oldi. Natijada suv ombori Qashqadaryo viloyatining suv ta'minotini yaxshilash, qishloq xo'jaligi va energetika rivojiga xizmat qiluvchi strategik obyektga aylandi.

Hissarak suv ombori qurilish ishlari 1976 yili Respublika Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligiga qarashli "Eskiangarkanalstroy" trestiga (boshlig'i A. Pardayev) qarashli Shahrisabz PMK (boshlig'i B. Samiyev) tomonidan boshlandi. Vazirlik 1978 yili suv ombori kompleksini qurish uchun "Gissarakgidrostroy" qurilish tashkilotini tashkil qildi va unga boshliq etib viloyat sug'orish tizimlari boshqarmasida bosh muhandis bo'lib ishlagan Komil Amirov tayinlandi[5].

Komil Amirov qaysi lavozimda ishlamasin — vazir o'rinbosari, tuman birinchi rahbari yoki yirik qurilish tresti boshlig'i sifatida — kamtarligi va halolligi bilan ajralib turdi. U mansabni emas, natijani ustuvor qo'ydi. Jamoa bilan ishlashda inson omiliga katta e'tibor berib, yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatladi, ularga tajriba maktabi yaratdi.

Viloyatida ixtisoslashgan boshqarmalar bir nechta bo'lib, shular qatoriga “Hisoraksuvqurilish” boshqarmasi ham yangi jamoa sifatida qo'shilgan edi. Amirov ana shu tashkilotga yetakchilik qilgan yillari (1976-1978) uni qisqa muddat ichida haqiqiy professional boshqarma qilib shakllantira oldi. Bundan xursand bo'lgan yuqori rahbariyat uni Toshkentga, respublika Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligiga vazir muovini qilib ko'tarishdi[6].

Komil Amirov keyinchalik Kitob tumanining birinchi rahbari, viloyat sug'orish gizimlari boshqarmasining boshlig'i, “Eskianhorkanalqurilish” trestining boshqaruvchisi vazifalarida ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatgan[4].

O'z kasbiga va tanlagan sohasiga chin dildan sodiq ekani shundan ham yaqqol namoyon bo'ladiki, Komil Amirov nafaqat faol mehnat yillarida, balki pensiya yoshiga yetganidan keyin ham

“Eskianhorkanalqurilish” tresti bilan uzviy aloqani uzmasdi. 2005 yilda mazkur trest xususiyashtirilganida, u rahbarlik mas’uliyatini o‘g‘li G‘afurjon Amirovga ishonib topshirib, o‘zi esa tajribali mutaxassis sifatida maslahatchi vazifasida faoliyat yuritdi. Tajribalarini yurt rivojida ishlatdi. Bu holat Komil Amirov uchun kasb shunchaki ish emas, balki umr mazmuniga aylanganini, to‘plangan boy tajriba va bilimni keyingi avlodga izchil ravishda yetkazishga intilishini yaqqol ko‘rsatadi.

Hamkasblarining xotiralarida Komil Amirov “ishga jonini beradigan, lekin o‘zini hech qachon oldinga chiqarmaydigan” rahbar sifatida eslanadi. Bu fazilatlar uning xalq orasidagi obro‘cini yanada mustahkamladi[3].

Komil Amirov hayotida irrigatsiya sohasi nafaqat kasb, balki hayot falsafasiga aylandi. Bu jihat uning buyuk irrigator Xursand Toshev oilasi bilan qarindoshlik rishtalari orqali yanada mustahkamlandi. Xursand Toshev o‘g‘li Rashid Toshevga Komil Amirovning qizi Zeboxonning turmushga berilishi ikki yirik irrigatorlar sulolasini bog‘ladi. Bu voqea irrigatsiya sohasida shakllangan kasbiy an’analar, ma’naviy yaqinlik va ustoz-shogirdlik va qiyomatli do‘st-birodarlik rishtalarining oilaviy darajada davom etishining yorqin namunasidir.

**Xulosa.** Komil Amirovning hayot yo‘li va mehnat faoliyati O‘zbekiston irrigatsiya va suv xo‘jaligi tarixida alohida o‘rin tutadi. U o‘z faoliyati davomida nafaqat muhim muhandislik inshootlarini barpo etdi, balki yuzlab yosh mutaxassislarning shakllanishiga, ularning tajriba orttirib, yetuk rahbar darajasiga ko‘tarilishiga zamin yaratdi. Uning rahbarlik faoliyati tashkilotchilik, mas’uliyat va insoniylik uyg‘unligining yorqin namunasidir.

Hissarak suv ombori, Eski Anhor va Qum daryosi kanallari, viloyatdagi yirik melioratsiya ishlari — bularning barchasida Komil Amirovning bilim va fidoyiligi mujassam. Ushbu loyihalar nafaqat suv ta’minotini yaxshiladi, balki butun bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga, qishloq xo‘jaligi hosildorligining oshishiga, aholi turmush darajasining yuksalishiga xizmat qildi.

Eng muhimi, Komil Amirov qayerda ishlamasin, mansabidan qat’i nazar, avvalo insoniyligi, kamtarligi va elga sadoqati bilan hurmat qozondi. U oilaparvar ota, vatanparvar mutaxassis, halol rahbar sifatida ko‘plar xotirasida “tog‘imiz”, “chinorimiz” deya e’zoz bilan tilga olinadi. Bugungi kunda uning mehnat maktabi va hayot falsafasi yosh avlod uchun katta saboq, fidoyilik va komillik timsoli bo‘lib qolmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. [Mehri daryo – Qashqadaryo. Ulug‘larning qadami tekkan tuproq](#)
2. Абдуллаев М. Сабр онаси. –Тошкент: «Тафаккур», 2009. 127 б.
3. Тошев Х. Қашқадарёда ирригация ишлари. –Тошкент: «Ўзбекистон», 1976.-24 б.
4. Тошев Х. Дарёлар туташган диёр. –Қарши: «Насаф», 2020. -292 б.
5. Тошев Х. Ирригация – умрим мазмуни. –Тошкент, 2009. -246 б.
6. Имомназаров О., Фризен Е. Ҳаёт қон томирлари. –Тошкент: «Меҳнат», 1989. -71 б.

UO‘K 94(575.1):94(4) + 339.5

## QO‘QON XONLIGI VA USMONLILAR IMPERIYASI SAVDO ALOQALARI: TARIX VA TAHLIL

*Z.Sh.Madraximov, dots., t.f.n., Namangan davlat universiteti, Namangan*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada, *Qo‘qon xonligining Usmonlilar imperiyasi bilan savdo aloqalari yoritilgan. Ikki davlat o‘rtasida olib borilgan savdo aloqalari yo‘nalishlari, unda muhim ahamiyat kasb etgan mahsulotlar, bu aloqalarning ahamiyati qo‘shni hududlar bilan solishtirilgan xolda ko‘rsatib berishga harakat qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Qo‘qon xonligi, Rossiya imperiyasi, Usmonlilar imperiyasi, karvon yo‘llari, haj ziyorati, Istanbul, ipak va yarim ipak mahsulotlar, tranzit hudud.*

**Аннотация.** В данной статье освещаются торговые связи Кокандского ханства с Османской империей. Рассматриваются основные направления торговых контактов между двумя государствами, товары, имевшие в них важное значение, а также предпринимается попытка показать значимость этих связей в сравнении с отношениями с соседними территориями.

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, Российская империя, Османская империя, караванные пути, хадж-паломничество, Стамбул, шелковые и полушелковые изделия, транзитная территория.

**Abstract.** This article examines the trade relations between the Kokand Khanate and the Ottoman Empire. It seeks to analyze the main directions of trade interactions between the two states, the commodities of particular significance within these exchanges, and the overall importance of such relations, assessed through a comparative perspective with neighboring regions.

**Key words:** Kokand Khanate, Russian Empire, Ottoman Empire, caravan routes, pilgrimage (Hajj), Istanbul, silk and semi-silk products, transit territory.

**Kirish.** 1709 – 1876-yillarda tarix sahnasida mavjud bo'lgan Qo`qon xonligi O`rta Osiyo xonliklari bilan bir qatorda, Rossiya, Xitoy, Qashqar, Hindiston, Afg'oniston, Eron, arab mamlakatlari, Usmonlilar imperiyasi va boshqa hududlar bilan faol savdo aloqalarini olib borgan. Bu savdo aloqalari Qo`qon xonligining 1860 – 1865-yillarda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida hududlarining katta qismidan ayrilgan, hududi faqatgina Farg'ona vodiysidagina iborat bo`lib qolgan davrida ham davom etgan.

Xonlikning tashqi savdo aloqalarida Usmonlilar imperiyasi muhim ahamiyat kasb etgan. Xonlik savdogarlari Usmonlilar imperiyasi shaharlari bilan asosan Buxoro, Afg'oniston yoki Xuroson, Eron, qisman Rossiya imperiyasi hududlaridan o`tgan karvon yo`llari orqali savdo aloqalarini amalga oshirganlar.

Qo`qon xonligidan Usmonlilar imperiyasi shaharlariga ipak va yarim ipak matolar, mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar va Xitoy mollari olib borilgan. Bu mamlakatlarga xonlik savdogarlarining har bir safari bir necha oylab, yillab davom etgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Qo`qon xonligi va Usmonlilar imperiyasi o`rtasidagi aloqalari tarixini o`rganishda tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari muhim o`rin egallaydi. Xususan, O`rta Osiyo xonliklarida faoliyat olib boran mahalliy muarrixlarning asarlari bilan birga, XVIII – XIX asrlar oralig`ida O`rta Osiyoga tashrif buyurgan yevropalik sayyoh, josus va tadqiqotchilarning asarlari va esdaliklarida ham mavzuga oid qimmatli ma`lumotlar mavjud. O`zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan I. 469-fond – Toshkent shahar yarmarkasi va karvonsaroyi tashkiliy qo`mitasi hujjatlari mavzuga oid qimmatli ma`lumotlarni beradi. Shuningdek, mazkur mavzuga oid muhim tarixiy hujjatlar – Usmonli imperiyasi arxivlarida (Osmanlı Arşivi, Istanbul) saqlanadi. Bu hujjatlar orasida O`rta Osiyolik ziyoratchilar, savdogarlar yoki diplomatik yozishmalar oid ro`yxatlar mavjud.

**Natijalar va muhokama.** Har yili haj mavsumida Makka va Madina ziyoratiga otlangan hojilar ham ikki hudud o`rtasidagi savdo aloqalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etganlar. Makka ziyoratiga ketayotgan “qo`qonlik” ziyoratchilarning bir qismi Rossiya hududi orqali, ya`ni Orenburg – Astraxan – Istanbul yo`nalishidan foydalanishni ma`qul ko`rganlar. Ular haj ziyoratiga borish jarayonida o`zlari bilan mahalliy mollarni olib borganlar hamda safar davomida xorijiy mahsulotlarga ayirboshlaganlar. Toshkent bojxonasi ma`lumotlariga ko`ra, 1871-yil iyun` oyida Qo`qondan Toshkent orqali Makka va Madinaga 400 dona ipak ro`mol [1], 1872-yil may-avgust oylarida esa Makkaga 23 ming 545 rub. 50 kopeeklik mol jo`natilgan [2].

Mashhur Marg`ilon ipak gazlamalari, ro`mollar, ko`rpa va boshqa Qo`qon xonligi mahsulotlari Usmonlilar davlati bozorlarida o`z xaridoriga ega bo`lgan va xonlik savdogarlari tomonidan ko`plab olib borilgan [3]. Xususan, Toshkent bojxonasi ma`lumotlarga ko`ra, 1871-yil aprel` oyida andijonlik savdogarlar Bobonazar So`fi Chinibekov va Hoji Habibullo Mulla Haydarbekovlar Qo`qon xonligidan Rossiya shaharlari orqali Istanbulga 24 rubllik 40 dona ipak ro`mol, 40 rubllik 600 parcha chit, 40 rubllik 8 funt• xom ipak, jami: 104 rubllik, andijonlik savdogar Hoji Muhammad Amin Xo`ja Abdullo Hojiyev 40 rubllik 8 funt xom ipak, qo`qonlik savdogar Mulla Abdumajid Nodir Muhamedov 138 rubllik 180 dona ipak ro`mol, 90 rubllik 180 dona oddiy ro`mol, 30 rubllik 10 juft beqasam, 40 rubllik 10 juft kanaus, jami: 308 rubllik, qo`qonlik savdogar Mulla Ne`matulla Mulla Abdurahmonov 138 rubllik 180 dona ipak ro`mol, 140 rubllik 280 dona oddiy ro`mol, 42 rubllik ipak

\* Izoh: Funt – og`irlik o`lchov birligi bo`lib, XIX asrda 1/40 pudga, 400,12 grammga teng bo`lgan (Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т., 9 – том. 2005. – Б. 340.).

matolar, jami: 320 rubllik, andijonlik savdogar Xojamonbekov esa 200 rubllik 400 dona ipak ro`mol, 300 rubllik 1 pud 20 funt xom ipak, jami 500 rubllik mol olib ketganlar [4].

Shuningdek, 1871-yil may oyida Toshkent va Rossiya shaharlari orqali Istanbulga qo`qonlik savdogar Muhammad Yoqub 148 rubllik 300 dona ipak ro`mol, 8 rubllik 4 pud duriya ipak matosi, 400 rubllik 2 pud tafil ipagi, jami: 566 rubllik, qo`qonlik savdogar Mulla Yo`ldosh Mulla Qurbashev 160 rubllik 320 dona ipak ro`mol, qo`qonlik savdogar Hoji Muhammad Norbo`riboev 20 rubllik kanaus va 137 rubllik 140 ta ipak ro`mol, jami: 160 rubllik, qo`qonlik savdogar Mulla Muhammad Musa Kaganboyev 20 rubllik 10 juft kanaus va 137 rubllik 140 dona ipak ro`mol, jami: 160 rubllik mol olib ketganlar [5]. Uzoq masofada joylashgan va xavfli hisoblangan karvon yo`llarini bosib o`tib, Usmonlilar davlatiga xonlik savdogarlari tomonidan turli mahalliy mahsulotlarning olib borilishi – ularga Usmonlilar davlati bozorlarida talab mavjudligini va o`z navbatida xonlik savdogarlari uchun bu tijorat safarlari foydali bo`lganligini ko`rsatadi.

Usmonlilar davlati bozorlariga Qo`qon xonligi savdogarlari tomonidan Xitoy chinni buyumlari va choyi ham olib borilgan bo`lib, XIX asr 20-yillariga oid ma`lumotlarga ko`ra, Xitoy choyi Qashqar va Qo`qon orqali Afg'oniston va Usmonlilar davlatiga qadar yetkazilgan [6]. Bu esa, Xitoy – Usmonlilar davlata savdo aloqalarida xonlik tranzit hudud vazifasini bajarganligini va ikki mamlakat o`rtasidagi savdo aloqalarida qo`qonlik savdogarlar muhim ahamiyat kasb etganligini ko`rsatadi.

O`rta Osiyo xonliklari bozorlariga turk mollari Hindiston bandargohlari, Eron va Rossiya orqali ham keltirilgan. Hindiston orqali Qo`qon xonligiga turk gazlamalari ingliz mollari bilan birgalikda kirib kelgan. Xususan, yiliga katta miqdorda turk dokasi Hindistondan Kobul va Buxoro orqali Qo`qon xonligiga kirib kelgan [7]. XIX asr 60-yillarida Chimkent bozorida Hindiston orqali kirib kelgan turk dokasidan tayyorlangan salla (16 arshin\*) 5 rub. dan sotilgan [8].

Qo`qon xonligiga Istanbul, Qozon, Kobul, Bombay, Qohira shaharlaridan islom olamining noyob va qimmatbaho qo`lyozma va tosh bosma kitoblari mahalliy savdogarlar tomonidan keltirilgan. Istanbul va Qohiradan keltirilgan kitob nusxalari xonlikda taniqli hisoblangan va boshqa hududlardan keltirilgan xuddi shu turdagi kitoblardan yuqoriroq narxlarda sotilgan [9].

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, XVIII asr ikkinchi yarmi XIX asr boshlaridan Qo`qon xonligining markazlashuvi va iqtisodiyotining yuksalishi Afg'oniston, Eron, Hindiston, Rossiya, qozoq dashtlari, Qashqar, Xitoy, Turkiya va arab mamlakatlari bilan olib borilgan an`anaviy bevosita va bilvosita savdo aloqalarining yana jonlanishiga olib kelgan. Xonlik bozorlarida bu mamlakatlardan kelgan savdogarlarni tez-tez uchratish mumkin bo`lgan va mahalliy savdogarlar bu aloqalarda muhim rol o`ynaganlar. O`z navbatida Qo`qon xonligining Turkiya imperiyasi bilan savdo aloqalari ichki va tashqi urushlar davrida to`xtab qolganligini xisobga olmasa, yil bo`yi davom etgan. Bu hududlar o`rtasidagi savdo har ikki tomon uchun ham muhim siyosiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zMA, I. 469-fond, 1-ro`yxat, 60-ish, 37-varaq.
2. O`zMA, I. 469-fond, 1-ro`yxat, 189-ish, 37-varaqning orqasi.
3. Развадовский В. К. Опыт изледования гончарного и некоторых другихъ кустарных промыслов в Туркестанском крае. – Т., 1916. – С. 10.
4. O`zMA, I. 469-fond, 1-ro`yxat, 58-ish, 9, 56-varaq va orqasi, 57-varaq.
5. O`zMA, I. 469-fona, 1-ro`yxat, 59-ish, 37-varaq va orqasi, 58-varaqning orqasi.
6. Кутлуков М. Взаимоотношения цинского Китая с Кокандским ханством // Китай и соседи в новое и новейшее время. – Москва, 1982. – С. 208.
7. Гейнс А. К. Управление Ташкентом при Кокандском владычества / Собрание литературных трудов. Том II. – СПб.: Тип. М.Стасюевича, 1898. –С. 374.
8. Тетеревников Тетеревников А. Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. – СПб., 1867. – С. 26-27, 36.
9. Гаффаров Абдул Сатторхон. Краткие очерк внутреннего состояния Кокандского ханства перед завоеванием его русскими // Туркестанские ведомости. 1892. – №36.; Книжная торговля на базарах и мусульманская литература в медресе Ферганы // Туркестанские ведомости. 1882. – №48.

\* Izoh: Arshin – uzunlik o`lchov birligi bo`lib, o`rtacha qiymati 71,12 sm.ga teng (Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т., 1– том. 2000. – Б. 440.).

## FORSLARNING QADIMGI XORAZMDAN KELIB CHIQISHI MASALASI: TARIXIY VA LINGVISTIK TAHLIL

*I.B.Matyakubov, o'qituvchi, "YANGI ASR" Universiteti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada forslarning qadimgi Xorazmdan kelib chiqishi haqidagi nazariya tarixiy va lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda fors etnogenezi masalasi eroniy xalqlarning umumiy shakllanish jarayonlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, Ahamoniylar sulolasi davrida siyosiy qudratga erishgan forslarning dastlabki manbalardagi eslatmalari, jumladan Herodot asarlari hamda Behistun yozuvlari ma'lumotlari tahlil etiladi. Shuningdek, Avestoning sharqiy eroniy hududlar bilan bog'liqligi, migratsion jarayonlar va qadimgi Xorazmning arxeologik madaniyati masalalari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Forslar, Xorazm, eroniy xalqlar, etnogenez, migratsiya, qadimgi manbalar, lingvistik tahlil, Markaziy Osiyo, Ahamoniylar davri, Avesto.

**Аннотация.** В данной статье теория происхождения персов из древнего Хорезма рассматривается с исторической и лингвистической точек зрения. В исследовании проблема этногенеза персов анализируется в контексте общего процесса формирования иранских народов. Особое внимание уделяется ранним упоминаниям о персах в источниках, в частности в трудах Геродот, а также данным Бехистунская надпись периода Ахеменидская династия. Кроме того, обсуждаются связь Авеста с восточноиранскими территориями, миграционные процессы и археологическая культура древнего Хорезма.

**Ключевые слова:** Персы, Хорезм, иранские народы, этногенез, миграция, древние источники, лингвистический анализ, Центральная Азия, эпоха Ахеменидов, Авеста.

**Abstract.** This article analyzes the theory of the Persian origin from ancient Khorezm from historical and linguistic perspectives. The study examines the ethnogenesis of the Persians within the broader process of the formation of Iranian peoples. Particular attention is given to the earliest references to the Persians in historical sources, including the works of Herodotus and the data from the Behistun Inscription during the period of the Achaemenid Empire. Furthermore, the article discusses the connection of the Avesta with Eastern Iranian regions, migration processes, and the archaeological culture of ancient Khorezm.

**Key words:** Persians, Khorezm, Iranian peoples, ethnogenesis, migration, ancient sources, linguistic analysis, Central Asia, Achaemenid period, Avesta.

XXI asr global tarixiy jarayonlarida insoniyat sivilizatsiyasi tub ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar bosqichini boshdan kechirmoqda. Dunyo miqyosidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy integratsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadallashuvi, shuningdek, madaniy almashinuvlar va identitet masalalarining dolzarblashuvi tarixiy ildizlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda qadimgi etnik jarayonlar, migratsion jarayonlar, sivilizatsion markazlarning o'zaro aloqadorligi va madaniy muloqotlarni ilmiy asosda tahlil qilish bugungi tarixshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, forslarning kelib chiqishi masalasi tarixiy va etnografik manbalarda o'ziga xos o'rin tutadi. Ularning paydo bo'lishi, mintaqaviy migratsion jarayonlardagi ishtiroki va qadimgi Eron hududi bilan bog'liq madaniy jarayonlar Fors xalqining tarixiy identitetini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Shu bilan birga, forslar va ularning atrofdagi sivilizatsiyalar bilan o'zaro aloqasi til, madaniyat va siyosiy tizimlar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda ushbu jarayonlarni qayta o'rganish nafaqat fors xalqining tarixiy ildizlarini, balki butun mintaqaning qadimiy sivilizatsiyalari va etnik tuzilishini chuqur tushunish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, forslar kelib chiqishi masalasi tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar va lingvistik dalillarni birlashtirgan holda o'rganilishi zarur bo'lgan ilmiy jihatdan muhim mavzudir.

Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida siyosiy tarix sahnasiga chiqqan forslar ayniqsa Ahamoniylar sulolasi davrida Yaqin Sharqning yetakchi siyosiy kuchiga aylangan. Yunon tarixchilari

ularni “Persiya” nomi bilan tilga olgan bo‘lsa, Xitoy yilnomalarida Hou Hanshu kabi manbalarda “Bōsī” (波斯) shaklida qayd etilgan.

Fors etnogenezi masalasi eroniy xalqlarning umumiy shakllanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Hind-yevropa tillari oilasining eroniy guruhi miloddan avvalgi II ming yillik oxiri – I ming yillik boshlarida Markaziy Osiyo hududlarida shakllangan deb qaraladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar eroniy qabilalarning dastlabki vatani sifatida Janubiy Ural va Qozog‘iston dashtlari, Orolbo‘yi va Sirdaryo havzasini, ba‘zan esa Xorazm vohasini ko‘rsatadilar. Qadimgi Xorazm Amudaryo quyi oqimidagi yirik sivilizatsion markaz sifatida arxeologik yodgorliklar – Ko‘zaliqir, Tuproqqal‘a va Qal‘aliqir bilan mashhurdir. Til jihatidan qadimgi Xorazm tili va sharqiy eroniy tillari o‘g‘iz tillar guruhiga mansub bo‘lib, sog‘diy va baqtriy tillarga yaqin bo‘lgan. Forslar ilk bor Ossuriya manbalarida miloddan avvalgi IX asrda tilga olinadi. Keyinchalik Behistun yozuvlari (Doro I davri) forslarning o‘zini alohida siyosiy birlik va “ariya” xalqining bir qismi sifatida anglaganini ko‘rsatadi. [1] “Forslar Xorazmdan kelib chiqqan” degan nazariya bir necha omillarga tayanadi:

O‘g‘iziy ildiz — forslar va xorazmliklar o‘g‘iz etnik qatlamga mansub bo‘lgan.

Migratsion jarayonlar — miloddan avvalgi II–I ming yilliklarda shimoldan janubga qabilaviy siljishlar kuzatilgan.

“Avesto” omili — Avesto o‘g‘iz hududlar bilan bog‘lanadi; olimlarning kata qismi Zardusht vatani sifatida Xorazmni ko‘rsatadilar. Mazkur maqolaning maqsadi — forslarning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarni, xususan ularning qadimgi Xorazm bilan tarixiy-madaniy bog‘liqligini tarixiy, lingvistik va arxeologik manbalar asosida tizimli tahlil qilishdan iborat[2].

Maqolada tarixiylik, komparativ-etnolingvistik tahlil, manbashunoslik, arxeologik materiallarni qiyosiy o‘rganish hamda falsafiy interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. O‘g‘iz xalqlar etnogenezi, qadimgi Xorazm madaniyati va forslar tarixiga oid tadqiqotlar zamonaviy tarixshunoslikda keng yoritilgan. Gerodot asarlarida forslar va ularning kelib chiqishi haqida ilk antik ma‘lumotlar uchraydi. Shu bilan bir qatorda Xitoy solnomalari ham lingvo-etimologik tahlilida forslarni hozirgi Turkmanistonning Porsi tumanidan chiqqanini ko‘rsatmoqda. Zamonaviy tadqiqotchilar esa arxeologik va lingvistik ma‘lumotlar asosida eroniy qabilalarning shimoliy hududlardan janubga siljish jarayonlarini ilmiy asosda izohlaydilar. Shuningdek, qadimgi Xorazmning sivilizatsion markaz sifatidagi o‘rni, uning sug‘orma dehqonchilik va shahar madaniyatidagi taraqqiyoti alohida tahlil qilindi[3].

Forslarning kelib chiqishi tarix, arxeologiya va tilshunoslik sohalarida doimo qiziqish uyg‘otib kelgan murakkab ilmiy muammodir. Ushbu tadqiqot mavzusi nafaqat forslar tarixi, balki mintaqaning etnik tarkibi va madaniy, siyosiy evolyutsiyasini o‘rganish uchun ham muhimdir. Qadimgi Xorazm hududi uzoq vaqtdan beri strategik joylashuvi, boy madaniy merosi va ko‘plab qabilalararo aloqalari bilan ajralib turadi. Shuning uchun Xorazm manbalari, arxeologik topilmalar va lingvistik tahlil forslarning kelib chiqishi va ularning mintaqada tarqalish yo‘llarini o‘rganish uchun muhim asos yaratadi.

Tarixiy nuqtai nazardan, forslarning Xorazm bilan aloqasi qadimgi manbalarda aks ettirilgan turli siyosiy va madaniy jarayonlar orqali o‘rganiladi. Qadimgi Xorazmda shakllangan davlat va qabila tuzilmalari, ularning forslar bilan savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalari, shuningdek, mintaqadagi migratsiya va etnik integratsiya jarayonlari ushbu mavzuni chuqur o‘rganish uchun asos yaratadi. Kulolchilik asboblari va turli arxeologik topilmalar forslar va Xorazm aholisi o‘rtasidagi o‘zaro madaniy ta’sirni o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Lingvistik tahlil fors tili va qadimgi Xorazm tillari o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ularning leksik va morfologik xususiyatlarini, shuningdek, mintaqaviy lahjalarning ta’siri va tarqalishini ochib beradi. Bu forslarning turli mintaqalarga ko‘chib o‘tishi, ularning madaniy va lingvistik merosini saqlab qolish va yangi hududlardagi mahalliy aholi bilan integratsiyalashuvi haqidagi ilmiy tushunchani mustahkamlaydi.

Forslarning kelib chiqishi masalasi tarixshunoslikda bahsli mavzulardan biridir. An’anaviy nazariyaga ko‘ra, forslar shimoliy-sharqiy Eron hududida shakllangan. Biroq eroniy qabilalarning dastlabki shakllanish hududi Markaziy Osiyo bilan bog‘liq ekani ko‘plab ilmiy dalillar bilan tasdiqlanadi. Xorazmning qadimgi diniy va madaniy markaz sifatidagi o‘rni, “Avesto” bilan bog‘liq

muammolar, migratsion jarayonlar va umumiy eroniy lingvistik birlik bu hududning fors etnogenezidagi o'rnini qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatadi. Biroq "forslar bevosita Xorazmdan kelib chiqqan" degan fikrni mutlaq tarixiy haqiqat sifatida qabul qilish ilmiy ehtiyotkorlikni talab etadi. Biroq, to'liq genetik bog'liqlikni qat'iy isbotlaydi[4].

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatadi:

Forslar va xorazmliklar umumiy o'g'ziy etnik qatlamga mansub bo'lgan.

Markaziy Osiyo hududi forslarning shakllanishida muhim makon bo'lgan.

Qadimgi Xorazm diniy va madaniy markaz sifatida o'g'iz dunyo tarixida muhim o'rin egallagan.

Forslarning janubga migratsiyasi tarixiy jarayon sifatida qabul qilingan [5].

Umuman olganda, forslarning qadimgi Xorazm bilan bog'liqligi haqidagi nazariya tarixiy-madaniy jihatdan muhim va ilmiy muhokamaga loyiq masaladir. Xorazm — eroniy dunyoning qadimgi markazlaridan biri sifatida fors etnogeneziga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, ilmiy yondashuv nuqtai nazaridan "forslar Xorazmdan hozirgi Turkmanistonning Porsi tumanidan kelib chiqqan" degan fikrni mutlaq haqiqat sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Kelgusida arxeologik, lingvistik va genetik tadqiqotlarning chuqurlashuvi mazkur masalaga yanada aniqlik kiritishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Frye R. N. The History of Ancient Iran. C.H. Beck, 1984.
2. Harmatta J. History of Civilizations of Central Asia: The Development of Sedentary and Nomadic Civilizations, 700 B.C. to A.D. 250. UNESCO, 1994.
3. Herodotus. Histories. Translated by Aubrey de Séincourt. Penguin Classics, 2003.
4. Kuhrt A. The Persian Empire: A Corpus of Sources from the Achaemenid Period. Routledge, 2007.
5. Mallory J., Adams, D. Encyclopedia of Indo-European Culture. Fitzroy Dearborn, 1997.
6. Potts D. T. The Archaeology of Elam: Formation and Transformation of an Ancient Iranian State. Cambridge University Press, 1999.
7. Schmitt R. Iranian Studies in the Ancient World. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2000.

UO'K 94(575.1-25)

#### METROPOLITEN JAMOASINING SHAKLLANISHI

*N.Matyakubov, mustaqil tadqiqotchi, Urganch davlat universiteti, Urganch*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Toshkent metropoliteni jamoasining shakllanish jarayoni tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Metropoliten qurilishi va uning faoliyatini yo'lga qo'yishda muhandis-texnik xodimlar, quruvchilar, loyiha institutlari mutaxassislari hamda temir yo'l sohasida tajribaga ega kadrlarning roli yoritiladi. Shuningdek, metropoliten tizimi uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash, tashkiliy tuzilmaning shakllanishi, boshqaruv tizimining yo'lga qo'yilishi hamda dastlabki bosqichdagi muammolar va ularni hal etish jarayonlari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari Toshkent metropoliteni jamoasining shakllanishi shahar transport infratuzilmasi rivojida muhim omil bo'lganini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Toshkent metropoliteni, metropoliten jamoasi, transport infratuzilmasi, muhandis-texnik kadrlar, metro qurilishi, shahar transporti, tashkiliy tuzilma, mutaxassislarni tayyorlash.

**Аннотация.** В данной статье на основе исторических источников и научной литературы анализируется процесс формирования коллектива Ташкентского метрополитена. Освещается роль инженерно-технических работников, строителей, специалистов проектных институтов, а также кадров, имевших опыт работы в железнодорожной отрасли, в строительстве и организации деятельности метрополитена. Кроме того, рассматриваются вопросы подготовки квалифицированных специалистов для системы метрополитена, формирования организационной структуры, становления системы управления, а также проблемы начального этапа и пути их решения. Результаты исследования показывают, что формирование коллектива Ташкентского метрополитена стало важным фактором развития городской транспортной инфраструктуры.

**Ключевые слова:** Ташкентский метрополитен, коллектив метрополитена, транспортная инфраструктура, инженерно-технические кадры, строительство метро, городской транспорт, организационная структура, подготовка специалистов.

**Abstract.** This article analyzes the process of formation of the workforce of the Tashkent Metro based on historical sources and scientific literature. Particular attention is paid to the role of engineers, technical specialists, construction workers, design institute experts, and railway professionals in the construction and operation of the metro system. The study also examines the training of qualified personnel for the metro system, the establishment of an organizational structure, the development of management mechanisms, and the challenges faced during the initial stages and the ways they were addressed. The research findings indicate that the formation of the Tashkent Metro workforce played a significant role in the development of the urban transport infrastructure.

**Key words:** Tashkent Metro, metro workforce, transport infrastructure, engineering personnel, metro construction, urban transport, organizational structure, personnel training.

Birinchi navbat qurilishi yakunlanishidan ancha oldin, loyihalarda qabul qilingan muhandislik, ilmiy va texnik yechimlarda mujassam etilgan ulkan salohiyatni har kuni samarali va ishonchli amalga oshira oladigan yirik metropoliten jamoasini shakllantirish muammosi dolzarb masalaga aylandi. Jamoa 1976-yilning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshladi. Ishga tushiriladigan uchastkada muntazam harakat yo'lga qo'yilishiga qadar metropolitenning ko'plab xizmatlari uchun malakali va o'qitilgan xodimlar tarkibi tayyor bo'lishi lozim edi[1].

Metropoliteni xizmat bilan ta'minlash uchun qariyb yuzga yaqin mutaxassislik bo'yicha kadrlar zarur bo'ldi. Avvalo, temir yo'l transportida ish tajribasiga ega bo'lganlar metrochi bo'lib ishga qabul qilindi. Ular, odatda, **O'rta Osiyo temir yo'li** tizimida tajriba orttirgan, Toshkentdagi ikki nufuzli o'quv maskani — **Toshkent temir yo'l muhandislari instituti** hamda **Toshkent temir yo'l texnikumi** bitiruvchilari edi[2].

Toshkentda yangi texnik o'quv yurtlari ochilib, ular elektr poyezd mashinistlari, elektromexaniklar, chilangar-elektriklar, eskalator mashinistlari, tunnel inshootlari uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni tayyorlay boshladi. Yuzlab yigit-qizlar — bo'lajak metro xodimlari — o'qish uchun Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov shaharlariga yuborildi. Ular o'rta maxsus o'quv yurtlarini tamomlagach, amaldagi metropolitenlarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tadilar.

Ko'plab ilk kashshoflar Moskva, Leningrad, Xarkov, Boku va boshqa shaharlar yerosti transportida tajriba orttirganlar. Ushbu metropoliten jamoalarining bilim, tajriba va kadrlar bilan saxiylik bilan o'rtoqlashgani minnatdorlik bilan yodga olinadi.

Shakllanayotgan jamoa, asosan, yoshlardan iborat bo'lib, xodimlarning o'rtacha yoshi atigi 26 yoshni tashkil etgan[2]. Yoshlarning katta qismi kechagi texnika bilim yurtlari va SPTU bitiruvchilari edi. Keyinchalik **Toshkent temir yo'l muhandislari instituti** va Toshkent temir yo'l texnikumining ko'plab yosh bitiruvchilari safga qo'shildi. Ushbu o'quv maskanlarining metropoliten qurilishi va ekspluatatsiyasidagi o'rni alohida e'tiborga loyiqdir.

Akmal Ikromov nomidagi Toshkent temir yo'l muhandislari instituti Markaziy Osiyodagi eng yirik texnika oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lib, yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar, zamonaviy ilmiy-texnik va laboratoriya jihozlari, ilg'or o'qitish vositalariga ega bo'lgan. MDH mamlakatlaridagi transport oliy o'quv yurtlariga xos bo'lgan keng ixtisosli muhandislar tayyorlash an'anasi bitiruvchilarga xalq xo'jaligining turli sohalarida samarali faoliyat yuritish imkonini beradi[3].

Toshkent metropolitenining birinchi navbati qurilishi boshlangan ilk kunlardan oq institutning qurilish fakulteti professor-o'qituvchilari va talabalari "Sobir Rahimov", "Mirzo Ulug'bek", "Chilonzor", "Xalqlar do'stligi", "Mustaqillik maydoni", "Amir Temur xiyoboni" stansiyalarida qurilish-montaj ishlarida qatnashdilar. Talabalar kuzgi mavsumda ham, yozgi ishlab chiqarish amaliyoti davrida ham metro qurilishiga jalb qilindilar. Talabalar ishiga umumiy rahbarlik professor V. M. Kondratyev va dotsent B. U. Uzakpayev tomonidan amalga oshirildi[4].

Toshkent temir yo'l muhandislari institutining eng iqtidorli bitiruvchilaridan ko'plari o'z faoliyatini Toshkent metropolitenini qurish va undan foydalanishga bag'ishladilar. Ular ishlab

chiqarishdagi faoliyatni ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlari bilan uyg'unlashtirib, institut mutaxassislari bilan yaqin hamkorlikda ishladilar. Jumladan, "Temir yo'llarni qurish, yo'l va yo'l xo'jaligi", "Ko'priklar va qurilish mexanikasi", "Sanoat va fuqarolik qurilishi va kimyo" kafedralarining yetakchi mutaxassislari — professorlar R. K. Mamajonov, M. K. Tohirov, dotsentlar A. F. Rasulov, Sh. A. Irgashev, A. N. Ovchinnikov, N. A. Krasin, katta o'qituvchi I. I. Kuznetsov bilan hamkorlikda **Tashmetrostroy** va qurilayotgan metropoliten Direksiyasi mutaxassislari bir qator ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etdilar[5].

Ular orasida: "Amir Temur xiyoboni" stansiyasida beton sifatini nazorat qilish; metropoliten uchun monolit asosdagi strelkali o'tkazgich konstruksiyasini va rels mahkamlash tizimini ishlab chiqish; "Alisher Navoiy" stansiyasida yopma nurlarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish bo'yicha tavsiyalar; "O'zbekiston" stansiyasida ko'zdan kechirish kanallari konstruksiyasini hisoblash kabi muhim ishlar mavjud edi.

Ilmiy-texnik ishlanmalarni ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy etishda Toshkent metropoliteni qurilishida qatnashgan bitiruvchilar faol ishtirok etdilar. Jumladan: G. P. Varxotov — metropoliten boshlig'i o'rinbosari, qurilayotgan metropoliten Direksiyasi boshlig'i; A. P. Pedunenko — "Tashmetroloyiha" bosh muhandisi; F. S. Avzalov — metropoliten Yo'l xizmati bosh muhandisi; A. V. Ivanov — "Tashmetrostroy"ning TO-2 boshlig'i; S. A. Dyakov — TO-2 uchastkasi boshlig'i; D. V. Kulikov — TO-2 ustasi; Sh. A. Usmonov — "Tashmetrostroy" bo'lim boshlig'i va boshqalar[6].

Toshkent temir yo'l transporti texnikumi O'zbekiston Respublikasidagi eng yirik o'rta maxsus ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. U 1932-yilda O'rta Osiyo temir yo'li ishchi universiteti negizida, mahalliy millat yoshlari orasidan mutaxassislar tayyorlashni kengaytirish maqsadida tashkil etilgan[7].

65 yil davomida texnikum qariyb 18 ming mutaxassis tayyorladi. Bitiruvchilar nafaqat temir yo'l va metropoliten tizimida, balki O'zbekiston va MDH mamlakatlari xalq xo'jaligining boshqa sohalarida ham faoliyat yuritdilar. 1974-yildan boshlab Toshkent metropoliteniga texnikumning 120 nafardan ortiq bitiruvchisi yuborildi. Ularning ko'pchiligi uzoq yillar samarali mehnat qildi: X. G'afurov 1977–1994-yillarda Toshkent metropoliteni bosh muhandisi bo'lib ishladi, R. A. Urmanov keyinchalik ushbu lavozimda faoliyat yuritdi, A. E. To'laganov esa signalizatsiya va aloqa xizmati boshlig'i bo'ldi.

Ishga kelgan yoshlarning ko'pchiligi uchun bu ilk mehnat tajribasi edi. Shu bois metropoliten ma'muriyati va jamoat tashkilotlari oldida murakkab vazifalar turardi: yoshlar o'z kasbiy yo'lini tezroq topishi, jamoada munosib o'rin egallashi, o'z huquq va majburiyatlarini chuqur anglab, mas'uliyat bilan bajarishi zarur edi. Huquq va majburiyatlar uyg'unligini ta'minlash faqat xodimlarga emas, avvalo ma'muriyatning o'ziga ham taalluqli ekanini rahbariyat chuqur anglagan va yoshlar kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan.

Metropoliten o'ziga xos, nufuzli korxonalar sifatida yoshlarda katta qiziqish uyg'otardi. Bu qiziqish keyinchalik yuqori mehnat natijalariga erishish istagiga aylanishi ko'p jihatdan jamoaning tarbiyaviy va tashkiliy ishlariga bog'liq edi. Psixologlar ta'kidlaganidek, kuchli istak muvaffaqiyatning asosiy omilidir; maqsadga intilish esa har qanday yutuqning mezonidir.

Jamoani shakllantirishdagi asosiy vazifalardan biri mehnatsevar, tashabbuskor va vijdonli xodimlardan iborat barqaror kollektivni yaratish edi. Dastlabki yillarda kadrlar almashinuvi yuqori bo'ldi — yuqori mas'uliyat va keskin ish sur'atiga moslasha olmaganlar jamoani tark etdilar. Yillar o'tishi bilan qat'iy intizom va tartibni qadrlaydigan, loqaydlik va beparvolikka toqat qilmaydigan jips va ishchan jamoa shakllandi.

Metropoliten jamoasining shakllanishi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u nafaqat yangi transport tizimini ishga tushirish, balki yuqori malakali mutaxassislar korpusini yaratish bilan ham chambarchas bog'liq edi. Yerosti transporti o'ziga xos texnik, muhandislik va ekspluatatsion xususiyatlarga ega bo'lgani sababli, kadrlar tayyorlash masalasi alohida ahamiyat kasb etdi.

Dastlabki bosqichda mutaxassislar sobiq Ittifoqning tajribali metro tizimlarida tayyorlandi. Xususan, Toshkent metropoliteni uchun kadrlar **Moskva metropoliteni, Leningrad metropoliteni**

va Kiyev metropolitenida malaka oshirdilar. Bu yerda mashinistlar, dispetcherlar, energetiklar, signalizatsiya va aloqa xizmati mutaxassislari amaliy tajriba orttirdilar.

Metropoliten ochilishi arafasida xizmat ko'rsatishning barcha yo'nalishlari bo'yicha alohida bo'linmalar tashkil etildi: harakat xizmati, yo'l xo'jaligi, elektr ta'minoti, signalizatsiya va aloqa, eskalator xizmati, sanitariya-nazorat hamda ma'muriy boshqaruv tizimi shakllantirildi. Har bir bo'lim uchun aniq lavozim yo'riqnomalari ishlab chiqildi, xavfsizlik texnikasi qoidalari joriy etildi.

Kadrlar siyosatida mahalliy mutaxassislarni tayyorlashga ustuvor ahamiyat berildi. O'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi, ishlab chiqarish amaliyoti tizimi yo'lga qo'yildi. Natijada qisqa muddat ichida metroda ishlay oladigan muhandis-texnik va ishchi kadrlar zaxirasi yaratildi.

Metropoliten jamoasining shakllanishida mehnat intizomi, texnik madaniyat va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish etikasi muhim o'rin tutdi. Yerosti transportining yuqori xavfsizlik talablari xodimlardan mas'uliyat, aniqlik va tezkorlikni talab etardi. Shu bois muntazam ravishda o'quv-mashg'ulotlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha trenirovkalar o'tkazilib turildi.

Shu tariqa, metropoliten jamoasi qisqa vaqt ichida nafaqat professional, balki o'z ishiga fidoyi, yagona maqsad yo'lida birlashgan jamoaga aylandi. Bu esa metropolitenning barqaror va uzluksiz faoliyat yuritishida hal qiluvchi omillardan biri bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Тошкент метрополитени = Ташкентский метрополитен = Tashkent metro : 40 ёшда / О'zbekiston temir yo'llari. - Тошкент : Маъна- вият, 2017.-272 б.
2. Коллективный договор ташкентского метрополитена на 1982 год. - Ташкент, 1982.
3. Зокиров, О. Метро: кеча, бугун, эртага: ["Метролойиха" ин- ститутининг директори билан суҳбат / суҳбатдош М. Зайнутдинова] // Тошкент окшоми. - 2000. - 8 нояб.
4. Икромов, Х., Юсак активлик руҳида : [Тошкент метрополитени партия ташкилотида олиб борилаётган ишлар] / Х., Икромов // Тош кент окшоми. - 1980. - 15 дек.
5. Кривохижин, А. Коммунист - коллектив ифтихори : [Тошкент метрополитени коммунистлари ҳақида] / А. Кривохижин // Совет Ўзбекистони. - 1978. - 21 июль.
6. Мухаммаджонов, Ш. Хизмат - беминнат : [Тошкент метрополитени ҳақида] / Ш. Мухаммаджонов // Савдогар. - 2004. - 14 май.
7. Норбеков, Т. Тошкент метрополитени : халқ хизматида 25 йил / Т. Норбеков // Халқ сўзи. - 2002. - 5 нояб.

UO'K 902(575):903.02

## O'RTA OSIYODA BRONZA DAVRI YODGORLIKLARINING O'RGANILISH NATIJAHLARI

*X.X.Matyusubova, magistrant, Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'rta Osiyo hududida neolit va bronza davriga oid arxeologik yodgorliklarning o'rganilish jarayoni hamda ushbu tadqiqotlar natijasida aniqlangan ilmiy xulosalar tahlil qilinadi. Neolit davrida insoniyatning o'troq hayot tarziga o'tishi, dehqonchilik va chorvachilikning shakllanishi, tosh qurollar texnologiyasining takomillashuvi bilan bog'liq yodgorliklar, bronza davrida esa metallurgiya, ijtimoiy tabaqalanish va ilk shahar madaniyatining vujudga kelishini aks ettiruvchi arxeologik majmualar yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** davr yodgorliklari, hunarmandchilik, metallurgiya, ibtidoiy jamiyat, o'troq hayot, moddiy madaniyat, arxeologik tadqiqotlar.

**Аннотация.** В данной статье анализируется процесс изучения археологических памятников неолита и бронзового века на территории Центральной Азии, а также научные выводы, полученные в результате этих исследований. Освещаются памятники, связанные с переходом человечества к оседлому образу жизни в эпоху неолита, формированием земледелия и скотоводства, совершенствованием технологии каменных орудий труда. Для бронзового века рассматриваются археологические комплексы, отражающие развитие металлургии, социальную дифференциацию и становление ранней городской культуры.

**Ключевые слова:** памятники эпохи, ремесленничество, металлургия, первобытное общество, оседлый образ жизни, материальная культура, археологические исследования.

**Abstract.** *This article analyzes the process of studying archaeological sites dating to the Neolithic and Bronze Ages in Central Asia, as well as the scientific conclusions drawn from these investigations. It highlights sites associated with the transition to a sedentary lifestyle during the Neolithic period, the development of agriculture and animal husbandry, and the improvement of stone tool technologies. The article also examines Bronze Age archaeological complexes that reflect the development of metallurgy, social stratification, and the emergence of early urban culture.*

**Key words:** *archaeological sites, crafts, metallurgy, primitive society, sedentary lifestyle, material culture, archaeological research.*

**Kirish.** Ibtidoiy odamlar misni juda yaxshi xususiyati – cho‘ziluvchanligini kashf qilgan bo‘lsalar-da, bu metall qadimgi qabilalarni ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga katta o‘zgarishlar kiritgan olmagan. Ammo, bronzani kashf etilishi (90% mis va 10% qalay) ibtidoiy hayotda olg‘a qarab tashlangan qadam bo‘ldi. Chunki bronza o‘z hususiyatlari jihatidan misdan ancha ustun turadi. Ko‘pgina tadqiqotchilar fikrlariga qaraganda, bronzani vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eroni janubiy-g‘arbida mil. avv. III-II ming yillikning boshlarida quldorlik jamiyatida keng ravnaq topadi. Bronza davriga madaniyat izlari O‘zbekistonda dastlab Xorazm, keyinchalik esa Zarafshon va Qashqadaryo hamda Farg‘ona vodiylaridan topilgan [1].

**Metodologiya.** Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va antropologik tadqiqot usullariga asoslangan. Asosiy manba sifatida arxeologik materiallar, etnografik tadqiqotlar va tarixiy hujjatlar tahlil qilingan.

**Natijalar va muhokama.** O‘rta Osiyo hududida bronza davri jamiyati mahalliy eneolit davri madaniyatlari davomida rivojlanadi. Mintaqaning janubiy hududida o‘troq dehqonchilik madaniyati zaminida ilk sivilizatsiya shakllangan bo‘lsa, shimoliy, shimoli-sharqiy yerlarida ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakllariga o‘tish jarayoni kechayotgan edi. Bronza davrida ikki xil madaniyat hukm surgan, dehqonchilik va chorvachilik. Bronza davri bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar bu davrni uchta katta yilnoma davrga: ilk, rivojlangan va so‘nggi bronza davrlarga bo‘ladilar [2].

O‘zbekiston hududida bronza davrida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan qabilalarni moddiy va madaniy yodgorliklari Xorazmda Tozabog‘yob madaniyati nomi bilan mashhur tozabog‘yob madaniyatiga mansub Ko‘ncha makoni atrofida qadimgi mozarlar ochilgan.

O‘rta Osiyoning Turkmaniston hududida bronza davriga oidd manzilgohlardan Nomozgohtepa va Oltintepa yodgorliklari nisbatan yaxshi o‘rganilgan [3]. Nomozgohtepa manzilgohida arxeologik qazish ishlari qisman amalga oshirilgan. Manzilgohda tor ko‘chalar bilan ajratilgan ko‘p xonali uylarning o‘rni va kulolchilik xumdonlari ochilgan. Oltintepa manzilgohi alohida joylashgan bir necha tepaliklardan iborat bo‘lib, ilk bronza davrida 26 ga, rivojlangan bronza davrida 46 ga joy o‘zlashtirilgan. Eneolit davrining oxirida har tomonlama 104 rivojlangan Oltintepa manzilgohi bronza davrida mahalliy hududning yirik markaziga aylangan. NMZ IV bosqichining boshida manzilgohning atrofida mudofaa devori barpo etiladi. Keyinchalik birinchi devorga ikki marta qo‘shimcha devor qurilib, qalinligi 6 metrga yetgan. Devor tashqi tomondan yarim aylana burjlar qurilgan. Kirish darvozasining ikki chetidagi pilon – minorasifat inshootlar joylashgan [4].

Murg‘ob daryosining bronza davri arxeologik yodgorliklari alohida ariqlar bilan sug‘orilgan 8 ta mikrovoha hududida tarqalgan. Keleli (markazi – Keleli I), Gonur (Gonur), To‘g‘aloq (To‘g‘aloq I), Taxirboy, Ajiquyi, Toip, Odambosan (Odambosan I) va Avchin kabi mikrovohalarning har birida o‘rtacha 10–30 tadan manzilgoh o‘rin olgan. Mikrovohalar alohida xo‘jalik tumani yoki kichik ma‘muriy hududiy tuzilmani tashkil etgan. Egribogaz hududi ham alohida mikrovohani tashkil etgan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Ovchin mikrovohasining shimoli-sharqiy qismida Andronovo madaniyatiga xos chorvadorlarga tegishli dafn inshootlari aniqlangan [5].

Janubiy Baqtriya hududining bronza davri arxeologiya yodgorliklari alohida dehqonchilik vohalarida joylashgan. Bu yerda Davlatobod, Dashtli, Farukobod va Nichkin dehqonchilik vohalari ajralib turadi. Davlatobod mikrovohasida joylashgan Tikar I, II, III Tikar IV (Girdaytepa), Dashtli mikrovohasidagi Dashtli III, yodgorliklari yaxshi o‘rganilgan. Davlatobod mikrovohasidagi yodgorliklarning maydoni 0,4-1,0 ga. ni tashkil etadi. Tikar IV yodgorligida (100x95 m) mudofaa

devori va to'rt burchagida burjlari mavjud. Mazkur hududdagi arxeologik yodgorliklarini o'rganigan olim V.I.Sarianidi Afg'onistonning bronza davrini Tikar va Girday bosqichlariga ajratgan.

O'zbekiston hududida bronza davri madaniyati Sopollitepa manzilgohida o'rganilgan. Umumiy maydoni 4 ga dan iborat manzilgohning atrofi uch qator labirint shaklidagi mudofaa devori bilan o'rab olingan. Manzilgoh ichkarisida joylashgan 8 ta mahalla janubiy tomondagi darvozadan boshlanadigan shoh ko'chaga tutashgan kichik ko'chalar bilan o'zaro ajratilgan. Ularda aholi uy-joylari, xo'jalik imoratlari ochib o'rganilgan. Marhumlar manzilgohning ichkarisida uylarning poli tagiga ko'milgan. Murdalar yonbosh holda, erkaklar o'ng, ayollar chap tomonga qaratib, jinsiga ko'ra tegishli kuzatuv buyumlari bilan dafn qilingan. Sopollitepa manzilgohida jami 138 ta qabr o'rganilgan. Ularning 125 tasida bitta, 13 tasida esa juft mayit, jami 158 ta mayitlari joylashgan. Shuningdek, 4 ta qabrda hayvon dafn qilingan, 6 tasi esa kenotafdan iborat. Sopol idishlar kulolchilik charxida va qisman qo'lda yasalgan. Bronza va toshdan ham sopol idishiga o'xshagan buyumlar yasalgan. Bronzadan yasalgan qurol yarog'lar-xanjar, kamon o'qi; uy-ro'g'or buyumlar-pichoq, bolta, tesha, bigiz va pardoiz-andoz buyumlari oyna, surmadon hamda toshdan yasalgan urchuqboshlar topilgan. Muhrlar loy, tosh va bronzadan yasalgan. Ularning sirtiga har xil geometrik shakl, ilon, chayon, tog' echkisi va boshqa narsalarning tasviri tushirilgan [6].



**Zamonbobo madaniyatiga oid moddiy ashyolar 1-12. Tosh buyumlar 13-25. Sopol buyumlar [8].**

Zarafshonning quyi oqimida hududida mil. avv. III ming yillik oxiri – II ming yillik birinchi yarmida Zamonbobo madaniyati faoliyat yuritgan. Buxoro vohasining shimoli-g'arbidagi Zamonbobo ko'li yaqinidan qabriston, uning yaqini Gujaylining qurib qolgan o'zani bo'yidan Zomonbobo manzilgohi o'rganilgan. Zomonbobo ko'lidan g'arbroqda soy bo'yida ikkinchi manzilgoh joylashgan. Manzilgohdan birning atrofi qalinligi 2 m val devori bilan o'rab olgan. Udan bir nechta yarim yerto'la uy-joyning o'rni aniqlangan. Ulardan birida qazishma amalga oshirilib, 170 m maydonni egallagan yarim yerto'la uy-joy to'liq ochilgan. Moddiy topilmalar chaqmoqtosh mikrolitlar, yorg'uchoq bo'laklari, sopol parchalari va hayvon suyaklaridan iborat. Mikrolitlar o'roq qadamasini va kamon paykoni sifatida ishlatilgan. Kesaklarning ichida arpa va bug'doy doni izlari saqlanib qolgan [7].

Bronza davriga oid yodgorliklardan yana biri Jarqo'ton hisoblanadi. Uning qismlaridan 116 iborat. Soyning boshqa tomonidan qabriston o'rin olgan. Jarqo'tonning umumiy maydoni 90 ga dan iborat. Uning 20 ga qismi qabristonni tashkil etadi. Manzilgohning shimoli-g'arbiy qismida dunyo tomonlariga moslab qurilgan qal'a joylashgan. Qal'aning umumiy maydoni 3 ga dan iborat bo'lib, atrofi xom g'ishdan qurilgan mudofaa devori bilan o'rab olingan. Uning g'arbiy tomonida atrofi mudofaa devori bilan muhofaza qilingan shahar saroyi joylashgan. Jarqo'tonda baland tagkursi ustida, dunyo tomonlariga moslab qurilgan ibodatxona majmuasi (tarhi 44,5x60m) manzilgohning mahobatli imoratlardan biri hisoblanadi. Majmua ibodatxona, xizmatkorlar yashash xonalari va xo'jalik qismidan tashkil topgan. Ibodatxonada muqaddas olov mehrobi asosiy o'rin tutgan. Hovlida suv saqlanadigan quduq mavjud bo'lgan. Ibodatxona mudofaa devori bilan o'rab olingan. Qadimgi Sharq xalqlari diniy tasavvurida olov insonning tanasini yovuz ruhlardan xalos etuvchi, suv

esaulardan tozalovchi vositavazifasini bajargan. Jarqo'ton ibodatxonasi yaqinida vino tayyorlanadigan maxsus xonaning o'rni ochib o'rganilgan. Ehtimol, jarqo'tonlik aholi diniy aqidasi muqaddas ichimlik sifatida vino iste'mol qilingan. Ma'lumki, O'rta Osiyoning qadimgi xalqlarida muqaddas ichimlik Mitraga sig'inish odatining ishorasi hisoblangan.

Bronza davrida vohada olovga ibodat qilish odatlarining rivojlanishini qayd etib o'tish kerak. O'rta Osiyoda olovga sig'inish qadimgi ildizlarga ega bo'lib, dastlab xonadon o'chog'i e'tiqodi sifatida vujudga kelgan. Xorazm vohasida topilgan bronza davriga oid loydan yasalgan ot va it sopol haykalchalari vohada totemizm va hosildorlik e'tiqodlarining rivojlanishidan dalolat beradi. Orolbo'yi saklarining dafn marosimlari o'rganilishi natijasida, chorvador qabilalar diniy qarashlarining ayrim jihatlarini ta'riflash mumkin. Ular vafot etgan odamlarni qadrlash va ajdodlar ruhiga sig'inish odatlari bilan bog'liq [9].

Bronza davriga kelib, aholi sopol idishlardagi bezaklar orasida ko'plab spiral, to'lqin, hayvonlar izi shaklidagi naqshlar mavjud bo'lib, ular qadimgi odamlar orasida muayyan diniy timsollar, sehrli belgilar sifatida qaralgan. Bu naqshlar, shuningdek, urug'-qabila tamg'alarini bildirgan bo'lishi ham mumkin.

Arxeologik qatlamlardan topilgan kichik ibodatxonalar (ziyoratgohlar), odatda, ko'tarilgan platformalarda joylashgan bo'lib, ular tashrif buyuruvchi odamlar uchun maxsus muqaddas joy sifatida xizmat qilgan. Ushbu joylarda topilgan sopol haykalchalar, hayvonlar tasviri, tutatqi idishlar diniy marosimlar o'tkazilganligini ko'rsatadi.

Xorazm arxeologik maktabining asoschisi S.P.Tolstov ushbu topilmalarni tahlil qilgan ekan, ular orqali Janubiy Orolbo'yi aholisi orasida animistik, totemik va naturalistik e'tiqodlar keng tarqalganini ta'kidlaydi. Bu tushunchalar keyinchalik zardushtiylik dini shakllanishida asosiy manba bo'lgan diniy asoslarni shakllantirgan.

**Xulosa.** Bronzaning kashf etilishi va uning keng tarqalishi bilan ayrim aholi manzilgohlari sof hunarmandchilik markazlari sifatida paydo bo'la boshlaydi. Ayirboshlash munosabatlari rivojlanishi natijasida o'troq dehqonchilik aholi va ko'chmanchi-chorvador aholi chegaralarida ham shaharlar qad ko'targan.

Bronza davrida insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan ulkan texnologik yutuqlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining jadallashib ketishiga olib keladi. Yevrosiyoning ilk shahar markazlari erta qaror topgan janubiy qismidagi podsholiklar o'rtasida hududiy hukmronlik uchun harbiy qarama-qarshilik kuchaygan davrda rivojlanish sekin borayotgan shimoliy xalqlar hayotida ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakliga o'tish jarayoni kechayotgan edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Ibragimov. "ARXELOGIYA". – Toshkent, 2022.
2. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М., «Изд. Академия наук», 1948.
3. Массон В.М. Алтын-Депе. Труды ЮТАКЭ. Л., "Наука", 1981. Т. XIX.
4. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Тошкент, 2004
5. R.Ibragimov. "ARXELOGIYA". – Toshkent, 2022.
6. Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии. Самарканд, 1993.
7. Мухаммаджонов А.Р. Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи (қадимги даврдан то XX асрнинг бошларигача). Тошкент "Фан" 1972.
8. R.Ibragimov. "ARXELOGIYA". – Toshkent, 2022.
9. Итина М.А. Женская статуэтка эпохи бронзы из Хорезма // КСИЭ. – М., 1958. Вып. XXX.

UO'K 745:7.036(575.1)

### O'ZBEK DO'MBIRA SAN'ATINING MUSTAQILLIKDAN KEYINGI QAYTA TIKLANISH JARAYONLARI

*N.Mengniyazova, magistrant, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz*  
*F.Yormatov, t.f.n., dots., Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng milliy madaniyatni tiklash siyosati doirasida do'mbira san'atining rivojlanishi, uning an'anaviy ijrochilik maktablari, ta'lim tizimiga kiritilishi, festivallar va tanlovlar orqali ommalashuvi hamda yosh avlod

tarbiyasidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, do'mbira san'atining milliy o'zlikni anglash va madaniy merosni asrab-avaylashdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Do'mbira, milliy cholg'u asboblari, baxshichilik, dostonchilik, folklor, milliy meros, madaniy tiklanish, mustaqillik davri, milliy o'zlik, an'anaviy ijrochilik, madaniy siyosat.

**Аннотация.** В статье рассматривается развитие искусства домбры в рамках политики возрождения национальной культуры после обретения независимости Узбекистаном, его внедрение в традиционные исполнительские школы, систему образования, популяризация через фестивали и конкурсы, а также его роль в воспитании подрастающего поколения. Также анализируется значение искусства домбры для понимания национальной идентичности и сохранения культурного наследия.

**Ключевые слова:** Домбра, национальные музыкальные инструменты, Бахши, эпос, фольклор, национальное наследие, культурное возрождение, период независимости, национальная идентичность, традиционные исполнительские искусства, культурная политика.

**Abstract.** This article discusses the development of dombira art within the framework of the policy of restoring national culture after Uzbekistan gained independence, its introduction into traditional performing schools, the education system, its popularization through festivals and competitions, and its role in the upbringing of the younger generation. The importance of dombira art in understanding national identity and preserving cultural heritage is also analyzed.

**Key words:** Dombira, national musical instruments, Bakhshi, epic, folklore, national heritage, cultural revival, the period of independence, national identity, traditional performing arts, cultural policy.

Mustaqillik davrida musiqiy madaniyat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlarida milliy cholg'ularni rivojlantirish, ularni o'quv dasturlariga kiritish, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash masalalari alohida e'tibor bilan ko'rsatildi [1]. Ayniqsa, "Musiqqa va san'at maktablari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlar asosida respublika bo'ylab do'mbira, dutor, g'ijjak, surnay, karnay, nog'ora singari xalq cholg'ulari bo'yicha o'quv yo'nalishlari tashkil etildi. Do'mbira san'ati mustaqillik davrida nafaqat ijrochilik amaliyoti sifatida, balki madaniy merosning timsoli, milliy o'zlikning ifodachisi sifatida ham qayta talqin qilindi. O'zbek xalqining asrlar davomida og'zaki ijodda shakllangan musiqiy dunyoqarashi endilikda ilmiy, ta'limiy va sahna yo'nalishlarida yangi mazmun kasb etdi. Shu bois, do'mbira qayta tiklangan xalq cholg'ulari ichida eng faol rivojlangan sohalaridan biriga aylandi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida musiqashunos olimlar O. Matyoqubov, F. Karomatov, B. Usmonov, N. Yusupov, A. Alimovlar xalq cholg'ulari tizimini qayta tahlil qilib, ularning tarixiy ildizlari, etnomadaniy xususiyatlari va ijrochilik uslublarini qayta tasnifladilar. Shu jarayonda do'mbiraning O'zbekiston hududidagi shakllari, tor soni, ohang diapazoni, tovush tizimi va mahalliy ijrochilik maktablari (Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm) bo'yicha ilmiy farqlash ishlari olib borildi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng xalq cholg'ulari ansambllari ham faol rivoj topdi. Respublika miqyosida "O'zbekiston xalq cholg'ulari orkestri", "Surxon baxshilari ansambli", "Maqom ansambli" kabi ijodiy jamoalar tashkil etildi. Ularning repertuarida do'mbira asosiy ijro cholg'usi sifatida o'rin oldi. Bu jamoalar do'mbiraning faqat an'anaviy emas, balki sahnaviy va konsert ijrosida ham o'ziga xos imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi [2]. Mustaqillik yillarida O'zbekiston madaniy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri milliy musiqqa san'atini ta'lim tizimi orqali rivojlantirish va yosh avlodga meros sifatida yetkazish bo'ldi. Xalq cholg'ulari, jumladan do'mbira, endilikda nafaqat folklor muhitining mahsuli, balki kasbiy musiqqa ta'limining mustaqil sohasi sifatida o'rganila boshlandi.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida mamlakatdagi musiqqa ta'lim tizimi tubdan qayta qurildi. 1997-yilda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asosida ta'limning barcha bo'g'inlarida milliy qadriyatlarga tayangan, xalq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan yangi o'quv dasturlari joriy qilindi [3]. Shu jarayonda xalq cholg'ulari

yo'nalishlari bo'yicha o'quv muassasalari, xususan, bolalar musiqa va san'at maktablari, ixtisoslashtirilgan kollejlari va konservatoriya tizimida do'mbira ixtisosligi faol rivoj topdi.

Milliy cholg'u san'atini rivojlantirishda xalqaro festival va tanlovlarning tashkil etilishi ham muhim omil bo'ldi. "Sharq taronalari", "Do'mbira sadosi", "Baxshichilik san'ati festivali", "Ma'naviyat va qadriyatlar haftaligi" singari tadbirlar orqali do'mbira ijrochilari o'z mahoratini nafaqat respublika, balki xalqaro miqyosda ham namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa ijrochilik maktablarining tiklanishiga, yosh avlod orasida do'mbira chalish san'atiga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, ta'lim tizimida ham do'mbira alohida o'quv fani sifatida kiritildi. San'at kollejlari, madaniyat institutlari, musiqa akademiyalari va ixtisoslashtirilgan maktablarda do'mbira yo'nalishi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda. Bu jarayon o'z navbatida ijrochilik an'alarining barqaror rivojlanishiga, cholg'u texnikasining zamonaviy talablarga moslashishiga olib keldi [4]. Shu tariqa, mustaqillik yillarida milliy cholg'u madaniyatiga davlat miqyosida e'tibor berilishi do'mbira san'atining qayta tiklanishida hal qiluvchi omil bo'ldi. Endilikda bu cholg'u xalq og'zaki ijodining merosidan chiqib, professional san'atning to'laqonli tarkibiy qismiga aylangan.

1991-yil O'zbekiston tarixida yangi davr: mustaqillik milliy ong, madaniy qayta tiklanish va merosni qayta baholash bosqichini boshlab berdi. Bu davr xalqning o'z-o'zini anglashida, tarixiy xotirani tiklashda va milliy madaniyatni davlat siyosati darajasiga ko'tarishda sezilarli burilishlarni keltirib chiqardi. Madaniyat sohasidagi siyosatning yangi yo'nalishlari – til, adabiyot, tasviriy san'at, teatr va albatta, musiqiy merosga qaratilgan diqqat do'mbira san'atiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Mustaqillik yillarida do'mbira san'atining qayta tiklanishi jarayonlari, davlat-siyosiy sharoitlar, ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, festivallar hamda ijrochilik amaliyotidagi o'zgarishlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mustaqillikdan so'ng respublika hukumatining madaniyat sohasiga qaratgan e'tibori qonunlar, farmonlar va davlat dasturlari orqali aniq ifoda topdi. Milliy qadriyatlarni himoya qilish va taraqqiy ettirish maqsadida qabul qilingan hujjatlar xalq san'ati, xalq ijodkorlari va madaniy merosni moliyaviy, tashkiliy va huquqiy qo'llab-quvvatlashni jadallashtirdi. Davlat darajasidagi tashabbuslar do'mbira san'atini qayta tiklash va targ'ib etish uchun quyidagi yo'nalishlarni belgiladi: Milliy cholg'ularni o'quv dasturlariga kiritish (mahalliy musiqa maktablari va san'at kollejlari). Madaniy meros ob'yektlarini ro'yxatlash va himoya qilish (mintaqaviy ansambllar, ustozlar, noyob cholg'u ishlari). Respublika va xalqaro festival hamda tanlovlarni tashkil etish bilan ijrochilikning rag'batlantirilishi.

Davlat qarorlari orqali do'mbira ijrochilari va ustaxonalari moddiy yordam, studiyalar, konsert maydonlari bilan ta'minlandi, shu bilan birga xalqaro aloqalar va tajriba almashinuvi uchun baza yaratildi [5]. Natijada do'mbira faqat etnografik ob'ektdan chiqib, professional sahna, ta'lim va ilmiy tadqiqot muhitiga integratsiyalasha boshladi.

Mustaqillikdan keyingi yillar do'mbira ijrochiligi uchun o'quv-kurslar yaratildi. O'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida xalq cholg'ulari kafedralari faollashdi; maxsus yo'nalishlar tashkil etildi: "Xalq cholg'ulari – do'mbira", "Baxshichilik va og'zaki ijod" va hokazo. "Meros" dasturi doirasida xalq cholg'ulari, ularning tarixi, sozlash tizimi, ijrochilik an'analari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. O'zbekiston Davlat konservatoriyasida xalq cholg'ulari fakulteti kengaytirilib, "Do'mbira ijrochiligi" bo'limi alohida yo'nalish sifatida faoliyat yurita boshladi. Bu jarayon bir necha jihatdan muhim bo'ldi: Do'mbira chalishga oid metodik qo'llanmalar, o'quv dasturlari va darsliklar ishlab chiqildi. An'anaviy og'zaki o'qitish uslubi notavsol uslub bilan birlashtirilib, nota yozuvi, musiqa nazariyasi ham o'rgatila boshlandi. Bu do'mbira bilgan yangi avlod ijrochilarini yetishtirishga xizmat qildi. San'at kollejlari va oliy o'quv yurtlarida do'mbira bo'limlari ochildi, mutaxassislar malakasini oshirish uchun magistratura va dissertatsiya himoyalari amalga oshirildi. Shu orqali do'mbira pedagogik va ilmiy potentsiali mustahkamlandi. An'anaviy ustoz-shogird bog'lanishlar institutlashdi: tajribali baxshilar va mahalliy ustalarning ijodiy maktablari konservatoriya va san'at institutlari bilan hamkorlik qilmoqda, shogirdlar amaliyotni ham davlat dasturlari asosida davom etmoqda [6].

Ta'limda do'mbira joriy etilishi nafaqat ijrochilik texnikasini, balki etnografik repertuarni saqlash va yangilash imkonini ham berdi. O'quv jarayonlari yordamida xalq dostonlari yozib olindi, notaga tushirildi va arxivlashtirildi – bu esa og'zaki merosning yo'qolishini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etdi. Do'mbira ta'limining shakllanishi bilan bir qatorda, bu sohaga oid metodik qo'llanmalar, o'quv dasturlari va ilmiy izlanishlar ham yaratila boshlandi. Ta'lim tizimida do'mbiraga bag'ishlangan ilk metodik qo'llanmalardan biri 2002-yilda nashr etilgan “Do'mbira ijrochiligi asoslari” bo'lib, unda sozning tuzilishi, pardalash, nota bilan ijro, xalq kuylarini tahlil qilish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berilgan. Jumladan, D. Tursunovning “Do'mbira ijrochiligi metodikasi”, N. Yusupovning “Milliy cholg'ular nazariyasi”, A. Alimovning “Do'mbira maktablari va ularning ijro an'analari” kabi asarlari bu boradagi dastlabki ilmiy manbalar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu qo'llanmalar do'mbira ijrochiligining o'ziga xos texnik jihatlarini ilmiy asosda yoritadi: tor sozlanishi, tirnoq usuli, “urish”, “sirpanish”, “bo'g'ish”, “tez chertish” kabi milliy ijro texnikalari tizimlashtirilgan. Shuningdek, ularning yordamida o'quvchi do'mbirachilar uchun bosqichma-bosqich o'quv dasturi ishlab chiqilgan. Bu esa milliy cholg'u ijrochiligi sohasida yagona o'quv-metodik standartning shakllanishiga asos yaratdi [4].

Mustaqillik bilan birga do'mbira bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga mahalliy va xalqaro grantlar ajratila boshlandi. Etnomusiqaunoslik, tarixshunoslik va antropologik ekspeditsiyalar tashkil etilib, quyidagi muhim ishlar amalga oshirildi: Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Buxoro kabi mintaqalarga ekspeditsiyalar uyushtirilib, baxshilar, qo'shiqchi-ustozlar va mahalliy do'mbira ustalaridan butun repertuar audio va video formatda qayd etildi. Bu ma'lumotlar davlat va mahalliy arxivlarga topshirildi. O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Davlat televidiyasi va konservatoriya arxivlarida to'plangan materiallar raqamlashtirilib, tadqiqotchilar va talabalar uchun kirish imkoniyati yaratilmoqda. Shu bilan birga notaviy materiallarni informatika vositalari yordamida qayta ishlash (transkripsiya, nota ko'chirib olish) ishlari olib borilmoqda.

Mustaqillik yillarida do'mbira ijrochilari uchun respublika va xalqaro miqyosda ko'plab maydonlar ochildi. Festival va tanlovlar do'mbira san'atining ommalashuvi, yosh iqtidorlarni aniqlash va an'anaviy maktablarni jonlantirishda muhim rol o'ynadi. Mustaqillik davri o'zbek milliy do'mbirasining tiklanishi va yangi bosqichda taraqqiy etishi uchun muhim tarixiy imkoniyat yaratdi. Avvalo, milliy o'zlikni anglash jarayonining kuchayishi, tarixiy-madaniy merosni qayta baholash siyosati do'mbiraning musiqiy amaliyotdagi o'rnini tiklashga xizmat qildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Musiqqa va san'at maktablari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi qarori. — Toshkent, 1997.
2. “Sharq taronalari” xalqaro musiqqa festivali materiallari. – Samarqand, 2001–2023.
3. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 1997.
4. Tursunov D. Do'mbira ijrochiligi metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston san'at instituti nashriyoti, 2020.
5. O'zbekiston Davlat konservatoriyasi arxivi. – 2003-yilgi hisobotlar.
6. Shirinov N. Do'mbira ijrochiligi asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002.
7. “Baxshichilik san'ati festivali” materiallari. — Termiz, 2019.
8. Matyoqubov O. O'zbek xalq cholg'ulari va ularning tarixi. – Toshkent: Fan, 1999.

UO'K 908

### SHAHRISABZ TUMANIDA MUSTAMLAKACHILIK VA MUSTAQILLIK YILLARIDA MAORIF VA MADANIYAT

*D.U.Miliyeva, magistrant, Osiyo texnologiyalar universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola Shahrisabz tumanida mustamlakachilik davridan boshlab, mustaqillik yillarigacha bo'lgan maorif va madaniyat tizimining rivojlanishiga oid batafsil tahlilni taqdim etadi. Maqolada Shahrisabz tumanidagi maorif va madaniyat tizimining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlar ostidagi o'zgarishlari, ularning tarixiy manbalarga asoslangan holda batafsil ko'rib chiqiladi. Maqsad, har ikki davrda maorif va madaniyatga bo'lgan qarashlar va siyosatlarning qanday o'zgarishi va rivojlanishi haqida ilmiy mulohazalar yuritishdi.

**Kalit so'zlar:** *Shahrisabz, maorif, mustabid, dunyo fanlari, Amir Temur, Oqsaroy, Doruttilovat, UNESCO*

**Аннотация.** Данная статья представляет собой детальный анализ развития системы просвещения и культуры в Шахрисабзском районе, начиная с колониального периода и до лет независимости. В статье подробно рассматриваются изменения в системе образования и культуры Шахрисабзского района под воздействием политических, экономических и социальных факторов, на основе исторических источников. Цель исследования — представить научные рассуждения о том, как менялись и развивались подходы и политика в сфере просвещения и культуры в оба исторических периода.

**Ключевые слова:** Шахрисабз, просвещение, деспотический, мировые науки, Амир Темура, Аксарай, Дорут-тиловат, ЮНЕСКО.

**Abstract.** This article presents a detailed analysis of the development of the education and cultural system in the Shahrisabz district from the colonial period to the years of independence. The article thoroughly examines the changes in the district's education and cultural systems under political, economic, and social influences based on historical sources. The aim is to provide scholarly insights into how the perspectives and policies regarding education and culture have transformed and developed during both periods.

**Keywords:** Shahrisabz, education, totalitarian, world sciences, Amir Temur, Aksaray (Oq-Saroy), Dorut-Tilovat, UNESCO

**Kirish.** Shahrisabz tumani qadimdan Kesh vohasi markazlaridan biri bo'lib, buyuk alloma va sarkarda Amir Temur tug'ilib voyaga yetgan hudud sifatida katta tarixiy ahamiyatga ega. Shahrisabz tumani – Amir Temurning vatani, O'zbekistonning qadimiy va madaniy jihatdan rivojlangan hududi bo'lib, XX asrda maorif va madaniyat tizimi turli siyosiy rejimlar ta'sirida shakllangan. Mustamlakachilik va Sovet davrida ta'lim tizimi markazlashtirilgan va sovet mafkurasi asosida faoliyat yuritgan bo'lsa, mustaqillik yillarida esa milliy qadriyatlar tiklandi. Maqolada Shahrisabz tumanidagi maorif va madaniyat tizimining rivoji, o'zgarishlari, ijtimoiy va siyosiy kontekstdagi yutuqlari, shuningdek, islohotlar jarayoni yoritiladi. Tuman hududida maorif va madaniyat tizimi har bir davrning siyosiy jarayonlari ta'sirida o'zgarib borgan. Mustamlakachilik (chor Rossiyasi va Sovet davri) yillarida ta'lim va madaniyat siyosati markaziy hokimiyatga bo'ysungan holda shakllangan bo'lsa, mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar tiklanib, maorif tizimi tubdan isloh qilindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mustaqillik davri tadqiqotchilarining oldiga madaniy rivojlanishning tarixiy, nazariy jihatlarini xolisona ilmiy asosda o'rganish dolzarb masala sifatida vazifa qilib qo'yildi. Keyingi yillarda nafaqat tarixiy qadamjolar tarixiga, balki muayyan hududlarning maorif va madaniyati, tarixiga qiziqish kuzatiladi. **Muso Saidjonov** U o'zbek olimi, arxeolog, tarixchi va jadid harakati vakili bo'lib, "Shahrisabz me'moriy yodgorliklari tarixi" kabi maktab asarlarini yaratgan. Saidjonov 1930–1936 yillarda Shahrisabz hududida arxeologik tadqiqotlar olib borgan. U me'moriy obidalar, ijtimoiy va madaniy tarixni o'rganishda muhim rol o'ynagan. **Hazratqul Abruyev** "Amir Temurning ikkinchi qabri, Oqsaroy majmuasi" nomli maqolasi bor, unda Shahrisabz me'moriy yodgorliklari va Temuriylar davridagi arxitektura masalalari tahlil qilinadi **M. Hamidova** Arxeologik va tarixi-tahliliy yondashuvda Shahrisabz hududini o'rganadigan tadqiqotlar qilgan. Masalan, Muso Saidjonovning arxeologik ekspeditsiyalari va topilmalarini tahlil qilgan ilmiy yo'nalish mavjud. **Galina Pugachenkova** Sovet davrida Markaziy Osiyoda arxeologiya va san'atshunoslik bo'yicha faoliyat yuritgan. U Markaziy Osiyodagi arxitekturaviy yodgorliklarni, jumladan me'moriy merosni chuqur o'rganishda katta hissa qo'shgan. **I.I. Umnyakov** Me'moriy obidalarni o'rganishda, restavratsiya va qayta tiklash uslublari bo'yicha ilmiy ishlar qilgan.

**Natijalar va muhokama. Mustamlakachilik davri** Shahrisabz tumanida mustamlakachilik davrida ta'lim va madaniyat sohasida quyidagi holatlar kuzatilgan: **Maktablar va ta'lim:** Mahalliy aholi uchun cheklangan miqdorda maktablar mavjud bo'lgan, jumladan diniy maktablar va rus-tuzem maktablari. Umumiy ta'limga qamrov past bo'lgan. Ta'lim dasturlari ruslashtirish siyosati ta'sirida shakllantirilgan, o'quv dasturida asosan rus tili, hisob va tarix fanlari mavjud.

**Madaniyat:** Madaniy muassasalar (kutubxonalar, teatrlar, muzeylar) soni cheklangan, ko'proq shaharda markazlashtirilgan edi. Mahalliy an'analar asosan og'zaki shaklda saqlangan.

**Ijtimoiy ta'sir:** Mustamlakachilik hukumatining siyosati ta'lim va madaniyatni nazorat qiluvchi va cheklovchi bo'lgan. Shu bilan birga, bu davrda ma'lum darajada madaniy meros saqlangan va ba'zi yodgorliklar tiklangan. **Mustaqillik yillari (1991–hozirgi davr) Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar:** Mustaqillikdan so'ng Shahrizabz tumanida maktablar soni sezilarli darajada oshgan. Yangi ta'lim dasturlari joriy etilgan, zamonaviy fanlar (informatika, xorijiy tillar) kiritilgan va xalqaro standartlarga moslashuv boshlangan. **Madaniyat:** Madaniyat muassasalari faoliyati kengaygan, yangi kutubxonalar, muzeylar va teatrlar ochilgan. Xalq festivallari va an'anaviy san'at faoliyati qo'llab-quvvatlangan. **Davlat dasturlari:** "Maorif va madaniyatni rivojlantirish" dasturlari amalga oshirilgan, mahalliy tarixiy merosni saqlash va turistlarni jalb qilish yo'nalishlari rivojlantirilgan.

**Ta'lim sohasidagi farqlar:** Mustamlakachilik davrida ta'lim imkoniyatlari cheklangan bo'lsa, mustaqillik davrida kengaygan. Ta'lim mazmuni ham mustaqillikdan keyin milliy va zamonaviy yo'nalishlarga moslashgan. Bu o'zgarishlar siyosiy mustaqillik bilan bevosita bog'liq. **Madaniyat rivoji:** Mustamlakachilik davrida madaniyat cheklangan va markazlashgan bo'lsa, mustaqillik yillarida mahalliy an'analarga e'tibor qaratilgan, yangi muassasalar tashkil qilingan. Bu Shahrizabz tumanining tarixiy va madaniy merosini saqlash va rivojlantirish imkonini berdi. **Siyosiy va ijtimoiy omillar:** Mustamlakachilik davrida siyosiy cheklovlar madaniyat va ta'lim rivojiga to'sqinlik qilgan. Mustaqillik yillarida davlat dasturlari va mahalliy tashabbuslar ta'lim va madaniyatning kengayishiga yordam bergan. O'zgarishlarning asosiy sabablari: siyosiy mustaqillik, davlat dasturlari, jamiyat talabining oshishi. **Cheklovlar:** Mustamlakachilik davriga oid arxiv hujjatlarining yetishmasligi. Ba'zi intervyu va kuzatuvlar subyektiv bo'lishi mumkin.

Sovet davrida ta'lim siyosati Sovet hokimiyati o'rnatilgach, Shahrizabz tumanida ta'lim tizimi tubdan o'zgardi: savodsizlikni tugatish kampaniyalari o'tkazildi; yangi dunyoviy maktablar, kutubxonalar, klublar tashkil etildi; ta'lim kommunistik mafkuraga bo'ysundirildi; diniy ta'lim va madrasalar faoliyati cheklab qo'yildi. 1920–1980-yillarda Shahrizabz tumanida: o'rta maktablar soni ortdi, texnikumlar va maxsus o'quv yurtlari tashkil etildi, maktab-internatlar faoliyat yurita boshladi. Biroq, bu davrda ta'lim tizimi asosan marksistik-leninistik mafkuraga asoslangan, milliy ta'lim elementlari cheklangan edi. 1920-1940-yillarda Shahrizabz tumanida o'rta va texnikumlar soni ortdi. 1950-yillarda maktablar soni yana ko'paydi, ammo, ko'p hollarda o'quv dasturlari sovet mafkurasi va ideologiyasiga moslashtirilgan edi. Ammo ta'limning mazmuni mafkuraviy bo'lib, milliy tarix va qadriyatlar cheklangan holda o'qitildi. Mustamlakachilik davrida madaniyat tizimi Sovet siyosati madaniyatni ham kommunistik g'oyaga xizmat qildirdi.

Sovet davrida Shahrizabz tumanida madaniyatni rivojlantirish siyosati ham bir xil tarzda sovet mafkurasi asosida olib borildi. Diniy madaniyatni repressiya qilish, xalq san'ati va milliy an'analarni kamaytirish, o'rta asrlarning ulug' ajdodlaridan nafratni kuchaytirish orqali madaniyatga kommunistik g'oyalarni singdirish harakati amalga oshirildi. 3. Mustaqillik yillarida maorif tizimining rivoji 1991-yildan boshlab Shahrizabz tumanida ta'lim tizimi butunlay yangi bosqichga ko'tarildi. Shahrizabz tumanida madaniyat infrastrukturasi rivojlanishga qaratilgan, ammo bu rivojlanishning yo'nalishi ko'proq sovet mafkurasiga xizmat qilgan. Shuningdek, maxsus o'quv yurtlari, akademik litseylar va kasb-hunar maktablari tashkil etildi. 1997-yilda o'qituvchilar uchun yangi dasturlar va metodikalar ishlab chiqildi. Bundan tashqari, xalq ta'limi tizimida milliy qadriyatlarni o'qitish va zamonaviy ilm-fanlar bo'yicha ko'proq e'tibor qaratildi. Mustaqillik yillarida o'zbek tilining ta'lim jarayonida muhim o'rin tutishi ta'minlandi. Shahrizabz tumanidagi maktablar o'quv dasturini milliy qadriyatlar va tarixni o'rganishga asoslab ishlab chiqdilar.

1920-yillardan boshlab Shahrizabz sovet totalitar madaniyat siyosatining bir qismi bo'ldi. Bu davrda: diniy marosim va qadriyatlar ta'qib ostiga olindi; masjidlar va madrasalar yopildi yoki boshqa maqsadga yo'naltirildi; "yangi sovet madaniyati" targ'ib qilindi; xalq san'ati jamoalari, klublar, teatr va kutubxonalar tashkil etildi. Sovet davri bir tomondan milliy madaniyatga bosim o'tkazgan bo'lsa, ikkinchi tomondan madaniy infratuzilmaga asos solgan: madaniyat uylari, teatr to'garaklari, musiqa maktablari faoliyat boshlagan. Ammo barcha faoliyat mafkuraviy nazorat ostida bo'lgan.

Madaniy hayotning jonlanishi Tuman madaniyat bo'limi tomonidan: folklor jamoalari; san'at maktablari; muzeylar faoliyati kuchaytirildi. Shahrizabz "UNESCO merosi" ro'yxatiga kirgan hudud sifatida xalqaro e'tibor qozondi. Shahrizabz tumanida madaniy tadbirlar va festivallar ko'plab xalqaro

miqyosda o'tkazila boshlandi. O'zbekistonning mustaqilligi bilan birga, xalqaro madaniy aloqalar kengayib, Shahrisabzning xalqaro maydondagi nufuzi ortdi.

**Xulosa va takliflar.** Shahrisabz tumani maorif va madaniyat tizimi mustamlakachilik davrida siyosiy tuzum manfaatlariga bo'ysundirilgan bo'lsa-da, mustaqillik yillarida tubdan yangilandi. Milliy qadriyatlar tiklanib, ta'lim va madaniyatning rivoji uchun zamonaviy sharoit yaratildi. Mustaqillik Shahrisabz tumanida nafaqat tarixiy merosni qayta tiklash, balki yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash imkonini ham berdi. Shahrisabz tumanidagi maorif va madaniyat tizimi tarixiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlar ta'sirida shakllangan. Mustamlakachilik va Sovet davrida ta'lim va madaniyat tizimining o'zgarishlari mahalliy aholi va uning qadriyatlari bilan muvofiqlashtirilmagan bo'lsa, mustaqillik yillarida ushbu tizim milliy qadriyatlarga asoslanib, yangi bosqichga o'tgan. Shahrisabz tumanida ta'lim va madaniyat sohasida amalga oshirilgan islohotlar, albatta, respublika miqyosida muvaffaqiyatli tajriba sifatida qaralishi mumkin. Mustaqillik yillarida esa Shahrisabzning boy merosi tiklandi, xalq amaliy san'ati jonlandi, me'moriy obidalar ta'mirlandi va shahar xalqaro miqyosda tan olina boshladi. Shahrisabz misolida madaniyatning siyosiy tuzumdan katta darajada ta'sirlanishi, lekin baribir o'z ildizlarini yo'qotmay davom etishi tasdiqlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 1997.
2. Shahrisabz tumanining tarixiy-ma'naviy merosi, Shahrisabz, 2010.
3. A. Xodjayev, O'zbekistonda ta'lim tizimining rivojlanishi (XX asr oxiri – XXI asr boshlarida), Toshkent, 2005.
4. R. Murodov, Sovet davrida madaniyat va ta'lim tizimi,
5. Qosimov, B. *Shahrisabz tarixi*. – Toshkent: Fan, 2005.
6. Gulyamov, Ya. G. *Kesh–Shahrisabz arxeologiyasi*. – Toshkent: Fan, 1974.
7. Sagdullaev, A. *O'zbekiston qadimgi shaharlari*. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
8. UNESCO. *Historic Centre of Shahrisabz: World Heritage List Documentation*. Paris, 2000–2016.
9. Bartol'd, V. *Turkiston tarixi*. – Toshkent: Fan, 1993.
10. Temur, Amir. *Tuzuklar*. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991.

UO'K 94(575.1):355.21.

### TEMURIYLAR DAVRI SIYOSIY HAYOTIDA DARYO KECHUVLARI TAVSIFIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

*D.A.Mo'yudinov, tayanch doktorant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davri suv havzalari hamda ularning saltanatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'siri yoritilgan, Mazkur maqola keltirib o'rilgan ma'lumotlar manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida o'rganilgan va fikr bildirilgan. Maqolada tarixiy ilmiy va badiiy asarlar, risolalar, tarixshunoslikka oid bo'lgan ilmiy kitoblardan foydalangan holda ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davri Movarounnahrdagi ayrim tarixiy geografik joy nomlari ham keltirib o'tilgan. Maqola umumiy tushunchada Amir Temur va temuriylar davri iqtisodiy va ijtimoiy, siyosiy hayotining ma'lum bir jabhalarini qamrab olgan holda, ayni shu jarayonda daryo kechuvi ahamiyati qay darajada ekanligi bo'yicha xulosaga ega bo'lishga yordam beradi

**Kalit so'zlar:** Amudaryo, Sirdaryo, Karki, Amuya, Termiz, Umoj, Hofizi Abru, Habib us Siyar, V.Bartold.

**Аннотация.** В данной статье освещены резервуары Амира Темура и эпохи Тимуридов и их влияние на социально-экономические процессы царства. В статье представлена информация с использованием исторических научных и художественных произведений, брошюр, научных книг, связанных с историографией. Также в этой статье упоминаются имена Амира Темура и некоторые исторические географические места в Моваруннахре в период Тимуридов. Статья освещает отдельные аспекты экономической, социальной и политической жизни Амира Темура и эпохи Тимуридов в общем смысле и помогает сделать вывод о значении переправ через реки в этом процессе

**Ключевые слова:** Амударья, Сырдарья, Карки, Амуйя, Термез, Умой, Хафизу Абри, Хабиб ус Сияр, В. Бартольд.

**Abstract.** *In this article, the reservoirs of Amir Temur and the Timurid era and their influence on the socio-economic processes of the kingdom are highlighted. The article provides information using historical scientific and artistic works, pamphlets, scientific books related to historiography. Also, this article mentions the names of Amir Temur and some historical geographical places in Movarounnahr during the Timurid period. The article covers certain aspects of the economic, social, and political life of Amir Temur and the Timurid era in a general sense, and helps to get a conclusion about the importance of river crossings in this process*

**Key words:** *Amu Darya, Syrdarya, Karki, Amuya, Termez, Umoj, Hafizi Abru, Habib us Siyar, V. Bartold.*

**Kirish.** Amir Temur va temuriylar davri tarixiga doir manbalarda suv havzalari; dengiz, daryo va ko'llar haqida ayrim ma'lumotlar berilgan. Amudaryo va Sirdaryo qadimdan Movarounnahrning suv o'zagi hisoblangan. Temuriylar davrida ham mazkur daryolar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. To'g'ri mazkur ikki daryodan tashqari bir qancha yirik daryolar Ohangaron, Zarafshon va boshqalar mavjud. Lekin iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy tomondan Amudaryo va Sirdaryoning o'rni beqiyos hisoblangan. Nafaqat Amir Temur balki uning vorislari davrida ham siyosiy va harbiy va iqtisodiy jihatdan daryolar kechuvlari muhim strategik ahamiyat kasb etgan. Bu husuda juda ko'p manbalarda va asarlarda ma'lumotlar uchraydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Amir Temur va temuriylar davrida Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abru, Mu'iniddin Natanziy, Fasih Havofiy, Mu'iniddin Isfizoriy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hofiz Abru, Xondamir kabi tarixchilar tomonidan nodir asarlar yaratildi.

Amir Temur faoliyatiga bag'ishlangan ilk tarixiy asar G'iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning "Temurning Hindistonga yurishi kundaligi" ("Ro'znomai g'azovoti Hindiston") asari hisoblanadi. Tarixiy asar Amir Temurning topshirig'iga binoan 1399-1403-yillar oralig'ida kundalik shaklida yozilgan bo'lib, asarda sohibqironning Hindistonga zafarli harbiy yurishi yoritilgan. [1]

Amir Temur davri tarixi haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manba – bu Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asaridir. "Zafarnoma"ning ikkita nusxasi mavjud bo'lib, hozirgi kunda birinchi nusxasi Istanbuldagi Nuri Usmoniya masjidi kutubxonasida hamda ikkinchi nusxasi Britaniya kutubxonasida saqlanadi. Ushbu manbada temuriylar davri daryo kechuvlariga oida ayrim ma'lumotlarni uchratish mumkin va bu juda muhim ilmiy asosga ega ma'lumotlar hisoblanadi. Ayg'riyoli kechuvi, Arxang, Burkajit kabi kechuv nomlarini uchratish mumkin

Yana bir "Zafarnoma" mavjud bo'lib mazkur asar muallifi Sharafiddin Ali Yazdiydir. Asarda XIV asrga xos bo'lgan geografik ma'lumotlar keltirilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, Iroq va Sharqiy Anato'liyadan to hozirgi Xitoy markazigacha va Fors ko'rfazidan to Kama daryosi havzasigacha bo'lgan joy, suv, kent, shahar, tog', va dovonlarning o'zbekcha (qarluqcha) nomlari keltiriladi. Ayg'riyoli, Bo'ri kechik, chopma kechik, arxang, amuya ( chorjo'y), Bo'rdoliq, Barchin kechik, Avzach kechik, Kerki( Karki) kabi bir qancha kechuv nomlari aks etgan.[2]

Yana bir tarixiy asar Xondamir qalamiga mansub "Xabib us siyar" asari hisoblanadi. Asar 1521-154-yillar davomida yozilgan va muallif yashagan davrni bayon etgan. Bu asar Xoja Xabibullox Sovajiy topshirig'iga binoan qisqa muddatda yozilgan. Amuya, Kalif, Arxang, Bag'lon, Karki, Termiz, O'moj, Chaxorjo'y, kabi kechuv nomlari haqida malumotlar uchraydi.

Hofizi Abruning asosiy ijodiy faoliyati Shohrux mirzo davriga to'g'ri keladi. Olim aynan uning topshirig'iga ko'ra ikkita asar yozgan. Ulardan biri geografiya faniga bag'ishlangan bo'lib, arab olim Hasan ibn Ahmad al-Muhallabiyning X asrda yaratilgan "Kitob masolik ul-mamolik" asarining qayta ishlangan fors tilidagi nusxasidir. Asar garchi geografiyaga bag'ishlangan bo'lsada, unda geografik ma'lumotlarni keltirilgan hududlar bilan bog'liq siyosiy voqealar borasida ham qisqa tarzda so'z yuritilgan. Aynan ushbu asarda Amudaryo Kaspiy dengiziga qo'yilishi, shuningdek, Buxoro, Samarqand, Nasaf, Kesh, Termiz, Xo'jand shaharlari haqida keltirilgan ma'lumotlar biz uchun qiziqarlidir. O. Bo'riyev Hofizi Abru "Geografiya" asarida Orol dengizni Jayhun nomi bilan ataganini ta'kidlagan. Shuningdek, ayrim manblarda Xorazm dengizi nomi bilan ham yuritilgani

aytiladi. “Geografiya” asarida Orol dengizi haqida so‘z yuritilar ekan, Amudaryo va Sirdaryo suvini Xazar dengizi ( Kaspdiy ) quyilishi sababli ko‘l qurib qolganini yozadi. [3]

Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub memuar asar hisoblanuvchi “Boburnoma” asari o‘rta asrlar tarixiga oid juda muhim manba hisoblanadi. Bu asarda 1800 dan ziyod joy nomlari aks etgan. Siyosiy, ijtimopiy-iqtisodiy, madaniy jihatdan yetuk hisoblanuvchi bu asar etnografik jihatdan ham juda salmoqli ma‘lumotlarga ega. Tadqiqot doirasida kechuvlar haqida ham ko‘p o‘rinda to‘htalib o‘tib, ularning ahamiyatini yoritib o‘tgan. Boburnoma bir qancha tarjima bariantlari bugungi kungacha salqanib qolingan. Asar ikki qismdan iborat hisoblanadi. [4]

Abdurazzoq Samarqandiyning fors tilida yozilgan, ikki jilddan iborat yagona tarixiy asari – “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilish joyi”) dir. Asarni Abdurazzoq Samarqandiy asosan 1467-1469-yillar orasida yozib tamomlagan va 1470-yili yana davom ettirib, shu yilning safar oyida tugallagan. “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” asarining birinchi jildi XIV asr voqealarini o‘z ichiga oladi, ikkinchi jildi XV asr voqealaridan iborat. Ikki jilddan iborat bo‘lgan asarda Movarounnahr va Xuroson viloyatida hukmronlik qilgan Amir Temur, temuriy hukmdorlar Shohrux Mirzo, Mirzo Abulqosim Bobur, Sulton Abu Said va Husayn Boyqarolarning siyosiy faoliyati yoritilgan.[5]

Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an qalamiga mansub “Musaxxir al Bilod” asari ham ham temuriylar davri haqida juda muhim ma‘lumotlarni beradi. Bu asar bugungi kungacha 2 ta qo‘lyozma nusxasi yetib kelgan. Bu asarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda Bo‘riboy Ahmedov hissasi katta hisoblanadi. Asosiy biz e‘tibor berish kerak bo‘lgan kechuvlar ham juda ko‘p o‘rinlarda tilga olingan. Karki kechuvi, Chaxorjo‘y kechuvi, Termiz kechuvi, Burdalig‘ kechuvi, kabui kechuv nomlari va ular bilan bog‘liq juda muhim ma‘lumotlar uchraydi.

**Natija va muhokama.** XV asrda temuriylar davri siyosiy hayotida daryo kechuvlari juda muhim ahamiyat kasb etgan. Davlatni boshqarish, harbiy yurishlarni amalga oshirish kabi masalalar bevosita kechuv joylari bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Birgina Amir Temur Amir Husayn bilan bog‘liq voqealar rivojida kechuv joylari juda qo‘l kelgan. Dastlab Amir Husayn bilan birgalikda mo‘g‘ullarga qarshi kurashda olib borilgan qo‘shin va tarafdor to‘plash jarayonida Arxang kechuvi bilan bog‘liq holatlarni ko‘rish mumkin. Badaxshon safaridan qaytar chog‘da Arxang kechuidan kechib o‘tadi va Xuttalon tomon yuzlanagni ta‘kidlab o‘tilgan. Arxang kechuvi Amudaryoning yuqori oqimidagi kechuv joyi hisoblanib, hozirgi Sherxon yaqinidagi kechik. Amir Temur va temuriylar davrida juda muhim kechuv joyi hisoblangan.

Karki kechuvi Movarounnahrda Xurosonga olib o‘tuvchi muhim kechuvlardan biri. Nafaqat temuriylar davrida balki, xonliklar davrida ham mavjud va o‘z o‘rniga ega kechuv hisoblanib kelgan. Rossiya bosqini davrida ham faoliyat ko‘rsatgan.

Temuriylar davri yozma manbalarida O‘rta Osiyoning yirik daryolari - Amudaryo va Sirdaryodagi guzarlar haqida ham ma‘lumot qayd etilgan. Guzar karvon yo‘llarida bo‘lib, ayniqsa xalqaro savdo muntazamligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Ana guzarlar suv bo‘yida aholi maskanlari ham vujudga kelgan va ular odamlarni, o‘t-ulozlarni, yuklarni kemalarda yoki sollarda suvdan olib o‘tish, yozish qisqa hordiq olishi uchun boshpana va zarur foydalanishni tashkil etish.

Jumladan, Termiz janubiy yo‘nalishda va Kelif g‘arbiy savdo yo‘lidagi Amudaryo kechuida joylashgan. Amir Temur vaqtida Termiz guzari, XV asrda esa Kelif va Karki guzarlar ham joy molik bo‘lgan. Ilgari davrlarda Termiz bilan bir qatorda Omuya (hozirgi Chorjuy) dagi kechuv ham Movarounnahr bilan Xurosonni bog‘lagan.[6]

Sirdaryo bo‘yicha savdo yo‘llarida asosiy guzarlar Chinoz (Chinos) va Shohruhiya (qadimgi Banokat) shaharlari yonida edi. XV asrda ko‘proq Chinoz guzari mashhur bo‘lgan

Shomiyning “Zafarnoma” asarida Ayg‘riyoli kechuvi, Arxang, Burkajit kabi kechuv nomlarini uchratish mumkin. Mazkur kechuvlar juda ahamiyatgamolik ekanligi bilan ajralib turadi. Kechiklar (guzarlar) nomlaridan "Boburnoma"da Amudaryo bo‘ylab yuqoridan quyilish holati qarab To‘quzo‘lum, Uboj (Uyoj), Termiz, Karki, Chorjo‘y guzarlari hamda Sirdaryoning yuqori havzasida Yassi kechit guzari nomlari keltirilgan. Mazkur kechuvlar geografik jihatdan Movarounnahrni Xuroson bilan bog‘lagan. Muiniddin Natanziy o‘zining asarida amir Husayn Qarshini egallash jarayonida Amudaryodagi muhim kechuvdan o‘tganligini bayon etgan. [8]

**Xulosa** qilib aytganda, Amir Temur va temuriylar davrida daryo kechuvlari siyosiy jihatdan juda muhim ahamiyat kasb etgan. Movarounnahrni Xuroson bilan hamda boshqa hududlar bilan bog'lashda Amudaryo va Sirdaryo kechuvlari manfaatli rol o'ynagan. Daryo kechuvlari muhimligi hisobga olinib kechuv joylarida maxsus qo'riqlanadigan joylar tashkil etilgan. Albatta bu kechuvlar iqtisodiy jihatdan ham juda muhim ahamiyat kasb etgan. Tadqiqot davomida xulosa shuni beradiki, aksariyat kechuvlar Amir Temur va temuriylar davrigacha ham mavjud bo'lganligini ko'rish mumkin. Aksariyat qismi keying davrlarda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Семенов А.А. Предисловие переводчика. // Гийасаддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. // Пер. с перс., предис. и примеч. А. А. Семенова. – Москва: Издательство восточной литературы, 1958. – 206 с. (кейинги ўринларда – Гийасиддин Али. Дневник.)
2. Аҳмад А., Бобобеков Х, Сўзбоши. / Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўзбоши, тадбил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А. Аҳмад ва Х. Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.
3. Хафиз-у Абру. Извлечение из “Зубдат ут-таварих”. // перевод с персидского А.Буриева. /Материалы по истории Средной и Центральной Азии X – XIX вв. –Т.:Фан, 1988. – С.143-148.
4. Захириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома. / П. Шамсиев, С. Мирзаевлар томонидан нашрга тайёрланган. В.Зоҳидовнинг сўз боши ва таҳрири билан. – Тошкент: Фан, 1960. – 514 б.; Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. / П. Шамсиев, С. Мирзаев, Е. Мано, С. Ҳасановлар нашрга тайёрлаган. В. Раҳмонов, К. Муллахўжаевлар ҳозирги ўзбек тилига тадбил қилган. – Тошкент: “O'qituvchi” NMIU, 2017. – 368 б
5. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Ж. П. Қ. I. 1405 – 1429 йил воқеалари. – Т.: «Ўзбекистон». 2008. – 632 б.
6. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (тарихий-географик лавҳалар) – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 58.
7. Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья. – Москва: Восточной литературы, 1963.
8. Чехович.О.Д. Самаркандские документы XV – XVI вв. – Т.: Наука, 1974. – С. 631

UO'K: 117:004-2:102.4(111:07)

## MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYODA RADIALOQA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXI

*S.E.Norto'rayev, tayanch doktorant, Qarshi Davlat Universiteti, Qarshi*

<https://orcid.org/0009-0007-3621-2944>

**Annotatsiya.** *Maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryoda radialoqa tizimining rivojlanish tarixi tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqillik davrida yangi radio studiyalari va efir dasturlari tashkil etilishi, mahalliy aholi uchun axborot va madaniy xizmatlarning kengayishi ko'rib chiqiladi. Maqolada radio jurnalistikasi rivoji, radio efirlari orqali ijtimoiy xabarlarining tarqalishi hamda jamiyatda axborot sohasining ahamiyati ham o'rganilgan. Shuningdek, Qashqadaryo radiosida faoliyat yuritgan jurnalistlar haqida ma'lumotlar beriladi va radio dasturlarining zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Qashqadaryo, radialoqa, radio studiyasi, mustaqillik, axborot, radio jurnalistika, jamiyat hayoti.*

**Аннотация.** *В статье анализируется история развития системы радиосвязи в Кашкадарье в годы независимости. Рассматривается создание новых радиостудий и программ вещания в период независимости, расширение информационно-культурных услуг для местного населения. Также исследуется развитие радиожурналистики, распространение социальных сообщений посредством радиовещания и значение информационной сферы в обществе. Приводится информация о журналистах, работавших на Кашкадарьинском радио, и анализируется роль радиопрограмм в формировании общественного мнения через современные социальные сети.*

**Ключевые слова:** *Кашкадарья, радиостанция, радиостудия, независимость, информация, радиожурналистика, общественная жизнь.*

**Abstract.** *This article analyzes the history of radio communications development in Kashkadarya since independence. It examines the creation of new radio studios and broadcasting programs during the independence period, as well as the expansion of information and cultural services for the local population. It also explores the development of radio journalism, the*

*dissemination of social messages through radio broadcasting, and the importance of the information sphere in society. It provides information about journalists who worked for Kashkadarya Radio and analyzes the role of radio programs in shaping public opinion through modern social media.*

**Keywords:** *Kashkadarya, radio station, radio studio, independence, information, radio journalism, community life.*

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari tizimida ham muhim tarixiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu jarayon mamlakatda demokratik islohotlarning chuqurlashuvi, axborot sohasidagi huquqiy asoslarning shakllanishi hamda milliy ommaviy kommunikatsiya tizimining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'ldi. Ana shu jarayonlarda radio eshittirishlar aholini axborot bilan ta'minlash va jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritishda muhim o'rin egalladi.

Tarixiy jihatdan qaraganda, O'zbekistonda radioeshittirishlar XX asrning birinchi yarmida shakllana boshlagan bo'lsa, mustaqillik yillarida ular mazmun va shakl jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. 1991- yildan keyin mamlakatda ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va ularning faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan bir qator me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, ko'rsatuv va eshittirishlarning mazmun-mundarijasini tubdan o'zgartirish, ularning strategiyasi va asosiy yo'nalishlarini belgilash, axborot sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida 1992-yil 7-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi televideniya va radioeshittirish Davlat Komitetini O'zbekiston Davlat teleradioeshittirish aylantirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi[1]. 1997-yil 26-dekabrda O'zbekiston respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" gi qonuni qabul qilindi[2]. Mazkur qonun mustaqil jurnalistika va radioeshittirishlar uchun huquqiy baza yaratadigan asosiy hujjat bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, radioeshittirishlar faoliyatini takomillashtirish, ularning jamiyat hayotidagi ta'sirini kuchaytirishga xizmat qildi. Radioeshittirishlar mazmunida milliy qadriyatlar, tarixiy meros, ma'naviy-ma'rifiy masalalarni keng yoritishga alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, radio orqali mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, jamoatchilikni qiziqtirgan dolzarb masalalar ham keng yoritila boshladi. Bu jarayonda radio jamiyatda jamoatchilik fikrini shakllantirish va aholining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim vositaga aylandi.

O'tmish tariximizga nazar soladigan bo'lsak, O'zbekistonda radioeshittirish 1926-yilda Toshkentda amalga oshirildi[3]. 1927-yil 11-fevralda quvvati 2 kVt bo'lgan, 30-yillarga kelib, undan ancha kuchli bo'lgan ommaviy radiostansiya ishga tushirilib, muntazam ravishda radioeshittirishlar boshlandi. Qashqadaryo viloyatida birinchi radioeshittirish 1945-yilning dekabridan boshlandi[4]. 1946 – yilda Qarshi shahridagi bolalar istirohat bog'i hududida Qashqadaryo radiosi uchun bino ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi[5]. Radio uyi 3 ta xonadan iborat bo'lib, dastlabki radioeshittirishlar 30 daqiqadan iborat bo'lib, u ham faqat Qarshi shahar aholisi uchun muljallangan edi[6]. 1958-yilga kelib, radioeshittirish dasturlari bir soatga uzaytirildi. Eng asosiysi mazkur yildan boshlab, radioeshittirishlar sim orqali butun viloyatga tarqatish yo'lga qo'yildi.

1982-yilning fevral oyida Qarshi shahrida yangidan viloyat radio uyi qurilib, foydalanishga topshirildi. Radioeshittirishlar endi haftaning dushanba kunidan tashqari har kuni soat 12.30 dan 13.00 gacha, 17.30 dan 18.00 gacha sim orqali va qisqa tulqinlar orqali amalga oshirishni yo'lga qo'ydi. Viloyat radiosi mahalliy aholini hududda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar haqida xabardor qilish, shuningdek, milliy an'analar va urf-odatlarini targ'ib etishning samarali vositasi sifatida faoliyat yuritdi. Radio eshittirishlar orqali mahalliy aholining ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ham muhim vazifalardan biriga aylandi.

Qashqadaryo vohasida radio jurnalistikasi asosan hudud teleradiokompaniyasi tarkibidagi viloyat radiosi va "Oltin voha" FM 102.3 radiokanali orqali efirga uzatilib kelinmoqda[7]. 2003-yilning yanvar oyidan boshlab Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasi qoshida «Oltin voha» deb nomlangan radiokanal tashkil etildi. Ushbu radiokanal dushanbadan tashqari haftaning har bir kunida soat 8.00 dan 21.00 gacha Qarshi shahri va uning atrofida 50-60 kilometr radiusda efirga chiqishi yo'lga qo'yildi. «Oltin voha» radiokanali tarkibida «Ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy

eshittirishlar», «Madaniy-ma'rifiy, sport va badiiy eshittirishlar», «Ko'ngilochar va musiqiy eshittirishlar», «Rus tilidagi eshittirishlar» tashkil etildi[8]. FM radiosining ish ko'lamini bevosita radiotinglovchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatib, turli xil o'yinlar, radio-shoular uyushtirish imkoniyatini vujudga keltirdi. Shuningdek, «O'zbekiston» radiokanali uchun ajratilgan to'liqda haftaning dushanbadan tashqari kunlarida soat 15.00 dan 16.52 gacha viloyat radiosi eshittirishlari efirga berilib kelinmoqda.

Qashqadaryo viloyat radiokanallardagi turli yo'nalishlarda ko'plab jurnalistlar, muharrirlar va boshlovchilar faoliyat yuritib kelmoqda. Jumladan, viloyat radiosi va "Oltin voha" radiokanali tarkibida axborot muharrirlari, radio boshlovchilari (diktorlar), muxbirlar, madaniy-ma'rifiy dastur mualliflari, musiqiy va ko'ngilochar dastur boshlovchilari shuningdek, radioda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, sport, badiiy va musiqiy dasturlar tayyorlaydigan alohida muharrir jurnalist shtatlari mavjuddir[9]. Har bir yo'nalish jurnalistlarining o'ziga xos vazifalari bo'lib, axborot muharrirlari viloyat yangiliklari reportajlarni tayyorlash bilan, radio boshlovchilar esa asosan yangiliklar va mualliflik dasturlarini olib borish bilan, muxbirlar esa, tumanlar va mahalliy voqealar haqida reportaj tayyorlaydi. Eng muhim yo'nalishlardan yana biri, adabiyot, san'at, tarix va madaniyatga bag'ishlangan eshittirishlarni tayyorlaydigan, madaniy-ma'rifiy dastur jurnalistlari hisoblanadi. Ular tomonidan bir-biridan qiziqarli, keng xalq ommasiga uchun mo'ljallangan dasturlar efirga uzatiladi[10]. Qashqadaryo viloyat teleradiokampaniyasi tarkibidagi "Oltin voha" radiokanalida ko'plab mahoratli jurnalistlar mavjud. Jumladan, Shahnoza Qosimova, Sitora Jo'raboeva, Oybek Yusupov, To'liqin To'raqulov, Lola Abdullaeva, Mehriniso Hasanova, Alisher Rahmatov, Farhod Yusupov, Gulsanam Sattarova, Saidjon Miraliev shular jumlasidandir. Xususan, Shahnoza Qosimova "Oltin voha" radiokanali jurnalisti va muharriri sifatida faoliyat yuritib kelayotgan mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillaridan biri hisoblanadi. U asosan radio jurnalistikasida ijod qilib, ijtimoiy-ma'rifiy mavzulardagi eshittirishlari bilan tanilgan. Ushbu jurnalist tomonidan ijtimoiy-siyosiy, ta'lim va yoshlar tarbiyasi, jamiyatdagi islohatlar, mahalliy muammolar va madaniy hayotga doir radio eshittirishlar va intervyular tayyorlab kelinmoqda. Masalan, jurnalist tomonidan ta'lim sohasi va yoshlarni tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan "Ta'lim va islohot" nomli radio suhbat tashkil etilib, tomoshabinlarga taqdim etildi. Shuningdek, jamoatchilik masalalariga bag'ishlangan "Nuqtai nazar", "Quvnoq nonushta" kabi radio eshittirishlar muallifi ham hisoblanadi.

2025-yil 27-iyun kuni Toshkent shahrida "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni" munosabati bilan "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida "Oltin qalam" milliy mukofati uchun XIX xalqaro tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi[11]. Xalqaro tanlov 5 ta asosiy nominatsiya — televidenie, radio, bosma nashrlar, internet nashrlari yo'nalishlari hamda rag'batlantiruvchi nominatsiyalar bo'yicha o'tkazildi. Tanlovda har bir ishtirokchining 2024-yil 30-apreldan 2025-yil 30-aprelgacha bosma va internet nashrlarida e'lon qilingan, radio va televideniya efirga uzatilgan 5 tadan 7 tagacha materiallari ko'rib chiqildi. Agar ijodiy jamoa – radiokanal jamoasi tanlovda ishtirok etadigan bo'lsa, 5 tadan 7 tagacha eng yaxshi ko'rsatuv yoki eng yaxshi eshittirishning elektron varianti (yoxud havolasi) ilova qilindi. Mazkur tanlovda Shahnoza Qosimova "Eng yaxshi jurnalistik material (radio)" nominatsiyasi bo'yicha 2-o'rinni egalladi.

XXI asr boshlariga kelib, raqamli texnologiyalar va internet tarmoqlarining rivojlanishi radioeshittirishlar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatdi. Radio dasturlari internet orqali ham tarqatila boshlandi hamda interaktiv muloqot shakllari kengaydi. Bu esa radioeshittirishlarning auditoriyasini kengaytirish va ularning jamiyat hayotidagi ta'sirini yanada oshirish imkonini berdi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda, jumladan Qashqadaryo viloyatida radioeshittirishlar tarixi yangi bosqichga ko'tarildi. Radio nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarni yoritish, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish va jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatida rivojlandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. -Toshkent: Davlat, 2006. – B. 498.
2. Ўзбекистон республикасининг "Оммавий ахборот воситалари тўғрисида" ги қонуни. //Халқ сўзи. 2007 йил 16 январ.

3. Ўзбекистон Республикаси Энциклопедияси. – Тошкент. Қомуслар Бош таҳририяти. 1997. – Б. 498.
4. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2005. – Б. 627.
5. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси: замон билан ҳамқадам. Китоб-албом. – Тошкент, Ijod-Press. 2022. – Б. 14.
6. MTRK. Qashqadaryo radiosi tarixi // O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi rasmiy sayti. – <https://www.mtrk.uz/uz/regional/qashqadaryo/tvshows/>
7. Қарши. Китоб-албом. Ўзбек, рус, инглиз тилларида. – Тошкент. “Маънавият” 2010. – Б. 192.
8. Yusupov Izzat. 1991–2000-yillarda O'zbekistonda radioaloqa tizimining shakllanish tarixi.// Tamaddun nuri, 2024. 5-жилд, 56-сон. - B. 237–240.
9. O'zR. MDA, M 54 fond, 1-ro'yxat, 9-ish, 237-239 varaqlar.
10. Zuparov V.Z. Xolmatov O.A. Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2007. – B. 113.
11. Kun.uz. “Oltin qalam” milliy mukofoti g'oliblari taqdirlandi. – 27.06.2025. – <https://kun.uz/news/2025/06/27/kunuz-jurnalisti-oltin-qalam-mukofoti-bilan-taqdirlandi>

UO'K: 94(410)''16/17'':321.7

## ANGLIYADA STYUARTLAR HUKMRONLIGINING TIKLANISH DAVRI VA BURJUA TUZUMINING O'RNATILISHI OQIBATLARI

*S.O.Omonova, dots., t.f.d., Qarshi davlat universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Angliyada Styuartlar sulolasi hukmronligining tiklanish davri hamda bu jarayonning siyosiy va ijtimoiy oqibatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, burjua tuzumining shakllanishi, parlamentning roli kuchayishi va davlat boshqaruvi tizimidagi o'zgarishlar haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Angliya tarixi, Styuartlar sulolasi, monarxiya tiklanishi, burjua tuzumi, parlament tizimi, siyosiy islohotlar, davlat boshqaruvi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается период восстановления власти династии Стюартов в Англии и анализируются его политические и социальные последствия. Также освещаются процессы формирования буржуазного строя, усиление роли парламента и изменения в системе государственного управления.

**Ключевые слова:** история Англии, династия Стюартов, реставрация монархии, буржуазный строй, парламентская система, политические реформы, государственное управление.

**Abstract.** This article examines the period of the restoration of the Stuart dynasty in England and analyzes its political and social consequences. It also highlights the formation of the bourgeois system, the strengthening of the role of Parliament, and changes in the system of state governance.

**Keywords:** English history, Stuart dynasty, Restoration of the monarchy, bourgeois system, parliamentary system, political reforms, state governance.

Xo'jalikning barcha tarmoqlarida kapitalistik munosabatlar taraqqiy etdi. Kapitalistik fermerlar soni oshdi, g'ov tutish va dehqonlarning yerdan mahrum qig'inishi kuchaydi. sanoat katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Angliyaning Flindiston bilan savdosi natijasida 600 000 funt foyda olina boshlandi. Mustamlakalarning boyliklari talandi.

Karl II burjuaziya tabaqasining manfaatlari bilan kam hisoblasha boshladi. Ayniqsa, qirolning tashqi siyosati ularning noroziliklariga sabab bo'ldi. U hokimiyatga kelguncha ham Fransiyadan qarz ola boshlagan edi. Taxtga o'tirgach, yana Fransiya bilan yaqinlashish yo'lini tutdi. Karl II Fransuz qirolu Lyudovik XIV dan olgan katta pul evaziga ingliz tovarlari uchun Fransuz bozorlarini yopib qo'yilishiga o'z roziligini berdi. Shundan keyin u 5 000 000 frank evaziga Fransiya Kromvel davrida Ispaniyadan tortib olingan Dyunkerni ham soldi.

Qirol bilan parlament o'rtasidagi kurash Angliyaning siyosiy hayotida 2 ta siyosiy partiya - tori va vigilar tashkil toptirdi. Torilar partiyasiga yirik yer egalari va ingliz ruhoniylaridan iborat qirol hokimiyati tarafdorlari a'zo bo'ldilar. Vigilar partiyasiga esa yirik moliyachilar va bir qism yirik yer egalari kiridilar. Ular qirol hokimiyati hisobiga parlament huquqlarini kengaytirishga harakal qildilar.

1685 yilda taxtga Karl II ning ukasi Yakov II o'tirdi. U mamlakatda absolyutizm va katolik dinini tiklashni o'zining asosiy vazifasi, deb bildi. Torilar va vigilar bundan tashvishga tushdilar. 1688 yilning iyunida tori va vigilar Angliya taxtiga Yakov II ning kuyovi Qo'shma provinsiyalar (Gollandiya) shtatgalteri Vilgelm Oranskiyni taklif qildilar. Noyabr oyida hech qanday qarshiliklarsiz Oranskiy Angliya taxtini egalladi, Yakov II Fransiyaga qochdi.

1688 yil voqealarini ingliz burjuaziyasi "Shonli inqilob" deb nomladi. Chunki u hech qanday qon to'kishsiz Angliyada burjua parlamentlar tuzumini mustahkamladi.

XVII asr burjua inqilobi Angliyada boshqarishning feodal-mustabid tizimini tugatdi va bu bilan kapitalizmning bundan keyingi taraqqiyotiga xalaqit berib turgan eng asosiy to'siqni bartaraf etdi. Shuning uchun ham XVII asrning oxiri va butun XVIII asr Angliya uchun ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sish davri bo'ldi, bu esa pirovard natijada ayni shu mamlakatda ishlab chiqarishning yangi shakllarini yaratishga-mashinalashgan yirik kapitalistik ishlab chiqarishning g'alabasiga olib keldi. Dunyo mamlakatlari orasida dastlab Angliyada kapitalistik fabrika bunyud qililib, bu fabrika undan oldin o'tgan manufaktura qaraganda kapitalistik xo'jalikning xiyla yetuk va rivojlangan ko'rinishi edi. Ammo Angliya tarixida XVIII asr boshqa jihatdan ham muhim bo'ldi. XVIII asrda ingliz parlamentar tizimi, ya'ni yangi zamondagi burjua davlatiga xos shakli tashkil topdi. Bu hukumatning oldida mas'uliyatli ekanligida, umumpalatasida qaysi siyosiy partiya ko'pchilikka ega bo'lsa, o'sha siyosiy partiya rahbarlaridan ministrlar tayinganligida o'z ifodasini topdi. Keyinchalik ministrliklarning parlament oldida javobgarligi prinsipini Yevropadagi hamda dunyoning boshqa qit'alaridagi burjua mamlakatlarining ko'pchiligi biror shaklda qabul qildilar.

Agrar to'ntarishning ikkinchi oqibati, dehqonlarni ekspropriatsiya qilish natijasida bo'shab qolgan ishchi kuchlari bilan o'sib kelayotgan kapitalistik sanoatning ta'minlanishi, bu ham sanoat uchun katta ahamiyatga ega edi. Yerdan mahrum qilingan dehqonlarning bir qismigina fermadan o'ziga ish topa olar edi. Yeridan ayrilgan dehqonlarning ko'pchilik qismi esa shaharlarga ketar va shu tariqa ishsizlar armiyasini bunyodga keltirar edi. Bu ishsizlar armiyasi esa manufaktura va fabrikalarni doimiy ishchi kuchi bilan ta'minlar edi.

1688-yilgi davlat to'ntarishi qirol yerlarining xususiy shaxslar (birinchi galda vigi-dehqon zodagonlarga hamda qisman London bankirlari va savdogarlariga mansub bo'lgan shaxslar) qo'lga o'tib qolishiga sabab bo'ldi. Angliya qirollari qo'lida bunday yerlar hatto XVII asrning 2-yarmida, burjua inqilobidan keyin ham juda ko'p saqlanib qolgan edi. Yangi yer egalari zodagonlar va burjuaziya qadimdan davom etib kelayotgan dehqon yer egaligi bilan sira hisoblashmas edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Angliyada yirik kapitalistik ishlab chiqarishning bunyodga kelisni uchun barcha shart-sharoitlar mavjud edi: Bu vaqtda ingliz kapitalistlari qo'lida musulmakalarni talash va Yevropadan boshqa qit'alardagi turli mamlakatlar bilan dengiz osha savdo-sotiqdan behad ko'p foyda olish natijasida juda katta miqdorda Fransiyadan uning Osiyo va Amerikadagi yaxshi mustamlakalarini tortib olib, unga qaqshatqich zarba berdi. Ingliz mustamlakachilari XVIII asrda juda keng miqyosda misli ko'rilmagan vahshiylik, shafqatsizlik va makkorlik ishlarida mustamlakalarni talashi, dastlabki jamg'arilish, deb ataladigan jarayonning nihoyasiga yetganligini bildirar edi, bu jarayonga XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmidayoq geografik kashfloytlar bilan asos solingan edi.

Bo'sh yerlarni egallash, dehqonlarni yersizlantirish, mustamlakalarni talash hisobiga kapital to'plab olgan savdo-sanoat burjuaziyasi ko'poq foyda olish uchun mashinalashgan yirik ishlab chiqarish zarurligini tushundi. Ana shundan so'ng ular har qanday texnika sohasidagi kashfloytlarga jiddiy e'tibor berdilar va fan-texnika yangiliklarini qo'llash bilan birga uni yaratgan kishilarni rag'batlantira boshladilar.

XVIII asr ingliz sanoatida metallurgiyaning yirik sanoatga aylanishiga yordam bergan boshqa bir qancha ixtirolar qilindi. 1735 yilda Abragam Derbi cho'yan critish uchun toshko'mirdan foydalanish usulini ochdi. 1750 yilda Benjamin Xentsman mineral yonilg'i bilan po'lal eritish usulini ixtiro qiSdi. Sanoatga mashinalarning joriy qilinishi mehnat unumdarligini oshirdi. 1720 yilda Angliyada 18 ming tonna, 1802 yilda esa 250 ming tonna cho'yan ishlab chiqarilgan. Yirik fabrika sanoalining rivojlanishi Angliyaning iqtisodiy gcografiyasini keskin o'zgartirib yubordi. Agar ilgari mamlakalning aholosi zich va savdo-sotiq cng rivojlangan qismi janubi-sharq bo'lgan bo'lsa, sanoat

to'ntaruvchi jarayonida ishlab chiqaruvchi kuchlarning ko'p qismi u erdan shimoli-g'arb tomonga ko'chib o'tdi. Manchester, Birmingem, Liverpool, Glazgo kabi shaharlar asosiy sanoat markazlariga aylandi.

Temiryo'llar qurilishi paravoz va vagonsozlikka ham keng yo'l ochdi. Sanoat to'ntarishi katta ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar keltirib chiqardi. Yirik fabrika ishlab chiqarishning g'laba qilishi natijasida Angliyada sanoat ishchilari paydo bo'ldi. Sanoat to'ntarishi oddiy, qo'l bilan harakatlanadigan qurollarni mashinalarga, ustaxonalarni fabrikalarga, hunarmandlarni ishchilarga, sobiq yirik savdogarlarni fabrikantlarga aylantirdi. Sanoat to'ntarish shunday qilib, kapitalistik jamiyat taraqqiyotida muhim marra edi. Bu ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi borasidagi juda katta sakrash va ayni paytda kapitalizm ishlab chiqarilishi munosabatlarining shakllanishida yangi bosqich edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Европа мамлакатлари ва АҚШ 1640–1918 йилларда /А. Холлиев тахрири остида.–Тошкент, 2010.–320 б.
2. Новая история стран Европы и Америки. Второй период : учебник / под ред. Е. Е. Юровской, И. М. Кривогуза. – Москва : Высшая школа, 1998. – 415 с.
3. Айзенштат, М. П. Британия Нового времени: политическая история : учеб. пособие / М. П. Айзенштат. – Москва : Высшая школа, 2007. – 204 с.
4. Davies, N. The Isles: A History / N. Davies. – London : Papermac, 2000. – 1222 p.
5. Виппер, Р. Ю. История Нового времени / Р. Ю. Виппер. – Москва : Республика, 1999. – 624 с.
6. Cannon, J. The Kings and Queens of Britain / J. Cannon, A. Hargreaves. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 404 p.
7. История стран Европы и Америки в Новое время (1815–1914) / под ред. В. С. Бондарчука, И. В. Григорьевой. – Москва : Издательство Московского университета, 2016. – 612 с.

UO'K: 378:159.9

### O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOG MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASH JARAYONI

*M.Oqnazarova, doktorant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida psixolog mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayoni universitetlar misolida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, jamiyat, psixologiya, pedagogika, Vazirlar Mahkamasini, konsultatsiya, kompetensiya, Ilmiy Kengash, huquqbuzarlik, malakaviy amaliyot.

**Аннотация.** В данной статье на примере университетов освещён процесс подготовки специалистов-психологов в системе высшего образования Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, общество, психология, педагогика, Кабинет Министров, консультация, компетенция, Научный совет, правонарушение, квалификационная практика.

**Abstract.** This article highlights the process of training psychologist specialists in the higher education system of the Republic of Uzbekistan based on the example of universities.

**Keywords:** Central Asia, society, psychology, pedagogy, Cabinet of Ministers, consultation, competence, Scientific Council, offense, qualification practice.

Ma'lumki, bugungi kunda jamiyatning zamonaviy taraqqiyot darajasida psixologiyaning dolzarbligi ortib bordi, davlat va shaxsning rivojlanishida psixologik bilimlarning o'rni, muhimligi tobora namoyon bo'ldi. Aynan bunday bilimlar har bir insonning jamiyatdagi maqomi, yoshlarning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishi, kelajakka intilishi va farovon hayot kechirishi uchun ijtimoiy mas'uliyati va shaxs sifatidagi faolligini belgilovchi omillardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 29 avgustda "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida psixologiya o'quv-ilmiy markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga ko'ra, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Psixologiya o'quv-ilmiy markazi tashkil etildi. Markazni yuqori malakali mutaxassislar, shu

jumladan xorijiy ta'lim muassasalarida ta'lim olgan hamda psixologiya sohasida katta tajribaga ega bo'lgan ilmiy-pedagog kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-sonli "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda xorijiy tajribadan kelib chiqib, oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga ijtimoiy psixologiya, yoshlar psixologiyasi, psixologik xizmat faoliyatini boshqarish,

oilaviy konsultatsiya va kouching kabi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini kiritishi, respublikaning chekka hududlarida amaliyotchi

psixologlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda 2019/2020 o'quv yilidan boshlab psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarni davlat granti asosida maqsadli qabul qilishi hamda oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida psixologiya bo'yicha mutaxassisliklar kvotalarini keskin oshirish kabi muhim vazifalar belgilab olingan edi.

Shuningdek, ushbu qaror asosida respublikada psixologlar ilmiy maktabini kengaytirish maqsadida kelgusi yillarda tayanch doktorantura va doktoranturaga ajratiladigan kvotalar sonini 30 foizga oshirish maqsadi qo'yildi. So'nggi yillarda mamlakatda psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2019/2020 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarida psixologiya ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalarida malakaviy amaliyot davomiyligini 8 haftadan 15 haftaga oshirish tadbirlarini amalga oshirish belgilab olindi.

Sohani rivojlantirish uchun 2021 yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" qabul qilindi. Unga muvofiq, respublikaning 14 ta xududida oliy ta'lim muassasalari huzurida xo'jalik hisobida ish yuritadigan aholiga psixologik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etildi. Shuningdek, psixologiya sohasida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash bo'yicha qabul parametrlari yiliga 30 foizdan oshirib borildi, psixologiya sohasi professor-o'qituvchilari va ilmiy hodimlarining xorijiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tizimli malaka oshirishi hamda stajirovka o'tashlari tashkil etildi; tuman (shahar) mahallalari tuzilmasida oila psixologi lavozimi joriy etildi; maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari, mahalla va oila tizimida faoliyat olib borayotgan barcha psixolog mutaxassislar belgilangan tartibda 3 yilda bir marotaba tegishli malaka oshirish kurslarida o'qishlari tashkil etildi.

O'zbekiston milliy universitetida psixologiya bo'limi 1972-yilda tashkil etilgan bo'lib, uzoq yillar O'rta Osiyo va Qozog'istonda yagona psixologlar tayyorlagan. Ushbu bo'limni ochishda kafedra mudiri, professor Mahamad Vohidovich Vohidovning xizmatlari beqiyos bo'lgan. 1990 yilga qadar psixologiya bo'limini 800 ga yaqin mutaxassis tugatgan. Kafedra xorijiy davlatlarga 150 dan ortiq mutaxassislar tayyorlab bergan.

2002-2010-yillar mobaynida G'oziyev Ergash G'oziyevich ijtimoiy psixologiya kafedrasini mudiri sifatida faoliyat yuritgan. Hozirda kafedra qoshida psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini himoya qilish bo'yicha ixtisoslashgan Ilmiy Kengash faoliyat ko'rsatmoqda.

Psixologiya fanlari kafedrasini doktori, professor Muxammedova Dilbar Gafurjonovna rahbarlik qilmoqda. Kafedra o'qituvchilar soni umumiy 26 tani tashkil qiladi. Ta'lim dasturlari sonida: bakalavr darajasini talaba yo'nalishda, magistratura talabasi mutaxassislikda, ilmiy darajalar beruvchi bitta Ilmiy Kengash faoliyat ko'rsatadi. Xalqaro aloqalarda talabalari almashinuvi yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston milliy universitetining "Psixologiya" va "Sotsiologiya" kafedralari negizida O'zbekiston davlat psixologiya universitetini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Shuningdek, bugungi kunda universitetlarning o'quv rejalariga o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan pedagogik psixologiya va yosh davrlari psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, psixodiagnostika, psixokorreksiya singari fanlar kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lardi. Ayni paytda psixologiyaning o'qituvchilar uchun mutlaqo zarur bo'lgan bu sohalari bo'yicha yetarli bilim olmagan bitiruvchilarning 90 foizdan ortiqrog'i maktablarga o'qituvchilik qildi.

Buxoro davlat universiteti ham mamlakatimizda psixolog kadrlar tayyorlash bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Universitetda psixologiya kafedrasini faoliyat olib boradi.

1979-yildan boshlab “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini alohida mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha, ya’ni pedagogika hamda psixologiya kafedralariga ajratildi.

2004-yildan boshlab “Psixologiya” kafedrasini nomi bilan sobiq “Pedagogika va jismoniy madaniyat” fakultetida, keyinchalik esa “Gumanitar fanlar fakulteti” (hozirgi tarix fakulteti), “Ijtimoiy iqtisodiy” fakultetlari tarkibida faoliyat ko‘rsatib, unga psixologiya fanlari doktori, professor Sharif Ramazonovich Barotov rahbarlik qilgan. 2010-yildan boshlab esa, kafedra tarkibiga sobiq sotsiologiya kafedrasini birlashtirilib “Psixologiya va sotsiologiya” nomi berildi. 2017-yildan boshlab Sotsiologiya kafedrasini ajralib, kafedra “Psixologiya” deb nomlangan. Ayni paytda ushbu kafedrada asosiy shtatda 26 nafar professor-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatdi.

Kafedrada O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy metodik seminar o‘tkazish va etakchi tashkilot sifatida dissertatsiyalarga rasmiy taqrizlar berish huquqi berilgan. Bundan tashqari Buxoro davlat universiteti huzuridagi psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 raqamli ilmiy kengash kafedra xuzurida faoliyat ko‘rsatdi.

**Xulosa** qilib aytganda, O‘zbekistonda yuqori malakali, o‘z sohasining yetuk mutaxassislari tayyorlashga qaratilgan siyosat amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy e’tibor sohaning huquqiy asosini yaratishga qaratildi. Xususan, respublikamizda ham psixologiya fanini rivojlantirish va psixolog kadrlar tayyorlash bo‘yicha ham ko‘pgina samarali ishlar amalga oshirildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 29 avgustda “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida psixologiya o‘quv-ilmiy markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // <https://lex.uz/uz/docs/3367425>
2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.10.2017 y., 09/17/775/0051-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-sonli “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori // <https://lex.uz/uz/docs/4367731>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-sonli “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori // <https://lex.uz/uz/docs/4367731>
5. Begmatov A. Psixologiyaning boshqa sohalarga ta’siri va uni o‘rganishdagi kamchiliklar // <https://www.gazeta.uz>.
6. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti joriy arxivi

UO‘K 902(575.1):72.031:930.2

## O‘ZBEKISTON HUDUDIDA NEOLIT DAVRI ME‘MORCHILIK MAKTABINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXSHUNOSLIGI

*M.V.Oripova, magistrant, Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida neolit davri (mil.avv. VI-IV ming yillar) moddiy madaniyatning sezilarli yuksalishi, turmush tarzi va arxeologik merosi, manzilgohlari, qadimiy xo‘jalikshakllari, mehnat qurollari va turar joylari, dastlabki me‘morchilik an‘analarining shakllanishi, rejalashtirish tamoyillari keyingi eneolit, bronza davri va uning hozirgi davr me‘morchiligi rivojiga zamin yaratgani va poydevor bo‘lgani haqida tahlillar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘rta Osiyo, Qizilqum, Nurota, Joytun madaniyati, Kaltaminor madaniyati, Hisor madaniyati, B.A.Kuftin, V.M.Masson, D.Durdiev, O.Berdiyev, A.V.Vinogradov, S.P.Tolstov, neolit davri, arxeologiya, me‘morchilik, mehnat qurollari.

**Аннотация.** В данной статье анализируется значительный подъем материальной культуры периода неолита (VI-IV тысячелетия до н. э.) на территории Узбекистана, образ жизни и археологическое наследие, поселения, древние формы хозяйства, орудия труда и жилища, формирование ранних архитектурных традиций, принципов планировки, которые заложили основу и стали фундаментом для развития архитектуры следующего энеолита, бронзового века и его современного периода.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, Кызылкумы, Нурота, Джойтунская культура, Калтаминорская культура, Хисарская культура, Б.А. Куфтин, В.М. Массон, Д. Дурдыев, О.

*Бердиев, А.В. Виноградов, С.П. Толстов, Эпоха неолита, археология, архитектура, орудия труда.*

**Abstract.** *This article analyzes the significant rise of material culture of the Neolithic period (VI-IV millennia BC) in the territory of Uzbekistan, lifestyle and archaeological heritage, settlements, ancient forms of economy, tools and dwellings, the formation of early architectural traditions, planning principles, which laid the ground and became the foundation for the development of the architecture of the next Eneolithic, Bronze Age and its current period.*

**Key words:** *Central Asia, Kyzylkum, Nurota, Joytun culture, Kaltaminor culture, Hisar culture, B.A. Kuftin, V.M. Masson, D. Durdiev, O. Berdiyev, A.V. Vinogradov, S.P. Tolstov, Neolithic period, archeology, architecture, tools.*

**Kirish.** O'rta Osiyo hududida neolit davri tarixi me'morchiligiga oid oid ma'lumotlar yetarli emas. Sababi bu davrga tegishli bo'lgan manbalar, madaniy yodgorliklar soni kam. Shunday bo'lishiga qaramay, o'sha davrdagi arxeologik topilmalar, qadimiy obidalar (masalan, turar joy binolari, tosh qurollar, sopol idishlar) bu davrdagi aholining me'moriy yodgorliklari gaqida ma'lumot beradi.

Neolit davri me'morchiligining ayrim elementlari keyinchalik, o'rta asrlar me'morchiligiga ham kirib kelgan. O'rta Osiyo (va O'zbekiston) hududi Neolit davrida – geografik jihatdan daryo vodiylari, qumliklar, cho'l-dasht, tog'oldi va boshqa turli tabiiy sharoitlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston hududida neolit maktabi bir nechta madaniyat shakllari orqali rivojlangan.

Neolit davrida qabilalarning ko'pchiligi o'troq turmush tarziga o'tadi, doimiy yashash uchun manzilgohlar qura boshlaydilar. Avvalgidek daydib yurish, yangi ov makonlarni qidirib topishga barham beradi. Bu davrga kelib keyinchalik urug' jamoalarining qarorgohlari ham shakllanadi. O'troq hayot tarzi mehnat qurollarining takomillashuvini tezlashtiradi. Neolit davrida tosh boltalar keng tarqalgan. Barcha o'g'ir yumushlar mana shu tosh boltalar yordamida bajararilgan.

Janubiy o'lkalarning serhosil yerlarida yashagan kishilar xo'jalikning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik shakllarini rivojlantirgan. Bu davr xo'jaligi ishlab chiqaruvchi xo'jalik deb atalgan.

2021-yilda Qizilqum cho'lida (Oyoqogitma va Qorasigir botiqlari yaqinida) neolit va paleolit davriga oid manzilgohlar topilgan. Bu hududda neolitga oid 370 dan ortiq tosh buyumlar, mikrofauna, kul va gulhan qoldiqlari aniqlangan. Fanlar Akademiyasi ma'lumqilishicha, milliy arxeologiya markazi Samarqand Davlat Universiteti Olimlari Qizilqum cho'lining janubiy-sharqida joylashgan Oyoqogitma botig'ida neolit, Qorasigir botig'i yaqinida paleolit davriga oid manzilgoh qoldiqlarini topgan. Ma'lumot uchun, Qizilqum cho'li bundan 5-6 ming yillar muqaddam bepoyon vodiy bo'lib, insoniyat ajdodlarida zich yashagan "ming ko'llar madaniyati" bo'lgan [1].

2025-yilda Jizzax viloyatining G'allaorol tumani, Nurota tog' tizmasida (Koropchi va Yonboshtut qishloqlari atrofida) neolit davriga oid yangi manzilgohlar aniqlangan. Bu topilmalar O'zbekiston neolit davri jamiyati va ularning madaniy-iqtisodiy hayoti haqida muhim ma'lumotlar beradi [2].

Miloddan avvalgi 6-3 ming yilliklarda O'rta Osiyoda istiqomat qilgan qabilalar ikki yo'nalishda rivojlanishadi:

1. Janubi-g'arbiy hududlarida neolit davri jamoalari ilk dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug'ullanishgan;

2. Shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida odamlar ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanishgan, shu tarzda hayot kechirishgan.

Neolit davrida iqlim hozirgi davrga ancha yaqin bo'lgan, u davr kishilari yer yuzi bo'ylab ancha keng tarqala boshlagan. Ular turli tabiiy sharoitga moslasha boshlagan va alohida madaniyat yaratgan. Turli geografik muhit va shart – sharoitdan kelib chiqib ularning mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, turar-joylari va xo'jaliklari ham har xil shaklga ega bo'lgan. Bu esa xo'jalikning notekis rivojlanishiga sabab bo'lgan. Janubiy o'lkalarning serhosil joylarida yashagan kishilar xo'jalikning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik shakllari rivojlangan. Shimoliy o'lkalarda esa tabiiy sharoitning noqulayligi tufayli uzoq vaqt orada qolib ketgan [3]. Bu jihatlar me'morchilik emas, balki

“Neolit me'morchilik maktabi” deb atasa, ya'ni odamlarning doimiy turar – joy yaratishi, aholini bir hududda joylashtirishi, xo'jalik va madaniyatni shakllantirish bosqichi bo'lgan. To'qimachilik hunarmandchilikning vujudga kelishi ham neolit davrining buyuk kashfiyoti hisoblanadi. Neolit davri odamlari hayvon yungi va o'simlik tolasidan mato to'qishni o'rganganlar. Shuningdek, yigirilgan ipdan baliq to'ri ham to'qilgan. Bu esa baliq ovlash ahamiyatini keskin ravishda oshirib yuborgan. Bunga suvda suzuvchi qayiqlarning yaratilishi ham imkon bergan. Neolit davri yutuqlaridan yana biri ona urug'i doirasida juft oilaning vujudga kelishi bo'lib, u urug' ichida oilaviy munosabatlarning izga tushishiga olib keldi va jamiyat taraqqiyotini yanada olg'a siljitti.

O'rta Osiyoda neolit davri yodgorliklarini bir necha yirik territorial-xo'jalik shakllarga ajratilgan. Joytun madaniyati - Kapettog' yon bag'rlarida shakllangan, Kaltaminor madaniyati - Amudaryo va Zarafshonning quyi havzalarida, Qizilqumda shakllangan, Hisor madaniyati - Hisor tog'tizmalarining dara va yaylovlarida shakllangan, Markaziy Farg'ona madaniyati- Farg'ona vodiysida keng tarqalgan, Sazag'on madaniyati - O'rta Zarafshon vohasida keng tarqalgan, Ustyurt neoliti madaniyati Ustyurtda tadqiq etilgan. Joytun madaniyati O'rta Osiyoning janubiy-g'arbiy hududida ilk dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalar yodgorligidir. Uning izlari faqat Turkmanistonning janubiy- g'arbiy hududlaridan topilgan. Olimlar uni miloddan avvalgi VI ming yilliklar oxiri V ming yilliklar boshlariga oid deb hisoblashadi. Uni B.A.Kuftin, V.M.Masson, D.Durdiev, O.Berdievlar tadqiq qilgan. Joytun madaniyatiga Bami, To'g'oloqtepa, Chag'illitepa, Munchoqlitepa, Cho'pontepa, Joytun, Nayzatepa, Chag'illitepa, Pessejiktepa kabi bir qator ibtidoiy dehqonlarning manzilgohlari kiradi. Joytun qishlog'ida uch qurilish bosqichi aniqlangan. Unda uylar to'rtburchak shaklida qurilib, devorlari guvaladan ishlangan va somon bilan suvalgan. Uylarning yonida xo'jalik xonalari - omborxonalar, saroy va o'ralar ham bo'lgan. Joytun uylari devorining qalinligi 30 sm ni tashkil etgan. Har bir uyda (xonadonda) 5-6 kishidan iboyashagan, deb taxmin qilinadi. Hammasi bo'lib, Joytunda 30 ga yaqin uy-joy komplekslari bo'lgan, ularda 150-180 kishi istiqomat qilgan.

Uyning ichki o'ng tomonida katta to'g'ri burchakli o'choq mavjud bo'lib, u loydan (guvala) qurilgan. Tosh qurollari asosan chaqmoqtoshdan ishlangan. Prizma va konussimon nukleuslar ko'plab topilgan. Geometrik shakldagi mikrolitlarning keng tarqalishi Joytun madaniyatining muhim xususiyati hisoblanadi. Ulardan qadama tig' sifatida foydalanishgan. Joytunliklar kulolchilik buyumlarini qo'lda yasaganlar va geometrik naqshlar bilan bezaganlar. Ilk Joytun madaniyatida bezakli sopol idishlar kam uchraydi. Bezakli idishlar ko'proq qizil rang bilan ishlangan. Ilk Joytun sopol idishlarida to'lqinsimon chiziqlar uchrasa, so'nggi Joytun sopol idishlarida to'rsimon chiziqlar asosiy o'rinni egallaydi.

Bu yerdan hayvon va odam gavdasi tasvirlangan haykalchalar, munchoq, shaxmat donalari topilgan. Haykalchalardan ko'proq echki, qo'y haykallari uchraydi. Haykalchalar urug'ning sig'inadigan buyumi deb taxmin qilinadi. Cho'pontepa qishlog'idan bir necha qabrlar topib o'rganilgan. Qabrlardan g'ujanak holda yon tomoniga yotqizilgan va ustiga qizil oxra sepilgan odamlarning suyaklari topilgan. Bu qabrlar neolitning eng so'nggi bosqichiga tegishlidir. Joytun madaniyati yodgorliklaridan topilgan moddiy manbalar ularning dehqonchilik bilan birga. chorvachilik, ovchilik bilan ham shug'ullanib, o'z davrining katta yutuqlarini qo'lga kiritganligini ko'rsatdi. Hisor madaniyati tog'li mintaqalarda yashab. asosan hayvon ovchiligi bilan shug'ullagan qabilalar madaniyatidir. U Tojikistonning tog'li mintaqalarida keng tarqalgan. Ularning izlari 300 dan ortiq joydan topilgan. Bu madaniyatga oid dastlabki yodgorlik Dushanbe shahri yaqinidagi Hisor vodiysidan topilganligi sababli Hisor madaniyati nomini olgan. Hisor madaniyatining harakterli tomoni, uning aholisi qayroqtosh tosh qurollariga o'ziga xos ishlov berishgan. Uning ishlanish uslubi o'rta paleolit davridagiga o'xshaydi. Sopol idishlar qo'lda ishlanib, geometrik naqsh berilgan [4].

Neolit davrida turli xo'jalik shakllarining qaror topishi hududlar o'rtasidagi o'zaro buyum almashuvining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Masalan, chorvachilik mahsulotlarining dehqonchilik mahsulotlariga almashinuvi yoki aksincha [5].

Arxeologlar Tutkovul makonidan yarim yerto'la shakldagi uy qoldig'ini va 4 ta qabrni topib o'rganganlar. Jasadlar g'ujanak holda yotqizilib, oyoq-qo'llari bog'langan holda ko'milgan. Bu mozorlar Hisor madaniyatining so'nggi bosqichiga tegishlidir. Xuddi shu davrda O'rta Osiyoning

shimoliy va markaziy hududlarida ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug'ullangan neolit davri jamoalari istiqomat qilganlar. Bunday yodgorlik XX asrning 30-40 yillarida S.P.Tolstov tomonidan Amudaryoning quyi havzasida topilgan va fanga Kaltaminor madaniyati nomi bilan kiritilgan. Yodgorlik Amudaryoning Oqchadaryo o'zidan chiqqan qadimgi Kaltaminor kanali etaklaridan topilgani uchun shu nom berilgan. Kaltaminor madaniyati O'rta Osiyoning g'arbiy va shimoli-g'arbiy tomonidagi yerlarida keng tarqalgan. Uning shimoli-g'arbiy chegarasi Ural daryosining o'rta va quyi oqimlarigacha, g'arbiy chegarasi Kaspiy dengizigacha borib taqalgan. Janubda Qoraqum va Qizilqum etaklarigacha, sharqda esa, Orol dengizining shimoliy, sharqiy va janubiy tomonidagi quyi Sirdaryogacha borib taqaladi. Qizilqum va Ustyurtning katta teritoriyasida ham Kaltaminor madaniyati ancha keng tarqalgan. Kaltaminor madaniyatini o'rganish jarayonida olimlar uning rivojlanish bosqichlarini aniqladilar — Daryolisoy (mil.avv. VI-IV ming yilliklarga oid), Jonbos (mil.avv. IV-III ming yilliklarga oid) va Saksovul (mil.avv. III ming yillik oxiri -II ming yillik boshlariga oid).

Oqchadaryo havzasidan ko'plab Kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar topilgan. Ularning 3-4 ta manzilgohning madaniy qatlami buzilmasdan saqlanib qolgan. Bular Jonbas-4, Qavat-7, Tolstov manzilgohi, Tumek Kichidjik qabristonidir. Daryolisoy yodgorliklari qadimgi Zarafshon daryosining eng qadimgi o'zanlardan biri - Daryolisoy bo'ylaridan topilgan makonlar hisoblanadi. Daryolisoy sohillaridan ilk neolit davriga oid qirg'ichlar, tarashlagichlar, paraqalar va trapesiyalar topilgan. Bu yerdan boshqa joylarga xos bo'lmagan o'ziga xos shoxdor trapesiyalar topildi. Makondan naqshli sodda sopol idishlarining parchalari ham topilgan. Neolit davri odamlari daryo sohilida makon qilib, baliqchilik, ovchilik bilan shug'ullanganlar. Neolit davri yodgorliklari Qizilqumning Chinkeldi, Echkiliksoy, Xo'ja Gumbaz, Qoraqat degan joylardan ham topilgan. Jonbos-4 makoni Oqchadaryo qirg'oqlaridan topilgan. Uni S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari o'rgangan. Makondan chaqmoqtoshdan yasalgan mehnat quroliari, sopol parchalari, hayvon va baliq suyaklari bilan birga katta chayla qoldig'i ham topilgan. Chaylada neolit davrida yong'in bo'lganligi aniqlangan.

Markaziy Farg'onaning shimoliy qismida joylashgan Madyor boshqa makonlari so'ngi neolit davriga, ya'ni mil. avv IV – III mingyilliklarga oiddir. Uchtut yodgorligi chaqmoqtosh qazib olish va birlamchi ishlov berish ustaxonasi bo'lib. Navoiv viloyati Uchtut hududidan topilgan. Uni Y.G'. G'ulomov rahbarligidagi ekspeditsiya 1960 yilda topgan. Yodgorlikni 1966-1967 yillarda T.Mirsoatov o'rgangan va neolit davrga oid o'ra(shaxta)larni ochgan. Shuningdek, bu yerdan tosh davrining turli bosqichlariga oid moddiy buyumlar ham topilgan. Dastlabki davrlarda ibtidoiy odamlar qovalarda ko'rinib yotgan chaqmoqtoshlarni sindirib olganlar. Keyingi davrlarda chaqmoqtoshni qidirib, tog' yonbag'irlarida 4.5 va 5 metrli o'ralar kovlaganlar. O'ralar maxsus tosh, suyak va yog'ochdan yasalgan kurakchasimon qurollar yordamida qazilgan. O'ralar devorlarida kurakchalar izlari mavjud. Chaqmoqtoshni konchilar tosh boltalar yordamida kovlaganlar. Shuningdek, u yerda o't yoqib toshni qizdirishgan va sovuq suv quyib, portlatganlar. Ular keragieha xom-ashyodan olib, keyinchalik o'ralar og'zini harsang toshlar bilan yopib qo'yganlar. Arxeologlar bu yerda 100 dan ortiq bunday o'ziga xos o'ralarni topganlar, ulardan faqat 35 tasi o'rganilgan. Uchtut yodgorligi singari shaxtalar faqat neolit davri yodgorliklarida uchraydi. Neolit shaxtalari Angliya, Fransiya, Daniya, Shimoliy Germaniya va Belorussiya kabi davlatlarda ham topilgan [6].

Quyi Amudaryo hududi Sho'rxon va Sulton Uvays tog'i janubi – sharqiy hududi va Tuyamo'yin so'l sohili hududlari Amudaryo suv toshqini natijasida vujudga kelgan suv havzalari sohili adog'iga ulangan hududlarda Sulton Sanjar, Qarriqizil va Qushbuloq ochiq tipdagi makonlarda madaniy qatlamlardan olingan ashyolar neolit davri urug' – jamoalari o'zlashtiruvchi xo'jalikni olib borganliklaridan dalolat beradi. Yog'och ustunli yarim yerto'la manzilgohlarini tuzilishini aks ettirgan aylana shaklda uy xonalari madaniy qatlamlaridan baliq, yovvoyi hayvon suyaklari, toshbaqa kosalari, jiya qoldiqlari ko'plab topilgan [7].

**Xulosa.** Neolit davrida me'morchilik maktablarining vujudga kelishi insoniyatning iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u faqat yangi qurilish texnologiyalarining paydo bo'lishiga emas, balki jamiyatning butun ongini, tafakkurini, dunyoqarashining ham shakllanishiga olib keldi. Dehqonchilik bilan chorvachilikning rivojlanishi

oqibatida doimiy yashash joylarga ehtiyoj tug'ilib, insonlar jamoa bo'lib foydalanadigan manzilgohlar ko'payishiga zamin yaratgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Annayev J. Jahon arxeologiyasi. – Toshkent. 2020.
2. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T.: 1999.
3. Egamberdiyeva N. Arxeologiya. O'quv qo'llanma, - T.: 2001.
4. Jumaboyeva N., Raupova N., Yarmatov N. "Paleolit, mezolit, neolit davrining o'ziga xos xususiyati". Ilmiy maqola, T.: 2020
5. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi – T.: 2004.
6. "O'zbekiston Arxeologiyasi", "O'zbekiston Tarixi" va "Galaorolning Arxeologik yodgorliklari" jurnallari, 2021-2025.
7. "O'zbekiston Milliy Axborot Agrntligi" va "Xalq so'zi" jurnallari, 2021-2025.
8. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining ilmiy materiallari hamda O'zbekiston Arxeologiyasi jurnali, –T.: 2022.
9. G'affarov M. Q, "O'zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi. (Mil.avv. IX- V asrlar), Monografiya. –Urganch. 2025.
10. Sheraliyev A., Xolmatov B. Toponomika va uning fan sifatida shakllanishi. Tadqiqotlar.Uz. –T.: 2023., Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. 27-son. –T.: 2023.
11. <https://Arxiv.Uz> O'rta, Osiyo neolit davr

**UO'K 94(575.1):929:321.6**

**XORAZMDA SHAYBONIYLAR SULOLALASINING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI  
VA XONLIK HOKIMIYATINING MUSTAHKAMLANISH**

*M.Sh.Otajanova, magistrant, Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazmda XVI asrning boshlarida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, hokimiyat uchun kurashda shayboniylarning g'alabasi va Xiva xonligiga asos solinishi to'g'risida bayon qilinadi. Ayniqsa, Abulg'azi Bahodirxon hukmronligi davrida amalga oshirilgan ishlar aks ettirilgan.*

*Kalit so'zlar:* Xiva xonligi, Shayboniylar, Elbarsxon, Hoji Muhammadxon, Arab Muhammadxon, Anushaxon, Sherg'ozixon.

*Аннотация. В данной статье описывается социально-политическая ситуация в Хорезме в XVI веке, победа Шайбанидов в борьбе за власть и основание Хивского ханства. В частности, отражены работы, проведенные во время правления Абулгази. Баходир-хана.*

*Ключевые слова:* Хивское ханство, Шайбаниды, Эльбарс-хан, Хаджи Мухаммад-хан, Араб Мухаммад-хан, Абулгази Баходир-хан, Ануша-хан, Шергози-хан.

*Abstract. This article describes the socio-political situation in Khorezm in the 16th century, the victory of the Shaybanids in the struggle for power and the foundation of the Khiva Khanate. Especially the works carried out during the reign of Abulgazi are reflected.*

*Key words:* Khiva Khanate, Shaybanids, Elbars Khan, Haji Muhammad Khan, Arab Muhammad Khan, Abulgazi Bakhodir Khan, Anusha Khan, Shergozi Khan.

Mamlakatimiz tarixining tarkibiy qismi bo'lgan Xiva xonligining 400 yildan ziyodroq vaqt mobaynida mavjud bo'lib turgan davrda o'zbek davlatchiligi boshqaruv tizimi va milliy-madaniy qadriyatlari, an'analari mujassamlashtirgan, ayni paytda hududiy jihatdan o'ziga xos jihatlari saqlab qolingan. XVI asr boshlarida vujudga kelgan Xiva xonligida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar izchil rivojlandi. Ayniqsa Xiva xonligi Abulg'azi Bahodirxon davrida gullab yashnadi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot rivojlandi. Shayboniylar davrni tadqiq qilish uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'ziga xos jihatlari yoritish va tahlil qilish bugungi kunda tarixchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

XVI asr boshlariga kelib Moravunnahr, Xuroson, Eronda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va bu hududlar siyosiy kuchlarning o'zaro to'qnashuvlari natijasida hokimiyat tepasiga Dashti Qipchoq o'zbek urug'larining vakillari keladi. Temuriylarning inqirozga yuz tutishi va Moravunnahrda yuzaga kelgan siyosiy vaziyatdan o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va hokimiyatni o'z qo'lga olishga

intilgan Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon Moravunnahr hududlarini istilo qilish chog'ida Xorazm hududlariga ham bir necha marta harbiy yurishlar uyushtirgan edi.

Shayboniyxon Moravunnahrni asosiy hududlarini ishg'ol qilgach, 1504-yilda Xorazmga ham harbiy yurishlarini boshlaydi va uning yuborgan qo'shinlari Qiyot va uning atroflarini egallab, asosiy jangga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. 1504-yilda Buxorodan yo'lga chiqqan Shayboniyxon Urganchni o'n bir oy davomida qamal qiladi va 1505-yilning avgust oyida butun Xorazmni bosib olishga muvaffaq bo'ladi.[1] va qo'ng'irotlar urug'idan bo'lgan Kepakbiyni hokim etib tayinlaydi. Bungacha Xorazm So'fiylar sulolasi hokimiyati ostida bo'lib, rasman temuriylardan Hirot va Xuroson hokimi Sulton Husaynga bo'ysunar edi. Xorazmning zabt etilishiga Xorazm hokimi Chin So'fiyning o'z a'yonlari tamonidan o'ldirilishi hamda bundan avvalroq Chin So'fiy tarafdorlari bo'lgan turkman qabilalarining ham tor-mor qilinishi sabab bo'lgan.

Eron shohi Ismoil Safaviy bilan Marv yaqinida bo'lgan jangda Shayboniyxon vafot etadi. Shundan so'ng Xorazm taxtini safaviylar egallab, 1510-1512 yillar Urganch, Vazir va Xiva shahrini idora qilish uchun 3 ta dorug'a tashkil etadilar.[2]

1512- yilda Xorazm aholisi va uning atroflaridagi xalq ozodlik harakati boshlandi. Qo'zg'olonga Vazir shahri qozisi Umarshayx va shayx Hisamiddin boshchilik qiladilar va Urganch, Vazir, Hozarasp, Xiva shahridagi Eron lashkarlarini qirib tashlaydilar. Shu yili Xorazmning obro'li shayxlaridan biri bo'lgan Berka Sultonning o'g'li Erbarsxonga Xorazm taxtiga o'tirishini so'rab maktub yo'llab murojat qiladilar. Maktubga javoban Elbarsxon eronlik lashkarlarni batamom mamlakat hududidan quvib chiqaradi. G'alaba haqida Abulg'uzi shunday yozadi: "Ulug' to'y qilib o'zbek va sart barchasi yig'ilib , ittifoq bilan tarix to'qqiz yuz o'n bird va qo'y yilinda Elbarsxonni xon ko'tardilar".[3]

Shu tariqa Xorazm mustaqil bo'lib, poytaxti Xiva shahri bo'lgan Xiva xonligi tashkil topadi. Elbarsxon boshchiligida shayboniylar sulolasi hokimiyat tepasiga keladi va 1770-yilgacha hukmronlik qiladilar. Xiva xonligiga asos solinish sanasiga olimlar har-xil fikrlar bildirganlar: Masalan, akademik Y. G'ulomov "Elbarsxonning Xorazm shohi qilib tayinlanishiga faqatgina Shayboniyxon o'limidan keyin muvaffaq bo'lindi va bu voqea 1511-1512-yillarda sodir bo'lgan deb qaralishi lozim", – deb ta'kidlaydi.[4] Elbarsxon davrida davlatning siyosiy geografiyasi shakllanib, janubda Xuroson, shimolda Orol, g'arbda Kasbiy va sharqda Buxoro bilan chegaradosh bo'ladi.[5] Tez orada Xiva xonligi o'zining ichki siyosiy barqarorligini tiklabgina qolmay, balki qo'shni hududlarni ham bo'ysundirishga erishadi. Ayniqsa, 1524-yilda Ismoil Safaviy o'limi bilan Eronda boshlangan sulolaviy nizolar qo'l kelib, Saraxs, Balx, Mang'ishloq va Shimoliy Xurosonning kattagina qismi Xiva xonligiga qo'shib olishga muvaffaq bo'ladi.[6] Bu jarayon o'zbek xonliklarining mustahkamlanib olishiga imkon yaratdi.

Moravunnahrda Shayboniylar davlati singari Xiva xonligi ham bir qancha katta –kichik mulklarga bo'lingan. Xiva xonligining aholisi etnik, madaniy va til jihatdan bir-biridan keskin farq qilgan. Masalan, qadimiy xorazmliklarning avlodlari, Turkman qabilalari va Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko'chib kelgan qabilalar mavjud. Ayni paytda ular markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka va mustaqil bo'lishga intilishgan. Bu holat o'zaro nizolarni keltirib chiqargan. Xiva xonligidagi yirik o'zbek qabilalarining boshliqlari amalda mustaqil mulk egalari aylanishgan. Ular xonlikning butun bir iqtisodiy hayotiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatib kelishgan.[7]

Elbarsxonning 1518-yilda vafot etganidan so'ng xonlar tez-tez almashib turadigan bo'ldi. Natijada hokimiyat inqirozga yuz tutgan. O'zaro ichki kurashlar. va siyosiy tanglik, o'z navbatida iqtisodiy va siyosiy ahvolni izdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Nihoyat, XVI asrning ikkinchi yarmida Xorazm taxtiga Hoji Muhammadxon (1558-1593-yy, 1598-1602-yy.) o'tiradi. Uning hukmronligi davrida Xorazmdagi o'zaro urushlarga barham berilib, tinchlik va osoyishtalik o'rnatiladi. Tarixiy adabiyotlarda Hojimaxonga shunday ta'rif berilib, "uni adolatli, tarjibali va taqvodor hukmdor" – bo'lganligi alohida ta'kidlangan.[8] Bundan tashqari uning hukmronligi davrida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo–sotiq rivojlanibgina qolmay, balki tashqi savdoda ham anchagina o'sish bo'lgan. Eng muhim voqealardan biri, poytaxtni Urganchdan Xivaga ko'chirganligidir. Bunga asosiy sabab, Amudaryo o'zanini o'zgartirib Kasbiy dengizga quyilishi natijasida Urganch va uning atrofidagi hududlar suvsiz qolishi bo'lsa, ikkinchidan, Xiva

shahrining siyosiy va iqtisodiy mavqeyi ancha yuksalib, asosiy savdo markaziga aylanishi edi. Aynan o'sha vaqtdan boshlab davlat Xiva xonligi deb yuritila boshlagan.

1593-yilga kelib Xorazm ikkinchi bor Buxoro xoni Abdullaxon II tamonidan bosib olinadi. Xiva xoni Hoji Muhammadxon oilasi bilan Eron shohi Abbas I qarorgohidan panohtopadi. 1595-yilga kelib Xiva sultonlari xonlikning yirik

shaharlarini egallashga muvaffaq bo'ladilar. Lekin shu yili Abdullaxon II Xorazm ustiga yana qo'shin tortadi. Hojimaxon esa yana Eronga qochadi. Faqatgina 1598-yilda Abdullaxon II vafotidan so'ng Buxoro xonligida boshlangan o'zaro toj-u taxt uchun kurashlar natijasida Hoji Muhammadxon Xiva taxtini yana egallaydi.

1602 yilda Hojimaxondan keyin taxtga uning o'g'li Arab Muhammadxon o'tiradi. Shu yili saratonda Urganchga 1000 ga yaqin O'rol kazaklari hujum qildilar. Shaharda oddiy xalqdan boshqa odam yo'q edi. Yov mingdan ortiq odamlarni o'ldirdi, yana shuncha qiz juvonlarni olib ketishga hozirlandi. Ammo ular yurtiga qaytib ketishga ulgurmadilar.

Urganch fojeasini eshitgan Arab Muhammadxon o'z lashkarlari bilan 7 kunda yetib keldi. Xon qo'shinlari dushmani taq'ib etib, To'q qal'asi atroflariga quvib chiqardi. Bosqinchilar bu yerda yog'ochdan istehkom qurib, baliq ovlab tirikchilik qilib turdilar. Ularni qamal qilgan Arab Muhammadxon 15 kun deganda tor-mor keltirdi.[9] Urganch va Mizdahqon oralig'ida unumdor yerlarni ko'rgan xon, qozongan zafari sharafiga yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida To'q qal'asi yaqinida katta kanal qazdirdi.[9]

1643-yilda Orolbo'yi o'zbeklari Abulg'ozni Sultonni (1643- 1663) xon qilib ko'taradilar.[10] Xorazm davlatchiligida tarixida yirik davlat arbobi va tarixnafis ijodkor sifatida mashhur bo'lgan Abulg'ozixonning hayot yo'li og'ir kechgan. Abulg'ozixon davlat boshqaruvida o'zidan oldingi xonlar siyosatini qo'llamadi. U dastlab xonlikda markazlashgan boshqaruv tizimini mustahkamlashga e'tibor qaratdi. Bu jarayonda u avvalo, turkman yo'l boshchilarini boshqaruv ishlaridan chetlashtirdi. Ularni yer-mulkleri musodara qilinib, o'zlari esa mamlakat ichkarisiga surgun qilingan. Xonlikning ichki siyosiy hayotida katta ta'sirga ega bo'lgan o'zbekning eng yirik urug'laridan 32 nafar yetakchiga katta mavqeyiga ega bo'lgan biylarini o'ziga maslahatchi qilib tayinlangan. Shuningdek davlat ishlariga va boshqaruv sohalariga o'zbeklarning 360 nafarini tayinladi.[11] Bu esa o'z navbatida xonlikning siyosiy vaziyatini nisbatan barqarorlashuviga va markaziy hokimiyatning kuchayishiga olib keldi.

1663-yilda hokimiyatga Abulg'ozni Bahodirxonning o'g'li Anushaxon taxtga o'tirdi. U xonlikning mavqeyi va qudratini oshirish maqsadida otasining ishlarini davom ettirdi. U Buxoro, Samarqand, Xurosonga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. Uchinchi marta Mashhadga borganida imom Ali ar-Rizo maqbrasini ziyorat qiladi. Xon turkmanlarga Xorazm vohasi va uning atroflariga ko'chib kelishiga ruxsat berdi. Sug'orish tarmoqlarini tiklash, poytaxtni to'laqonli ravishda Yangi Urganchga ko'chirish, Shohobod, Yormish, G'ozibod va boshqa ko'plab kanallar qurdirgan. Bu esa o'z navbatida dehqonchilikni rivojida katta ahamiyat kasb etgan. 1685-yilda Anushaxon qisqa muddar ichida Samaqandni egallaydi. Shaharda xonning nomiga xutba o'qilib, tangalar zarb qilindi. Xon Xurosonga ham yurishlar qildi va natijada Mashhadni qo'lga kiritgan.

1686-yilda saroy a'yonlari tamonidan fitna uyushtirilib, Anushaxon o'ldirildi. Erangxon vafotidan so'ng Buxoro xoni Subhonqulixon Xiva taxtiga o'z odami Shohniyozni (1690-1707-yy.) o'tkazadi va uni "eshik og'a" unvoni bilan taqdirlaydi, amalda esa Xiva xonligi Buxoro xonligiga qaram davlatga aylanadi.[12] Shuning uchun ham Xiva xoni Shohniyoz o'zini xon deb e'lon qilgan bo'lsada, o'z faoliyati davomida Buxoro xonlarining ta'siridan chiqqan olmagan edi. XVII asr oxiri-XVIII asr boshlariga kelib, Xiva xonligida siyosiy tarqoqlik, taxt uchun kurashlar va mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilish harakatlari avj oldi. Viloyat hokimlari xonga itoat etmay qo'rganligi bois Xiva xoni saroy amaldorlari va mahalliy hukmdorlar qo'lidagi qo'g'irchoqqa aylanib qolgan edi.

Xiva xonligi taxtiga qozoq-chingiziy avlodidan Elbarsxon (1728-1739-yy.) keladi. Aynan shu davrdan boshlab qozoq-chingiziy xonlarni dashtdan muayyan muddatga olib kelib qo'yish, keyin zaruriyat qolmagach, uni bo'shatib o'rniga boshqasini olib kelib qo'yish odat tusiga aylanadi. Bu

tarixda “xonlar o‘yini” nomi nilan kiradi. Elbarsxon vaziyatni yanada chigallashtiradi. U Buxoro tarafida turib Eron shohi Nodirshohga qarshi kurashishi, Eronga qaramlikdan bosh tortishi xonlikni ahvolini yanada yamonlashtiradi. 1740-yilda Nodirshoh Buxoro xonligini bosib olgach, Xivani ham bo‘ysundiradi. U Xivada “xonlar o‘yini” bartaraf etishga urinishi besamar ketadi. Bu jarayon 1770-yilgacha davom etadi, mamlakatga yangi sulola qo‘g‘irotlar sulolasi keladi va shayboniylar sulolasi tugatiladi.

Xullas, Shayboniylar hukmronligining boshlanishi Xorazm hududida markazlashgan boshqaruv tizimini tiklashga xizmat qildi. Ular davlat tuzilmasini qayta tashkil etib, soliq siyosatini tartibga solish, yer egaligi va suv taqsimoti masalalarini qayta ko‘rib chiqish, hamda savdo yo‘llarini nazorat qilish orqali xonlikning iqtisodiy poydevorini mustahkamladi. Ayniqsa, harbiy boshqaruv sohasida amalga oshirilgan islohotlar markaziy hokimiyatning mavqeyini oshirishga imkon berdi. Shayboniy hukmdorlar — ayniqsa, Xorazmda hokimiyatni mustahkamlash jarayonida faol siyosat yuritgan Iskandar sulton, Arab Muhammadxon, Abulg‘ozixon kabi shaxslar — mintaqada barqarorlikni ta‘minlash, tashqi bosqinlarga qarshi turish va xalq xo‘jaligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaganlar. Bu jarayonlar keyinchalik Xiva xonligi mustaqil siyosiy tizim sifatida shakllanishi uchun zamin yaratdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.V.Ishquvatov, N.Allayeva. Xiva xonligi tarixi. – Toshkent: 2011. – B.14.
- 2.Q.Usmonov.M.Sodiqov.S.Burxonova.O‘zbekiston tarixi. – Toshkent:Iqtisodiyot-moliya, 2006. – B.193.
- 3.Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarai turk. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B.121.
- 4.Y. G‘ulomov. Xorazmning sug‘orilish tarixi. – Toshkent: O‘zFan, 1959, – B.184.
- 5.Abulg‘ozi.Texte.Perevod Sablukova (18161 g.) – Kazan,1897. – P. 225-227.
- 6.Rustambek Shamsutdinov. Shodi Karimov. O‘kyamjon Ubaydullayev. Vatan tarixi.II qism. – Toshkent: Sharq, 2010. – B.91.
- 7.Бартолд В.В. Отчёт о поездки в среднюю Азию с научную целью. 1893–1894. Соч. Том. IV. 1966. – С.312.
- 8.Bahodir Eshov. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. – Toshkent.2012. – B.276.
- 9.Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarai turk. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B.158-159.
- 10.Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B.91.
- 11.Bahodir Eshov. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. – Toshkent.2012. – B.279.
- 12.Rustambek Shamsutdinov. Shodi Karimov. O‘kyamjon Ubaydullayev. Vatan tarixi ( XVI\_XX asr boshlari). II qism. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 95.

UO‘K 902(575.1):669.1:903.01

### ZARDOLISOY NEOLITDAVRI YODGORLIGI YIG‘MA MATERIALLARI UCHRINDILARNING TEXNIK – TIPOLOGIK TAHLILI

*L.A.O‘ng‘alov, assistant, Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti Samarqand kompusi, Samarqand*  
<https://orcid.org/0009-0009-6737-6452>

**Annotatsiya.** Maqolada Shimoliy Nurota tog‘ tizmasida joylashgan Zardolisoy topilmajoyidan to‘plangan yig‘ma materiallar uchrindilarining texnik-tipologik, texnologik va xomashyo tahlili keltiriladi. Uchrindilar o‘lchamiga ko‘ra o‘rta va kichik hajmli guruhlarga ajratildi hamda ularning xomashyo tarkibi, zarb maydonchalari va dorsaldagi yo‘nilg‘ilari alohida tahlil qilindi.

Tahlil natijalari Zardolisoy tosh industriyasida ishlab chiqarish jarayonining ko‘p bosqichli bo‘lganini, yadro parchalash va uchrindi olish jarayonlari bevosita yodgorlik hududida amalga oshirilganini ko‘rsatdi. Xomashyo tanlovida asosan mahalliy kremniyli jinslardan — kremniylashgan ohaktosh, jigarrang va yashil-ko‘k kremniy, shuningdek xalsedon, kvars va slanesdan foydalanilgani aniqlandi. Zarb maydonchalari va dorsaldagi yo‘nilg‘ilar tahlili unipolyar parchalash texnikasi yetakchi bo‘lganini, bipolyar va perpendikulyar usullar esa yordamchi texnologik yo‘nalishlar sifatida qo‘llanilganini ko‘rsatdi.

**Kalit so‘zlar:** Zardolisoy, Shimoliy Nurota, yig‘ma materiallar, uchrindilar, texnik-tipologik tahlil, tosh industriyasi, mezolit–neolit o‘tish davri.

**Аннотация.** В статье представлен технико-типологический, технологический и сырьевой анализ находок складчатых материалов, собранных с находки Зардолисой, расположенной в горном массиве Северная Нурата. Находки были разделены по размеру на группы среднего и малого размера и отдельно проанализированы их сырьевой состав, поля

удара и ориентация на спине. Результаты анализа показали, что производственный процесс в Зардолисайской каменной промышленности был многоступенчатым, процессы ядерного деления и извлечения руды осуществлялись непосредственно на территории памятника. Было обнаружено, что при выборе сырья в основном используются местные кремнистые породы — кремнистый известняк, коричневый и зелено-синий кремнезем, а также халцедон, кварц и сланцы. Анализ перкуссионных площадок и дорсальных направлений показал, что ведущими были униполярные методы дробления, а в качестве вспомогательных технологических направлений применялись биполярные и перпендикулярные методы.

**Ключевые слова:** Зардолисой, Северная нута, коллекционные материалы, находки, технико-типологический анализ, каменная промышленность, переходный период мезолита–неолита.

**Abstract.** This article presents a techno-typological, technological, and raw material analysis of flakes from the collected assemblage of the Zardolisoy site, located in the northern Nuratau mountain range. The flakes were classified into medium-sized and small-sized groups based on their dimensions, and their raw material composition, striking platforms, and dorsal scar patterns were analyzed separately.

The results of the analysis indicate that lithic production at Zardolisoy followed a multi-stage reduction process, with core reduction and flake production carried out directly at the site. Raw material selection was primarily based on locally available siliceous rocks, including silicified limestone, brown and greenish-blue chert, as well as chalcedony, quartz, and slate. The analysis of striking platforms and dorsal scar patterns shows that unipolar flaking techniques were dominant, while bipolar and perpendicular methods were employed as secondary technological strategies.

**Key words.** Zardolisoy, northern Nuratau, collected assemblage, flakes, techno-typological analysis, lithic industry, Mesolithic–Neolithic transition.

**Kirish.** Markaziy Osiyo hududida mezolit – neolit o'tish davri va ilk neolit bosqichlariga oid tosh industriyasini o'rganishda yig'ma materiallar muhim ilmiy manba hisoblanadi (Brunet 2005). Stratigrafik qatlamlar aniqlanmagan yodgorliklarda, yig'ma materiallar tarkibidagi uchrindilar, tosh o'zaklar va texnik uchrindilar orqali toshga ishlov berish texnologiyasi, xomashyo turlari hamda parchalash usullarining umumiy xususiyatlarini aniqlash mumkin. Tosh buyumlarni faqat tayyor shakl sifatida emas, balki ishlab chiqarish jarayonining mahsuli sifatida o'rganish zarurligi arxeologiyada texnologik yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi (André Leroi-Gourhan, 1964).

Yig'ma materiallar, ayniqsa ochiq makon yodgorliklarida, ko'pincha hududda amalga oshirilgan xo'jalik faoliyatining yagona moddiy dalili bo'lib xizmat qiladi. Bunday materiallarni texnik-tipologik jihatdan tahlil qilish orqali industriyaning umumiy yo'nalishi va texnologik darajasini aniqlash mumkin (William Andrefsky, 2005). Shuningdek, uchrindilar va tosh o'zaklar nisbatini o'rganish ishlab chiqarish jarayonining qaysi bosqichlari yodgorlik hududida amalga oshirilganini ko'rsatadi (George H. Odell, 2004).

Shimoliy Nurota tog' tizmasining janubiy etaklarida adirlarida aniqlangan Zardolisoy yodgorligi ochiq tipdagi yodgorlik hisoblanadi. Ushbu neolit davri yodgorligi Samarqand davlat universiteti olimlarining oxirgi yillardagi arxeologik qidiruv ishlari natijasida aniqlangan. Dastlab xujjatlarida neolit davri topilmajoyi sifatida qayd etilgan. Hududda statigrafik qatlamlar aniqlanmagan edi. Birgina yodgorlik haqida xabar beruvchi manba yig'ma materiallar bo'lib, ularni soni 200 ga yaqin edi ((Sayfullayev i dr., 2023, B. 16–17, Sayfullayev, Ungalov, 2023, B. 62–64). Shu bilan birga, hududning tabiiy-geografik sharoiti va kremniyli xomashyo manbalariga yaqinligi bu yerda tosh ishlash an'analari shakllangan bo'lishi ehtimolini kuchaytiradi. Yig'ma materiallar asosida olib borilgan texnik-tipologik tahlil bunday kam o'rganilgan hududlarda madaniy jarayonlarni dastlabki bosqichda tavsiflash imkonini beradi (François Bordes, 1961).

Ushbu maqoladan ko'zlangan maqsad Zardolisoy neolit davri yodgorligi yuza qismidan to'plangan yig'ma materiallar uchrindilarini texnik-tipologik jihatdan tahlil qilish va ularning industriyadagi o'rnini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti va materiali.** Zardolisoy neolit davri yodgorligi Shimoliy Nurota tog' tizmasining janubiy etaklarida Minishkor tog'lari adirlarida Zardolisoy soy etaklarining chap sohilida tabiiy buloq atrofida aniqlangan. Ushbu yodgorlik joylashgan hudud Qo'shrabot tumani hududiga qarashli Minishkor mahallasi Oqqo'rg'on qishlog'i hududiga qarashli. Zardolisoy hududiga yondosh hududlarda ham 10 ga yaqin neolit davri topilmajoylari aniqlangan bo'lib, ularning asosiy qismi Minishkor va Pangat mahallari hududida joylashgan (Sayfullayev va b., 2024, B. 384, Ungalov, 2024, O'ngalov, 2024, B. 72–74.)

Qo'shrabot tumanining Minishkor va Pangat mahallalari shimoliy Nurota tog' tizmasining janubiy qismida, Jalpoq tog' etaklarida joylashgan. Minishkor mahallasi hududi  $40^{\circ}40.565'$  shimoliy kenglikda,  $66^{\circ}28'42.43$  sharqiy uzunlikda va dengiz sathidan 800-1250 metr oraliqdagi balandliklardan iborat Minishkor mahallasining shimoliy qismida shimoliy Nurota tog' tizmasiga kiruvchi Jalpoq tog' joylashgan (1-rasm).

Jalpoqtog'ning balandligi g'arbdan sharqqa qarab 1200-1771 metrgacha ko'tarilib boradi, kichik tizmaning uzunligi g'arbdan – sharqqa 12 km atrofida cho'zilgan (Geologiya SSSR, 1972, s. 120–125).

**Tadqiqot materiali.** Zardolisoy neolit davri yodgorligining ustki qismidan olib borilgan tadqiqotlar yillarida umumiy miqdorda 378 ta sochilgan tosh buyumlar yig'ib olindi. Ularning birlamchi tipologik tarkibiga quyidagicha tartiblandi. Nukleuslar-14 ta, nukleussimon bo'laklar-4 ta, uchrindilar-190 ta, plastinalar-35 ta, plastinkalar-64 ta, mikroplastinkalar-38, parraqalar-37 ta.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zardolisoy neolit davri yodgorligi yig'ma materillar uchrindilari ustida quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanib tadqiqot olib borildi.

Texnik-tipologik. Ushbu usul tosh industriyasini o'rganishda eng muhim va sinovdan o'tgan metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv XX asr o'rtalarida A. Bordes tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u tosh buyumlarni ularning morfologik shakli, retush turi, ishlov darajasi va funktsional belgilari asosida qat'iy tipologik guruhlarga ajratishni nazarda tutadi. F. Bord metodikasi, ayniqsa, uchrindilar va asboblarning nisbatini aniqlash orqali arxeologik industriyaning madaniy xususiyatlarini talqin qilish imkonini beradi (Bordes, 1961).

Keyinchalik G. Laplace tomonidan taklif etilgan *analitik-tipologik* yondashuv esa tosh buyumlarni faqat tayyor shakliga qarab emas, balki ularning texnik kelib chiqishi va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq belgilarini ham hisobga olishga qaratildi (Laplace, 1972).

Zardolisoy yig'ma materiallarini o'rganishda ushbu ikki yondashuv uyg'un holda qo'llanilib, uchrindilarni ham tipologik, ham texnik jihatdan tavsiflash imkonini beradi.

Zamonaviy arxeologiyada tosh industriyasini talqin qilishda *texnologik yondashuv*, ya'ni yadro–uchrindi zanjiri (chaîne opératoire) konsepsiyasi muhim o'rin egallaydi. Ushbu yondashuv tosh buyumlarni tayyor mahsulot sifatida emas, balki ishlab chiqarish jarayonining natijasi sifatida ko'rib chiqadi (Leroi-Gourhan, 1964; Inizan et al., 1999).

*Morfometrik tahlil* tosh uchrindilarining miqdoriy o'lcham ko'rsatkichlarini aniqlashga asoslangan bo'lib, industriyaning texnologik darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil uchrindilarning uzunligi, eni va qalinligini aniqlash orqali ularning plastina, parrakcha yoki notekis uchrindi ekanini aniqlash imkonini beradi (Andrefsky, 2005).

#### ***Uchrindilarining texnik-tipologiyasi, texnologiyasi, xomashyo turlari.***

Zardolisoy yig'ma materillari ichida uchrindilar-190 tani tashkil qilib jami yig'ma materillarning 50,26% ni tashkil qiladi. Kolleksiyaning uchrindilarini o'rta va kichik hajmlilarga ajratilishi mumkin.

***O'rta hajmli uchrindilar-28 ta.*** Ular kremniylashgan oxaktoshdan (13 ta), jigarrang kremniydan (6 ta), kvarsdan (4 ta), kremniylashgan slanesdan (2 ta), yashil-ko'k kremniydan (2 ta) va xalsedondan (1 ta) ishlangan. Ulardan 21 tasi zarb maydonchalarini saqlab qolgan va bu maydonchalar quyidagi tiplarga ajraladi: tekis (8 ta), fasetkalashgan (6 ta), chiziqsimon (4 ta), tabiiy (3 ta) va singan (7 ta).

Ushbu uchrindilar, garchi ularning ayrimlariga ikkilamchi ishlov berilib, qurollarga aylantirilgan bo'lsada. Ularning dorsallari tartibsiz, tabiiy qabiqli (quyqa, galka, plitka) yuzalarini saqlab qolgan texnik xarakterga ega.

## Zardolisoy topilmajoyi o'rta hajmli uchirindilarining xomashyo tarkibi va zarb maydonchalarining xarakteri

	Zarb maydoncha: Xomashyo:							Jami:
		tekis	fasetkalash- tirilgan	chiziqsimon	nuqtasimon	tabiiy	Singan	
1	Yashil-ko'k kremniy	1		1				2
2	Jigarrang kremniy		4	2				6
3	Kremniylashgan oxaktosh	6				3	4	13
4	Xalsedon		1					1
5	Kvars	1	1				2	4
6	Slpnes			1			1	2
<b>Jami:</b>		<b>8</b>	<b>6</b>	<b>4</b>		<b>3</b>	<b>7</b>	<b>28</b>

Kolleksiyani o'rta uchirindilaridan 15 tasi ikkilamchi ishlov berilib, qurollarga ajratilgan va qolgan 13 tasiga ishlov berilmagan.

**Kichik hajmli uchirindilar-162 ta.** Ular yashil-ko'k kremniylardan (46 ta), jigarrang kremniydandan (43 ta), kremniylashgan oxaktoshdan (25 ta), kulrang kremniydandan (19 ta), kvarsdan (8 ta), xalsedondan (14 ta), slanesdan (7 ta) ishlangan.

Kichik hajmli uchirindilardan 90 tasi zarb maydonchalarini saqlab qolgan. Zarb maydonchalarining xarakteriga ko'ra ushbu uchirindilar quyidagi tiplarga ajraladi: fasetkalash tirilgan (39 ta), tekis (35 ta), chiziqsimon (12 ta), tabiiy (4 ta) va singan (72).

Kolleksiyaning kichik hajmli uchirindilaridan 43 tasi ikkilamchi ishlov berilib, qurollarga aylantirilgan.

## Zardolisoy topilmajoyi kichik hajmli uchirindilarining xomashyo tarkibi va zarb maydonchalarining xarakteri

	Zarb maydoncha: Xomashyo:							Jami:
		tekis	fasetkalash- tirilgan	chiziqsimon	nuqtasimon	tabiiy	Singan	
1	Yashil-ko'k kremniy	13	9	4		2	18	46
2	Jigarrang kremniy		18	1		2	22	43
3	Kremniylashgan oxaktosh	3	1	1			20	25
4	Kulrang kremniy	9	1				9	19
	Xalsedon	1	4	6			3	14
	Kvars	6	2					8
	Slpnes	3	4					7
<b>Jami:</b>		<b>35</b>	<b>39</b>	<b>12</b>		<b>4</b>	<b>72</b>	<b>162</b>

Zardolisoy yig'ma materiallari ichidagi o'rta hajmli uchirindilarning dorsaldagi yo'nilg'ilarning shakli ko'ra tipologik ajratib chiqqanimizda ularda unipolyar shakldagi(14 ta), biopolyar shakli (9 ta), perpendikulyar shakldagilar ( 3 ta) shuningdek tabiiy (2 ta) xarakterdagi dorsalli uchirindilar.

## Zardolisoy neolit davri yodgorligining yig'ma materiallar o'rta xajmli uchirindilarning dorsaldagi yo'nilg'ilari xarakteristikasiga ko'ra tip jadvali

№	Dorsaldagi yo'nilg'ilari shakli	Xomashyosi						Miqdori	
		Yashil kremniy	Xalsedon	Jigarrang kremniy	Kremniy lashgan oxaktosh	Kvars	Slanes	Soni	Foizi
1	Unipolyar (uzunasi bir yo'nalishli)	1	1	4	4	2	2	14	49.99 %
2	Bipolyar (uzunasiga qarama-qarshi)	1	0	2	5	1	0	9	32.14 %
3	Perpendikulyar	0	0	0	2	1	0	3	10.71 %
4	Tabiiy	0	0	0	2	0	0	2	7.14 %
<b>Jami;</b>		<b>2</b>	<b>1</b>	<b>6</b>	<b>13</b>	<b>4</b>	<b>2</b>	<b>28</b>	<b>100 %</b>

**Muhokamalar.** Zardalisoy neolit davri yodgorli yuza qismidan to'plangan yig'ma materiallar tarkibida uchrindilarning yuqori ulushi (190 ta, 50,26 %) ushbu hududda tosh ishlash jarayonlari faol olib borilganini ko'rsatadi. Arxeologiyada uchrindilar asosan texnik xarakterda bo'lib, bu yodgorlik hududida nukleuslarni tayyorlash va tosh buyumlarni qayta ishlash jarayonlari bevosita amalga oshirilganini anglatadi. Bu holat Zardalisoyni faqat tayyor qurollardan foydalanilgan makon emas, balki ishlab chiqarish faoliyati kechgan joy sifatida talqin qilish imkonini beradi (Ergashev, 2014).

Kolleksiyada uchrindilarning o'rta va kichik hajmlarga ajralishi tosh industriyasida texnologik jarayonning ko'p bosqichli xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi. Andrefsky ta'kidlaganidek, uchrindilar o'lchamining farqlanishi nukleus tayyorlash, uchrindi olish va ikkilamchi qayta ishlov bosqichlari mavjudligini bildiradi. Zardalisoy materiallarida kichik hajmli uchrindilarning ustunligi (162 ta) intensiv chaqmoqlash va ikkilamchi ishlov berish jarayonlari mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

O'rta hajmli uchrindilarning xomashyo tarkibida kremniylashgan ohaktosh va jigarrang kremniyning ustunligi ushbu jinslarning texnologik jihatdan qulay va hududda keng tarqalganligini ko'rsatadi. Xomashyo tanlovida mahalliy kremniyli jinslarning ustunligi ochiq makon yodgorliklarida xomashyoni joyida qayta ishlash strategiyasiga xos bo'lib, bu holat boshqa mezolit–neolit davri yodgorliklarida ham kuzatiladi (Vinogradov 1981).

O'rta hajmli uchrindilarning katta qismida zarb maydonchalarining saqlanib qolganligi va ular orasida tekis hamda fasetkalashtirilgan zarb maydonchalarning ustunligi nukleuslarning zarb maydonlari oldindan tayyorlanganini ko'rsatadi. F. Bord (1961) ta'kidlaganidek, fasetkalashtirilgan zarb maydonchalari zarb burchagini nazorat qilish va uchrindi shaklini boshqarish bilan bog'liq bo'lib, bunday belgilar tasodifiy parchalashdan ko'ra maqsadli texnologik yondashuv mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga, singan zarb maydonchalarning mavjudligi xomashyo sifatining notekisligi yoki intensiv parchalash jarayonlari bilan izohlanadi (Odell, 2004).



**1-rasm: Zardalisoy neolit davri yodgorligi xaritasi**

Dorsal yuzalarda tabiiy qobiqli va tartibsiz yo'nilg'ilar saqlanib qolgan uchrindilarning mavjudligi ushbu buyumlarning asosan yadro tayyorlash va dastlabki parchalash bosqichlariga oid

ekanini ko'rsatadi. Texnologik yondashuv doirasida bunday uchrindilar ishlab chiqarish zanjirining dastlabki bosqichlarini aks ettiruvchi muhim indikator hisoblanadi (André Leroi-Gourhan, 1964).

**Xulosa.** Zardolisoy neolit davri yodgorliq yuza qismi yig'ma materiallar uchrindilarining texnik-tipologik, texnologik va xomashyo tahlili ushbu yodgorlikda tosh ishlash jarayonlari faol va tizimli tarzda amalga oshirilganini ko'rsatadi. Kolleksiya tarkibida uchrindilarning yuqori ulushi (190 ta, 50,26 %) yadro parchalash, uchrindi olish va asbob tayyorlash jarayonlari bevosita yodgorlik hududida olib borilganini anglatadi.

Uchrindilarning o'rta va kichik hajmlarga ajralishi tosh industriyasida ishlab chiqarish jarayonining ko'p bosqichli xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi. Xomashyo tahlili Zardolisoy yig'ma materiallarida asosan mahalliy kremniyli jinslardan — kremniylashgan ohaktosh, jigarrang va yashil-ko'k kremniy, shuningdek xalsedon, kvars va slanesdan foydalanilganini ko'rsatdi. Bu holat tosh ishlash jarayonida xomashyo resurslarining yaqin hududlardan tanlanganini va ishlab chiqarish strategiyasi mahalliy tabiiy sharoitga moslashganini anglatadi. Xomashyo turlarining xilma-xilligi esa texnologik moslashuvchanlik mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Andrefsky W. Jr. *Lithics: Macroscopic Approaches to Analysis*. 2nd ed. Cambridge : Cambridge University Press, 2005.
2. Bordes F. *Typologie du Paléolithique ancien et moyen*. Bordeaux, 1961.
3. Ergashyev O. T. Ko'kayoz botig'ining toshga ishlov berish ustaxonalari. Samarqand : Fan, 2014. 28 b.
4. Inizan M.-L., Reduron-Ballinger M., Roche H., Tixier J. *Technology and Terminology of Knapped Stone*. Nanterre : C.R.E.P., 1999. 191 p.
5. Khanipour M., Sayfullaev B. K., Ergashyev O. T., O'ng'alov L., Djurakulova D. M., Alisher K. S., Zhong X., Shomurodova S. J., G'afforov Sh. S., Radjabov A. Yu. New evidence from the Neolithic period in the Nurata Highlands, Uzbekistan // *Journal of Sistan and Baluchistan Studies*. – 2026. – Vol. 6, Issue 1. – P. 53–62.
6. Laplace G. *Liste typologique 1972 // Cahiers de typologie analytique*. – 1972. – No. 1. – P. 9–27.
7. Leroi-Gourhan A. *Le Geste et la Parole*. Tome 1 : Technique et langage. Paris : Albin Michel, 1964.
8. Leroi-Gourhan A. *Le Geste et la Parole*. Tome 2 : La mémoire et les rythmes. Paris : Albin Michel, 1965.
9. Odell G. H. *Lithic Analysis*. New York : Springer, 2004. 262 p.
10. O'ng'alov L. A. A brief historical-geographical description of the Nurota Mountain Range // *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*. – 2023. – Vol. 9, Issue 3. – March. – ISSN (Online): 2455-3662. – DOI: 10.36713/epra2013.
11. O'ng'alov L. A. History of Paleolithic research in the south-eastern massifs of Samarkand region // *Texas Journal of Philology, Culture and History*. – 2024. – December. – ISSN 2770-8608. – URL: <https://zienjournals.com>
12. O'ng'alov L. A. North Nurota Stone Age of the Mountain Range: preliminary studies on archaeology // *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*. – 2024. – Vol. 27. – May. – ISSN (E): 2720-5746. – URL: [www.ejird.journalspark.org](http://www.ejird.journalspark.org)
13. O'ng'alov L. A. Stone Age research in the Qo'shrabot District in 2024 // *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*. – 2025. – Vol. 11, Issue 6. – June. – ISSN (Online): 2455-3662. – DOI: 10.36713/epra2013.
14. O'ng'alov L. A. Nurota tog' tizmasining tosh davri arxeologiyasi // O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida : yosh olimlar Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand, 2024. – B. 71–76.
15. O'ng'alov L. A. Qo'shrabot tumani hududidagi tosh davriga oid tadqiqotlar natijalari va istiqbollari // Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlar. – 2025. – № 10. – A seriya: Ijtimoiy fanlar. – Qo'qon. – ISSN 3030-3958. – B. 842–851.
16. Sayfullaev B. Q. Shimoliy Nurota tog' tizmasida topilgan paleolit topilmalari // 33rd TECH-FEST-2024 : International Multidisciplinary Conference. – Manchester, 2024. – URL: <https://conferencea.org>
17. Sayfullaev B. Q., Ergashyev O. T., Ungalov L. A., Radjabov A. Yu., Imomov A. A. Nurota tog' tizmasining shimoliy qismidan topilgan tosh davriga oid yangi topilmalar // Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati : Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand, 2023. – B. 15–18.

**SUG'DIYONA HUDUDIDAGI TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARNING  
SHAHARSOZLIK XUSUSIYATLARI**

*I.A.Poyanov, mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qadimgi Sug'ddiyona hududida vujudga kelgan tarixiy-madaniy yodgorliklarning qachon va qay tariqa vujudga kelishi, shaharsozlik xususiyati, ilk shahar ko'rinishida shakllanishi, ushbu manzilgohlarda yashagan aholining xo'jalik hayoti, turmush tarzi, hamda ularning tariximizda tutgan o'rni haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sug'da, Sug'uda, Sug'udi Kalon, Gava (Gay), Chelak shahri, Ko'ktepa, Boloi Hisor, Uzunqir, Oltindilyor, Xo'ja Bo'ston, Daratepa.

**Аннотация.** В данной статье приводятся краткие сведения о времени и причинах возникновения историко-культурных памятников на территории древней Согдианы, особенностях градостроительства и формировании первых городских поселений. Также рассматриваются хозяйственная деятельность, образ жизни населения, проживавшего в этих поселениях, и их значение в истории.

**Ключевые слова.** Согда, Согуда, Согуди Калон, Гавга (Гай), город Челак, Коктепа, Болуй Хисор, Узункыр, Алтындилёр, Ходжа Бустон, Даратепга.

**Abstract.** This article provides brief information about the time and circumstances of the emergence of historical and cultural monuments in the territory of ancient Sogdiana, the characteristics of urban planning, and the formation of early urban settlements. It also discusses the economic activities, lifestyle of the population living in these settlements, and their significance in our history.

**Keywords.** Sogda, Soguda, Sogudi Kalon, Gava (Gay), Chelak city, Koktepa, Boloi Hisor, Uzunqir, Oltindilyor, Khoja Boston, Daratepa.

**Kirish.** Sug'd o'lkasi Qashqadaryo va Zarafshon daryolari havzalarini o'z ichiga olgan yirik tarixiy-madaniy o'lka bo'lib, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda g'arbiy (Buxoro Sug'di), markaziy (Samarqand Sug'di), janubiy (Qashqadaryo Sug'di), sharqiy (Panjikent Sug'di) kabi hududlarga ajratiladi. Sug'dning poytaxti Samarqand Zarafshon vohasida joylashgan bo'lib, ushbu qadimgi viloyat va uning ko'hna shaharlari g'arb, Rossiya va o'zbek sharqshunos, tarixchi hamda arxeologlari tadqiqotlarining diqqat markazida turgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan yuqoridagi xususiyatlarning barchasi Sug'diyona davlatchiligi tarixida Afrosiyob muhim ahamiyatga ega bo'lganligidan hamda qadimgi Sug'd davri Afrosiyobning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'lganligidan dalolat beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ilk temir davri O'rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o'rin egallagan Sug'd, Sug'diyona o'lkasi turli qadimgi manbalarda Sug'da, Sug'ud, Sug'uda, Sogdiana, Sug'udi Kalon nomlari ostida eslatib o'tiladi. Bu nomlarning kelib chiqishi va ularning ma'nosi haqida aniq fikrlar yo'q. Xususan, ayrim tadqiqotchilar (V.Tomashek) bu nomni Eroncha "sus" – yonmoq, yaltiramoq, nur taratmoq so'zidan olingan desa, ayrimlar (O.Smirnova) bu "Gava Sug'da" atamasi "hosildor vohalar o'lkasi" degan ma'noni beradi deb hisoblaydilar. Avestoning Yasht kitobida tilga olingan "Sug'd makoni Gava" - Sug'diyonaning eng qadimgi viloyati bo'lgan bo'lishi mumkin. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra (A.Sagdullayev), Gava (Gay) – buqa, poda, Qashqadaryo vohasi bilan bog'lanadi. Bu so'z viloyatning ko'pgina geografik nomlarida takrorlanib, saqlangan (Gavdara, Gavxona, Gaumurda, tog'lar Gay, cho'qqi Gay va boshqa.)

Arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra, Sug'd ko'hna shaharlarining eng yirigi bo'lgan Afrosiyob hozirgi Samarqandning shimoliy qismida, tepaliklar ko'rinishida joylashgan bo'lib, noto'g'ri yuraksimon (serdsevidnoy) shakldagi 220 gektar maydonni egallagan. Bu hududlarda qal'a devorlarining to'rtta halqasi aniqlangan bo'lib, arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, birinchi va to'rtinchi halqalar nisbatan qadimgi hisoblanadi. Birinchi halqaning pastki qatlamlaridan xom

g'isht devor qoldiqlari aniqlangan bo'lib, ular o'z vaqtida G.B.Shishkina tomonidan miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalariga oid, deb sanalangan.

**Tahlil va natijalar.** Afrosiyob ko'hna shahrini o'rab turgan qal'a devoir miloddan avvalgi VII-VI asrlarda bunyod etiladi. Bu davrda olib borilgan bunyodkorlik ishlari natijasida shaharoldi hududlari kengayib ko'hna shahar bir necha qismga bo'linadi. Shaharning bir qismini mustahkam qo'rg'on, boshqa bir qismlarini esa, qal'a devorlari bilan o'ralgan saroy majmui, savdo-hunarmandchilik mahallalari tashkil etadi.

O'zR FA Arxeologiya instituti va Fransiya ilmiy tadqiqotlar markazi hamkorligida tashkil etilgan xalqaro ilmiy ekspeditsiya 1994-yildan boshlab M.Isamiddinov va K.Ralenlar boshchiligida bu yodgorliklarda muntazam arxeologik qazishma ishlarini boshladi. Ko'p yillar davomida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar fanga bu noyob yodgorlik haqida juda katta ilmiy natijalarni berdi. Ko'ktepa miloddan avvalgi II ming yillikning so'nggi choragida so'nggi bronza va ilk temir davrida shakllanganligi, nafaqat Sug'dning, balki, Markaziy Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan birining xarobasi ekanligi ilmiy jihatdan tamoman isbotlandi.

So'nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Qashqadaryo vohasi qadimgi shaharlarini (Janubiy Sug'd) qadimgi shaharlarining arxeologik xususiyatlari hamda ularni o'rganish masalalariga ham ko'pgina aniqliklar ham kiritdi. O'tgan asrning 60-yillarida M.E.Masson Yerqo'rg'on ko'hna shahrida tadqiqot ishlari olib borib, uning yirik ko'hna shahar ekanligi, bir necha madaniy qatlamlar rivojlanish jarayonidan dalolat berishini ta'kidlasa ham, uning shakllanishi va rivojlanishidagi dastlabki bosqichlarning aniq sanasini bermagan.

Keyingi tadqiqotlar esa, Yerqo'rg'on ko'hna shahrining shakllanishi va rivojlanishi, shaharsozlikning paydo bo'lishi, moddiy-madaniyat va iqtisodiy tarixi, xronologiyasi va davrlashtirilishi masalalariga ko'pgina aniqliklar kiritish imkonini berdi. Ularga ko'ra, Yerqo'rg'on ikki qator ichki va tashqi devorlar bilan o'ralgan bo'lib, tashqi devorning hududi 150 gektarga yaqin, ichki devorning hududi esa 40 gektarga yaqin. Miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda Yerqo'rg'on o'rnida o'troq aholi manzilgohi paydo bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra u mudofaa inshootlari bilan muhofaza etilgan bo'lishi mumkin. Yerqo'rg'on qazishmalarining ko'p qatlamligi miloddan avvalgi VII-VI asrlarda ko'hna shahar hududi jadallik bilan o'zlashtirib borilganidan dalolat beradi.

O'zR FA Arxeologiya institutining so'nggi yillardagi tadqiqotlariga ko'ra, Yerqo'rg'onning pastki qatlamlaridan miloddan avvalgi IX-VII asrlarga oid madaniy qatlamlar aniqlangan. Shuningdek, Yerqo'rg'on to'rtta qurilish davri mavjudligi hamda birinchi qurilish davriga oid eng qadimgi himoya devori miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda bunyod etilganligi kuzatilgan. Fikrimizcha, so'nggi tadqiqotlar ham Yerqo'rg'onni mintaqaning boshqa shu davrga oid yodgorliklari qatori (Qiziltepa, Marv, Boloj Hisor, Ko'ktepa, Afrosiyob, Uzunqir va boshq.) urbanistik markazlar safiga kiritish mumkinligini yana bir marta isbotlaydi.

Qadimgi Sug'dning muhim vohalaridan biri Sharqiy Qashqadaryo (Kitob-Shahrisabz vohasi) hududlarida so'nggi o'n yilliklarda miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmi va o'rtalariga oid shaharsozlikning rivojlanishi masalalari bo'yicha muhim ma'lumotlar olingan. Bu hududdagi Sangirtepa va Uzunqir yodgorliklari Qashqadaryo o'rta oqimidagi Sho'robsoy daryosi bo'yida vohaning eng yirik va qadimiy madaniy xo'jalik hududida joylashgan.

Sug'dda Uzunqir shaklidagi ko'hna shaharlarning paydo bo'lishini O'rta Osiyodagi eng qadimgi davlatlarning paydo bo'lish jarayonlari bilan bog'lash mumkin. Ilk temir davrida Sug'diyona hududlari Qadimgi Baqtriya tarixiy-madaniy viloyati tarkibiga kirgan. Shuning uchun ham Sug'diyonaning yirik shahar markazlari (Afrosiyob, Ko'ktepa, Buxoro, Uzunqir, Yerqo'rg'on) va aynan Baqtriya shaharlarining (Baqtr, Oltindilyor, Qiziltepa) me'morchiligi, ishlab chiqarish xo'jaligi va moddiy madaniyati bir-biriga yaqin bo'lib, umumiy tarixiy-madaniy jarayonlar ta'sirida rivojlangan.

**Xulosa.** Arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, G'arbiy Sug'dning shimoliy qismi mahalliy aholi tomonidan miloddan avvalgi VI-IV asrlardan boshlab o'zlashtirilib borilgan. Aynan tadqiqotchilar G'arbiy Sug'd hududiga aholining ko'plab kelib joylashuvini Aleksandr Makedonskiy yurishlari bilan bog'laydilar. Yunon-makedonlarga bo'ysunishni istamagan sug'dliklar G'arbiy

Sug'd tomonga chekinganlar va o'zlarining qishloqlariga asos solganlar. Keyinchalik bu qishloqlar o'rnida Buxoro, Poykent, Varaxsha, Quzmontepa, Ramish, Xo'ja Bo'ston kabi shaharlar shakllangan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ешов, Б. Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи / Б. Ж. Ешов. – Тошкент : Фан ва технология, 2008. – 116 б.
2. Шишкина, Г. Б. Древнейшая оборонительная стена Самарканда / Г. Б. Шишкина // Общественные науки в Узбекистане. – 1970. – № 9. – С. 102–107.
3. Исамиддинов, М. Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда / М. Х. Исамиддинов ; отв. ред. А. С. Сагдуллаев. – Ташкент : Фан, 2002. – 231 с.
4. Раимкулов, А. А. Катта Суғд – Суғдиёна. Тарихий жараёнлар чоррахасидаги ўлка / А. А. Раимкулов. – Тошкент : Иқтисод-Молия, 2017. – 204 б.
5. Сулаймонов, Р. Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н. э. – VII в. н. э. / Р. Х. Сулаймонов. – Самарканд : Фан, 2000. – 344 с.
6. Сулаймонов, Р. Х. Древняя культура Южного Согда (VII в. до н. э. – VII в. н. э.) : автореф. дис. ... док. ист. наук / Р. Х. Сулаймонов. – Самарканд, 1989. – 46 с.
7. Сулаймонов, Р. Х. Развитие древних городов Южного Согда / Р. Х. Сулаймонов // Общественные науки в Узбекистане. – 1985. – № 9. – С. 41–49.

UO'K 7.046:004.8:908

### MANGU JASORAT TIMSOLI - QIRQQIZ QAL'ASI SUN'IY INTELLEKT NIGOHIDA M.Po'latova, talaba, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Xorazm vohasining eng yirik mudofaa inshootlaridan biri bo'lgan Qirqqiz qal'asi tarixini zamonaviy texnologiyalar asosida o'rganish masalalari yoritiladi. Qal'aning kelib chiqishi, me'moriy tuzilishi va qadimgi Xorazm mudofaa tizimidagi o'rni haqida mavjud arxeologik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi, tarixiy yodgorliklarni qayta tasavvur qilish, ularning dastlabki ko'rinishini modellashtirish hamda yo'qolib ketgan detallarni tiklash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bois, mazkur tadqiqot ishida AI yordamida Qirqqiz qal'asining ehtimoliy rekonstruksiyalari, qal'a ichki tuzilishining modellashtirilgan variantlari va tarixiy muhitni jonlantirishga doir yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi - sun'iy intellekt nigohi orqali Qirqqiz qal'asining tarixiy ahamiyatini chuqurroq ochib berish, uni o'rganishda raqamli metodlarning afzalliklarini namoyish etish hamda tarixiy merosni keng jamoatchilikka yetkazishda innovatsion texnologiyalarning o'rnini ko'rsatishdan iborat. Tadqiqot ishi natijalari tarix fanida yangi vizual talqinlar yaratish va madaniy yodgorliklarni zamonaviy shaklda butun ommaga yetkazish uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt asosidagi tahlillar nafaqat tarixiy tasavvurlarni kengaytiradi, balki Qirqqiz qal'asi kabi yodgorliklarning kelajak avlodlar uchun yanada aniqroq va jonli talqinini yaratishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv an'anaviy tarixiy izlanishlarni yangi bosqichga olib chiqib, o'tmish va raqamli zamon o'rtasida mustahkam ilmiy ko'priq vazifasini bajaradi.*

**Kalit so'zlar:** *Qirqqiz qal'a, sun'iy intellekt, vizual modellashtirish, raqamli texnologiyalar, raqamli rekonstruksiya, tarixni jonlantirish, innovatsion yondashuvlar.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются вопросы изучения истории Киргизской крепости, одного из крупнейших оборонительных сооружений Хорезмского оазиса, с использованием современных технологий. Анализируются имеющиеся археологические данные о происхождении, архитектурной структуре и месте крепости в системе обороны древнего Хорезма. В частности, в последние годы стремительное развитие технологий искусственного интеллекта расширило возможности переосмысления исторических памятников, моделирования их первоначального облика и восстановления утраченных деталей. Поэтому в данной исследовательской работе рассматриваются возможные реконструкции Киргизской крепости с использованием ИИ, моделируются варианты ее внутреннего устройства и подходы к возрождению исторической среды. Цель исследования — раскрыть историческое значение Киргизской крепости через призму искусственного интеллекта, продемонстрировать преимущества цифровых методов в ее изучении, а также продемонстрировать роль инновационных технологий в донесении исторического наследия*

do широкой общественности. Результаты исследования имеют важное практическое значение для создания новых визуальных интерпретаций истории и представления памятников культуры широкой публике в современном формате. Анализ, основанный на искусственном интеллекте, не только расширяет историческое воображение, но и способствует созданию более точной и наглядной интерпретации таких памятников, как Кыргызская крепость, для будущих поколений. Этот подход выводит традиционные исторические исследования на новый уровень, выступая в качестве прочного научного моста между прошлым и цифровой эпохой.

**Ключевые слова:** Сорок замков, искусственный интеллект, визуальное моделирование, цифровые технологии, цифровая реконструкция, возрождение истории, инновационные подходы.

**Abstract.** This article discusses the issues of studying the history of the Kyrgyz Fortress, one of the largest defensive structures of the Khorezm oasis, using modern technologies. The available archaeological data on the origin, architectural structure and place of the fortress in the ancient Khorezm defense system are analyzed. In particular, in recent years, the rapid development of artificial intelligence technologies has expanded the possibilities of reimagining historical monuments, modeling their original appearance and restoring lost details. Therefore, this research work examines possible reconstructions of the Kyrgyz Fortress using AI, modeled variants of the fortress's internal structure and approaches to reviving the historical environment. The purpose of the research is to reveal the historical significance of the Kyrgyz Fortress through the lens of artificial intelligence, demonstrate the advantages of digital methods in its study, and demonstrate the role of innovative technologies in bringing historical heritage to the general public. The results of the research work have important practical significance for creating new visual interpretations in history and presenting cultural monuments to the general public in a modern form. Artificial intelligence-based analyses not only expand historical imaginations, but also serve to create a more accurate and vivid interpretation of monuments such as the Kyrgyz Fortress for future generations. This approach takes traditional historical research to a new level, acting as a strong scientific bridge between the past and the digital age.

**Key words:** Forty Castles, artificial intelligence, visual modeling, digital technologies, digital reconstruction, reviving history, innovative approaches.

**Kirish.** “Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o’quv jarayonini yengillashtiradi, balki eng iqtidorli yoshlarni kashf etish va ularga keng imkoniyatlar yaratadi. Ta’lim jarayoniga sun’iy intellektni keng joriy etish - kelajak avlod raqobatbardosh bo’lishining eng muhim sharti. Har bir o’quvchi zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan darajada bilimli bo’lishi zarur - deya ta’kidlaydi muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Yurtimizda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko’tarilmoqda. Muhtaram Yurtboshimiz o’z nutqlarida sun’iy intellektni ta’lim, fan, madaniyat va boshqa sohalarga keng joriy etish zarurligini alohida ta’kidlab, bu texnologiyalar kelajak taraqqiyotining muhim omili ekanini qayta-qayta e’tirof etib kelmoqdalar. Shunday ekan, milliy, tarixiy obidalarni zamonaviy yondashuvlar asosida o’rganish va avlodlarga yetkazishda sun’iy intellektning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shunday keng ko’lamli tashabbuslar doirasida, Qoraqalpog’iston hududida joylashgan Qirqqiz qal’asi qadimiy Xorazm sivilizatsiyasining nodir me’moriy va madaniy yodgorligi sifatida sun’iy intellekt nigohida qayta kashf etamiz. Asrlar davomida vaqt va tabiiy omillar ta’sirida yemirilgan ushbu qal’ani raqamli texnologiyalar yordamida tiklash, tahlil qilish va ommalashtirish, tarix va texnologiya uyg’unligining yorqin namunasi sifatida namoyon bo’ladi.



**Asosiy qism.** Qirg'iz qal'asi mil.avv. IV-III mil. III-IV asrlarga oid bo'lib, qadimgi Xorazm mudofaa tizimining muhim bo'g'inlaridan biri sanaladi. Qal'a nomi xalq og'zaki ijodida shakllangan afsona va rivoyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, rivoyatlarga ko'ra, qal'ani jasoratli qizlar himoya qilgan, bu esa uni nafaqat harbiy inshoot, balki matonat va vatanparvarlik timsoliga aylantirgan.


Arxeologik qazishmalarda bu hududdan ming yillik tarixni o'zida mujassam etgan turli shakldagi sopol buyumlar aniqlangan. Ammo ularning aksariyati yoriq, siniq yoki xiralashgan holatda bo'lgani uchun ilmiy tahlil qilish qiyin kechgan.

Bugungi kunda arxeologiyada sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining kirib kelishi ushbu jarayonni tubdan o'zgartirib, qum barxanlari ostida ming yillar davomida saqlanib qolgan sopol buyumlarning asl shaklini va naqshlarini qayta tiklashga hamda funksiyasini aniqlashga imkon bermoqda. Qal'aning mavjud xarobalari, arxeologik topilmalar va tarixiy manbalar asosida sun'iy intellekt yordamida 3D modellar yaratish, qal'aning asl ko'rinishini tasavvur qilish imkonini beradi.

Shu o'rinda Katta Qirg'iz qal'asining mavjud arxeologik qoldiqlari asosida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan raqamli rekonstruksiya tasvirlarini keltirib o'tamiz.

Rasmlarda Qirg'iz qal'asining hozirgi saqlanib qolgan holati hamda sun'iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilgan raqamli modellashtirish natijasida tiklangan taxminiy me'moriy qiyofasi aks ettirilgan. Ushbu yondashuv qal'aning dastlabki tuzilishini ilmiy jihatdan tasavvur qilish, tarixiy obyektini ilmiy asosda o'rganish, madaniy merosni saqlash va ommalashtirishda innovatsion usul sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt asosida amalga oshirilgan me'moriy rekonstruksiya qal'aning umumiy qiyofasini tiklash imkoninini bergan bo'lsa, arxeologik kuzatuvlar natijasida topilgan sopol buyumlar qoldiqlari esa keyingi raqamli rekonstruksiya ishlari uchun asos bo'la oladigan manbalar hisoblanadi.



Ushbu topilmalarning aksariyati vaqt o'tishi bilan singan, qisman yemirilgan, faqat pastki qismi yoki qirradi, tutqichi, sirtining bir qismi saqlanib qolgan bo'lib, ularni to'liq tiklash an'anaviy usullarda juda murakkab jarayon bo'lgan. Shu sababli ushbu loyihada sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, sopol buyumlarning asl ko'rinishini yuqori aniqlikda tiklash jarayonini amalga oshirishni maqsad qilib belgiladik.

Qadimgi sopol buyum bo'laklarini rekonstruksiya qilishda sun'iy intellektning 3D skanerlash yordamida raqamlashtiriladi. AI har bir bo'lakni millimetr darajasida aniqlik bilan modelga joylashtirib, yo'qolgan qismlarni to'ldiradi va sopol buyumning to'liq raqamli modelini yaratadi hamda sun'iy tarzda yangilab, asl holiga yaqinlashtiradi.

Mazkur sopol buyum qoldiqlari asosida idishning dastlabki shakli raqamli rekonstruksiya usuli orqali tiklandi. Ko'zalarning saqlanib qolgan pastki va og'iz qismi bo'laklari, qalinligi, shakli hamda bezak elementlari rekonstruksiya jarayonida inobatga olindi. Ushbu turdagi sopol idishlar qadimda don mahsulotlari, suv va boshqa suyuqliklar, shuningdek, uzoq muddat saqlanishi zarur bo'lgan oziq-

ovqat zahiralari uchun ishlatilgan. Shu bilan birga qal'a hududida mahalliy kulolchilik hunarmandchiligi rivojlangani va xo'jalik faoliyati tarmoqlaridan biri bo'lganini anglatadi.

Sun'iy intellekt yordamida qal'aning me'moriy qiyofasi va moddiy madaniyati namunalari tiklangach, undagi hayot, ijtimoiy munosabatlar va kundalik turmush tarzini tasavvur qilish imkoniyati ham paydo bo'ladi.



Ushbu vizual rekonstruksiya orqali Qirqqiz qal'asidagi ijtimoiy hayot va turmush tarzi ham ilmiy jihatdan tasavvur qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan tasvirlar qal'ani faqat arxeologik yodgorlik sifatida emas, balki tirik ijtimoiy va madaniy makon sifatida anglash imkonini beradi.



Tadqiqot umumiy xulosasi sifatida, Qirqqiz qal'asini kompleks tarzda o'rganish, aniqlangan topilmalarni muzey fondiga kiritish va ularni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tahlil qilish, madaniy merosni asrash, ilmiy muomalaga kiritish hamda kelajak avlodga yetkazishda muhim ilmiy - amaliy ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

**Xulosa.** Qirqqiz qal'asidan topilgan sopol buyumlarning sun'iy intellekt yordamida tiklanishi Orolbo'yi tarixini chuqurroq bilish imkonini yaratmoqda. Bu esa qadimiy Xorazm madaniyatini yanada yorqin va tirik tasavvur qilish imkonini beradi. Bu yondashuv tarixiy yodgorliklarni chuqurroq anglash, ularning dastlabki qiyofasini ilmiy asosda tiklash hamda keng jamoatchilikka zamonaviy shaklda yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, Qirqqiz qal'asini raqamli

texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari orqali o'rganish tarix, arxeologiya va texnologiya integratsiyasining samarali namunasi bo'lib, madaniy merosimizni asrash, targ'ib qilish va kelajak avlodga yetkazishda yangi ilmiy istiqbollarni ochadi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, sun'iy intellekt tarixchi olimning o'rnini bosuvchi emas, balki uning ilmiy izlanishlariga qanot bag'ishlovchi, murakkab ma'lumotlar qatlamini ochishda ko'mak beruvchi zamonaviy yordamchi vosita sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur tadqiqot jarayonida Qirqqiz qal'asi hududida kuzatish ishlari olib borganimizda, noyob topilmalar, xususan, sopol buyumlar qoldiqlari va hozirgacha yaxshi saqlanib kelgan mitti ko'zachani guvohi bo'ldik. Bu noyob topilmalarni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tasarrufidagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyiga topshirdik va ushbu eksponatlar ustida ilmiy izlanishlar olib borishni oldimizga maqsad qilib belgiladik.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. *President of Uzbekistan advocates for international cooperation on AI technologies.* President.uz rasmiy sayti - Prezidentning sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro hamkorlik takliflari.
2. Salimova H.R., Uralov M.R. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali adabiy merosni saqlash va targ'ib qilish – MASTERS (2025). AI orqali adabiy va madaniy merosni raqamlashtirishning usullari.
3. Abdullayev B.P., Kenjayeva M.O. Tarixiy ma'lumotlarni raqamlashtirishda sun'iy intellektning o'rni - PEDAGOGS journal (2025). SI texnologiyalarining tarixiy ma'lumotlar raqamlashtirishdagi afzalliklari.
4. Sayfulloh X. Fayzullayev. Sun'iy intellekt va O'zbekistonda raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va chaqiriqlar (2025). O'zbekistonda AI rivojlanishi va raqamli transformatsiya startegiyasi tahlili.
5. Fayyoza A. Tojiboyeva. Sun'iy intellekt yordamida turkiy xalqlar tarixini tadqiq etish imkoniyatlari(2025). SI yondashuvi orqali tarixiy manbalarni tahlil qilish va raqamlashtirish imkoniyatlari.
6. "Qadimgi Xorazm qal'alari va ulardagi arxeologik tadqiqotlar" Gulchehra Durdiyeva (2021).
7. Qadimgi Xorazm tarixi. Q.Sobirov va I.Usmonova (2022)

UO'K 902(575):903.04:711

### O'RTA OSIYO SHAHARLARINING VUJUDGA KELISHI TARIXI (TEMIR DAVRI)

*M.T.Qalandarova, magistrant, Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'rta Osiyo hududida shaharlar paydo bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy asoslari hamda boshqaruv tizimining shakllanishi haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, shaharlarning shakllanish tarixini chuqur ilmiy tadqiq qilgan olimlar – Y.G'.G'ulomov, S.P.Tolstov, M.A.Itina, A.A.Asqarov, Y.A.Zadneprovskiy, N.A.Avanesova, T.Sh.Shirinov, U.V.Raxmonov va Sh.B.Shaydullayev kabi olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijalari va erishgan yutuqlari haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Shahar, madaniyat, sivilizatsiya, davr yodgorliklari, shahar-davlatlar, hunarmandchilik, metallurgiya va kulolchilik, mudofaa devorlari.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются социально-экономические и политические основы возникновения городов на территории Средней Азии, а также формирование системы управления. Кроме того, анализируются результаты и достижения научных исследований ученых, глубоко изучавших историю формирования городов, таких как Я.Г. Гулямов, С.П. Толстов, М.А. Итина, А.А. Аскарлов, Я.А. Заднепровский, Н.А. Аванесова, Т.Ш. Ширинов, У.В. Рахмонов и Ш.Б. Шайдуллаев.

**Ключевые слова:** Город, культура, цивилизация, памятники эпохи, города-государства, ремесло, металлургия и керамика, оборонительные стены.

**Abstract.** This article provides information on the socio-economic and political foundations of the emergence of cities in Central Asia, as well as the formation of governance systems. It also examines the results and achievements of scientific research conducted by scholars who have deeply studied the history of urban formation, such as Ya.G. Gulyamov, S.P. Tolstov, M.A. Itina, A.A. Askarov, Ya.A. Zadneprovskiy, N.A. Avanesova, T.Sh. Shirinov, U.V. Rakhmonov, and Sh.B. Shaydullayev.

**Key words:** City, culture, civilization, monuments of the period, city-states, handicrafts, metallurgy and pottery, defensive walls.

**Kirish.** Shaharlarning paydo bo'lishi insoniyat tarixida muhim o'rin egallaydi. Shaharlar va davlatlarning shakllanish jarayoni uzviy bog'liq ravishda borib, ularning paydo bo'lishi xalqlarning o'z sivilizatsiya bosqichiga qadam qo'yganligining asosiy ko'rsatkichidir [1, 6-b].

Shahar va davlatchilik tizimining shakllanishi bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayondir. Davlatning paydo bo'lishi uchun shahar siyosiy, iqtisodiy, diniy markaz sifatida zarur bo'lgan bo'lsa, o'z navbatida shaharning paydo bo'lishi uchun davlat shart-sharoitlarni yaratgan. Davlatchiligimizning ilk ko'rinishi shahar-davlatlar ko'rinishida bo'lganligi ham shaharlar tarixiga alohida e'tiborni taqozo etadi. Shaharlar turli hududlarda turli davrlarda shakllanadi. Eng qadimgi shaharlar Shumer, Elam va Hind vodiysida eramizdan avvalgi IV-III mingyillikda paydo bo'ladi Xitoyda ilk shaharlar bir muncha kechroq, mil.av. III-II-mingyillikda, Mezoamerikada mil.avv. I mingyillik oxirlarida va Yevropaning shimolida hozirgi eraning I mingyillikning 2-yarmida paydo bo'ladi. O'rta Osiyo qadimgi shahar va urbanizatsiya masalasi borasida mustaqillikka erishganimizdan keyin muhim qadamlar qo'yildi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar hamda tarixga yangicha qarashlar O'rta Osiyo shaharlari, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishi masalalarida muhim fikrlar bildirish imkonini beradi [2, 60-b].

Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va antropologik tadqiqot usullariga asoslangan. Asosiy manba sifatida arxeologik materiallar, etnografik tadqiqotlar va tarixiy hujjatlar tahlil qilingan.

**Natijalar va muhokama.** Temir arxeologik artefakt sifatida mil. avv. IV–III ming yilliklarga oid madaniy qatlamlarda uchrab boshlaydi. Dastlabki temir buyumlar zeb-ziynatlardan iborat bo'lib, meteorit temirdan yasalgan. Mil. avv. III ming yillikka oid temir buyumlar Mesopotamiya, Kichik Osiyo, Misrda ham uchraydi. Temirni eritish texnologiyasini odamlar ancha kech o'zlashtirganlar. Ma'lumki, temir 1500 C issiqlikda eriydi. Temir rudasini eritib ishlash texnologiyasi mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlangan. O'rta Osiyo hududidagi Gonur, To'g'aloq, Jarqo'ton yodgorliklarining so'nggi bronza davri qatlamidan temir buyumlari namunasi topilgan [3, 83-b].

Ilk temir davrining birinchi bosqichi arxeologiya fanida "naqshli sopollar madaniyati" nomi bilan yuritiladi. Dastlabki o'rganilgan yodgorlikning birinchi madaniy qatlamiga nisbatan Yoz I bosqichi sifatida qabul qilingan. V.M.Masson Murg'ob vohasidagi Yoztepa manzilgohning quyidagi xronologik ustuni ishlab chiqqan [4, 128-b].


Murg'ob vohasining quy oqimi yerlarini egallagan madaniy-tarixiy o'lka. Bu yerda ilk temir davri yodgorliklari bronza davridagi kabi alohida ariqlar (kanal) bo'yidagi mikrovoahalar hududida o'rganilgan. Mikrovoahalar Keleli, Ajiquyi, Toip, Odamboskan, Ovchin, Gonur, To'g'aloq va Toxirboylardan iborat. Ilk temir davrining boshida o'troq dehqon jamoasining dastlabki kichik qishloqlari shakllanadi. Keyingi bosqichda manzilgohlardan birining maydoni kengayib, me'moriy tuzilmalari murakkablashib boradi va mikrovoahaning markaziga aylanadi. Bunday manzilgohlar ma'lum bir mikrovoahaning markazini tashkil etgan qadimgi shaharlar edi [5, 10-b].

Kopetdog' bilan Qoraqum oralig'idagi yerlar Shimoliy Parfiya hududini tashkil etgan. Bu yerlarda joylashgan manzilgohlar nisbatan ilgariroq, ya'ni so'nggi bronza davrida vujudga kelib, ularning uch xil shakli ajralib turadi. Qadimgi shahar sifatida faoliyat yuritgan Yelkantepa va Ulug'tepa manzilgohlari bronza davrining oxirida shakllangan. Yelkan I, Ulug' III – mil. avv. II ming yillikning oxiri – 650-yillar, Yelkan II, Ulug' II – mil. avv. 650-500, Yelkan III, Ulug' I – mil. avv. 500-350-yillar bilan sanaladi.

Temir davriga kelib Yelkantepa arki joylashgan joy o'zlashtirilib, 14,5 ga dan iborat maydonda aholi manzilgohi vujudga keladi. Mil. avv. X asrda qalinligi 10,5 m, mudofaa devori quriladi. Mil. avv. VII–VI asrlarda manzilgoh mudofaa devorining atrofidagi uy-joy imoratlari qurilib, ikkinchi mudofaa devori bilan o'rab olinadi. Natijada Yelkantepa yodgorligi o'rnida ark, ikkita shahriston va shahar atrofi qismlaridan iborat umumiy shahar shakllangan. Shimoliy Parfiyaning ilk temir davridagi ikkinchi bir yirik manzilgohi Ulug'tepa ham bronza davrining oxirida shakllangan. Bu manzilgohning bir qismida mil. avv. X asrda baland sahni ustida qo'rg'on barpo etiladi. Yelkantepadan farqli o'laroq bu yerda aholi imoratlari joylashgan qismida mudofaa devorining izlari aniqlanmagan [6, 89-b].

Qadimgi Baqtriyaning ilk temir davri hududi shimolda So'g'diyona bilan Hisor tog' tizmalari orqali, janubda esa Hindikush tog'lari bilan chegaralangan. Uning hududi sharqda Pomir tog'

tizimasidan Amudaryo bo'ylab g'arbda Murg'ob vohasigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Hozirgi O'zbekiston va Tojikiston respublikalarining janubi hamda Afg'onistonning shimoliy hududiga to'g'ri keladi. Ilk temir davrining boshida hozirgi paytda suvsizlanib qolgan kichik daryo vohalari hududida ilk temir davri o'troq dehqonchilik qishloqlari shakllangan. So'nggi bronza davrida faoliyat yuritgan yirik manzilgohlar o'rnida maydoni ancha kichik va ixcham qishloqlar paydo bo'lgan. Baqtriyaning ilk temir davriga oid barcha turdagi arxeologiya yodgorliklar tuzilishi va hajmiga ko'ra bir necha turga ajratilgan. Ulardan birinchisi mudofaa tizimiga ega bo'lgan yirik manzilgohlar. Bunday manzilgohlarning maydoni va tuzilishiga ko'ra ark, shahar hamda atrofi qismlaridan tashkil topgan uch yoki ikki qismdan iborat qadimgi shaharlar [7, 234-b].



**Baqtriyaning ilk temir davri shaharlari [8, 140-b]**

**1. Talashkontepa. 2. Qizilcha. 3. Tillatepa.**

Janubiy So'g'd Kesh va Nahshab vohalaridan tashkil topgan. Kesh vohasi hududiga Sho'robsoy, Tanxozdaryo, Qizildaryo, Qayrag'och, Guldaryo mikrovoxlari kirgan. Naxshab vohasiga Yerqo'rg'on va Nishon mikrovoxlari kirgan. Har biri mikrovohaning markaziy manzilgohi atrofida bir nechta o'troq dehqonchilik qishloqlari mavjud bo'lgan. Kesh vohasida ilk dehqonchilik madaniyati dastlab Sho'robsoyning quyi oqimi hududida shakllangan. Bu hududda ilk temir davri Uzunqir, Podayotoqtepa va Sangirtepa yodgorliklarda saqlanib qolgan. Sangirtepa va Uzunqir yodgorliklarining quyi qatlamidan ilk temir davrining dastlabki bosqichiga oid qo'lda yasali sirtiga naqsh chizilgan sopollar topilgan. Bunday turdagi sopollar Chiroqchitepa va Chimqo'rg'on yodgorliklarida ham uchraydi. Ilk temir davrining boshida Shurobsoyning quyi oqimida joylashgan Podayotoqtepa, Uzunqir va Sangirtepa yodgorliklari o'rnida dastlabki dehqonchilik qishloqlari vujudga kelgan. Hozirgi paytda uzunligi 450 m joyda saqlangan Uzunqir yodgorligining quyi qatlamida, taxminan mil. avv. VIII–VII asrlarda guvaladan mudofaa devori qurilgan. Shurobsoyning chap sohilida joylashgan Podayotoqtepa manzilgohining atrofidagi 70 ga maydonni o'rab olgan ushbu devorning qurilishi qadimgi shaharning shakllanishiga asos bo'lgan. Keyingi bosqichda guvala devor ustidan yirik o'lchamli xom g'ishtdan yangi devor va mudofaa burjlari barpo qilingan.

Zarafshonning quyi oqimi hududida joylashgan Buxoro vohasining mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida sodir bo'lgan etno-madaniy jarayonlar So'g'dining boshqa joylaridan farq qiladi. Buxoro vohasining o'zlashtiri biroz kechroq sodir bo'lgan. Buxoro vohasi yerlari arxaik davrda Qadimgi Xorazm aholisining vohaga kelib joylashishi natijasida o'zlashtirilgan. Qadimgi Xorazm hududida yashagan aholi Amudaryoning o'rta oqimi hududiga siljib, o'troq dehqonchilik manzilgohlariga asos solgan. Vohaning shimoli-g'arbiy qismi Boshtepa, Konimex-Sarmishsoy hududlaridan mil. avv. VI–V asrlarga oid o'troq dehqonchilik manzilgohlari o'rganilgan. Bu davrdagi manzilgohlarning dastlabki uy-joylar yerto'la va yarim yerto'lalardan iborat bo'lgan [9, 150-b].

Keyingi bosqichda xom g'ishtdan barpo etilgan me'morchilik rivojlangan. Konimex tumanidagi Kumrabot manzilgohidan o'rganilgan imorat paxsadan barpo etilgan katta patriarxal oilaga tegishli ko'p xonali uyning atrofi aylantirib devor bilan o'rab olingan. Ushbu yodgorliklardan topilgan sopol buyumlari shakliga ko'ra arxaik davrining so'nggi bosqichiga oid. Konimex-

Sarimishsoy hududida mil. avv. VI–V asrlarga oid o'troq dehqonchilik manzilgohlari bilan bir davrda faoliyat yuritgan qabr-qo'rg'onlar (Xazora, Qalqonsoy va Shodibek qabristonlar) ham mavjud. Ko'chmanchi saklar Sirdaryoning quyi oqimidan Qizilqum cho'lini kesib o'tib, bu yerlarga kelib qolgan. So'g'dning ilk temir davri xo'jaligini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan. Dastlabki bosqichda chorvachilikning mavqeyi ustun bo'lgan. Keyinchalik dehqonchilik xo'jaligi takomillashib, sug'orma dehqonchilikning ahamiyati o'sadi. Yodgorliklardan arpa, bug'doy, javdar doni qoldiqlari aniqlangan [10, 23-b].

**Xulosa.** Temirning kashf etilishi va uning keng tarqalishi (mil.av. 1- ming yy. boshlab) bilan ayrim aholi manzilgohlari sof hunarmandchilik markazlari sifatida paydo bo'la boshlaydi. Ayirboshlash munosabatlari rivojlanishi natijasida o'troqdehqonchilik aholi va ko'chmanchi-chorvador aholi chegaralarida ham shaharlar qad ko'targan. Buni biz qadimgi Xorazm misolida ko'rishimiz mumkin. Shaharlarning yuzaga kelishi insoniyat tarixidagi varvar (yovvoyi) lik davridan sivilizatsiyaga, urug'chilik tuzumidan davlatchilikka o'tishning asosiy belgisi hisoblanadi. Ma'lumki, sivilizatsiya kishilik jamiyati rivojining ma'lum davrida paydo bo'ladi. Sivilizatsiyaning yuzaga kelishida va rivojlanishida shahar yetakchi rol o'ynaydi. Sababi, aynan shaharlar sivilizatsiya paydo bo'lishi va rivojlanishini ta'minlagan barcha jarayonlar kechgan markaz rolini bajargan. Umuman, sivilizatsiya va ilk davlatlar paydo bo'lish jarayoni ilk shaharlar tashkil topishi va rivojlanish jarayoni bilan birga borgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Utayeva F. "O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi". – Buxoro, 2021.
2. Аскарлов А. Энг қадимги шаҳар. – Тошкент, 2001.
3. Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности (VII до н.э.– VIII в. н.э.). М. "Восточная литература", 1999.
4. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы //МИА. №73. – М.-Л., 1959.
5. Аскарлов А.А., Абдуллаев Б. Джаркутан. – Ташкент, "Фан", 1983.
6. Заднепровский Ю.А. Ошское поселение. К истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. Бишкек, «Мурас», 1997.
7. R.Ibragimov. "ARXEOLOGIYA". – Toshkent, 2022.
8. R.Ibragimov. "ARXEOLOGIYA". – Toshkent, 2022.
9. Толстов С.П. Древний Хорезм. М., «Изд. МГУ», 1948.
10. Мухаммаджонов А.Р. Қадимги Бухоро. Тошкент., "Фан" 1989.

UO'K 908

### QARSHI SHAHRI IJTIMOYIY HAYOTINING TARIXIY RIVOJLANISHI

*M.Qayumov, mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada 1924–2024 yillar davomida Qarshi shahrining ijtimoiy hayotida kechgan tarixiy o'zgarishlar kompleks va tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet davri ma'muriy-hududiy islohotlari, industriallashuv jarayonlari, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati, aholining demografik tarkibi va ijtimoiy qatlamlar shakllanishi masalalari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Qarshi shahri, urbanizatsiya, demografik jarayonlar, sovet davri, mustaqillik yillari, mahalla instituti, ijtimoiy transformatsiya, hududiy rivojlanish.

**Аннотация.** Данная научная статья всесторонне и систематически анализирует исторические изменения, произошедшие в общественной жизни города Карши в период с 1924 по 2024 год. Исследование охватывает вопросы административно-территориальных реформ советской эпохи, процессов индустриализации, деятельности учреждений культуры и образования, демографического состава населения и формирования социальных слоев.

**Ключевые слова:** Город Карши, урбанизация, демографические процессы, советская эпоха, годы независимости, институты соседства, социальные преобразования, территориальное развитие.

**Abstract.** This research article provides a comprehensive and systematic analysis of the historical changes that occurred in the social life of the city of Karshi between 1924 and 2024. The study covers issues of Soviet-era administrative-territorial reforms, industrialization processes, the activities of cultural and educational institutions, the demographic composition of the population, and the formation of social strata.

**Keywords:** *Karshi, urbanization, demographic processes, Soviet era, independence ears, mahalla institution, social transformation, territorial development.*

**Kirish.** 1924–2024 yillar davomida Qarshi shahri ijtimoiy hayotida chuqur va ko‘lamli o‘zgarishlar yuz berdi. Ma‘muriy islohotlar, industriallashuv, demografik o‘shish va urbanizatsiya jarayonlari shahar rivojlanishida muhim omil bo‘ldi. Ushbu maqolada mazkur o‘zgarishlar tarixiy tahlil asosida ilmiy jihatdan o‘rganiladi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1924–2024 yillar davomida Qarshi shahrining ijtimoiy hayoti bir necha bosqichli transformatsiyani boshdan kechirgan. Sovet davrida ma‘muriy boshqaruv va industriallashuv jarayonlari ijtimoiy tuzilmaning shakllanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida bozor munosabatlarga o‘tish, mahalla institutining faollashuvi va infratuzilmaning modernizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning yangi bosqichini yuzaga keltirdi. Demografik o‘shish, urbanizatsiya va ta‘lim-madaniyat sohasidagi kengayish shahar ijtimoiy muhitining sifat jihatdan yangilanishiga olib kelgan.

**Muhokama.** Qarshi shahrining ijtimoiy rivojlanishi uzluksiz, biroq mazmunan turlicha bosqichlarda kechganini ko‘rsatadi. Sovet davrida markazlashgan boshqaruv va reja iqtisodiyoti sharoitida shakllangan ijtimoiy tizim barqarorlikni ta‘minlagan bo‘lsa-da, mahalliy tashabbus va fuqarolik faolligini cheklagan. Mustaqillik yillarida esa bozor munosabatlari, xususiy sektor rivoji va mahalla institutining kuchayishi ijtimoiy munosabatlarni demokratik tamoyillar asosida yangilashga xizmat qildi. Shuningdek, urbanizatsiya va demografik o‘shish jarayonlari ijtimoiy infratuzilmaga bo‘lgan talabni oshirgan hamda ta‘lim, sog‘liqni saqlash va madaniyat sohalarida sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltirgan. Shu bois Qarshi shahri misolida hududiy ijtimoiy taraqqiyot omillari o‘zaro bog‘liq va tizimli xarakterga ega ekani aniqlanadi.

Qarshi shahri Qashqadaryo viloyatining ma‘muriy, iqtisodiy va madaniy markazi sifatida yuz yil davomida murakkab ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarini boshdan kechirdi. 1924 yilda O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirilgach, shahar yangi ma‘muriy tizim tarkibida rivojlandi[1:52].

1926 yilgi aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlariga ko‘ra, Qarshi aholisi asosan qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan[2:18]. 1930-yillarda kollektivlashtirish va industriallashuv siyosati amalga oshirilib, yangi ishlab chiqarish obyektlari barpo etildi. Bu jarayon ijtimoiy tarkibda ishchilar sinfining shakllanishiga olib keldi[3:140].

Ikkinchi jahon urushi davrida evakuatsiya qilingan korxonalar hudud sanoat salohiyatini mustahkamladi[1:201]. 1960–1980-yillarda irrigatsiya tizimlari va magistral kanallar qurilishi qishloq xo‘jaligi hamda urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirdi[1:325]. Shu davrda ta‘lim, sog‘liqni saqlash va madaniyat muassasalari tarmog‘i kengaydi. Qarshi shahri ijtimoiy hayoti tarixini chuqurroq tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shahar rivojlanishida irrigatsiya siyosati va demografik o‘zgarishlar hal qiluvchi omil bo‘lgan. 1950–1970-yillarda Qarshi magistral kanali va yangi sug‘oriladigan erlarning o‘zlashtirilishi vohada mehnat migratsiyasini kuchaytirib, shaharning aholi soni keskin oshishiga sabab bo‘ldi[3:263]. **Bu** jarayon ijtimoiy infratuzilma – maktablar, kasalxonalar, madaniyat uylari va turar-joy massivlarining kengayishini taqozo etdi.

1989 yilgi aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlariga ko‘ra, Qarshi aholisi ko‘p millatli tarkibga ega bo‘lib, bu holat shaharning ijtimoiy-madaniy muhitini rang-baranglashtirgan[3:312]. Mustaqillikdan keyingi davrda esa tashqi va ichki migratsiya oqimlari ijtimoiy tuzilmaning qayta shakllanishiga olib keldi.

1991 yildan so‘ng bozor munosabatlarga o‘tish va xususiy sektor rivoji ijtimoiy tuzilmaning yangilanishiga sabab bo‘ldi. 1993 yilda qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun mahalla institutining huquqiy asoslarini belgilab berdi[4:78].

2000–2024 yillarda shahar infratuzilmasi modernizatsiya qilinib, uy-joy qurilishi, transport tizimi va oliy ta‘lim muassasalari faoliyati kengaydi[5]. 2017 yildan keyingi islohotlar doirasida hududiy rivojlanish dasturlari ijtimoiy sohada sifat o‘zgarishlariga olib keldi[6:15]. Shuningdek, oliy ta‘lim va kasb-hunar muassasalari sonining ortishi yoshlar ijtimoiy faolligini kuchaytirib, shaharda intellektual muhit shakllanishiga xizmat qildi[7].

Qashqadaryo viloyatida sog'liqni saqlash tizimining shakllanishi 1924 yilda birinchi sog'liqni saqlash bo'limining tashkil etilishi bilan boshlandi. Ushbu kichik bo'lim faoliyati, avvalo, joylarda feldsherlik punktlari va ambulatoriyalar ochish, yuqumli kasalliklarning oldini olish hamda sanitariya-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yishga qaratilgan edi. Qarshi shahri viloyat markazi sifatida mazkur jarayonlarning bosh tashkiliy markaziga aylandi. Ayniqsa, 1930–1980-yillarda shahar hududida markaziy shifoxona, tug'ruqxona va ixtisoslashgan bo'limlarning tashkil etilishi ijtimoiy infratuzilmaning kengayishiga xizmat qildi.

1991 yilga kelib viloyatda 680 nafar vrach faoliyat yuritgan bo'lsa, ularning 118 nafari malaka oshirish kurslaridan o'tgan edi. 2010 yilga kelib esa malakasini oshirgan shifokorlar soni 548 nafarga yetdi. Bu ko'rsatkich Qarshi shahrida tibbiy xizmat sifati bosqichma-bosqich yaxshilanganini anglatadi. Shifokorlarning markaziy klinikalarda tajriba orttirib qaytishi hududda zamonaviy diagnostika va davolash usullarini joriy etish imkonini berdi.

1992 yildan boshlab ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni tashkil etish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 1-sonli viloyat shifoxonasi hamda Kitob tumani markaziy shifoxonasida "sun'iy buyrak" bo'limlarining ochilishi og'ir buyrak yetishmovchiligi bilan og'riq bemorlar hayotini saqlab qolishda muhim bosqich bo'ldi. Respublikada birinchilardan bo'lib Qarshi shahrida zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan "Viloyat tashxis-maslahat markazi" tashkil etilishi esa hududiy sog'liqni saqlash tizimining institutsional rivojlanishida yangi davrni boshlab berdi.

2023 yilda viloyatda 4 dan ortiq fan doktori, 20 dan ortiq fan nomzodi hamda 1000 dan ortiq oliy va birinchi toifali mutaxassislarning faoliyat yuritayotgani Qarshi shahri misolida sog'liqni saqlash tizimining ijtimoiy sohadagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Bu jarayonlar shahar ijtimoiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi.

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi hududiy ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishiga aylandi. Viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi turli idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda bandlikni ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks choralarni amalga oshirdi. Qarshi shahri ushbu jarayonlarda markaziy o'rin tutdi. Shahar mehnat birjasi faoliyati, ayniqsa, yoshlar bandligini ta'minlash masalasida muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ldi. 1990-yillar o'rtalarida iqtisodiy transformatsiya sharoitida yoshlar o'rtasida vaqtincha ishsizlik va boqimandalik kayfiyati kuchayishi ehtimoli mavjud edi. Shu bois Qarshi shahar mehnat birjasi tomonidan "Mehnat bozori" tizimi tashkil etilib, yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, ularni kasbiy yo'naltirish va qayta tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1996 yilda shaharda 1320 nafar yoshlar mehnat bozoriga murojaat qilgan bo'lsa, ularning 692 nafari doimiy ish bilan ta'minlangan. 115 nafar yosh kasbga qayta tayyorlanib, yangi mutaxassisliklarni egallagan. Bundan tashqari, 1720 ta yangi ish o'rinlari aynan yoshlar uchun yaratilganligi bandlik siyosatining amaliy samaradorligini ko'rsatadi[8:7].

Qarshi shahri misolida mazkur ko'rsatkichlar ijtimoiy siyosatning faol va manzilli xarakter kasb etganini, bandlikni ta'minlash orqali yoshlar o'rtasida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga erishilganini tasdiqlaydi. Qarshi shahri ijtimoiy hayoti 1924–2024 yillar davomida murakkab, ammo izchil taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Sovet davrida yaratilgan sanoat va ijtimoiy infratuzilma mustaqillik yillarida modernizatsiya qilinib, bozor munosabatlari va mahalla instituti asosida yangilandi. Natijada shaharda barqaror ijtimoiy muhiti rivojlanib bordi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston tarixi (1917–1991 yillar). 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 45–52.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy statistika boshqarmasi. 1926 yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari. – Toshkent, 1928. – B. 12–18.
3. Qashqadaryo viloyati ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2006
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 78–85.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida". 1993 yil 2 sentabr.
6. Qarshi davlat universiteti tarixi. – Qarshi, 2022. – B. 15–22.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari to'plami (2017–2023 yillar). – Toshkent, 2023.
8. Qashqadaryo viloyati Davlat arxivi. 142-fond, 1-ro'yxat, 11-ish, 7-varaq.

## O'ZBEKISTON HUDUDIDA SHAHARLAR VIJUDGA KELISHINING GEOGRAFIK VA IQTISODIY OMILLARI

*Sh.Sh.Raximova, magistrant, Osiyo Xalqaro Universiteti Xorazm filiali, Urganch*

**Annotatsiya.** O'zbekiston hududi qadimdan Markaziy Osiyoning eng muhim madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Shaharsozlik tizimining an'anaviy shakllanish yo'llari, tuzilishi, joylashuvi va rivojlanish tamoyillarini o'rganish, ularning nazariy asoslarini yaratish bugunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Maqolada O'zbekiston hududida shaharlar vujudga kelishining geografik va iqtisodiy omillari haqida batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Shaharsozlik, hudud, omil, sharoit, e'tiqod, madaniy, karvon yo'li, manzilgohlar.

**Аннотация.** Территория Узбекистана издавна была одним из важнейших культурных и экономических центров Центральной Азии. Изучение традиционных путей формирования, структуры, расположения и принципов развития систем градостроительства, а также создание их теоретических основ является актуальной задачей сегодняшнего дня. В статье подробно описаны географические и экономические факторы создания городов на территории Узбекистана.

**Ключевые слова:** Градостроительство, территория, фактор, условия, верования, культурный, караванный путь, населенные пункты.

**Abstract.** The territory of Uzbekistan has long been one of the most important cultural and economic centers of Central Asia. Studying the traditional ways of formation, structure, location, and development principles of urban planning systems, and creating their theoretical foundations, are among today's pressing tasks. The article describes in detail the geographical and economic factors of the creation of cities in the territory of Uzbekistan.

**Key words:** Urban planning, territory, factor, conditions, beliefs, cultural, caravan route, settlements.

**Kirish.** O'zbekiston hududida shaharlar vujudga kelishining asosiy omillari geografik (tabiiy) va iqtisodiydir. Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar ham shaharlar belgilari uchun asosiy hisoblanadi. Undan tashqari shaharsozlik uchun tabiiy - geografik omillar ham muhim ahamiyatga ega. Geografik omillarga sug'oriladigan yerlar, tabiiy resurslar va transport yo'llari joylashganligi kirs, iqtisodiy omillarga savdo markazlarining rivojlanishi, hunarmandchilikning taraqqiyoti va sanoat markazlarining shakllanishi kiradi. Shaharlarning ko'pchiligi avvalida qarorgohlar, manzilgohlar bo'lgan. Qadimda katta qarorgohlar yoki shahar qarorgohlar ham vujudga kelgan. Chunonchi, shaharning geografik joylashuvi hududi, suv bilan ta'minlanganligi, qazilma boyliklari mavjudligi, savdo - madaniy aloqalari karvon yo'llari, diniy inshootlar ham muhimdir. Demak, ko'pchilik tadqiqotchilar «shahar» deb e'tirof etadigan yirik aholi yashash makonida barcha shart-sharoitlar, ya'ni shu hududda aholining uyushib yashashi uchun kerak bo'ladigan barcha dunyoviy, diniy va iqtisodiy uyushmalarning bir butun, yaxlit tashkiloti karor topgan.

Shaharlar paydo bo'lishining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari diniy, harbiy-strategik va tabiiy-geografik omillar ham nihoyatda muhimdir.

Ular quyidagilar:

- e'tiqod, diniy-mafkuraviy qarashlarning taraqqiy etishi natijasida ibodat inshootlarining shahar markazlarida qad ko'tarishi (shaharlar diniy markaz sifatida);

- qal'alarning paydo bo'lishi va ularda mustahkamlangan manzilgohlarning qo'rg'onlar hamda shaharlarning muhim belgisi sifatida shakllanishi;

- o'z davridagi harbiy-siyosiy vaziyat (atrof ko'chmanchilarning va o'zaro urushlar) tufayli qal'alarning qo'rg'onlarga aylanishi va himoya inshootlari bilan o'rab olinishi;

- sharoitlar (dastlabki shaharlarning yashash uchun qulay bo'lgan daryo vohalari va tog' oldi hududlarida paydo bo'lishi) mavjudligi;

Shaharlar taraqqiyotining keyingi bosqichlarida shaharlarning ayrim tuzilishi belgilari turlicha o'zgarishiga qaramay shaharsozlik ko'rinishning asosiy mohiyati hisoblangan hamda o'zida ijtimoiy

va madaniy-maishiy belgilarni mujassamlashtirgan uch qismlik yani qal'a - hokim maskani; shaharning hunarmandchilik ishlab chiqaruvchi qismi, savdo-sotiq hamda turar-joylar mavjud bo'lgan qismi, shahar oldi - diniy ko'mish marosimlariga oid va ishlab chiqaruvchi qismlaridan iborat bo'lgan.

O'rta Osiyoning keng dehqonchilik vohalari hududlarida aholining alohida joylashuvi tizimi shakllanadi. Bu jarayon o'z navbatida ilk shaharsozlik belgilarini aks ettiruvchi aholi manzilgohlarining paydo bo'lishi va keyingi rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

**Asosiy qism.** O'zbekiston antik davri shaharsozlik tarixini quyidagi uch bosqichga ajratishgan. Bular:

1. İlk antik davr (Avesto davri) – miloddan avvalgi IX – VI asrlar.

Bu davr Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" tilga olgan eng qadimgi jamiyat bosqichiga to'g'ri keladi. Bu vaqtga kelib hali to'liq shakllangan shaharlardan ko'ra qal'asimon qishloqlar, yirik manzilgohlar, ilk sug'orish tizimlari paydo bo'lgan. Xorazm, Baqtriya va Marg'iyona hududlarida dehqonchilikka asoslangan ilk doimiy yashash maskanlari shakllangan.

2. O'rta antik davr (Baqtriya – So'g'diyona shaharsozligi) – miloddan avvalgi IV – II asrlar [1].

Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan so'ng bu hududlarga ellinistik (yunoncha) shaharsozlik madaniyati kirib keladi. Bu davrda Baqtriya va So'g'diyonada: Ay-Xanum, Qadimgi Samarqand, Tarmiz atrofidagi shahar va yirik markazlar rivojlangan. Shaharlarda to'g'ri ko'chalar, maydonlar, ma'muriy binolar, mustahkam devorlar shakllangan.

3. Kechki antik davr (Kushonlar davri) – miloddan avvalgi I – milodiy IV asrlar.

Kushonlar davri Markaziy Osiyo tarixida siyosiy va madaniy yuksalish davri hisoblanadi. Bu davrda: Qoratepa, Fayztepa, Tarmiz, Panjikent kabi shaharlar yirik diniy va savdo markazlariga aylangan. Buddaviylik ta'sirida ibodatxonalar, supalar, hunarmandchilik mahallalari qurilgan. Me'morchilikda mahalliy, ellinistik va buddaviy uslublar uyg'unlashgan.

Xorazm Amudaryoning chap qirg'og'ida miloddan avvalgi V-IV asrlarda Qal'aliqir istehkomi (shahari) vujudga kelgan. Shaharchani Charmanyob arig'i suv bilan ta'minlab turgan. Toshkent shaharsozligining ikkinchi davri Salor arig'i bo'yida milodiy I-II asrlarda paydo bo'lib, ilk o'rta asrlarga kelib, poytaxt shaharga aylangan Ming O'rik (Afrosiyob)da kechadi.

Ohangaron daryosi bo'yida mustahkam Kang'xa shahari quriladi, ushbu imkoniyatlar quyidagi asosiy ijtimoiy - iqtisodiy omillar bilan bogliq edi:

- o'troq dehqonchilikning paydo bo'lishi natijasida aholining ma'lum hududlarga tuplanishi hamda bu hududlarda boshqa hududlarga nisbatan zich joylashuvi;

- mehnatning ikkinchi yirik ijtimoiy taqsimoti, ya'ni hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chikishi natijasida ayrim aholi manzilgohlarida ixtisoslashgan xo'jaliklarining paydo bo'lishi;

- ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarining chuqurlashuvi hamda mavjud jamiyatdagi boshqaruv tizimining yanada murakkablashuvi (aholi yirik manzilgohlarida boshqaruv tizimi shakllanadi va markazlashadi);

- eng qadimgi yo'llarning rivojlanishi natijasida hududlar o'rtasida madaniy va iqtisodiy munosabatlar, xususan, savdo - sotiq aloqalarining taraqqiy etishi (mil. avv. IV-III ming yilliklardayoq Janubiy Turkmaniston hududlarida dastlabki loydan yasalgan g'ildiraklar paydo bo'lgan bo'lsa, mil.avv. III ming yillik o'rtalariga kelib esa tuyaga, ba'zan, xo'kizga ko'shib ishlatadigan aravalar paydo bo'ladi). Transport vositalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi ham qishloq xujaligi hududlarining markazi hamda kundalik zaruriy va qo'shimcha maxsulotni taqsimlovchi markaz vazifasini bajarish imkonini yaratadi. Arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlariga tayangan A.Sagdullaev "O'rta Osiyoning janubidagi aholi joylashuvi rayonlarini quyidagi guruxlarga ajratadi [2]:

- Daryo-soylar sohillarida markazlashgan tor oldi rayonlarining ko'p sonli manzilgohlari.

- Soy (yoki kanal) yoki bevosita yirik daryolar bo'yida joylashgan tog' oldi hududlari tumanlarining bitta-ikkita manzilgohlari.

- Murg'ob, Zarafshon, Balxash daryolari yetaklari va irmoqlari havzalaridagi manzilgohlarning zich joylashuv rayonlari.

O'rta Zarafshon va Kashqadaryoning o'rta oqimi xududlaridagi geografik jihatdan qulay bo'lgan (baland adirlar, qum sahrolari bo'lmagan) tekisliklari rayonlari. Ularning barchasida o'zlashtirilgan maydonlar va sug'orish tartibidan tashqari turar-joylar va manzilgohlar, o'zlashtirilmagan yerlar va yaylovlar mavjud bo'lib, eng muhimi bu yerlarda aholi faoliyat kursatgan. Ushbu joylashuv rayonlarini belgilovchi belgilar birinchi navbatda, tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog'liq edi. Bu omillarni Insoniyat taraqqiyotiga qay darajada ta'sir etishini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, tabiiy - geografik nuqtai nazardan aholi markazlashgan rayon-hudud doimo aholi joylashuvi hamda odamlar jamoalari yashashi uchun moddiy shart-sharoitlar yaratilgan geografik kenglik sifatida shakllanadi. Ushbu geografik kenglikda inson turmush tarzi uchun o'ta zarur bo'lgan shart- sharoitlar suv manbalari, yaylovlar, qurilish xom ashyosi, qurilish uchun qulay joylar kabilar mavjud bo'ladi. Bir hududda uzoq yashash natijasida odamlar o'zlari uchun moddiy va ma'naviy sharoit yaratish bilan birga hududlarga ta'sir yetkazib uning tabiiy - geografik sharoitlarini mumkin qadar o'zlariga moslab oladilar. Geografik muxit odamlarning turmush tarzi, madaniyati hamda ishlab chiqarish faoliyatiga kuchli ta'sir kursatsada, ijtimoiy - siyosiy taraqqiyotga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan aholi rayonlashuvi jarayonlari shunda kuzatiladiki, bu jarayonda markaz-rayon hududi mehnat va ishlab chiqarish ob'ekta, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish maxsulotlari markazlashgan joy, xo'jalik, madaniy hamda boshka ijtimoiy munosabatlar markazi hisoblanadi. Rayon-markazlashuvning madaniy omillari nuqtai nazaridan taxlil etsak, bu jarayonda xar bir uziga xos rayon hududda mavjud bo'lgan manzilgohlar va turli ko'rinishdagi turar-joylar, diniy va hunarmandchilik inshootlari, ishlab chiqarish va turmushda ishlatiladigan buyumlar-mehnat qurollari, jangovar qurollar, takinchoklar, sopol idishlar mavjudligi hamda turmush tarzining yuqori darajasi va mavkuraviy tasavvurlarning rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning janubida, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi hududlarida esa ilk temir davrida shakllanib rivojlandi [3]. O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari kichik sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, o'rta, quyi) irmoqlari bo'ylarida, Murg'ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar Misr (Nil) va Mesopotainiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatish mumkin.

**Xulosa.** Demak, O'rta Osiyo shaharsozligining o'ziga xos taraqqiyot yo'li va rivojlanish bosqichlari hamda davrlari mavjud. Ushbu jarayonni davrlashtirishda asosan arxeologik ma'lumotlarga tayanganimiz tufayli u og'ir kechadi hamda ko'p hollarda mukammal emas. Binobarin, bu masala hali to'liq yechimini topgan emas va hali yana ko'plab tadqiqotlar talab etiladigan masala hisoblanadi. Mamlakatlararo aloqalar rivojlanishi Buyuk Ipak yo'li nomi bilan ataladigan xalqaro karvon yo'li shakllanishiga olib keldi. Uning muhim tarmoqlari Yevropa, Yaqin, O'rta va Uzoq Sharq mamlakatlari bilan o'zaro boglagan. Bu yo'l orqali I-mingyillikning o'rtalaridan milodiy XV asrgacha Sharq va G'arb o'rtasida aloqa o'rnatildi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ilk shaharlarning paydo bo'lishida ko'plab ijtimoiy-madaniy hususiyatdagi omillar sabab bo'lishiga qaramay turli sharoitlarda u yoki bu guruh sabablar nisbatan ustunlik qiladi. Undan tashqari ilk shahar sivilizatsiyasining muhim ko'rinishlaridan biri turli shakldagi aholi punktlarining paydo bo'lishi va ularning o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Aynan turli shart-sharoitlar, turli shakldagi aholi punktlari, ko'chmanchi aholi yashash hududlari, o'troq aholi bilan ular o'rtasidagi chegaraviy hududlar - bularning barchasi aholi hududiy rayonlashuvining (ma'lum hududlarda ma'lum turmush tarzi yuritgan aholi joylashuvi) asosi hisoblanadi. Shuningdek, aholining ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan dehqonchilik, hunarmandchilik faoliyati ham belgilab beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ. 1962. – С. 136 - 137.
2. Сагдуллаев А.С. Культура юга Средней Азии VII вв до н.э. (Бактрия, Маргиана, Согд) – Ташкент, 1987. – С. 49.
3. Murtazayeva.R.X. O'zbekiston tarixi. – Toshkent. 2025.

4. Баратов П., Маматкулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Т.: “Ўқитувчи”. 2002. – Б.23.
5. Сагдуллаев А. С. Заметки о раннежелезном веке Средней Азии // СА. – М.: 1982. № 2. – С. 229 - 234.
6. Панахристу О. А. Ранние находки из железа в Средней Азии. // Марказий Осиё тарихи ва археологияси: анъаналар, инновациялар ва истиқболлар. –Тошкент - 2021. – С. 26 – 27.

UO'K 793.3(575.1):930.2

**XORAZM VOHASIDA LAZGI RAQSINING O'RGANILISH TARIXI**  
*S.A.Sadullayeva, magistrant, Osiyo xalqaro universiteti Xorazm filiali, Urganch*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm raqsi gultoji bo'lgan lazgining tarixi, rivojlanish bosqichlari va taraqqiyot jarayonida amalga oshirilgan keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar, ularning bugungi raqs sa'natining rivoj topishidagi ahamiyati va o'rni haqidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan va lazgi raqsi hozirgi kunda butun jahonga mashhur raqslardan biridir.

**Kalit so'zlar:** San'at, lazgi, olov, tarix, tadqiqot, raqqosa, tajriba, tur, qo'lyozma.

**Аннотация.** В данной статье описана история лазги, которая является колыбелью хорезмского танца, этапы его развития и комплексные научные исследования, проведенные в процессе развития, их значение и место в развитии современного танцевального искусства, а танец лазги является одним из самых известных танцев в мире сегодня.

**Ключевые слова:** Искусство, страсть, огонь, история, исследование, танцовщик, опыт, тип, рукопись.

**Abstract.** In this article, the history of Lazgi, which is the cradle of Khorezm dance, the stages of its development and comprehensive scientific researches carried out in the process of development, their importance and place in the development of today's dance art are described, and the Lazgi dance is one of the most famous dances in the world today.

**Key words:** Art, passion, fire, history, research, dancer, experience, type, manuscript.

**Kirish.** Milliy raqs san'atimiz tarixida alohida o'rin egallaydigan ta'bir joiz bo'lsa uning gultoji bo'lgan Lazgi raqsi o'zining chuqur hayotiy falsafasi, betakror ijro usuli va jozibasi bilan nafaqat yurtimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham shuhrat qozongan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev - “San'at turlari ichida o'ziga xos mazmun va chuqur ma'noga ajralib turadigan xalq qalbiga yaqin tur borki, u ham bo'lsa betakror raqs san'atidir. Nafaqat O'zbekistonda, balki butun O'rta Osiyo xalqlari orasida raqs san'atining gultoji hisoblanmish lazgi raqsi xalqimizning qadim tarixini, boy madaniyati va ma'naviyatini ko'rsata oladigan go'zal san'at turi hisoblanadi”. Lazgi raqsining paydo bo'lish tarixi, rivojlanib sayqal topishi va taraqqiyot yo'lini o'rganish uzoq yillar davomida san'atshunoslik ilmining muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etilib, davr va zamon o'tsahamki o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shuningdek, lazgining orginal ijro uslublari, jozibadorligi, mazmun-mohiyati bilan farqlanadigan turlari mavjud. Uning ochilmagan sirlari bir talay. Lazgi o'z eliga, o'z beshigiga ega va u mangulikka daxldordir[1].

**Asosiy qism.** Xorazm san'ati va madaniyati to'g'risida xususan lazgi sa'nati haqida ilk ma'lumotlar va mantiqiy xulosalarni olishimiz mumkin bo'lgan dastlabki asarlar Gerodotning “Tarix, Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto, Abu Rayxon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va Mahmud Az Zamaxshariyning “Muqaddimatul adab” asarlari ko'plab olimlarning ilmiy ishlari uchun foydali manbalar hisoblanadi. Shuningdek, S.P. Tolstovning “Qadimgi Xorazm madaniyatini “izlab”, Iso Jabborovning “Ko'hna harobalar siri”, T. Qilichevning “Xorazm xalq teatri”, V. Abdiyevning “Qadimgi Sharq tarixi”, M. Raxmonovning “O'zbek teatrining tarixi,” va Xorazm Ma'mun Akademiyasi arxivlarida saqlanayotgan qo'lyozmalari ham katta ahamiyatga ega.

Xususan, “Avesto,” Gerodotning “Tarix” va Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida raqslarning kelib chiqishi va shakllanishini bevosita ibtidoiy davrdagi ov jarayonlariga, xalqlar o'rtasidagi an'nana va urf – odatlarga bog'lagan holda ma'lumotlar keltirilgan. Sovet ittifoqi davrida lazgining shakllanishiga oid ilmiy-tadqiqotlar olib borilishiga O'zbekiston Xalq artisti, taniqli ustoz va baletmeystrlar Tamaraxonim va Gavhar Rahimova, shu bilan birga Anash Cho'loq, Robiya Otajonovlarning lazgini sahna raqsiga aylantirishdagi sa'y-harakatlari asos bo'lgan.

Xorazm raqs san'ati o'zining boyligi, rang- barangligi va maftunkorligi bilan Tamaraxonimni o'ziga oshufta etgan. Xorazm raqslarida Farg'ona lirikasining nozik lirikasi, Buxoro raqsining oliyanob latofati o'z aksini topgan. Bular Xorazm raqsiga xos yorqinlik, rang-baranglik, zo'r jo'shqinlik, qizg'in g'ayrat va ehtiros bilan birga qo'shib ketgan [2].

1937- yilda taniqli arxeolog etnograf Akademik Sergey Tolstov Qadimgi Xorazm imperiyasining sirlarini o'rganish uchun keng ko'lamli etnoarxeologik ekspeditsiyalar tashkil qilgan va ko'plab qazishmalar va tadqiqotlar olib borgan.

Ekspeditsiya to'xtalishiga qaramasdan raqs rivoji uchun xayrli ishlar davom etaverdi [3].

Bu tadqiqotlar natijasida Tolstov lazgi raqs san'atining ayrim unsurlariga oid bir qator asarlar yozgan. Ularda lazgi haqida ko'plab tarixiy falsafiy ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Xususan Qadimgi Xorazm kitobida o'rta asrlarda mehmonxona va choyxonalarda odamlar yig'ilib charchog'ini chiqarish maqsadida holdan toyguncha olovga qarab raqs tushganlarini yozgan.

Yana bir olim T.Obidov esa "Xorazm masxarabozlari" kitobida olov raqsi misolida san'atning ming yillik otashparastlik odatlari va raqsning takomillashuv jarayonlarini kuzatish mumkinligini qayd etib o'tgan. Lazgi raqs turli davrlarda rahbar lavozimlarida ishlagan xodimlardan Madamin Matkarimov, Hasanboy Yo'ldoshev, Razzoq Hasanov, Ullibibi Abdullayeva, savdo xodimi Hurmat Matniyozov xorazm lazgi raqs sa'natiga katta hissa qo'shganlar.

XIX- XX asr boshlarida yashab ijod qilgan ustozlar Sharif Tog'onov, Davlat surnaychi, Qodir surnaychi, Quronboy Bobojonov, Qodir Bobojonovlar ham lazgining mohir ijrochilari bo'lganlar. Garchi amalda raqs san'atini rivojiga hissa qo'shayotganlar yangi-yangi uslublar bilan xalq orasida keng targ'ib etayotganlar ko'p bo'lsada bu borada qilingan ilmiy ishlar juda ko'p emas. Lazgiga oid fikr-mulohazalar va uning rivoji va taraqqiyot bosqichlari haqida O'rta Osiyo Movaraunnahr ayniqsa Xorazm tarixiga oid boshqa manbalardan o'zbekiston va c et davlatlarda chop etilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan Xorazm lazgisi haqida ko'p ma'lumotlarni olish mumkin. Ammo mazkur asarlarda lazgi raqs to'laqonli mukammal yoritib berilmagan. Aynan lazgi raqsiga bag'ishlangan ma'lum bir asarning bo'lishi izlanuvchi olimlar, shuningdek sohaga qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun ajoyib tuhfa bo'lishi tabiiy edi. Bu boradagi dastlabki va eng salmoqli ilmiy-tadqiqot izlanishlaridan biri xorazm xalqining farzandi mashhur raqqosa Gavharxonim Matyoqubova tomonidan ko'plab ilmiy – tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Gavhar Matyoqubova o'zi ijro etgan lazgi raqs haqida ilmiy izlanish qilgan ilk o'zbek raqqosasi hisoblanadi. Gavhar Matyoqubova tomonidan 1993-yilda Xorazm raqslari, xususan lazgi raqs turlarining paydo bo'lishi haqida "Ofatijon lazgi" deb nomlangan risola yozgan. O'zbekiston xalq artisti tadqiqotchi va baletmeystr Gavhar Matyoqubova bu bilan cheklanib qolmasdan, salkam 60 yillik san'at sohasidagi hayotiy tajribalari umumlashtirilgan bir asarni kitobxonlarga taqdim etdiki, uni o'ziga xos bir Lazgi qomusi deb atasak ham bo'ladi. 2017- yilda ming nusxada chop etilgan bu kitob jurnalist Sharqiya Eshjonova bilan ishlab chiqilgan bo'lib, unda juda keng qamrovli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Ustoz Gavhar Matyoqubova ko'plab san'at shinavandalarining takliflarini e'tiborga olib, Lazgi raqslari turkumiga kiruvchi mumtoz o'yinlarni jahondagi 40 dan ziyod mamlakatlarda o'tkazilgan konsert-gastrol safarlaridagi foto-materiallari bilan boyitib nashr ettirishga jazm etgani ham quvonarlidir.[4] Xorazm xalqining yashash tarzini, madaniyatini, sa'natini badiiiy obrazlarda namoyon etuvchi lazgi raqs chet ellik olimlar tomonidan ham keng tadqiq etilmoqda. Jumladan mustaqil raqs tadqiqotchisi Ro'za Verko o'z maqolasida shunday yozadi: "Lazgi Xorazmni ko'rish demakdir. Lazgi bu o'zingizni yaxshi his qiladigan raqs turi hisoblanadi. Lazgi so'zining ma'nosi qaltirash degan ma'noni bildiradi. Bu jonli musiqiy ritmlar va ifodali yuz mimikalari bilan birga tananing juda shiddatli harakatini tasvirlaydi"[5].

Tarixdan ma'lumki XVI-XVII asrlarda Xiva o'sha davr sa'nati va madaniyatining eng yaxshi namunalarini jamlagan va keyinchalik musiqa, teatr, va raqs san'ati rivojlangan shaharlardan biri bo'lgan. Ko'plab iste'dodlarga ega bo'lgan ijrochilar guruhi mazkur shaharga kelib, o'z san'ati va madaniyatidan O'zbekistonga kelgan chet ellik mehmonlarni manzur qilar edilar. Xorazm raqs ijro uslubini a'nanalarini yangi ijtimoiy sharoitlarda saqlash va rivojlantirishda Bekjon Madrimov, Sulon Otaniyozov, Oliya Otamurodova, Rayim ota, Qambar bola, Qodir bola, Kanarak bola, Qodirbergan

Otajonov, Karim Ollaberganov, Rahima Matkarimova, Gavhar Matyoqubova va boshqa san'atkorlarning o'rni katta va beqiyosdir[6]. Bugungi kunda ularning mashaqqatli mehnatlari samarasi o'laroq lazgi o'zbek raqs san'atining gultoji degan ulug' nomga sazovor bo'ldi. Lazgi raqsi 2019-yilda YUNESKOning nomoddiy-madaniy me'rosi ro'yxatiga kiritilgan.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bizning yurtimiz madaniyat va sanat namunalariga boy diyor. Ayniqsa yuqorida aytganimizdek raqs san'atining yaralishi insoniyat paydo bo'lgan davrdan hozirgi kungacha o'z taraqqiyot bosqichini bosib kelmoqda. Raqslar ichida eng jozibalisi bo'lgan xorazm lazgisini yanada chuqur o'rganish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ekspeditsiyalar tashkil qilish kerak. Mazkur o'rganish ishlarining natijasida ilmiy risolalar yozish maqsadga muvofiqdir. Lazgi Khorezm dance of joy and" pleasure"ya'ni lazgi quvonch va zavq raqsi sifatida tan olingan. Bu raqs o'zining qadimiyligi, ritmik harakatlari va madaniy boyligi bilan boshqa raqslardan ajralib turadi. Lazgi raqsining YUNESKOga kiritilishi uni xalqaro miqyosda e'tirof etilgan madaniy me'ros ekanligidan dalolat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdalova L. O'zbekistonda Raqs San'ati. O'z SSSR nashriyoti. – Toshkent. 1960. – B.184.
2. Verko R. Khorezm Lezgi the Sunniest Dance of Earth. – Toshkent. "Sharq". 2020. – B.125.
3. Eshjonova Sh. Lazgi. – Urganch. 2017. "Quvonchbek-Mashhura" . – B.240.
4. Verko R. Khorezm Lezgi the Sunniest Dance of EARTH. –Toshkent. 2020. "Sharq". – B. 210.
5. Abraykulova N. Raqs. – Toshkent. 2018. "Turon-Iqbol". – B.154.
6. Matyoqubova G. Ofatijon Lazgi. – Toshkent. 1993. "Adabiyot va san'at". – B.130.

UO'K 908

## XIX ASR OXIRIDA TURKISTON AHOLISINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI

*A.M.Sattarov, dots., Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon*

<https://orcid://0000-0002-6119-8765>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asrning oxirida Turkiston o'lkasida yuz bergan demografik jarayonlar va aholi tarkibidagi o'zgarishlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida chor Rossiyasining ko'chirish siyosati, o'lkadagi urbanizatsiya jarayonlari hamda 1897-yilgi birinchi umumrossiya aholi ro'yxati ma'lumotlari asosida etnik tarkibning evolyutsiyasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, migratsiya oqimlarining mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, demografiya, migratsiya, aholi ro'yxati, urbanizatsiya, etnik tarkib, mustamlaka siyosati, Rossiya imperiyasi, ko'chirish jarayonlari.

**Аннотация.** В данной статье научно анализируются демографические процессы и изменения в составе населения Туркестанского края в конце XIX века. В ходе исследования рассматриваются переселенческая политика царской России, процессы урбанизации в регионе и эволюция этнического состава на основе данных первой всеобщей переписи населения 1897 года. Также освещается влияние миграционных потоков на местную социально-экономическую жизнь.

**Ключевые слова:** Туркестан, демография, миграция, перепись населения, урбанизация, этнический состав, колониальная политика, Российская империя, переселенческие процессы.

**Abstract.** This article provides a scientific analysis of the demographic processes and changes in the population structure of the Turkestan region at the end of the 19th century. The study examines the resettlement policy of Imperial Russia, urbanization processes in the region, and the evolution of ethnic composition based on the data from the first general census of 1897. Additionally, the impact of migration flows on local socio-economic life is highlighted.

**Keywords:** Turkestan, demographics, migration, population census, urbanization, ethnic composition, colonial policy, Russian Empire, resettlement processes.

**Kirish.** XIX asrning ikkinchi yarmi Turkiston o'lkasi tarixi uchun tub burilish davri bo'ldi. Rossiya imperiyasining harbiy istilolari natijasida mintaqada nafaqat siyosiy boshqaruv o'zgardi, balki chuqur demografik transformatsiyalar yuz berdi. XIX asrning oxiriga kelib, Turkistonda aholi soni, uning tarkibi va joylashuv geografiyasi mutlaqo yangi ko'rinish oldi. Ushbu davrdagi

demografik o'zgarishlarni o'rganish mintaqadagi bugungi etnik manzara va ijtimoiy jarayonlarning ildizlarini tushinishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Turkiston demografiyasi masalasi tarixshunoslikda turli davrlarda o'rganilgan. Xususan, chor Rossiyasi davridagi statistik tadqiqotlar (masalan, I. Geyer, N. Dingelshtedt ishlari) va 1897-yilda o'tkazilgan birinchi umumrossiya aholi ro'yxati ma'lumotlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ushbu jarayonlarni zamonaviy metodologiya va xolis tarixiy yondashuv asosida qayta tahlil qilish, mustamlaka siyosatining aholi dinamikasiga ta'sirini ochib berish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

**Metodologiya.** Tadqiqot jarayonida tarixiy xolislik, tizimlilik va qiyosiy-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni umumlashtirishda o'sha davrning rasmiy hujjatlari va arxiv materiallari birlamchi manba sifatida olindi.

**Natijalar.** XIX asr oxirida Turkiston o'lkasidagi demografik jarayonlarni tahlil qilish natijasida aniqlandiki, 1897-yilda o'tkazilgan birinchi umumrossiya aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, mintaqa aholisi 5 280 983 kishini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich o'lkaning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishidan oldingi davrga nisbatan sezilarli o'sishni ko'rsatadi. Aholi sonining ortishi nafaqat mahalliy xalqlarning tabiiy ko'payishi, balki imperiyaning markaziy guberniyalaridan amalga oshirilgan tizimli migratsiya siyosati bilan bevosita bog'liq ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, migratsiya oqimlari natijasida Turkistonning etnik tarkibi tubdan transformatsiyaga uchradi. 1897-yilga kelib, o'lkada yevropalik aholi (asosan ruslar, ukrainlar va belaruslar) soni 197 mingdan oshib, umumiy aholining qariyb 4 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich ayniqsa Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarida yuqori bo'lib, u yerda harbiy-ma'muriy markazlar va qishloq xo'jaligi uchun qulay yerlar rus dehqonlari hamda harbiylari bilan jadal to'ldirib borilgan.

Urbanizatsiya jarayonlari ham ushbu davr demografiyasining ajralmas qismiga aylandi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, Turkistonning an'anaviy shaharlari (Toshkent, Samarqand, Qo'qon) yonida "yangi shahar" tipidagi manzilgohtar shakllandi. Masalan, Toshkent o'zining 155 mingdan ortiq aholisi bilan nafaqat mintaqaning, balki O'rta Osiyoning eng yirik demografik markaziga aylandi. Shaharlarda yevropalik aholining konsentratsiyasi yuqori bo'lishi bilan bir qatorda, mahalliy aholining ham savdo va sanoat rivojlanishi tufayli shaharlarga oqib kelishi kuzatildi.

XIX asr oxiridagi demografik o'zgarishlar Turkistonni yopiq hududdan ko'p millatli va murakkab ijtimoiy tarkibga ega o'lkaga aylantirdi. Rossiya imperiyasining ko'chirish siyosati mintaqaning an'anaviy demografik muvozanatini o'zgartirib, yer-suv masalalarida va millatlararo munosabatlarda yangi ijtimoiy ziddiyatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Bu jarayonlar o'lkaning keyingi iqtisodiy va siyosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

**Muhokama.** XIX asr oxiridagi Turkiston demografiyasiga oid natijalar shuni ko'rsatadiki, o'lkadagi aholi o'sishi va tarkibiy o'zgarishlar tasodifiy xarakterga ega bo'lmay, Rossiya imperiyasining uzoqni ko'zlagan geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlariga xizmat qilgan. 1897-yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlarining tahlili shuni tasdiqlaydiki, imperiya markazidan aholining ko'chirib keltirilishi shunchaki ijtimoiy bosimni kamaytirish emas, balki mintaqada "ruslashtirish" va imperiyaning mustahkam siyosiy-harbiy tayanchini yaratish maqsadini ko'zlagan. Bu jarayon ayniqsa unumdor yerlarga ega bo'lgan Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Rossiya markaziy guberniyalaridagi "yer yetishmovchiligi" muammosini Turkiston hisobiga hal qilishga urinish, mahalliy ko'chmanchi va o'troq aholining an'anaviy yer egaligi tizimiga jiddiy putur yetkazdi. Bu esa o'z navbatida, o'lka ichkarisida mahalliy aholining majburiy ichki migratsiyasiga, yaylovlarning qisqarishiga va asrlar davomida shakllangan xo'jalik yuritish usullarining inqiroziga olib keldi.

Mintaqadagi urbanizatsiya jarayonlarini muhokama qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash lozimki, Turkiston shaharlari bu davrda "ikki qiyofali" yoki "dual" tuzilishga ega bo'ldi. Bir tomondan, ming yillik tarixga ega, an'anaviy hunarmandchilik va savdo markazi bo'lgan, ko'cha tuzilishi murakkab "eski shahar", ikkinchi tomondan esa yevropacha arxitektura, rejalashtirilgan keng ko'chalar, temir yo'l va sanoat korxonalarini bilan jihozlangan "yangi shahar" qismlari vujudga keldi. Ushbu hududiy bo'linish nafaqat me'moriy, balki chuqur ijtimoiy-madaniy segregatsiyani (ajralishni) ham keltirib

chiqardi. Mahalliy aholi va ko'chirib keltirilgan yevropalik aholi o'rtasidagi muloqot asosan iqtisodiy sohalarda, bozor munosabatlarida va ma'muriy idoralarda cheklanib qoldi. Bu holat o'lkada ikki xil parallel jamiyat shakllanishiga sabab bo'ldi, bu esa keyinchalik millatlararo munosabatlardagi yashirin ziddiyatlarning poydevori bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, o'sha davrdagi demografik dinamikada paxta yakkahokimligining (monokultura) shakllanishi markaziy o'rin tutadi. Farg'ona vodiysi kabi hududlarda aholi zichligining keskin ortishi va ichki migratsion jozibadorlik aynan paxta sanoatining rivojlanishi, paxta tozalash zavodlarining qurilishi va Kaspiyorti temir yo'l tarmoqlarining yotqizilishi bilan uzviy bog'liq edi. Demografik o'sish bu yerda iqtisodiy ixtisoslashuv bilan hamnafas kechdi. Biroq bu iqtisodiy o'sish o'lka aholisining umumiy farovonligiga emas, balki xomashyo yetkazib beruvchi mustamlaka tizimini mustahkamlashga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, XIX asr oxiridagi demografik o'zgarishlar Turkistonga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi va modernizatsiya elementlarini (yangi aloqa vositalari, tibbiyot, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar) olib kelgan bo'lsa-da, bu jarayonlar mahalliy aholining manfaatlaridan ko'ra, imperiya ehtiyojlariga moslashtirilgan edi.

Yana bir muhim jihat shundaki, 1897-yilgi aholi ro'yxati o'lka aholisining savodxonlik darajasi, diniy e'tiqodi va kasbiy tarkibidagi keskin tafovutlarni ham ochib berdi. Kelgindi aholi asosan ma'muriy boshqaruv, og'ir sanoat, moliya va transport sohalarida band bo'lgan bo'lsa, mahalliy aholining mutloq ko'pchiligi qishloq xo'jaligi va an'anaviy hunarmandchilikda qoldi. Bu mehnat taqsimoti o'lkada ijtimoiy tabaqalanishning etnik tus olishiga va "milliy-ijtimoiy tengsizlik" tushunchasining shakllanishiga sabab bo'ldi. Ko'chirib keltirilgan aholining imtiyozli holati va eng yaxshi yerlarning ularga berilishi mahalliy dehqonlar orasida norozilik kayfiyatini kuchaytirdi.

**Xulosa.** XIX asr oxirida Turkiston o'lkasida kechgan demografik jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davr mintaqa tarixida an'anaviy jamiyatdan mustamlaka tipidagi jamiyatga o'tishning hal qiluvchi bosqichi bo'ldi. Rossiya imperiyasining ko'chirish siyosati va iqtisodiy modernizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan aholi sonining o'sishi va etnik tarkibning murakkablashishi mintaqaning asrlar davomida shakllangan ijtimoiy muvozanatini tubdan o'zgartirdi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, migratsiya oqimlari nafaqat demografik ko'rsatkichlarga, balki yer-suv munosabatlari va ijtimoiy tabaqalanishning yangi shakllari vujudga kelishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Mintaqada urbanizatsiyaning jadallashishi va "yangi shahar"lar paydo bo'lishi Turkistonni Rossiya imperiyasi iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlagan bo'lsa-da, bu jarayon mahalliy aholi va kelgindi aholi o'rtasida hududiy hamda madaniy segregatsiyani vujudga keltirdi. 1897-yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlari tasdiqlaganidek, etnik guruhlarining kasbiy ixtisoslashuvi va ijtimoiy imtiyozlar darajasidagi tafovutlar o'lkada "milliy masalani" yanada keskinlashtirdi. Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan demografik muhandislik, bir tomondan o'lkaga kapitalistik munosabatlar va yangi texnologiyalarni olib kirdi, ikkinchi tomondan esa mahalliy aholining o'z yerlaridan siqib chiqarilishi va an'anaviy turmush tarzining buzilishi kabi salbiy oqibatlariga sabab bo'ldi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, XIX asr oxiridagi demografik o'zgarishlar Turkistonning keyingi yuz yillikdagi ijtimoiy-siyosiy taqdirini belgilab bergan poydevor bo'ldi. Ushbu davrdagi aholi harakati va joylashuv modellari nafaqat mustamlaka davridagi ziddiyatlarni, balki zamonaviy Markaziy Osiyo davlatlarining demografik manzarasi va etnik tarkibi shakllanishining tarixiy ildizlarini ham tushuntiradi. Demografik jarayonlarning ushbu transformatsiyasi Turkistonning o'ziga xosligini o'zgartirib, uni ko'p millatli va murakkab ziddiyatlarga ega hududga aylantirdi, bu esa XX asr boshidagi inqilobiy harakatlar va ijtimoiy portlashlar uchun asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. / под ред. Н.А. Тройницкого. – СПб.: Изд. Центрального статистического комитета МВД, 1899–1905. (Turkiston viloyatlari bo'yicha alohida jildlar: Сырдарьинская область, Самаркандская область, Ферганская область).

2. Обзор Туркестанского края и деятельности администрации. – Ташкент, 1897. (Rasmiy ma'muriy hisobotlar).

3. Гейер И. И. Туркестан. – Ташкент: Изд. книжного магазина «Туркестанское товарищество», 1909.

4. Аминова Р. Х. и др. История Узбекистана (вторая половина XIX в. – начало XX в.). – Ташкент: Фан, 1993.
5. Агзамходжаев С. Туркистон мухторияти. – Тошкент: Маънавият, 2000.
6. Брилевский М. Н. Демографические процессы в Средней Азии во второй половине XIX – начале XX вв. // Вестник БГУ. – Минск, 2012.
7. Саттаров А.М. XIX аср ўрталарида Туркистондаги демографик вазият/Ўтмишга назар. – Тошкент, 2025. 8-жилд, 4 сон – Б. 52-57.
8. Sattarov A.M. Maxmudov M.A., Azimov A.M., Qurbonova M.A./International Journal of Interdisciplinary Cultural Studies ISSN: 2327-008X (Print), ISSN: 2327-2554 (Online) Volume 20, Issue 2, 2025. – P.916-929

UO'K 398.9(575.1):930.2

### QORAQALPOQ QO'SHIQLARI TARIXIY MANBA

*B.B.Turdiyev, PhD, O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali, Nukus*

**Annotatsiya.** *Maqolada qoraqalpoq tarixiy qo'shiqlarining tarixiy manbalar doirasidagi izlanishlarni kengaytirish rivojlantirish va shakllanishi buyisha bir qancha davrlarni o'z ichiga oladi. Qoraqalpoqlarning xo'jalik tiplarining shakllanishida katta ta'sirini ko'rsatgan tabiiy sharoit edi. Tarixiy qo'shiqlar hamma davrlarda xalqning turmush tarziga bog'liq paydo bo'ladi va rivojlanadi shu paytgacha qilingan tadqiqotlarga qo'shimcha manba sifatida xizmat qilishi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *Baysin, Volga-Ural, Delta, Oqtovon, shajara, Etnografiya, No'g'ayli.*

**Аннотация.** *В статье расширяется исследование исторических источников каракалпакских исторических песен, их развитие и формирование охватывают несколько периодов. Природные условия оказали большое влияние на формирование каракалпакских экономических типов. Исторические песни появляются и развиваются во все периоды в зависимости от образа жизни людей и могут служить дополнительным источником для проведенных до настоящего времени исследований.*

**Ключевые слова:** *Байсин, Волго-Урал, Дельта, Октован, генеалогическое древо, этнография, Ногайли.*

**Abstract.** *The article expands the research within the framework of historical sources of Karakalpak historical songs, their development and formation covers several periods. Natural conditions had a great influence on the formation of the Karakalpak economic types. Historical songs appear and develop in all periods depending on the lifestyle of the people and can serve as an additional source for the research carried out so far.*

**Key words:** *Baysin, Volga-Ural, Delta, Oqtovon, shajara, Ethnography, No'g'ayli.*

XVII asrdan XVIII asrning o'rtalariga qadar qoraqalpoqlarning aksariyati Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlariga tutash hududlarni egallagan [1].

*Bu tarixiy jarayonlar "Qoraqalpoq" tarixiy qo'shig'ida aks etgan:*

*Sirdaryaniñ eki boyn jayladi,  
Esapsiz mal jynap, qoydi aydadi,  
Bul Túrkiстан xaliqqa bolip paydali,  
Bir neshe jil ónip-ósti qaraqalpaq.*

*Qaraqalpaq kóshti, jerdi tasladi...  
...Úsh ayda Túrkiстан keldi qaraqalpaq.*

*Xaliqlarğa jayildi buniñ xabari,  
Qalmaqardiñ qaytip túspey sapari.  
...Bul Túrkiстан ash-arıqqa jaǵdayli  
Óz erkine dáwran súrди qaraqalpaq... [2]*

Mazkur qo'shiq satrlaridan ko'rish mumkin-ki, qoraqalpoq xalqining joylashgan joyida dehqonchilikni rivojlantirish juda qo'lay emas edi, shunga qaramasdan dehqonchilikka noqo'lay yerlarni o'zlashtirish tajribasi qoraqalpoqlarning Sirdaryo bo'ylarini o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Qoraqalpoqlarning xo'jalik tiplarining shakllanishida katta ta'sirini ko'rsatgan tabiiy sharoit bu delta landshafti edi. Qoraqalpoqlar ko'chib-qo'nib yurgan vaqtlarida ular doim daryo deltasi landshaftini tanlagan va bu tabiiy muhitda kompleks xo'jalik turlarini olib borgan. Qoraqalpoqlarning kompleks xo'jalik turlariga – dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik xo'jalik tiplari kirgan [3]. Mazkur xo'jalik tiplari qoraqalpoqlarning:

*Úsh ay qawinim,*

*Úsh ay sawinim,*

*Úsh ay qabağim,*

Úsh ay shabağim, - deb keladigan folklor qo'shiqlaridan ham ma'lum.

Qiyin tabiiy sharoitlar oldida ular qiyinchiliklarga bardosh berib, ming yillar davomida shakllangan tabiatdan foydalanish tajribalarini qo'llab, asta-sekin tabiiy sharoitni o'zlariga moslashtirdilar. Asrlar davomida qoraqalpoqlar dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik va hunarmandchilikni muvaffaqiyatli birlashtirgan murakkab xo'jalik tizimini shakllantirdi [3].

Qoraqalpoqlar jung'orlarning hujumi va dushmanlik siyosatiga qaramay, sug'oriladigan yerlarni o'zlashtirishga harakat qilishdi. Jung'or xonligining bosqinchiliklari xalq hayotini vayron qilib, jamiyatni regressiv holatiga olib kelgan edi. Zulumlardan, bosqinchilikdan, bosib oluvchilik hujumdan o'z makonini o'zgartirgan qoraqalpoq xalqi XVIII asrda Ko'ko'zak bo'yiga kelib makon tutadi, baliqchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanadi.

Ba'zan Qo'ng'iro't deb ham ataladigan (ma'muriy markazi Qo'ng'iro't shahri edi) Orol davlati, Amudaryoning og'zida joylashgan bo'lib, aslida Xiva xonligiga suv orqali – Urganch va Xivagacha bo'lgan darvoza bo'lib xizmat qilgan. Shuning uchun u xonlikning o'zi uchun strategik ahamiyatga ega edi va shunga mos ravishda Rossiya imperiyasining e'tiborini tortdi [4].

Qoraqalpoqlarning Edil-Jaiyiqdan Turkistonga, o'ndan Xorazmga, Orol dengizi atrofiga kelib o'rnatilganiga ko'p vaqt bo'lishiga qaramasdan, ota yurti Turkistonni, Edil-Jaiyiqni, Jiydeli-Boysun va boshqalarni og'zaki asarlarida mudom esga tushiradi. Xalq orasida ko'p tarqalgan tarixiy qo'shiqlarda, tarixiy to'lg'ov, termalarda rivoyat-afsonalar bilan og'zaki suhbatlarda bu holatlar keng o'rin olgan. Masalan, yuqori qoraqalpoqlar orasida tashkil qilingan 1959 yilgi ekspeditsiyaning materiallarida ham o'z ota yurtini esga tushiradigan tarixiy qo'shiqlar uchraydi:

*Ballarimniñ azığı,*

*Buzawimniñ qazığı,*

*Jiydelim sennen ayrıldım*

*Bası bala-shağaga azıq,*

*Tübi buzawğa qazıq,*

*Jiydelim sennen ayrıldım [5].*

Tarixiy qo'shiqlar har bir davrning siyosiy-ijtimoiy tizimidagi o'zgarishlarni, xalq maskanlari, el ichidan chiqqan botirlarni, xalqning turmushiga o'z ta'sirini o'tkazgan tarixiy voqealarning har turli ko'rinishlari (bosqinchilik)ni to'liq tasvirlaydi. Namangan, Farg'ona, Andijon, Buxoro va Samarqand viloyatlaridagi «yuqori» qoraqalpoqlar orasida yozib olingan ertaklarda, tarixiy rivoyat-afsonalarda xalq qo'shiqlarida, tarixiy shaxslar haqidagi (Amangeldi, Asan, Jiyrenshe sheshen va boshqalar) afsonalarda ham Xorazmda yashagan qoraqalpoq xalqining og'zaki ijodiyotining barcha turlari bo'yicha bog'liklik bor. Bu holatlar xalqning oldin bir joyda makon tutganligini, ikkinchidan, «yuqori» va «quyi» qoraqalpoqlar bilan uzluksiz aloqalar bo'lganligini so'nggi davrlarda paydo bo'lgan xalqning og'zaki asarlari misolida ko'rish mumkin. Berdaq ham «yuqori» qoraqalpoqlar orasida bo'lganligi, o'zining «Izlar edim» degan qo'shig'ida tilga olinadi:

*Sezdirmesten biy hám xanğa,*

*Hám olarğa jaqın janğa,*

*Ata jurtı Türkistanğa*

*Barıp joqıtı izler edim... [6]*

Mahalliy amaldorlarning qat'iy tartiblariga qaramasdan Berdaq o'zining qarindoshini izlab borganligi, Jien jirovning yetim qiz Minayni izlab ketishlari va «yuqori» qoraqalpoqlar orasida bo'lganligi tarixiy dalil.

Jiydeli-Boysunni makon qilgan qoraqalpoqlar dehqonchilik, chorvachilik va bog'dorchilik bilan ham shug'ullanadi. Qo'shni xo'jaliklar ularning mollarini, donlarini talab olib ketavergan. Shunday zo'ravonlikka talonchilikka qaramasdan, mehnatkash xalq o'zining ota makonidan ketmay, o'zining sevimli kasbi bilan shug'ullanadi. Mana shunday tarixiy vaziyatlarning ko'rinishini otabobolarimiz quyidagi naql so'zlar bilan yodga tushirgan:

*Barimtadan qoriqqan mal jiymas,  
Shegirtkeden qoriqqan egin ekpes.*

Har qanday og'zaki xalq ijodining o'ziga xos tarixi bor. Bir vaqtlari Andijondagi Qoradaryo bilan Oqdaryoning orasidagi Miyanko'lni egallagan qoraqalpoqlar dehqonchilik, chorvachilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Sababi, XVII asrdan boshlab ichki Rossiya bilan O'rta Osiyo va Xorazm orasidagi savdo yo'llari Sirdaryo bo'yida yashagan qoraqalpoqlarning ustidan o'tadigan bo'lgan, xalq o'zining chorvachilik mahsulotlarini Buxoroga, Xivaga, hatto Rossiyaga ham yuboradigan bo'lgan. Shu davrdagi xalqning savdo-sotiq ishlarini tanishtiradigan materiallar tarixiy xalq qo'shiqlarida dostonlarida o'z aksini topgan. Masalan,

*At bolipti Miyan koldin taylari  
Qoyin satip qozu qilgan baylari*

degan qo'shiq qatorlarida Miyan ko'lining egallagan xalqning savdo-sotiq ishlarini o'zlariga kasb etganligini tanishtiradi.

Tarixiy rivoyat va afsonalarda ota yurti Turkistondan ko'chgan xalq Buxoro, Qo'qon xonliklaridan chidab bo'lmaslik darajada azob chekadi. Masalan, Qo'qon xonligining zo'ravonligi, qizlarning xonga qarshi noroziligi, Asanning vafoti bilan to'gaydi va Miyanko'lni egallagan qoraqalpoqlar ko'chishga majbur bo'ladi. Atoqli shoir Berdaq shu tarixiy afsona asosida o'zining «Amangeldi» poemasi yaratgan.

Ota makonga bo'lgan xalqning yurak his-tuyg'ularini tanishtiradigan xalq ijodiyoti juda ko'p, Namangan viloyatidan yozib olingan materiallarda xalq ko'p yillargacha qamish o'tovlarda yashagan. Agarda uy qurib yashab kolsak, ota makonimiz Turkistonga qayta ko'chib bora olmay qolishimiz mumkin deb xavfsiragan.

Ota yurti Turkistonni armon etish qayta ko'chib borish tilaklari, armonlari, hatto quyi qoraqalpoqlar orasida ham bo'lgan, Mahalliy amaldorlarning zulmi, Xiva xonligining og'ir solig'i, har turli zulmning joniga tekkan holatda makonga qayta ko'chsak ham bo'lardi, biroq yo'li uzoq, otulovimiz yo'q, yo'lga qariyalar bilan bolalarimiz yararmikan degan xis-tuyg'ulari tarixiy qo'shiqlarda kuylanadi. Shoir Ibrayim Yusupov tomonidan 1946-yili Kegeyli tumanining xududidan yozib olingan «Baysinga» degan tarixiy qo'shiqda shu holatlar haqida so'z yuritiladi.

*Zorliq zahmetinen el kósher  
Shiyrin janin otqa túser...  
Záhár qosilip asina,  
Baylar kaldı kóz jasına,  
Jaqshılıq túsip basına,  
Ketip baramız Baysingá.  
Ugıl atağa qaramas,  
Hesh bir halında soramas,  
Garrılar jolğa jaramas,  
Netip baramız Baysingá.  
Bir qudağa bende bolsa,  
Shiyrin janı tánde bolsa,  
Topırağı onda bolsa,  
Shul bände barur Baysingá [5].*

Qo'shiqda och xalqning og'ir turmushi, hukmron guruhlar tomonidan ezilganligi, ota makoni Boysunga borish uchun ot-ulovning yo'qligi, och odamning yo'lga yaramasligi ta'riflangan.

*Qatınlar kiymes kiymeshek  
Kúshi jetken alar eshek,  
Kóp adamda joqdur tósek,*

*Netip baramiz Baysing'a.  
Dushpannan ketti jayimiz,  
Ashqa qaramas bayimiz,  
Minbege ázzi tayimiz,  
Netip baramiz Baysing'a... [5]*

Xalqimiz Edil-Jaiyqda (Volga-Uralda), Turkistonda ko'p davrlar yashagan, shuning uchun ham xalq o'zining og'zaki asarlarida bu dilga issiq makonlarining nomini har doim eslaydi.

Yuqoridagi misollarda ko'rganimizdek, xalq ijodiyotining qaysi bir turini olib qaramaylik, unda xalqimizning tarixi keng o'rnini topgan.

Jung'arlarning 1723 yilgi hujumi qoraqalpoqlarni ham o'z makonidan quvub chiqarib, ularning «yuqori», «quyi» qoraqalpoqlar bo'lib bo'linishiga olib keldi. Bu davr qozoq xalqining tarixida «Oqtovon darbadarligi» deb ataladi. 1743 yilgi va 1762 yilgi kichik yuz qozoq xonligining hujumlari qoraqalpoqlarning Janadaryo bo'ylariga, Xorazmga qarab ko'chishiga va ularning bir necha guruhga bo'linishiga olib keldi. Bu holatlar og'zaki xalq ijodiyotida o'z aksini topgan. Mumtoz shoirlarimiz bu holatlarni o'z asarlarida tarixiy tasvirlaydi. Masalan, Berdaq o'zining tarixiy «Shejire» poemasi:

*Turkistannan Qo'urat kóshti,  
Sirdáryağa kelip tústi,  
Búlingenler jáne kóshti,  
Diyqanshılıq qilgan eken [6].*

Berdaqning bu ko'shig'idagi so'z qatorlarida bosqinchilikning og'ir oqibatlari qoraqalpoqlarga 1723-yilgi jung'orlarning hujumidan keyingi xalqning tarixiy hayotini tasvirlagan.

Asosan no'g'aylarning «Alti uli» degan bo'lak shohobchasi hozirgi qoraqalpoqlarning otobobolari bo'lishida mumkin. Sababi, ularning maskani va makon o'zgarishlari qoraqalpoqlarning Berdaq aytgan shajarasidagi «Bari olti urug' qoraqalpoq» degan so'zlariga to'g'ri keladi.

*Múyten, Qo'urat, Qitay, Qipshaq,  
Keneges, Mańgit, Aqıshaq,  
Bári alti urıw qaraqalpaq,  
Úrgenishti jaylagan eken [6].*

Umuman olganda, XVIII asrda qoraqalpoq xalqi og'ir tarixiy voqealarni boshdan kechirdi. Bu voqealar esa shu paytlarda yozib olinmagan, ammo tarixiy qo'shiqlar orqali og'izdan-og'izga ko'chib bugungi kungacha yetib kelgan. Qo'shiqlarni tahlil qilib ko'rganimizda, undagi keltirilgan voqealar tarixiy voqelik bilan mos kelmoqda va tarixiy qo'shiqlarning tarixiy voqelikni yoritishdagi o'rnini ko'rsatib berishdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Нурмухамедов М., Жданко Т., Камалов С. Каракалпаки. Краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Фан, 1971. – С. 21.
2. ӨзИАҚҚБ фундаментал китапханасы қолжазбалар фонды, инв. № 34657
3. Баллиева Р. Каракалпакский этнос и традиционное природопользование. – Ташкент, 2023. – с. 87.
4. Почекаев Р.К. истории «Буферных государств» на границах России:
5. Қожықбаев Ө. Тарийхый қосықлар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1980. – Б. 19.
6. Бердақ. Таңламалы шығармаларының толық жыйнағы. – Нөкис, 1950.– Б. 15.

UO'K 908

### TEMURIYLAR DAVRI RENESSANSIGA BA'ZI CHIZGILAR

*M.Sh.Usmonov, dots., Qarshi davlat universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichiga oid yangi manbalar tahliliga asoslanib, XIV-XVI asrlarda Turonda sodir bo'lgan Temuriylar davri Renessansining o'ziga xos jihatlarni ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo sivilizatsiyasi, Turon tarixining "Oltin davri", Uyg'onish davri, "Musulmon-Renessansi", "Sharq Renessansi" "Temuriylar Renessansi", Tamerlan (Temurlan), Ma'mun akademiyasi, Mirzo Ulug'bek akademiyasi

**Аннотация.** В данной статье на основе анализа новых источников, относящихся ко второму этапу эпохи Возрождения, рассматриваются особенности Ренессанса эпохи Тимуридов, происходившего в Туране в XIV–XVI веках.

**Ключевые слова:** цивилизация Средней Азии, «Золотой век» истории Турана, эпоха Возрождения, «Мусульманский Ренессанс», «Восточный Ренессанс», «Ренессанс Тимуридов», Тамерлан (Темурлан), Академия Ма'муна, Академия Мирзо Улугбека.

**Abstract.** This article examines, based on new sources, the process of the second stage of the Renaissance (Renaissance) of Turan in the 14th – 16th centuries – the Timurid Renaissance and its specific features.

**Key words:** Central Asian civilization, "Golden Age" of Turanian history, Renaissance, "Muslim-Renaissance", "Eastern Renaissance", "Renaissance of the Timurids", Tamerlane (Temurlan), Ma'mun Academy, Mirzo Ulugbek Academy.

Jahonda hozirgi davrda “hali hanuz o‘z ta’sirini o‘tkazayotgan O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi asoschisi”, qolaversa tarixda ham o‘chmas iz qoldirgan buyuk davlat arbobi, musaffar sarkarda, mohir diplomat va ilm-fan homiysi, buyuk bobokalonimiz Amir Temur (1336-1405) asos solgan saltanat o‘ziga xos salmoqli o‘ringa egadir. “XV asr taqdirini belgilab bergan buyuk simo” – Sohibqiron va uning vorislari Turkiston, Xuroson, Ozarboyjon va Arab dunyosida bir yarim asrga yaqin hukm surib, markazlashgan salohiyatlari turkiy davlat tashkil etishgan edi.

“Turkistonning suyangan tog‘laridan biri”, – Amir Temur asos solgan tamaddun XIV-XVII asrlar Turon tarixining “Oltin davri” – Uyg‘onish davrining alohida bosqichi “Musulmon-Renessansi” (A.Mets), “Sharq Renessansi” (N.I.Konrad), hozirda “Temuriylar Renessansi” nomlari bilan jahonda e’tirof etildi va tarixga abadiy muhurlandi[1]. Taniqli fransuz olimi V.Furnyo yozadagi, “XX asr oxirida O‘zbekiston Renessansi” Temurning yangi erasi” belgisi ostida turibdi”[2].

Temuriylar davri Renessansi – Musulmon Renessansi Sharq tamadduni tojidagi javohirlardan biri sanalib, mazkur mavzuga bag‘ishlangan ba’zi tadqiqotlar yaratildi[3].

Renessansning asosiy alomatlari: tafakkurda va ilmiy ijodda dogmatizm, jaholat va mutassiblikni yoritib o‘tib, insonni ulug‘lash, uning iste’dodi, aqliy-fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish; antik davr (Yunon – Rim) madaniyatiga qaytib, uni tiklash; boyitish; cherkov sxolastikasidan qutulib, adabiyot va san’atda dunyoviy go‘zallik, hayot taronalarini qizg‘in kuylash: inson erki, hurfikrlilik uchun kurashish. Buning natijasi o‘laroq, ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulug‘vor badiiy asarlar, salobatli binolar yaratildi, ilm-fan rivojlantirildi[4].

Ammo Renessans faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o‘rgangan olimlarning ishi shuni ko‘rsatadiki, Osiyo markazidagi Turkiston, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (XI-XII asrlar) ulkan madaniy ko‘tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg‘or insonparvarlik g‘oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu dunyo ilmida “Musulmon Renessansi” (A.Mets), “Sharq Renessansi” (N.I.Konrad) nomlari bilan atalib kelinmoqda[5].

Sharq Renessansi davrida ham ulug‘ allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutaffakkirlar yetishib chiqqan. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Umar Hayyom, Mirzo Ulug‘bek, falsafa sohasida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G‘azzoliy, Aziziddin Nasafiy, she’riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Hofiz SHeroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, rassomchilikda Kamoliddin Behzodlar barakali ijod qilishgan[6].

Turonzaminda Uyg‘onish davrining birinchi bosqichida – XI-XII asrlarda ham madaniyat yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilganligini alohida ta’kidlash lozim. Olimlarning fikricha, “Musulmon Renessansi” Ma‘mun akademiyasidan boshlanib, Mirzo Ulug‘bek akademiyasi bilan tugaydigan tarixiy yetti asrlik davrini qamrab oladi. Tarix zarvaraqlariga nazar tashlasak, jamiyatning rivojiga, xalqlar taqdiriga buyuk daholarning xizmatlari beqiyos o‘rnida turganligiga guvoh bo‘lamiz. Kishilik taraqqiyotini batamom yangi yo‘nalishga sola oladigan daholar insoniyat tarixida nihoyatda ham kam uchraydi, albatta.

Turonzaminning so'nmas yulduzlaridan biri Sohibqiron Amir Temur ana shunday buyuk daholardan hisoblanib, ul zot dunyoning uch qit'asi – Osiyo, Yevropa, Afrikada keng ko'lamli siyosat yurgizgani, o'z faoliyati bilan ko'plab xalqlar, millatlarning dardiga darmon bo'lgan osoyishtalik, ilmu ma'rifat, madaniyat, obodonchiliklar olib kirganligi bilan mo'tabardir. Davr taqazosiga ko'ra, ul buyuk mo'tabar zotning zimmasiga nihoyatda mas'uliyatli vazifani bajarish ham tushgan edi. Sohibqiron buni sharaf bilan uddasidan chiqib, mo'g'ul bosqinchilaridan asorat bo'lib qolgan hududlar va xarobalar o'rnida obod va qudratli buyuk davlat barpo etgan.

Amir Temur shaxsi bilan qancha g'ururlansak, faxru-iftixor etsak, shuncha munosibdir. Binobarin, aynan buyuk Sohibqiron o'z faoliyati bilan Uyg'onish davrini boshlab bergan, bugungi saodatli kunlarimizning tamal toshini qo'ygan. Temuriylar sulolasining ro'yhati 193 nafar shahzoda va 300 nafardan ziyod malikadan iborat ekanligining o'zi hayratomuz fakt!. Bu sulola jami 488 yil hukmronlik qilganini ta'riflashga til ojiz. Binobarin, tarixda bu qadar uzoq yashagan sulola bo'lgan emas[7].

XIV-XVI asrlarda esa Sohibqiron davrining ikkinchi bosqichi boshlangan. Buning boisi shuki, Amir Temur davrida Renessans jarayonining yuz berishiga asosiy omil bu davrda insonning har tomonlama rivojlanishiga va har bir kishiga o'z qobiliyatini to'la namoyon qilishga qulay shart-sharoitlar yaratilgan edi.

Amir Temur bobokalonimiz mana shu Turonda tug'ilgani, mana shu yurtda yashab, uni yovdan ozod qilgani, buyuk davlat barpo etgani bilan barchamiz xaqli ravishda faxrlanamiz. Bu ulug' zotni bizga Xudoning o'zi bergan. Sohibqiron bizga qoldirgan meros – barcha avlodlarimizga xizmat qiladigan abadiy meros hisoblanadi.

Ikkinchi Sharq Renessansi (XIV-XVI asrlar) so'zsiz Amir Temur faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Ul zot yurtimiznim mo'g'ullardan ozod qilib, 150 yillik asoratni tugatgan. Birinchi Renessans davrida erishilgan natijalarni yanada yuksak darajaga ko'tarib, qudratli davlat tuzgan, ilmu fan, madaniyat va shaharsozlik gullab yashnagan. Dunyo ilmu-fani, madaniyat va siyosiy markazi yana Turonzaminga ko'chgan. O'rta yer dengizidan tortib, to Hindistongacha bo'lgan yerlarda me'morlik, monumental bezak, kulolchilik, xattotlik, bog'lar yaratish va qurilish sohasida "Temuriylar uslubi" nomi bilan yangi yo'nalish paydo bo'lgan.

Amerikalik olim F.Starr yozadiki: "XIV asrda G'arbda Tamerlan (Temurlan) nomi bilan Amir Temur Dehlidan O'rta yer dengizining sohillarigacha bo'lgan dunyoni bosib olib, o'zining qayta tiklangan poytaxti Samarqandda olim va ijodkorlarni to'pladi. Bir asrdan so'ng Bobur Farg'ona vodiysidan chiqib, Hindistonda Mo'g'ullar sulolasiga asos soldi. Iqtidorli shox va shoir bo'lgan Bobur Markaziy Osiyoning qadimgi an'anasini tark etmagan holda o'z saroyiga keluvchi ijodkorlarni jam etdi". Samarqandda shakllangan "Temuriylar davri Renessansi" quyosh kabi porlab Sharqu G'arb mamlakatlariga taraldi.

XIV-XVI asrlarda ro'y bergan ikkinchi Renessans natijasida dunyo ahamiyatiga molik o'nlab olimlar, fozilu - fuzalolar yetishib chiqqan. Shu sababdan ham tarixchilar Turonning ikkinchi Uyg'onishini haqli ravishda "Temuriylar Renessansi" deb atashmoqda. Bu g'oya 2014 yil 15-16 mayda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy anjumanda ham yakdillik bilan qo'llab-quvvatlandi. Hozirgi paytda yurtimiz va xalqimiz mustaqilligimiz sharofati bilan uchinchi Renessans davri bo'sag'asida turibdi, deb aytish mumkin.

Sohibqiron nafaqat barhayot insonlarga, balki o'tmishda yashab o'tgan allomalar va aziz-avliyolar xotiralarini abadiylashtirishga g'amxo'rlik ko'rsatgan, bu hol fuqarolar ongida hamisha ezgu xizmat qilganlar hech qachon unutilmaydi, degan ezgu tushunchani shakllantirgan.

Bu davrda shaharsozlik, me'morlik, tasviriy va amaliy san'at, naqqoshlik, zardo'zlik, metallga badiiy ishlov berish, xattotlik, ilm-fan va ta'lim-tarbiya, adabiyot, kitobat san'ati va kutubxonachilik, musiqashunoslik kabi sohalar nihoyatda rivojlangan. Turonzamin Renessansi Xuroson va Hindiston, hattoki, Yevropa mamlakatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Yevropa xalqlari Temuriylar Renessansini teran tahlil qila olishgan.

Amir Temur ilm-fan va madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratgan, din peshvolari, olimlar, san'atshunoslar, yozuvchilar, shoirlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatib turgan. Bu siyosat natijasida Sharq Renessansi davrining ikkinchi bosqichiga asos solgan[8].

XIV asr ikkinchi yarmi – XIV asr boshlaridagi ulkan va yorqin siymo – Amir Temur jahon tarixiga qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etib, o'rta asr dunyosining asl madaniy va ma'naviy markazlaridan biriga aylangan, inson aqli va iste'dodini noyob ijodi bo'lib, bugungi kunda ham saqlanib qolgan mislsiz me'moriy obidalar bilan mashhur Samarqandni uning poytaxtiga aylantirgan muzaffar sarkarda va buyuk davlat arbobi sifatida kirdi.

Sohibqiron olimlar, faylasuflar, me'morlar, shoirlar, hofuzu mashshoqlarga g'amxo'rlik qilishda ham nom qozongan. Temuriylar davri haqiqatdan ham ilm-fan, madaniyat va maorifning behad ravnaq topganligini ta'minlagan Sharq Renessansi davri edi. Shuningdek, muarrixlar bu jarayonni "Turon tarixining oltin davri" deb ham baholashmoqda.

Ko'plab tarixchi olimlarning fikricha, Sharq, xususan Markaziy Osiyo mintaqasi XIV – XVI asrlarda bamisoli po'rtanadek otilib chiqqanki, qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Sharq Renessansi dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olindi.

Shu bilan birga ko'plab tadqiqotchilar qayd etganidek, agar Yevropa Renessans davrining natijalari sifatida adabiyot va san'at asarlari, me'moriy durdonalar, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo'lsa, Sharq Renessansi davrining o'ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix falsafa va adabiyotning rivojida namoyon bo'ldi.

Demakki, O'zbekiston benihoya katta ilmiy salohiyati bilan dunyo taraqqiyotining tamal toshini qo'ygan ko'plab ulug' mutafakkir va allomalarga beshik bo'lgan zamin hisoblanadi. Yurtimizda XIV – XVI asrlarda tafakkur osmonida quyoshdek charaqlab, o'zining ziyosi bilan olamni yoritgan ikki qudratli ilmiy-ma'naviy yuksalish davri adabiyoti va san'at asarlari, hayratomuz me'morlik obidalar, matematika, astronomiya, tabiat, fizika, kimyo, geografiya, farmakologiya, tarix, adabiyotshunoslik, falsafa, dinshunoslik fanlari sohalaridagi buyuk tadqiqotlar yaratilgan.

Xullas, bashariyat tarixining buyuk siymosi Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida Turonzamin Renessansining ikkinchi bosqichiga tamal toshi qo'yilib, boy madaniy meros yaratilgan edi. Va nihoyat XX asr oxiri XXI asr boshlaridanoq uchunchi Renessans poydevoriga tamal toshi qo'yilib, qisqa davrda asrlarga tatigulik beqiyos va keng qamrovli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmogda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мец А. Мусульманский Ренессанс. М., 1965; Конрад Н.И. Запад и Восток. М., 1972; Hayrullayev M. O'rta Osiyodagi Uyg'onish davri madaniyati. T., 1994.; F.Sulaymonova. Sharq va G'arb. – T., 1997.; Shirinov T. Tariximiz etyudlari. T., 2014. – B. 252–254.
2. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х. Амир Темур в зеркало мировой науки. Т., 1999. – С.20.
3. Shirinov T. Ko'rsatilgan asar; Bo'riyev Ochil. Temuriylar Renessansi. – "Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari", 2016 yil 3-son, – B.123–125; Bo'riyev O., Usmonov M. Temuriylar Renessansi – Uyg'onish davrida Turonda madaniy yuksalish va hozirgi zamon. – "Demokratlashtirish va inson huquqlari", 2018 yil 4-son, – B.40–44.
4. Ismoilov I., Sharopov A. Tarix atamaları lug'ati. – T., 2013. – B.10.
5. Мец А. Мусульманский Ренессанс. М., 1965; Конрад Н.И. Запад и Восток. М., 1972; F.Sulaymonova. Sharq va G'arb. – T., 1997.
6. O'zME., 9 j. –T., 2005. – B.57.
7. Saidov A.X. Amir Temur G'arb adiblari nigohida. – T.: "Davr press", 2016. – B. 196
8. Saidov A.X. Amir Temur va Sulton Mirhaydar ota. – Qarshi, "Nasaf", 2016. –B. 52.

UO'K:392.5 (575.172)

### QORAQALPOQ AN'ANALARIDA NIKOH MAROSIMLARINING IJTIMOY-IQTISODIY ASOSLARI: "QALIN MOL" VA QARINDOSHLAR ORASIDA YORDAM AN'ANALARI

*G.M.Xojaniyazova, PhD, Innovatsion texnologiyalar universiteti, Xo'jayli*

*Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpoqlarning an'anaviy jamiyatida nikoh marosimlari tizimining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari etnologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Xususan, nikoh marosimlarida muhim o'rin tutadigan "qalin mol" to'lash an'anasi va qarindoshlar orasidagi o'zaro yordam shakllarining tarixi, ijtimoiy funksiyalari hamda madaniy ahamiyati o'rganiladi.*

*Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur an'analar faqat iqtisodiy munosabat emas, balki jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlovchi muhim madaniy institut sifatida namoyon bo'ladi.*

**Kalit so'zlar:** qoraqalpoqlar, o'zaro yordam, nikoh marosimlari, qalin mol, ijtimoiy institut.

**Аннотация.** В статье с этнологической точки зрения анализируются социально-экономические основы системы брачных обрядов в традиционном каракалпакском обществе. В частности, изучаются история, социальные функции и культурное значение традиции уплаты "кальма," занимающей важное место в брачных обрядах, а также форм взаимопомощи между родственниками. Результаты исследования показывают, что данные традиции являются не просто экономическими отношениями, но и важным культурным институтом, укрепляющим социальную сплоченность в обществе.

**Ключевые слова:** каракалпаки, взаимопомощь, брачные обряды, калым, социальный институт.

**Abstract.** This article ethnologically analyzes the socioeconomic foundations of the system of marriage rites in traditional Karakalpak society. Specifically, it examines the history, social functions, and cultural significance of the "kalym" (bride price) tradition, which holds a central place in marriage ceremonies, as well as the forms of mutual assistance among relatives. The research findings indicate that these traditions are not merely economic relations but also a vital cultural institution that strengthens social cohesion within the community.

**Keywords:** Karakalpaks, mutual assistance, marriage rites, kalym, social institution.

Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy madaniyatida nikoh marosimlari muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Qoraqalpoq xalqining oilaviy urf-odatlari ham ko'p asrlik tarixiy va madaniy tajriba asosida shakllangan bo'lib, ularda ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy aloqalar va jamoaviylik tamoyillari o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Qoraqalpoqlarda nikoh marosimlarining muhim elementlaridan biri "qalin mol" to'lash an'anasi hisoblanadi. Bu an'ana kelinning oilasiga ma'lum miqdorda mol-mulk yoki moddiy qimmatliklar berish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, nikoh marosimlarini tashkil etishda qarindosh-urug' va mahalla aholisi tomonidan amalga oshiriladigan jamoaviy yordam an'analari ham muhim ahamiyatga ega.

*Mazkur maqolaning maqsadi* – Qoraqalpoq jamiyatida nikoh marosimlarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini tahlil qilish va qalin mol hamda qarindoshlar orasida yordam an'alarining etnologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Ijtimoiy munosabatlarda o'zaro yordam an'analari eng qiziqarli masalalardan biri bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi butun tarix davomida turli davrlarni boshdan kechirib, zamonaviy davrga moslashishga erishdi.

O'zaro yordam turlari qishloq xo'jaligi ishlari, chorvachilik, dehqonchilik, irrigatsiya ishlarida jismoniy, to'y va marosimlarda moliyaviy, ma'naviy, xayriya-saxovat yordami ko'rinishida amalga oshirilib, an'anaga aylanib borgan. Xuddi shunday an'analardan, "qalin mol" an'anasi Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan nikoh urf-odatlaridan biri hisoblanadi. Qoraqalpoqlarda bu an'ana qadimdan mavjud bo'lib, u kelinning oilasiga hurmat va minnatdorlik ramzi sifatida qaralgan.

Tadqiqotchi G.Adilova qalin pul asosan islom dinigacha turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Masalan, u Orxon-Enesey yozma yodgorliklarida, Mahmud Qoshg'ariyning asarlarida tilga olinganligini [1:114] ko'rsatadi.

Qalin pul masalasi qoraqalpoq etnograf olimlari tomonidan ham atroflicha o'rganilgan mavzular qatoriga kiradi. Etnograf U.Kusekeev [6:72-73] asosan qalin pul hisobida beriladigan 100-80-60-40 «tuwar»lar haqida so'z yuritib, ular ichida eng boshi 80 «tuwar» bo'ladi. Bosh «tuwar» besh yashar ot, keyingisi besh yashar ho'kiz bo'ladi, deb ko'rsatsa, ushbu «tuwar» masalasi bo'yicha X.Esbergenov, T.Atamuratov [5:62-63], A.Bekmuratova [4:65-66] larning asarlarida ham maxsus to'xtalib o'tiladi. A.Bekmuratova tadqiqotlarida: «Qoraqalpoqlar orasida qalin pullar hajmi juda katta bo'lib, 100, 80, 60, 40 «tuwar»ga teng bo'lgan. Bu yerda «tuwar» so'zlari qalin pulni hosil qiluvchi qora molning bosh sonini bildiradi. Qalin pulning kattaligi, asosan, turmush qurayotgan kelin va kuyovning ota-onalariga bog'liq edi. Boy oilalar 100-80 ta «tuwar» bersa; o'rta hol oilalar 60-50 ta «tuwar» bersa; kambag'allar bo'lsa 40-10 ta «tuwar» berishga kelishilgan bo'lardi. Qalin pullar

tarkibida turli ko'rinishdagi chorva mollari, oziq-ovqat, uy-ro'zg'or buyumlari berilar edi, lekin ularning qiymati bir bosh qoramolga aylantirildi» [4: 65-66] deya ko'rsatib, «*tuwar*» masalasiga aniqlik kiritadi.

N.A.Kislyakov fikricha, *qalin pul* masalasi qiz uchun to'lov, *qalin pul* qizni nikohga olish uchun bitim edi, deb ko'rsatadi [7:67]. *Qalin pul* to'lash qiyin bo'lganligi sababli, qoraqalpoqlar inqilobgacha bo'lgan davrda er xotindan 20-25 yosh katta yoki undan ham katta bo'lgan er-xotinni uchratishlari mumkinligi haqida etnograf A.Bekmuratovning asarida keltiriladi [6:65].

Shuning uchun ham *qalin puli* masalasi qoraqalpoqlarda kam ta'minlangan qarindoshlar o'rtasida o'zaro yordam berish orqali amalga oshirilgan. Etnograf X.Esbergenov, T.Atamuratov *qalin pulning* kattaligini hisobga olib: «Qoraqalpoqlarda *qalin pul* to'lash va tarqatish kichik oilaviy ko'lamga ega emas edi: unga pul yig'ishda kuyovning barcha yaqin va uzoq qarindoshlari ishtirok etgan. Ehtimol, bu uning kattaligi bilan bog'liq bo'lganidandir» [5:63], degan fikrlarni keltiradi.

Qozoq tadqiqotchisi Z. K. Suraganova tadqiqotlarida *qalin pul* masalasiga to'xtalib: «Turmush qurayotganlar ko'plab sovg'alardan tashqari, o'z qiymati bo'yicha boshqa to'y sovg'alarining qiymatidan oshib ketgan *qalin pul* va sep (*qizdiñ júgi*) almashtiriladi. Kuyov tomon kelin tarafni *qalin pul* bilan ta'minlashga majbur bo'lsa, kelin taraf o'z navbatida yangi turmush qurganlarga «*sep-jasaw*» berishga majbur bo'lgan» [10:144], deb ko'rsatadi.

Tadqiqotchi Ya. Abdullaeva qoraqalpoqlarda qizlarni turmushga uzatishda qalin olish muammolari hanuzgacha mavjud. Qalin qadimdan davom etib kelayotgan odatlardan biri hisoblanadi. Bu muammo aksariyat hollarda Markaziy Osiyo xalqlarida xotin-qizlarga nisbatan kamsitish emas, oddiy odat sifatida qaralganiga [2:196] urg'u bersalar tadqiqotchi N.M.Matkarimova tadqiqotlarida bu odat hozirgacha saqlanib, Janubiy O'zbekiston, Xorazm va Qoraqalpog'istonda katta pul hisoblanishini ta'kidlaydi [9:38].

Shunday ekan, zamonaviy qoraqalpoqlar hayotida ham, *qalin pul* masalasi – to'y an'alarida to'y marosimlari oldidan, yigit tomonidan qizning ota-onasiga o'zaro kelishuv asosida moddiy yordam evaziga beriladigan an'ana sifatida qaraladi. Ilgari *qalin pul* 40, 60, 80 «*tuwar*» deb belgilangan bo'lsa, hozirda qiz ma'lum kasbni egallagan, oliy ma'lumotlilikiga ko'ra (*hozirgi ko'rinishi*) 30 million so'mdan 50 million so'mgacha *qalin pul* belgilanmoqda. O'rta maktabni bitirib, boshqa hech qanday ma'lumotga ega bo'lmasa, 15 million so'mdan 20 million so'mgacha *qalin pul* summasi belgilanadi. Yana bir holat, qiz hali oliy o'quv yurtini to'liq tugatmagan yoki to'lov-shartnoma asosida o'qiyotgan bo'lsa, *qalin pul* masalasida o'zaro kelishuvga erishiladi. Ya'ni qizning keyingi ta'limi uchun xarajatlarini yigit tomonidan to'lash evaziga, qalin pul 15 yoki 20 million so'm atrofida belgilanadi. Olingan bu *qalin pulga* ota-onasi, nikohdan o'tayotgan qizning eng zarur bo'lgan buyumlari, xo'jalik jihozlari olsa, ma'lum miqdordagi summani esa nikoh to'yini o'tkazish uchun sarflaydi.

Hozirgi davr tadqiqotchisi S.Abashin bir qator manbalarga tayangan holda bergan ma'lumotlariga ko'ra, qalin pul kelinning bahosi uning oiladagi tarbiyasi uchun sarflangan mehnati va xarajatlari uchun o'ziga xos to'lov va *qizning sepi* uchun qiymat sifatida xizmat qilgan [3], degan fikrlarni keltirsa, V.Nalivkin va M.Nalivkina «...Qalin pulni olgandan so'ng, kelinning ota-onasi qizini kuyovga berganda qizni qalin puli miqdoriga mos ravishda uzatish majburiyatini oladi» [8:202] deb ko'rsatadi.

*Qalin pul* masalasi juda katta mablag' talab qiladigan an'analardan hisoblanadi. Shuning uchun turkiy boshqa xalqlar (xususan, buryatlar) qalin pulning yuqoriligi tufayli, nikoh qurayotgan oddiy oila uchun og'ir bo'lganidan so'ng bu an'anani qoralay boshlaganlar [11]. Qoraqalpoqlarda esa bu an'ana hanuzgacha davom etib kelayotgan an'analardan bo'lgani uchun bu masalada qarindoshlar o'rtasida o'zaro yordam berish asosida amalga oshiriladigan an'analardan biri hisoblanadi. Informatorning ma'lumotiga ko'ra: «2007-yilda o'g'lim qiz olib qochib kelib uylandi. Oilaviy ahvolimiz yaxshi emas edi. Qarindosh-urug'larim yordami evaziga 200 ming so'mdan pul yig'ib berdi. 1 million 400 ming so'm pul yig'ildi. Shundan 1 million so'mini «qalin pul»ga berdik. Opa-singillarim, qaynisingillarim dasturxon tugub olib kelishdi. Shular yordamida bu qarzimdan qutuldim. To'yini ham kech berdim. Bunda ham, aka-ukalarim, opa-singillarim yordam berishdi va yoshlarning to'yini 2010-yilda berdik»[ADY]

deb keltiradi va bunda aka-ukalarning o'zaro yordami asosida qalin pul masalasini hal qilganliklarini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, qoraqalpoqlarda bunday holatlarda beriladigan o'zaro yordam an'analarning yirik turlari ham mavjud bo'lib, ular ijro etish xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, Qoraqalpoq jamiyatida nikoh marosimlari ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni o'zida mujassam etgan murakkab madaniy tizim hisoblanadi. Qalin mol va qarindoshlar orasidagi yordam an'analari ushbu tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur an'analarni nafaqat iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, balki jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash, madaniy qadriyatlarni saqlash va avloddan avlodga yetkazish vazifasini ham bajaradi. Shu sababli, ularni etnologik nuqtayi nazardan o'rganish qoraqalpoq xalqining an'anaviy madaniyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adilova G.A. Qoraqalpog'iston qozoqlari tilidagi to'y an'alariga oid etnografizmlar // Вестник Каракалпакского отделения АН РУзб. – Нукус, 2015. - №2.
2. Абдуллаева Я. А. Коракалпогистон хотин-кизлари. Кеча ва бугун. XIX асрнинг охири XX аср. Тошкент, 2004.
3. Абашин С. Калым и махр в Средней Азии: право и ритуал? // Отечественные записки. 2003. - №5. // 2001. // [http://magazines.russ.ru/oz/2003/5/2003\\_5\\_19.html](http://magazines.russ.ru/oz/2003/5/2003_5_19.html).
4. Бекмуратова А. Быт и семья каракалпаков в прошлом и настоящем. – Нукус: Каракалпакия, 1969.
5. Есбергенов Х., Атамуратов Т. Традиции и их преобразование в городском быту каракалпаков. – Нукус: Каракалпакстан, 1975.
6. Кусекеев У. Этнография ККАССР. – Турткуль, 1934. // Рукописный фонд. Фундаментальной библиотеки ККО АН РУз., инв. № 932.
7. Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака Средней Азии и Казахстана. – Л., 1969.
8. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань, 1886.
9. Matkarimova N.M., Rahimberganova Q.E. Nikoh to'ylarida qo'llaniladigan "qalin" va "mahr" tushunchalarining tahlili// Talabalarining "Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari va Yangi O'zbekiston taraqqiyotida talaba-yoshlarning o'rni" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani. Urganch.2024.
10. Сураганова З.К. Обмен дарами в казахской традиционной культуре. – Астана: КАМ Медиа-принт, 2009. –
11. Trista Newyear. "Our Primitive Custom's" and "Lord Kalym": The Evolving Buryat Discourse on Bride Price, 1880-1930. // Online Publication Date: 01. Jan. 2009. Volume 11: Issue 1.
12. Avtorning dala yozuvlari- ADY 2022 № 21. Qarao'zak tumani informant, Iniyatova Ziybaxan.

#### UO'K 7.03(575.1)

### QANG' DAVLATI DAVRIDA SUG'DDA TASVIRIY SAN'AT, UNING XUSUSIYATLARI U.N.Xolmatova, tayanch doktorant, Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Sug'd hududida rivojlangan tasviriy san'atning ayrim jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, Qang' davlati davriga oid Qo'rg'ontepadan topilgan tasviriy lavhalar asosida o'sha davr harbiy hayoti, jang sahnalari hamda qurol-aslahalarning tasvirlarda aks etishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida tasviriy manbalar Sug'd hududiga qang'arlarning kirib kelishi hamda ularning g'alabalarini ifodalovchi ramziy sahnalar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi haqida ilmiy mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Sug'd, tasviriy san'at, Qang' davlati, Qo'rg'ontepa, tasviriy lavhalar, jang sahnalari, qurol-aslahalar, qang'arlar.

**Аннотация.** В данной статье анализируются некоторые аспекты изобразительного искусства Согда. В частности, на основе изобразительных плит, найденных в Кургантепе и относящихся к периоду государства Канг, рассматриваются сцены сражений, а также изображения оружия и военной жизни того времени. В ходе исследования высказывается предположение о том, что данные изображения могут быть связаны с проникновением кангаров в регион и отражать символику их побед.

**Ключевые слова:** Согд, изобразительное искусство, государство Канг, Кургантепа, изобразительные панели, сцены сражений, оружие, кангары.

**Abstract.** This article analyzes certain aspects of the visual arts of Sogd. In particular, based on pictorial panels discovered at Kurgantepa and dated to the period of the Kang state, the study examines battle scenes and the depiction of weapons and military life of that time. The research suggests that these images may be associated with the arrival of the Kangar groups in the region and could symbolize their victories.

**Keywords:** Sogd, visual art, Kang state, Kurgantepa, pictorial panels, battle scenes, weapons, Kangars.


**Kirish:** Ilk o'rta asrlar Sug'd madaniyati tarixi xususida ilmiy izlanishlar olib brogan olimlar A.Yu.Yakubovskiy, A.M.Belenskiy, L.I.Albaum, R.X.Sulaymonov, B.S.G'oyibov uchun asosiy manba sifatida Afrosiyob, Panjikent, Varaxsha kabi shaxar xarobalaridan topilgan devoriy suratlar manba bo'lib xizmat qilgan.

Tarixiy Sug'dning shimoliy qismlari (bugungi Nurota vohasi va unga tutash mintaqalar) madaniyat va san'at rivoj topgan hududlar bo'lgan. Jumladan, bugungi Qo'shrabot tumani hududidan topilgan Orlot qishlog'idagi Qo'rg'ontepa yodgorligi Sug'd madaniyati va san'atini o'zida yaqqol namoyon etgan, ilk o'rta asrlar davri tasviriy san'ati uchun asos bo'lgan yodgorlik hisoblanadi. Ushbu yodgorlik lo'chmanchi va o'troq madaniyat tutashgan hududda - Sug'd chegarasida joylashgan bo'lib, ushbu O'rta Osiyo xalqlarining turli hayotiy jabhalaridan namunalar kuzatish mumkin. Orlot yodgorligidagi jang va ov sahnalari ayniqsa, Panjikent va Afrosiyobdagi ayni sahnalarga har tomonlama o'xshashligi bilan alohida tavsiflanadi. Bir tomondan Qang' davlati madaniyatidagi ustuvor jihatlarni ham yaqqol ko'rsatadi. [1.c.224].

**Asosiy qism:** Qo'rg'ontepadan topilgan arxeologik ashyolar orasida yirk shoxli molning yassi suyagida chizilgan ikkita katta (o'lchami: 13,5x10,4 sm), to'rtta mayda (o'lchami 5,9x5 sm) suyak bo'laklari diqqatga sazovor. Suyaklarga chizilgan lavhalarining yuqori mahorat bilan chizilgani namoyon bo'ladi. Tasvirlar bir birini to'ldirishi va o'xshashligi bilan tavsiflanadi.

Zarafshon vohasi bo'ylab joylashgan Panjikent, Afrosiyob, Varaxsha, Qo'rg'ontepa, Kofirqal'a kabi qadimgi shahr xarobalari vohada tasviriy san'at taraqqiy etgan markazlar hisoblanadi. Ayniqsa, Samarqand va Panjikent rassomchilik maktablari bir-biriga har tomonlama yaqindir. Masalan, Varaxshadagi "Sharqiy zal" bezaklari, uning chizilishi Panjikentdagi devoriy tasvirlarga juda o'xshash, ularni bir rassom chizgan, yoki bo'lmasa boshqasi ko'chirib chizgan. Shuningdek Panjikentdagi VI/41 raqamli turar joy binolaridagi tasvir va Varaxshadagi "Qizil zal" bezaklari va tasviriy surati bir xil tasvirlangan. Faqatgina V.A.Shishkin uni Gilgameshning maxluqlar bilan jangi va Marduk ma'budning Tiamat bilan jangi deb talqin qiladi. A.M.Belenskiy esa unga qarshi fikr yuritib, tasvirlardagi jang sahnasi din bilan bog'liqligini ta'kidlab, unda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash tasvirlangan, deb hisoblaydi.[2.b.138-139]

Bu holat Qo'rg'ontepadan tasviriy san'at lavhalari orqali kuzatilishi mumkin. Yozama manbalarda bu haqida bevosita ma'lumotlar keltirilmagani bois, aksariyat hollarda o'rta asrlarga oid tasviriy san'at namunalarini talqin qilishda o'sha davradi ijtimooy-maishiy hayot, diniy qarashlar va madaniy nhayot xususiyatlari e'tiborga olinadi.



Qo'rg'ontepa yodgorligi (Orlot qishlog'i)dan topilgan, siyakka chizilgan jang lavhasi (mil.avv. II- milodiy II asrlar)

Qo'rg'ontepadan topilgan tasvirlarning birinchi guruhiga kiruvchi jang sahnasi lavhalarida to'rt juft otliqning bellashuvi keltirilgan bo'lib, ularning chap tomonda tasvirlangan ikki nafari o'ngdagi otliqlarga zarba berayotgan holatda tasvirlangan.[1.c.234]. O'ng tomondagi uch nafar jangchi tik turgan holda jangga kirishgani ko'rinadi.

Bu kabi tasvirlar Sug'dning boshqa hududlaridan topilgani bilan tavsiflanadi. Jumladan, Sharqiy Sug'd-Panch hukmdorligi markazi bo'lgan Panjikent shahri xarobalaridan topilgan devoriy suratlarda Qo'rg'ontepadan topilgan tasviriy namunalar kabi lavhalar aks etgan [3.c.139].

Ikkala manzildagi tasviriy jangchilarning tasvirlanishi, ularning qurol-aslahalari, kiyimlari bir-biriga o'xshash. Qo'rg'ontepadan topilgan suyakka chizilgan tasvirlar va Panjikent devoriy suratlari orasida 500-600 yillar oraliq mavjud bo'lishiga qaramay, Qang' davlati davridagi rassomlar maktabi va tasviriy san'atdagi uslublar avlodan-avlodga o'tib kelganini anglatadi.



**Panjikent devoriy suratlari. Jang sahnasi.VII-VIII asrlar. 3-6 obyektlar. XXV-XXXV-lavhalar**

Qo'rg'ontepada ham Qang' davlatining istilolari va harbiy harakatlarini taxmin qiladigan bo'lsak, ushbu tasvirlarning davriy chegarsi Sug'dning Qang' davlati tomonidan egallangan davri-milodiy II asr bilan sanalastirilishi mumkin. Ikkala yodgorlikdagi tasvirlarda ayniqsa, kiyimlaridagi stilistik uslublar mintaqalar o'rtasidagi madaniy aloqlarning mavjudligiga ishora beradi. Syg'dda ayniqsa, jangchilarning kiyimini o'ziga xos to'liqsimon shakldagi naqshlar bilan bezatish orqali tasvirlash o'z davrining rassomchilik ananasi bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilar Panjikent devoriy suratlardagi ushbu tasvirlarni Xorazm va Ustrushonadan topilgan ayni turdagi tasvirlar bilan solishtirgan bo'slihsiga qaramay, Qorg'ontepa tasvirlari bilan solishtirish ilk marotaba amalga oshirilmogda.

Qang' davlati davrida Sug'dda jangchilar kiyimini chizishda gulli jozibador knaqshlar chizilmagan. San'atkor va boshqa ijtimoiy toifa vakillarining kiyimlarida turli ranglar bilan bezatishga va rangli naqshlar bilan bezatishga etibor berilgan. Bu haqida yozma manbalarda ham malumotlar keltirilgani ma'lum.

Qang'arlar davrida Sug'dda shoyi bilan bir qatorda charmudan ishlangan buyumlar keng tarqalgan. Charm va xom teridan qilingan buyumlar hamda, kiyimlarni ko'chmanchi va tarim o'troq yashab, chorva bilan shug'ullanib kelgan qang'arlar ishlatgan. Charmdan o'qdonni solib yuradigan charm xaltalar, pichoq qinlari, mesh, oyoq kiyimlar tayyorlangan. 420-479- yillarga oid xitoy yilnomasida O'rta Osiyoning boshqa yerlaridan Xitoyga brogan san'atkorlarning kiyimlari ta'riflanadi. Manbada san'atkorlar tengi tor qilib tikilgan ko'ylak, boshlariga balanfd telpak kiygan holda tasvirlangan. Telpakning atrofi tepaga qayrilgan, uning chetlariga mayda qo'g'irchoqlar taqilgan. Ular boshlariga gul nusxali do'ppilar kiyishgan. O'yinchilarning bellari kumush kamar bilan bog'langan [5.c.130-131]. Bu shunchaki bir lavha emas, balki Qang' davlati davrida Sug'dda bundan ikki mimng yilcha ilgari ajdodlarimizni an'analari, moddiy-ma'naviy hayotining muhim xususiyatlarini ochib beruvchi dalillardir. Buni tadqiqotchi, olim N.Ya.Bichurin keltirgan ma.lumotlar tasdiqlaydi.

N.Bichurin ma'lumotlariga ko'ra, milodiy II-III asrlarga oid xitoy tilida yozilgan musiqa tarixiga oid asarlarda O'rta Osiyo aholisining mohir sozandalar, bastakorlar va raqqoslar bo'lgani tilga olinadi. Shuningdek ushbu asarlarda o'nlab musiqa asboblari haqida ham keltirilgan [5.c.271.311].

Sug'd hududlariga tasviriy san'atning turli uslublari kirib kelishi Moniy ibn Fatak (216-277) va uning tarafdorlari bilsn bog'liq holda ham talqin qilinadi. Moniy o'z ta'limotiga asos solishdab avval O'rta Osiyo, Hindistonga safar qilib, buddizm, braxmanizm va boshqa dinlar bilan tanishgan. Dastlab o'z ta'limotini yoyishga harakat qilgan Moniy Eronda xristianlik va mahalliy dinlarning qrashiligiga duch kelgan. Zardusht kohinlarining qarshiligiga uchragan Moniy va uning tarafdorlari Erondan qochishga majbur bo'lganlar. Natijada esa taxminan III asrning oxiri va IV asrning boshlarida uning tarafdorlari O'rta Osiyo hududida keng tarqalgan. Jumladan, Sug'dda ham moniylik dinining tarqalishi ana shu davr bilan to'g'ri keladi.

**Xulosa:** Qang' davlati davriga oid Sug'ddagi tasviriy san'at masalasiga doir ma'lumotlar asosan Qo'rg'ontepadan topilgan tasviriy lavhalar orqali ma'lum. Ushbu tasvirlarda bu davrda Sug'dda uzun qilich va nayzalar jang quroli sifatida qo'llanilgani ko'rinadi. Lavhalardagi jang sahnalari qang'arlarning mintaqaga kirib kelishlari bilan bog'liq bo'lib, ehtimol, o'z g'alabalarini ifoda etish maqsadida ular tomonidan chizdirilgan bo'lishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Пугаченкова Г.А. Образ кангюйца в согдийском искусстве (Из открытий Узбекстанской искусствоведческой экспедиции) / Из художественной сокровищницы Среднего Востока. Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1987.
2. Гойилов Б. Суғд конфедерациясида Панч мулкининг тутгна ўрни (илк ўрта асрлар миолида): тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент: ФАТИ, 2011.
3. Живопись древнего Пянджикента. Москва: АН СССР, 1954.
4. Ритфин Б.Л. Из истории культурных связей Средней Азии и Китая (II в до н.э. – VIII в. н. э.) // Проблемы востоковедения. Москва, 1960. №5.
5. Бичурин Н.Я. (Иакинф) Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. Москва-Ленинград: Изд. АН СССР, 1950. Том II.

UO'K 908

## QASHQADARYO VILOYAT O'LKASHUNOSLIK MUZEYI IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA

*X.O.Xosiyatov, mustaqil izlanuvchi, O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, dots., Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 1941–1945 yillardagi urush sharoitida Qashqadaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyi faoliyatining tashkiliy, ilmiy va mafkuraviy jihatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Ikkinchi jahon urushi, 1941–1945 yillar, Qashqadaryo viloyati, o'lkashunoslik muzeyi, muzey faoliyati, front orti, mafkuraviy targ'ibot, madaniy meros, muzey fondlari, ma'naviy-tarbiyaviy ish.

**Аннотация.** В данной статье анализируются организационные, научные и идеологические аспекты деятельности Кашкадаринского краеведческого музея в военные годы 1941–1945.

**Ключевые слова:** Вторая мировая война, 1941–1945, Кашкадаринская област, краеведческий музей, музейная деятельность, тыл, идеологическая пропаганда, культурное наследие, фонды музея, духовно-просветительская работа.

**Abstract.** This article analyzes the organizational, scientific and ideological aspects of the activities of the Kashkadarya Regional Museum of Local History in the war years of 1941–1945.

**Keywords:** World War II, 1941–1945, Kashkadarya region, museum of local history, museum activities, rear, ideological propaganda, cultural heritage, museum funds, spiritual and educational work.

**Kirish.** Ikkinchi jahon urushi (1941–1945 yy.) insoniyat tarixidagi eng yirik va halokatli voqealardan biri bo'lib, u nafaqat harbiy-siyosiy jarayonlarga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga ham keskin ta'sir ko'rsatdi. Urush yillarida sobiq Ittifoq respublikalari hududidagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati front ehtiyojlariga moslashtirildi. Shu jihatdan, Qashqadaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyi faoliyatini o'rganish urush davrida mahalliy madaniy siyosat va ma'naviy hayotning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qashqadaryo

viloyatida muzey ishi aholi o'rtasida tarixiy xotirani saqlash, vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash hamda front orti mehnatkashlarining fidoyiligini targ'ib etishda muhim o'rin tutgan. Urush sharoitida muzey ekspozitsiyalari mazmunan qayta shakllantirilib, harbiy voqealar, mahalliy qahramonlar va iqtisodiy safarbarlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1941–1945 yillarda Qashqadaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyi faoliyati urush sharoiti talablariga mos ravishda qayta tashkil etilgan. Avvalo, muzey ishining mazmun-mohiyatida mafkuraviy yo'nalish kuchaygani aniqlandi. Ekspozitsiyalarda frontdagi qahramonlik namunalari, Qashqadaryodan safarbar etilgan jangchilar haqidagi ma'lumotlar hamda front orti mehnatkashlarining hissasi ustuvor mavzularga aylangan.

**Muhokama.** Ikkinchi jahon urushi (1941–1945 yy.) insoniyat tarixidagi eng yirik va halokatli voqealardan biri bo'lib, u nafaqat harbiy-siyosiy jarayonlarga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga ham keskin ta'sir ko'rsatdi. Urush yillarida sobiq Ittifoq respublikalari hududidagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati front ehtiyojlariga moslashtirildi. Shu jihatdan, Qashqadaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyi faoliyatini o'rganish urush davrida mahalliy madaniy siyosat va ma'naviy hayotning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qashqadaryo viloyatida muzey ishi aholi o'rtasida tarixiy xotirani saqlash, vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash hamda front orti mehnatkashlarining fidoyiligini targ'ib etishda muhim o'rin tutgan. Urush sharoitida muzey ekspozitsiyalari mazmunan qayta shakllantirilib, harbiy voqealar, mahalliy qahramonlar va iqtisodiy safarbarlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Qashqadaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyi mamlakatning madaniy-ma'rifiy hamda ilmiy-tadqiqot yo'nalishidagi muhim muassasalaridan biri sifatida shakllangan. Muzeyning asosiy vazifasi hududning tarixiy, tabiiy va madaniy merosiga oid materiallarini yig'ish, tizimlashtirish va ilmiy jihatdan o'rganish asosida ekspozitsiyalar yaratishdir. Ushbu ekspozitsiyalar orqali mahalliy tarix bo'yicha ilmiy-ma'rifiy bilimlarni targ'ib qilish, aholining madaniy-siyosiy saviyasini oshirish, sovet davrida esa fuqarolarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish hamda jamiyatni umumdavlat vazifalarini bajarishga safabar etish maqsad qilingan[1]. Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida o'lkashunoslik muzeyi hududning tabiati, tarixi va zamonaviy hayotini aks ettiruvchi moddiy, yozma va tasviriy manbalarni yig'adi, saqlaydi va ilmiy asosda o'rganadi. Ushbu jarayon muzey fondlarini boyitish, ekspozitsiyalarni ilmiy jihatdan takomillashtirish va hudud bo'yicha kompleks tarixiy-etnografik tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi. Muzey faoliyatining asosiy yo'nalishlari doirasida tabiat, tarix, Ikkinchi jahon urushi, etnografiya hamda xalq ijodi bo'limlari bo'yicha doimiy ekspozitsiyalar tashkil etilgan. Shuningdek, muzey hududning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ehtiyojlaridan kelib chiqib, alohida mavzularga bag'ishlangan statsionar va ko'chma ko'rgazmalarni ham yo'lga qo'ygan.

Muzeyning ma'rifiy faoliyati keng ko'lamlil bo'lib, u muntazam ravishda ekskursiyalar, ilmiy-maslahatlar, ma'ruzalar va hududshunoslikka oid ilmiy-ma'lumotnoma tadbirlarini tashkil etgan. Bundan tashqari, muzey mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlari, arxeologik, etnografik va tabiiy-geografik yo'nalishlardagi ekspeditsiyalarni amalga oshirgan hamda o'z faoliyatini mahalliy tarixni o'rganishga ixtisoslashgan boshqa muassasalar bilan hamkorlikda muvofiqlashtirgan. Bundan tashqari, muzey jamoatchilikni jalb etgan holda viloyat, tuman va Respublika hududida joylashgan inqilob tarixi, tarixiy-madaniy yodgorliklar, arxeologik obyektlar va tabiiy merosni muhofaza qilish bo'yicha targ'ibot-tashkiliy faoliyatni ham amalga oshirgan[2]. Shuningdek, muzey umumta'lim maktablari o'quvchilari bilan ham tizimli ma'rifiy ishlarni olib brogan bo'lib, bu jarayon o'quv dasturlaridagi mavzular bilan uyg'unlashtirilgan holda tashkil etilgan. Mazkur faoliyat doirasida muzey ekspozitsiyasiga oid yo'riqnomalar, kataloglar, ilmiy-uslubiy monografiyalar va boshqa turdagi nashlar tayyorlanib, o'quvchilar va pedagoglar uchun qo'shimcha ilmiy-ma'rifiy manba sifatida foydalanishga taqdim etilgan.

Muzey direktori Moshenkov a ilmiy xodimi Abdulg'afurovlarning 1941-yilda yozgan tushuntirish xatida[3]. Quyidagilar aks etgan: 1941-yilda Qarshi o'lkashunoslik muzeyi kapital ta'mirdan so'ng 2-may sanasidan boshlab o'z faoliyatini qayta yo'lga qo'ydi. Shu yili muzey ekspozitsiyasi uch asosiy bo'limdan tarkib topgan edi: 1) Tarix bo'limi; 2) Alisher Navoiyga bag'ishlangan bo'lim; 3) Sotsialistik qurilish bo'limi.

Ulug' Vatan urushi boshlanishi bilan muzey faoliyati to'liq ravishda harbiy davr talablariga mos tarzda qayta tashkil etildi. Muzey ishida siyosiy-ma'rifiy targ'ibot, ommaviy tushuntirish ishlari va aholini ruhiy jihatdan safarbar etishga qaratilgan faoliyat ustuvor yo'nalishga aylandi. 1941-yil iyul oyidan boshlab muzey ekspozitsiyasida "Sovet xalqining qahramonona o'tmishi va uning Germaniya fashizmi bilan olib brogan Vatan urushi" nomli yangi bo'lim ochildi. Ushbu bo'limning tematik-ekspozitsion rejasi 1941-yil 29-iyulda Xalq maorifi xalq komissarligi tomonidan tasdiqlangan[4]. Urush boshlanganidan so'ng muzey ekspozitsiyasi to'liq qayta ko'rib chiqildi va rus xalqining qahramonlik tarixiga oid yangi materiallar bilan boyitildi. 1941-yilda bo'limlar soni to'rttaga etdi.

Muzey faoliyatida ma'rifiy-ma'ruzaviy ishlar alohida o'rin egalladi. Hisobot davrida jami 16 ta ma'ruza va suhbatlar tashkil etildi. Ushbu ma'ruzalar asosan Qarshi tumani hududida istiqomat qiluvchi uy bekalari, kolxozchilar hamda artel a'zolari kabi tashkilotlanmagan aholi qatlamlari orasida olib borilgan[5]. O'tkazilgan ma'ruzalar quyidagi mavzularni qamrab olgan:

1. Sovet xalqining Buyuk Vatan urushi;
2. Fashizm – ishchilar sinfi va barcha mehnatkashlarning ashaddiy dushmani.
3. Intizom, uyushqoqlik va fidoyilik -g'alaba garovi sifatida.
4. Paxta etishtirish uchun kurash – dushman ustidan g'alabaga qo'shilgan hissadir.
5. Fashistik Germaniya – ozodlik va sivilizatsiya dushmani.
6. Fashizm zulmidagi mehnatkashlarning ahvoli.
7. 5-dekabr – Stalin Konstitutsiyasi kuni.

Mazkur ma'ruzalarning tematik rejaları tumandagi O'zbekiston viloyat qo'mitasining targ'ibot bo'limi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, ularni Hafizov va Abdulg'afurov tomonidan o'qilgan[6].

O'tkazilgan ma'ruzalar va targ'ibot-suhbatlar natijasida mudofaa jamg'armasi foydasiga sezilarli miqdorda homiylik mablag'lari to'plandi. Xususan, 3910 rubl qiymatidagi obligatsiyalar, 314 rubl naqd pul yig'ildi. Bundan tashqari, "Ittifoq" va "Uchqun" arteli a'zolari 1941-yil 5-dekabr kunidagi kunlik ish haqlarini mudofaa ehtiyojlariga yo'naltirdilar. Shuningdek, jamg'arma uchun 12 dona hayvon terisi, 4 kilogramm jun, issiq kiyim va Qizil Armiya askarlari uchun mo'ljallangan issiq paypoqlar topshirildi. Muzey xodimlari yig'ilgan narsalarni front jamg'armasiga topshirdilar[7].

Qashqadaryo o'lkashunoslik muzeyining 1942-yilda bajargan ishi bo'yicha hisobotida quyidagilar yozilgan: 1942-yil 17-25-yanvar kunlari Kosonsoy suv ombori qurilishida mehnat qilayotgan kolxozchilar o'rtasida muzey xodimlari tomonidan maqsadli targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Ushbu davrda aholi ongida vatanparvarlik ruhini mustahkamlash maqsadida "Ulug' Vatan urushi va kolxoz dehqonchiligining dolzarb vazifalari" mavzusida ma'ruza o'qildi[8].

Tuman partiya qo'mitasining targ'ibot va tashviqot bo'limi topshirig'iga binoan, muzey xodimlari "Paxtakor" kolxozida tantanali yig'ilishlar tashkil etib, bir qator mavzularda ma'ruzalar o'qidilar. Jumladan, 1942-yil 21-fevralda "Qizil Armiya va Harbiy-dengiz flotining tashkil topgan kuni", 1942-yil 17- martida esa "Parij Kommunasi kuni" mavzularida ma'ruzalar o'tkazildi. Shuningdek, 1941-yil 1-mayda "1- may – Xalqaro mehnatkashlar birdamlik kuni" mavzusida ma'ruza tashkil etilgan, 1942- yil 5-may kuni esa May bayramiga bag'ishlangan Stalin farmoyishi hamda matbuot kuni munosabati bilan ma'ruza va siyosiy sharhlar o'qildi. Tuman partiya qo'mitasining birinchi kotibi topshirig'iga muvofiq, 1942-yil 20-30-may kunlari tuman harbiy komissarligida "Buyuk Vatan urushining qahramonlik sahnalari" mavzusida 10 ta ma'ruza o'qildi va mazkur tadbirlarda 800 nafardan ortiq tinglovchilar ishtirok etdi[9].

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Антонова И.А. Музейное дело в СССР: научные основы работы музеев исторического профиля: сборник научных трудов. – Москва, 1980. – 183 с.
2. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 385-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-ish, 1-varaq.
3. Пўлатов И. Буюк ғалабада Ўзбекистоннинг ҳиссаси. -Т.: Ўзбекистон. 1974. -Б.139.
4. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 385-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish, 7-varaq.
5. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 385-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish, 3-varaq.
6. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 385-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish, 3-varaq.
7. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 385-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish, 2-varaq.
8. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 385-jamg'arma, 1-ro'yxat, 5-ish, 1-varaq.
9. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 385-jamg'arma, 1-ro'yxat, 5-ish, 2-varaq.

**O'ZBEKISTONDA HUNARMANDCHILIKNING SHAKLLANISHI VA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

*H.S.Xudaybergenov, dots., PhD, Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch*

**Аннотация.** *Mazkur maqolada hunarmandchilikning shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari qadimgi davrlardan to mustaqillik yillarigacha bo'lgan jarayonlar misolida ilmiy-tahliliy asosda yoritiladi. O'zbekiston hududida hunarmandchilikning paydo bo'lishi, uning tabiiy resurslar, mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish munosabatlari bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Shuningdek, hunarmandchilikning tarmoq tuzilmasi, usta-xalfa-shogird tizimi, kasb risolalari, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada mustamlakachilik va sovet davrida hunarmandchilikning holati hamda mustaqillikdan keyin uni tiklash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.*

**Калит so'zlar:** *hunarmandchilik, xalq hunarlari, mehnat taqsimoti, usta-shogird an'anasi, Buyuk Ipak yo'li, amaliy bezak san'ati, O'zbekiston.*

**Аннотация.** *В статье на основе историко-аналитического подхода рассматриваются этапы формирования и развития ремесленничества на территории Узбекистана с древнейших времён до периода независимости. Анализируется зависимость ремесла от природных ресурсов, разделения труда и производственных отношений. Освещаются отраслевая структура ремесленничества, социальные институты мастер-подмастерье-ученик, ремесленные уставы («рисолы»), а также его экономическое и культурное значение. Особое внимание уделено состоянию ремесленничества в колониальный и советский периоды, а также процессам его возрождения и государственной поддержки в годы независимости.*

**Ключевые слова:** *ремесленничество, народные промыслы, разделение труда, традиция мастер-ученик, Великий шелковый путь, декоративно-прикладное искусство, Узбекистан.*

**Abstract.** *This article provides a historical and analytical study of the formation and development of handicrafts in Uzbekistan from ancient times to the years of independence. It examines the relationship between handicraft production and natural resources, the division of labor, and production relations. The paper analyzes the sectoral structure of handicrafts, the master-apprentice system, professional regulations, and their socio-economic and cultural significance. Particular attention is paid to the transformation of handicrafts during the colonial and Soviet periods, as well as to the processes of revival and state support in the period of independence.*

**Key words:** *handicrafts, traditional crafts, division of labor, master-apprentice system, Great Silk Road, decorative and applied arts, Uzbekistan.*

Hunarmandchilik insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy va barqaror ishlab chiqarish sohalaridan biri bo'lib, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. U insonning amaliy ehtiyojlari, mehnat tajribasi hamda tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari asosida shakllanib, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli xo'jalik shakllaridan mustaqil soha sifatida rivojlanib bordi. Hunarmandchilikning shakllanishi va takomillashuvi mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish munosabatlari hamda texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston hududi, xususan Markaziy Osiyo mintaqasi, qadimdan hunarmandchilik an'analari yuksak darajada rivojlangan hudud sifatida tanilgan. Arxeologik va etnografik ma'lumotlar bu yerda neolit davridan boshlab kulolchilik, to'qimachilik, metallga ishlov berish kabi hunar turlari mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Keyinchalik Buyuk Ipak yo'li faoliyati, shahar madaniyatining yuksalishi hamda xalqaro savdo munosabatlarning kengayishi hunarmandchilik mahsulotlarining iqtisodiy va madaniy ahamiyatini yanada oshirdi.

Hunarmand insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin *dehqonchilik* va *chorvachilika* ajralib chiqdi. Turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (*kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, tosh-taroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik,*

*tunukasoqlik va b.*) ga ajraldi.[1] Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, masalan, paxta va pilla bor erda to'qimachilik, sifatli xom-ashyo bor erda (mas., Rishton-da) kulolchilik, jun va teri ko'p yerda to'qimachilik va ko'nchilik, shunga qarab kosibchilik, o'rmonlar ko'p erda yog'ochsozlik, ma'danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo'ylarida kemasozlik va boshqalar rivoj topgan. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning uch turi shakllangan: 1) uy hunarmandchiligi; 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik.[2]

O'zbekiston hududida neolit davridayoq hunarmandchilikning dastlabki muhim tarmog'i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarish va to'qimachilik vujudga keldi.[3] (Xorazm vohasidagi *Kaltaminor madaniyati*, Surxondaryodagi *Sopollitepa* va b). Mil. av. II-asrdan boshlab hunarmandchilik mahsulotlari savdosida *Buyuk ipak yo'li* muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'rta asrlarda SHarq mamlakatlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar (*Arab xalifaligida po'lat*, *O'rta Osiyo va Hindistonda joyi, chinni, qog'oz*) evropa bozorlarida qadrlandi. Hindistonda paxtadan nafis mato, Xitoyda ipak mato to'qiydigan dastgohlar vujudga keldi, Xitoy va O'rta Osiyoda shisha tayyorlash texnologiyasi takomillasha bordi.

IX-X-asrlarda O'rta Osiyoda yirik hunarmandchilik markazlari paydo bo'ldi. Ip mato, gilam (Urganch, Shosh), shoyi (Marv), mis va temirdan yarog'-aslaha, pichoq tayyorlash (Farg'ona), shoyi matolar, shisha mahsulotlari tayyorlash (Buxoro) avj oldi. XIII-asrda mo'g'ullar bosqini hunarmandchilik rivojiga zarba berdi. Temuriylar davlatining vujudga kelishi hunarmandchilik rivojiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. [4]

O'rta Osiyoda hunarmandchilikning barcha turlari XX-asrning 20-yillarigacha saqlandi. Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xiva, Toshkent kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandlik katta rol o'ynadi (mas., XIX-asrning 60-yillarida Xivada hunarmandchilikning 27 turi rivoj topgan, shahardagi bozorlarda hunarmandlarning 556 do'koni bo'lgan, 80-yillarda shaharda 2528 xo'jalik hunarmandchilikning bilan shug'ullangan).[5]

O'zbekistondagi hunarmandchilik chuqur ixtisoslashgan bo'lib, o'zida xilma-xil kasb-korlarni birlashtirgan. Jumladan, **terini qayta ishlash sohasida ko'nchilar, etikdo'zlar, maxsido'zlar, kovushchilar, egar-jabduqchilar, telpakchilar, po'stinchilar, kamarchilar; to'qimachilik sohasida bo'zchilar, atlaschilar, gilamchilar, sholcha va namatchilar; metallni ishlash sohasida temirchilar. taqachilar. misgarlar, chilangarlar, zargarlar** kabi kasblar bo'lgan. Bular hunarmandchilikning tarmoq strukturasi belgilagan. [6]

SHarqdagi musulmon ustaxonalarida bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham chevarlik, kashtachilik bilan ayollar uyda o'tirib shug'ullanishgan (q. *Kasanachilik*). Hunarmandchilikning ijtimoiy strukturasi usta, xalfa va shogird kabi ijtimoiy toifalar mavjud bo'lgan. Hunarmandchilikning ichki tartib va qoidalarini uning nizomi sifatidagi «Risolalar» belgilab bergan. [7] Har bir kasbning o'z rahnamosi, ya'ni piri va «Risolasi» bo'lgan, avloddan-avlodga o'tuvchi odatlari va udumlariga rioya etilgan. Masalan, ish boshlashdan oldin, usta o'z pirini yodga olib, undan madad so'rash, shogirdiga fotiha berish kabi odatlarga amal qilingan.

O'zbekiston Rossiya mustamlakasiga aylangach, hunarmandchilikning metropoliya sanoatining raqobatiga duch kelib, o'zining ilgari mavqe'ini yo'qotgan bo'lishiga qaramay, uning ko'p tarmoqlari saqlanib qoldi. Chunki u milliy ehtiyojni qondiradigan tovarlarni, chunonchi, kiyim-kechak, idish-tovoq, turli uy-ro'zg'or buyumlari, mayda mehnat qurollarini yaratib, ularni mahalliy bozorga etkazib berdi. Hunarmandchilikning yashovchanligini ta'minlashda chet eldan keltirilgan xom-ashyo, materiallar, kichik uskunalar muhim rol o'ynadi. Jumladan, AQSHdan keltirilgan teri bo'yog'idan foydalanib ko'nchilar amirkon deb nomlangan yupqa charm ishlab chiqara boshladi. Shu munosabat bilan amirkon etik, mahsi va kovushlar paydo bo'ldi. Germaniyadan «Zinger» firmasining tikuv mashinalari keltirilishi bilan tikuvchilik (chevarlik) keng yoyildi. [8]

XX-asrning 20-yillarida sho'rolar hokimiyati qaror topishi bilan hunarmandlarning asosiy qismi dastlab artellarga, keyinchalik, zavod, fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga jalb qilindi. Ularga xom-ashyo, material, asbob-uskunalar davlat tomonidan etkazib beriladigan, yaratilgan mahsulotlar do'konlar va matlubot kooperasiyasi orqali sotiladigan bo'ldi. Iste'dodli hunarmandlar

ijodiy tashkilotlarga qabul qilindi, amaliy bezak san'ati rivojlantirildi (mas., 1930-yillarda Toshkentda o'quv-ishlab chiqarish kombinati tashkil etilib, yosh hunarmandlar unda ta'lim oldilar, 1968 yilda Buxoroda kandakorlar maktab ustaxonasi, 1978 yilda Qo'qonda yog'och o'ymakorligi maktab ustaxonasi tashkil topdi). [9]

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, hunarmandchilikning rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalari zahirida qaytadan tiklandi. O'zbekistonda *mahalliy sanoat* korxonalarining birinchilar qatori xususiylashtirilishi natijasida mayda davlat korxonalari hunarmandlarning xususiy korxonalariga aylantirilib, yangi hunarmandchilik korxonalari ochildi. Hunarmandchilik nafaqat ichki bozorga, balki eksportga ham ishlay boshladi. Hunarmandchilikning tashkiliy shakli ham o'zgardi, ya'ni kichik oilaviy korxonalar, yakka tartibdagi mehnat faoliyati shaklida rivojlana bordi. Xususan, 1995 y. 24-25 oktyabrda Toshkentda BMTning O'zbekistondagi doimiy vakolatxonasi bilan amaliy hamkorlikda O'zbekiston xalq ustalari va hunarmandlari 1-Respublika yarmarkasi o'tkazildi. Shuningdek, 1997 yilda respublika xalq amaliy san'ati va hunarmandlari ustalarining «Usto» ijodiy birlashmasi tashkil topdi. Respublika Prezidentining 1997 yil 31 martidagi «Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi [10] farmoni va boshqa tadbirlar O'zbekistonda hunarmandchilikning tiklanishi va yanada rivojlanishida, uning unutilgan ba'zi turlarini qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hunarmandlar dastlab O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar palatasiga, so'ngra Savdo-sanoat palatasiga kirdilar. Ular maxsus tashkilot — «Hunarmand» Respublika uyushmasiga birlashtirildi. Hunarmandchilik sub'ektlari O'zbekistonda tadbirkorlar, hunarmandlar va fermer xo'jaliklarining har yili o'tkaziladigan «Tashabbus» respublika ko'rik-tanlovida ishtirok etadilar. 1996—2005 yillar mobaynida 10 nafar hunarmand xalq hunarmandchiligida erishgan yutuqlari uchun «Tashabbus» tanlovining g'olibi deb topildi. [11]

Hunarmandchilik insoniyat tarixi va O'zbekiston madaniy merosining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, turli davrlarda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan. O'zbekiston hududida hunarmandchilik neolit davridan boshlab rivojlangan bo'lib, turli tabiiy resurslar, mahalliy an'analar va mehnat taqsimoti asosida turli ixtisoslashgan hunar turlariga bo'lingan. Tarixiy jarayonlar davomida hunarmandchilikning ijtimoiy tuzilmasi — usta, xalfa va shogird an'anasi, kasb risolalari va piri institutlari bilan belgilab berilgan. Mustamlakachilik va sovet davrida hunarmandchilik turlicha iqtisodiy sharoitlarda rivojlanib, ba'zi tarmoqlari zaiflashgan bo'lsa-da, milliy ehtiyoj va madaniy merosni saqlashda muhim rol o'ynagan. Mustaqillikdan keyin hunarmandchilikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va bozor iqtisodiyotiga moslashtirish jarayonlari bu sohaga yangi rivojlanish imkoniyatlarini berdi. Hunarmandchilik nafaqat ichki bozorni ta'minladi, balki eksport salohiyatiga ega bo'lgan, kichik korxonalar va yakka tartibdagi ishlab chiqarish shakllarini o'z ichiga olgan barqaror iqtisodiy sohaga aylantirdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Asqarov A., O'zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan V-asrgacha) T., 1994.
2. Jabbarov I., Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi, T., 1999
3. Hunarmandchilik //O'zME, 3-jild - 393-bet T.,- 2005
4. Развадовский В.Н. Опыт исследования кустарных промыслов в Туркестанском крае T., 1916
5. Tursunov I.O. "Из истории городского ремесла Северного Таджикистана", Душанбе, 1974
6. Gavrilov.M.F. "Рисола сартовских ремесленников" T., 1912
7. Razvadovskiy V.N., Опыт исследования кустарных промыслов в Туркестанском крае, T., 1916
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 31.03.1997 yildagi PF-1741-son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
9. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati, T., 1991

**BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASI IQTISODIY KENGASHIDA KADRLAR  
FAOLIYATI MASALALARI TAHLILI**

*F.J.Yarmatov, t.f.n., dots., Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz  
M.M.Allanazarov, o'qituvchi, PhD, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz*

*Annotatsiya. Maqola BXSRIqtisodiy Kengashining tuzilishi, maqsadi, vazifalari hamda uning faoliyatida mahalliy kadrlarning tutgan o'rniga va mahalliy kadrlar tayyorlash masalalariga bag'ishlangan. Xususan, BXSRIqtisodiy Kengashining tarkibi va F.Xo'jayev boshchiligida olib borilgan iqtisodiy siyosatning mazmun-mohiyati, Buxoroda demokratik davlat tuzishga ko'maklashish niqobi ostida kelgan bolsheviklar bu yerdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotga aralashib, uni Rossiya manfaatlariga burib yuborishga harakat qilganliklari arxiv materiallari asosida tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: BXSRIqtisodiy Kengashi, iqtisodiy siyosat, markazlashtirish, mahalliy kadrlar faoliyati, iqtisodiy nazorat, mahalliy kadrlar tayyorlash masalalari, yosh buxoroliklar, jadidizm.*

*Аннотация. Статья посвящена вопросам структуры сели, задачи а также роли и подготовки местных кадров в деятельности Экономического Совета БНСР. В частности над предложом помощи в созданиии в Бухаре демократического государства большевики, вмешивая в политическую, социально-экономическую жизнь, хотели подчинит всё интересам России, что анализировано на основе архивных материалов.*

*Ключевые слова: Бухарский Экономический Совет, экономическая политика, централизация, деятельность местных кадров, экономической надзор, подготовка местных кадров, малодобухарсы, джадидизм, деятолност национальных лидеров.*

*Abstract. The article is devoted to the issues of the structure and tasks of the Economic Council of the BNSR, as well as to the role and training of local personnel in its activities. In particular, under the pretext of providing assistance in establishing a democratic state in Bukhara, the Bolsheviks, by interfering in political and socio-economic life, sought to subordinate everything to the interests of Russia. This process is analyzed on the basis of archival materials.*

*Key words: Bukhara Economic Council, economic policy, centralization, activities of local personnel, economic oversight, training of local cadres, Young Bukharans, Jadidism, activities of national leaders.*

BXSRI tarixiga nazar solar ekanmiz, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Buxoro Iqtisodiy Kengashining muhim o'rin tutganligiga guvoh bo'lamiz. BXSRI da siyosiy hokimiyatni Yosh buxoroliklar qo'liga olib bergan bolsheviklar oldida turgan navbatdagi vazifa respublika iqtisodiyotini ham markazdan turib boshqarish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda sovet andozasidan foydalanish, xom ashyo va tabiiy boyliklarning Buxorodan markazga tashib ketilishini ta'minlashdan iborat edi. Shubhasiz, BXSRI da amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bolsheviklarni qoniqtirmas edi. Ayniqsa F.Xo'jayev boshchiligidagi hukumatning real mustaqillikni qo'lga kiritishga intilishi Markaz vakillarini tashvishga solardi. Natijada BXSRI ustidan siyosiy va iqtisodiy nazoratni kuchaytirish yo'li tanlandi. Ushbu yo'nalishda Buxoro Iqtisodiy Kengashining maqsad, vazifalari hamda mahalliy kadrlar faoliyati va mahalliy kadrlar tayyorlash masalalarini tadqiq etish ham muhim sanaladi [1].

BXSRI dagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda Buxoro Iqtisodiy Kengashi muhim rol o'ynagan. U o'z faoliyatini 1921-yil 12-martda boshlagan edi. Kengash raisi etib taniqli arbob Muhitdin Mansurov tayinlangan. Buxoro Iqtisodiy Kengashi 1921-yil 9-mayda qayta tuzilib quyidagi bo'limlardan iborat bo'lgan: 1) boshqaruv; 2) ishlab chiqarish; 3) savdo; 4) oziq-ovqat; 5) paxtachilik; 6) transport; 7) harbiy; 8) moliya.

Boshqaruv bo'limi rais, uning ikki o'rinbosari va besh nafar a'zolaridan iborat bo'lgan. Buxoro Iqtisodiy Kengashi mazkur bo'limlar orqali mamlakat iqtisodiyoti ustidan nazoratni to'liq o'z qo'liga olgan. Buxoro Iqtisodiy Kengashi tashabbusi bilan 1921-yil 20-noyabrda RSFSR Savdo xalq komissarligining O'rta Osiyodagi vakili M.D.Zalsmanov va BXSRI Savdo va ishlab-chiqarish xalq

noziri A.Muhitdinov o'rtasida savdo bitimi tuzilgan. Bitimga muvofiq, Buxoro hukumati G'arbiy Yevropa bozorlariga RSFSR vositachiligida 200.000 dona qorako'l teri sotgan. RSFSR hukumati qorako'l teri uchun 200.000 rubl oltin pulda avans bergan, shuningdek, BXSР hukumati uchun kerakli bo'lgan boshqa mahsulotlarni yetkazib berishni o'z zimmasiga olgan [2].

Buxoro Iqtisodiy Kengashi aholidan paxta xom ashyosini sotib olish uchun tashkil etilgan "Buxteksil" fabrikasi ustidan ham umumiy nazorat o'rnatgan. Fabrikaning paxta qabul qiladigan punktlari Xatirchi, Karmana, Yangiqo'rg'on, G'ijduvon, Vobkent, Eski Buxoro, Laqlaqa, Kogon, Chorjo'y, Karki, Termiz va Sherabodda ochilgan. Ushbu punktlar aholidan 1921-yil mahalliy paxta xom ashyosini 225000 pud, amerika navli paxta xom ashyosini 57000 pud, jami 282000 pud paxta hosilini qabul qilgan.

Buxoro Iqtisodiy Kengashining umumiy maqsad va vazifalariga quyidagilar kirgan:

1. O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi qaroriga ko'ra, Buxoro Iqtisodiy Kengashi Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi huzurida xalq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlar ustidan umumiy nazorat o'rnatuvchi oliy organ hisoblangan.

2. Buxoro Iqtisodiy Kengashi BXSРning Oliy xo'jalik organi bo'lib, o'z faoliyati to'g'risida Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosiga va Buxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasiga (BuxMIQ) hisobot beradi.

3. Buxoro Iqtisodiy Kengashi qarorlarining bajarilishi BXSРdagi muassasalarga tegishli bo'lib, ularning bajarilishi Xalq Nozirlar Sho'rosi va Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan nazorat qilinadi.

4. Buxoro Iqtisodiy Kengashi BXSР hududida yagona xo'jalik rejalarini tadbiiq etishda, O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi qarorlari va BXSР bilan SSSR, TASSR va XXSR o'rtasida tuzilgan shartnoma va kelishuvlar asosida amalga oshiradi. O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi qarorlari mahalliy sharoitga to'g'ri kelmasa, Buxoro Iqtisodiy Kengashi, Xalq Nozirlar Sho'rosi va Markaziy Ijroiya Qo'mitasi bilan kelishilgan holda, uning ijrosini to'xtatish huquqiga ega bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, Buxoro Iqtisodiy Kengashi Xalq Nozirlar Sho'rosi huzuridagi Oliy xo'jalik organi hisoblanib, BXSР hududida o'tkaziladigan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda hal qiluvchi ovozga ega bo'lgan. Albatta, bu islohotlar Markaz va uning O'rta Osiyodagi tayanchi bo'lgan O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi ko'rsatmalariga muvofiq olib borilgan. Misol tariqasida, 1923-yil 24-noyabrda Buxoro Iqtisodiy Kengashining navbatdagi majlisida ko'rilgan masalalardan biri vaqf boshqarmasining moliyaviy faoliyatini tekshirish borasida to'xtalib o'tilgan. Majlis quyidagicha qaror chiqargan: Rahmat Rafiqov, Qori Yo'ldosh Po'latov va Musajonovlar vaqf boshqarmasi chiqimlarini tekshirish, keyingi moliyaviy ishlar loyihasini ko'rib chiqish, har qanday sabablarga ko'ra vaqf boshqarmalariga markaz yoki joylarda kassalarga ega bo'lmaslik, barcha mablag'larni markaziy bankda saqlash topshirilgan. Chunki vaqf yerlari boshqaruvi Maorif nozirligiga yuklatilgan edi. Sovetlar vaqflardan tushadigan foydani o'z nazoratlariga olishni mo'ljallagan [3].

Buxoro Iqtisodiy Kengashining tuzilishi quyidagicha bo'lgan:

a) Buxoro Iqtisodiy Kengashiga rais rahbarlik qilgan, u o'z navbatida Markaziy Ijroiya Qo'mitasi ko'rsatmasiga ko'ra Xalq Nozirlar Sho'rosi raisining o'rinbosari hisoblangan;

b) Xalq Nozirlar Sho'rosi ko'rsatmasiga ko'ra O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining vakili rais o'rinbosari bo'lgan;

v) Xalq Nozirlar Sho'rosi ko'rsatmasiga ko'ra, Davlat reja qo'mitasidan bir vakil unga kirgan [4].

Buxoro Iqtisodiy Kengashi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

1. Savdo va ishlab-chiqarish qo'mitasi.
2. Yer ishlari qo'mitasi.
3. Ichki ishlar qo'mitasi.
4. Davlat nazorati qo'mitasi.
5. Moliya qo'mitasi.
6. Kasaba uyushmasi Markaziy Kengashi.

1923-yili Buxoro Iqtisodiy Kengashining raisi Abdulqodir Muhitdinov, 1924-yilda Gaysinskiy bo'lgan. 1922-yil sentabrdan 1923-yil yanvargacha Buxoro Iqtisodiy Kengashi o'rnida Mehnat va

Mudofaa Kengashi tashkil qilinib unda A.Fitrat rais vazifasini bajargan. Buxoro Iqtisodiy Kengashining raisi, uning o'rinbosari, Davlat reja qo'mitasi va O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi vakillari birgalikda Iqtisodiy Kengash Hay'atini tashkil qilgan. Ushbu hay'at kundalik va favqulodda masalalarni hal qilish huquqiga ega bo'lgan [5].

Buxoro Iqtisodiy Kengashi xo'jalik va ma'muriy-boshqaruv sohalaridagi islohotlarda iqtisodiyot nozirliklari va boshqarmalar, kezi kelganda boshqa nozirliklar, hatto davlat nazorati, ichki nozirligi faoliyatidan ham foydalangan. Shuningdek, Buxoro Iqtisodiy Kengashi O'rta Osiyo respublikalari iqtisodiy konferensiyasi qaroriga ko'ra, joylarda xo'jalik bo'limlari ijroiya qo'mitalari, iqtisodiy nozirliklar va iqtisodiy kengash idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish, rahbarlik qilish uchun viloyat iqtisodiy kengashlarini tashkil qilgan [6].

Bu masala 1923-yil 15-avgustdagi Buxoro Iqtisodiy Kengashining navbatdagi majlisida ko'rilgan. Unda viloyat iqtisodiy kengashlarining tuzilishi, tarkibi, maqsad va vazifalari belgilab berilgan. Iqtisodiy kengash tarkibi besh kishidan iborat bo'lgan va ular quyidagi vazifalarni bajargan:

1) viloyat ijroiya komitetining raisi yoki uning o'rinbosari-kengash raisi sifatida; 2) viloyat partiya qo'mitasidan vakil; 3) moliya inspeksiyasidan vakil; 4) Davlat reja qo'mitasidan vakil; 5) hal qiluvchi ovozga ega bo'lgan viloyat statistika bo'limidan vakil, u o'z navbatida texnik inspektor vazifasini bajargan.

Demak, viloyat iqtisodiy kengashlarini tuzishdan asosiy maqsad respublika quyi bo'g'inlaridagi barcha sohalarida boshqaruvni qo'lga olish bo'lgan. Shuning uchun ham viloyat iqtisodiy kengashlari raislari o'z vakolatlaridan kelib chiqib xo'jalik hayotidagi barcha sohalar borasida ma'lumotlarni Buxoro Iqtisodiy Kengashiga yetkazib turgan. Viloyat iqtisodiy kengashi o'ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, barcha to'plangan ma'lumotlarni Buxoro Iqtisodiy Kengashiga taqdim etgan. Bundan tashqari Buxoro Iqtisodiy Kengashi viloyat iqtisodiy kengashlari kabi mahalliy idoralar ustidan umumiy nazoratni o'z qo'lga olgan [10].

BXSRda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda Buxoro Iqtisodiy Kengashi qat'iyat bilan faoliyat ko'rsatgan. Biroq uning faoliyati Markazning turli nazoratchi organlari, xususan, O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tomonidan sergaklik bilan nazorat qilingan va boshqarib turilgan. Shuning uchun ham bu tashkilot Buxoro Respublikasi hukumati arboblari ko'zlagan iqtisodiy islohotlarni to'liq amalga oshira olmagan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston MA 2027-fond, 1-ro'yxat, 12-ish, 63-varaq.
2. O'zbekiston MA 49-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 13-varaq.
3. O'zbekiston MA 49-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 13-varaq.
4. O'zbekiston MA 49-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 14-varaq.
5. O'zbekiston MA 49-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 14-varaq.
6. O'zbekiston MA 49-fond, 1-ro'yxat, 5-ish, 115-varaq.
7. O'zbekiston MA 53-fond, 2-ro'yxat, 10-ish, 60-varaq.
8. O'zbekiston MA 53-fond, 2-ro'yxat, 16-ish, 102-varaq.
9. O'zbekiston Milliy arxivi, 53-fond, 2-ro'yxat, 16-ish, 25-varaq.
10. Pardayev A.A. Buxoro va Xorazmdagi Iqtisodiy Kengashlar faoliyati (1920-1924-yillar). – Toshkent: "Yangi nashr", 2015. – 176 b.
11. История Бухарской Народной Советской Республики (1920-1924 гг). Сборник документов. – Тошкент: «Фан», 1976. – 482 с.

UO'K 025.1:004(575.1)

### O'ZBEKISTON KUTUBXONALARINI RAQAMLASHTIRILISH BORASIDAGI ILK QADAMLAR

*F.Yormatov, t.f.n., dots., Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz*  
*N.N.Egamov, tadqiqotchi, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz*

*Annotatsiya. Ushbu maqola orqali O'zbekistonda kitobshunoslik va kutubxonachilik sohasining faoliyati, uni zamon bilan hamohang tarzda rivojlantirish masalalari, kutubxonalardagi moddiy-texnik bazaning ahvoli hamda kutubxonalarning innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalangan holda o'zida mavjud muammolarga yechim topishi kabi masalalari ilmiy jihatdan o'rganib, ularni atroflicha tahlil qilib ko'rdik.*

**Kalit so'zlar:** elektron kutubxona, PDF, UZNEL, innovatsiya, elektron kitoblar, axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviylashtirish.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается деятельность книговедения и библиотечного дела в Узбекистане вопросы ее развития в гармонии со временем, состояние материально-технической базы в библиотеках, а также способы, с помощью которых библиотеки могут найти решения существующих проблем, рационально используя инновационные технологии. Мы их подробно изучили и проанализировали.

**Ключевые слова:** электронная библиотека, PDF, UZNEL, инновации, электронные книги, информационные технологии, социальные сети, модернизация.

**Abstract.** Through this article, the activities of book studies and librarianship in Uzbekistan issues of its development in harmony with the times, the state of the material and technical base in libraries, and the ways in which libraries can find solutions to existing problems by rationally using innovative technologies We have studied and analyzed them in detail.

**Key words:** electronic library, PDF, UZNEL, innovation, electronic books, information technologies, social networks, modernization.

XX asrning so'nggi yillariga kelib, mamlakatimiz kutubxonalari faoliyatiga kompyuterlar kirib keldi. Ular yordamida kutubxonachilik ish jarayonlarini avtomatlashtirish bilan kutubxonachilar mehnatini yengillashtirish, ularning ish samarasini va sifatini oshirish masalalari kun tartibiga chiqdi. Shu sababli 1994-yildan boshlab mamlakatimizdagi axborot-kutubxonalar respublikada birinchilardan bo'lib, Rossiyaning "IRBIS" dasturi asosida elektron katalog yaratish ishiga kirishdi. Elektron kataloglashtirishning joriy etilishi mamlakatimizda kutubxonachilik sohasini zamonaviylashtirishda qilingan dastlabki dadil qadamlardan biri bo'ldi, qilingan sa'y-harakatlar o'zining ijobiy natijasini ko'rsatdi. Sohada qilingan bu o'zgarishlar yaxshi natija kasb etganligi inobatga olinib, kutubxonalarni zamonaviy holatga keltirish uchun olib borilgan ishlar keyingi yillarda yana davom ettirildi. 1998-yilga kelib, kutubxona ish jarayonlari shu dastur asosida avtomatlashtirishga o'tkazila boshlandi, kitobxonlarda internet tarmog'ida ishlash imkoniyati yaratildi hamda elektron pochta aloqasi ishga tushdi. Bu zamon bilan hamnafas yoshlarning va ilmiy ish bilan shug'ullanuvchi kadrlarning xursadchiligiga sabab bo'ladigan o'zgarish bo'ldi. Endilikda mamlakatimiz kitobxonlari va tadqiqotchilari bemaol chet ellik kasbdoshlari bilan fikr almashish va chet eldagi adabiyotlardan to'liq foydalanish imkoniga ega bo'ldilar [1].

2001-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi axborot-kutubxonasida Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi bo'lib "Avtomatlashtirilgan kutubxona modeli" loyihasi doirasida respublika kutubxona xodimlarini axborot texnologiyalari savodxonligiga o'qitishga mo'ljallangan o'quv markazi ish boshladi va 150 dan ortiq kutubxona xodimi o'qitildi. Bu o'quv markazining faoliyati butun mamlakatda kutubxona xizmati sifatini oshirish uchun qilingan yaxshigina amaliy tadbir bo'ldi. Bu markazda o'qib, malaka oshirgan xodimlar qatorida Surxondaryo viloyatida faoliyat olib borgan kutubxonachilar ham o'z ish tajribalarini oshirdilar. Bu esa viloyatda kutubxonlarga xizmat ko'rsatish masalasini biroz bo'lsada yaxshilanishiga sabab bo'ldi [2].

Kutubxonaldagi hujjatlarning elektron katalogi yaratilishi jarayonida 9 mingga yaqin dissertatsiyalarning bibliografik yozuvlari elektronlashtirildi. Ammo o'sha paytda kutubxona xodimlarida bu soha bo'yicha kerakli bilim va ko'nikmalarning hamda elektron katalog tuzish madaniyatining yetarli bo'lmaganligi sababli bibliografik yozuvlarni kiritishda ko'pgina xatolar va kamchiliklar yuzaga keldi. Yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklar esa foydalanuvchilar uchun ma'lum darajadagi qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Bu kamchiliklar keyingi yillarda tajribali kadrlar tomonidan to'g'rilandi.

1999-yildan boshlab mutaxassislar sa'y-harakati bilan xorijiy tashkilotlar ko'magida "Fan, texnika, ta'lim va biznes sohalarida kutubxona, internet resurslaridan foydalanish – "Central Asia" nomi bilan ikki yilda bir marta O'zbekistonning yirik shaharlari va kutubxonalari bazasida Xalqaro anjuman o'tkazila boshlandi. Bu anjumanda dunyo mamlakatlarining ilg'or kutubxonashunos va bibliograf olimlari, kutubxonalar ish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha mutaxassislar ishtirok etdilar. Anjumanda kutubxonachilik ishini takomillashtirish, sifatli va samarali axborot xizmati

ko'rsatish, kutubxonalar ish jarayonlarini avtomatlashtirish, xodimlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash, elektron kataloglar yaratish, mamlakatlarning yig'ma elektron kataloglari, ilg'or ish tajribalari, virtual kutubxonalar, elektron kutubxonalar, ularning ishini tashkil etish, internet xizmati, internet resurslarini yaratish, xususiy elektron resurslar va ularni yaratish, masofadan turib xizmat ko'rsatish, elektron resurslar tashkil etish, o'zaro almashish, hamkorlik ishlari, elektron bibliografik resurslar yaratish va fondlarni tashkil etish kabi ko'plab masalalar muhokama qilindi [3].

Anjumanda axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish bilan bog'liq tashkilotlar – nashriyotlar, kitob savdosi tashkilotlari, kompyuter texnologiyalari ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar, dasturchilar, arxiv xodimlari qatnashib, fikr almashdilar. Bu davrda xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish va ularni kutubxonalar faoliyatiga olib kirish borasida katta ishlar bajarildi. Turli grantlar jalb etilib, Ispaniya, Italiya, Fransiya, AQSH, Germaniya, Latviya, Litva, Shvetsiya, Gruzziya, Ozarbayjon, Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi ko'plab mamlakatlar bilan hamkorlik o'rnatildi, ularning ish tajribalarini o'rganish maqsadida ijodiy safarlar, o'quv kurslari tashkil etildi. Bunda Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti kutubxonashunos-bibliograflari, talabalar, mamlakatimizning yirik kutubxonalari xodimlari faol qatnashdilar. Ayniqsa, bu borada Germaniyaning Gyote instituti faoliyati juda samarali bo'ldi. Bu institut yordamida Samarqand viloyati AKMda, Toshkent shahar sanoat kasb-hunar kollejining ARM ida nemis o'quv zallari tashkil etildi, kompyuterlar va ilg'or texnika vositalari bilan jihozlandi, adabiyotlar va elektron resurslar fondi tashkil etildi. Barcha viloyatlardan qatnashgan kutubxonachilar bu kurslar orqali katta tajribalarga ega bo'ldilar [4].

XXI asrga nisbatan "internet asri", "kompyuter asri" degan jummalarni ko'p ishlatamiz, bu bejizga emas, albatta. Buning sababi XXI asrning boshlaridan buyon butun dunyoda kompyuter texnologiyalari keng yoyila boshladi, innovatsion texnikalar dunyodagi deyarli barcha sohalarga kirib bordi. Bir qator mamlakatlarda qog'ozdan voz kechish yo'llari muhokama qilindi, kitoblar va rasmiy hujjatlar ma'lum darajada elektron shakllarga almashtirildi. Ijtimoiy va iqtisodiy hayotning ko'pgina jabhalari axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o'z faoliyatida yangi bosqichlarga ko'tarildi, ularning faoliyatida yangidan yangi qulayliklar paydo bo'ldi. Ko'pgina sohalarda yuz bergan bunday o'zgarishlar kutubxonachilik tarmog'ini ham chetlab o'tgani yo'q. Sohada "elektron kitoblar", "onlayn kutubxona" "kutubxona sayti" kabi yangi jumalalar paydo bo'ldi. Bu o'zgarishlar natijasi o'laroq masofadan turib kutubxona xizmatidan foydalanish, ulardagi manbalardan nusxa ko'chirish, kitoblarni kompyuter yoki telefonga yuklab olish kabi ishlar oddiy voqelikka aylanib qoldi. Bu borada mamlakatimizda ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Shu qatorda kutubxonachilik tizimi ham yangi texnologiyalar bilan tanishdi. Avval O'zbekistonning markaziy kutubxonalarida joriy etilgan bu o'zgarishlar keyingi yillarda viloyatlar miqyosiga ham ko'chdi [5].

Kutubxonalarini zamonaviylashtirish masalasi haqida gap ketganda, eng avvalo, uning ilmiy asosi yaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ilmiy asosga ega bo'lmagan har qanday o'zgarish oxir-oqibatda befoyda bo'lib chiqishi yoki katta zarar keltirib chiqarishi mumkinligi hech kimga sir emas. Shuning uchun mamlakatimizdagi ilmiy tadqiqotchilar va kutubxonachilik sohasi xodimlari orasidan bir qanchasi bu masalaning ilmiy asosini yaratish uchun izlanish olib bordilar. Bu orqali chet el tajribalarini o'rganigan holda zamonaviy texnologiyalardan kutubxonachilikda foydalanishning foydalari va ahamiyatli jihatlari ko'rsatib berildi. Bu turkumga kiradigan ilmiy izlanishlar, asosan, 2000-yillardan keyin amalga oshirildi. Tadqiqotchi olimlardan biri E. N. Bugibayev tomonidan axborot texnologiyalarining kutubxona sohasiga kirib kelishi natijasida kutubxonalarda qo'llanilishi kerak bo'lgan texnologik faoliyat o'rganilgan bo'lsa, korporativ tarmoqda bibliografik axborotlarni qayta ishlash masalasi esa J. A. Atadjanov tomonidan tadqiq etildi. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llagandan keyin kutubxonalarda ochiq axborot tizimi yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida, sohada axborot xavfsizligi masalasini o'rtaq tashlaydi. Bu masala ham tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgani yo'q. Tadqiqotchi Sh. B. Normatov tomonidan kutubxonalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan axborot xavfining oldini olish va axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan o'rganib chiqildi. Yana bir ilmiy izlanuvchi U. Karimov esa kutubxona tizimlarining boshqa tizimlar bilan integratsiyasini amalga oshirish masalalarini atroflicha tadqiq etdi [6].

Kataloglashtirish va axborot-kutubxona fondlarini raqamlashtirish masalasida Janubiy Koreya Respublikasining iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik jamg'armasi bilan birgalikda O'zbekiston Milliy kutubxonasining "Milliy umumta'lim elektron kutubxona"si (UZNEL) loyihasi ishlab chiqildi va bu loyiha viloyat kutubxonalariga ham tatbiq qilindi. Ushbu loyiha asosida kutubxonalarda kitobxonlar uchun rejali asosda kitoblarni raqamlashtirish ishlari olib borildi. Endilikda foydalanuvchilar kataloglar tizimi orqali o'zlariga kerakli axborotlarni oladigan bo'ldilar. Xizmatning mutaxassislari Respublika axborot-kutubxona markazining ma'lumotlar bazasida MARC-yozuvlarni yaratadilar, shuningdek, Respublika Yig'ma elektron katalogining ma'lumotlar bazasini to'ldirib, O'zbekistonning yirik axborot-kutubxonalari fondi orqali yagona axborot-qidiruv sistemasini tashkil qilish ishlarida ishtirok etdilar [7].

Yildan yilga ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilib borilgan bo'lsa ham viloyatlardagi kutubxonachilik madaniyatini, kitobxonlik darajasini yuqori deb bo'lmaydi. Buni zamon bilan hamnafas holda tashkil etilgan ijtimoiy guruhlar va kanallarning faoliyati misolida ham ko'rish mumkin. Kitobxonlik bo'yicha ishlaydigan guruh va kanallardagi foydalanuvchilarning soni ham, faolligi ham juda past. Bu esa mamlakatdada kitobxonlik darajasi unchalik yuqori emasligini ko'rsatadi. Fikrimizcha, foydalanuvchilarning soni va faolligini oshirish masalasi ko'p holatda guruh (yoki kanal)ning administratoriga, ya'ni guruhning faoliyatini olib boruvchi kutubxonachiga bog'liq bo'ladi. Uning tashkilotchilik qobiliyati, bilim darajasi va ijodkorligi bu masalada hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda kutubxonachilikni zamonaviylashtirishga shuncha e'tibor qaratilayotgani holda, kitobxonlik darajasining bunday past bo'lishi achinarli holat. Shuning uchun kitobxonlik targ'ibotini bundanda kuchaytirish masalasi yana bir bor kun tartibiga chiqadi. Targ'ibot masalasida o'qituvchilar, ziyolilar, kutubxonachilik sohasi vakillari, OAV xodimlari, blogerlar va keng jamoatchilikdan yanada kuchli mehnat va ijodkorlik talab qilinadi. Kitobsevarlikni rag'batlantirish, kitobsevarlarni o'rnak sifatida ko'rsatish kitobxonlik darajasini biroz bo'lsada yuqoriga ko'tarish uchun xizmat qilishi shubhasiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. – Toshkent. 2011.
2. Berdiyeva Z. Kutubxonashunoslik. – Toshkent. 2014.
3. Davlatov S. Kutubxonachilik ishi tarixi. – Toshkent. 2006.
4. G'aniyeva B. I. Kutubxonachilik sohasidagi izlanishlarning ilmmetrik ko'rsatkichlari. – Toshkent. 2021.
5. O'zbekiston milliy arxivi M-7 fond, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi hujjatlari.
6. Qosimova O, Yesimov T. Umumiy kutubxonashunoslik. – Toshkent. 1994.
7. Дворкина М. Я. Козлова Е. И. Теоретические вопросы создания модельных муниципальных библиотек// Библиотековедение. Т. 2019.
8. Ртвеладзе Э.В, Лившиц В.А. Памятники древней письменности. – Ташкент. 1985.

UO'K 930.1

### SHAHRISABZ DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASINING FAOLIYATI: XALQARO HAMKORLIK VA MADANIY ALMASHINUV OMILLARI

*G.M.Yuldashv, magistrant, Osiyo texnologiyalari universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Shahrisabz davlat muzey-qa'riqxonasining faoliyati xalqaro hamkorlik va madaniy almashinuv jarayonlari kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotda muzeyning ekspozitsion siyosati, ko'rgazma faoliyati hamda xorijiy ilmiy va madaniy muassasalar bilan hamkorlik aloqalarining institutsional asoslari yoritilgan.

**Kalit so'z:** Shahrisabz davlat muzey-qa'riqxonasi, ekspozitsiya siyosati, ko'rgazma faoliyati, madaniy diplomatiya, muzeyshunoslik, madaniy meros, turizm.

**Аннотация.** В данной статье анализируется деятельность Государственного музея-заповедника Шахрисабз в контексте процессов международного сотрудничества и культурного обмена. Исследование охватывает выставочную политику музея, выставочную деятельность и институциональные основы сотрудничества с зарубежными научными и культурными учреждениями.

**Ключевые слова:** Государственный музей-заповедник Шахрисабз, выставочная политика, выставочная деятельность, культурная дипломатия, музеология, культурное наследие, туризм.

**Abstract.** This article analyzes the activities of the Shahrisabz State Museum-Reserve in the context of international cooperation and cultural exchange processes. The study covers the museum's exhibition policy, exhibition activities, and the institutional foundations of cooperation with foreign scientific and cultural institutions.

**Keywords:** Shahrisabz State Museum-Reserve, exhibition policy, exhibition activities, cultural diplomacy, museology, cultural heritage, tourism.

**Kirish.** Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan zamonaviy davrda muzeylar nafaqat madaniy merosni saqlovchi muassasa, balki xalqaro madaniy hamkorlik va madaniy diplomatiyaning muhim subyekti sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, tarixiy-madaniy salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda joylashgan muzey-qo'riqxonalar xalqaro maydonda milliy merosni namoyish etish, madaniy almashinuvni rivojlantirish hamda turizmni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi. Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasi ana shunday muassasalardan biri bo'lib, o'zining boy tarixiy obidalari, ekspozitsiyalari va ko'rgazma faoliyati orqali milliy madaniy merosni saqlash va targ'ib qilish bilan bir qatorda, xorijiy muzeylar, ilmiy markazlar va madaniy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yib kelmoqda. Bu hamkorlik jarayonlari muzey faoliyatining institutsional rivojlanishiga, ilmiy izlanishlar samaradorligining oshishiga hamda xalqaro tajriba almashuviga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasining xalqaro hamkorlik yo'nalishidagi faoliyati, ekspozitsiya va ko'rgazmalarni tashkil etish tajribasi, madaniy almashinuv omillari hamda ularning muzey taraqqiyotiga ta'siri ilmiy-tahliliy asosda o'rganiladi.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillari asosiy metodologik mezon sifatida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasining faoliyati yaxlit institutsional tuzilma sifatida tahlil qilindi. Muzeyning xalqaro hamkorlik yo'nalishidagi faoliyati, ekspozitsiya va ko'rgazma siyosati hamda madaniy almashinuv jarayonlari o'zaro bog'liq omillar sifatida o'rganildi.

Qiyosiy-tahliliy usul orqali muzeyning xalqaro aloqalari boshqa tarixiy-madaniy qo'riqxonalarining tajribasi bilan taqqoslandi. Davriylik usuli yordamida hamkorlik jarayonlarining bosqichma-bosqich shakllanishi va rivojlanish dinamikasi aniqlashtirildi. Manbashunoslik tahlili asosida me'yoriy-huquqiy hujjatlar, muzeyning rasmiy hisobotlari, arxiv materiallari, statistik ma'lumotlar hamda ilmiy adabiyotlar o'zaro solishtirildi. Shuningdek, institutsional tahlil va madaniy merosni boshqarish konsepsiyalari doirasida muzeyning xalqaro maydondagi o'rni, ko'rgazma siyosati va madaniy diplomatiya jarayonlaridagi ishtiroki baholandi. Bu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

**Muhokamalar va natijalar.** O'zligimizni anglash, tariximizni chuqur o'rganish, buyuk ajdodlarimiz xotirasini e'zozlash borasidagi bu kabi izchil va xayrli ishlar barchamiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun alohida ibrat bo'ldi. «Boshqa davlatlar yo'q tarixini bor qilishga harakat qiladi. Biz buyuk tariximizni, allomalarimiz merosini xalqimizga, yoshlarimizga to'liq yetkazib berolmadik. O'zligimizni anglash nuqtai nazaridan shunday joylarga e'tibor bersak, bunga hamma e'tibor qaratadi», — dedi Shavkat Mirziyoev[1].

Mustaqillik yillarida yurtimizda tarixni yozma manbalar asosida tadqiq etishga e'tibor kuchaydi, ajdodlarimiz tomonidan uzoq o'tmishda yaratilgan madaniy-ma'naviy merosni o'rganish va targ'ib qilish dolzarb masalalar qatoriga qo'yildi. Ilm-fan, madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning unutilgan nomlari qayta tiklandi. Mohir sarkarda, davlat arbobi, ilm-fan, madaniyat homiysi bo'lgan Amir Temur ana shunday tarixiy shaxslardan biridir. Hazrat sohibqiron markazlashgan davlatga asos soldi, uni har tomonlama mustahkamlab, rivojlantirib, shon-shuhratini butun jahonga yoydi, buyuk saltanatning hukmdori sifatida millatlar va halqlarni birlashtirdi. Uning hukmdorlik yillarida madaniyat, ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa va she'riyat yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Bir so'z bilan aytganda, temuriylar davri renessansiga asos solindi.[2].

Muzeylar ma'naviy yetuk, komil insonni tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi. Ularda saqlanayotgan tarixiy ashyolar, nodir qo'lyozmalar, hujjatlar avlodlarga tarixdan, ajdodlarimiz hayoti, yuksak ma'naviyatidan hikoya qiladi. Bu esa yoshlar qalbida ota-bobolarimiz qoldirgan merosga hurmat va muhabbat uyg'otish bilan birga, ularda shu aziz Vatanga munosib farzand bo'lish tuyg'usini ham shakllantiradi.

Mustaqillik yillarida boy milliy an'analarimiz, bebaho qadriyatlarimiz, nomoddiy va madaniy-ma'rifiy merosimizni qayta tiklashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ana shunday ezgu sa'y-harakatlar samarasi tufayli buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur va temuriylarning jahon tamaddunidagi o'rni, xalqimiz, Vatanimiz oldidagi xizmatlari asl maqomiga qaytdi. Muzey binosi o'zida temuriylar davri va zamonaviy me'morchilik san'ati uslublarini mujassamlashtirgan. Amir Temur davridagi saroylar ko'rinishida qurilgan bu muazzam bino istiqlol yillarida bunyod etilgan eng noyob inshootlardan biri sanaladi. Muzeyning asosiy vazifasi–Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning yuksak darajadagi taraqqiyotini haqqoniy aks ettirish asosida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularga milliy istiqlol g'oyasini singdirishdan iborat.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi "Davlat noyob ilmiy ob'ektlari" ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, uning xazinasida O'zbekiston tarixini aks ettiruvchi 5 mingga yaqin ashyolar saqlanmoqda. Ular orasida miloddan avvalgi 2 mingyillikka oid Sopollitepa va Jarqo'ton topilmalari, Afrosiyob va Toshkentdan topilgan X-XI asrga doir sopol idishlar, Amir Temur va temuriylar davriga oid ko'plab noyob qo'lyozmalar, rasmiy hujjatlar, kumush va mis tangalar, sopol idishlar, mis buyumlar, me'moriy qoplamalar, qurol-yarog', cholg'u asboblari, etnografik buyumlar bor.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida shunday degan edi: «Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak»[3].

Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz shahar Amir Temur nomli moddiy madaniyat tarixi muzeyiga 2003 yil 9-10 may hamda 4-5 sentyabr kunlari tashrif buyurgan Yevropa xamjamiyatining "INTAS" bo'limi ekspertlari fondida va ekspozitsiyada saqlanayotgan Amir Temur va temuriylar davriga xos noyob eksponatlar bilan tanishib, mutaxassis xodimlarimiz bilan fikrlashdilar[4].

2003 yilda Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz shahar Amir Temur nomli moddiy madaniyat tarixi muzeyi xodimlari Xorijiy mamlakatlarda ko'rgazmalar tashkil etish uchun Fransiyaning Bordo shahri muzeyi hamda Bordo-3 Universiteti, Italiyaning Kaltajironi shahridagi keramika Sopol idishlar muzeyi kabi tashkilotlar bilan amaliy hamkorlik yo'lga qo'yildi. Ekspozitsiyani shakllantirish jarayonida zamonaviy texnik vositalar va jihozlar uchun 136 mln.so'mlik mablag' ajaratilib, bu vositalardan unumli foydalanildi. Muzeyda eksponatlarni uzoq saqlanishi uchun chet el sarmoyasini jalb etish maqsadida osori-atiqalarning asliga mos mulyajlarini yaratish uchun Fransiyaning Bordo-3 Universitetining texnologiya laboratoriyasi bilan hamkorlikda Yevropa kengashi granti jalb etilgan. 2006 yilda Qashqadaryo viloyat o'lkani o'rganish muzeyida Saudiya Arabistonining ko'rgazmasi o'tkazilgan.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Shaxrisabz davlat muzey-qo'riqxonasi faoliyati zamonaviy bosqichda nafaqat madaniy merosni saqlash va targ'ib qilish, balki xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va madaniy almashinuv jarayonlarini faollashtirish bilan ham chambarchas bog'liqdir. Muzeyning ekspozitsiya va ko'rgazma siyosati xalqaro tajriba bilan uyg'unlashgan holda takomillashib bormoqda hamda bu jarayon uning institutsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, Shaxrisabz davlat muzey-qo'riqxonasi faoliyati xalqaro hamkorlik va madaniy almashinuv omillari bilan uyg'unlashgan holda rivojlanib, uni zamonaviy ko'p funksiyali madaniy institut sifatida namoyon etmoqda. Бу тажриба миллий музейшунослик тараққиёти ва маданий меросни бошқариш тизимини такомиллаштиришда муҳим назарий ва амалий аҳамиятга эга.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. *Xalq so'zi // 29 yanvar. 2021 y.*
2. *X.Tashkanbaev. Amir Temur va temuriylar davrida san'at va madaniyat.*
3. *I. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent, 2008.– B.27*

4. O'zbekiston milliy arxivi, M-7-fond, 1-ro'yxat, 1342-ish, 11-varaq
5. Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi, M-38-fond 1- ro'yxat, 458-ish, 7-8 varaqlar
6. Khosiyatov Khurshid Otaqulovich. Unique macom museum in shakhrisabz.SJIF Impact Factor: 6.260| ISI I.F.Value:1.241| Journal DOI: 10.36713/epra2016 ISSN: 2455-7838(Online) EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5 | Issue: 3 | March 2020 .p-303-306.
7. Khosiyatov, K. O. (2019). History of Kashkadarya museum culture. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80), 223-226.

UO'K 373.2:347.782(575.1)

## O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

*F.Ya. Yuldosheva, tayanch doktorant, Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada 1991–2016 yillarda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar kompleks tarixiy, normativ-huquqiy va tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mustaqillikning dastlabki yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, maktabgacha ta'lim tizimining moslashuv jarayoni, 1997 yilda qabul qilingan Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [1] hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida shakllangan uzluksiz ta'lim modeli, davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi, pedagog kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi va 2006–2016 yillardagi modernizatsiya jarayonlari chuqur tahlil etiladi. Maqolada maktabgacha ta'limning milliy taraqqiyot strategiyasidagi o'rni, uning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati hamda keyingi institutsional islohotlar uchun yaratgan poydevori ilmiy asosda yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, uzluksiz ta'lim tizimi, ta'lim siyosati, institutsional islohot, modernizatsiya, pedagog kadrlar.

**Аннотация.** В данной научной статье комплексно анализируются реформы системы дошкольного образования в Узбекистане в период с 1991 по 2016 годы с точки зрения исторического, нормативно-правового и системного подхода. В процессе исследования рассматриваются социально-экономические трансформации первых лет независимости, процесс адаптации системы дошкольного образования, непрерывная модель образования, сформированная на основе Закона «Об образовании», принятого в 1997 году, и Национальной программы подготовки кадров, внедрение государственных образовательных стандартов, совершенствование системы подготовки педагогических кадров, а также процессы модернизации в 2006–2016 годах. В статье научно освещается роль дошкольного образования в национальной стратегии развития, его социально-философское значение, а также фундамент, созданный для последующих институциональных реформ.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, система непрерывного образования, образовательная политика, институциональная реформа, модернизация, педагогические кадры.

**Abstract.** This scientific article provides a comprehensive analysis of the reforms in the preschool education system in Uzbekistan during the period from 1991 to 2016, using historical, normative-legal, and systemic approaches. The study examines the socio-economic transformations of the early years of independence, the adaptation process of the preschool education system, the continuous education model formed based on the Law "On Education" adopted in 1997 and the National Program for Personnel Training, the implementation of state educational standards, the improvement of the pedagogical workforce training system, as well as the modernization processes from 2006 to 2016. The article scientifically highlights the role of preschool education in the national development strategy, its socio-philosophical significance, and the foundation it created for subsequent institutional reforms.

**Keywords:** preschool education, continuous education system, education policy, institutional reform, modernization, pedagogical workforce.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi mamlakat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida tub burilish yasadi. Ta'lim sohasi, xususan, maktabgacha ta'lim tizimi ham mazkur

jarayonlaridan mustasno bo'lmadi. 1991–2016 yillar oralig'ida maktabgacha ta'lim tizimi uchun murakkab, ammo strategik jihatdan muhim davr bo'lib, unda sobiq markazlashgan modeldan milliy rivojlanish konsepsiyasiga asoslangan tizimga o'tish jarayoni amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim shaxs kamolotining dastlabki bosqichi sifatida jamiyat taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega. Bolaning psixologik, intellektual va ijtimoiy sifatlari aynan 3–7 yosh oralig'ida shakllanadi. Shu bois mazkur bosqichni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash milliy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi.

**1991–2016 yillardagi islohotlarni shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin:**

1. Moslashuv va barqarorlashtirish bosqichi (1991–1996).
2. Normativ-huquqiy tizimni shakllantirish bosqichi (1997–2005).
3. Modernizatsiya va sifatni oshirish bosqichi (2006–2016).

Mustaqillikning dastlabki yillari iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan murakkab sharoitda kechdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni ko'plab korxonalar tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalarining yopilishiga olib keldi. Ilgari yirik sanoat korxonalarida qoshida faoliyat yuritgan bolalar bog'chalari moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan mahrum bo'ldi. Maktabgacha ta'lim muassasalari soni qisqardi, qamrov darajasi pasaydi, moddiy-texnik ta'minot yomonlashdi, malakali pedagoglar boshqa sohalarga o'tib ketdi. Biroq davlat siyosati darajasida maktabgacha ta'lim tizimini to'liq inqirozga uchrashiga yo'l qo'yilmadi. Mahalliy hokimiyat organlari muassasalarni balansga olish orqali ularning faoliyatini davom ettirishga harakat qildi. Bu davrni tizimni saqlab qolish va minimal barqarorlashtirish bosqichi sifatida tavsiflash mumkin. 1997 yil O'zbekiston ta'lim siyosatida yangi davrni boshlab berdi. Shu yili qabul qilingan Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim tizimining huquqiy asoslarini mustahkamladi hamda maktabgacha ta'limni uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bosqichi sifatida belgilab berdi. Qonunning mazmuni ta'limning barcha bosqichlari orasida uzluksizlikni, bolalarni erta yoshdan boshlab bilim va tarbiya olishga jalb etishni qonuniy kafolatlabdi. Shu bilan birga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'limning sifatini oshirish va kasbiy kadrlar tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish bo'yicha strategik chora-tadbirlarni belgiladi. Dasturda quyidagi masalalar ustuvor deb topildi: davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim mazmunini xalqning milliy qadriyatlarini va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligida qayta tashkil etish, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish. Bu normativ hujjatlar ta'lim tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish uchun institutlararo asos yaratdi va maktabgacha ta'limni davlat siyosatining strategik yo'nalishiga aylantirdi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi normativ-huquqiy islohotlar statistik ko'rsatkichlarda ham sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. 1997–2005 yillar davrida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tarmog'ida sezilarli dinamik o'sish kuzatildi. 1994 yilda respublikada maktabgacha ta'lim muassasalari soni 9 467 atrofida bo'lib, bolalar qamrovi 30,7% ni tashkil etgan (3 yoshdan 7 yoshgacha) — bu ko'rsatkichlar tizim mustaqil normativ-huquqiy asosga ega bo'lmagan davrdagi past qamrovni aks ettiradi. 1997 yildan boshlab davlat standartlari joriy etilishi va huquqiy asoslarning mustahkamlanishi natijasida tizimni modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. [2] 2005 yilda davlat statistik ma'lumotlariga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalari soni o'sib, tizim orqali qamrab olingan bolalar soni 16,2% dan 19,0% gacha yetganligi qayd etilgan. Bu bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovining o'sishi tendensiyasini ko'rsatadi. Shunday qilib, 1997–2005 yillardagi normativ-huquqiy islohotlar qamrovni oshirish, ta'lim sifatini mustahkamlash va tizim samaradorligini oshirish yo'lida dastlabki barqaror o'sish bosqichini yaratdi.

Bolalar 3–7 yoshda dastlabki psixologik, intellektual va ijtimoiy rivojlanishini shakllantiradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va milliy taraqqiyot uchun muhim omil hisoblanadi. Tizimni uzluksiz ta'lim konsepsiyasiga integratsiyalash milliy ta'lim siyosatining strategik yo'nalishi sifatida mustahkamlandi.

2020- yil oxiriga maktabgacha ta'lim tashkilotlari jami soni 7753 tani tashkil etgan bo'lib, 2016- yilda bu ko'rsatkich 5138 tani tashkil etgan. 2020- yil oxiriga nisbatan o'sish ko'rsatkichi 50,9 % ni tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni 2016- yilda-690975, 2017- yilda-2018- y-874385, 2019- yilda 1115437 , 2020- yilda-1196421 kishini tashkil etdi. [4] 2020- yil oxiriga nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari jami soni 1670 tani tashkil

etgan bo'lsa, ulardan eng yuqori ko'rsatkich Toshkent etdi. viloyatiga to'g'ri keldi va uning soni 199 tani tashkil etdi. Eng kam ko'rsatkich esa Sirdaryo viloyatiga to'g'ri keldi ya'ni 31 ta birlikni tashkil etdi.

#### Statistik tahlil

Yil	Maktabgacha ta'lim muassasalari soni	Bolalar qamrovi (%)	Nodavlat tashkilotlar soni
1994	9 467	30,7	—
2005	10 200	19,0	—
2010	5 500	720 000	1 100
2016	5 138	690 975	1 200
2017	—	874 385	—
2019	—	1 115 437	—
2020	7 753	1 196 421	1 670

**Tahliliy xulosa:** 1991–2005 yillardagi qamrov pasayishi moslashuv bosqichi bilan izohlanadi, 1997–2016 yillarda esa normativ-huquqiy va modernizatsiya choralari tizimni rivojlantirish va qamrovni oshirishga yordam berdi. Nodavlat tashkilotlarning o'sishi esa ta'limning ijtimoiy diversifikatsiyasi bilan bog'liq. 1991–2016 yillardagi maktabgacha ta'lim islohotlari nafaqat tizimning rivojlanishiga, balki milliy ta'lim siyosatining shakllanishiga ham katta hissa qo'shdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida tizimni saqlab qolish va minimal barqarorlashtirish bosqichi, normativ-huquqiy islohotlar orqali tizimni modernizatsiya qilish, qamrovni oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish keyingi modernizatsiya bosqichiga poydevor yaratdi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'limni uzluksiz ta'lim tizimiga integratsiyalash va davlat standartlarini joriy etish orqali sifatni oshirish, bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, nodavlat tashkilotlar faoliyatini kengaytirish kabi strategik natijalar erishildi. Shu tariqa, maktabgacha ta'lim tizimi nafaqat bolalarning dastlabki ta'limini ta'minlash, balki milliy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlik uchun muhim institutsional mexanizm sifatida shakllandi. 1991–2016 yillardagi islohotlar bugungi kunda ham mamlakatdagi ta'lim siyosati va pedagogik yondashuvlarning poydevorini tashkil qiladi. Ular kelajakda uzluksiz ta'limning sifatini oshirish va milliy pedagogik standartlarni rivojlantirish uchun muhim ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu davr davomida erishilgan yutuqlar maktabgacha ta'lim tizimining sifatli rivojlanishini ta'minlash bilan birga, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish, milliy ta'lim kontentini modernizatsiya qilish va uzluksiz ta'lim modelini amaliyotga tatbiq etish imkonini berdi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, bolalarning dastlabki ta'limini keng qamrovli va sifatli amalga oshirishda markaziy rol o'ynadi. Natijada, 1991–2016 yillardagi islohotlar O'zbekiston maktabgacha ta'limining zamonaviy institutsional tizimini yaratishga va uni milliy taraqqiyot strategiyasining muhim komponenti sifatida shakllantirishga yordam berdi. Bu islohotlar kelajakda ta'lim sifatini yanada oshirish, uzluksiz ta'lim konsepsiyasini rivojlantirish va milliy pedagogik standartlarni ilgari surishda muhim ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, tizimda erishilgan natijalar bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi uchun barqaror poydevor yaratdi va maktabgacha ta'limning jamiyatdagi strategik ahamiyatini mustahkamladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. 1997 yil 29 avgust // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – 1997. – № 9.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 1997 yil 29 avgust // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – 1997. – № 9.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi PQ-3305-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim: Statistik to'plam (1994–2020 yillar). – Toshkent, turli yillar nashri.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga oid qarorlari (2006–2016 yillar).

**XORAZMSHOX-ANUSHTEGINIYLAR DAVRIDA ILM-FANNING RIVOJI***D.M.Yunusova, katta o'qituvchi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Xorazmshoh-Anushtegiylar davrida ilm-fanning rivoji, jahon ilm-fan rivojida tutgan o'rni haqida ma'lumotlarni tadqiq qilib o'rganilgan. Shuningdek, o'sha davrda faoliyat yurutgan "Hikmatlar uyi" nomi bilan mashhur bo'lgan ilm-ma'rifat maskani o'rini hamda o'sha davrda yashab ijod etgan yetik olim va mutafakkirlarning ijodi to'g'risida ma'lumotlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorazmshoh, Anushtegiylar, Gurganj, Hikmatlar uyi, Sakkokiy, az-Zamahshariy, Muhammad al-Xorazmiy, Rashididdin Vatvot, Shahobiddin Xivaqiy, Najmiddin Kubro.

**Аннотация.** В данной статье изучается развитие науки в период правления Хорезмшаха-Анустегийидов и их место в развитии мировой науки. Также рассматривается местоположение центра науки и просвещения, известного как «Дом мудрости», действовавшего в тот период, а также труды выдающихся ученых и мыслителей, живших и работавших в это время.

**Ключевые слова:** Хорезмшах, Анустегийиды, Гурганж, Дом мудрости, Саккоки, аз-Замахшарий, Мухаммад аль-Хорезмий, Рашиддин Ватвот, Шахобиддин Хивакий, Наджмиддин Кубро.

**Abstract.** This article examines the development of science during the reign of the Anushtegiyid Khorezmshah and their place in the development of world science. It also examines the location of the center of science and education known as the "House of Wisdom," which operated during this period, as well as the works of prominent scholars and thinkers who lived and worked during this time.

**Key words:** Khorezmshah, Anushtegiyid dynasty, Gurganj, House of Wisdom, Saqqoqi, az-Zamakhshari, Muhammad al-Khwarizmi, Rashid al-Din Watvot, Shahobiddin Khivakiy, Najmiddin Kubro.

**Kirish.** Dunyoda yirik sivilizatsiyalar bevosita kuchli davlat va jamiyatlar negizida shakllangan. IX-XII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat mintaqamizda ilm-fan, umuman madaniyatning keng ko'lamda rivojlanishini taqozo qilgan. XI-XIII asr boshlariga kelib, Xorazm o'zining jahon tarixidagi mavqeini yana tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Axmad Farg'oniy va boshqa allomalarning asarlari dunyo ilmiga ko'plab yangiliklarni olib kirdilar. Bu asrlardagi kashfiyotlar va bilimlar ko'p jihatdan hayotiy bo'lib, ijtimoiy ehtiyojni, jadal sur'atlarda o'sib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar talabini qondirish, keng ma'noda moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi bilan bog'liq bo'lgan. Ana shu ehtiyoj o'lkamizda buyuk allomalarning vujudga kelishida, ular ijodining samaralarida namoyon bo'ladi. Har bir davrda ham insonlarning ehtiyojlari ilm va fan taraqqiyotiga zamin hozirlaydi [1].

Anushteginlar sulolasiga mansub hukmdorlardan Qutubiddin Myhammad ibn Anushtagin (1097-1127) va uning vorislari al-Malik Abu Muzaffar Alovuddin Otsiz (1127-1156), Abul Fatx al-Arslon (1156-1172), Sulton Shoh Mahmud (1172-1193) Alovuddin Takash (1172-1200) va uning o'g'li Alovuddin Muhammad (1200-1220) davrlarida, Xorazm g'aznaviylar, saljuqiylar va qoraxoniylar asoratidan qutulib Sharqning yirik markazlashgan qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Butun Monarounnahr Xuroson, Eron, Shimoliy Hindiston, Ozarbayjon va Iroqning sharqiy viloyatlari endilikda xorazmshohlar tomonidan idora qilingan. Bu vaqtga kelib, xorazmshohlarga qarashli hududlar Kaspiy dengizining shimoliy sohillaridan Fors qo'ltig'igacha. Kavkazdan to Hindukush tog'larigacha borib etgan edi [2]. Manbalarning guvohlik berishicha, o'sha davrda mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygan xorazmshohlar saltanatining barcha viloyatlarida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot tez taraqqiy etgan. O'sha davrda yashagan tarixchi Shixobiddin Muhammad an-Nasaviyning takidlashicha, Sulton Muhammad davrida xorazmshohlar qo'l ostida 400 ga yaqin shaharlar birlashtirilgan. Xorazmshohlarga qarashli shaharlarda, ayniqsa, poytaxt

Gurganj, Kat, Jand, Samarqand, Buxoro, Termiz, O'tror, Marv va boshqa shaharlarda iqtisodiy va madaniy hayot, qurilish va obodonchilik ishlari tez rivoj topishi bilan birga ilm-fan markazlari bo'lgan. "Ta'rifi shahri Xorazm" muallifining guvohlik berishicha, birgina Gurganjning o'zida 5 mingdan ortiq masjid va 700 madrasa aholiga xizmat ko'rsatib kelgan. 1300 nafar kishi qo'lyozmalarni oqqa ko'chirish, xattotlik san'ati, 400 nafar kishi esa siyohpurushlik, 1000 nafar kishi noyob musiqa asbobi dutor yasash bilan mashg'ul bo'lgan [2].

Xorazmshoh Qutubiddin Muhammad va uning vorislari o'z davrining savodxon va ma'rifatli hukmdorlari bo'lgan. Ular matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, fiqh ilmlarini va arab, fors, turkiy tillarni mukammal bilganlar. Ular o'z davrining olimlariga katta e'tibor qaratganlar. Qaysi mamlakatga yurish qilgan bo'lsalar, shu joydagi hukmdorlarning saroyidagi nodir kitoblarni, olimlarni Gurganjga olib kelib, ularga homiylik qilganlar. Ayniqsa, Xorazmshoh Qutubiddin Muhammadning olimlarga va din arboblari e'tibori nihoyatda kuchli bo'lgan. "U Xorazm hukmdori bo'lgach, deb yozadi akademik Z.M.Bunyodov, qobiliyatli rahbar sifatida ulamolar va din arboblari homiylik qildi. U har tomonlama iste'dodli shaxs bo'lgan. Qutubiddin Muhammad fuqarolarga adolatli bo'lib, ular ham uni yaxsh ko'rib, uning nomini aziz tutar edilar"[1]. Ismoil Jurjoniy ham o'zining "Zahirai Xorazmshohiy" asarida Xorazmshoh Otsizning o'z xalqini ma'lumotli va madaniyatli qilishga harakat qilganligini yozib qoldirgan. Zero, Xorazmshoh Otsiz ham otasi kabi ma'rifatparvar hukmdor bo'lgan. Olim va donishmandlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatgan. Uning o'zi ham doimo ilm, adabiyot va she'riyat bilan shug'ullangan, fors tilida ijod qilib, she'r va qasidalar bitgan. Mahmud az-Zamaxshariy o'zining "Muqaddimat ul-adab" asarining muqaddimasida Xorazmshoh Otsizga shunday ta'rif beradi: "U ulug' amir, sipohsolor Alovuddin Abul Muzaffar Otsiz bin Xorazmshohdir. Tavqiga rivoj bersin, u fozillar bilan quriladigan davralardan beqiyos lazzatlanadi, bilimdonlar bilan bo'ladigan suhbatdan ovushadi. Ularning xonadonlari u (Otsiz) bergan behisob in'omlar bilan ajralib turadi. U (Otsiz) olimlarga muttasil sovg'alar va kiyim-kechaklar beradi, inomlar yuboradi"[4]. Xorazmshoh Abul Muzaffar Otsiz o'z saroyiga ko'plab mashhur olimlarni, adibu shoirlarni, din arboblari jamlagan, ularning ilmiy ijodlariga zarur sharoitlar yaratib bergan. Shu bois Alovuddin Otsiz davriga kelib, Xorazmda ilm-fan va madaniyat juda rivoj topadi. Xorazmshoh Otsizning sa'y-harakati bilan saltanat poytaxti Gurganj shahrida, saroy qoshida ilm-ma'rifat maskani vujudga kelgan. Tarixiy manbalarda "Hikmatlar uyi" yoki "Donishmandlar uyi" nomi bilan mashhur bo'lgan mazkur ilm-ma'rifat maskanida, akademik Z.M.Bunyodovning ta'kidlashicha xorazimliklardan tashqari, O'rta Osiyo, Eron, Hindiston, Xuroson, Iroq, Ozarbayjon va boshqa viloyatlardan kelgan yuzdan ortiq olimlar mutafakkirlar astronomiya, matematika, kimyo, tabobat, falsafa, mantiq, tarix, tilshunoslik, adabiyoyshunoslik, lug'atshunoslik, islom huquqshunosligi va boshqa sohalarida ilmiy, ijodiy ishlar bilan shug'ullanganlar. Anushtaginiylarning sa'y-harakati va homiyligida poytaxt Gurganjda Xorazm Ma'mun akademiyasining faoliyatini qayta tiklashdi, uning an'analarini davom ettirishdi, sharqning yirik ilmiy markazi "Hikmatlar uyi"ga asos solindi. "Hikmatlar uyi"da ijod qilgan olimlar arab, hind va yunon olimlari bilan Bag'dod (IX asr) va Gurganj akademiyasida (XI asr) xizmat qilgan allomalarning bebaho asarlarini o'rganib, chuqur tahlil qilib, ularga bag'ishlab sharhlar tayyorladilar. O'zlari ham ilmning turli sohalarida ijod qilib qimmatbaho asarlar yozib, ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdilar. Xorazmshohlar o'z davlatida ilm fanning rivojiga, o'qish o'qitish tizimiga katta e'tibor bilan qaraganlar. Xorazmshohlar davlatida yoshlarni o'qitish, tarbiyalash ishiga ham alohida ahamiyat berib bu ishga o'ta mas'uliyat bilan qaraganlar. Shuning uchun ham madrasalarga mudarrislikka tayinlanadigan kishilar va imomlar shaxsan Sultonning (Xorazmshohning) farmoni bilan tayinlangan. Xorazmshohlar El Arslon va Otsizning bunday farmonlarining ayrim nusxalari bizgacha yetib kelgan. Xorazmshoh Takash va Sulton Muhammad hukmronligi davrida Ma'mun akademiyasiga vorislik qilgan "Hikmatlar uyi"ning dovrug'i nafaqat Sharqda, hatto G'arbda ham ma'lum va mashhur bo'lgan. Xorazmshohlar o'z saroyi yaqinida "Hikmatlar uyi" akademiyasi olimlari uchun serxasham bino qurib berganlar. Akademiyada noyob qo'lyozmalarni saqlash uchun maxsus kutubxona, madrasa, rasadxona, qo'lyozmalarni kitobat holiga keltiradigan ustaxonalar ishlab turgan. "Hikmatlar uyi"ida yuzdan ziyod mashhur allomalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsada, ulardan ellikka yaqinining ismlari bizgacha etib kelgan. Ular o'z asarlarini arab va fors tillarida

yoʻzganlar. “Hikmatlar uyi”da ijod qilgan mashhur qomusiy ilm sohiblaridan biri Maxmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chag‘miniy Platon, Ptolemey, Evklid, al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Forobiy asarlarini chuqur o‘rganib, ulardagi astronomiya, matematika va geometriyaga doir g‘oyalarni rivojlantirgan. Chag‘miniyning bizgacha “Astronomiyadan muxtasar kitob”, “To‘qqizliklar arifmetikasi”, “Meros taqsim qilishdagi usullarga sharh” hamda “Qonuncha” nomli asarlari yetib kelgan. Olimning “Al-Mulahhas fil xay’att” asari 1205 yilda yozilgan bo‘lib, Gurganj madrasalarida astronomiyadan darslik sifatida o‘qitilgan. [1]. Hozirgi vaqtda Chag‘miniyning ushbu asari jahonning 20 dan ortiq mamlakatlari kutubxonalarida mavjud bo‘lib, XIV asrda fors, XIX asrda nemis, ingliz va rus tillariga tarjima qilingan [5]. “Hikmatlar uyi” da ijod qilgan mashhur olimlardan yana biri Abu Ibroxim Ismoil ibn Hasan al-Jurjoniy (1045-1137) bo‘lib, u shox saroyida tabiblik xizmatida bo‘lgan va umrining oxirigacha tabobatga doir o‘nlab asarlar yozib qoldirgan. Shulardan bizgacha yetib kelgan eng mashhur asari “Zaxirai Xorazmshohiy”dir [5]. Asarni yozishda Ibn Sino, Abu Bakr Roziy, al-Beruniy asarlaridan foydalanib, ulardagi tabobatga doir g‘oyalarni o‘z tadqiqotlari va tajribalari bilan boyitgan. Olimning tibbiyotga doir ushbu asari qomusiy asarlardan sanaladi, asar fors tilida yozilgan. Asarda tibbiyot fani, uning ahamiyati inson tanasida bo‘ladigan kasalliklar va uni davolash, kasallikining oldini olish usullari bayon qilingan. Olimning mazkur asaridan Sharq davlatlaridagi tibbiyot xodimlari shu kunlarda ham nodir qo‘llanma sifatida foydalanib kelmoqdalar.

Abul Qosim Maxmud az-Zamaxshariy (1075-1144 yy.) ham “Hikmatlar uyi”da ijod qilgan mashhur allomalardan biri bo‘lgan. U tilshunoslik, lug‘atshunoslik, tarix, geografiya, mantiq, fiqh va tasavvuf kabi fanlari bilan shug‘ullangan qomusiy olim bo‘lgan. U o‘z zamonasidayoq “Xorazm faxri”, “Butun dunyo ustoz”, “Arab va ajamlar ustoz”, Jorullox (“Olloxning yaqin qo‘shnisi”) kabi faxrli unvonlarga ega bo‘lgan. Olimning 50 dan ortiq asari bo‘lib, ular arab tilida yozilgan, bizgacha 30 ga yaqin asari yetib kelgan. Maxmud az-Zamaxshariy “Muqaddimat ul-adab” asarini Xorazmshoh Otsizga bag‘ishlab yozgan. Maxmud az-Zamaxshariyning bu asarini Otsiz o‘z shaxsiy kutubxonasi uchun bir necha nusxa ko‘chirtirganligi yozib qoldirilgan [10]. Asar tilshunoslik grammatikaning turli masalalariga oid bo‘lib, unda ilk bor so‘zlar tahlili arab, fors, turkiy, mo‘g‘ul tillarida berilgan. Asar besh katta qismga bo‘lingan, otlar, fe‘llar, bog‘lovchilar, ot o‘zgarishlari va fe‘l o‘zgarishlari haqida yozilgan bo‘lib, 1137 yili yozib tugallangan [15]. Sadridin Ayniy Maxmud az-Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarini o‘zbek tili uchun butun dunyoning xazinasi bilan barobardir, deb baho bergan. Mazkur qomusiy asarida ilm-fan, madaniyatimiz va ma‘naviyatimizning juda ko‘p masalalari bo‘icha ilmiy asoslangan ma‘lumotlar berilgan.

Shamsiddin Muhammad ibn Qays ar-Roziy Muhammad Xorazmshoh saroyiga yaqin bo‘lgan shoir, adib bo‘lgan [20]. Qays ar-Roziy “Almo‘jam fi ma‘oiri ash‘or al-ajami” (Ajam she‘r o‘lchovlari lug‘ati) va “Tibyon ullulug‘at at-turki alo lison Kangli” (Turkiy tilning qang‘ali tilidagi mufassal bayoni) kabi asarlarni yozgan. Ular bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Qays ar-Roziy “Almo‘jam fi ma‘oiri ash‘or al-ajami” asari adabiyotshunoslik bo‘yicha yozilgan bo‘lib, uning kirish qismida o‘zining hayotini bayon qilgan. Asarda adabiyotshunoslikka oid aruz, rukn, vaznlar, qofiyalarning qo‘llanishi haqida bayon qilingan.

Xorazmshoh Aloviddin Muhammad hukmronlik qilgan yillarda eng ko‘zga ko‘ringan alloma, davlat arbobi Shaxobiddin Abu Sa‘d ibn Imron al-Xivaqiy edi. Sulton Alovuddin Muhammad saroyida huquqshunos olim sifatida faoliyat yuritgan. Shahobiddin Xivaqiy sultonning davlat ishlarida yaqin maslahatchisi bo‘lib, davlatning ichki va tashqi siyosati yuzasidan Xorazmshoh Muhammad u bilan maslahatlashgan. U Gurganjda fiqh ilmidan beshta madrasada mudarrislik qilgan. Shofiya masjidi qoshida uning juda boy kutubxonasi bo‘lgan [17]. Bu haqda uning zamondoshlari: “Shadobiddin Xivaqiy Gurganjda eng ajoyib kutubxona bunyod etganki, bunday kutubxona avval ham, undan keyin ham bo‘lmagan” [17], deb yozib qoldirganlar. An-Nasaviyning yozib qoldirilicha, shunday ma‘rifat markazlari bo‘lgan kutubxonalar Buxoro, Samarqand va Isfahon shaharlarida ham bo‘lgan [14].

Xorazmshoxlar saroyida adabiyot va she‘riyatda mashhur bo‘lgan Rashiddin Muhammad al-Umariy (1115-1182) “Vatvot” taxallusi bilan ijod qilgan. U Otsiz, al-Arslon va Takash saroyida kotiblik qilgan, arab va fors tillarida she‘rlar, qasidalar va go‘zal maktublar bitgan. Uning bizgacha

“She’r san’atining sehrli bog’lari” va “Nomalar” nomli asarlari yetib kelgan. Ushbu asarlar Xorazmshoh Otsizga bag’ishlangan bo’lib, asarda xalifalar, podshohlar, vazirlar, shayxlar va mashhur kishilarga yuborilgan maktublar joy olgan. Rashididdin Vatvot o’zining “Xadoyiq as-sehr fi dakoyik ash-she’r” (“Sehr bog’lari va she’r noziklari”) to’plamini Xorazmshoh Otsizga bag’ishlagan. Uning “Uf-Rasoyil” (“Nomalar”) nomli asari o’sha davr ijtimoiy hayotini o’rganishda katta ahamiyatga egadir. Ushbu asarning birinchi qismi xalifalarga, hukmdorlarga, sultonlarga, vazirlarga, amirlarga, hokimlarga, noiblarga, muftilarga bag’ishlangan. Ikkinchi qism esa olimlarga, katta amaldorlarga, mashhur kishilarga, shoirlarga, do’stlarga bitilgan maktublardan iboratdir [4].

Shu davrning mashhur tarixnavis olimi va adibi Shaxobiddin Muhammad an-Nasaviyning “Siyrat as-Sulon Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi” (“Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti”) nomli mashhur asarini 1241 yilda arab tilida yozgan [14]. Asarda XIII asrdagi O’rta Osiyo, Xorazmshohlar tarixi, Chingizxon boshliq mo’g’ullarning istilochilik yurishlari, o’zbek xalqining milliy qahramoni Jaloliddin Manguberding vatan ozodligi yo’lidai jasoratlari, Yaqin va O’rta Sharq davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvol haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Tabiblardan Zayniddin va Abu Ibrohim Ismoil al-Jurjoniy nomlari ham saqlanib qolgan. Zayniddin Samarqandning ko’z kasalliklarini davolash bo’yicha yetuk mutaxassis bo’lgan [11]. Abu Ibrohim Ismoil al-Jurjoniy esa, Xorazmshoh Otsizga o’zining “Kitob al-agrad at-tibbiya va al-maboxis al-a’laiya al-xorazmshohiya”ni tibbiy risolasi bag’ishlagan.

**Xulosa.** Ma’muniy Xorazmshohlar davrida undan keyin Anushtagin Xorazmshohlar davrlarida ham qadimgi Xorazmda yuksak ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy hayot, ilm-fan, madaniyat, san’at, falsafa, tibbiyot, tabiyatshunoslik, aniq fanlar, huquqiy-siyosiy fikrlar, ta’limotlar, diniy-axloqiy pandnomalar, shu jumladan, tasavvufiy oqimlar taraqqiyotini kuzatish mumkin edi. Xorazmshohlar davlati faqat harbiy qudrati bilan emas, balki o’z shaharlari, qishloq xo’jaligi, sug’orish inshotlari va yuksak taraqqiy etgan fan, madaniyat, san’at va adabiyoti bilan o’rta asrlar dunyosida yetakchi o’rinni egallangan. Xorazm davlatiga sayohat qilgan chet ellik sayyohlar, Xorazmshohlar tarixi bilan shug’ullangan tarixchi olimlar Xorazmshohlar davlati turmush madaniyatini o’zga xalqlar va mamlakatlar uchun namuna bo’lgan deb ko’rsatadilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. А.Садуллаев, А.Сотликов. Хоразм Маъмун Академияси. Урганч. 2005. 82-бет.
2. Абдуллаев Х. Хоразм адиблари. Урганч. 1998.
3. С.П.Толстов Қадимги Хоразм маданиятини излаб, Тошкент. “Фан”.1966, 217-бет.
4. Z.Bunyodov. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). T., 1998, 157 - bet.
5. У.Уватов. Буюк юрт алломалари. Т.; О’zbekiston. 2018. 425 бет.
6. Абул Қосим аз-Замахшарий. Нозик иборалар. Тошкент. 1992.
7. А.Садуллаев, А.Сотликов. Хоразм Маъмун академиясининг тарихий илдизлари. Урганч. 2003. 43-бет.
8. Бабаджанов А.Ш. Библиографии учёных-медиков Средней Азии по сочинению Ибн Аби Усайба “Уюн ал-анба фи табакат ал-аттиба”.// Общественные науки в Узбекистане. № 3. 2001. -С. 59-64.
9. Махмуд Замахшарий Мукаддимат-ул адаб, Ташкент, 2002, 4-6- бетлар.
10. М.Хайруллаев. Ўрта Осиёда IX-XII асрларда маданий тараққиёт. Т.: “Фан”. 1994. 80-бет.
11. Нажмиддин Комилов. Нажмиддин Кубро. Тошкент, 1995, 7-бет.
12. Сират ас-султан Джалал ад-Дин Манкбурны.–М.: Восточная литература, 1996;
13. Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – T.: O’zbekiston, 1999.
14. Т.Н.Кары-Ниязов. Астрономическая школа Улугбека. М.-Л., 1950, с.94- 97.
15. У.Уватов. Махмуд аз-Замахшарий. Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1995.
16. Уватов У. Махмуд Замахшарий. Т.; О’zbekiston. 2011. 49- бет.
17. Шохобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди хаёти тафсилоти. -Тошкент. 1999.
18. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Najibuddin\\_Samarqandiy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Najibuddin_Samarqandiy).

UO’K 621.395(575.1):004.7

### 1991-2021-YILLARDA O’ZBEKISTONDA TELEFON ALOQA SOHASINI YANGI BOSQICHGA KO’TARILISHI

*I.S.Yusupov, t.f.d., dots., Urganch davlat tibbiyot inistituti, Urganch*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida aloqa sohasini rivojiga yangi xizmat turi bo’lgan uyali aloqa kompaniyasi “Uzdunrobita”ni yurtimizga kirib kelishi va dastlabki davrlarda*

aloqa xizmatining sifati, kompaniyaning filiallari va bo'linmalari viloyatlar markazlarida ochildi. Mijozlarining soni bosqichma-bosqich ortib bordi. Uyali aloqa kompaniyalari o'rtasida raqobatni kuchaytirish maqsadida Ucell, "Perfektum, Mobile", MTS, Beeline kabi yangi aloqa kompaniyalari mamlakatimizda o'z faoliyatini boshladi. Natijada butun dunyoda bo'lgani kabi yurtimizda ham uyali aloqa keng tarqaldi. Shu bilan birga xizmatlar ko'rsatish sifatining oshishi bilan birga mijozlarning sonini ko'payib borishi hamda rivojlanish tarixi xronologik jihatdan ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Telefon, uyali aloqa, avtomatik rouming, bazaviy stansiya, tyelekommunikatsiya, MTS, Internet.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается приход в нашу страну в годы независимости нового вида услуг в сфере связи — компании сотовой связи «Уздунробита», а также качество услуг связи на начальном этапе её деятельности, открытие филиалов и подразделений в областных центрах. Число клиентов постепенно увеличивалось. С целью усиления конкуренции между компаниями сотовой связи в нашей стране начали свою деятельность новые операторы, такие как Ucell, «Perfectum Mobile», MTC и Beeline. В результате, как и во всём мире, сотовая связь получила широкое распространение и в нашей стране. Наряду с ростом качества предоставляемых услуг увеличивалось и количество абонентов, а история развития отрасли раскрыта в хронологическом аспекте.

**Ключевые слова:** Телефон, мобильная связь, автоматический роуминг, базовая станция, телекоммуникация, MTC, интернет.

**Abstract.** This article examines the arrival of a new type of telecommunications service in our country during the years of independence — the mobile communications company "Uzdonrobita" — as well as the quality of its services at the initial stage of its operations, including the opening of branches and offices in regional centers. The number of clients gradually increased. In order to strengthen competition among mobile operators in our country, new operators such as Ucell, "Perfectum Mobile," MTS, and Beeline began their activities. As a result, mobile communications, as in the rest of the world, became widely accessible in our country. Alongside the improvement in service quality, the number of subscribers also grew, and the history of the industry's development is presented in a chronological perspective.

**Key words:** Telephone, Mobile Communication, Automatic Roaming, Base Station, Telecommunication, MTS, Internet.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida O'zbekistonda aloqa vositalarining o'rni va roli beqiyos oshdi. Ko'p sonli aloqa kanallari, ba'zan ko'rinmas va ulkan tarmoq kabi respublikamiz hududini qamrab oldi. Sohaga doir yangi infratuzilmalar yaratildi. Respublikamizda davlat va jamiyat hayotini erkinlashtirish sharoitida mobil aloqa tizimini rivojlantirish demokratik islohatlarni chuqurlashtirishning muhim yo'nalishiga aylandi. Mamlakatimizda uyali aloqa kompaniyalarni olib borayotgan faoliyati, ularning moddiy-texnik holati, kadrlarni tayyorlash, bilan qamrab olinishi jarayoni tizimli ravishda o'rganilmagan. Bunday yangilanishlar uyali aloqa tizimining rivojlanish jarayonini va aholini ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rini alohida mavzu doirasida tadqiq etishni taqozo etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili** (Literature review). Mustaqillik yillarida mamlakatimizda mobil aloqani paydo bo'lishi va taraqqiyoti tarixiga oid umumiy ma'lumotlar L.N. Jo'rayev, G'R.Mamatqulov, R.F.Xudoyberdiyev, B.I.Axtamov, I.S.Yusupov, B. Bobojonovlarning kitoblarida ma'lumotlar aks ettirilgan bo'lsada, yetarli o'rin ajratilmagan. Shu bilan bir qatorda uyali aloqa kompaniyalarini rivojlanish yo'nalishlari, haqida ma'lumot bergan gazeta, jurnal va veb saytlarda mavzuga oid berilgan maqolalarni ilmiy muomalaga kiritish va ilmiy xulosalar chiqarish zarurligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Mamlakatimizda mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasi va natijasini ko'rsata boshladi. Davlatimiz tomonidan mobil aloqani rivojlanishi tegishli zarur shart-sharoitlar yaratildi. Telefon bilan ta'minlanganlik darajasi har qanday mamlakat aloqasi rivojlanganlik darajasining integral ko'rsatkichi hisoblanib, u asosiy abonent terminallari va liniyalari sonini, montaj qilingan

Avtomat telefon stansiyasi (ATS) sig'imini va shaharlararo aloqa liniyalarini aks ettiradi. Aynan mana shuning uchun ham telefon bilan ta'minlanganlik darajasi Xalqaro valyuta fondi tomonidan davlatning iqtisodiy darajasiga ta'rif berishda foydalaniladigan iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi[1].

1991-yilda "Uzdunrobita" nomli O'zbekiston-AQSH qo'shma korxonasi ochilgan. Mazkur korxonaga O'zbekiston Respublikasining Aloqa vazirligi va Amerikaning "International Communications Group INC" tomonidan ta'xis etilgandi. O'sha paytda u, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Markaziy Osiyoda davlatlari orasida birinchi uyali aloqa kompaniyasi hisoblangan. Mamlakatimizda uyali aloqa xizmatidan foydalanilgan birinchi qo'ng'iroq, 1992-yil avgust oyida Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan "O'zdunrobita" MChJning tantanali ochilishi marosimida qilingan. Keyinchalik Respublika Prezidenti ilk bor foydalangan mobil qurilma O'zbekiston aloqa muzeyi eksponantlari qatoridan o'rin olgan [2]. 1993-yil 16-iyunda Ukrainada, 1994-yilda Qozog'istonda uyali aloqa telefonlaridan foydalanish boshlangan[3].

1992-yil Yaponiyaning ko'magi bilan "Intelsat" xalqaro sputniki orqali uzoq xorij mamlakatlari (Angliya, Yaponiya, Isroil, Hindiston) bilan bevosita bog'lanish imkoniyatini beradigan kosmik aloqa stansiyasi qurilib, ishga tushirildi[4]. 1992-yilning avgust oyidan boshlab "Uzdunrobita" uyali aloqasi tarmog'idan tijorat yo'sinida foydalanish boshlandi. Tarmoqdan foydanuvchilar soni 100 tani tashkil etgan, 1993-yilda 300, 1995-yil davomida 823 taga yetdi. Bundan ko'rinib turibdiki, tarmoqdan foydalanish imkoniyatlari biroz cheklangan holda qolmoqda edi[5].

1995-yilning boshlarida respublikamizda telefon tarmoqning moddiy-texnik bazasining dunyodagi rivojlangan mamlakatlardan 20-30 yil orqada qolganligi hamda aloqa vositalari bilan jihozlanmaganligi ko'rsatilayotgan aloqa xizmatlari sifatining pastligi, raqamli tarmoq va servis xizmatlarning rivojlanmaganligi, axborot paketini kommutatsiya qilib, ma'lumotlarni zamonaviy yuqori tezlikda uzatish tarmog'ining yo'qligi natijasida respublikaning har 100 aholisini telefon bilan ta'minlanganlik darajasi 6,7ni tashkil qiladi, u Xalqaro elektr aloqa uyushmasi qabul qilgan o'rtacha normativdan bir necha baravar kam bo'lgan. Rivojlangan mamlakatlar bilan qiyoslaganda xususan Germaniyada har 100 aholiga 44,8, Fransiyada 52,3, Angliyada, 45,1, Turkiyada 16,2 telefondan to'g'ri kelgandi. O'sha davrda mamlakatimizda shaharlarda har bir ikkinchi oila, qishloq joylarida har bir o'ninchi oila telefon bilan ta'minlangan[6].

1995-yilda "O'zdunrobita"ning Samarqand, Buxoro va Qarshi shaharlarida filiallari ochildi. Mijozlarning soni 3000 nafarga yetdi. Tarmoqning reja bilan kengaytirilishi tufayli 1996-yilda Navoiy, Namangan, Farg'ona va Andijon shaharlarida kompaniyaning filiallarini ochish imkoniyatini berdi. Foydalanuvchilar soni 9000 kishiga yetdi. 1997-yilda eng zamonaviy raqamli texnologiyalardan biri Digital AMPS (IS-136)ni tijorat yo'li bilan bir qatorda, ko'rsatilayotgan xizmat turlari ham ancha qo'paydi. Mijozlarimizga qo'ng'iroq qilayotgan kishining nomini (raqamini) aniqlash (AON); nomerni aniqlashni ta'qiqlab qo'yish, qo'shimcha imkoniyatlari bilan ovoz pochta; Sler rejimi singari xizmatlar ko'rsatila boshlandi. Sler rejimi batariyaning navbatchi rejimdagi ish vaqtini 2,5 baravardan ko'proq oshirishga imkon beradi, shuningdek, ilgari standartning qo'shimcha xizmatlari (avtomatik rouming, konferens-alloqa, qo'ng'iroqni kutib turish, qo'ng'iroqni boshqa adresga o'tkazish) ham saqlab qolindi.

1996-yil, 15-aprelda "COSCOM" MChJ XK "MCT Telecom Corp" va mahalliy hamkor o'rtasidagi qo'shma korxonaga sifatida tashkil etildi. Korxonaning asosiy faoliyat yo'nalishi - GSM 900/1800 standartida zamonaviy uyali aloqa tizimini rivojlantirish. Birinchi tarmoq Samarqand shahrida ishga tushirilgan bo'lib, keyinroq butun mamlakatni qamrab oldi[7]. 1997-yilda "O'zdunrobita" ni Guliston, Termiz, Qo'qon, Jizzax, Chirchiq va Yangiyo'l shaharlarida kompaniyaning yangi filiallari va bo'linmalari ochildi. Avtomatik rouming bu vaqtga kelib O'zbekistonning 380 tadan ko'proq aholi punktlarini qamrab oldi. Shu yilning oxiriga kelib, "O'zdunrobita" aloqasidan foydalanuvchilar soni 15000 nafarga yetdi. Shu vaqtda mamlakatimizda uyali aloqaning 42 foizdan ko'prog'i unga tegishli bo'lgan. 1998-yilda Kompaniyaning Nukus, Kitob va Shaxrisabz bo'linmasi shaharlarida yangi bo'linmalari ochildi. 1999-yilning boshida esa Olmaliq shahrida yangi bo'linma tashkil topdi. Shunday qilib, 1998-yilning oxirida kompaniyaning filiallari respublikaning barcha viloyat markazlari va ma'muriy markazlarida ishlab turdi hamda

O'zbekistondagi 900 ortiq shahar va aholi punktlarini qamrab oldi. Tarmoqning sig'imini ko'paytirish maqsadida Toshkentda bazaviy stansiyalar soni ikki baravar ko'paytirildi, Samarqand, Buxoro, Qarshi va Farg'ona shaharlarida qo'shimcha quvvatlar ishga solindi. 2000-yilning o'rtalariga mijozlarining soni 35 ming nafardan ham oshib ketdi[8].

2000-yilda shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlar 28,7% o'sdi. Shu bilan bir qatorda fuqorolar xonodanlarida 52,7 telefon apparatlari yangidan o'rnatildi, telefon uchun navbatda turishlar bartaraf etildi. Ja'mi telekommunikatsiya tarmoqlarida 1,6 mln, telefon qurilmalari mavjud bo'lib uchdan bir qismdan ko'prog'i raqamli, elektorn ATSlarga ulangan. Bu ATSlar ham so'nggi 3-5 yillar davomida qurilgandi. Shaharlararo va halqaro telefon stansiyalari deyarli 90 foizga elektrotexnika bilan jihozlanganlar[9].

“Uzdunrobita” respublikada birinchilardan bo'lib Xorazm viloyati aholisiga xizmat ko'rsatgan. 1999-yilda Urganch shahar va tumanlar aloqa bo'limlariga “Aloqa-DEU” korxonasida ishlab chiqarilgan yangi ATSlarning o'rnatildi. Xorazm viloyatini 1999-2001 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga ko'ra viloyatdagi 3 ta korxonaga o'z ixtisosligini o'zgartirdi. Shulardan bittasi Urganchda ishlay boshlagan “Aloqa DEU” korxonasi kommunikasion texnika o'rniga elektronika asosida xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishga o'tdi[10].

Keyingi yillarda Germaniyaning “Alkatel”, “Simens” kompaniyalari, shuningdek boshqa chet-ellik sheriklar ishtirokida raqamli elektron qurilmalarga asoslangan 7ta yangi ATSlar qurilib ishga tushirildi, 8ta stansiya qayta qurildi, 4 ta stansiyada ish xajmi kengaytirildi. 18ta elektron ATSning umumiy quvvati 137mingta raqamni tashkil qiladi. Stansiyalararo bog'lanish tarmoqlarining sonini ko'paytirish uchun chet-el qurilmalari asosida radioreleli aloqa yo'llari ishga tushirildi, raqamli “transport halqasi” qurildi, bu “xalqa” minglab tezkor kanallar orqali shaxardagi barcha tarmoqli va raqamli ATSlarni o'zaro bog'ladi. 2001-yilda tarmoqda 144,1 mingta kanal bo'lib, shundan 122,5 mingtasi raqamli aloqalardir[11].

Bu ko'rsatgich 5 yil avvalgi ko'rsatgichdan 2-3 marta ortiq bo'lgan. Aloqa kanallariga yangiliklarni kiritilishi muhim yo'nalishlarda stansiyalararo bog'lanish muammosini xalq etib qolmay, kelajakda aloqa tarmoqlari taraqqiyoti uchun imkoniyat yaratadi, minglab yangi abonentlar takliflarini qondirishga imkon berdi. 2001 yilda shahardagi 69 ta telefon tarmoqlarida 529 ming hajmdagi raqamli telefonlardan 510 mingdan ortig'i ishga tushgan, bu 1996-yilga nisbatan deyarli 100 mingtaga ortiq. Yangi ATSlar ishga tushirilishi bilan abonentlarga shu vaqtgacha noma'lum bo'lgan keng qamrovli xizmat turlari ko'rsatilgan. 2001-yil sentabrda O'zbekistonda “Rubikon Vireless Kommunikasion” qo'shma korxonasining “Perfektum Mobile” uyali tarmog'i ishga tushirildi. Kompaniya uyali aloqa xizmatini CDMA standartlarida ko'rsatadi va bunday xizmatlar ko'rsatadigan operatorlardan eng yirigi xisoblanib, hozirga qadar Respublikamizning barcha viloyatlarida sifatli xizmat ko'rsatib kelmoqda[12].

2003-2005-yillarda tashqi internet kanallarining o'tkazuvchanlik salohiyati 32 Mbit/s dan 143,1 Mbit/s gacha oshdi. DSL orqali Internet tarmog'iga ulanish ham jismoniy, ham yuridik shaxslar o'rtasida keng ommalashdi. Proвайderlar hududlardan ham internetga ulanish bo'yicha xizmatlarni kengaytira boshlashdi. Internet tezligi 64 Kbit/sek.dan 1 Mbit/s.gacha oshdi. Oylik obonent to'lovi orqali DialUp orqali ulanganlarga oylik cheksiz tariflar joriy qilindi. Proвайderlar Callback xizmatini joriy qilishdi. O'zbekiston mobil aloqa bozorida Rossiyaning Vьmpelkom (Bilayn), MTS, Telia Sonera kompaniyalari faoliyatini boshladi. Telekommunikatsiya bozorida IP telefoniya (Platinum Connect, 2Oxygen, Buzton) kompaniyalari paydo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi hukumat portalini – [www.gov.uz](http://www.gov.uz) tashkil etildi[13]. Respublikamizda 2004-2012-yillarda MTS uyali aloqa kompaniyasi faoliyat olib bordi.

2005-yilda ilk marotaba viloyatlarda uyali aloqa abonentlari soni Toshkent shahri abonentlar sonidan oshdi. 2005-yil 1-oktabr holatiga ko'ra O'zbekiston bo'yicha barcha abonentlar soni (917.806), 51% hududlar (468.474) abonentlari bo'lgan. 2005-yil noyabr oyida mamlakatimizda million mobil aloqa abonentlari ro'yxatga olindi. Shu paytdan boshlab O'zbekistonda ham butun dunyodagi kabi uyali aloqa keng tarqaldi[14]. 2005-yildan beri “Perfektum Mobile” O'zbekiston hududlarida o'z tarmog'ini kengaytirish bo'yicha bir qator ishlarini amalga oshirdi. Shu yildan yangi CDMA 2000IX texnologiyasi orqali Toshkent viloyati, Samarqand, Buxoro, Namangan, Farg'ona,

Andijon, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarining ma'muriy markazlari va 70 dan ortiq shahar va tuman aholi maskanlarida joriy qilinishi natijasida abonentlar ishonchli aloqa bilan ta'minlandi. Mamlakatimiz bo'ylab mahalliy tariflar bo'yicha shaharlararo qo'ng'iroqlarni amalga oshirish imkoniyatini berdi. "Unitel" MCHJ 2006-yil 12-sentabrdan boshlab Beeline Uzbekistan savdo belgisi ostida xizmat ko'rsatishni boshlagan[15].

2007-yil iyulida "Usell" Telia Company shved-fin" guruh kompaniyasining bir bo'lagi bo'lib, O'zbekiston telekommunikatsiya bozorida novator rolda faoliyat ko'rsata boshladi. Usell to'rtinchi avlod tarmog'i lisenziyasini oldi va O'zbekistonda birinchilardan bo'lib 4G tarmog'ini tatbiq qildi. 2008-yil 10-iyundan boshlab "COSCOM" MChJ XK o'zining savdo belgisini to'liq qaytadan joriy etdi va "COSCOM" brendi o'rniga yangi Ucell savdo belgisi paydo bo'ldi[16]. 2007-yil 1-sentabr holatiga ko'ra O'zbekistonda mobil aloqa abonentlari soni 4 million 269 mingga yetdi[17].

2008-yil 1-aprel holatiga ko'ra, uyali aloqa tarmoqlari abonentlari soni 7 million 290 ming nafardan ortiqni tashkil qilgan. Mart oyida mamlakatimizda 443 mingdan ortiq obunachi qo'shilgan va oylik o'sish qariyb 6,5 foizni tashkil etgan. Mamlakatimizda uyali aloqaning kirib borish darajasi 2008-yil 1-aprel holatiga 27 foizni tashkil etgandi. 2008-yil boshida O'zbekistonda 5 million 888 ming abonent bo'lgan bo'lsa, 2008-yilning 1-choragida mamlakatimizda mobil aloqa abonentlari soni 1 million 400 mingdan ziyodga oshib, choraklik o'sish 23,8 foizni tashkil etgan[18].

O'zbekistonning mobil aloqa operatorlari tomonidan 2004-2010-yillar oralig'ida jami investisiyalar hajmi 1 milliard 418,18 million dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga uyali aloqa sohasiga investisiyalar hajmi yildan yilga oshib bordi. Mobil aloqa kompaniyalari tomonidan O'zbekiston bozorida faoliyatni jadallashtirish va uzoq muddatli asosda rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish, texnik komponentni muntazam yangilash va modernizatsiya qilish, yangi texnologik xizmatlar va tizimlarni joriy etishda o'z aksini topdi.

2009-yilda "Perfectum Mobile" qishloq joylaridagi 1700 ta maktablarda "Mobil internet" xizmati bilan ta'minlandi va kerakli miqdordagi telefon apparatlarini bepul tarqatdi[19]. 2009-yilga kelib raqamli telefonlar soni 1786 tadan, uyali mobil aloqa abonentlari soni 7 mln.dan oshdi[20]. Uyali aloqa xizmati raqobat va qiziqish kuchliligi bois, tez rivojlanayapti. 2009-yilning to'rtinchi va 2010-yilning birinchi choragida uyali aloqa bozorida ma'lumotlar asosida tayyorlangan. Altimo indeksining 7-nashriga ko'ra, O'zbekiston Xitoy va Indoneziyadan so'ng dunyoning 92 mamlakatida uchinchi o'rinni egalladi[21]. 2021-yilning oktabr oyida O'zbekistonga xorijdan umumiy qiymati 20,9 million dollarlik 303 303 dona mobil telefon import qilingan bo'lsa, oktabr oyida import qilingan mobil telefonlar soni sentyabr oyiga nisbatan 5 ming 460 taga oshgandi. 2021-yilning yanvar-oktyabr oylarida O'zbekistonga xorijdan 154,2 million dollarlik 2,2 million dona mobil telefon import qilingan. Telefonlar importi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 million donaga oshdi. O'zbekistonda 2020-yilda 345 431 dona ishlab chiqarilgan [22].

Uyali va boshqa simsiz tarmoqlar uchun telefonlar 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda internet tarmog'iga ulangan obunachilar soni qariyb 20 millionni tashkil etdi. 2021-yilning yanvar-avgust oylarida O'zbekiston xorijdan 1,6 million dona uyali telefon sotib olgandi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,2 mln. O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 8 oyda mamlakatga olib kirilayotgan telefonlar narxi 117,4 million dollarni tashkil qilgandi. Mamlakatimizga aksariyat mobil telefonlar Xitoy, Vetnam, Hindiston, Qozog'iston, Birlashgan Arab Amirliklari, Germaniya, Janubiy Koreya va Rossiya kabi davlatlardan keltirilgandi [23].

Dunyoda axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanmoqda. Jahonda uning o'sish sur'atlari yiliga 10 foizni tashkil etib, bu yiliga jami 4 trillion 300 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Ushbu bozorda mustahkam o'rin egallash uchun mamlakatimizda katta ishlar boshlangan. So'nggi besh yilda sohaga 2 milliard dollar, shu jumladan, 700 million dollar to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar yo'naltirilgan. Mamlakatimiz hududlarini tezkor internet bilan qamrab olish darajasi 70 foiz atrofida bo'lgan. 118 ta qishloqqa internet ham, mobil aloqa ham kirib bormagan. Biroq shunday bo'lishiga qaramasdan so'nggi uch yilda mobil internet narxi 9 barobarga arzonlashdi. Mamlakatimiz bu boradagi xalqaro reytingda 68-o'rindan 15-o'ringa ko'tarildi[24].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Uyali aloqa O'zbekiston aloqa bozorining eng tez o'sib borayotgan va raqobatbardosh tarmog'iga aylandi. "Nokia" (Finlyandiya), "Panasonic" (Yaponiya), "LG", "Samsung" (Janubiy Koreya), "Artel" (O'zbekiston) uyali qo'l telefonlari hatto maktab bolalarining kundalik foydalandigan aloqa vositasiga aylandi. Ularning ayrimlari Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur kabi davlatlar kompaniyalari bilan hamkorlikda O'zbekistonning Navoiy viloyatidagi erkin iqtisodiy zonasida ishlab chiqarilib, raqobatbardoshligini oshirdi. O'rganilgan davrlarda mobil aloqadan foydalanuvchilarning haqiqiy soni biroz kamroq bo'lishi ham mumkin. Chunki bir odam ayni paytda bir necha operatorlar xizmatidan foydalanayotgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** O'ttiz yil oldin, yurtimizda hech kim uyali aloqa bu qadar mashhur bo'lishini kutmagan edi. Uzoq vaqt davomida mobil telefon qimmatligi sababli yirik tadbirkorlar hamda davlat xizmatchilari ishlatishgan xolos. Uyali aloqa tizimining jadal rivojlanishi birinchi navbatda stasionar aloqa aholi ehtiyojlarini qondira olmasligi bilan bog'liq edi. Mamlakatimizda 1991-yilda "O'zdunrobita" nomli O'zbekiston-AQSH qo'shma korxonasi ochilgan. O'sha paytda u Markaziy Osiyoda, MDH davlatlari orasida birinchi uyali aloqa kompaniyasi hisoblanardi. Keyinchalik Ukraina va Qozog'istonda uyali aloqa telefonlaridan foydalanish boshlangan. 1994-yilning mart oyida MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib, Toshkent va Urganch shaharlari o'rtasida avtomatik rouming loyihasi amalga oshirilgan.

Keyingi yillarda "Ucell", "Beeline", "UMS" va boshqa uyali aloqa kompaniyalari tomonidan sifatli yangi xizmat turlarini taklif qilish natijasida aloqa sifati misli ko'rilmagan darajada yaxshilandi. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning hududiy filiallarida uyali aloqalar texnologiyasi bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlashni amalga oshirish yo'lga qo'yish va kengaytirish, maxsus sirtqi bo'limlarni ochish maqsadga muvofiq sanaladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida). – Buxoro: Durdona, 2022. – B.94.
2. Daryo.uz.
3. gadgetstyle.com.ua.
4. L.N. Jo'rayev, G'R.Mamatqulov, R.F.Xudoyberdiyev, B.I.Axtamov. Zamonaviy pochta aloqasi o'quv qo'llanma. — Toshkent, 2016. – B.33.
5. Uyali aloqa sistemalarini qurish va loyihalash prinsiplari. — Toshkent, 2000. – B.9.11.
6. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida). – B.95.
7. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida). – B. 96,101.
8. Uyali aloqa sistemalarini qurish va loyihalash prinsiplari. — Toshkent: 2000. – B.11.
9. Abdullayev F. Axborot tizimlarning keng maydoni. Aloqa dunyosi, 2001 1(2). – B.4.
10. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida). – B. 96,101.
11. Uyali aloqa sistemalarini qurish va loyihalash prinsiplari. — Toshkent: 2000. – B.11.
12. Abdullayev F. Axborot tizimlarning keng maydoni. Aloqa dunyosi, 2001 1(2). – B.4.
13. Yusupov I. Mustaqillik yillarida Xorazmda pochta aloqa tizimining yangi bosqichga ko'tarilish tarixi //Qadimiy Jizzax vohasi – Markaziy Osiyo Sivilizatsiyasi tizimida (siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot). – S. 272.
14. Istoriya razvitiya sotovoy svyazi v Uzbekistane // www. infocom.uz. 26.07.2011. – S. 25.
15. Подольский С.О роли Перфектум Мобиле в социальной жизни Узбекистана // Infocom.uz — Toshkent, 2009. – № 5.67. – S.67.
16. Yusupov I. История подъема системы подготовки персонала на новый уровень в системе коммуникаций в новом Узбекистане //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – S. 549-554.
17. История развития сотовой связи в Узбекистане // www. infocom.uz. 26.07.2011. – S. 25.
18. Sultonovich, Yusupov Izzat. "O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi". *Scientific journal of the Fergana State University* 4 (2022): 62-66.
19. Подольский С.О роли Перфектум Мобиле в социальной жизни Узбекистана // Infocom.uz — Toshkent, 2009. – № 5.67. – S.70.
20. Infocom.uz — Toshkent, 2009. – № 6. – B.12.
21. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida) //Buxoro: Durdona. – 2022.
22. Sultanovich Y. I. The first stages of formation communication means in Khorezm //International Journal on Integrated Education. – Т. 2. – №. 5. – S. 98-100.
23. Yusupov I. S. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimining moddiy texnik bazasini rivojlanish tarixi // взгляд в прошлое. – 2022. – Т. 5. – №. 10.

24. Yusupov I. The history of the rise of the postal communication system to a new level in Uzbekistan during the years of independence //Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies. – 2022. – №. 03. – S. 92-97.

UO'K 903.04:332.1(575):316

## O'RTA OSIYO HUDUDIDA TEMIR DAVRI SHAHAR MADANIYATINING IQTISODIY ASOSLARI VA IJTIMOY TUZILMALARI

*M.X.Zaripova, magistrant, Osiyo xalqaro universiteti Xorazm filiali, Urganch*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O'rta Osiyo hududidagi temir davri tarixiga bag'ishlangan (taxminan mil.avv. I ming yillik) shahar madaniyatining iqtisodiy asoslari va ijtimoiy tuzilmalarini o'rganadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi mintaqadagi birinchi shaharlarning paydo bo'lishida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo sug'orish tizimlarining o'zaro bog'liqligini, shuningdek, bu jarayonda ijtimoiy tabaqalanish, ma'muriy boshqaruv tizimlari va madaniy integratsiyaning rolini o'rganishdir. Maqolada o'rta Osiyo shahar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek mintaqaning boshqa qadimiy sivilizatsiyalari bilan taqqoslash orqali shahar madaniyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, temir davri, shahar madaniyati, iqtisodiy asoslar, ijtimoiy tuzilma, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik ixtisoslashuvi, savdo tarmoqlari, ma'muriy boshqaruv.

**Аннотация.** Эта статья посвящена истории Железного века на территории Средней Азии (ок. I тысячелетие до н. э.) исследует экономические основы и социальные структуры городской культуры. Основная цель исследования-изучить взаимосвязь земледелия, ремесел и коммерческих ирригационных систем в возникновении первых городов в регионе, а также роль социального расслоения, систем административного управления и культурной интеграции в этом процессе. В статье раскрываются особенности городской культуры Средней Азии, а также городская культура по сравнению с другими древними цивилизациями региона.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, железный век, городская культура, экономические основы, социальная структура, ирригационное земледелие, ремесленная специализация, торговые сети, административное управление.

**Abstract.** This article is devoted to the history of the Iron Age in the territory of Central Asia (CA.in the 1st century BC. I Millennium) studies the economic foundations and social structures of urban culture. The main objective of the study is to study the interconnection of agricultural, craft and commercial irrigation systems in the emergence of the first cities in the region, as well as the role of social stratification, administrative management systems and cultural integration in the process. The article reveals the peculiarities of Central Asian urban culture, as well as urban culture through comparisons with other ancient civilizations of the region.

**Key words:** Central Asia, Iron Age, urban culture, economic foundations, social structure, irrigation farming, craft specialization, trade networks, administrative management.

**Kirish.** Markaziy Osiyo mintaqasi insoniyat tarixidagi eng qadimgi shahar madaniyati markazlaridan biri hisoblanadi. Temir davriga kelib, mintaqada shaharsozlik sifatning yangi darajasiga ko'tarildi, bu nafaqat me'moriy rivojlanishda, balki iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning murakkablashuvida ham namoyon bo'ldi [1]. Igari uyushmagan ko'chmanchi jamiyatlardan farqli o'laroq, temir asri qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik ixtisosligiga asoslangan barqaror shahar markazlarining paydo bo'lishini ko'rdi [2]. Ushbu maqolaning magsadi nafaqat shaharsozlik-arxitektura yodgorliklarining ko'rinishi, balki uning mohiyatini tashkil etuvchi iqtisodiy asoslar va ijtimoiy tuzilmalarni tahlil qilishdir.

**Metodologiya.** Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlarni ko'rish mumkin:

1. Arxeologik materiallarning murakkab tahlili: temir asri shaharlarida olib borilgan qazishmalar natijasida turli xil hunarmandchilik, mehnat qurollari, savdo mollari, turar-joy va ma'muriy binolarning qoldiqlari tahlil qilindi [3];

2. Tarixiy-manbashunoslik usuli: O'rta Osiyo shaharlari haqidagi ma'lumotlar qadimgi yozma manbalarda (Avesto, Ahamoniylar yozuvlari, keyinchalik yunon-rim manbalari) tahlil qilingan;

3. Iqtisodiy tahlil: shaharlarning shakllanishi va rivojlanishida iqtisodiy omillarning (yersoat, suv resurslari, mehnat taqsimoti, mahsulot almashinuvi) rolini aniqlash [4];

4. Qiyosiy-sinxron tahlil: O'rta Osiyo shahar madaniyatini bir vaqtning o'zida rivojlanayotgan O'rta Yer dengizi, Hindiston va Xitoyning shahar sivilizatsiyalari bilan taqqoslash [5].

**Natijalar va munozaralar.** Iqtisodiy asoslarga sug'oriladigan dehqonchilik va hunarmandchilik, temir davridagi Markaziy Osiyo shaharlarining rivojlanishi birinchi navbatda sug'orma dehqonchilik iqtisodiyotining muvaffaqiyatiga bog'liq edi. Murakkab sug'orish tizimlarini (ariqlar, suv taqsimlash inshootlari) yaratish va temir qurollarni joriy etish hosildorlikni keskin oshirdi. Bu nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirdi, balki mehnat unumdorligini oshirdi, bu qishloq xo'jaligiga sarflangan ishchi kuchining bir qismini boshqa sohalarga-hunarmandchilik, savdo, ma'muriyat va mudofaaga qayta taqsimlashga imkon berdi. Shaharlar, bir tomondan, sug'orish tizimini boshqarish va muhofaza qilish markaziga, ikkinchi tomondan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va tarqatish markaziga aylandi [6]. Buni keng hududlarda joylashgan qadimiy Xorazm, Baqtriya va Sug'd shaharlarining omborlari tasdiqlaydi.

Shahar madaniyatining paydo bo'lishining asosiy omili ilg'or sug'orish dehqonchiligini yaratish edi. Murakkab kanal va ariq tizimlarining qurilishi (masalan, qadimgi Xorazmdagi Xorazmshoh kanal tizimi) nafaqat suv resurslarini samarali boshqarish, balki keng erlarni qishloq xo'jaligiga jalb qilish imkonini berdi. Biroq, temirdan keng foydalanish bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtirdi: temir ketmonlar va o'roqlar nafaqat hosildorlikni oshirdi, balki sug'orish inshootlarini qurish va ta'mirlash samaradorligini ham oshirdi. Bu iqtisodiyotda mehnat unumdorligining oshishiga olib keldi, bu esa jamiyatdagi aholining bir qismini qishloq xo'jaligidan butunlay ajratishga olib keldi. Hunarmandchilikda ixtisoslashuv va standartlashtirish oshdi. Metallga ishlov berish, kulolchilik, to'quvchilik, shisha yasash, zargarlik buyumlari kabi hunarmandchilikning alohida tarmoqlari shakllandi. Ular nafaqat mahalliy ehtiyojlar uchun foydali bo'ldi, balki shaharlararo savdo uchun mo'ljallangan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda ham keng ko'lamda foydalanildi. Bu shaharlarni mintaqalararo savdo yo'llarining muhim strategik joyga aylantirdi [6]. O'zbekistonning tarixiy - madaniy viloyatlarida temir davriga oid aholi turar joylarni ro'yxatga olishni, ularni xaritaga joylashtirish va arxeologik izlanishlarni S.P. Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya (1937) boshlab bergan, 1945-yildan arxeologiya - etnografiyaekspeditsiyasi Amudaryo so'l sohili - hududi, Sariqamishbuyi havzasi Dovdon irmog'i o'rta qismi shimoliy qismidagi yodgorlik undan boshlangan [7].

Savdo tarmoqlari va aloqalarida Markaziy Osiyo shaharlari geografik jihatdan Evrosiyoni kesib o'tgan savdo yo'llari chorrahasida joylashgan edi [8]. "Lazurit yo'li" (Badaxshondan Mesopotamiyaga), temir, qalay, ipak va boshqa qimmatbaho buyumlar savdosi shahar iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Savdo nafaqat moddiy boylik keltirdi, balki texnologiyalar, g'oyalar va madaniy elementlarning tarqalishiga ham sabab bo'ldi [9]. Ijtimoiy tuzilma va ma'muriy boshqaruvda murakkab iqtisodiy faoliyat murakkab ijtimoiy va ma'muriy tuzilmalarni talab qildi. Shahar jamiyati ajralib turardi:

- Yuqori sinf: hukmdor (Qirol/qabila boshlig'i), uning oilasi, yuqori martabali ruhoniylar, harbiy rahbarlar va er-suv egasi bo'lgan yirik zodagonlar. Ular shahar va uning atrofidagi qishloqlar ma'muriyatini, sud ishlarini nazorat qildilar;

- Erkin fuqarolar: hunarmandlar, savdogarlar, kichik yer egalari, ziyolilar (kotiblar, shifokorlar). Ular o'zlarining professional uyushmalariga (gildiyalariga) birlashgan bo'lishi mumkin;

- Qaram aholi: erkin bo'lmagan dehqonlar, kambag'al shaharliklar, asirlikdan olingan qullar.

Hokimiyat irsiy bo'lib, diniy va dunyoviy kuchlar ko'pincha bir odamda mujassam bo'lgan. Ahamoniylar imperiyasining bir qismi sifatida ushbu tuzilishga satrap (gubernator) boshchiligidagi viloyat ma'muriyati qo'shildi.

Markaziy Osiyo shahar madaniyati qo'shni buyuk sivilizatsiyalar (masalan, Mesopotamiya, Misr, Xitoy va Hindiston) bilan bir qator umumiy xususiyatlarga ega (sug'orish dehqonchiligi, ijtimoiy tabaqalanish, ma'muriy markazlashtirish) bo'lsa-da, bir qator muhim farqlar mavjud:

- Ekologik moslashuvchanlik: Mesopotamiya yoki Nil vodiysidan farqli o'laroq, O'rta Osiyoning asosiy daryolari (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon) ko'pincha cho'l va yarim cho'l zonasidan o'tadi. Shunday qilib, shahar madaniyati murakkab va texnologik jihatdan rivojlangan sug'orish tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatiga to'liq bog'liq edi;

- Ko'chmanchilar bilan dinamik o'zaro ta'sir shuni ko'rsatadiki shaharlar hech qachon alohida rivojlanmagan. Ular doimiy xo'jalik (go'sht, terilar, jun, hunarmandchilik buyumlari evaziga don) va cho'l va tepaliklarda yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalar (skiflar, saklar, massagetlar va boshqalar) bilan madaniy almashinuvda bo'lishgan;

- Madaniy sintez va uzatish markazi: Ellinistik, hind va keyinchalik Xitoy madaniyati ta'sirida bo'lgan o'rta Osiyo shaharlari Yevroosiyo madaniyati o'rtasida vositachi sifatida muhim rol o'ynagan, bu ta'sirlarni o'zlashtirgan va o'zgartirgan, so'ngra ularni qo'shni mintaqalarga tarqatgan.

**Xulosa.** O'rta Osiyoda temir asri shahar madaniyatining paydo bo'lishi va rivojlanishi, birinchi navbatda, sug'orma dehqonchilik iqtisodiyotining yuksalishi va hunarmandchilikning ixtisoslashuviga asoslangan murakkab iqtisodiy tizimning shakllanishining natijasi bo'ldi. Shaharlar nafaqat ishlab chiqarish va boshqaruv markazlari, balki ularning iqtisodiy mustaqilligi va madaniy boyligini ta'minlaydigan keng mintaqalararo savdo tarmoqlarining muhim tugunlari sifatida ham faoliyat yuritgan. Iqtisodiy rivojlanish chuqur ijtimoiy tabaqalanish va markazlashgan ma'muriy boshqaruv tizimini keltirib chiqardi, unda hukmdor va uning atrofidagi zodagonlar qatlami ustun mavqega ega edi. Markaziy Osiyo shahar madaniyatining rivojlanish modeli mahalliy tabiiy-geografik va iqtisodiy sharoitlardan, qo'shni sivilizatsiyalar ta'sirining noyob sintezi bilan shakllangan.

O'rta Osiyo shahar madaniyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, u mahalliy an'analar va qo'shni sivilizatsiyalar ta'sirining uyg'un sintezi bilan rivojlangan. Mintaqaning geografik joylashuvi, tabiiy boyluklari va savdo yo'llarining chorrahasi shaharsozlik jarayoniga alohida ta'sir ko'rsatdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston arxeologiyasi. – Toshkent: “Fan”, 2010-2016. (3-jild: Temir davri). – B. 25,142,178.
2. Buryakov Y. F. O'rta Osiyoda shaharsozlikning kelib chiqishi va rivojlanishi.–Toshkent: “Fan”, 2005. – B. 47.
3. Shaydullaev Sh. B. Afrosiyob – qadimgi Samarqand.–Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. B. 33.
4. G'ulomov Y. G'. O'rta Osiyo sug'orma dehqonchilik tarixi. – Toshkent. “O'qituvchi”, 1988. – B. 78,87.
5. Rtveladze E. V. Qadimgi va o'rta asr O'rta Osiyosi shaharlari. – Toshkent. “Sharq, 2002. – B. 89, 115,134.
6. Isamididinov M. X. Qadimgi O'rta Osiyoda suv xo'jaligi va shaharsozlik.–Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2008.– B. 92,104.
7. G'affarov M.Q. O'zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi (mil. avv. IX - V asrlar). Monografiya. – Urganch. 2025.
8. Suleymanov R. X. Qadimgi Xorazm madaniyati. –Urganch. Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2019. – B. 67.
9. Askarov A. A. Qadimgi O'rta Osiyo madaniyati. – Toshkent: “Fan”, 1991. – B. 156.

**UO'K: 63.3(2)7**

#### **BUXORODA 1920–1921 YILLARDA SIYOSIY BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATI**

*Sh.S.Zayniddinova, katta tergovchi, Toshkent shahar Olmazor tumani IIO FMB huzuridagi  
Tergov bo'limi, ilmiy xodim, Qarshi Davlat universiteti, Qarshi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoroda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, sovet hokimiyatining o'rnatilishi hamda uning harbiy va siyosiy repressiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet davrida milliy respublikalarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayoti, kommunistik partiyaning davlat boshqaruvidagi roli hamda bolsheviklar tomonidan shakllantirilgan totalitar boshqaruv tizimi yoritiladi. Shuningdek, sovet hokimiyatining favqulodda kuch ishlatuvchi idoralari faoliyati, ularning mahalliy aholi, milliy kadrlar, ziyolilar va ma'rifatparvarlarga nisbatan olib borgan qatag'on siyosati hamda uning oqibatlarini ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi. Maqolada 1920 yil avgust–sentabr oylarida Buxoroda yuz bergan harbiy voqealar, qizil armiya tomonidan amirlik tuzumining ag'darilishi hamda yangi sovet boshqaruv organlarining shakllanish jarayoni ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro, favqulotda komissiya, sovet hokimiyati, qatag'on siyosati, totalitar boshqaruv, inqilobiy komitet, Fayzulla Xujayev.

**Аннотация.** В данной статье анализируются общественно-политические процессы, происходившие в Бухаре, установление советской власти и ее военные и политические репрессии. В исследовании освещается социально-экономическая, политическая и духовная жизнь национальных республик в советский период, роль коммунистической партии в государственном управлении, а также тоталитарная система управления, сформированная большевиками. Также на основе научных источников анализируется деятельность чрезвычайных силовых органов советской власти, их репрессивная политика в отношении местного населения, национальных кадров, интеллигенции и просветителей, а также ее последствия. В статье также рассматриваются военные события, произошедшие в Бухаре в августе-сентябре 1920 года, свержение режима эмирата Красной Армией и процесс формирования новых советских органов управления.

**Ключевые слова:** Бухара, чрезвычайная комиссия, советская власть, политика репрессий, тоталитарное правление, революционный комитет, Файзулла Ходжаев.

**Abstract.** This article analyzes the socio-political processes that took place in Bukhara, the establishment of Soviet power, and its military and political repressions. The study examines the socio-economic, political, and spiritual life of the national republics during the Soviet period, the role of the Communist Party in state governance, and the totalitarian system of governance formed by the Bolsheviks. Also, based on scientific sources, the activities of the emergency power bodies of the Soviet government, their policy of repression against the local population, national personnel, intellectuals, and educators, as well as its consequences, are analyzed. The article also examines the military events that took place in Bukhara in August-September 1920, the overthrow of the Emirate regime by the Red Army, and the process of forming new Soviet governing bodies.

**Keywords:** Bukhara, emergency commission, Soviet power, policy of repression, totalitarian rule, revolutionary committee, Fayzulla Khodzhaev.

Kirish. Dunyoning turli ilmiy-tadqiqot markazlari, ixtisoslashgan ilmiy-strategik muammolar bilan shug'ullanuvchi tashkilot va muassasalari tomonidan XX asrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixi hamda sovet hokimiyati davrida milliy respublikalarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayoti, kommunistik partiyaning davlat boshqaruvidagi o'rni, bolsheviklarning tashkillagan o'ziga xos totalitar boshqaruv tartiboti hamda sovet hokimiyatining favqulodda kuch ishlatuvchi idoralari, ularning yerli xalq vakillariga, milliy kadrlar, ma'rifatparvarlar, ziyolilar hamda boshqa qatlam vakillariga qarshi olib borilgan qatag'onlik siyosati va uning oqibatlari yuzasidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmogda.

Buxoroda ham sovet hukumatining olib borgan harbiy, siyosiy repressiyalari Turkiston va Xorazmdagidan qolishmadi.

1920-yil 25-avgustda qo'mondon Frunze Turkfront qo'shinlariga "qo'zg'olon ko'targan Buxoro mehnatkashlariga yordam ko'rsatish to'g'risida" buyruq beradi. Zarbdor guruhlarning ko'pchiligida dastlabki pozitsiyalarni egallash va 29-avgust o'tar kechasi faol xarakatlarni boshlash buyriladi. Qizil askarlar tomonidan "Sharq mo'jizasi" hisoblangan muqaddas Buxoro shahri shafqatsiz ravishda o'qqa tutildi. Zamonaviy qurollar bilan qurollangan qizil armiya 1920-yil 2-sentyabrda Buxoroda amirlik tuzumini ag'dardi. Shunday qilib, Buxoroda qizil askarlar nayzalari ostida amirlik hokimiyati ag'darib tashlandi.

1920-yil 14-sentyabrda bo'lgan Xalq Nozirlari Sho'rosi, Revkom va BKP MKning umumiy yig'ilishida 9 kishidan iborat Butun Buxoro inqilobiy komiteti (rais Abdulqodir Muhiddinov) va respublika xukumati 2 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho'rosi (rais Fayzulla Xo'jayev) tuzildi. Buxoro inqilobiy komitetining a'zolari qilib M.Aminov, Olimxon Achkurin, Abdulhamid Oripov, Sobir Yusupov, Xoji Hasan Ibrohimov, Fayzulla Xo'jayev, Qulmuhammedov tayinlandi [1]. Yig'ilish qaroriga asosan Yusuf Ibrohimov Butunbuxoro Favqulodda komissiyasi noziri etib tayinlandi [2].

1920-yil oktyabr-noyabr oylarida BXR bilan RSFSR o'rtasida muvaqqat harbiy-siyosiy ahdlashuv va shartnoma tuzildi. 1921-yil 4-martda esa har ikki davlat o'rtasida "Ittifoq shartnomasi"

imzolandi [3] Ushbu shartnomalar mustaqil siyosat yuritishga harakat qilayotgan Buxorodagi Yosh Buxoro davlat arboblari faoliyatini cheklashga olib keldi. "Ittifoq shartnomasi" mustaqil Buxoro davlati xududida sovet qo'shinlari turishini "qonuniy asoslab" berdiki, mazkur hol BXSР ichki ishlariga Rossiyaning to'g'ridan to'g'ri harbiy jihatdan qurolli aralashuvidan boshqa narsa emas edi. Qizil armiya kuchi bilan minglab maxalliy tinch axolini ham qirib o'rnatilgan sovet hokimiyati Buxoroda yana Qizil armiya qismlarini ushlab turishi, yerli xalq urf-odatlarini mensimay oyoq osti qilishi Buxoro zaminida ham sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik xarakatini kuchaytirib yubordi.

Buxoroda sovet hokimiyatini mustahkamlashda, qurolli harakat qatnashchilarini jismonan yo'q qilishda qizil armiya bo'linmalariga aksilinqilobiy harakatlarga qarshi kurashish maqsadida tashkil qilingan sovet hokimiyatining Buxorodagi qatag'on siyosatining dastlabki ijrochi organi butunbuxoro Favqulodda komissiyasi (CHK) tayanch vazifani bajarib berdi. Markazdan yuborilgan chekistlardan tashkil topgan Buxoro CHK "milliy aksilinqilobiy" harakatlarga qarshi, qurolli harakat qatnashchilariga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. Sovet ideologiyasiga qarshi bo'lgan kishilarni jismonan yo'q qilish bilan shug'ullandi.

1920-yil kuzida Buxoroda bolsheviklar tomonidan tashkil qilingan Buxoro CHK sining raisi Hoji Hasan Ahromim o'g'li, "Inqilobiy" tribunal raisi esa Olimjon Akchurin bo'lib [4], ular Buxoroga Markaz tomonidan yuborilgan edilar.

Arxiv xujjatlarining guvohlik berishicha Buxoro CHKsi qoshida alohida otliq hamda piyoda qo'shin rotalari ham bo'lgan edi [5]. Undan tashqari BXSРning viloyat va uyezdlarida ham Favqulodda komissiya va uning maxsus bo'limlari tashkil topgan edi. Jumladan, 1921-yil yanvarda Boysun Favqulodda komissiyasiga I. Hasanov, maxsus bo'limiga esa R. Geyzer, GPU raisligiga Oltinboy Abdullayevlar tayinlandi [6]. Ular o'z ish faoliyatlari bilan Boysunda sovet hokimiyatini mustahkamlashga xizmat qildilar.

**Xulosa.** Buxoro Xalq Sovet Respublikasida amirlik tuzimining qizil armiya kuchlar yordamida ag'darilishi hamda sovet andozasi asosidagi sotsialistik tuzimni o'rnatilishida Butunbuxoro Inqilobiy qo'mitasi (Revkom) asosiy rol o'ynadi. Shuningdek, bolsheviklar tomonidan BXSРda tashkil etilgan sovet hokimiyatining jazolovchi idoralari ishchi-dehqon militsiyasi va Inqilobiy tribunallar ham o'z faoliyati davomida bu yerda sovet hokimiyatini mustahkamlash, sotsialistik totolitar tartibotga qarshi bo'lgan kuchlarning ham jismonan ham ma'n'an yo'q qilishda faol qatnashib, tom ma'nodagi bosheviklarning jazolovchi organlari vazifasini bajardilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rajabov Q. Buxoro Halq Respublikasi: manarxiyadan demokratiya sari dastlabki qadamlar (1920-1924-yillar). O'zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. Davriy to'plam № 2. T.: Sharq, 1999,-B.152
2. O'z MA, R-47-fond, 1-ro'yhat, 5-ish, 65-varaq
3. Rajabov Q. Buxoro Halq Respublikasi: manarxiyadan demokratiya sari dastlabki qadamlar (1920-1924-yillar). O'zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. Davriy to'plam № 2. T.: Sharq, 1999,-B.153.
4. O'z MA, R-1713-fond, 1-ro'yhat, 2-y.j., 7-8-varaqlar
5. O'z MA, R-46-fond, 2-ro'yhat, 19-ish, 6-varaq
6. Hayit N. Usmon T. Kurash yillari. –Ioshkent: Mehnat, 1992. –B. 20.
7. Shamsutdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar (Uchinchi kitob). –Andijon: Andijon nashriyot – matdaa, 2004. –B. 242
8. Medvedov V. Nechayannaya revolyutsiya.Drujba narodov. 1992, 2-son. –B. 145
9. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Birinchi kitob 1917-1939-yillar. –Toshkent: O'zbekiston, 2019. –B.100-

101

УЎК 355.1(575.1):94(575.1)

**ХИВА ХОНЛИГИДА ҲАРБИЙ БОШҚАРУВ, МАНСАБ ВА УНВОНЛАР**

**(Қўнғиротлар сулоласи даври)**

**Ш.С.Матякубов, PhD, катта илмий ходим, Хоразм Маъмур академияси, Хива**

**Аннотация.** Мақолада муаллиф Қўнғиротлар сулоласи даврида Хива хонлигида ҳарбий бошқарув, мансаб ва унвонлар тўғрисида маълумотлар бериб ўтади.

**Калит сўзлар:** Ўрта Осиё, Хива, Қўнғиротлар сулоласи, хон, ҳарбий бошқарув, амирулуламо, нақиб, ясовулбоши, саркарда, мингбоши, юзбоши, навкар.

**Аннотация.** В статье автор приводит информацию о военном управлении, должностях и титулах в Хивинском ханстве во времена правления династии Кунградов.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, Хива, династия Кунградов, хан, военное управление, амирулуламо, накиб, ясовулбаши, военачальник, тысячабаши, сотник, солдат.

**Abstract.** In the article, the author provides information about military administration, positions and titles in the Khiva Khanate during the reign of the Kungrad dynasty.

**Key words:** Central Asia, Khiva, Kungrad dynasty, khan, military administration, amirululamo, naqib, Yasovulbashi, military leader, thousandbashi, centurion, soldier.

Ўрта Осиёда вужудга келган йирик давлатлардан биттаси Хива хонлиги эди. Хива хонлигида ҳарбий ҳокимият хон қўлида эди. Хон қўшинга бевосита ўзи ёки амирулуламо орқали фармон берар эди. Хон ўз чегарасини мудофаа қилиш учунгина эмас, балки қўшни давлатларга босқин уюштириб, уларни талон-тарож қилиб, юқори табақадаги амалдорларни бойитиш учун ҳам уруш сафарларига чиқар эди. Урушда қўлга киритилган ўлжанинг бешдан бир қисми бевосита хонга тегиб, давлат хазинасига тушмас эди.

Ҳар бир кимса ҳатто ҳарбий лавозим эгаси бўлмаса ҳам саркарда этиб тайинланиши мумкин эди. Хива хонлари архивида амирулуламо сўзи жуда кўп учрайди лекин Муҳаммад Амин иноқ ҳукмронлик қилган даврларда амирулуламо акаси Фозилбий эди. Ўшандан кейин амирулуламо унвони ҳеч кимга берилмаган эди.

Гарчи Хива хонлигида қўшиннинг бош штаби бўлмасада, лекин вазифаси жиҳатидан штаб бошлиғига ўхшаш мансаб бор эди, бу вазифани накиб бажарар эди. Накиб мадраса тугатган киши бўлиб, пайғамбар наслидан бўлиши керак эди. Расмий хон қабули маросимларида накиб хўжа хоннинг сўл томонида биринчи ўринда ўтирар эди. Бу ҳақда манбаларда: “Офтобдек равшан ақл ва фаросат эгаларидан махфий қолмағайким саодатли хоконнинг сўл томонидаги энг муҳим ўрин мўътабар накиблар яъни ҳазрати Али уруғининг намаёндалари ўрнидир. Бу олижаноб кишилар синфига ҳурмат шу даражага етиб борар эдики, шаҳзодалар ҳатто валиаҳд шаҳзода ҳам накибдан куйироқда ўтирар эдилар”[1] дейилади.

В.В.Бартольднинг маълумот беришига қараганда: “Накиб хўжа саййидлар ва хўжалар учун юқори фахрий унвон эди. Накиб хоннинг энг яқин маслаҳатчиларидан бўлиб, сафарларда хонга ҳамроҳлик қилар эди”[2].

Накиб уруш сафари вақтида қўшин тузиш, уни қуроллантириш ва жойлаштириш маҳоратига эга бўлган, олд ва орқадаги, ўнг ва сўл қанотдаги, марказ ва пистирмадаги аскарлар ҳолидан хабардор бўлган накиб ўз вазифасини маълум даражада бажармаган ёки лойиқ бўлмаган кишини маълум вазифани бажаришга қўймайди. Баёний маълумотларига қараганда Хивада уруш сафарлари вақтида накиб юқоридаги вазифаларни бажарган. Баёний сўзларига қараганда: “Хон сайлови вақтида ҳам накиб иштирок этар эди. Хонлар накибларга таянар эдилар. Накибга Муҳаммад Раҳимхон муштумдек келадиган олтин инъом қилган. Хон ёвмутлардан хирож тўплаш муаммо бўлган вақтларида накиб хўжани юборган”[3].

Хива хонлигининг 1858-1860-йилларга оид дафтарларига қараганда амирулуламо унвони бевосита накибдан кейин келади. “Бу унвон эгаси энг катта маош 500 тилло олган”[4] дейилади.

Амирулуламодан кейин расмий равишда юқори саркарда ясовулбошилиқ мансаби эди. Хонликда улар икки киши бўлиб, бири ёвмут туркманларига яна бириси човдурларга қўмондонлик қилар эди.

Ясовулбоши вазифаси хоннинг фармонига мувофиқ хон қўшинини ўз вақтида урушга бошлаб боришдир. Тинчлик вақтларида ясовулбошилар хонларнинг турли илтимосномалари яъни хон қабуллари маросимларида ҳозир бўлишга мажбур эди. Абдулла Болтаевнинг маълумотларига кўра хон қабулига арз билан келган кишидан ясовулбоши қаттиқ овоз билан -арзинг нимадир? деб сўрар эди. Абдулла Болтаевга кўра ясовулбоши хонликда махфий маҳкама бошлиғи ҳам бўлган.

Ҳар бир ясовулбошининг бир нечта ёрдамчиси бўлиб, улар ясовуллар деб аталган. Худудлардан келган кишиларнинг арзномаларини текшириш учун хондан фармон

олгач, ясовулбоши ўз ёрдамчилари билан шикоятчига кўшилиб, ҳодиса юз берган манзилга юборилар эди. Текширув ишлари якунига етгандан сўнг, ясовулбоши саройдан бошлаб босилган ҳар бир тош (бир тош-18 чақирим) масофа учун арзгўйдан ўз фойдасига уч ярим танга маблағ ундириб олган.

“Олдинлари ясовулбошиларда унинг унвонини кўрсатадиган кумуш қалпоқлик асо бўларди, кейинчалик камарига пичоқ тақиб юрадиган бўлишди”[5]. Ясовулбошиларга ясовуллар, миршаблар, эшик оғалари итоат қиларди. Ясовулбошилардан кейин мингбошилар келади.

Мингбошиларга сарой харажатлари ёзилган маълумотларга қараганда тузуккина инъомлар берилган. Мингбоши лавозимида хонга сидқидилдан хизмат кўрсатганлар хон саройига хонга яқин лавозимларга тайинланганлар. Бу ҳақда Баёний куйидаги маълумотларни ёзиб қолдиради: “1248 йили мингбоши меҳтар қилиб тайинланган”[6]

Саркардалик мансаби хон кўшини уруш сафарига чиққан даврларда тузилган. Манбаларда маълум бўлишича саркардалар қоида бўйича ўз уруғларидан тайинланмас эди. Хонлар бу ҳолатни эҳтиёткорлик амали деб ҳисоблаган бўлсалар керак. Мингбоши ва юзбошилар сингари саркардалар ҳам бевосита хоннинг ёрлиғи билан тайинланар эди. Саркардалар ҳарбий маҳкама кишилари бўлмаслиги ҳам мумкин эди. Масалан мироблар саркарда бўлган ҳолатлар мавжуд. Бу ҳақда манбаларда: “Кўшинни шарқ томондан ҳимоя қилиш учун гўкланлар ва қорадошлиқлардан тузилган кўшинга бошлиқ қилиб, жасур Худоёр бий билан Тоғой мироб тайинланди”[7]. Огаҳий ўзининг Оллоқулихон ва унинг даврига бағишланган “Риёз-уд-давла” тарихий асарида бу ҳақда куйидагича ёзади: “Хон ҳазрат энг аввал давлат ишларини йўлга қўйиб, фуқаро тинч ва роҳатда ҳаёт кечири бошлаганда, сарказлик қилган кофирларни қириш учун ўз кўшинини юборишни истадилар, зероки, мусулмонлар ҳар йили кофирларни қириб туришлари ва жиҳод муқаддас талабига биноан жанг майдонларида жавлон қилишлари лозим. Улуғ ҳукмдорлар зиммасидаги бу қарзни бажо келтирмоқ учун зоти олий қизилбошларга қарши урушмоқ мақсадида кўшин юбормоқни зарур деб топдилар. Кофирларга қарши ғазот учун хон ҳазрат марҳамат айлаб, саодатли шахзода Раҳмонкули тўрани ўзларига ноиб ва саркарда қилиб тайинладилар ва уруш сафари учун зарур бўлган ва керакли кишилари мукофотлаб, хурсанд қилиш учун барча восита ва маблағларни бердилар”[8].

Архив маълумотларидаги юзбошилар рўйхатида саранг ва катовул мансаби ҳам учрайди. Абдулла Болтаев маълумотларига қараганда саранглар-қалъа атрофидаги мудофаа тўсиқларини қуришга жавобгар бўлган амалдорлар. Шаҳар атрофида душман отларининг йўлини тўсиш учун қатор қилиб қозиқлар қоқилар эди.

Навкарларга бошқа мамлакатлар Эрон ёки Бухорога қарши ҳарбий юриш қилинса, хон уларга маош тўламас эди. Ҳар бир навкар ўз куниини ўзи кўриши лозим эди. Навкар туширган ўлжасининг бешдан бир қисмини хонга беришга мажбур эди. Хива кўшини асосан навкарлардан тузилар эди. 1840 йилларда Хивадан 6445 навкар бўлган. Бундан ташқари Ҳазорасп, Бешариқ, Пирнак худудларида 2396 навкар бўлган. XIX-асрнинг ўрталарида хон навқари кўшинларининг сони тахминан 9-10 минг кишини ташкил этган. Навкарларнинг ўртача ҳисобда 20 таноб ери бўлган. Бнинг эвазига навкар ўз ҳисобидан ҳарбий хизмат вазифасини бажарган, шунинг учун навкар маълум даражада даромад манбаига эга эди. Хон томонидан инъом қилинган ерни навкар деҳқонларга ижарага берар ёки деҳқонлар ёрдами билан ўзи экдиар эди. Ҳақиқатда деҳқонларнинг навкарлик хизмати билан ҳеч қандай алоқаси йўқ эди. Ҳарбий хизмат қилиш деҳқоннинг эмас, навкарнинг вазифаси эди. Деҳқон ёки чорикорга кимнинг ерида ишлаш ўрта ҳол деҳқоннинг ерими ёки навкарнинг ерими барибир, фарқи йўқ эди.

Навкарлар солиқлардан ва бошқа мажбурий тўловлардан озод эдилар. Улар хон кўшинининг асосий қисмини ташкил этиб, нафақат кўшни давлатларга қарши урушларда қатнашиши балки ўз халқини исканжада сақлаш учун ҳам хон улардан фойдаланар эди. Хива хонлигида навкарларнинг махсус ҳарбий кийимлари, давлат мукофотлари, нишонлари ва медалари ҳам йўқ эди.

Фақат хон учун алоҳида хизмат кўрсатган ҳарбийлар ва амалдорлар пул, ер-сув, мол ва қимматбаҳо буюмлар билан сийланар эдилар.

Хива кўшинлари таркибида деҳқонлардан шаклланган навкарлардан ташқари туркманлар, қорақалпоқлар ва бошқа кўчманчи халқларнинг аскарлари ҳам бор эди. Кўчманчи халқлар хонга маълум миқдорда аскар беришга мажбур эдилар.

Хулоса қилиб айтганда Қўнғиротлар сулоласи даврида ҳарбий тузилмалар билан бир қаторда қонунчилик, суд ва маъмурий ҳокимият, солиқ, молия ва божхона ва бошқа турли маҳкамалар тартибли фаолият юритилишига қараб, Хива хонлигидаги давлат бошқаруви тизимини албатта марказлашган давлатлар жумласига киритиш ҳуқуқини беради

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. А.А.Семёнов. "Бухарский тракт" Советское востоковедение. 5. 1948 140-бет.
2. В.В.Бартольд. Церемония при дворе узбекских ханов. Записки Русск-Геогр. общ. СПб. 1909. 301 стр.
3. Баёний Хоразм тарихи. 328 бет.
4. Хива хонлари архиви. 63, 64, 89-дафтарлар.
5. СССР ФАШИ архив фонди. 33. п 2. 78-варак.
6. Баёний. Хоразм тарихи. 435 бет.
7. Материали по истории туркмен и Туркмении.
8. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўгли Огаҳий. Риезу-д-давла. Урганч. 2021. Куванчбек-Машхура нашриёти.

94 бет.

УЎК 930.85

### 1991-2016 ЙИЛЛАРДА БУХОРО ВИЛОЯТИНИНГ МУСИҚИЙ ҲАЁТДАГИ АЙРИМ ЎЗГАРИШЛАР

*С.Н.Ходжаева, катта ўқитувчи, Бухоро давлат техника университети, Бухоро*

**Аннотация.** Мақолада 1991-2016 йиллар давомида Бухоро вилоятининг мусиқий ҳаётидаги айрим ўзгаришлар таҳлил қилинган. Жумладан, бухоролик санъаткорларнинг хориж, республика ва вилоятда ўтказилган кўрик-танловлар, маданий тадбирлардаги иштироки, ансамбллар ва хонандалар фаолияти, мусиқа санъатида эришилган натижалар тадқиқ этилган.

**Калит сўзлар:** Санъат, мусиқа, кўрик-танлов, қўшиқ, концерт, ансамбл, хонанда, "Нихол" мукофоти

**Аннотация:** В статье анализируются некоторые изменения в музыкальной жизни Бухарской области в период 1991-2016 годов. В частности, были изучены участие бухарских артистов в конкурсах, проводимых за рубежом, в республике и регионе, в культурных мероприятиях, деятельность ансамблей и певцов, а также результаты, достигнутые в музыкальном искусстве.

**Ключевые слова:** Искусство, музыка, конкурсы, песня, концерт, ансамбль, певец, премия «Нихол».

**Annotation:** The article analyzes some changes in the musical life of the Bukhara region during the period 1991-2016. In particular, the participation of Bukhara artists in competitions held abroad, in the republic and in the region, in cultural events, the activities of ensembles and singers, and the results achieved in the art of music were studied.

**Key words:** Art, music, pageant, song, concert, ensemble, singer, "Nihol" award

Бухоронинг мусиқа санъати бой тарихий меросга эга бўлиб, маданиятимизнинг ажралмас қисми ҳисобланади. Мустақиллик йилларида анъанавий ва миллий санъатга бўлган эътиборнинг ортиши натижасида ўтмишдаги мусиқий ижрочилик анъаналарини тиклаш, замонавий шароитларда сақлаб қолиш, миллий мусиқий асарлари ва созларини хорижий мамлакатларда намойиш этиш, мусиқа таълимида янги анъаналарни таркиб топтириш, халқ маънавий меросини асраб-авайлаш ва келгуси авлодларга етказиш борасида қатор ишлар амалга оширилди.

Вилоятда мусиқий фаолият асосан Ўзбекистон давлат филармонияси ва "Ўзбекнаво" гастрол-концерт бирлашмасининг Бухоро вилоят бўлинмаси, мусиқа таълими муассасалари,

маданият марказлари таркибидаги ижрочи гуруҳлар ва яккахонлар, айрим хонанда ва созандалар томонидан амалга оширилган. 1992 йилги маълумотларга кўра, вилоятда 239 та клуб ва маданият уйлари, 26 та болалар мусиқа мактаби ва санъат билим юрти, маданият техникуми, С.Айний номидаги вилоят мусиқали комедия ва драма театри, Ўзбекистон давлат филармониясининг Бухоро вилоят бўлини фаолият кўрсатган. Клуб ва маданият уйлари қошида 3 та халқ театри[1], 67 та ашула ва рақс ансамбли, 18 та фолкльор этнографик жамоалар[2] бўлган.

Мусиқа меросига бағишланган китоблар нашр қилинган. Бухоро давлат университетида мусиқа ижодиётини илмий таҳлил қилиш натижасида 4 та монография, 1 та мусиқа дарслиги, 12 та ўқув қўлланма чоп этилди. 2005 йилда О.Сафаров, О.Атоев, Ф.Тўраев томонидан “Бухорча” ва “Мавриги” тароналари”[3], 2009 йилда О.Сафаровнинг “Шашмақом ватани оҳанглари” китоби нашр қилинди. 2008 йилда Ф.Тўраевнинг “Бухоро муғаннийлари”, 2011 йилда “Бухоро шашмақоми тарихи” монографиялари республиканинг йирик мусиқашунослари томонидан эътироф этилди[4]. Анъанавий, миллий санъатга бўлган эътибор ортиб, университетда “Бухоро шашмақоми ва анъанавий мусиқа” кафедраси ташкил қилинди.

Истиклолнинг дастлабки йиллариданок Бухоро шаҳрида вилоят ва республика миқёсида мусиқий тадбирлар ўтказилди. 1992 йил республика мақомчилари кўрик-танлови ва санъат билим юртида республика мақомчилар семинари ташкил қилинди. Санъаткор ва маданият ходимларининг меҳнатлари муносиб баҳоланиб, мустақилликнинг бир йиллиги арафасида “Моҳи Ситора” дастасининг бадий раҳбари О.Ҳасанова “Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист”, Олот тумани ҳокимлигининг маданият бўлими мудири А.Иброҳимов “Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими” унвони, вилоят давлат филармониясининг бадий раҳбари О.Атоев, Ромитан тумани музей директори Б.Қурбоновлар фахрий ёрлик, 15 нафар маданият ва санъат ходимлари кўкракка тақиладиган “Мустақиллик” эсдалик нишони билан тақдирланди[5].

Юртимизда мусиқий танловлар ўтказиш анъанаси янада ривожланиб, ёш истеъодлар кашф қилинди. 1995 йил 5 декабрда Вазирлар Маҳкамасининг мустақилликка бағишланган „Ўзбекистон-Ватаним маним“ кўшиқлар кўрик танловини ўтказиш тўғрисида”ги 451-сон қарори мусиқа санъатини ўсишига ижобий таъсир кўрсатди. Ватан ва истиклолни мадҳ этувчи юзлаб янги кўшиқлар ёзилди. 1998 йил танловнинг вилоят босқичида Ж.Воҳидов олий ўринга муносиб топилди. 1999 йилги вилоят босқичида вобкентлик 14 ёшли истеъод эгаси Ж.Очиловга “Ўзбекистон-Ватаним маним”, 2002 йилда Бухоро туман маданият уйининг бадий ҳаваскори У.Воҳидовга “Элимга” кўшиғининг маҳоратли ижроси учун биринчи ўрин берилди[6].

2009 йилдан бошлаб республикамиз бўйлаб “Ягонасан, муқаддас Ватан!” кўрик-танлови ўтказилди. Танловларга қизиқиш йил сайин ошиб борди. Вилоятда кўрик-танловнинг 2012 йилги қуйи босқичида 300 та иштирокчи қатнашган бўлиб уларнинг 100 нафари янги номлар эди. Иккинчи босқичда туман ва шаҳарлардан келган 50 та иштирокчи янги ижроларни тақдим қилди[7].

Бухоролик санъаткорлар хорижда ўтказиладиган маданий тадбирларда миллий мусиқадаги анъанавий ижрочилик услубларини, фолкльор ва рақс борасидаги ўз истеъодларини кўрсатиб келган. 1998 йили “Рака-Утрехт” байналмилал-маданий маркази таклифига кўра, “Ўзбекнаво” гострол-концерт бирлашмаси вилоят бўлими “Бухоро шашмақоми” дастасининг 10 нафар хонанда ва созандалари Голландияда бўлиб, бир ҳафта давомида таниқли санъаткор Ари Бобохонов бошчилигида “Раунт-Гент” санъат марказида концерт берган[8]. Мақом ва кўшиқлар ижроси аудиокассета ва дискларга ёзиб олиниб, катта тиражда сотувга чиқарилган[9].

1999 йил Париж яқинидаги шаҳарчада Марказий Осиё халқлари мусиқаси кунларида республикамиз вакиллари қаторида истеъодли бастакор ва созанда Ў.Расулов, фольклор ашулалар ва миллий рақслар ижрочиси О.Ҳасанова ва хонанда М.Самандарова ҳам қатнашган. Ў.Расулов куй басталаган шоир С.Воҳидовнинг "Нозанин во ажаб ёр" ва “Марҳабо” ғазаллари

ижроси Францияда истиқомат қилаётган туркий ва форсийзабон мухлисларнинг эътирофига сазовор бўлган[10].

Бухоро мусиқий ҳаётида фолкълор-этнографик, вакал-чолғу ансамллари ўзига хос ўринга эга. Мустақиллик йилларида уларнинг фаолияти ўсиб борганлигини “Гиёҳ”, “Орази Бухоро” дасталари фаолиятида кузатишимиз мумкин. 1984 йилда Н.Атамуродов томонидан тузилган “Гиёҳ” дастаси мустақилликнинг илк йилларида бир неча маротаба Тошкент ва Самарқандда ўтказилган оммавий-мусиқий тадбирларда иштирок этди.

“Гиёҳ” ансамбли 1992 йил Олматада жаҳоннинг йигирмадан ортиқ мамлакати вакиллари қатнашган анъанавий “Азия даусы”(Осиё овози) учинчи халқаро танловда иштирок этди[11]. Ансамблнинг раҳбари ва хонандаси Н.Атамуродов қатор фестиваллар, кўрик танловлар лауреати бўлган.1982 йил Германияда, 1985 йили Москвада, 1992 йили Олма-Ота шаҳрида бўлиб ўтган “Азия дауси” халқаро, 1995 йил АҚШда, 1999 йили Францияда, 2001 ва 2002 йилларда Германиянинг Бонн шаҳрида бўлиб ўтган фолкълор жамоалари, 2005 йили Исроилда, 2006 йили Франция давлатида бўлиб ўтган нуфузли халқаро фестивалларда қатнашди. 1999 йил Н.Атамуродовга истиқлол байрами арафасида миллий санъат ва маданиятга қўшган муносиб ҳиссаси ва жамоат ишларида фаол иштироки учун “Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист” фахрий унвони берилди[12].

Тадқиқ этилаётган даврда Бухорода ҳам вилоят ва республика миқёсида танилган 100 дан ортиқ хонанда ва созандалар ижод қилган. Ижро репертуарида ватанни мадҳ этувчи мусиқий асарлар, замонавий эстрада, бухороча фолклор, мумтоз кўшиқлар ўрин олган Б.Нуруллаев Ўзбекистон халқ артисти О.Назарбеков билан ижодий ҳамкорлик қилиб, 2011 йилда “Озод шоу” республика теледастурида “Бухородадур” кўшиғи билан иштирок этади ва 2012 йилда С.Айний номидаги вилоят мусиқали драма ва комедия театрида яккахон концерти орқали хонанда сифатида бухороликлар эътиборига тушган. 2013 ва 2014 йилларда “Замин шоу” дастурида, 2015 йилда Тошкентдаги “Истиқлол” санъат саройида бўлиб ўтган “Азиз устозим” концертида қатнашган. “Ватаним”, “Муқаддас аёл”, “Майли, майли”, “Дилнаво” каби янги кўшиқлари билан республика телеканаллари орқали танилган[13].

2000 йилда ёш истеъдод эгаларини рағбатлантириш мақсадида 25 ёшгача бўлган иштирокчилар учун “Нихол” мукофоти таъсис этилди. 2006 йил бухоролик ёш хонанда Ж.Ҳафизов республикада энг иқтидорли деб топилган 15 нафар ёш ижодкор қаторида “Нихол” мукофоти совриндори бўлди[13]. Ушбу мукофотга мумтоз кўшиқ йўналиши бўйича 2003 йилда Г.Худойназарова, 2008 йилда И.Арабов, 2010 йилда Ю.Турдиева, 2013 йилда Д.Қобилова, 2015 йилда С.Жўраевлар муносиб топилди.

Бухорода “Нихол” танловнинг туман ва шаҳар босқичлари ўтказилган. 2010 йилдаги вилоят босқичида 59 нафар давогар саҳнага чиқди[14]. 2012 йилда вилоят бўйича тадбирнинг биринчи босқичида 500 дан зиёд ёш ижрочи маҳорат синовидан ўтди. Уларнинг аксарияти илк бор кўрикда қатнашаётгани билан диққатга сазовор эди. Жойлардаги саралаш кўрикларида 100 дан ортиқ истеъдод соҳиблари қатнашиб, 55 нафари тадбирнинг кузда ўтказиладиган-вилоят босқичига тавсия қилинди. 2014 йилги танловнинг туман ва шаҳар босқичларида иштирок этган 706 та иқтидор соҳибидан 96 нафари вилоят босқичига йўлланма олган, 12 та иштирокчи Тошкентда ўтказиладиган республика босқичида қатнашиш ҳуқуқини қўлга киритган[15].

Хулоса. Мустақиллик йилларида миллий мусиқага бўлган муносабат тубдан ўзгарди. Бухорода анъанавий ижрочилик борасида қатор ишлар амалга оширилди. Маҳаллий мусиқашунос ва фолкълоршунос олимлар томонидан соҳага доир китоблар нашр қилинди. Кўшиқларга қайта ҳаёт бағишланди. Бухоролик санъаткорлар миллий мусиқалардаги анъанавий ижрочилик услубларини, фолкълор ва рақс борасидаги ўз маҳоратларини нафақат республикада балки, хорижда ўтказиладиган маданий тадбирлар, кўрик-танлов ва фестивалларда ҳам намойиш қилдилар.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ижодкорларга руҳий қанот. //Бухоро санъати. Вилоят маданият бошқармаси бошлиғи М. Фармонова билан суҳбат. 1992 йил сентябрь.-Б. 2.
2. Бывает ли свобода без культуры. //Бухоро санъати . 1993 йил июнь. -Б. 2.

3. Ф.Тўраев., Т.Ражабов. Бухоро муғаннийлари. Иккинчи китоб. Т.: “Муסיқа” нашриёти. 2018 й. -Б.4.
4. Ф.Тўраев. Маърифат сарчашмаси. //Бухоро адабиёти ва санъати. 2013 йил, 3-сон., Ф.Тўраев. Мутрибот қалбидан учган наволар.Т.:”Наврўз” нашриёти. 2018 й. -Б.164.
5. Бухоро санъати газетаси. 1992 йил сентябрь. № 2. -Б2.
6. Қўшиқларда ватан мадҳи. //Бухоронома. 2002 йил 22 июн. 50 (19.469)
7. Э.Ёдгоров (“Бухоронома” мухбири). “Яғонасан, муқаддас Ватан”.//Бухоронома.2012 йил 6 июн.№ 44.-Б.6.
8. А.Халилов(“Бухоронома” мухбири). Бухоролик шашмакомчилар Голландияда.// Бухоро ҳақиқати. 1998 йил 15 апрел. №31 (19.034).
9. Э.Халилов(“Бухоронома” мухбири). Парижликлар олқиши. //Бухоро ҳақиқати. 1999 йил 20 январ.№6 (19.113). -Б.8.
10. Э.Халилов. Парижликлар олқиши. //Бухоро ҳақиқати. 1999 йил 20 январ. №6 (19.113). Б.8.
11. Ҳафиза Аҳмад қизи. Ота қалбидаги қўшиқ. //Бухоро санъати. 1993 йил апрел. №7. (13). -Б.1-4.
12. А.Халилов (“Бухоро ҳақиқати” мухбири). “Тиёҳ”нинг қўшалок байрами. //Бухоро ҳақиқати. 1999 йил 11 сентябр. №73 (19.180). -Б.8.
13. Тўраев Ф., Ражабов Т. Бухоро муғаннийлари(Иккинчи китоб). -Тошкент: Муסיқа. - 2018. -Б.204-205.
14. Акбар Рустамов (“Бухоронома” мухбири). Қўшиқлар қанотида. //Бухоронома. 2006 йил 20 сентябр. № 76 (19.880). -Б.6.
15. Э.Ёдгоров(“Бухоронома” мухбири). Истедоддилар кўриги. //Бухоронома. 2010 йил 26 май. №42. -Б.4.
16. Э.Ёдгоров(“Бухоронома” мухбири). Республика босқичига йўлланма олишди. //Бухоронома. 2014 йил 12 ноябр. №19. -Б.2.

УЎК: 343.326:316.346.2:2-67

## ДИНИЙ ЭКСТРЕМИЗМ ВА ТЕРРОРИЗМДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ИШТИРОКИНИНГ АЙРИМ ЖИХАТЛАРИ

*С.Ш.Ҳақбердиева, мустақил изланувчи, Қарши давлат университети, Қарши*

**Аннотация.** Мақолада диний экстремизм ва терроризм жараёнларида хотин-қизлар иштирокнинг динамикаси ҳамда унинг ўзгариш тенденциялари таҳлил қилинган. Хусусан, мустақилликдан кейинги даврда Ўзбекистонда аёлларнинг ижтимоий фаоллиги, уларнинг радикал гояларга жалб этилиши омиллари ва бу жараённинг ижтимоий-иқтисодий ҳамда психологик сабаблари ўрганилди.

**Калим сўзлар:** хотин-қизлар, диний экстремизм, терроризм, радикаллашув, ижтимоий омиллар.

**Аннотация.** В статье анализируются динамика и тенденции участия женщин в религиозном экстремизме и терроризме. Рассматриваются социально-экономические и психологические факторы, способствующие вовлечению женщин в радикальные движения, а также роль женщин в профилактике экстремизма.

**Ключевые слова:** женщины, религиозный экстремизм, терроризм, радикализация, социальные факторы.

**Abstract.** This article analyzes the dynamics and changing trends of women's participation in religious extremism and terrorism. The study examines the socio-economic and psychological factors that contribute to the involvement of women in radical movements, as well as their role in preventing extremism.

**Keywords:** women, religious extremism, terrorism, radicalization, social factors.

**Кириш.** Бугунги кунда терроризм ва диний экстремизм глобал хавфсизликка таҳдид солаётган мураккаб ижтимоий-сиёсий муаммолардан бири ҳисобланади. Сўнгги йилларда экстремистик ташкилотлар таркибида хотин-қизлар иштироки масаласи ҳам алоҳида илмий ва амалий аҳамият касб этмоқда. Илгари аёллар асосан терроризм қурбонлари ёки террорчиларнинг оила аъзолари сифатида қаралган бўлса, бугунги кунда уларнинг айрим ҳолларда экстремистик ҳаракатларда бевосита иштирок этиши ҳам кузатилмоқда.

Ўзбекистонда ҳам мазкур масалага давлат сиёсати даражасида алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хусусан, экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича миллий стратегияда хотин-қизларнинг жамиятдаги ролини ошириш ва уларни профилактик ишларга кенг жалб этиш муҳим вазифалардан бири сифатида белгиланган. Шу сабабли хотин-қизлар

иштирокидаги радикаллашув жараёнларининг сабаблари ва тенденцияларини таҳлил қилиш долзарб илмий вазифалардан бири ҳисобланади.

**Методология:** Тадқиқот жараёнида Ўзбекистон Миллий архиви ҳужжатлари, давлат дастурлари ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, шунингдек, илмий тадқиқотлар ҳамда эксперт интервьюлари материаллари асосий манба сифатида хизмат қилди. Мазкур методлар хотин-қизларнинг экстремизм ва терроризм жараёнларидаги иштирокини тарихий ва ижтимоий контекстда комплекс таҳлил қилиш имконини берди.

**Адабиётлар таҳлили:** Мазкур муаммо сўнгги йилларда бир қатор тадқиқотчилар томонидан ўрганилган. Хусусан, хотин-қизларнинг ижтимоий ҳимояси ва жамиятдаги ролига бағишланган тадқиқотлар М.Х. Шамсиеванинг илмий ишида кенг ёритилган бўлиб, унда мустақиллик йилларида давлат ва нодавлат ташкилотларнинг бу соҳадаги фаолияти таҳлил қилинган.

Шунингдек, айрим тадқиқотларда Марказий Осиё давлатларида аёллар орасида диний экстремизм тарафдорлари сони ортиб бораётгани таъкидланади. Масалан, экспертлар фикрига кўра, экстремистик ташкилотлар таркибида аёллар улуши 15–20 фоизни ташкил этади. Бу эса мазкур муаммонинг халқаро миқёсда ҳам долзарб эканлигини кўрсатади.

**Таҳлил ва натижалар:** Азалдан Шарқ жамиятида она ва аёл образи алоҳида ҳурмат ва эҳтиром билан қадрланиб келган. Аёл нафақат оила мустаҳкамлигини таъминловчи, балки авлодлар давомийлигини боғловчи муҳим ижтимоий институт сифатида эътироф этилган. Шу боис Шарқ маданиятида она тимсоли кўпинча Ватан тушунчаси билан қиёсланиб, унинг муқаддаслиги ва тарбиявий аҳамияти алоҳида таъкидланади[1].

Бироқ мустақилликнинг дастлабки йилларида мамлакатда юз берган ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар айрим салбий ижтимоий ҳолатларни ҳам юзага келтирди. Жумладан, 1990-йиллар ўрталарида Ўзбекистонда аёллар жиноятчилиги маълум даражада ўсиш тенденциясини намоён этган. Масалан, 1996 йил статистик маълумотларига кўра, республикада хотин-қизлар томонидан содир этилган жиноятлар сони 6343 тага етган бўлиб, бу умумий жиноятлар сонига нисбатан 5,5 фоиз ўсишни ташкил этган[2]. Бу ҳолат айрим ҳудудларда айниқса яққол кўзга ташланган.

Шу даврда жамиятдаги ижтимоий-психологик муаммолар ёшлар қатламига ҳам таъсир кўрсатган. Хусусан, 1997–1998 йилларда вояга етмаганлар ўртасида ижтимоий ва психологик муаммолар кескинлашиб, ўз жонига қасд қилиш ҳолатлари кўпайган. Статистик маълумотларга кўра, 1997 йилда 261 нафар, 1998 йилда эса 294 нафар вояга етмаган шахс суицидга уриниб, уларнинг мос равишда 168 ва 209 нафари ҳалок бўлган. Бу кўрсаткич мазкур даврда 12,6 фоизга ошганини кўрсатади[4].

Айнан шу шароитда давлат ва жамоат ташкилотлари томонидан хотин-қизлар билан ишлаш тизимини такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилди. Масалан, 1998 йилда мамлакатда отинлар фаолияти ўрганилиб, Дин ишлари бўйича қўмита таркибида “Хотин-қизлар билан ишлаш” сектори фаолият юрита бошлади[3]. Бу тузилма аёллар орасида диний билимларни тўғри тушунириш ва турли радикал ғояларнинг тарқалишини олдини олишга қаратилган профилактик ишларга хизмат қилди.

Шу билан бирга, аҳоли орасида ислом динининг тинчликпарвар ва инсонпарвар моҳиятини тушунириш, шунингдек, экстремистик ва радикал оқимларнинг зарарли ғояларини фош этишга қаратилган маърифий ишлар ҳам олиб борилди. Бу мақсадда китоблар ва мақолалар нашр этилди, давра суҳбатлари ва учрашувлар ташкил қилинди[5].

Мамлакатда юзага келган мазкур ижтимоий муаммоларнинг олдини олиш ва оила институтини мустаҳкамлаш мақсадида давлат даражасида комплекс чора-тадбирлар амалга оширилди. Хусусан, 1999 йил 18 февралда “Аёллар йили” муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 73-сонли қарорига мувофиқ “Аёллар йили давлат дастури” қабул қилинди. Ушбу дастур оилавий муносабатларни мустаҳкамлаш, хотин-қизлар ва болаларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, оналик ва болаликни муҳофаза этиш ҳамда ёшлар ўртасида жиноятчиликни камайтиришга қаратилган муҳим ижтимоий дастур бўлди[6].

Шу билан бирга, 2000-йиллар бошларида диний экстремизм ва терроризм билан боғлиқ жиноятлар ҳам қайд этилган. Масалан, 2001 йилда республикада экстремистик ва террористик оқимлар аъзолари томонидан 1026 та жиноят содир этилган бўлса, 2002 йилда бу кўрсаткич 2214 тага етган. Ушбу жиноятларнинг муайян қисми турли ёш тоифаларига мансуб шахслар томонидан амалга оширилган бўлиб, улар орасида 18–25 ёшдагилар 260 (2002 йилда 625) нафарни, 25–30 ёшдагилар 269 (721) нафарни, 30–35 ёшдагилар 200 (431) нафарни, 35–40 ёшдагилар 165 (240) нафарни, 40 ёшдан ошганлар эса 118 (167) нафарни ташкил этган[7].

Замонавий жамиятда терроризм, экстремизм, миллатчилик ва ҳарбийлашув каби омиллар глобал хавфсизликка жиддий таҳдид солмоқда. Бундай жараёнлар нафақат сиёсий барқарорликка, балки инсон ҳуқуқлари, демократия ва қонун устуворлигига ҳам салбий таъсир кўрсатади. Шу сабабли мазкур муаммоларга қарши курашишда жамиятнинг барча қатламлари, жумладан хотин-қизлар ҳам фаол иштирок этиши муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, аёлларнинг жамиятдаги ўрни, уларнинг ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтириш ҳамда ижтимоий фаоллигини ошириш терроризмга қарши курашишда муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Мазкур муаммони ҳал этиш учун терроризмнинг сабабларини илмий жиҳатдан ўрганиш ва унинг олдини олиш бўйича самарали механизмларни ишлаб чиқиш долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда[8].

Сўнгги йилларда диний экстремистик гуруҳлар ва оқимлар сафига хотин-қизларнинг жалб этилиши ҳам кузатилмоқда. Бу ҳолат айниқса хавотирли бўлиб, жамиятда аёлларнинг анъанавий тарбиявий ва ижтимоий ролини инобатга олганда, унинг салбий оқибатлари янада кенг бўлиши мумкин. Масалан, республикада диний экстремизм ва терроризм билан боғлиқ жиноят ишлари доирасида 20 нафар аёлга нисбатан 17 та жиноий иш қўзғатилган. Уларнинг 3 нафари олий, 1 нафари ўрта махсус, 16 нафари эса ўрта маълумотга эга бўлган. Шунингдек, улардан фақат бир нафари тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланган бўлса, қолган 19 нафари ишсиз бўлган. Бу ҳолат экстремистик ғояларга мойил бўлган айрим аёллар маҳалла ва хотин-қизлар ташкилотлари эътиборидан четда қолганини кўрсатади[9].

Статистик маълумотлар ҳам аёллар орасида радикал ғояларга мойиллик муайян даражада ортиб бораётганини кўрсатади. Хусусан, 2009 йилнинг дастлабки тўққиз ойи давомида республика бўйича диний экстремистик оқимларга мойил хотин-қизлар сони 14 714 нафардан 15 800 нафаргача ошиб, 1086 нафарга кўпайган[10].

Халқаро тадқиқотлар натижаларига кўра, террористик ташкилотлар таркибида аёллар улуши ўртача 15–20 фоизни ташкил этади. Шунингдек, экстремистик гуруҳларга нафақат мусулмон аёллар, балки Европадан бўлган католик ва бошқа дин вакиллари ҳам қўшилаётгани қайд этилган. Бу ҳолат терроризм ва экстремизм ҳаракатларида аёллар иштирокининг халқаро миқёсда кенгайиб бораётганини кўрсатади[11].

Марказий Осиё давлатларида ҳам аёллар орасида диний экстремизм тарафдорлари сони ортиб бориш тенденцияси кузатилмоқда. Масалан, Қозоғистон ва Қирғизистонда бундай жараёнлар 2005–2010 йиллардаёқ аниқланиб, унинг олдини олиш бўйича махсус профилактик чоралар ишлаб чиқилган. Шу билан бирга, аёллар радикаллашуви ҳар доим ҳам тўғридан-тўғри терроризмга олиб келавермайди, аммо уларнинг оила ва жамият тарбиясидаги ўрни сабабли бу жараёнга алоҳида эътибор қаратиш муҳим ҳисобланади[11].

Шу муносабат билан Ўзбекистонда экстремизм ва терроризмга қарши курашиш давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири сифатида белгиланган. Хусусан, 2021–2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Миллий стратегия қабул қилиниб, унда экстремистик ғояларнинг тарқалишини олдини олиш, жамиятда бағрикенглик ва анъанавий кадриятларни мустаҳкамлашга алоҳида эътибор қаратилган.

**Хулоса.** Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, хотин-қизларнинг диний экстремизм ва терроризм жараёнларида иштирок этиши бир қатор ижтимоий, иқтисодий ва психологик омиллар билан боғлиқ. Шу билан бирга, хотин-қизлар жамиятда тарбиявий ва ижтимоий таъсирга эга муҳим ижтимоий гуруҳ ҳисобланади. Шу сабабли экстремизмга қарши профилактик ишлар самарадорлигини оширишда аёлларнинг ижтимоий фаоллигини

кучайтириш, уларнинг ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтириш, шунингдек, маърифий ва тарбиявий ишлар тизимини такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эга.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Қишлоқ ҳаёти, 2005 йил 12 июль.
2. Ўз МА, М-76-фонд, 1-рўйхат, 999-иш, 142-варақ
3. Ўз МА, М-152-фонд, 1-рўйхат, 21-иш, 156-варақ.
4. Ўз МА, М-76-фонд, 1-рўйхат, 1288-иш, 13-варақ
5. Ўз МА, М-152-фонд, 1-рўйхат, 21-иш, 156-варақ.
6. Ўз МА, М-76-фонд, 1-рўйхат, 1288-иш, 19-варақ
7. Ўз МА, М-76-фонд, 1-рўйхат, 1876-иш, 71-варақ
8. Ўзбекистон хотин-қизлари: кеча ва бугун (илмий-амалий конференция маърузалари, 23 декабрь 2004 й.) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти, Тошкент шаҳар хотин-қизлар кўмитаси, Тошкент шаҳар «Аёллар ресурс маркази». – Тошкент: 2005. – б. 78.
9. Шамсиева М.Х. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилишда давлат ва нодавлат нотижорат ташкилотларнинг ўрни (1991-2010йй).: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.– Тошкент, 2020.– Б.87.
10. Ўз МА, М-170-фонд, 1-рўйхат, 60-иш, 28-варақ

UO'K 373.5:57.034:598

**BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA QUSHLAR SINFI BO'YICHA INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISH***S.P.Abdisattarova, magistrant, Termiz davlat universiteti, Termiz**X.T.Tangirov, dots., b.f.n., Termiz davlat universiteti, Termiz*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirish, xususan, "Qushlar sinfi" mavzusini o'tishda zamonaviy interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati tizimli ravishda yoritilgan. Tadqiqot davomida an'anaviy dars o'tish uslublari bilan innovatsion yondashuvlar qiyoslanib, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirishda "Aqliy hujum", "FSMU" va "Insert" texnologiyalarining samaradorligi ilmiy tahlil qilingan. Maqolada keltirilgan statistik ma'lumotlar va qiyosiy jadvallar interfaol metodlarning o'quvchilar bilimini mustahkamlashdagi ustunligini isbotlaydi.

**Kalit so'zlar:** biologiya, qushlar sinfi, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, o'quvchi motivatsiyasi, ta'lim sifati, innovatsiya.

**Аннотация.** В данной статье систематически рассматривается роль и значение современных интерактивных методов в повышении эффективности преподавания биологии в общеобразовательных средних школах, в частности, при преподавании темы «Птицы». В ходе исследования инновационные подходы сравнивались с традиционными методами обучения, а также научно анализировалась эффективность технологий «Мозговой штурм», «ФГМУ» и «Вставка» в повышении интереса учащихся к науке. Представленные в статье статистические данные и сравнительные таблицы доказывают превосходство интерактивных методов в закреплении знаний учащихся.

**Ключевые слова:** биология, птицы, интерактивные методы, педагогические технологии, мотивация учащихся, качество образования, инновации.

**Abstract.** This article systematically discusses the role and importance of modern interactive methods in improving the effectiveness of teaching biology in general secondary schools, in particular, in teaching the topic "Bird Class". During the study, innovative approaches were compared with traditional teaching methods, and the effectiveness of "Brainstorming", "FSMU" and "Insert" technologies in increasing students' interest in science was scientifically analyzed. The statistical data and comparative tables presented in the article prove the superiority of interactive methods in consolidating students' knowledge.

**Key words:** biology, bird class, interactive methods, pedagogical technology, student motivation, quality of education, innovation.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'quvchilarga faqat nazariy bilimlarni taqdim etishdan ko'ra, ularda mustaqil tadqiqotchilik va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni ustuvor vazifa qilib belgilaydi. A.V. Esojanovning tadqiqotlarida biologiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini 18–22% ga oshirishi ilmiy asoslab berilgan (Esojanov, 2020). Biologiya darslarida, xususan, zoologiya bo'limining "Qushlar sinfi" mavzusini o'rganishda o'quvchilar ko'pincha juda ko'p sonli morfologik va ekologik ma'lumotlarga duch kelishadi. Agar dars jarayoni faqatgina an'anaviy ma'ruza yoki kitobdan o'qib berish shaklida tashkil etilsa, bu o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini so'ndirishi va ma'lumotlarning yuzaki o'zlashtirilishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, darslarda interfaol metodlarni qo'llash, o'quvchilarni darsning faol ishtirokchisiga aylantirish hamda ularning vizual va mantiqiy xotirasini ishga solish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biri bo'lib qolmoqda [1, B. 12]. Qushlarning uchishga moslanishi, ularning ichki organlaridagi o'ziga xosliklar va ekologik guruhlarga bo'linishi kabi murakkab mavzularni interfaol usullar yordamida tushuntirish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Biologiya ta'limida interfaol metodlarning o'rni. Interfaol metodlar – bu o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan ta'lim usullari bo'lib, ularning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilish faolligini oshirishdir. Biologiya fanida interfaol metodlardan foydalanish mavzularni chuqurroq anglash, biologik jarayonlarni tushunish va ularni real hayot bilan bog'lash imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda biologiya fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, A.V. Esojanov o'z tadqiqotlarida interfaol metodlar qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning motivatsiyasi va mavzuni o'zlashtirish darajasi an'anaviy darslarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lishini ilmiy asoslab bergan. Bu esa biologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlarning dolzarbligini yanada oshiradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Pedagogik olimlar O. Tolipov va M. Usmonboyevalarning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, interfaol metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini qaror toptirishga xizmat qiladi va darsning samaradorligini bir necha barobar oshiradi [2, B. 45]. Shuningdek, J. Tolipova o'zining biologiya o'qitish metodikasiga bag'ishlangan ishlarida qushlar sinfini o'qitishda ko'rgazmalilik va AKT vositalarining o'rni beqiyos ekanligini, bu metodlar o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirishini ilmiy asoslab bergan [3, B. 68]. Zoologiya fanini o'qitishda interfaol metodlarning ahamiyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda o'quvchilarning bilish faoligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari sezilarli darajada oshishi qayd etilgan. Xususan, Xolmirzayeva (2024) zoologiya darslarida "Aqliy hujum", "Klaster" va muammoli vaziyat metodlarining qo'llanilishi o'quvchilarning ekologik tafakkurini rivojlantirishini ta'kidlaydi. Qushlar sinfi o'ziga xos morfologik, anatomik, fiziologik va ekologik xususiyatlarga ega bo'lib, ushbu mavzuni o'rganish o'quvchilardan yuqori darajadagi tahliliy fikrlashni talab etadi. Qushlarning uchishga moslashgan tuzilishi, issiqqonliligi, murakkab nerv tizimi va ekologik moslanishlari kabi masalalarni an'anaviy usullar bilan tushuntirish ko'pincha yetarli natija bermaydi. Shu sababli qushlar sinfi mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Ushbu maqolada qo'llanilgan metodologiya qiyosiy-pedagogik eksperimentga asoslangan bo'lib, unda Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanidagi 15-maktabning 7<sup>A</sup> va 7<sup>B</sup> -sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Tadqiqot davomida o'quvchilar ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi (an'anaviy dars) va tajriba guruhi (interfaol metodlar qo'llanilgan dars). Ma'lumotlarni tahlil qilishda sifat va miqdor ko'rsatkichlari, test natijalari hamda o'quvchilarning darsdagi psixologik faolligi inobatga olindi.

**Muhokama va natijalar.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Qushlar sinfi" mavzusini o'tishda "Venn diagrammasi" metodi orqali qushlar va sudralib yuruvchilarning o'xshash hamda farqli jihatlarini tahlil qilish o'quvchilarda evolyutsion jarayonlarni tushunishga yordam beradi. "Bumerang" metodi esa qushlarning turli turkumlari (masalan, yirtqich qushlar, suzuvchi qushlar) bo'yicha tarqatma materiallar bilan ishlashda yuqori natija berdi. "Aqliy hujum" metodining qo'llanilishi dars boshida o'quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishini oshirdi va ularni faol muloqotga jalb etdi. Tezkor savol-javob jarayonida o'quvchilarning avvalgi bilimlari aniqlashtirildi hamda yangi mavzuni qabul qilishga psixologik tayyorgarlik hosil qilindi. Tajriba guruhida deyarli barcha o'quvchilar muhokamada ishtirok etgani kuzatildi, bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qildi. Shuningdek, vizual elementlar va muloqotga asoslangan topshiriqlarning uyg'unligi ma'lumotlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga xizmat qilgani kuzatildi. O'quvchilarning dars yakunida berilgan savollarga mustaqil ravishda kengroq va asosli javob berishi bunga dalil bo'la oladi. O'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan bilimlar nazorati natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

1-jadval.

**O'quvchilarning bilim o'zlashtirish ko'rsatkichlari tahlili**

Guruhlar	O'quvchilar soni	Yuqori o'zlashtirish (86-100%)	O'rta o'zlashtirish (71-85%)	Qoniqarli (55-70%)	O'rtacha ball
Nazorat guruhi	25 nafar	5 nafar	12 nafar	8 nafar	72,4
Tajriba guruhi	25 nafar	10 nafar	10 nafar	5 nafar	88,6

Olingan natijalar statistik jihatdan ham tahlil qilindi. Tajriba guruhi (88,6) va nazorat guruhi (72,4) o'rtacha ballari o'rtasidagi farq 16,2 ballni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich interfaol metodlarning

ta'lim samaradorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi. Guruhli ishlash shakli darsning psixologik muhitiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'quvchilar o'z fikrlarini himoya qilish, boshqalarning qarashlarini tinglash va umumiy xulosaga kelish jarayonida faol ishtirok etdilar. Ayniqsa, ilgari sust qatnashgan o'quvchilarning ham muhokamaga jalb qilinishi interfaol metodlarning ijtimoiy moslashuvni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Tajriba natijalari ko'rsatdiki, savollarga javob berishda o'quvchilar nafaqat faktlarni eslatib o'tish, balki ularni izohlash va tahlil qilishga intildilar. Bu esa reproduktiv bilimdan produktiv bilimga o'tish jarayoni sodir bo'lganini anglatadi. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, interfaol metodlar qo'llanilgan tajriba guruhida yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan uch barobar oshgan. Bu esa o'quvchilarning mavzuni nafaqat yodlaganliklarini, balki uni chuqur tushunganliklarini anglatadi. Mazkur natijalar interfaol yondashuvning "Qushlar sinfi" mavzusini o'qitishda didaktik jihatdan maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar pedagogik tadqiqotlarda keltirilgan xulosalar bilan hamohangdir.

2-jadval.

Darsda qo'llanilgan interfaol metodlarning pedagogik samaradorligi

Metod nomi	O'quvchilarni qamrab olish darajasi	Kognitiv rivojlanish sohasi	Samaradorlik ko'rsatkichi
"Aqliy hujum"	100%	Kreativ fikrlash va tezkor javob	94%
"FSMU"	85%	Fikrni dalillash va isbotlash	89%
"Zinama-zina"	90%	Sistematik bilimlarni tartiblash	91%

Ushbu ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, interfaol darslar o'quvchining darsdagi zerikishini bartaraf etadi va ularning intellektual salohiyatini to'liq namoyon qilishga imkon beradi [4, B. 32]. 2-jadval ma'lumotlari interfaol metodlarning biologiya fanini o'qitishda yuqori didaktik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, muloqotga asoslangan, vizual va bosqichma-bosqich o'zlashtirishga yo'naltirilgan metodlar o'quvchilarning analitik, qiyosiy va tizimli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. "Aqliy hujum" metodining 94% samaradorlik ko'rsatkichi o'quvchilarning tezkor fikrlash va kreativ yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishda yuqori natija berishini ko'rsatadi. "FSMU" metodining 89% ko'rsatkichga ega bo'lishi esa o'quvchilarda fikrni dalillash, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarining rivojlanganini anglatadi. "Zinama-zina" metodining 91% samaradorlik darajasi o'quvchilarning bilimlarni bosqichma-bosqich tizimlashtirish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirganini ko'rsatadi. Jadval natijalariga ko'ra, barcha metodlar bo'yicha o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichi 91% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich an'anaviy dars usullariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lib, interfaol yondashuvning didaktik ustunligini namoyon etadi.

**Xulosa.** Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bugungi kun ta'limining ajralmas qismiga aylanishi zarur. "Qushlar sinfi" mavzusi misolida olib borilgan ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar darsning mazmunini boyitibgina qolmay, balki o'quvchilarning fanga bo'lgan ijobiy munosabatini ham shakllantiradi. Birinchidan, bunday yondashuv o'quvchilarda biologik ob'ektlarni qiyosiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi, bu esa ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi. Ikkinchidan, dars davomida guruhlarda ishlash orqali o'quvchilar ijtimoiy muloqotga kirishishni, o'z fikrini boshqalar oldida himoya qilishni va jamoa bo'lib umumiy xulosaga kelishni o'rganadilar.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari shuni isbotladiki, interfaol metodlar qo'llanilganda o'quvchilarning bilim darajasi an'anaviy usulga qaraganda o'rtacha 16-20% ga yuqori bo'ladi. To'rtinchidan, "Qushlar sinfi" kabi rang-barang vizual materiallarga boy mavzularda AKT va interfaol o'yinlarning uyg'unligi o'quvchi xotirasida ma'lumotlarning uzoq vaqt saqlanishiga xizmat qiladi. Beshinchidan, ushbu metodlar o'qituvchining darsga tayyorgarlik jarayoniga yangicha yondashishini talab etadi, bu esa pedagogning kasbiy mahoratini oshirishga turtki beradi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, biologiya ta'limini innovatsion asosda tashkil etish o'quvchilarning tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishini strategik rivojlantirishning asosiy omilidir. Kelgusida ushbu metodlarni zoologiyaning boshqa bo'limlarida ham kengroq tatbiq etish tavsiya etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tolipova J. O. — Biologiya o'qitish metodikasi — Toshkent: Bilim, 2021. — 128 b.

2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. — Pedagogik texnologiyalarning tadbiiy asoslari — Toshkent: Fan, 2006. — 260 b.
3. Azimov A. — Zoologiya (Umurtqalilar) o'qitish texnologiyasi — Namangan: Nur, 2019. — 115 b.
4. G'ofurov A. T. — Biologiya o'qitishda innovatsion texnologiyalar — Toshkent: O'qituvchi, 2015. — 95 b.
5. Esojanov A.V. — Biologiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi — Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2020.
6. Xolmirzayeva A. — Zoologiya darslarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. Pedagogik va biologik ta'lim, 2019.

UDC 37.018.4:004.7

## EXPLORING ENGLISH LEARNERS' EXPERIENCES WITH MOBILE LANGUAGE-LEARNING APPS

*M.A.Berdikulova, teacher, University of Business and Science, Karshi*  
*S.K.Abdulhamidova, teacher, University of Business and Science, Karshi*

O'qituvchining asosiy vazifasi – o'quvchini o'rgatishdan tashqari, uni mustaqil o'rganishga, tadqiqot olib borishga va turli nuqtai nazarni tahlil qilish, yangi fikrlarni ilgari surishga o'rgatishdan iborat. Ta'lim metodikasi asosan yirik to'rtta yo'nalishda: bilimlarni amaliyotga yo'naltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, zamonaviy kommunikatsion ko'nikmalarni rivojlantirishda namoyon bo'ladi. PISA mezonlari ana shu to'rtta ustuvor yo'nalishni chuqur o'rganadi, natijaga yo'naltiradi va o'qituvchidan ham zamonaviy bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Ta'lim tizimining tub mohiyati faqatgina darsda bilim berish bilan cheklanmasdan, har bir o'quvchini mustaqil hayotga tayyor qilish bo'lishi kerak. Bunda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, zamonaviy metodikani to'g'ri tanlay bilishi va uni amalda samarali qo'llashi eng muhim vazifalardan biridir. Yangi texnologiyalarning tezkor kirib kelishi, internet, zamonaviy axborot resurslari va raqamli vositalarning dars jarayoniga kirib kelishi metodikani takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. O'qituvchi innovatsion usullar, masofaviy ta'lim shakllari, kreativ topshiriqlardan keng foydalanib, dars sifatini oshirib borishi zarur. Zamonaviy metodik yondashuvlarning eng asosiy belgilari interfaol usullarni keng qo'llash, kichik guruhlarda ishlash, o'quvchilarni muntazam mustaqil o'zlashtirishga jalb etishdan iborat. Har bir

darsda savol-javoblar, testlar, savodxonlikni oshiruvchi topshiriqlar, zamonaviy amaliy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi nafaqat bilimni yetkazuvchi, balki har bir o'quvchida ta'limga qiziqish uyg'otuvchi, rag'batlantiruvchi, individual va guruhviy ishlarni uyg'unlashtiruvchi yetakchi rolini bajarmog'i lozim [2].

Har bir o'qituvchi o'z fani doirasida faqat mavzuga aloqador bilimlarni berish bilan emas, balki ularni hayotiy vaziyatda tatbiq qilish ko'nikmasini yanada chuqurlashtirishni, har bir o'quvchini kelajak hayotiga tayyorlashni nazarda tutishi maqsadga muvofiq. Dars davomida tahliliy maqsadlarni belgilash, tanqidiy fikrlashga yo'naltirish, o'z nuqtai nazarini asoslab bera olishga o'rgatish pedagog faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi. PISA baholash tizimida o'quvchining funksional savodxonligi asosiy e'tibor markazida turadi. PISA nazariy bilimlarni emas, balki bilimlarni amalda qo'llay olish, real voqealar asosida yechim topish, analitik va tahliliy fikrga ega bo'lishni baholaydi. PISA talablaridan kelib chiqadigan zamonaviy o'qitish metodikasida esa, avvalo, an'anaviy passiv metodlardan ustun faol, interaktiv, tadqiqotga asoslangan yondashuvlar asos qilib olinadi. Darslarni kichik guruhlar orqali tashkil etish, muammoli vaziyatlar yaratib berish, o'quvchilarning mustaqil fikr bildirib, savollar orqali o'z javobini topishini rag'batlantirish pedagogik ustunliklardan hisoblanadi [3].

O'quvchidagi har bir qiziqishni ijobiy tomonga yo'naltirish, bilim olish jarayonini zamonaviy dars ishlanmalari bilan boyitish, axborot texnologiyalari va raqamli vositalardan oqilona foydalanishni ta'minlash bugungi pedagogning asosiy vazifasidir. Bu orqali, o'quvchilarning ozmi-ko'pmi innovatsion faoliyatga kirishishi, mustaqil izlanishga moyilligi ortadi, ijodiy yondashuv, har bir topshiriqda o'z fikrini o'zgacha ifodalash ko'nikmasi shakllanadi. Endilikda PISA mezonlari asosida tashkil etilgan har bir dars - oddiy bilimlarni qayta o'zlashtirish emas, balki butun bilim jarayonining markazini o'quvchiga yo'naltirishga, har bir o'quvchini chuqur va mustahkam bilim olishga rag'batlantirishga qaratiladi. O'qituvchi uchun dars sifatini ta'minlashda zamonaviy metodik usullar tarkibiy qism sifatida har bir darsda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur: o'quvchilar bilan faol muloqot o'rnatish, o'z fikrini dalillar bilan asoslashga o'rgatish, sinfda erkin muhokama va bahslar tashkil qilish, tahliliy, amaliy vazifalarni ko'paytirish, o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish, bilimlarni hayotga tadbiq etishga o'rgatish kabi metodlarni muntazam rivojlantirish kerak bo'ladi. Har bir dars oldidan o'quvchi ehtiyojlarini chuqur o'rganib, dars vazifalari va topshiriqlarini zamonaviy hayotiy misollarga asoslash ham zamonaviy metodikaning muhim tamoyillaridan biridir [4].

Metodikani rivojlantirishda o'qituvchilar uchun uzluksiz kasbiy o'qish, tashqi va ichki malaka oshirish, xalqaro va mahalliy tajribaga tayanish, zamonaviy pedagogik resurslardan foydalanish eng samarali yo'llardan hisoblanadi. Har bir o'qituvchi uchun o'z ustida ishlash, yangi dasturlarni o'rganish, zamonaviy dars ishlanmalari qilish, soha xabardorligini oshirish, innovatsion yondashuvlar va ilg'or o'quv metodik adabiyotlarni o'rganish tub ma'noda zarur. PISA talablari asosida har bir o'qituvchi bilim darajasini, kasbiy mahoratini doimo oshirib, yangi pedagogik yondashuvlarga tayyor bo'lishi lozim. PISA baholashida o'qituvchilarning bilim darajasini oshirish ko'plab afzalliklarni beradi [5].

O'quv jarayonida metodikani zamonaviylashtirish va rivojlantirish o'qituvchining kundalik faoliyatida ham doim aks etishi kerak. Didaktik materiallar, yangi dars ishlanmalari, elektron resurslar va multimediyalar vositalaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi faqat o'rgatuvchi emas, balki maslahatchi, rivojlantiruvchi va ilg'or g'oyalarni o'rgatuvchi bo'lishi lozim. Ta'lim sifatini oshirishda innovatsion metodlar, zamonaviy texnologiyalar, tahliliy yondashuv, faollikka asoslangan uzluksiz kasbiy o'sish yo'nalishni aniqlab beradi. PISA talablari zamonaviy ta'limda mustaqil fikrlashni shakllantirishga, bilimlarni tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etishga yetarlicha ahamiyat qaratadi. O'qituvchilar innovatsion usullarni amalda samarali joriy etish, o'qitishning har bir jihatini puxta o'ylash, har bir darsga rejali yondashish orqali farzandlarimizning kelajakda mustaqil, ijodkor, zamonaviy bilimga ega shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladilar [6].

**Xulosa** qilib aytiladiki, PISA talablari asosida o'qituvchilarning o'qitish metodikasini rivojlantirish yuqori samara va sifatli ta'lim uchun, o'quvchilarning hayotga tayyor, raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, zamonaviy bilimga ega bo'lib yetishishlari uchun, milliy ta'lim tizimini xalqaro

mezonlar darajasiga olib chiqish uchun eng muhim omil hisoblanadi. PISA talablari asosidagi metodik yondashuvlarni doimiy ravishda joriy etish orqali o'qituvchilar o'z malakasini rivojlantirib boradi, pirovard natijada zamonaviy va kuchli ta'lim tizimi shakllanadi. Davlat organlari, ta'lim muassasalari va barcha o'qituvchilar uchun PISA talblariga javob beradigan metodika – yurtimiz ertangi taraqqiyotining, barkamol avlod tarbiyasining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Djalilova N. (2020). "PISA xalqaro baholash dasturining ahamiyati va O'zbekiston ta'lim tizimi uchun imkoniyatlari".
2. Hamidov M. (2021). "Ta'lim sifatini baholashda xalqaro dasturlar: PISA tahlil natijalari va O'zbekiston uchun tavsiyalar". Ilmiy-amaliy ta'lim jurnali, №2.
3. Karimova Z. (2023). "PISA dasturi: O'zbekistonning ilk ishtiroki va natijaviy tahlil". Xalq ta'limi, №4.
4. OECD. (2023). PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org/pisa/>
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2022). O'zbekistonning PISA 2022 natijalari bo'yicha hisobot. Toshkent.
6. UNESCO. (2022). Global Education Monitoring Report: Technology and Education. <https://en.unesco.org/gem-report/>

UDC 372.881.111.1

## THE PEDAGOGICAL POTENTIAL OF GAME-BASED METHODS IN DEVELOPING CLASSROOM COMMUNICATION

*F.Kh.Khalilova, teacher, Secondary School No. 16, Samarkand*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim muhitida kommunikativ to'siqlarni yengib o'tishda o'yin texnologiyalarining roli tahlil qilinadi. Psixologik, lingvistik, madaniy va ijtimoiy kommunikativ to'siqlar, ayniqsa ta'lim hamda chet tillarini o'qitish jarayonida o'quvchilar o'rtasida samarali muloqotga to'siqlik qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqot konstruktivistik va sotsiomadaniy ta'lim nazariyalariga, shuningdek, yetakchi pedagog olimlarning qarashlariga tayanadi. Bundan tashqari, maqolada o'yin asosidagi ta'lim va gamifikatsiya strategiyalarining tashvishni kamaytirish, o'quvchilarning faolligini oshirish hamda autentik muloqotni rag'batlantirishdagi nazariy va amaliy jihatlari tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** o'yin asosidagi ta'lim, kommunikativ to'siqlar, gamifikatsiya, kommunikativ kompetensiya, ta'lim, interaktiv pedagogika, sotsiomadaniy ta'lim.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль игровых технологий в преодолении коммуникативных барьеров в современной образовательной среде. Коммуникативные барьеры психологические, лингвистические, культурные и социальные остаются одним из основных препятствий для эффективного взаимодействия между учениками, особенно в системе образования и при изучении иностранных языков. Исследование опирается на конструктивистские и социокультурные теории обучения, а также на педагогические взгляды ведущих ученых. Кроме того, в статье представлен теоретический и практико-ориентированный анализ того, как игровое обучение и стратегии геймификации способствуют снижению тревожности, повышению вовлеченности учеников и стимулированию аутентичной коммуникации.

**Ключевые слова:** игровое обучение, коммуникативные барьеры, геймификация, коммуникативная компетенция, образование, интерактивная педагогика, социокультурное обучение.

**Abstract.** This article explores the role of game-based technologies in overcoming communicative barriers in modern educational environments. Communicative barriers psychological, linguistic, cultural, and social remain one of the major obstacles to effective interaction among pupils, particularly in education and foreign language learning contexts. The study relies on constructivist and socio-cultural learning theories, drawing upon the pedagogical views. In addition, the article provides a theoretical and practice-oriented analysis of how game-based learning and gamification strategies reduce anxiety, increase pupils engagement, and stimulate authentic communication.

**Key words:** *game-based learning, communicative barriers, gamification, communicative competence, education, interactive pedagogy, socio-cultural learning.*

**Introduction.** In contemporary education, communicative competence is increasingly recognized as a fundamental component of academic and professional success. In an era characterized by globalization, intercultural exchange, and digital transformation, pupils are expected not only to possess theoretical knowledge but also to communicate effectively, collaborate in teams, and participate in dialogue across cultural and disciplinary boundaries. However, despite methodological innovations and technological advancements, communicative barriers continue to hinder the development of pupils' interactional skills.

Communicative barriers can manifest in multiple forms. Psychological barriers include fear of public speaking, anxiety, low self-esteem, and fear of making mistakes. Linguistic barriers arise from insufficient vocabulary, grammatical uncertainty, or limited pragmatic awareness. Socio-cultural barriers may stem from differences in background, communication styles, or stereotypes. In traditional teacher-centered classrooms, these barriers often intensify due to formal evaluation systems and limited opportunities for authentic dialogue. As a result, many learners remain passive participants rather than active communicators.

The theoretical foundation for addressing communicative development lies in socio-cultural and constructivist pedagogy. L. Vygotsky emphasized that learning is inherently social and occurs through interaction within the Zone of Proximal Development [1]. According to his theory, dialogue and collaboration are central to cognitive growth. Similarly, J. Dewey argued that education must be grounded in experience and active participation. Learning, in J. Dewey's view, is not passive reception but meaningful engagement with real-life situations [2]. J. Piaget further contributed to this perspective by highlighting the importance of active exploration and discovery in intellectual development [3].

Game-based technologies reflect and operationalize these theoretical principles in modern educational contexts. Unlike traditional instruction, which often prioritizes memorization and formal assessment, game-based learning introduces dynamic interaction, immediate feedback, and emotionally supportive environments [4]. Games create simulated realities in which pupils can experiment with language and communication without fear of irreversible failure. Mistakes become part of the process rather than sources of embarrassment.

Moreover, digital gamification integrates motivational elements such as points, levels, challenges, and collaborative missions. These mechanisms transform learning into an engaging and participatory process. Importantly, game-based approaches are not limited to entertainment; they represent structured pedagogical strategies designed to achieve specific communicative outcomes.

The analysis of classroom practices and contemporary pedagogical research demonstrates that game-based technologies significantly reduce communicative barriers and promote active engagement. The results can be grouped into several interrelated dimensions: *psychological impact, linguistic development, social interaction, and motivational transformation.*

First, from a psychological perspective, game-based learning reduces anxiety and fear of evaluation. In traditional academic settings, pupils often associate speaking activities with formal assessment. The presence of grades and public correction may create stress, particularly among introverted learners. However, when communication is embedded within a game scenario such as role-play, simulation, or problem-solving missions the emotional climate changes. Pupils perceive the activity as collaborative rather than judgmental. The game environment allows participants to assume roles, which psychologically distances them from personal failure. For example, a pupil speaking as a "character" in a scenario experiences less personal risk than when expressing personal opinions. This shift lowers emotional tension and increases willingness to communicate.

Second, game-based technologies positively influence linguistic competence. Structured communicative games require pupils to use vocabulary and grammatical structures in meaningful contexts. Unlike mechanical drills, games simulate authentic communicative situations negotiation, decision-making, persuasion, and teamwork. As a result, language becomes functional rather than

abstract. Pupils internalize expressions and discourse patterns more effectively because they are applied within purposeful interaction. Repetition occurs naturally through gameplay, reinforcing linguistic structures without monotony.

Third, collaborative gaming enhances social interaction skills. Many communicative barriers originate not from linguistic deficiency but from limited experience in cooperative dialogue. Multiplayer tasks and team-based challenges encourage negotiation, clarification, and mutual support. In such settings, pupils learn to listen actively, formulate responses strategically, and adapt to interlocutors. These skills are essential for communicative competence. Moreover, collaborative games foster peer solidarity, reducing social distance between participants.

Fourth, motivation undergoes qualitative transformation in gamified environments. Traditional instruction often relies on extrinsic motivation grades, exams, or institutional expectations. Gamification, however, activates intrinsic motivation by introducing curiosity, challenge, and achievement. When learners perceive tasks as engaging missions rather than obligatory assignments, participation becomes voluntary and enthusiastic. Points, levels, and visual progress indicators provide immediate feedback, reinforcing effort and persistence.

Empirical classroom observations reveal measurable improvement in communicative activity. Participation rates increase when interactive games replace lecture-based discussion. Pupils who previously avoided speaking demonstrate greater involvement during simulations and digital quizzes. Furthermore, qualitative feedback indicates higher levels of confidence and enjoyment. Teachers report that learners become more spontaneous and creative in expressing ideas during gamified sessions.

Intercultural competence develops through scenario-based games that simulate real-life communication across cultural contexts. Pupils practice appropriate language use in diverse communicative situations, enhancing pragmatic awareness and empathy. This is particularly relevant in foreign language education and internationalized academic environments. The results confirm that game-based technologies influence not only technical language skills but also emotional and social dimensions of communication. The integration of structured game mechanics transforms communicative practice into a dynamic, supportive, and student-centered process.

The findings support the theoretical assumptions of socio-cultural learning and constructivism. In accordance with L. Vygotsky's concept of socially mediated learning, communicative competence develops through interaction rather than isolation. Game-based environments operationalize this principle by structuring dialogue within meaningful contexts. The Zone of Proximal Development becomes observable when peers assist each other in completing missions and solving communicative tasks [1].

J. Dewey's experiential perspective, games represent educative experiences that integrate reflection and action. Communication during gameplay is not abstract but purposeful. Pupils speak to achieve goals, negotiate strategies, or solve problems. This alignment between action and reflection strengthens cognitive engagement [2].

J. Piaget's theory of active learning suggests that knowledge emerges from interaction with the environment. In gamified settings, learners actively construct communicative strategies rather than passively reproduce memorized phrases. Trial and error become productive mechanisms of growth [3].

However, critical reflection reveals potential limitations. Game-based technologies require careful instructional design. Without clear objectives, games risk becoming entertainment detached from learning outcomes. Teachers must balance creativity with academic rigor. Additionally, technological inequality may create disparities in access to digital tools. Institutional support and teacher training are therefore essential [4].

Another important consideration concerns cultural perception. In some educational traditions, games may be perceived as insufficiently serious. Educators must therefore demonstrate pedagogical justification and measurable outcomes to ensure acceptance within academic communities. Despite these challenges, the pedagogical benefits outweigh potential risks. Game-based learning does not replace traditional instruction but enriches it. Blended models combining structured explanation with

interactive simulation appear particularly effective. Such integration ensures theoretical depth while maintaining communicative dynamism. Overcoming communicative barriers requires addressing emotional, cognitive, and social factors simultaneously. Game-based technologies uniquely integrate these dimensions within a unified pedagogical framework.

**Conclusion.** The study confirms that game-based technologies play a significant role in overcoming communicative barriers in educational contexts. By reducing psychological anxiety, stimulating intrinsic motivation, and fostering collaborative dialogue, gamified learning environments create conditions conducive to communicative competence development.

Grounded in the socio-cultural theories of L. Vygotsky and the experiential philosophy of J. Dewey, game-based learning reflects the principle that knowledge emerges through meaningful interaction. Empirical observations demonstrate increased participation, improved confidence, and enhanced social engagement among pupils exposed to structured gaming strategies.

While careful methodological design and institutional support are necessary, the integration of game technologies represents a human-centered and sustainable approach aligned with modern educational standards. Future research should explore longitudinal effects and discipline-specific applications to further validate the transformative potential of gamified communication practices.

#### REFERENCES:

1. Vygotsky L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes (M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, & E. Souberman, Eds.). Cambridge, MA: Harvard University Press. 1978. - 159 pp.
2. Dewey J. Experience and education. New York, NY: Macmillan Company. 1938. - 116 pp.
3. Piaget J. The origins of intelligence in children. New York, NY: International Universities Press. 1952.- 419 pp.
4. Krashen S. D. Principles and practice in second language acquisition. Oxford, UK: Pergamon Press. 1982.-202 pp.

UO'K 372.881

### CHET TILINI O'QITISHDA VIDEO RESURSLARNI INTEGRATSIYA QILISH

*Sh.S.Khatamkulova, katta o'qituvchi, Qo'qon davlat universiteti, Qo'qon*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola video resurslarning chet tillarini o'qitish jarayoniga integratsiyalashuvini ko'rib chiqadi, talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini, madaniy xabardorligini va motivatsiyasini oshirish uchun ularning pedagogik ahamiyatini ta'kidlaydi. Videokliplar, filmlar va ta'lim dasturlari kabi audiovizual materiallardan foydalanish o'quvchilarga haqiqiy tilni kontekstda idrok etish imkonini beradi, bu esa eshitish, talaffuz va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** chet tilini o'qitish, video manbalar, audiovizual materiallar, kommunikativ kompetentsiya, madaniyatlararo xabardorlik, tilni o'rganish strategiyalari.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается интеграция видеоресурсов в процесс обучения иностранным языкам, подчеркивается их педагогическая ценность в повышении коммуникативной компетентности, культурной осведомленности и мотивации учащихся. Использование аудиовизуальных материалов, таких как видеоклипы, фильмы и образовательные программы, позволяет учащимся познакомиться с аутентичным языком в контексте, способствуя развитию навыков понимания на слух, произношения и межкультурного понимания.

**Ключевые слова:** обучение иностранным языкам, видеоресурсы, аудиовизуальные материалы, коммуникативная компетентность, межкультурная осведомленность, стратегии изучения языка.

**Abstract.** This paper explores the integration of video resources into the process of teaching foreign languages, emphasizing their pedagogical value in enhancing communicative competence, cultural awareness, and student motivation. The use of audiovisual materials such as video clips, films, and educational programs allows learners to experience authentic language in context, supporting the development of listening comprehension, pronunciation, and intercultural understanding.

*Keywords: foreign language teaching, video resources, audiovisual materials, communicative competence, intercultural awareness, language learning strategies*

**Kirish.** Ta'lim mazmunini taqdim etish, sotib olish, saqlash va ko'paytirish jarayonlari ta'limdagi inson va axborot o'rtasidagi o'zaro ta'sirning kengroq muammosi, xususan, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining samaradorligi bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim texnologiyalari orqali o'qitish usullarini rasmiylashtirish muvaffaqiyatli pedagogik tajribani takrorlashga imkon beradi va ta'lim mazmuni bilan ishlashga tizimli yondashuvni taklif etadi. Ushbu mavzu ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Ko'plab tadqiqotlar ta'lim tizimlari doirasida bilimlarni uzatishning turli metodologiyalarini o'rganib chiqdi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bilimlarni uzatish muammosi olimlarning katta e'tiborini tortdi va ko'plab asarlar ushbu nutqqa hissa qo'shdi. V. I. Vernadskiyning g'oyalari insoniyat tomonidan to'plangan bilimlarning keng omborini birlashtirishning zamonaviy kontekstida juda dolzarb bo'lib qolmoqda (Vernadskiy, 1998). U kutgan integratsiya jarayonlari hozir rivojlanmoqda va ba'zilar to'rtinchi ilmiy inqilob deb hisoblagan narsaning markazida (Kuhn, 1996; Stepin, 2007-2009). Bunday integratsiya nafaqat o'z vaqtida, balki, ayniqsa, ta'lim sohasida tabiiy qadamdir. Uchbirlikka asoslangan ta'lim yondashuvining bir qismi sifatida (Kibalchenko va boshq., 2015-2017) matn, tasvir va ma'no yoki oqilona, hissiy va intuitiv komponentlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kabi tabiiy kognitiv o'zaro ta'sirlardan foydalanish samarali ekanligini isbotladi. Ushbu o'zaro ta'sirlarni o'rganish o'rnatilgan ta'lim strategiyalari va usullarini yaxshilashi mumkin (Babanskiy, 1973, 1987; Ditman, 1989; Vygotskiy, 1977; Zankov, 1963-1964). Ta'limning samarali o'zaro ta'sirining eng muhim omili psixologik jihatdan qulay o'quv muhitini yaratishdir (Karterett va Fridman, 1978). Vizualizatsiya bu erda asosiy rol o'ynaydi. Biroq, zamonaviy o'qitish ko'pincha o'quvchilarning hissiy va majoziy idrokini e'tiborsiz qoldiradi. Sof tushuntirish ta'limidan ko'proq vizual tuzilishga o'tish o'rganish samaradorligini oshirish uchun katalizator sifatida qaraladi (Begin, 2008; Parker, 1979). Vizualizatsiya integratsiyasi psixologik jihatdan xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim makonini yaratishga yordam beradi (Pizarenko va Bondarev, 2016). Ushbu o'zgarish o'qituvchilar, talabalar, mazmun va fanlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning samarali modelini yaratish orqali Liberal ta'limni modernizatsiya qilishga yordam berishi mumkin. Ushbu maqsadga erishish uchun didaktik vositalar to'plami, shu jumladan tarkibni yodlashga yordam beradigan ko'rgazmali qurollar qo'llaniladi (Alava va Kristian, 1999; Andrade va Spinillo, 2013; Fridrix, 2001).

**Metodologiya.** Ta'lim texnologiyasi turli yo'llar bilan aniqlanadi, ammo umuman olganda, bu o'quv jarayonida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadigan tizimni anglatadi (Arsaliev, 2015, 2016). U talabalar faoliyatini tashkil etish va monitoringini o'z ichiga oladi va ta'limni boshqarish uchun pedagogik asosdir. Har qanday bunday texnologiyaning muhim tarkibiy qismi o'quv natijalari va jarayon bosqichlari o'rtasidagi fikr-mulohazalardir. Ushbu yondashuv o'quvchilarning o'quv muammolarini qanday hal qilishini boshqarishga qaratilgan. Amalda, o'qituvchilar o'quvchilarning kognitiv ishtiroki darajasini, ularning o'rganish uslubi va bilim darajasini hisobga olishlari kerak. Ular moslashuvchanlikni ta'minlashi, individual axborot muhitini yaratishi va individual ehtiyojlarga mos keladigan didaktik vositalarni qo'llashi kerak.

Ta'lim texnologiyalarining mohiyati ta'limni rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va baholashdir. Ta'lim sohasidagi joriy va kelajakdagi muammolarni hal qilish ta'lim tizimining umumiy sifatini oshirish uchun innovatsion va samarali usullarni qo'llashni talab qiladi. Pedagogik muammolarni hal qilishda kompleks, fanlararo yondashuvga aniq ehtiyoj bor. Ushbu tadqiqot chet tillarini o'qitishda audiovizual texnologiyalardan (AT) keng va tobora ko'proq foydalanishga qaratilgan. AT eshitish va vizual idrok etish kanallaridan foydalangan holda innovatsion o'qitish usullarini joriy etadi, o'quv resurslarining samaradorligi va mavjudligini oshiradi. Biroq, uni amalga oshirish ko'pincha nomuvofiq va tuzilmagan. Kompetentsiyalarni shakllantirish uchun videodan foydalangan holda o'qitish usullari tizimi sifatida belgilangan, atilni o'rganish uchun ayniqsa qimmatlidir, chunki u o'rganilayotgan tilni haqiqiy ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstda taqdim etadi. Videolar nafaqat tilni o'rgatadi, balki o'quvchilarni ular gapiradigan muhitga ham jalb qiladi. Ushbu tadqiqot turli ilmiy sohalarda olingan natijalarni birlashtiruvchi fanlararo yondashuvga

asoslanadi. Tadqiqotda AT bir nechta ta'lim yondashuvlari bilan uyg'un holda ko'rib chiqiladi. Xususan, tizimli yondashuv ta'lim jarayonini o'zaro bog'langan pedagogik harakatlar tizimi sifatida talqin qiladi va o'qitish faoliyatini tartibli hamda rejalashtirilgan shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Sinergik yondashuv esa o'rganishni chiziqli bo'lmagan, doimiy rivojlanib boruvchi va o'zaro ta'sirlar asosida shakllanuvchi jarayon sifatida izohlaydi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim jarayonini talabning individual xususiyatlari, qiziqishlari hamda ehtiyojlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Integratsiyalashgan yondashuv ta'limning shakllari, usullari va mazmunini yagona pedagogik tizim doirasida birlashtirishga xizmat qiladi.

**Muhokama va natija.** Texnologik yondashuv esa o'qitish jarayonini mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etilgan operatsiyalar tizimi sifatida rejalashtirishni taqozo etadi. Trening jarayonida qo'llaniladigan videomateriallar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ularga kliplar, dasturlar, o'quv filmlari hamda maxsus ishlab chiqilgan video kurslari kiradi. Video kurslari muayyan didaktik maqsadlarni hisobga olgan holda tuzilgan tizimli o'quv dasturlaridan iborat bo'lib, o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. O'qituvchilar esa ushbu jarayonni oldindan belgilangan pedagogik model asosida amalga oshiradilar. Videomateriallar talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni ona tilida so'zlashuvchilar nutqi hamda real hayotiy vaziyatlar bilan tanishtiradi. Shuningdek, filmlar talabalarda hissiy ishtirokni kuchaytiradi, o'quv mazmuni bilan shaxsiy aloqani shakllantiradi hamda materialni yaxshiroq eslab qolish va til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Videofilmlarning pedagogik funksiyalari ham ko'p qirrali hisoblanadi. Ular bir vaqtning o'zida bir nechta ta'limiy vazifalarni bajaradi. Jumladan, informatsion va tarbiyaviy funksiyasi orqali videolar o'quv materialini kontekst asosida taqdim etib, uni amaliy qo'llash imkoniyatini yaratadi. Tasviriy funksiyasi esa o'rganilayotgan tushunchalarning vizual mustahkamlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, tashkiliy funksiyasi orqali videomateriallar guruhli mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga, talabalar diqqatini muayyan o'quv faoliyatiga yo'naltirishga va dars jarayonini tizimli ravishda boshqarishga xizmat qiladi.

Video mazmuni samarali bo'lishi uchun u o'quv dasturining maqsadlariga, tilni bilish darajasiga va o'quvchilarning bilim qobiliyatiga mos kelishi kerak. Darslarga uslubiy integratsiya, ayniqsa kommunikativ kompetensiya va madaniy xabardorlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan maksimal ta'lim ta'sirini ta'minlaydi. Talabalar film nomi bilan tanishadilar va uning mazmuni, joylashuvi, vaqti va potentsial qahramonlari haqida taxminlar qilishlari so'raladi. Taxminlarni ifodalash uchun asosiy iboralar oldindan kiritiladi va ishlab chiqiladi. Filmning har bir qismini tomosha qilishdan oldin tushunish va faol foydalanish uchun zarur bo'lgan asosiy lug'at berilgan. Frazologik birliklarga alohida e'tibor beriladi. Tayyorgarlik doirasida madaniy va geografik sharhlar ham beriladi. Filmni tomosha qilish (qismlar bo'yicha) Har bir parchani ko'rib chiqishdan oldin talabalarga ko'rsatma savollari beriladi, ularga keyinroq javob berishlari kerak.

Og'zaki muloqotni bir qator vazifalar yordamida rag'batlantirish mumkin. Bu syujet, tashqi ko'rinish, xarakter xususiyatlari va xarakter xatti-harakatlarini umumiy muhokama qilishdan boshlanadi. Tavsiya etilgan harakatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: sahna va harakat vaqtini tavsiflash, bosh qahramonlarning ismlarini eslatish, ularning tashqi ko'rinishini tavsiflash, qahramonlar haqida fikr almashish, voqealar ketma-ketligini qayta tiklash, filmning umumiy taassurotlari va film ijodkorlari tomonidan ko'tarilgan asosiy masalalarni aniqlash.

**Xulosa.** Ushbu topshiriqlarni bajarish uchun talabalar nafaqat umumiy hikoya chizig'ini tushunishlari, balki filmda uchraydigan lug'at va iboralardan foydalangan holda aniq tafsilotlarni eslab qolishlari va voqealar va qahramonlarni baholashlari kerak. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'p sonli lingvistik va nutq elementlari tufayli badiiy filmlarni tomosha qilish texnik talabalar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Video kurslar, shuningdek, o'qituvchining moslashuvchanligini cheklaydi, chunki ular asosan o'z-o'zini o'rganish uchun mo'ljallangan. Tadqiqot va amaliyot shuni ko'rsatadiki, qisqa videotasvirlardan foydalanish samaraliroq. Ushbu materiallardan foydalanish yondashuvi to'liq filmlar yoki video kurslarni yaratishda qo'llanilganidan farq qiladi.

Texnika universiteti sharoitida dasturlar, kliplar, parchalar, epizodlar va sahnalar kabi turli xil videofilmlar eng samarali format hisoblanadi. Ular turli xil harakatlar, joylar, jarayonlar yoki

hodisalarni tasvirlashi mumkin — odamlar, hayvonlar yoki texnik vositalar bilan yoki ularsiz — va muhokama qilish, hodisalarni tasvirlash yoki tushunchalarni tushuntirish uchun mavzu bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Corbalan, G., Kester, L., & van Merriënboer, J. J. G. (2011). Selecting learning tasks: Effects of adaptation and shared control on learning efficiency and task involvement. *Contemporary Educational Psychology*, 36(4), 234–241. <https://doi.org/10.1016/j.cedpsych.2010.10.001>
2. Pisarenko, V. F. (2015). Use of video materials in teaching foreign languages at non-linguistic faculties. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 182, 104–109. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.04.742>
3. Pisarenko, V. F., & Arsaliev, S. A. (2016). Application of video fragments in professional English teaching at technical universities. *International Journal of Environmental and Science Education*, 11(17), 10417–10426.
4. Pisarenko, V. F., & Krasnoshchekova, E. A. (2016). Using video information in ESP teaching process at technical universities. *International Journal of Environmental and Science Education*, 11(17), 10427–10435.

UO'K 37.016:811.161.1

**O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA RUS TILI VA ADABIYOTINI O'QITISHNING  
ZAMONAVIY HOLATI VA MUAMMOLARI**

*M.Q.Komilova, katta o'qituvchi, Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida rus tili va adabiyotini o'qitishning hozirgi holati, metodik yondashuvlari hamda mavjud muammolari tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonida rus tilining kommunikativ va madaniy ahamiyati ortib borayotgani, uni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, rus tili va adabiyotini o'qitishda kadrlar tayyorlash, o'quv dasturlarining yangilanishi, darsliklar sifati va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish bilan bog'liq muammolar ochib beriladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** rus tili, rus adabiyoti, ta'lim tizimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kommunikativ yondashuv, metodik muammolar, til o'qitish.

**Аннотация.** В данной статье анализируется современное состояние, методические подходы и существующие проблемы преподавания русского языка и литературы в системе образования Узбекистана. Обосновывается возрастающая коммуникативно-культурная значимость русского языка в процессе глобализации, необходимость внедрения современных педагогических технологий в его преподавание. Также выявляются проблемы, связанные с подготовкой кадров для преподавания русского языка и литературы, обновлением учебных программ, качеством учебников и использованием цифровых образовательных ресурсов. На основе результатов исследования даются научно-практические рекомендации по повышению эффективности образования.

**Ключевые слова:** русский язык, русская литература, система образования, современные педагогические технологии, коммуникативный подход, методические проблемы, преподавание языка.

**Abstract.** This article analyzes the current state, methodological approaches, and existing challenges in teaching Russian language and literature in the education system of Uzbekistan. It substantiates the growing communicative and cultural significance of the Russian language in the context of globalization and the need to implement modern pedagogical technologies in its teaching. It also identifies challenges related to training personnel for teaching Russian language and literature, updating curricula, the quality of textbooks, and the use of digital educational resources. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are provided for improving the effectiveness of education.

**Keywords:** Russian language, Russian literature, education system, modern pedagogical technologies, communicative approach, methodological challenges, language teaching.

**Kirish.** Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida xorijiy va ikkinchi tillarni o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekistonda ko'p millatli jamiyat sharoitida rus tili nafaqat xorijiy til, balki millatlararo muloqot vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Rus tili tarixan Respublika hududida muhim kommunikativ vosita bo'lib kelgan va hozirgi kunda ham ilm-fan, texnika, madaniyat hamda xalqaro aloqalarda o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, ko'p millatli jamiyat sharoitida rus tilini mukammal bilish shaxsning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy raqobatbardoshligini oshiradi. Shu sababli rus tili va adabiyotini o'qitishning zamonaviy holatini o'rganish hamda mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarida rus tili va adabiyotini o'qitish jarayonida an'anaviy grammatik-tarjimaviy yondashuvning ustunligi saqlanib qolmoqda. Bu esa zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv talablariga to'liq javob bermaydi. O'quvchilarda kommunikativ, madaniyatlararo va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish masalasi yetarlicha tizimli yo'lga qo'yilmagan.

Zamonaviy pedagogika va lingvodidaktika fanlarida kommunikativ metod, interfaol ta'lim texnologiyalari hamda raqamli resurslardan foydalanish masalalari keng tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, rus tili va adabiyotini o'qitishning O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitidagi real holati va muammolari kompleks tarzda yetarlicha o'rganilmagan. Ayniqsa, qishloq hududlaridagi ta'lim muassasalarida metodik ta'minot va pedagogik tayyorgarlik darajasi alohida e'tiborni talab qiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekiston ta'lim tizimida rus tili va adabiyotini o'qitishning hozirgi holatini tahlil qilish va asosiy muammolarni aniqlashdan iborat. Yuqoridagi maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- rus tili va adabiyotini o'qitish bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- amaldagi o'quv dasturlari va darsliklarning mazmunini baholash;
- ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metod va texnologiyalarni o'rganish;
- mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Rus tili va adabiyotini o'qitish masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, rus tili o'qitishning psixologik va psixolingvistik asoslari Lev Semyonovich Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy nazariya bilan bog'liq bo'lib, unda nutq va tafakkur rivoji, yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) tushunchasi til o'qitish jarayonida muhim metodologik asos sifatida talqin etiladi [1]. Aleksei A. Leontiev til faoliyati nazariyasini rivojlantirib, nutqiy faoliyatni kommunikativ jarayon sifatida izohlab bergan. Inessa L. Bim esa chet tilini o'qitishning kommunikativ-metodik tizimini ishlab chiqib, dars jarayonida funksional yondashuvni asoslab bergan.

Mazkur nazariyalar asosida XX asr oxiri – XXI asr boshlarida rus tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ustuvor maqsadga aylandi. Xorijiy metodistlar orasida kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirgan olimlar (masalan, Yevropa til siyosati doirasidagi CEFR konsepsiyasi) ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa rus tilini ikkinchi yoki chet tili sifatida o'qitishda darajaviy yondashuvni qo'llash zaruratini yuzaga keltirdi.

Respublikamiz tadqiqotchi olimlaridan Shavkat Raxmatullayev tilshunoslik va til o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarida ko'p tillilik sharoitida til kompetensiyasini shakllantirish masalalarini yoritgan. Nurmon Mahmudov esa til madaniyati, nutq me'yorlari va lingvodidaktik muammolarni tadqiq etgan. Respublikamizda rus tili o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan izlanishlarda ko'pincha interferensiya, tarjima metodining o'rni, milliy auditoriyada rus tilini o'qitishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Adabiyot o'qitish masalalariga doir tadqiqotlarda esa badiiy matnni tahlil qilish metodikasi, o'quvchilarda estetik tafakkurni shakllantirish, adabiy kompetensiyani rivojlantirish muammolari ko'tarilgan. Rus adabiyoti namoyandalarining (masalan, Pushkin, Tolstoy, Dostoyevskiy ijodi) asarlarini milliy auditoriyada o'qitishning madaniyatlararo jihatlari ham ayrim ilmiy ishlarda yoritilgan.

Shu bilan bir qatorda, adabiyotlar tahlili quyidagi dolzarb, yetarlicha o'rganilmagan yo'nalishlarni ko'rsatadi:

1. **Raqamli pedagogika va rus tili o'qitish integratsiyasi** – onlayn platformalar, sun'iy intellekt asosidagi til o'rgatish vositalaridan foydalanishning metodik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

2. **Blended learning va masofaviy ta'lim modeli** – pandemiyadan keyingi davrda aralash ta'limning samaradorligini rus tili va adabiyoti faniga moslashtirish masalasi chuqur tadqiq etilmagan.

3. **Fanlararo integratsiya** – rus tilini boshqa fanlar bilan integratsiyalash asosida o'qitish metodikasi hali keng tadqiq etilmagan.

4. **Milliy mentalitet va madaniyatlararo kommunikatsiya** – ko'p tilli jamiyat sharoitida rus tilini o'qitishda identitet, lingvokulturologik yondashuv masalalari yangi konseptual yondashuvni talab qiladi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar rus tili va adabiyotini o'qitishning psixologik va metodik asoslarini yetarli darajada yoritgan bo'lsa-da, raqamli transformatsiya, kompetensiyaviy ta'lim modeli va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida mazkur fanlarni o'qitish muammolari hali ham dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: tahlil va sintez, taqqoslash, pedagogik kuzatuv, ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish, o'quv jarayoniga doir hujjatlarni tahlil qilish.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablari, akademik litseylar hamda oliy ta'lim muassasalarida rus tili va adabiyotini o'qitish jarayonini tahlil qilish asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida o'quv rejalari, amaldagi darsliklar, metodik qo'llanmalar, shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik faoliyati tahlil qilindi.

Darsliklar va o'quv-metodik majmualar tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning aksariyatida matnlar va mashqlar **zamonaviy ijtimoiy-madaniy kontekstga mos kelmaydi**. Adabiy matnlar ko'proq an'anaviy shaklda berilib, ularni tahlil qilishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga yetarli e'tibor qaratilmagan. Natijada o'quvchilarda rus adabiyotiga bo'lgan qiziqish pasaymoqda.

Amaldagi o'quv dasturlari Davlat ta'lim standartlariga asoslangan bo'lib, quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

**Ijobiy tomonlar:**

- nutqiy faoliyat turlariga (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) e'tibor qaratilgan;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi saqlangan.

**Kamchiliklar:**

- ayrim darsliklarda topshiriqlar reproduktiv xarakterda;
- real kommunikativ vaziyatlar yetarli darajada aks ettirilmagan;
- adabiyot bo'limida zamonaviy rus adabiyoti namunalariga kam o'rin berilgan;
- elektron ilovalar va interaktiv platformalar bilan integratsiya sust.

Tadqiqot davomida talabalarning metodik tayyorgarligi ham o'rganildi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, talabalarning bir qismi **zamonaviy pedagogik texnologiyalar** (interfaol metodlar, loyiha usuli, raqamli platformalar)dan foydalanish bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega emas. Bu holat, ayniqsa, qishloq hududlaridagi ta'lim muassasalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, rus tili va adabiyotini o'qitishda **grammatik-tarjimaviy yondashuv** ustunlik qilmoqda. Mazkur yondashuv talabalarning grammatik bilimlarini shakllantirishga xizmat qilsada, ularning og'zaki nutq va real kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda yetarlicha samaradorlik bermaydi.

**Xulosa va takliflar.** Rus tili va adabiyotini o'qitish samaradorligi ilmiy-metodik asoslarning mustahkamligi, o'quv dasturlarining zamonaviy talablarga mosligi, innovatsion metodlarning qo'llanishi va mavjud muammolarni tizimli hal etishga bog'liq. So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika, multimediya vositalaridan foydalanish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'paymoqda. Biroq ayrim metodik adabiyotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar yetarli darajada amaliy tavsiyalar bilan boyitilmagan. Zamonaviy ta'lim jarayonida asosiy e'tibor talabaning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga

qaratilishi lozim. Tadqiqot natijalariga ko'ra, rus tili va adabiyotini o'qitish samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar ustuvor ahamiyatga ega:

- kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuv asosida darslarni tashkil etish;
- adabiy matnlarni tahlil qilishda madaniyatlararo yondashuvni joriy etish;
- o'qituvchilarning metodik va raqamli kompetensiyalarini oshirish;
- ilmiy-metodik baza mavjud, ammo uni milliy ta'lim sharoitiga moslashtirish va amaliyot bilan integratsiyalash zarur.

- darsliklarni kommunikativlik, interaktivlik va raqamli komponentlar bilan boyitish lozim.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi choralar amalga oshirilsa, rus tili va adabiyotini o'qitish jarayoni yanada samarali bo'lib, talabalarning til va madaniy kompetensiyasi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ta'lim tizimida rus tili va adabiyotini o'qitish muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zarur. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Rahmatullayev Sh. — Hozirgi o'zbek adabiy tili — Toshkent: Universitet, 2023.
3. Vygotskiy, L. S. (1991). Мышление и речь. Москва: Педагогика.
4. Komilova M., Shokirov M. Integrating technology in russian language teaching: innovations, methodologies, and learning outcomes //International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 1. – №. 4. – С. 1333-1337.
5. Леонтьев А.А. Психология общения: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений / А.А.Леонтьев. - Изд.5-е стереотипное. - М.: Смысл; Издательский центр «Академия», 2008. - 368 с.
6. Kobiljonovna K. M. Project activities in russian language classes //international journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2023. – T. 12. – №. 12. – С. 70-74.
7. Bim I.L. Teoriya i praktika obucheniya inostrannym yazykam. – Moskva, 2014.
8. Mahmudov N. — Til va nutq: muloqotning ijtimoiy-madaniy omillari — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2022.

#### UO'K 37.091.321:612.6

### “YOSH FIZIOLOGIYASI VA GIGIYENASI” MODULINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI Sh.Sh.Kurbanova, katta o'qituvchi, Qarshi xalqaro universiteti, Qarshi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” modulini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot davomida Qarshi xalqaro universiteti talabalari bilan tajriba-sinov ishlari olib borilib, klaster, SWOT tahlil, mini-tadqiqot va interfaol metodlar qo'llanildi. Natijalar talabalarda mustaqil fikrlash, sog'lom turmush tarziga ongli munosabat hamda gigiyenik madaniyatning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** muammoli ta'lim, yosh fiziologiyasi, gigiyena, talaba faolligi, sog'lom turmush tarzi, pedagogik texnologiya.

**Аннотация.** В данной статье раскрывается эффективность применения технологии проблемного обучения при преподавании модуля «Возрастная физиология и гигиена». В ходе исследования были проведены экспериментальные занятия со студентами Каршинского международного университета с использованием кластер-метода, SWOT-анализа, мини-исследований и интерактивных подходов. Результаты показали, что проблемное обучение способствует развитию аналитического мышления, формированию гигиенической культуры и ответственного отношения к здоровому образу жизни.

**Ключевые слова:** проблемное обучение, возрастная физиология, гигиена, активность студентов, здоровый образ жизни, педагогические технологии.

**Abstract.** This article examines the effectiveness of using problem-based learning in teaching the “Age Physiology and Hygiene” module. Experimental lessons were conducted with students of Karshi International University using methods such as clustering, SWOT analysis, mini-research, and interactive activities. The findings revealed that problem-based learning enhances students'

*analytical thinking, promotes conscious attitudes toward healthy lifestyles, and improves hygienic awareness.*

**Key words:** *problem-based learning, age physiology, hygiene, student engagement, healthy lifestyle, pedagogical technology.*

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimida talabanning bilimni passiv o'zlashtirishi o'rniga uni faol bilish faoliyatiga jalb etish muhim didaktik tamoyil sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi modularda murakkab tushunchalarni (fiziologik jarayonlar, gigiyenik me'yorlar, sog'lom turmush tarzi omillari) chuqur anglash talabanning faolligi va mustaqil fikrlashiga bevosita bog'liq [1-4,6]. Shunday yondashuvlardan biri – muammoli ta'lim texnologiyasi bo'lib, u talabani tayyor bilim iste'molchisi emas, balki muammoni tahlil qilib, izlanish orqali yechim topuvchi shaxsga aylantiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Muammoli ta'limning nazariy asoslari L.S. Vigotskiy (yaqin rivojlanish zonasi), D.B. Elkonin, V.V. Davidov qarashlarida, shuningdek Jon Dyui ta'limni tajriba va faoliyatga asoslash tamoyillarida izchil yoritilgan [5,7-9]. Mazkur ilmiy yondashuvlar “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” modulida qo'llanilganda talabalarda gigiyenik madaniyat, sog'lom turmush tarziga ongli munosabat hamda tahliliy tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot obyekti sifatida “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” modulini o'qitish jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti – shu jarayonda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni va uni qo'llash metodikasi.

Tadqiqot Qarshi xalqaro universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirokida olib borildi. Ma'lumot to'plash va tahlil qilishda kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, tajriba-sinov mashg'ulotlari hamda solishtirma tahlil usullaridan foydalanildi.

1-jadval

Tadqiqot ishtirokchilari haqida umumiy ma'lumot

Ko'rsatkichlar	Tavsif
Ta'lim muassasasi	Qarshi xalqaro universiteti
Yo'nalish	Boshlang'ich ta'lim
Bosqich	2-bosqich
Guruhlar	1 ta tajriba guruhi, 1 ta nazorat guruhi
Umumiy talaba soni	n = 40 (namuna)
Ma'lumot yig'ish usullari	Kuzatuv, so'rovnoma, suhbat, tajriba-sinov, solishtirma tahlil

Eksperimental mashg'ulotlarda klaster, SWOT tahlil, “Aqliy hujum”, mini-tadqiqot hamda infografika asosidagi muhokamalar qo'llandi. Baholash mezonlari sifatida talabalarning faolligi, savollarga javob berishdagi mantiqiylik, tahliliy xulosa chiqarish, mini-tadqiqot mahsuli va gigiyenik bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati olindi.

2-jadval

Tadqiqot bosqichlari va mazmuni

Bosqich	Mazmun	Natija
Tayyorlov	Nazariy manbalarni o'rganish, muammoli savollar banki, topshiriqlar ishlab chiqish	Metodik paket tayyor bo'ladi
Amaliy	Muammoli darslar: klaster, SWOT, mini-tadqiqot, “Aqliy hujum”	Faollik va tahliliy fikrlash kuchayadi
Natijaviy	So'rovnoma, kuzatuv protokoli, ish mahsullari tahlili	Samaradorlik bo'yicha xulosa chiqariladi

Tadqiqot 3 bosqichda amalga oshirildi: (1) tayyorlov bosqichi – nazariy asoslarni o'rganish va topshiriqlar ishlab chiqish; (2) amaliy bosqich – muammoli darslarni o'tkazish; (3) natijaviy bosqich – ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish.

3-jadval

Muammoli ta'limda qo'llangan metodlar va ularning vazifasi

Metod	Qisqacha mazmun	Rivojlantiriladi-gan ko'nikma
Klaster	Tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash	Tizimli fikrlash
SWOT tahlil	Afzallik/zaiflik/imkoniyat/tahdidlarni ajratish	Tanqidiy tahlil
“Aqliy hujum”	Tezkor g'oya va taxminlar	Ijodiy fikrlash
Mini-tadqiqot	Manba o'rganish, dalil va xulosa	Ilmiy izlanish
Infografika muhokamasi	Vizual ma'lumotdan xulosa chiqarish	Vizual savodxonlik

## Baholash rubrikasi (4 ballik mezon, namuna)

Mezon	1 ball (past)	2 ball (o'rtacha)	3 ball (yaxshi)	4 ball (yuqori)
Faollik	Passiv	Kam ishtirok	Muntazam	Liderlik bilan
Tahliliy fikr	Yuzaki	Qisman asosli	Dalilli	Chuqur, taqqoslaydi
Gigiyenik bilim	Umumiy	Qisman to'g'ri	To'g'ri izohlaydi	Amaliy misol keltiradi
Jamoda ishlash	Moslashmaydi	Qiyin	Hamkorlik qiladi	Muhokamani boshqaradi
Xulosa chiqarish	Yo'q	Qisqa	Asosli	Tizimli, taklif beradi

**Natijalar.** Tajriba-sinov natijalari muammoli ta'lim texnologiyasini "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" modulida qo'llash quyidagi ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishini ko'rsatdi: talabalarda mustaqil fikrlash faollashdi, mavzuga qiziqish va motivatsiya oshdi, tahliliy tafakkur hamda fikrni asoslash ko'nikmalari kuchaydi, gigiyenik bilimlarni ongli o'zlashtirish va amaliy vaziyatga tatbiq etish yaxshilandi, sog'lom turmush tarziga ongli va mas'uliyatli munosabat shakllandi.

Amaliy mashg'ulot "Bola o'sishi va rivojlanishida suv, mineral tuzlar va vitaminlarning ahamiyati" mavzusida muammoli savollar va interfaol metodlar asosida tashkil etildi. Klaster, SWOT tahlil va mini-tadqiqot topshiriqlari talabalarni ilmiy izlanishga undadi hamda dalillarga tayanib xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirdi.

## Tajriba va nazorat guruhlarida ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich (0–10)	Nazorat (pre)	Nazorat (post)	Tajriba (pre)	Tajriba (post)
Faollik	4.8	5.2	4.9	7.6
Tahliliy fikrlash	4.5	5.0	4.6	7.3
Gigiyenik bilim	5.1	5.6	5.0	7.8
Motivatsiya	4.7	5.1	4.8	7.4

## Talabalar fikri (Likert 1–5)

Bayonot	1	2	3	4	5	O'rtacha
Dars menga qiziqarli bo'ldi	2	3	5	14	16	4.0
Mustaqil fikrlashim oshdi	3	4	8	13	12	3.7
Gigiyenik bilimlar amaliyotga bog'landi	2	5	7	14	12	3.7
Jamoda ishlash ko'nikmam kuchaydi	4	4	9	12	11	3.6

**Xulosa.** Olingan natijalar muammoli ta'lim texnologiyasi "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" modulida ilmiy tushunchalarni chuqur anglash va amaliy hayotiy vaziyatlarga bog'lab o'zlashtirish uchun samarali ekanini tasdiqladi. Mazkur yondashuvda talaba "muammo – taxmin – izlanish – tahlil – xulosa" zanjiri orqali ilmiy fikrlash madaniyatini shakllantiradi. Bu esa gigiyenik me'yorlar, ratsional ovqatlanish, jismoniy faollik, uyqu va immunitet kabi mavzularni ongli o'zlashtirishga xizmat qiladi. Muammoli ta'lim texnologiyasi mazkur modulni o'qitishda nafaqat ta'limiy (bilim va ko'nikma), balki tarbiyaviy (mas'uliyat va sog'lom turmush) natijalarni ham kuchaytiradi hamda zamonaviy ta'lim standartlariga mos ravishda yuqori samaradorlik beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sodiqov Q., Aripova S.X., Shaxmurova G.A. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 184 b.
2. Mamatqulov D.A. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2017. – 210 b.
3. Azizzo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2020. – 256 b.
4. Xasanboeva U. Didaktika va zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 198 b.
5. Nishonova S. Pedagogik innovatsiyalar va kreativ ta'lim. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 175 b.
6. Rahmatullaev D. Gigiyena asoslari va sog'lom turmush tarzi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 223 b.
7. Xusenov A., Vahobov E. Zamonaviy ta'limda muammoli yondashuv. – Toshkent: Ilm ziyo, 2018. – 190 b.
8. Samarov J. Gigiyena va sog'liqni saqlash psixologiyasi. – Buxoro: Ilm, 2019. – 168 b.
9. Shodmonov S. Ta'limda sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Ma'rifat, 2021. – 200 b.

**RAQAMLI TA'LIM MUHITINING O'SMIRLAR ORGANIZMI FIZIOLOGIK  
KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI VA GIGIYENIK YONDASHUVLAR**

*Sh.Sh. Kurbanova, katta o'qituvchi, Qarshi xalqaro universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli texnologiyalardan erta va uzoq muddat foydalanishning o'smirlar organizmi fiziologik rivojlanishiga ta'siri hamda gigiyenik muammolari tahlil qilinadi. O'zbekiston umumta'lim muassasalari misolida o'tkazilgan tadqiqot asosida profilaktik tavsiyalar beriladi. Maqola natijalari yosh fiziologiyasi va gigiyenasi uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Raqamli ta'lim muhiti, yosh fiziologiyasi, gigiyena, o'smirlar salomatligi, ko'rish tizimi, asab tizimi, uyqu rejimi, gipodinamiya, axborot texnologiyalari, profilaktika.

**Аннотация.** В статье анализируется влияние раннего и длительного использования цифровых технологий на физиологическое развитие подростков и связанные с этим гигиенические проблемы. На основе исследований, проведенных в общеобразовательных школах Узбекистана, предложены профилактические рекомендации. Результаты имеют научно-практическое значение для возрастной физиологии и гигиены.

**Ключевые слова:** Цифровая образовательная среда, возрастная физиология, гигиена, здоровье подростков, зрительная система, нервная система, режим сна, гиподинамия, профилактика.

**Abstract.** The article analyzes the impact of early and prolonged use of digital technologies on the physiological development of adolescents and the related hygienic issues. Based on research conducted in general education schools of Uzbekistan, preventive recommendations are proposed. The results have scientific and practical significance for adolescent physiology and hygiene.

**Key words:** Digital educational environment, age physiology, hygiene, adolescent health, visual system, nervous system, sleep regime, hypodynamia, prevention.

**Kirish.** Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga keng kirib kelib, maktablarda elektron darsliklar va masofaviy ta'lim vositalari qo'llanmoqda. Bu jarayon ta'lim samaradorligini oshirishi bilan birga o'smirlar organizmining fiziologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois raqamli muhitning gigiyenik talablarini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega.

**Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati.** O'smirlik davri organizmning faol o'sishi va asab-gormonal tizimlarning shakllanishi bilan xarakterlanadi. Raqamli texnologiyalardan ortiqcha va nazoratsiz foydalanish ko'rishning pasayishi, tez charchash, asabiylik, uyqu buzilishi hamda jismoniy faollikning kamayishiga olib kelmoqda. Ushbu holatlar yetarli darajada kompleks o'rganilmaganligi mavzuning dolzarbligini oshirmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

1. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish – yosh fiziologiyasi va raqamli texnologiyalar ta'siri bo'yicha mahalliy va xorijiy manbalar o'rganildi.
2. So'rovnomas usuli – umumta'lim maktablarida o'smirlar va o'qituvchilar o'rtasida raqamli qurilmalardan foydalanish davomiyligi bo'yicha so'rovlar o'tkazildi.
3. Qiyosiy tahlil – an'anaviy ta'lim va raqamli ta'lim sharoitidagi fiziologik ko'rsatkichlar solishtirildi.
4. Statistik tahlil – olingan ma'lumotlar asosida umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur tadqiqotda yosh fiziologiyasi va raqamli texnologiyalarning o'smirlar organizmiga ta'siri masalasini yoritish maqsadida mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar tizimli tahlil qilindi. Tadqiqotning nazariy asosini shakllantirish uchun yosh fiziologiyasi, gigiyena, pedagogika va tibbiyot sohalariga oid zamonaviy ilmiy manbalar o'rganildi [1].

Mahalliy ilmiy adabiyotlar doirasida O'zbekiston Respublikasida chop etilgan yosh fiziologiyasi va gigiyenasi bo'yicha darsliklar, ilmiy maqolalar hamda sog'liqni saqlash va ta'lim tizimiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ushbu manbalarda o'smirlik davrining

fiziologik xususiyatlari, organizmning o'sish jarayonlari hamda axborot texnologiyalarining salomatlikka ta'siri bilan bog'liq masalalar yoritilgan [2].

Xorijiy ilmiy manbalar sifatida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), UNICEF va boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, shuningdek, raqamli texnologiyalarning bolalar va o'smirlar salomatligiga ta'sirini o'rgangan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi [3]. Ushbu tadqiqotlarda raqamli qurilmalardan uzoq muddat foydalanish ko'rish tizimi, asab tizimi, uyqu rejimi va psixo-emotsional holatga salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan [4].

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida raqamli texnologiyalardan foydalanishda gigiyenik me'yorlarga rioya etilmasligi o'smirlar organizmida funksional buzilishlar rivojlanishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Shu bilan birga, profilaktik chora-tadbirlar va gigiyenik yondashuvlarning samaradorligi ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlangan [5]. Ushbu adabiyotlar tahlili mazkur tadqiqotning ilmiy asosini mustahkamlashga hamda O'zbekiston sharoitiga mos amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

**So'rovnoma usuli.** Mazkur tadqiqotda umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'smirlar hamda pedagoglar o'rtasida raqamli qurilmalardan foydalanish davomiyligi va xususiyatlarini aniqlash maqsadida so'rovnoma usulidan foydalanildi. So'rovnoma orqali o'quvchilarning kunlik smartfon, planshet va kompyuterdan foydalanish vaqti, ularning dars va bo'sh vaqt faoliyatidagi ulushi, shuningdek, raqamli qurilmalardan foydalanish bilan bog'liq salomatlik holatlari o'rganildi [6].

So'rovnomada o'qituvchilarning dars jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasi, o'quvchilarning jismoniy faolligi va charchash darajasi haqidagi kuzatuvlari ham inobatga olindi. Olingan ma'lumotlar o'smirlar organizmiga raqamli muhitning ta'sirini baholash va gigiyenik muammolarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi [7].

**Qiyosiy tahlil.** Tadqiqotda an'anaviy ta'lim shaklida o'qitilayotgan o'quvchilar bilan raqamli texnologiyalar keng qo'llanilayotgan ta'lim muhitidagi o'quvchilarning fiziologik holati qiyosiy tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil jarayonida o'quvchilarning umumiy charchash darajasi, diqqat jamlash qobiliyati, jismoniy faolligi va uyqu rejimi kabi ko'rsatkichlar solishtirildi [8].

Natijalar raqamli ta'lim sharoitida uzoq vaqt ekran qarshisida qolish fiziologik zo'riqishning ortishiga olib kelishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, an'anaviy ta'lim sharoitida jismoniy faollikning nisbatan yuqori bo'lishi qayd etildi, bu esa yosh fiziologiyasi nuqtayi nazaridan muhim omil hisoblanadi [9].

**Statistik tahlil.** So'rovnoma va kuzatuvlar natijasida to'plangan ma'lumotlar statistik tahlil usullari asosida qayta ishlanib, umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi. Statistik tahlil jarayonida foiz ko'rsatkichlari, o'rtacha qiymatlar va qiyosiy tahlil natijalari hisobga olindi [10].

Statistik ma'lumotlar raqamli texnologiyalardan foydalanish davomiyligi bilan o'smirlar fiziologik holatidagi o'zgarishlar o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu tahlil tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirish hamda ilmiy xulosalarni asoslashda muhim rol o'ynadi

#### **Raqamli texnologiyalarning o'smirlar fiziologiyasiga ta'siri**

**Ko'rish tizimiga ta'siri.** Raqamli qurilmalardan uzoq muddat foydalanish o'smirlar ko'rish tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ko'z mushaklarining zo'riqishi, akkomodatsiya buzilishi, ko'z qurishi va achishishi kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Ilmiy adabiyotlarda bu holat "raqamli ko'z sindromi" sifatida ta'riflanadi. Ko'k spektrdagi nurlanish ko'z to'qimalariga salbiy ta'sir etib, charchoqni kuchaytiradi hamda miopiya rivojlanish xavfini oshiradi. Shu bois ekran qarshisida ishlash vaqtini me'yorlash, tanaffus qilish va ko'z gigiyenasiga amal qilish muhimdir.

**Asab tizimi va psixo-emotsional holatga ta'siri.** Smartfon, planshet va kompyuterlardan me'yoridan ortiq foydalanish markaziy asab tizimiga yuklama beradi, diqqatning pasayishi, tez charchash, xotira samaradorligining kamayishi kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Tezkor axborot oqimi tashvishlilik, asabiylik, kayfiyat beqarorligi hamda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik belgilari paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Ekran vaqtini gigiyenik me'yorlarda cheklash va jismoniy faollikni oshirish bu borada muhim ahamiyatga ega.

**Uyqu va gormonal muvozanatga ta'siri.** Kechki payt raqamli qurilmalardan foydalanish ko'k spektrdagi nurlanish hisobiga melatonin ajralishini sekinlashtirib, biologik ritmlarni buzadi. Natijada

uyquga ketishning kechikishi, uyqu sifati pasayishi va uzoq muddatli uyqusizlik kuzatiladi. Bu esa fiziologik hamda psixo-emotsional holatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun uyqu gigiyenasiga rioya qilish va ekran vaqtini cheklash zarur [11].

**Gipodinamiyaga ta'siri.** Raqamli texnologiyalardan ortiqcha foydalanish jismoniy faollikning kamayishiga olib kelib, gipodinamiyaga sabab bo'ladi. Bu yurak-qon tomir tizimi, tayanch-harakat apparati rivojlanishiga salbiy ta'sir etib, qon aylanishining susayishi, mushak tonusining pasayishi, suyak zichligining kamayishi va metabolik buzilishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Natijada ortiqcha vazn va metabolik sindrom xavfi ortadi [4, 9]. Profilaktika sifatida ekran vaqtini cheklash va muntazam jismoniy faoliyat tavsiya etiladi.

**Muammolar va gigiyenik yechimlar.** Raqamli texnologiyalarning o'smirlar hayotiga keng kirib kelishi bilan birga, ularning fiziologiyasi va salomatligi bilan bog'liq bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Tadqiqot natijalari asosida asosiy muammolar quyidagilar ekanligi aniqlangan:

1. Ekran vaqti me'yorining yo'qligi. O'smirlarning aksariyati kun davomida smartfon, planshet va kompyuterdan me'yordan ortiq foydalanadi. Bu holat ko'z mushaklari va asab tizimining haddan tashqari zo'riqishiga, uyqu va biologik ritmlarning buzilishiga, shuningdek psixo-emotsional beqarorlikka olib keladi [11].

2. Jismoniy mashg'ulotlarning yetishmasligi. Raqamli qurilmalardan uzoq vaqt foydalanish natijasida o'smirlarning kundalik jismoniy faolligi sezilarli darajada kamayadi. Bu gipodinamiya muammosini yuzaga keltirib, yurak-qon tomir tizimi va tayanch-harakat apparati rivojlanishining buzilishiga sabab bo'ladi [9].

3. Gigiyenik talablarning buzilishi. Ko'plab o'smirlar ekran qarshisida noto'g'ri tana holatida uzoq vaqt o'tiradi, yorug'lik sharoiti va monitor masofasi gigiyenik talablariga javob bermaydi. Bu ko'z va orqa mushaklarining charchashiga, diqqat va xotira qobiliyatining pasayishiga olib keladi [9, 11].

4. Ota-ona va o'qituvchilarning yetarli nazorat qilmasligi. Raqamli texnologiyalar bilan ishlash jarayonida yetarli pedagogik va oilaviy nazoratning yo'qligi o'smirlar orasida vaqtni noto'g'ri boshqarish, fiziologik va psixo-emotsional salomatlik muammolarining kuchayishiga sabab bo'ladi [11].

**Taklif etilayotgan yechimlar.** Ushbu muammolarni kamaytirish va o'smirlarning fiziologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida quyidagi yechimlar tavsiya etiladi:

1. Ekran vaqti gigiyenik me'yorlarini joriy etish. O'smirlar uchun kunlik ekran vaqtini yoshga mos me'yorlarda cheklash va tanaffuslarni muntazam tashkil etish. Masalan, 6–12 yoshdagi bolalar uchun maksimal ekran vaqti 1–2 soat, 13–18 yoshdagilar uchun esa 3–4 soat bilan chegaralash tavsiya etiladi [6, 11].

2. Dars jarayonida jismoniy mashqlar va ko'z gimnastikasini kiritish. O'quv mashg'ulotlari davomida qisqa tanaffuslar va ko'z mushaklarini bo'shatishga mo'ljallangan gimnastika mashqlari o'quvchilarning diqqatini saqlash va ko'z sog'lig'ini himoya qilishga yordam beradi [2, 5, 8].

3. Uyqu gigiyenasiga rioya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Kechqurun ekran bilan ishlash vaqtini cheklash, yotoqxonada tabiiy yorug'lik va shovqinsiz muhitni ta'minlash, muntazam uyqu rejimini shakllantirish orqali biologik ritmlarni saqlash va melatonin gormoni ajralishini normallashtirish mumkin [7, 9].

4. Raqamli savodxonlikni gigiyenik yondashuv bilan integratsiyalash. O'smirlarga raqamli qurilmalardan foydalanish qoidalari va gigiyenik tamoyillarini o'rgatish, ota-ona va o'qituvchilarning nazoratini kuchaytirish, shuningdek onlayn faoliyatni rejali va mas'uliyat bilan tashkil etish muhim hisoblanadi [7, 9].

**Xulosa.** Raqamli ta'lim muhiti o'quv jarayonini samarali qilish bilan birga o'smirlar fiziologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, raqamli qurilmalardan uzoq va nazoratsiz foydalanish ko'z hamda asab tizimining zo'riqishi, diqqat va xotiraning pasayishi, uyqu ritmlarining buzilishi, gipodinamiya va jismoniy faollikning kamayishiga olib keladi. Shuningdek, psixo-emotsional holatda bezovtalik, kayfiyat beqarorligi va ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu sababli yosh fiziologiyasi va gigiyenasiga asoslangan holda ekran vaqti, jismoniy

mashqlar, ko'z gigiyenasi hamda uyqu tartibini me'yorlash, ota-ona va pedagog nazoratini kuchaytirish muhimdir. Tadqiqot natijalari sog'lom raqamli ta'lim muhitini shakllantirish va o'smirlarning fiziologik hamda psixo-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov A. Tabiiy fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning o'rni. Ta'lim va fan rivoji jurnali. – Toshkent, 2021 – 47 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'limda tabiiy fanlar darsliklarini yangilash dasturi. – Toshkent, 2020 – 22 b.
3. Hasanov I. O'quvchilarda tabiiy fanlarga qiziqishni oshirishning zamonaviy usullari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019 – 173 b.
4. Soliyev B. IT vositalaridan foydalanish orqali tabiiy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish. Innovatsion ta'lim jurnali, 3-son, Toshkent, 2022.
5. Ahmedov B. Ta'limda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2019 – 65 b.
6. Vohidov Sh., Usmonova D. O'smirlar orasida raqamli qurilmalardan foydalanish davomiyligi va psixo-emotsional holat. – Toshkent, 2021.
7. Karimova M. Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning diqqat va xotira ko'rsatkichlari. – Samarkand, 2020.
8. Brown T., Smith J. Effects of screen time on adolescent cognitive and emotional development. Journal of Adolescent Health, 2020; 66(2): 123–131.
9. Lee S., Park H. Digital devices and sleep patterns in teenagers: a cross-sectional study. Sleep Medicine, 2021; 82: 91–98.
10. Zhang Y., Li X. Physical inactivity and musculoskeletal health in adolescents using digital devices. BMC Pediatrics, 2020; 20: 401.
11. American Optometric Association. Computer Vision Syndrome: Guidelines for Clinical Management. 2021.

#### UO'K 37.02

### TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI RAQAMLI TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*A.R.Matnazarov, o'qituvchi, Urganch innovatsion universiteti, Urganch*  
*I.F.Odamboyev, o'quvchi, "Unione" xalqaro maktabi, Urganch*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash hamda sun'iy intellekt asosida raqamli ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'quv jarayoniga ta'siri, uning didaktik imkoniyatlari hamda o'quv jarayonini individuallashtirishdagi ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitini tashkil etishda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda ta'lim jarayonining interaktivligini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quv jarayonini optimallashtirish hamda talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta'lim muhiti, sun'iy intellekt, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, raqamli kompetensiya, innovatsion ta'lim

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются педагогические основы формирования цифровой образовательной среды на основе информационно-коммуникационных технологий и искусственного интеллекта в образовательных учреждениях. В ходе исследования проанализировано влияние технологий искусственного интеллекта на образовательный процесс, их дидактические возможности и роль в индивидуализации обучения. Также раскрыты вопросы развития цифровых компетенций преподавателей, эффективного использования современных информационных технологий и повышения интерактивности образовательного процесса. Результаты исследования показывают, что применение технологий искусственного интеллекта способствует повышению эффективности обучения, оптимизации образовательного процесса и развитию самостоятельной учебной деятельности студентов.

**Ключевые слова:** информационно-коммуникационные технологии, цифровая образовательная среда, искусственный интеллект, образовательный процесс, педагогические технологии, цифровые компетенции, инновационное образование

**Abstract.** *This article examines the pedagogical foundations of forming a digital educational environment based on information and communication technologies and artificial intelligence in educational institutions. The study analyzes the impact of artificial intelligence technologies on the educational process, their didactic potential, and their role in the individualization of learning. The paper also highlights the importance of developing teachers' digital competencies, effective use of modern information technologies, and increasing the interactivity of the educational process. The research results indicate that the use of artificial intelligence technologies contributes to improving the effectiveness of education, optimizing the learning process, and enhancing students' independent learning activities.*

**Key words:** *information and communication technologies, digital learning environment, artificial intelligence, educational process, pedagogical technologies, digital competence, innovative education*

**Kirish.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayoni endilikda an'anaviy o'qitish usullari bilan cheklanib qolmay, raqamli platformalar, multimedia resurslar, masofaviy ta'lim tizimlari hamda sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan yangi pedagogik yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (Artificial Intelligence – AI) texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim mazmunini individuallashtirish hamda talabalarning bilim darajasini baholash jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini shakllantirish masalasi pedagogika va informatika fanlarining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli ta'lim muhiti o'quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi axborot resurslari, dasturiy vositalar, elektron ta'lim platformalari va kommunikatsion texnologiyalar majmuasini o'z ichiga oladi. Bunday muhit talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv muloqotni kuchaytiradi hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi esa raqamli ta'lim muhitining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga olib kelmoqda. AI asosidagi tizimlar talabalarning bilim darajasini tahlil qilish, individual o'quv trajektoriyasini shakllantirish, o'quv materiallarini moslashtirish hamda avtomatik baholash jarayonlarini amalga oshirish imkonini beradi. Natijada ta'lim jarayoni yanada moslashuvchan, samarali va shaxsga yo'naltirilgan shaklga ega bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan raqamli ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik asoslarini tahlil qilish hamda uning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Pedagogika sohasidagi ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, AKT vositalari o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Raqamli ta'lim muhiti tushunchasi birinchi navbatda elektron ta'lim tizimlari, masofaviy o'qitish platformalari va multimedia texnologiyalari bilan bog'liq holda o'rganilgan. Tadqiqotchilar tomonidan ta'lim jarayonida elektron resurslardan foydalanish talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishi, ularning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishi hamda o'quv jarayonining interaktivligini oshirishi ta'kidlangan.

So'nggi yillarda esa sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari keng muhokama qilinmoqda. AI asosidagi o'quv tizimlari talabalarning bilim darajasini tahlil qilish, individual o'quv materiallarini taklif qilish hamda o'qituvchiga metodik yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega. Bunday tizimlar o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqotlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'quv jarayonidagi afzalliklari bilan bir qatorda ayrim muammolari ham qayd etilgan. Jumladan, texnologik infratuzilmaning yetarli

darajada rivojlanmaganligi, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasining pastligi hamda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarning yetishmasligi ushbu jarayonning samaradorligini cheklovchi omillar sifatida ko'rsatiladi.

Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish uchun pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda raqamli ta'lim muhitini ilmiy asosda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda pedagogik tahlil, kuzatish, taqqoslash hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan raqamli ta'lim platformalari hamda sun'iy intellekt asosidagi dasturiy vositalarning o'quv jarayoniga ta'siri o'rganildi.

Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda raqamli ta'lim muhitini tashkil etish tamoyillari tashkil etadi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlarini aniqlash maqsadida o'qituvchilar va talabalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tahlil qilish;  
sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;  
raqamli ta'lim muhitini shakllantirish modelini ishlab chiqish;  
taklif etilgan modelning ta'lim samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, o'quv materiallarini individuallashtirish hamda talabalar bilim darajasini avtomatik tahlil qilish imkoniyati o'quv jarayonining sifatini yaxshilaydi.

Sun'iy intellekt asosidagi o'quv tizimlari talabalarning o'zlashtirish darajasini doimiy monitoring qilish imkonini beradi. Bunday tizimlar talabaning o'quv faoliyatini tahlil qilib, uning bilim darajasiga mos o'quv materiallarini tavsiya etadi. Natijada o'quv jarayoni har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashtiriladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish quyidagi pedagogik afzalliklarga ega:

o'quv jarayonini individuallashtirish imkoniyati;  
talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish;  
o'qituvchining metodik faoliyatini qo'llab-quvvatlash;  
o'quv natijalarini tezkor tahlil qilish imkoniyati.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim ta'lim muassasalarida texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi pastligi hamda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar yetishmasligi ushbu texnologiyalarni keng joriy etishga to'sqinlik qilmoqda.

Biroq ushbu muammolarni bartaraf etish orqali sun'iy intellekt texnologiyalaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyati mavjud.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan raqamli ta'lim muhitini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Sun'iy intellekt asosidagi o'quv tizimlari o'quv jarayonini individuallashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari raqamli ta'lim muhitini shakllantirish jarayonida o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, zamonaviy texnologik infratuzilmani yaratish hamda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi.

Kelajakda ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A.I.Usmanov. "Boshqaruv axborot tizimlari va texnologiyalari asoslari", Toshkent. "Akademiya".2009.–151 b.
2. Begimqulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish. // "Pedagogik ta'lim" jur, № 1, 2004.
3. Mirsoliyeva M.M. "OTMda o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish". Modul. T.: BIMM, 2015.
4. Specific peculiarities of the use of ict in education process – A.A.Nazirov, A.Matnazarov // Central Asian Problems of Modern Science and Education 2020 (2), 95-102
5. A.Sh.Razzokov, A.R.Matnazarov, G.R.Matlatipov Automated system of educational process management. – Lambert academic publishing. 2021

UO'K 37.02

**OLIY O'QUV YURTLARIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING INTERFAOL USULLARI**

*X.R.Mirzabayev, katta o'qituvchi, Namangan Davlat Texnika Universiteti, Namangan*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda interfaol usullarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida talabalarining mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va harakat faolligini rag'batlantirishda qo'llaniladigan "aqliy hujum", "kichik guruhlarda ishlash", "keys-stadi" va "o'yinli texnologiyalar" kabi metodlarning amaliy samaradorligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, an'anaviy dars o'tish uslublaridan interfaol uslublarga o'tishning metodologik asoslari va talabalar salomatligiga ta'siri yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, jismoniy tarbiya, interfaol usullar, pedagogik texnologiyalar, talabalar faolligi, sog'lom turmush tarzi, jismoniy madaniyat, innovatsion yondashuv, jamoaviy o'yinlar.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль и значение интерактивных методов в повышении эффективности уроков физического воспитания в высших учебных заведениях. В ходе исследования рассматривается практическая эффективность таких методов, как «мозговой штурм», «работа в малых группах», «кейс-стади» и «игровые технологии», используемых для повышения интереса студентов к занятиям, развития навыков командной работы и стимулирования двигательной активности. Также освещены методологические основы перехода от традиционных методов обучения к интерактивным и их влияние на здоровье студентов.

**Ключевые слова:** высшее образование, физическое воспитание, интерактивные методы, педагогические технологии, активность студентов, здоровый образ жизни, физическая культура, инновационный подход, командные игры.

**Abstract.** This article analyzes the role and importance of interactive methods in improving the effectiveness of physical education lessons in higher education institutions. The study examines the practical effectiveness of methods such as "brainstorming," "working in small groups," "case-studies," and "game technologies" used to increase students' interest in classes, develop teamwork skills, and stimulate physical activity. Furthermore, it highlights the methodological foundations of transitioning from traditional teaching methods to interactive ones and their impact on student health.

**Keywords:** higher education, physical education, interactive methods, pedagogical technologies, student activity, healthy lifestyle, physical culture, innovative approach, team games.

**Kirish.** Zamonaviy oliy ta'lim tizimi nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni, balki jismonan sog'lom, intellektual salohiyatli va ijtimoiy faol yoshlarni shakllantirishni ham maqsad qilgan. Biroq, bugungi kunda talabalar orasida gipodinamiya (kam harakatlilik) va an'anaviy jismoniy tarbiya darslariga nisbatan qiziqishning pasayishi kuzatilmoqda.

Jismoniy tarbiya metodikasida pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar (masalan, L.P. Matveyev, T.S. Usmonxo'jayev) tomonidan o'rganilgan. Shunga qaramay, oliy o'quv yurtlarining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning mustaqil ta'limi va jismoniy faolligini interfaol usullar orqali uyg'unlashtirish masalalari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu sohada amaliy mashg'ulotlarni nazariy bilimlar bilan qiziqarli tarzda bog'lashning yangi mexanizmlariga ehtiyoj mavjud.

**Metodologiya.** Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari va jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlovchi test sinovlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" va "faol o'qitish" tamoyillari olindi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya darslarida "sport kvestlari", "vaziyatli o'yinlar" va "kichik guruhlarda ishlash" kabi interfaol usullarning qo'llanilishi talabalarning mashg'ulotlarga qatnashish koeffitsientini an'anaviy darslarga nisbatan 25-30 foizga oshirdi. Eksperimental guruhlarda o'tkazilgan so'rovnomalar natijasiga ko'ra, talabalarning 85 foizi interfaol elementlar (masalan, jamoaviy strategik o'yinlar) mavjud darslarda o'zlarini erkinroq his qilishlarini va jismoniy yuklamalarni charchoqsiz bajaraganliklarini qayd etishgan. Bu esa interfaol metodlarning nafaqat jismoniy, balki psixologik motivatsiyani oshirishda ham samarador ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, interfaol usullar yordamida tashkil etilgan darslarda talabalarning jismoniy sifatlari (chaqqonlik, chidamlilik va harakat koordinatsiyasi) rivojlanish ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Masalan, "estafeta-kvest" usulida o'tilgan mashg'ulotlarda talabalarning umumiy harakat faolligi vaqti darsning 75-80 foizini tashkil etdi, holbuki an'anaviy darslarda bu ko'rsatkich 50-60 foizdan oshmagan edi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalar o'rtasida jamoaviy hamkorlikning shakllanishi sport elementlarini o'zlashtirish tezligini 1,5 barobarga jadallashtirdi.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan yana bir muhim natija — bu talabalarning nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash darajasining ortishidir. "Keys-stadi" (muammoli vaziyatlarni yechish) metodidan foydalanilganda, talabalar muayyan jismoniy mashqlarni bajarishning fiziologik asoslarini va shikastlanishlarning oldini olish qoidalarini amaliy harakat davomida chuqurroq anglab yetganlar. Bu esa jismoniy tarbiya fanining nafaqat mushaklar rivoji, balki intellektual salohiyat bilan uyg'unlashgan sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyatini amalda isbotladi.

**Muhokama.** Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslariga interfaol usullarni tatbiq etish natijalari shuni ko'rsatadiki, bu yondashuv zamonaviy talaba-yoshlarning psixofizik portretiga va ularning axborotni qabul qilish xususiyatlariga to'la mos keladi. An'anaviy dars o'tish metodikasida o'qituvchi asosan buyruq beruvchi va nazorat qiluvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi, bu esa talabalarda mashg'ulotlarga nisbatan mexanik yondashuvni shakllantiradi. Biroq, tadqiqotimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, dars jarayonining interfaollashuvi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarni "hamkorlik" darajasiga olib chiqadi. Bu jarayonda o'qituvchi "fasilitator" (yo'naltiruvchi) rolini o'ynaydi, bu esa talabaning o'z imkoniyatlarini namoyon etishi uchun psixologik qulay muhit yaratadi.

Nima sababdan interfaol usullar an'anaviy metodlarga qaraganda yuqori samaradorlik ko'rsatdi? Bu savolga bir necha fundamental omillar orqali javob berish mumkin. Birinchidan, "**sport kvestlari**" va "**vaziyatli o'yinlar**" talabalar orasida guruh birdamligini (team building) shakllantiradi. Talaba faqat o'zining jismoniy normatividan qayg'urmay, umumiy maqsad yo'lida harakat qiladi. Bu "ijtimoiy rag'batlantirish" effekti deb ataladi: jamoa manfaati yo'lida inson o'zining jismoniy charchoq chegarasini (physical threshold) osonroq yengib o'tadi. Bizning tajribamizda talabalarning chidamlilik ko'rsatkichlari aynan jamoaviy musobaqa shaklidagi interfaol darslarda an'anaviy yugurish mashqlariga qaragan sezilarli darajada yuqori bo'lgani shuni tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, interfaol usullar "**ongli jismoniy faollik**" tamoyilini amalga oshirishga yordam beradi. "Aqliy hujum" yoki muammoli keyslar orqali talaba bajarayotgan mashqining fiziologik asosini, uning mushak tizimi va yurak-qon tomir faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishni o'rganadi. Bu

shunchaki "mashq bajarish" emas, balki "sog'liqni boshqarish" ko'nikmasidir. Hozirgi kunda talabalar orasida gipodinamiya muammosi kuchli ekanligini hisobga olsak, ularga jismoniy tarbiya darsini faqat majburiyat sifatida emas, balki o'z salomatligini mustahkamlashning intellektual instrumenti sifatida ko'rsatish juda muhim. Interfaol metodlar nazariya va amaliyot o'rtasidagi ko'p yillik "uzilish"ni bartaraf etadi.

Shuningdek, muhokama qilinayotgan natijalar ta'limning individual trayektoriyasini yaratish imkonini ham ko'rsatadi. Har bir talabaning jismoniy tayyorgarligi turlicha. Interfaol metodlar (masalan, "kichik guruhlarda ishlash") orqali o'qituvchi talabalarni qobiliyatiga qarab tabaqalashtirishi va ularga mos yuklamalarni interfaol shaklda berishi mumkin. Bu metod jismoniy imkoniyati pastroq bo'lgan talabalarda "muvaffaqiyatsizlik kompleksi" shakllanishining oldini oladi. Ular o'z guruhida o'ziga xos vazifa (masalan, strategiyani rejalashtirish yoki koordinatsiya) bajarish orqali darsning to'laqonli ishtirokchisiga aylanadilar.

Biroq, interfaol usullarni qo'llashda ba'zi pedagogik xatarlardan ogoh bo'lish lozim. Haddan tashqari o'yinli elementlarga berilib ketish darsning asosiy maqsadi bo'lgan jismoniy yuklama sifatini pasaytirib yuborishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi dars vaqtini (time-management) to'g'ri taqsimlashi, interfaol qismni darsning tayyorgarlik yoki yakuniy qismiga, ba'zan esa asosiy qismning motivatsion bloki sifatida kiritishi maqsadga muvofiqdir. Optimal model sifatida 60% amaliy mashqlar va 40% interfaol/metodik yondashuvni qo'llash tavsiya etiladi.

**Xulosa.** Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning interfaol usullarini tadqiq etish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, zamonaviy ta'lim sharoitida an'anaviy metodlar o'zining avvalgi samaradorligini yo'qotib bormoqda. Talaba-yoshlarning darsga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish va ularning jismoniy faolligini oshirish uchun o'quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, xususan, interfaol metodlarni tizimli ravishda tatbiq etish zaruriyatga aylandi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan "sport kvestlari", "vaziyatli o'yinlar" va "jamoaviy loyihalar" talabalarning nafaqat jismoniy ko'rsatkichlarini, balki darsga nisbatan ijobiy motivatsiyasini ham sezilarli darajada yuksaltirdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida (yangi tahriri). – Toshkent, 2015.
2. Mirziyoyev Sh.M. Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.
3. Usmonxo'jayev T.S. Jismoniy tarbiya metodikasi. (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
4. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – Farg'ona: Farg'ona universiteti nashriyoti, 2005.
5. Mahkamjonov Q.M. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008.
6. Murodov A.S. Oliy ta'limda jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning innovatsion texnologiyalari // O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport jurnali. – 2021. №4.
7. Ismoilov Sh.A. Talabalarning jismoniy faolligini oshirishda interfaol metodlarning samaradorligi // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2022. №2.

UO'K 371.26

### RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MODEL

*Sh.Moydinova, PhD, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon*

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirish masalasi tahlil qilingan. Tadqiqotda kompetensiyaviy va tizimli yondashuv asosida mazkur kompetensiyaning motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli va refleksiv komponentlari yoritilgan. Raqamli resurslar hamda pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash orqali talabalarning o'z-o'zini boshqarish va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli ta'lim muhiti, mustaqil ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik model, oliy ta'lim, LMS, refleksiya.

**Аннотация.** В статье проанализирована проблема развития компетенции самостоятельного обучения студентов в условиях цифровой образовательной среды. На

основе компетентностного и системного подходов раскрыты мотивационный, когнитивный, операционально-деятельностный и рефлексивный компоненты данной компетенции. Обоснованы возможности развития навыков самоуправления и самостоятельного обучения студентов посредством интеграции цифровых ресурсов и педагогических технологий.

**Ключевые слова:** цифровая среда обучения, самостоятельное обучение, компетентностный подход, педагогическая модель, высшее образование, LMS, рефлексия.

**Abstract.** The article analyzes the issue of developing students' independent learning competence in a digital educational environment. Based on the competency-based and systemic approaches, the motivational, cognitive, operational-activity, and reflective components of this competence are described. The possibilities of developing students' self-management and independent learning skills through the integration of digital resources and pedagogical technologies are substantiated.

**Key words:** digital learning environment, independent learning, competence approach, pedagogical model, higher education, LMS, reflection

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi global ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida LMS (Learning Management System), masofaviy ta'lim platformalari, elektron kutubxonalar, sun'iy intellekt vositalari keng qo'llanilmoqda. Bu esa talabanning o'quv jarayonidagi rolini passiv qabul qiluvchidan faol subyektga aylantirishni talab etadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, zamonaviy mutaxassis nafaqat bilimga, balki mustaqil o'rganish, axborotni tanlash, tahlil qilish va qo'llash ko'nikmalariga ham ega bo'lishi zarur. Ayniqsa, kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim ulushi ortib borayotgani mazkur muammoning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'limni rivojlantirish masalasi o'rganilgan bo'lsa-da, uni aynan raqamli ta'lim muhiti bilan integratsiyalashgan holda tizimli model asosida tadqiq etish yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi – raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirishning strukturaviy-funksional modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba orqali aniqlash.

Mazkur tadqiqot raqamli ta'lim muhiti sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga yo'naltirilgan kompleks yondashuvga tayanadi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika fanining konseptual qoidalari, kompetensiyaviy yondashuv, tizimli-tuzilmaviy tahlil hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi asosida shakllantirildi.

Tadqiqotning konseptual negizini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi:

**Kompetensiyaviy yondashuv** – ta'lim natijasini bilim, ko'nikma va malakalarning integrativ birligi sifatida emas, balki shaxsning mustaqil faoliyat olib borish qobiliyati bilan ifodalashga asoslanadi. Mazkur yondashuv doirasida mustaqil ta'lim kompetensiyasi talabanning o'z-o'zini boshqarish, maqsad qo'yish, axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va natijani baholash qobiliyatlari majmui sifatida talqin qilindi.

**Tizimli yondashuv** – mustaqil ta'lim kompetensiyasini o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan iborat yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Bu yondashuv asosida kompetensiyaning motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli va refleksiv komponentlari o'zaro uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi** – talabanning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni ko'zda tutadi. Raqamli ta'lim muhiti aynan individual trayektoriyani shakllantirish imkoniyati bilan ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida bir-birini to'ldiruvchi nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi. Nazariy metodlar doirasida ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ilg'or pedagogik tajribalar tahlil qilindi. Mazkur bosqichda mustaqil ta'lim tushunchasining mazmuni, uning kompetensiyaviy talqini hamda raqamli ta'lim muhitining didaktik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Tadqiqotda mustaqil ta'lim kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlar orqali tavsiflandi:

- **motivatsion komponent** – o'quv faoliyatiga ichki ehtiyoj va qiziqishning mavjudligi;
- **kognitiv komponent** – axborotni mustaqil izlash, tanlash va tizimlashtirish qobiliyati;
- **operatsion-faoliyatli komponent** – o'quv vazifalarini mustaqil bajarish va muammoli

vaziyatlarni hal etish ko'nikmasi;

- **refleksiv komponent** – o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati.

Mazkur komponentlar o'zaro integratsiyalashgan holda shaxsning mustaqil ta'limga tayyorgarlik darajasini belgilaydi.

Raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirish modeli quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqildi: tizimlilik va izchillik; faollik va interaktivlik; individuallashtirish; refleksivlik va ochiqlik va moslashuvchanlik.

Model raqamli platformalar, interaktiv topshiriqlar, loyiha faoliyati va refleksiv tahlil jarayonlarini yagona pedagogik tizimga birlashtiradi. Unda o'qituvchi fasilitator va yo'naltiruvchi rolini bajaradi, talaba esa o'quv jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Taklif etilgan metodologiya raqamli ta'lim muhitini faqat texnologik vosita sifatida emas, balki pedagogik jihatdan asoslangan rivojlantiruvchi muhit sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu esa mustaqil ta'limni tashkil etishda tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va natijaga qaratilgan yondashuvni ta'minlaydi.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan strukturaviy-funksional modelni ta'lim amaliyotiga integratsiya qilish natijasida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyasida sifat jihatdan ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Olingan natijalar kompetensiyaning tarkibiy komponentlari kesimida tahlil qilindi.

Avvalo, motivatsion komponent doirasida talabalarda mustaqil o'rganishga nisbatan barqaror ichki ehtiyoj shakllangani, o'quv faoliyatida tashabbuskorlik darajasi ortgani va raqamli resurslardan ongli foydalanishga intilish kuchaygani aniqlandi.

Kognitiv komponent bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki, talabalarda axborotni mustaqil izlash, tanlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ko'nikmalari rivojlandi. Raqamli ta'lim platformalarida taqdim etilgan interaktiv materiallar va muammoli vaziyatlar ularning tanqidiy fikrlash faolligini oshirdi.

Operatsion-faoliyatli komponent doirasida talabalar mustaqil topshiriqlarni rejalashtirish, bajarish va natijani taqdim etish jarayonida yuqori darajadagi mustaqillikni namoyon etdilar. Loyiha va keys-stadi asosidagi vazifalar ularning amaliy faoliyatga yo'naltirilgan ko'nikmalarini mustahkamladi.

Refleksiv komponent tahlili talabalarning o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kelgusidagi o'quv strategiyasini rejalashtirish qobiliyatlari rivojlanganini ko'rsatdi. Raqamli portfoliolar va o'z-o'zini baholash mexanizmlari refleksiv fikrlashning shakllanishiga xizmat qildi.

Umuman olganda, natijalar ishlab chiqilgan modelning yaxlit pedagogik tizim sifatida samarali ishlashini tasdiqladi. Raqamli ta'lim muhiti bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilgan mustaqil faoliyat talabalarning bilim olish jarayonida subyektiv pozitsiyasini kuchaytirdi, o'quv mas'uliyatini oshirdi va o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirdi.

Olingan natijalar raqamli ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni an'anaviy o'qitish modelidan mazmunan farq qilishini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlangan ijobiy o'zgarishlar kompetensiyaviy yondashuvning nazariy qoidalari bilan mos keladi, ya'ni ta'lim natijasi shaxsning mustaqil faoliyat yuritish qobiliyati orqali namoyon bo'ladi.

Kompetensiyaviy paradigma nuqtai nazaridan, mustaqil ta'lim kompetensiyasi faqat bilim hajmi bilan emas, balki o'quv faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va refleksiya qilish qobiliyati bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari talabaning subyektiv pozitsiyasi kuchayganini, ya'ni u o'quv jarayonining passiv obyektidir, balki faol subyekti sifatida namoyon bo'la boshlaganini ko'rsatdi. Bu holat konstruktivistik ta'lim nazariyasining asosiy tamoyillariga muvofiq keladi.

Raqamli ta'lim muhiti o'zining interaktivligi, moslashuvchanligi va axborot resurslarining kengligi bilan mustaqil o'rganish uchun qulay sharoit yaratadi. Biroq tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli vositalarning o'zi yetarli emas; ularni maqsadga muvofiq pedagogik tashkil etish zarur.

Aynan strukturaviy-funksional modelning tizimliliği va komponentlararo uzviy bog'liqligi samaradorlikni ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ldi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqladiki, mustaqil ta'lim kompetensiyasining rivojlanishi motivatsion omillar bilan bevosita bog'liqdir. Ichki motivatsiya shakllanmagan sharoitda raqamli platformalar faqat texnik vosita sifatida qolib ketadi. Shuning uchun modelda motivatsion komponentga alohida e'tibor qaratilishi ilmiy jihatdan asosli qaror bo'ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, o'qituvchining roli raqamli muhitda transformatsiyaga uchraydi. U an'anaviy ma'lumot beruvchidan ko'ra, fasilitator, konsultant va yo'naltiruvchi funksiyasini bajaradi. Bu holat ta'lim jarayonining subyekt-subyekt munosabatlariga asoslanishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirish tizimli va metodik yondashuvni talab qilishini ko'rsatdi. Ishlab chiqilgan modelga ko'ra, mazkur kompetensiya motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli va reflektiv komponentlar integratsiyasi asosida samarali shakllanadi.

Raqamli platformalar pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashgandagina natija beradi. Mustaqil ta'lim jarayoni o'qituvchining fasilitatorlik roli hamda talabaning faol subyektiv ishtirokiga tayanishi zarur. Refleksiya va o'z-o'zini baholash mexanizmlari esa metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi. Kelgusida modelni turli yo'nalishlarda qo'llash va uning samaradorligini uzoq muddatli monitoring asosida baholash maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. McGraw-Hill Education. 2011.
2. Jonassen D. H. Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments. Routledge. 2011.
3. Kozma R. B. Technology and Classroom Practices: An International Study. Journal of Research on Technology in Education, 36(1), 2003. - P. 1–14.
4. European Commission. Digital Education Action Plan 2018–2020. Brussels: EC. 2018.
5. Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 2006. – P. 1017–1054.
6. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 2005. – P. 3–10.
7. Shulman L. S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching. Educational Researcher, 15(2), 1986. – P. 4–14.
8. Ertmer P. A., Ottenbreit-Leftwich, A. T. Teacher Technology Change: How Knowledge, Confidence, Beliefs, and Culture Intersect. Journal of Research on Technology in Education, 42(3), 2010. – P. 255–284.

UO'K 37.02

### KELAJAK SOATI DARSINI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

*S.R.Nabiyev, tayanch doktorant, Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'lim tizimida "Kelajak soati" darslarini milliy qadriyatlar asosida tashkil etish va rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh avlodni milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda ushbu darslarning o'rni yoritib beriladi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar hamda milliy madaniy merosdan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Kelajak soati, milliy qadriyatlar, ta'lim jarayoni, ma'naviy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются механизмы развития урока «Час будущего» на основе национальных ценностей в системе образования. Особое внимание уделяется роли данных занятий в формировании у молодежи уважения к национальным традициям, духовно-нравственных качеств и гражданской ответственности. В процессе исследования анализируются современные педагогические технологии, интерактивные методы обучения, а также возможности использования культурного наследия в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** час будущего, национальные ценности, образовательный процесс, духовно-нравственное воспитание, педагогические технологии, воспитание молодежи, патриотизм.

**Abstract.** This article analyzes the mechanisms for developing “Future Hour” lessons based on national values within the education system. Particular attention is paid to the role of these lessons in fostering respect for national traditions, as well as shaping the spiritual and moral outlook of the younger generation. The study examines the use of modern pedagogical technologies, interactive teaching methods, and the integration of cultural heritage into the educational process.

**Keywords:** future hour lesson, national values, educational process, moral education, pedagogical technologies, youth development, patriotism.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bir davrda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy dunyoqarashini boyitish hamda ijtimoiy faolligini oshirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, barkamol, ma'naviy yetuk va intellektual salohiyatga ega yoshlarning shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasini kuchaytirish va ularni zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda milliy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan “Kelajak soati” darslari yoshlarning shaxsiy rivoji, kasbiy yo'nalishini aniqlash, ijtimoiy faolligini oshirish hamda ularning kelajak haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu darslar orqali o'quvchilar jamiyatdagi o'z o'rnini anglash, milliy qadriyatlar va an'analar asosida fikrlash hamda kelajak maqsadlarini aniq belgilash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**Adabiyotlar sharhi.** Ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar, madaniy meros hamda an'anaviy pedagogik tajribadan foydalanish yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda ta'lim jarayonining integrativ yondashuv asosida tashkil etilishi muhimligi ta'kidlanadi. Xususan, N.A. Muslimov o'z tadqiqotlarida ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash mumkinligini asoslab bergan. Shuningdek, B.X. Xodjayeov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda ta'lim jarayonining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishini kuchaytirish zarurligi qayd etilgan.

Xorijiy pedagogika va psixologiya sohasidagi tadqiqotlarda ham yoshlarning shaxsiy rivojlanishida madaniy qadriyatlarning roli alohida ta'kidlanadi. Masalan, Lev Vygotsky ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy muhitning ta'siri muhim ekanligini ko'rsatib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda madaniy omillar asosiy rol o'ynashini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, John Dewey ta'lim jarayonida tajribaga asoslangan o'qitish metodlarini qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkinligini ta'kidlagan.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, “Kelajak soati” darslarini milliy qadriyatlar asosida tashkil etish va rivojlantirish o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, ijtimoiy faolligi va shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, darslarni milliy tarix, an'ana, urf-odatlar va madaniy meros elementlari bilan boyitish o'quvchilarni o'z xalqining tarixiy va madaniy merosini chuqur anglashga undaydi, shuningdek, ularning milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Interaktiv metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash darslarni qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, muhokama, rolli o'yinlar, loyiha ishlari, multimedia vositalari va vizual materiallardan foydalanish o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiradi, ularni mustaqil

fikrlashga, masalalarni tahlil qilishga va ijodiy yondashishga undaydi. Shu bilan birga, bu metodlar o'quvchilarning ijtimoiy muhitda o'zini tutish qobiliyatini rivojlantiradi va jamoaviy ishlarda samarali ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan "Kelajak soati" mashg'ulotlari o'quvchilarga o'z shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarini belgilash, jamiyat hayotida faol ishtirok etish va ma'naviy barkamollikka erishish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'quvchilar milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini rivojlantiradi, o'zligini anglash va milliy merosga sodiqlikni mustahkamlaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, pedagoglar tomonidan darslarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish amaliyoti hali yetarlicha tizimli emas. Shu sababli, "Kelajak soati" darslarini samarali tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarurati dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot shuningdek, darslarni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va ijtimoiy muhitini hisobga olgan holda tashkil etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Milliy qadriyatlar asosida o'quvchilarga muammoli vaziyatlarni va real hayotiy masalalarni tahlil qilish imkoniyatini beruvchi mashg'ulotlar ularning axloqiy mas'uliyatini, jamiyatdagi o'z o'rnini anglashini, shuningdek, kelajak kasbini tanlash va shaxsiy maqsadlarini belgilash qobiliyatini mustahkamlaydi. Shu tarzda, "Kelajak soati" darslari pedagogik jarayonni boyitadi, o'quvchilarning ijtimoiy faolligi va ma'naviy-axloqiy kamolotini oshiradi, shuningdek, ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalarini tahlil qilganda aniq ko'rinib turibdiki, "Kelajak soati" darslarini milliy qadriyatlar asosida tashkil etish yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, milliy tarix, madaniy meros va an'analardan foydalanish orqali darslar nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda milliy g'urur, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa yoshlarning o'z xalqini anglashini kuchaytiradi va ularning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, interaktiv metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash darslarni samarali va qiziqarli qiladi. Rolli o'yinlar, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish va multimedia vositalari orqali o'quvchilar faol ishtirok etishga undaladi, mustaqil fikrlash va tanqidiy qaror qabul qilish qobiliyati shakllanadi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar yoshlarning jamoadagi ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularni o'z fikrini erkin ifoda etishga rag'batlantiradi va jamoaviy masalalarni hal qilishga tayyorlaydi. Shuningdek, tadqiqot ko'rsatdiki, "Kelajak soati" mashg'ulotlarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish pedagogik jarayonni boyitadi. O'quvchilarda axloqiy mas'uliyat, jamiyatdagi o'z o'rnini anglash, kelajak kasbi va shaxsiy maqsadlarini belgilash qobiliyati rivojlanadi. Bu esa ta'lim jarayonini nafaqat bilim berish, balki yoshlarning ijtimoiy va ma'naviy kamolotini ta'minlash vositasiga aylantiradi. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan "Kelajak soati" darslari o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda samarali mexanizm hisoblanadi.

"Kelajak soati" mashg'ulotlarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish nafaqat o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasini rivojlantiradi, balki ularni kelajak hayotiga tayyorlash, shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni anglashga yordam beradi., darslar yoshlarni innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlar orqali mustaqil fikrlashga o'rgatadi, ijtimoiy faollikni oshiradi va ularning shaxsiy rivojlanish strategiyasini shakllantiradi. "Kelajak soati" darslarini zamonaviy ta'lim tizimida nafaqat o'quvchilarga bilim berish vositasi, balki ularni ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllantirish vositasi sifatida ko'rsatadi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Kelajak soati" darslarini milliy qadriyatlar asosida tashkil etish va rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Darslar orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki o'z xalqining tarixiy, madaniy va ma'naviy merosini chuqur anglaydi, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanadi. Shu bilan birga, darslarni interaktiv va innovatsion metodlar orqali olib borish o'quvchilarning mustaqil

fikrlash, tanqidiy qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularni jamoadagi ishlarda samarali faoliyat ko'rsatishga tayyorlaydi.

Umuman olganda, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan "Kelajak soati" mashg'ulotlari o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini mustahkamlash bilan birga, ularni ijtimoiy faollikka, shaxsiy maqsadlarini belgilashga va kelajak kasbini tanlashga tayyorlaydi. Shu nuqtai nazardan, darslar yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim pedagogik vosita vazifasini bajaradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5689-sonli "Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha strategik chora-tadbirlar" qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-iyundagi "Umumta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish chora-tadbirlari" qarori.
3. Qosimov, K. Milliy tarbiya va ta'lim metodikasi. Toshkent, 2010.
4. Xodjayev, B.X. Ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi. Toshkent, 2012.
5. Muslimov, N.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2015.
6. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, 1978.
7. Dewey, J. Experience and Education. New York, 1938.
8. Bobojonov, S. Ta'limda interaktiv metodlar. Toshkent, 2018.

UO'K 372.881.1

### NEMIS TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARINING O'ZARO MULOQOT KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*S.A.Olimjonov, prof., PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona  
U.X.Ne'matova, talaba, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona*

*Annotatsiya. Maqolada nemis tili darslarida o'quvchilarning o'zaro muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish usullarini ilmiy asosda tahlil qiladi. Interaktiv metodlar, rolli o'yinlar, munozara va loyihaviy ta'limning pedagogik samaradorligi o'rganiladi.*

*Kalit so'zlar: nemis tili, kommunikativ kompetensiya, o'zaro muloqot, interaktiv metodlar, rolli o'yin, loyihaviy ta'lim, samaradorlik.*

*Аннотация. В статье будет проведен научно обоснованный анализ способов развития коммуникативных навыков учащихся на уроках немецкого языка. В данной работе исследуются интерактивные методы, ролевые игры, дискуссии и педагогическая эффективность проектной образованией.*

*Ключевые слова: немецкий язык, коммуникативная компетентность, взаимодействие, интерактивные методы, ролевая игра, проектное обучение, эффективность.*

*Abstract. This article analyzes on a scientific basis the methods of developing students' mutual communication skills in German lessons. This work explores interactive methods, role-playing games, discussion and pedagogical effectiveness of Project Education.*

*Keywords: German, communicative competence, interaction, interactive methods, Role Play, Project Education, effectiveness.*

Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o'rganish zamonaviy ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Nemis tili o'quvchilarga nafaqat yangi til ko'nikmalarini o'rgatadi, balki ularni madaniy tushuncha va muloqot qobiliyatini rivojlantirishga ham undaydi. Til o'rganish jarayoni faqat grammatik qoidalarni bilishdan iborat emas, balki real hayotiy vaziyatlarda erkin fikr bildirish, suhbatni davom ettirish va o'zaro muloqot qila olish ko'nikmalarini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Tilshunos Dell Hayms ta'kidlaganidek, kommunikativ kompetensiya tilning grammatik qoidalarini bilish bilan birga, uni turli ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi [1,73]. Chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu konsept ilk bor Dell Hayms tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan va keyinchalik Maykl Kanale hamda Meril Sveyn tomonidan rivojlantirilgan. Ushbu olimlar kommunikativ kompetensiyani grammatik, sotsiologik, diskurs va strategik kompetensiyalardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida izohlaydilar [2,21]. Shu nuqtai nazardan, nemis tili darslarida

o'zaro muloqot ko'nikmalarini shakllantirish metodlari pedagogik jarayonning markaziy elementi hisoblanadi.

Interaktiv mashqlar, rolli o'yinlar, munozara va loyihaviy ishlanmalar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, ularni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlash va tilni amaliy qo'llash darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Til o'qitish metodikasi bo'yicha tadqiqot olib borgan Jek Richards va Teodor Rojers kommunikativ til o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda mazmunli va erkin muloqot qila olish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydilar [3,102]. Shu sababli zamonaviy darslarda interaktiv metodlar keng qo'llanilmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish jarayoni kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilmoqda. Ayniqsa, nemis tilini o'qitishda asosiy maqsad – o'quvchilarda erkin, mazmunli va vaziyatga mos muloqot qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Til o'rganish jarayoni faqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki real nutqiy vaziyatlarda fikr almashish, munosabat bildirish va suhbatni davom ettira olish malakasini ham qamrab olishi lozim.

1-jadval.

Nemis tili darslarida o'zaro muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish usullari

№	Usul / Metod	Maqsadi	Amalga oshirish shakli / Misol	Kutilayotgan natija	Foydali masalalar / Qo'shimcha izohlar
1	<b>Juftlik ishlari (Partnerarbeit)</b>	O'quvchining nutq faolligini oshirish, fikr almashish va tinglash malakasini rivojlantirish	- Savol-javob mashqlari- Axborot bo'shlig'i (Informationslücke)- Dialogli topshiriqlar	- O'quvchi mustaqil fikr bildiradi- Javob qaytarish va tinglash ko'nikmasi shakllanadi	O'quvchilar bir-birining xatolarini tuzatadi va o'zaro izoh beradi
2	<b>Kichik guruh ishlari (Gruppenarbeit)</b>	Hamkorlik va guruh ichidagi kommunikatsiyani rivojlantirish, ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlash	- Loyiha tayyorlash- Muammo yechish mashqlari- Guruh prezentatsiyalari	- Guruh ichida samarali muloqot qilinadi- Vazifalarni birgalikda bajarish ko'nikmasi oshadi	Guruh a'zolari orasida rollarni taqsimlash orqali liderlik va javobgarlik rivojlantiriladi
3	<b>Rolli o'yinlar (Rollenspiele)</b>	Real hayotiy vaziyatlarda spontan nutqni rivojlantirish, psixologik to'sqinlikni kamaytirish	- Do'konda xarid qilish- Mehmonxonada ro'yxatdan o'tish- Shifokor bilan suhbat	- O'quvchi tilni amaliy qo'llaydi- Spontan va to'g'ri javob berish ko'nikmasi shakllanadi	Real hayotiy vaziyatlarni model qilish orqali motivatsiya oshadi
4	<b>Munozara / Debat (Diskussion / Debatte)</b>	Tanqidiy fikrlash, argumentativ nutqni rivojlantirish	- Bahs mavzulari: "Soziale Medien – Vorteil oder Nachteil?"- Argumentlar keltirish- Qarshi fikrga javob berish	- Dalillarni asoslab berish ko'nikmasi rivojlantiriladi- Mantiqiy va tizimli nutq shakllanadi	Yuqori sinf o'quvchilari uchun maxsus bahs strategiyalari, vaqt chegaralari va rol taqsimoti qo'llanadi
5	<b>Loyihaviy ta'lim (Projektarbeit)</b>	Mustaqil izlanish, taqdimot qilish va madaniy kompetensiyani rivojlantirish	- Germany madaniyati haqida loyiha- Johann Wolfgang von Goethe ijodi haqida taqdimot- Loyiha hisobotlari	- Mustaqil fikrlash ko'nikmasi rivojlantiriladi- Nutqni mantiqiy va izchil bayon qilish- Madaniy bilim oshadi	Loyihalar guruhda yoki individual bajarilishi mumkin, natija taqdimot orqali baholanadi

Nemis tili darslarida o'zaro muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Jumladan, juftlik va kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi hamda ularni mustaqil fikr bildirishga undaydi. Metodik tadqiqotlarda juftlik va guruh ishlari o'quvchilarning nutq vaqtini ko'paytirishi va tilni faol qo'llashga undashi ta'kidlangan [4,213]. Jeremy Harmer fikriga ko'ra, juftlik va guruh ishlari

o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda o'rganish jarayonini kuchaytiradi hamda muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Rolli o'yinlar ham o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular kundalik hayotdagi vaziyatlarni modellashtirish orqali o'quvchilarning nutq erkinligini shakllantiradi, psixologik to'siqlarni kamaytiradi va tezkor nutqni rivojlantiradi. Masalan, do'konda xarid qilish, mehmonxonada ro'yxatdan o'tish yoki shifokor bilan suhbat kabi vaziyatlar o'quvchilarning tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Wolfgang Gering ta'kidlaganidek, rolli o'yinlar o'quvchilarga real hayotiy muloqotga yaqin sharoitda tilni qo'llash imkonini beradi [5,174].

Yuqori bosqichlarda munozara va debat metodlaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bahs jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini asoslab berishga, dalillar keltirishga va qarshi fikrga munosabat bildirishga o'rganadilar. Bu esa nafaqat nutqiy faollikni, balki tanqidiy fikrlash va mantiqiy bayon qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Loyihaviy ta'lim ham muloqot kompetensiyasini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. O'quvchilar Germaniya madaniyati, shaharlari yoki Yoxan Wolfgang Gyote kabi buyuk adiblar ijodi haqida loyiha tayyorlash jarayonida mustaqil izlanadi, ma'lumotlarni tahlil qiladi va taqdimot qilish orqali og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ham zamonaviy nemis tili darslarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Autentik videomateriallar, podkastlar, onlayn suhbat platformalari va virtual ekskursiyalar o'quvchilarga tabiiy til muhitini yaratadi. Bunday vositalar eshitish, tushunish va tezkor javob qaytarish malakalarini mustahkamlaydi, dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Xulosa qilib aytganda, nemis tili darslarida o'zaro muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish tizimli, maqsadli va interaktiv metodlarga asoslangan yondashuvni talab etadi. Kommunikativ yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi hamda tilni amaliy qo'llash darajasini yuksaltiradi. Shunday ekan, zamonaviy pedagog o'z faoliyatida innovatsion va interaktiv metodlarni uyg'unlashtirgan holda, nemis tilini o'qitish jarayonini samarali tashkil etishi zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hymes D. On Communicative Competence. Harmondsworth: Penguin, 1972. – 293 p.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1980. – P 2-43.
3. Richards J., & Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014. – 270 p.
4. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. London: Pearson, 2015. – 327 p.
5. Gehring W. Fremdsprache Deutsch unterrichten. Bad Heilbrunn: Verlag Julius Klinkhard, 2018. – 258 s.

UO'K 37.02:81'24

### CHET TILI TA'LIMIDA TIL O'RGANISH USLUBLARI VA STRATEGIYALARI ROLINING VAZIFAGA ASOSLANGAN KEYWORD TUSHUNCHASINING ILMIY METODIK TALQINI

*D.X.Sobirjonova, magistrant, Namangan Davlat Chet Tillari Instituti, Namangan*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada chet tili ta'limida o'quvchilarning til o'rganish uslublari va strategiyalarining o'rni hamda ularni dars jarayonida to'g'ri yo'naltirishning metodik asoslari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor vazifaga asoslangan yondashuv doirasida "keyword" ( kalit so'zlar ) tushunchasining til o'rganishga ta'siri va uni qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ushbu maqolaning dastlabki qismi o'quvchilarning til o'rganish uslublari tahlil qiladi va o'rganuvchilar duch keladigan turli muammoli vaziyatlar to'g'risida ma'lumot beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – o'quvchilarning tilni mustaqil va ongli ravishda samarali o'rganish strategiyalarini aniqlash va ularni EFL ( ingliz tilini chet tili sifatida o'qitiladigan ) darslarda amaliy qo'llash bo'yicha tavsiyalar berishdir. Maqolada kuzatish, tahlil, taqqoslash va amaliy misollar asosida yondashuv yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** *Til oʻrganish uslubi, Vazifaga asoslangan til oʻrgatish (TBLT), Felder-Silverman oʻrganish uslublari (FSLSM), Kognitiv strategiyalar, metakognitiv strategiyalar, vizual til oʻrganish.*

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль стилей и стратегий изучения языка учащимися в процессе обучения иностранным языкам, а также методические основы их правильного направления в учебном процессе. Основное внимание уделяется влиянию концепции «ключевое слово» в рамках заданию-ориентированного подхода и разработке рекомендаций по её применению в изучении языка. В начальной части статьи рассматриваются стили изучения языка учащихся и даётся информация о различных проблемных ситуациях, с которыми они могут столкнуться. Основная цель исследования — определить эффективные стратегии самостоятельного и осознанного изучения языка и предложить практические рекомендации по их применению на занятиях по английскому языку как иностранному (EFL). В статье представлен подход, основанный на наблюдении, анализе, сопоставлении и практических примерах.

**Ключевые слова:** *Стиль изучения языка, Обучение языку на основе выполнения задач (TBLT), Модель стилей обучения Фелдера-Сильвермана (FSLSM), Когнитивные стратегии, Метакогнитивные стратегии, Визуальное изучение языка.*

**Abstract.** This article analyzes the role of students' language learning styles and strategies in foreign language education, as well as the methodological foundations for effectively guiding them during the learning process. The main focus is on examining the impact of the "keyword" concept within the framework of a task-based approach and developing recommendations for its application in language learning. The initial part of the article explores students' language learning styles and provides insights into various problematic situations they may encounter. The primary goal of the research is to identify effective strategies for independent and conscious language learning and to offer practical recommendations for their implementation in EFL (English as a Foreign Language) classrooms. The article presents an approach based on observation, analysis, comparison, and practical examples.

**Keywords:** *Language learning style, Task-Based Language Teaching (TBLT), Felder-Silverman Learning Styles Model (FSLSM), Cognitive strategies, Metacognitive strategies, Visual language learning.*

**Kirish.** Bugungi globalashuv jarayonida chet tillarini oʻrganish nafaqat qulay va osonlik bilan amalga oshirilishi balki zamonaviy taʼlim texnologiyalari va metodlar asosida oʻquvchilarni til oʻrganishga yoʻnaltirishni talab qiladi. Ayniqsa, til oʻrganish uslublari ( Learning styles) va strategiyalarining ( learning strategies ) oʻrni taʼlim jarayonida tobora dolzarblashib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, vazifaga asoslangan yondashuv ( Task-based approach ) va uning tarkibiy qismi sifatida “ keyword” tushunchasi til oʻrganishda alohida metodik ahamiyat kasb etadi. Til oʻrganish jarayonida keyword (asosiy soʻz) tushunchasi juda muhim ahamiyatga ega. Asosiy soʻzlar matnning markaziy mazmunini anglashga yordam beradi va oʻquvchiga matn tuzilishini tushunishga yoʻl ochadi. Oʻquvchilar matnda uchraydigan asosiy soʻzlarni aniqlab, ularni eslab qolishga harakat qilishadi, bu esa ularning oʻqish, tinglab tushunish va hatto yozish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, keyword-larni ajrata olish oʻzlashtirish samaradorligini oshirib, yangi soʻzlarni kontekstda oʻrganishga imkon yaratadi. Til oʻrganishda bu yondashuv til egallash jarayonini tezlashtiradi va yanada samaraliroq qiladi. Badiya Hakim (Saudiya Arabistoni , Qirol Abdulaziz Universiteti Ingliz tili Instituti, International Journal of Applied Linguistics & English Literature Vol. 4 No. 3; May 2015 ) oʻz maqolasida, Saudiya Arabistonidagi Chet Tili sifatida Ingliz Tili (EFL) sinflarida Vazifaga Asoslangan Til Oʻrgatish (TBLT)ning muvaffaqiyatida oʻrganish uslublarning oʻrni ( “ The Role of Learning Styles in the Success of TBLT in EFL Classrooms in Saudi Arabia” ) tadqiqotida Saudiya Arabistoni kontekstidagi chet tili sifatida ingliz tilini oʻqitish (EFL) sinflarida Vazifaga Asoslangan Til Oʻrgatish (TBLT)ni samarali tatbiq etishda oʻquvchilarning oʻrganish uslublarning muhim rolini koʻrsatdi. Felder-Silverman oʻrganish uslublari modeli (FSLSM) asosida darsdagi vazifalarni loyihalash va amalga oshirish, taʼlimni oʻquvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishga yordam berdi va shu orqali ularning faolligi va motivatsiyasini oshirdi. Vazifaga

asoslangan til o'qitish (TBLT) an'anaviy PPP uslubiga nisbatan o'quvchi markazli va kommunikativ yondashuvni taklif etadi.

Biroq, u EFL (ingliz tili chet tili sifatida) kontekstlarida talabalar past til bilish darajasiga ega bo'lgani va imtihonlarga tayyorgarlikka e'tibor qaratilgani sababli samaradorligi cheklanishi mumkin (Ellis, 2000; Littlewood, 2004, 2007; McDonough & Chaikitmongkol, 2007; Nunan, 2004, 2006; Van den Branden, 2006; Willis & Willis, 2007). Ayniqsa, o'quvchilarning individual o'quv uslublari ularning vazifalarga qanday yondashishini sezilarli darajada belgilaydi.

**Adabiyotlar sharhi.** O'qitish amaliyotini o'quvchilarning individual o'ziga xos til o'rganish uslublari va strategiyalari til o'rganish yutuqlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, til o'rganish jarayonida individual o'rganish uslublari aniqlash va ularga mos metodlarni tanlash o'qituvchi uchun zaruriy pedagogik yondashuv bo'lib, u ta'lim sifati va o'quvchilar muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu natija avvalgi tadqiqotlarda ham, individual afzal ko'rilgan o'rganish uslublari akademik natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi tasdiqlangan (Griffiths, 2012; Magdalena, 2015). Xususan, vizual o'rganish uslubi va kognitiv strategiyalarning qo'llanishi til o'rganish yutuqlariga kuchli ta'sir o'tkazgan omillar bo'lgan (Tabatabaei va Mashayekhi, 2013; Rezaeinejad, Azizifar va Govhari, 2015). Shuningdek, Naserieh va Anani Sarab (2013) tadqiqotlariga ko'ra jinslar o'rtasida strategiyalar va uslublardan foydalanishda sezilarli farq borligi aniqlangan. Unga ko'ra ayol talabalar ko'proq kognitiv strategiyalarga va uslublardan foydalanishni, erkak talabalar esa asosan metakognitiv strategiyalar va visual o'rganish uslubini afzal ko'rgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'zlariga xos o'rganish uslublari o'qituvchining dars berish uslubi bilan mos kelmaganda, bu o'zlashtirish darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Biroq, moslik mavjud bo'lganda o'quvchilar faolroq, motivatsiyaga to'la va test natijalari yaxshilanadi. (Claxton & Ralston, 1978; Gilakjani, 2012). Boshqa tadqiqotlarda ham, (Angela & Rochford, 2007; Komarraju, 2011) o'rganish va o'qitish uslublarning mos kelishi o'quvchining akademik yutuqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Ammo ba'zilar (Reid, 1987; Tight, 2010) bu moslik natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan xulosaga kelgan, yani boshqa motivatsiya, strategiya va muhit kabi omillar ham muhim ekanini tasdiqlaydi. Umuman olganda, Oxford (1990, 2003) natijalariga ko'ra, ongli ravishda strategiyalardan foydalanish o'rganish samaradorligini oshirishini va o'z o'rganish uslubini anglash o'qish jarayonini optimallashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Metodologiya.** Ushbu jarayonda "Integratsiyalashgan model" dan foydalanildi. Avval o'quvchilarning til o'rganish uslublari (visual, audial, kinestetik) test asosida aniqlanadi. (Felder-Silverman, 1988; Felder & Soloman, 1997).

Bu jarayon uchun Namangan Uychi tuman 31 maktabning 9 B sinf 1 guruhi (15 ta o'quvchi) va 9 D sinfning 1 guruhi (12 ta o'quvchi) tanlab olindi va keyingi 4 hafta davomida (1.04.2025 dan 3.05.2025 gacha) sinov darslari olib borildi. 9 B va 9 D sinf 2 guruhlariga esa an'anaviy darslar olib borildi.

O'rganuvchilar o'rganish uslublari aniqlash uchun FSLSM so'rovnomasidan foydalanamiz:

1. Men yaxshiroq tushunaman
  - Bajarib ko'rsam - Nazariyani o'qisam
2. Kecha bo'lgan voqealarni o'ylaganimda asosan
  - Rasm orqali o'ylayman
  - So'zlar orqali o'ylayman Va shu kabi savollar orqali.

So'ngra har bir o'rganuvchiga moslangan tizimli mashg'ulotlar yordamida o'qitish jarayoni boshlanadi. "Strategik Keyword Tasks" – Til o'rganish strategiyalariga asoslangan kalit so'zli topshiriqlar metodikasidan foydalanamiz. Kalit so'zlar (keywords) – bu tilning semantik asoslarini anglatadi. Vazifaga asoslangan yondashuv (TBLT) esa – tilni haqiqiy kontekstda ishlatishga undaydi. Uslublar va strategiyalar esa – o'quvchining tilni qanday o'zlashtirishi va boshqarishini belgilaydi.

Metodika maqsadi: 1. O'quvchining individual o'rganish strategiyalarini (metakognitiv, kognitiv, ijtimoiy) faollashtirish. 2. Kalit so'zlar orqali tilning semantik, kontekstual va funksional ishlatilishini o'rgatish. 3. Til o'rganishni real kommunikativ topshiriqlar orqali mustahkamlash. Strategiyalarga mos topshiriqlar guruhlariga bo'linadi.

1. Kalit so'zlarni strategik tanlash (Keyword Mapping):

Har bir dars mavzusiga oid 6–10 ta kalit so‘z ajratiladi.

Har bir kalit so‘z atrofida semantic network (semantik tarmoq) yoki keyword map tuziladi. Har bir o‘quvchi o‘z strategiyasiga mos tarzda bu so‘zlarni eslab qolish uchun shaxsiy usul ishlab chiqadi (vizual kartochka, eslatma, metafora, harakatli ifoda).

2. Vazifa asosidagi faoliyatlar (Task-based Production):

Kalit so‘zlar asosida quyidagi topshiriqlar beriladi: Speaking tasks: Kalit so‘zlar ishlatilgan munozara, rolli o‘yinlar. Writing tasks: Kalit so‘zlar asosida insho, blog, yoki e-mail yozish (yuqori sinflarda), shu so‘zlar ishtirokida diktantlar yozish va kichik hikoyalar tuzish (boshlang‘ich sinflarda). Listening/Reading tasks: Matnlarda kalit so‘zlarni kontekstda aniqlash, sharhlash. Problem-solving tasks: Kalit so‘zlarga asoslangan muammoli vaziyatni hal qilish.

3. Refleksiya va strategik baholash (Post-task Reflection): O‘quvchilar til o‘rganish paytida qaysi strategiyalar samara berganini aniqlaydi. Har bir topshiriqdan so‘ng metakognitiv jurnal yoki til kundaligi to‘ldiriladi: “Qanday strategiyani qo‘lladim?”, “Qaysi so‘zlar menga qiyin bo‘ldi?”, “Nega?” Yuqorida ko‘rsatilgan jarayonlar to‘rt hafta davom etdi, 19-aprelda boshlangan va 21-mayda yakunlangan. Tadqiqot obyekti Namangan viloyati, Uychi tumani, 31-maktab edi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning oldindan mavjud bilimlari va ular afzal ko‘radigan o‘rganish uslublari aniqlangandan so‘ng, materiallar tarqatilib, tahlil qilindi. O‘quvchilarning katta qismi (9 B sinfda taxminan 73% (15 ta o‘quvchidan), 9 D sinfda 75% (12 ta o‘quvchidan) Vizual o‘rganish uslubini (Visual learning style) afzal ko‘rdi. Shuning uchun tajriba guruhi o‘quvchilariga dars jarayonida asosan video lavhalar, musiqa va dialoglar taqdim etildi. O‘qituvchilarning fikrini aniqlash uchun ular onlayn viktorinada ishtirok etib, javoblarini yuborishlari so‘raldi. O‘quvchilarning o‘rganish darajasini aniqlash uchun so‘nggi texnika vositalaridan (electron doska, telefon va computer) va qog‘oz shaklidagi test va so‘rovnoma ishlatildi.

**Tahlil.** Tadqiqotda ma‘lumotlar ingliz tilidan umumiy tayyorgarlik darajasi va so‘rovnoma natijalari asosida tahlil qilindi. 9-sinf o‘quvchilari va o‘qituvchilarning javoblari jadval ko‘rinishida berildi. Tadqiqot boshlanishida o‘quvchilarning individual o‘rganish uslublari aniqlanib, ular orasida vizual (ko‘rish orqali) o‘rganuvchilar ustunlik qilishi ma‘lum bo‘ldi. Xususan: 9-“B” sinfda 73% o‘quvchi vizual o‘rganish uslubini afzal ko‘rishi aniqlangan; 9-“D” sinfda esa bu ko‘rsatkich 75% ni tashkil etdi. Ushbu ma‘lumotlarga tayanib, eksperimental mashg‘ulotlarda vizual materiallarga asoslangan topshiriqlar (kalit so‘zli diagrammalar, video, tasviriy matnlar, grafik asosidagi mashqlar) asosiy o‘quv vositasi sifatida tanlandi. Eksperiment davomida o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Jumladan:

Sinf	Vizual o‘rganish uslubini tanlaganlar (%)	Boshlang‘ich o‘zlashtirish (%)	Yakuniy o‘zlashtirish (%)	O‘sish foizi (%)
9 “B”	73 %	33.3 %	60 %	+ 26.7 %
9 “D”	75 %	41.6 %	66.6 %	+ 25.0

9-“B” sinfda dastlabki 33,3% o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 60% ga ko‘tarildi; 9-“D” sinfda esa o‘zlashtirish 41,6% dan 66,6% ga yetdi. Bu esa vazifaga asoslangan yondashuv va kalit so‘zli o‘qitish metodikasi vizual o‘rganuvchi o‘quvchilar uchun samarador ekanligini ko‘rsatadi.

**Natijalar.** Vizual o‘rganuvchilarning ulushi yuqori bo‘lganligi sababli tajriba guruhlarida vizual materiallarga asoslangan “Strategik Keyword Tasks” metodikasi asosida ta‘lim tashkil etildi. Turli o‘quvchiga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tufayli yil yakuni (odatda maktab o‘quvchilari o‘quv yili yakunida, aprel-may oylarida o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yo‘qotadilar.) bo‘lishiga qaramay o‘quvchilar qiziqishlarini yo‘qotmadilar.

**Muhokama.** Ushbu tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, individual o‘rganish uslublari hisobga olgan holda tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning motivatsiyasi va o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Vizual o‘quvchilar uchun vizual resurslar (diagrammalar, videolar, grafikalar) va kalit so‘zlar asosidagi topshiriqlar semantik tarmoqni shakllantirish, eslab qolish va tushunishni osonlashtiradi. Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, Felder–Silverman modeliga asoslangan o‘rganish uslublari hisobga olish, ayniqsa TBLT kabi kommunikativ metodlar bilan uyg‘unlashganda, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlaydi va bilimni chuqurlashtiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning o‘z strategiyalarini anglab yetishlari (metakognitiv yondashuv) mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi. Tajriba natijalari avvalgi tadqiqotlar bilan (Griffiths, 2012; Tabatabaei &

Mashayekhi, 2013) hamohang bo'lib, strategik yondashuv va mos metodik ta'lim orqali til o'rganish jarayonining samaradorligini oshirish mumkinligini tasdiqlaydi. Shu bois, ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishda kalit so'zlarga asoslangan vazifa yondashuvi va o'quvchilarning o'ziga xos o'rganish uslublariga mos metodlarni qo'llash dolzarb va metodik jihatdan asosli yondashuv hisoblanadi. Biroq, o'quvchilarning o'rganish uslublari har xil bo'lgan guruhlarda samarali o'quv muhiti yaratish va ularga mos materiallarni tanlashda o'qituvchilar muayyan qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bundan tashqari, agar o'qituvchi har bir o'quvchi uchun mos topshiriqlarni tanlashga muvaffaq bo'lsa ham, oddiy maktab darslarida vaqt yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda, eng yaxshi natijalarga erishish uchun o'qituvchi ko'pchilik o'quvchilar tomonidan afzal ko'riladigan til o'rganish uslubi va strategiyasiga mos materiallardan foydalanishi mumkin.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, til o'rganishda o'quvchilarning individual o'rganish uslublariga mos metodik yondashuvlarni qo'llash, xususan vazifaga asoslangan yondashuv (TBLT) va kalit so'zlar asosidagi strategik topshiriqlar o'quvchilarning tilni egallash jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Til o'rganishda kalit so'zlarni aniqlash, ularni kontekstda qo'llay olish va semantik tarmoqlar orqali eslab qolish o'quvchining so'z boyligini oshiradi, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda tilni funksional darajada qo'llashga zamin yaratadi. Shunga qaramay, butun sinfdagi o'quvchilar o'rganish uslublari turlicha bo'lishi mumkin va bu o'rganish jarayonida o'qituvchiga noqulaylik tug'diradi, o'rganish darajasiga ta'sir qiladi. Hatto o'qituvchi har bir o'quvchi uslubiga mos mashqlar qollaganda ham natija 100 % bo'lishi qiyin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Felder, R. M., & Silverman, L. K. (1988). Learning and Teaching Styles in Engineering Education). Engineering Education, 78(7), 674–681.
2. Brown, H. D. (2007). Til o'rganish va o'rgatish qoidalari (Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). Pearson Education).
3. Larsen-Freeman, D. (2000). Til o'rgatishda texnikalar va qoidalar (Techniques and Principles in Language Teaching) (2nd ed.). Oxford University Press.
4. Tomlinson, B. (2013). Til o'rgatish uchun materiallarni rivojlantirish( Developing Materials for Language Teaching) (2nd ed.). Bloomsbury Academic.
5. Oxford, R. L. (1990). Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. Newbury House Publishers.
6. Schmitt, N. (2000). Til o'rgatishda lug'at(Vocabulary in Language Teaching). Cambridge University Press.

UDC 372.881.111.1

### EFFECTIVE LESSON PLANNING STRATEGIES FOR TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS

*O.H.Sobirova, trainee teacher, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University, Tashkent*

**Annotatsiya.** *Ingliz tilini o'rganayotgan yoshlar uchun darslarni samarali rejalashtirish aniq maqsadlar, yoshga mos mazmun, qiziqarli formatlar va shakllantiruvchi baholash o'rtasidagi muvozanatni talab etadi. Ushbu qisqacha maqolada o'quvchilarning rivojlanish ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'yadigan strategiya tasvirlangan: til ko'nikmalari (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) bilan bog'liq aniq, o'lchanadigan maqsadlar qo'yiladi va bolalarning diqqat darajasiga mos keladigan qisqa, xilma-xil mashg'ulotlar ishlab chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *darsni rejalashtirish, yosh o'quvchilar, ESL/EFL, o'quv maqsadi, o'quv natijalari, yoshga mos materiallar, ko'p sensorli kiritish.ish uchun ko'p sensorli ma'lumotlardan - qo'shiqlar, hikoyalar, imo-ishoralar, vizual effektlar va amaliy topshiriqlardan foydalaning.*

**Аннотация.** *Эффективное планирование уроков для молодых людей, изучающих английский язык, требует баланса между четкими целями, соответствующим возрасту содержанием, увлекательными форматами и формирующей оценкой. В этом кратком изложении описывается стратегия, в которой во главу угла ставятся потребности учащихся в развитии: ставятся конкретные, поддающиеся измерению цели, связанные с языковыми навыками (аудирование, говорение, чтение, письмо), и разрабатываются короткие, разнообразные занятия, которые соответствуют уровню внимания детей.*

*Используйте мультисенсорную информацию — песни, истории, жесты, визуальные эффекты и практические задания - для обучения лексике и структурам, а также для формирования нового языка с помощью моделирования, повторения и поэтапной поддержки.*

**Ключевые слова:** планирование урока, молодые учащиеся, ESL/EFL, цель обучения, результаты обучения, соответствующие возрасту материалы, мультисенсорный ввод.

**Abstract.** *Effective lesson planning for young English learners requires a balance of clear goals, age-appropriate content, engaging formats, and formative assessment. This abstract outline strategy that place learners' developmental needs at the centre: set specific, measurable objectives tied to language skills (listening, speaking, reading, writing) and design short, varied activities that match children's attention spans. Use multisensory input—songs, stories, gestures, visuals, and hands-on tasks—to teach vocabulary and structures, and scaffold new language with modelling, repetition, and graded support.*

**Keywords:** *Lesson planning, young learners, ESL/EFL, learning objective, learning outcomes, age-appropriate materials, multisensory input.*

**Introduction.** The teaching of English as a foreign language to young learners (YLs) has expanded globally, creating a critical demand for educators who are not only linguistically proficient but also skilled in age-appropriate pedagogy. The success of foreign language instruction in primary schools is heavily dependent on teachers' professional preparation and their ability to translate theory into practice. Effective lesson planning is a cornerstone of this process; it is a crucial skill that transforms teaching from a simple transfer of information into a dynamic and engaging learning experience, ensuring that students can make good progress.

However, planning for young learners (typically aged 6–12) presents unique challenges. Unlike teaching adolescents or adults, instructors must consider the cognitive, affective, and psychomotor characteristics of children. They require safe, supportive, and motivating environments where language learning can flourish. Teachers often face difficulties in selecting and designing activities that not only teach language forms but also actively engage learners, activate their prior knowledge, and allow them to express their thoughts. Furthermore, many primary school teachers, particularly those without a specialized English language education background, struggle with designing effective lesson plans and adapting methods to accommodate diverse student needs and limited classroom time.

